5. Shuningdek, sabablar nevrologik yoki ruhiy kasalliklarning mavjudligi, spirtli ichimliklarni, giyohvand moddalarni iste’mol qilish, dopamin gormonini rag‘batlantirish va ishlab chiqishni buzish bo‘lishi mumkin.

Dangasalik-kimnidir qilishi mumkin bo’lgan ishni, ongli holatda qilishni istamasligid-ir.Yuqoridagi ta’riflardan kelib chiqqan holatda, dangasalik bu umuman hech nimani qilmaslikdir

degan xulosaga kelinadi. Dangasa inson energiyasini ishlatmaydi. Nimanidir qilishi mumkin, ammo uni qilishni hattoki hayoliga ham olib kelmaydi. Bugungi kunda dunyo olimlari dangasalik tushunchasini ko'p ham tekshirmaydilar. Chunki uni aniq diagnoz qilishning iloji yo'q.

Psixologik nuqtai nazardan dangasalikni motivatsiya, ijro etuvchi funksiyalar va neyrotransmitterlarning roli kabi tushunchalar orqali tushunish mumkin. Bu ko'pincha mukofotning sezgirligi va maqsadni belgilash kabi omillar ta'sirida vazifani bajarish uchun ichki yoki tashqi motivatsiyaning yetishmasligini o'z ichiga oladi.

Dangasalik sa'y-harakatlarni boshlash va qo'llab-quvvatlashdagi qiyinchiliklar, shuningdek, vazifalarni tashkil etish va ustuvorliklarni belgilashdagi qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish, past samaradorlik yoki uzoq muddatli foydadan ko'ra darhol mukofotlarni afzal ko'rish kabi psixologik omillar mehnatsevar harakatlardan qochish tendensiyasiga yordam beradi.

Dopamin kabi neyrotransmitterlar mativatsiya va mukofotni qayta ishlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Dangasalik ushbu neyrotransmitterlardagi nomutanosiblik bilan bog'liq bo'lishi mumkin, bu odamning zavqlanish qobiliyatiga yoki vazifalardan motivatsiya olishiga ta'sir qiladi.

Dangasalikni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar quyidagilar hisoblanadi:

-Motivatsiyaning pastligi, bu dangasalikka sabab bo'ladigan eng asosiy omillardan biri;
-Maqsadning aniq emasligi;
-Ma'suliyat va javobgarlikdan qo'rqish;
-Keraksiz tanlovlar;
-Mag'lub bo'lishdan qo'rqish;
-Depressiya;
-Qaror qabul qila olmaslik;
-Toliqish-Yaxshi ovqatlanmaslik, kerakli vitaminlarni iste'mol qilmaslik;
-O'z o'zini qadrlamaslik;
-Boshqa odamlarga bog'liqlik;
-Qiladigan ishning ko'p bo'lishi ham, dangasalikka sabab bo'ladi;
-Energiya yetishmasligi; kabi omillar dangasalikning shakllanishiga olib keladi.

L.Mixaylova dangasalik shaxsiy o'sish va yutuqlarga to'sqinlik qilishi mumkin deb hisoblaydi. U dangasalikni yengish va o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun intizom va faol fikrlashni rivojlantirishga undaydi.

L.Mixaylova dangasalikning uchta tarkibiy qismini (o'quv faoliyati bilan bog'liq holda) aniqlaydi.

1. Motivatsion komponent: o'quv faoliyati uchun motivatsiya yo'qligi yoki zaif motivatsiya;
2. Xulq-atvor komponenti: zaruriy faoliyatni bajarmaslik;
3. Hissiy komponent: ta'lim faoliyatida talablarni bajarmaslik haqidagi befarqlik yoki ijobiy his-tuyg'ular;

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dangasa odamlar dangasa bo'lmaganlarga qaraganda ko'proq quyidagi tendensiyalarga ega: o'zini-o'zi qat'iyatlilikka past baho berish; muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik istagi; faoliyatda o'zini o'zi boshqarishning pastligi; zaif asab tizimi; ichki muvozanat nuqtai nazaridan muvaffaqiyat uchun motivatsiyaning pastligi.

Umuman olganda dangasalikni kechiktirilgan harakat deb aytishimiz mumkin. Kechiktirish doimiy rekursiv hodisa sifatida ong ostiga singib ketgan Shunday qilib, dangasalik deb ataladigan narsa motivatsiyaga ham, iroda kuchiga ham bog'liq bo'lib, ular kuchli yoki zaif asab tizimi kabi tabiiy moyilliklarning mavjudligi, ichki muvozanatga ko'ra qo'zg'alish bilan belgilanadi.

Odamda dangasalik va befarqlikni qanday yengish mumkin, agar ular tushkunlik alomati, hech narsani o'zgartirishni xohlamaslik, odatiy turmush tarzi, tarbiya yoki kasallik merosi bo'lsa? Keyin tekshirish yoki davolanish uchun tibbiyot sohasidagi zarur mutaxassislar bilan bog'lanish, amaliyotchi psixolog, psixoterapevt bilan ishlash tavsiya etiladi.

Xulosa dangasalikni kechiktirilgan harakat deb aytishimiz mumkin. Kechiktirish doimiy rekursiv hodisa sifatida ong ostiga singib ketgan.

Dangasalik muammosi va uning sabablari nuqtai nazaridan ehtiyojlarning eng muhim xususiyati shundaki, ular ham jismoniy, ham ruhiy energiya manbai hisoblanadi. Faoliyatimiz va xulq-atvorimiz

hozirgi ehtiyojimizga mos keladigan bo‘lsa, bizda bu faoliyatni amalga oshirishda hech qanday muammo bo‘lmaydi: na dangasalik, na zerikish, na kechiktirish, na ajralishning boshqa shakllari va muqarrarni kechiktirishga urinishlar kabi.

Dangasalik turli xil psixologik omillar, jumladan motivatsiya yetishmasligi, muvaffaqiyatsizlik qo'rquvi, o'zini past baholash yoki hatto ruhiy tushkunlik kabi ruhiy salomatlik muammolaridan kelib chiqishi mumkin. Bu ko'pincha uzoq muddatli maqsadlardan ko'ra darhol qoniqishni afzal ko'rishni o'z ichiga oladi, bu esa kechiktirishga va vazifalardan qochishga olib keladi.

Ushbu asosiy omillarni tushunish dangasalikni bartaraf etish va uni yengish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Михайлова Е.Л. 2010. Лень в представлениях обыденного сознания. Москва. Издательство СПбГУ.

2. Коростылева Е. А. Психологические проблемы самосознания личности. Москва. Издательство СПбГУ. 2004.

3. Михайлова Е.Л. Ситуативные и личностные детерминанты лени. Москва. 2007.

4. Nigel Benson. 2011. The psychology book: big ideas simply explained. Columbia. Publisher DK

5. Коростылева Е. А. Психологическая проблема самосознания личности. Москва. Издательство СПбГУ. 2004.

Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna
Alfraganus universiteti professori,
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

O‘SMIR FARZAND IJTIMOIY IDROK JARAYONIGA ONA BILAN MUNOSABATNING TA’SIR XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlar masalasi insoniyat jamiyati taraqqiyotining eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib kelgan. Chunki odamzod erishgan hayotiy tajriba, bilim, malaka, ko‘nikmalar avloddan avlodga aynan ana shu munosabatlar tizimi - ona va bola munosabatlari orqali uzatiladi. Onaning bola shaxs bo‘lib shakllanishidagi beqiyos katta rolini kundalik hayotdan olingan ko‘plab misollar alohida odamlarning taqdiri tavsilotlari darajasida ham isbotlash qiyin emas. Biroq inson psixik rivojlanishi jarayoniga ona bilan bo‘lgan munosabat ta’sirining ichki mexanizmlarini aniqlash maxsus psixologik tadqiqotlarni taqozo etadi. Mazkur maqolada ona-bola munosabatlari psixologiyasini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning nazariy tahlili keltirilgan, ona va farzand munosabatlari xususiyatlarini o‘rganishning ilmiy-metodik jihatlari, ona bilan bo‘lgan munosabatlarning o‘smir ijtimoiy persepsiya jarayonlariga ta’sir ko‘rsatish xususiyatlari yoritilgan, shuningdek bu xususiyatlarning empirik o‘rganish natijalari keltirilgan. Sinaluvchilaridan olingan miqdoriy ko‘rsatkichlar alohida shkalalar kesimida avval chastotali, so‘ngra korrelyatsion tahlil qilingan, korrelyatsion tahlil natijalarining ko‘rsatkichlari sharhlangan.*

Kalit so‘zlar: *oila, munosabat, yondashuv, xususiyat, ona-bola munosabatlari, yaqin olish, kooperatsiya, simbioz, avtoritarizm, infantilizatsiya, ijtimoiy persepsiya, shaxslararo munosabat, guruhni idrok etish.*

CHARACTERISTICS OF THE INFLUENCE OF THE RELATIONSHIP WITH THE MOTHER ON THE SOCIAL COGNITIVE PROCESS OF A TEENAGE CHILD

Abstract. *The relationship between mother and child has been one of the most urgent problems of the development of human society. Because the life experience, knowledge, skills, and skills gained by mankind are transmitted from generation to generation through this system of relations - mother and child relations. It is not difficult to prove the incomparably large role of the mother in the formation of a child as a person by many examples taken from everyday life, even at the level of details of the fate of individual people. However, determining the internal mechanisms of the influence of the relationship with the mother on the process of human mental development requires special psychological research. This article presents a theoretical analysis of the research conducted on the study of the psychology of mother-child relations, the scientific-methodical aspects of studying the characteristics of mother-child relations, the influence of relations with the mother on the processes of adolescent social perception. display features are highlighted, as well as the results of empirical study of these features. Quantitative indicators obtained from the testers were first analyzed by frequency and then by correlation in the section of separate scales, and the indicators of the results of correlation analysis were interpreted.*

Key words: *family, relationship, approach, trait, mother-child relationship, attachment, cooperation, symbiosis, authoritarianism, infantilization, social perception, interpersonal relationship, group perception types, individualistic type, collectivistic type, pragmatic type.*

ОСОБЕННОСТИ ВЛИЯНИЯ ОТНОШЕНИЯ С МАТЕРЬЮ НА ПРОЦЕСС СОЦИАЛЬНОГО ВОСПРИЯТИЯ РЕБЕНКА-ПОДРОСТКА

Аннотация. *Вопрос взаимоотношений матери и ребенка всегда был одной из актуальнейших проблем развития человеческого общества. Потому что жизненный опыт, знания, умения, навыки, достигнутые человечеством, передаются из поколения в поколение именно через эту систему отношений - отношения матери и ребенка. Несложно доказать несравненно большую роль матери в становлении ребенка как личности на многих примерах из повседневной жизни даже на уровне деталей судьбы отдельных людей. Однако выявление*

внутренних механизмов влияния взаимоотношений с матерью на процесс психического развития человека требует специальных психологических исследований. В данной статье представлен теоретический анализ исследований по изучению психологии отношений мать-ребенок, освещены научно-методические аспекты изучения особенностей отношений мать-ребенок, особенности влияния отношений с матерью на процессы подростковой социальной перцепции, а также результаты эмпирического исследования этих особенностей. Количественные показатели, полученные от испытуемых, подвергались сначала частотному, а затем корреляционному анализу в разрезе отдельных шкал, при этом интерпретировались показатели результатов корреляционного анализа.

Ключевые слова: *семья, отношение, подход, характеристика, отношения матери и ребенка, близость, кооперация, симбиоз, авторитаризм, инфантилизация, социальная персепция, межличностные отношения, групповое восприятие.*

Kirish qism (Introduction). Insoniyat tarixining hozirgi bosqichida oila instituti o‘z zimmasidagi vazifalarni qanchalik to‘liq hamda mukammal bajarishi davlat va jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti hamda xavfsizligining asosiy shartlaridan biri sifatida gavdalanmoqda. Jahonda global integratsiya va axborotlashuv jarayonlarining tobora chuqurlashib borishi tufayli insonlar ijtimoiy hayotida oila institutiga oid tasavvurlarning o‘zgarishi kuzatilmoqda. Jumladan, oilaviy hayotning ijtimoiy-psixologik negizini tashkil etuvchi shaxslararo munosabatlar tizimida an’anaviylikning keskin o‘zgarishi, psixologik muvozanatning zaiflashuvi, ayniqsa, ota-ona va farzand o‘zaro munosabatlarida «begonalashuv sindromi» namoyon bo‘lmoqda.

Jahon ilmiy-tadqiqot muassasalarida ona va bola munosabatlarining ijtimoiy-psixologik asoslariga oid ilmiy izlanishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada oilada bolaga nisbatan sog‘lom munosabatni shakllantirish, ota-ona va bola munosabatlarida begonalashuv, oilaviy zo‘ravonlik, pedagogik qarovsizlik, emosional deprivatsiya va boshqa ko‘rinishdagi salbiy holatlarni psixodiagnostika qilish; ota-ona va bola munosabatlarini psixologik barqarorlashtirish maqsadida psixoprofilaktika tadbirlarini tashkil etish orqali konstruktiv muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish; ota-onalar bilan tegishli psixologik-ma’rifiy, konsultativ faoliyatga qaratilgan chora-tadbirlarni takomillashtirishga yo‘naltirilgan masalalarga e’tibor qaratilmoqda.

Asosiy qism (Main part). Oila va oilaviy munosabatlarning shaxs psixologiyasiga ta’sirini o‘rganish masalasiga doir ilmiy izlanishlar ustuvor yo‘nalishlardan bo‘lib, ular orasida ona-bola munosabatlarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar salmoqli qismni egallaydi. Ona-bola munosabatlari psixologiyasini o‘rganish bo‘yicha dastlabki ilmiy tadqiqotlarda bo‘lganidek hozirgacha bunday aloqaning bola psixik rivojlanishida tutgan o‘rnini ochib berishga qaratilgan izlanishlar salmog‘i ancha katta. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarda ona bilan munosabat xususiyatlari bola psixik taraqqiyotining ayniqsa shaxs sohasi bilan bog‘liq jihatlariga ta’siri kesimida chuqur o‘rganilgan. Jumladan, A.I.Blyum, T.D.Vasilenko ona munosabatining bolada o‘ziga-o‘zi ziyon yetkazishga qaratilgan xatti-harakatlar sodir etilishidagi rolini o‘rgandilar. Ularning aniqlashicha, bola xulq-atvorining sabablarini yaxshi tushunmaslik, uning ehtiyojlariga e’tiborsizlik unda nevrotik alomatlarni kuchaytirishi va o‘ziga o‘zi ziyon yetkazuvchi xatti-harakatlar sodir etishiga olib kelishi mumkin [4].

J.B.Ayusheyeva, M.O.Dorjiyevalarning tadqiqotlari onadagi hamkorlikka tayyorlik hamda ona tomonidan bola muvaffaqiyatsizligiga ijobiy munosabat bildirilishi farzandning o‘ziga-o‘zi beradigan bahosi yuqori bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi [2].

I.A.Borisova bolasiga o‘ta bog‘lanib qolishdan qochadigan onalarning farzandlari tengdoshlar bilan o‘yinda ham emotsional qo‘shila olmasligi, g‘alaba vaqtida hissiyotini oshkora ifodalamasligi kuzatilishini qayd etadi [5].

O.V.Suvorova tadqiqotlarida ona bilan ishonchli bog‘lanishga ega bo‘lgan o‘smirlarda o‘ziga nisbatan ijobiy munosabat, o‘zini-o‘zi obektiv jihatdan tavsiflay olish, xavotirli bog‘lanishga ega bo‘lgan o‘smirlarda aksincha, agressivlik va shubhalanuvchanlik sifatlari rivojalanishi o‘z isbotini topgan [9].

L.A.Bazaleva bo‘yicha bolaga nisbatan bog‘lanishning kuchsiz darajalari odatda onadagi depressiv-xavotirli buzulishlar bilan bog‘lanib kelishi, aksincha, bola rivojlanishidagi ijobiy o‘zgarishlar eyforiya tipidagi kayfiyat bilan ijobiy, salbiy xavotirlanuvchanlik bilan manfiy aloqaga ega bo‘ladi [3].

G.D.Walters o‘tkazgan longityud tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, onaning nazorati va bolada delikvent (jinoiy) xatti-harakatlarning oldini olish darajasi qiz bolalar vaziyatida samarali, ammo o‘g‘il bolalar misolida bunday samara ko‘zga tashlanmaydi. Shunga asosan tadqiqotchilar ona qiz bolani qonunbuzar harakatlardan shaxsiy xulq-atvorini model sifatida namuna qilib ko‘rsatib to‘xtatib qolishi mumkinligini, o‘g‘il bolalar uchun esa shaxsiy namunadan tashqari yana boshqa tarbiyaviy usullar qo‘llanishi zarurati haqida xulosa qilganlar [12].

O‘zbekistonda ham bu yo‘nalishda V.M.Karimova, M.S.Salayeva, G.A.Qurbanova, O‘.B.Shamsiyev, D.U.Abdullayevalarning ilmiy izlanishlarida er-xotin munosabatlarida nizolarining farzandlar psixik rivojlanishiga ta’siri, o‘zbek oilalarida ota-ona va farzand munosabatlariga xos bo‘lgan etnopsixologik xususiyatlari, ona va o‘smir farzand munosabatlarida ijobiy munosabatni shakllantirish masalalari o‘rganilgan[1], [8], [11].

Bu borada olib borilgan tahlillardan ham ko‘rinib turibdiki, oilaviy munosabatlar oila a’zolari o‘zining tegishli moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishi uchun zaruriy shartdir. Aynan o‘zaro muloqot jarayonida oilada insonlar bir-birining xohish istaklarini, kutilmalarini anglaydilar, shunga muvofiq xatti-harakat qiladilar. Shu bilan birga oilaviy munosabatlar inson shaxsidagi eng muhim psixologik tuzilmalarning shakllanishi uchun asosiy omil sifatida gavdalanadi. Ayniqsa, ijtimoiy xulq-atvor, odamlar bilan muloqot va munosabat qurish borasidagi tushuncha hamda tasavvurlar, amaliy ko‘nikmalarning shakllanishida oiladagi shaxslararo o‘zaro ta’sirlashuv tajribasi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Negaki, oilaviy munosabatlar inson uchun hayotning ilk kunlaridan boshlab o‘ziga xos model, namuna vazifasini o‘taydi. Bola ko‘z o‘ngida oila a’zolari o‘rtasida hamda bevosita uning ishtirokida kechayotgan munosabatlar ijtimoiy interaksiyaning o‘ziga xos jonli maktabi, ko‘rgazmali misollarni taqdim etuvchi amaliy tajriba maydoni sifatida namoyon bo‘ladi.

Bola oiladagi shaxslararo munosabatlarni kuzatar ekan, aynan mana shu tajriba asosida katta ijtimoiy olamga, undagi munosabatlarga yuzlanadi, bu yerdagi voqea-hodisalarni, odamlarning xulq-atvorini ushbu prizma ortidan kuzatadi. Mutaxassislar o‘smir bilan munosabatlarda nizo va kelishmovchiliklar ro‘y bergan taqdirda birinchi bo‘lib yarashish tomon aynan katta odam qadam tashlashi kerakligi, shunday qilibgina bolaga bunday vaziyatlarda aslida qanday yo‘l tanlash to‘g‘riligini ko‘rsatish mumkinligini ta’kidlashi ham bejiz emas. Maxsus tadqiqotlarda ham oiladagi munosabatlar bolaning atrof olamni va odamlarni, ularning o‘ziga bo‘lgan munosabatini qanday idrok etishiga ta’sir ko‘rsatishi empirik tahlillar darajasida isbotlangan. Masalan, ota-ona bir-biriga nisbatan namoyon etuvchi agressivlik bola tomonidan boshqa odamlarga shunday tajovuzkorona munosabat bildirish, ular bilan vujudga keladigan muammoli vaziyatlarda aynan agressiyaning turli shakllari orqali yechim izlash strategiyalariga ixtiyor berishiga sababchi bo‘lishini tasdiqlovchi ma’lumotlar mavjud. Ota bilan bo‘lgan munosabatda himoya va qo‘llab-quvvatlashni his etmagan qizlar keyinchalik boshqalar bilan muloqotda o‘zini past baholovchi, yakkalanishga moyil, ijtimoiy meyorlarga zid xatti-harakatlarni amalga oshirishi ehtimoli balandligi qayd etiladi. Ota-ona tomonidan bolaga nisbatan haddan tashqari himoyalovchi va avtoritar pozitsiya namoyon etiladigan vaziyatda bolalarning internetga tobelik darajasi yuqori bo‘lishi haqidagi ma’lumotlar ham diqqatga loyiq. Hattoki, ota-onaning oiladagi hayot tarzi, o‘zini tutishi bolada kasallikning ichki manzarasi, ya’ni o‘z kasalligiga nisbatan munosabati, uni tushunishini belgilab beruvchi omil ekani tasdiqlanadi.

Demak, oilada qaror topgan va bola ko‘z o‘ngida kechayotgan, shu jumladan, unga nisbatan namoyon etilayotgan munosabat o‘ziga xos namuna sifatida uning nafaqat boshqa odamlarga, balki atrof olamga, sog‘liqni saqlash, bo‘sh vaqtni o‘tkazish, muammoli vaziyatlarni hal qilish, umuman, hayotning barcha jabhalariga oid masalalarga nisbatan qarashlarini belgilab beradi. Shunday ekan, oilada ona bilan bo‘lgan munosabatlar bolaning ijtimoiy perseptiv jarayonlariga qanday ta’sir ko‘rsatishini bilish bu boradagi ilmiy tasavvurlarni yanada boyitishi hamda amaliyot uchun qimmatli ma’lumotlarni taqdim etishi mumkin. Xususan, bir tomondan, boladagi ortiqcha xavotirlanuvchanlik ko‘proq ona bilan munosabat xususiyatlariga borib taqalishi haqidagi ma’lumotlar, ikkinchi tomondan, xavotiralanish ta’sirida ma’lum ijtimoiy vaziyatning umumiy talqini, uning ishtirokchilari qanday his-kechinmalarni boshidan o‘tkazishi va voqealarning taxminiy yakuni borasida sezilarli tafovutlar aniqlanishi yuzasidan keltirilayotgan dalillar ona-bola munosabatlarining o‘smir ijtimoiy idrokiga ta’sir xususiyatlarini tekshirish g‘oyasini yuzaga keltirmoqda.

Yuqorida qisqacha tavsifi keltirilgan bu kabi ilmiy ishlarning tanqidiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, birinchidan, ota-ona va farzand o‘rtasidagi salbiy tusdagi munosabatning bola taraqqiyotidagi og‘ir oqibatlari yanada aniqrog‘i asoratlariga katta e’tibor qaratilgan ko‘pchilik tadqiqotlarda ushbu salbiy munosabatning o‘zi ayni vaqtda nimaning oqibatida yuzaga kelgani haqidagi masala e’tibordan chetda

qolib kelmoqda, ikkinchidan, “ota-ona va farzand” munosabatlari tizimi sohasidagi buzilishlarning sabablarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarda esa determinanta omillar avvalo, ota-ona va bola shaxsiga xos xususiyatlar qatoridan qidirilib, kognitiv soha bunday sabablar manbai sifatida tadqiqotchilar diqqat markazidan chetdadir. Qolaversa, o‘smirlik davri psixologiyasi muammolarini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘pchilik tadqiqotlarda alohida ota yoki onaning bola bilan munosabati xususiyatlari emas, balki umumiy tarzda ota-onaning munosabati tadqiqot predmetiga aylantiriladi.

Natijalar va muhokamalar (Results and Discussions). Ona bilan bo‘lgan munosabatlarning o‘smir ijtimoiy persepsiya jarayonlariga ta’sir ko‘rsatish xususiyatlarini empirik darajada o‘rganish uchun ishlab chiqilgan tadqiqot modeliga ko‘ra, o‘zbek onalarda A.Y.Varga va V.V.Stolinning “Ota-ona munosabati so‘rovnomasi” asosida o‘zining qarashlarini bildirish imkoniyati bo‘lsa, ularning o‘smirlik yoshidagi farzandlarida Ye.V.Zalyubovskaya taklif etgan “O‘smir tomonidan sinfning idrok etilishiga xos xususiyatlarni o‘rganish” metodikasi vositasida psixologik tekshiruv tashkil etildi.

Tadqiqot natijalarini sharhlashdan oldin o‘tkazilgan metodikalar tafsifiga to‘htalib o‘tamiz. Tadqiqot doirasida onalar o‘rtasida o‘tkazilgan «Ota-ona munosabati so‘rovnomasi» A.Y.Varga va V.V.Stolin tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ota-onaning farzandga bo‘lgan munosabati uchun xos yetakchi yondashuv, xususiyatlarni aniqlashga xizmat qiladi. Bunda ota-ona munosabati deganda ota-ona bolaga nisbatan his etayotgan hissiyotlar, bola bilan muloqotda namoyon etayotgan xulv-atvor stereotiplari, bola shaxsi va xatti-harakatlarini idrok etish va tushunish xususiyatlari tushuniladi. Metodika vositasida o‘tkazilgan tekshiruv natijalari asosida ota-onalarning farzandlariga munosabatida bolani yaqin olish yoki uni inkor etish, u bilan kooperatsiya yoki simbioz tipidagi munosabatlarni qurish unga avtoritar tarzda yoki infantilizatsiyalashtirib munosabatda bo‘lish singari omillar bo‘yicha xulosa chiqarish mumkin bo‘ladi.

O‘smirlik yoshida ijtimoiy perseptiv jarayonlarga ona bilan bo‘lgan munosabat xususiyatlarining ta’sirini hamda mazkur omilning bola ijtimoiylashuvidagi rolini chuqurroq tahlil qilish maqsadida sinaluvchilar tomonidan guruhni idrok etilishi ko‘rsatkichlari tekshirildi. Bunda qo‘llangan metodikaning diagnostik salohiyati, asosiy tekshiruv yo‘nalishlari, ushbu tashxis vositasi yordamida olingan natijalar talqinidagi yondashuvlarnini yaxshi tushunish uchun uning shkalalarini keltirib o‘tamiz [6].

O‘smir tomonidan guruhni idrok etilishining individual tiplari
(Y.V.Zalyubovskaya tasnifi bo‘yicha)

Guruhni idrok etish tipi	Guruhni idrok etish tipining talqini
Individualistik tip	Individ guruhni o‘z faoliyatiga halaqit berayotgan narsa sifatida idrok qiladi yoki unga neytral munosabatda bo‘ladi. Guruh individ tomonidan yaxlit birlik sifatida idrok etilmaydi. Individ hamkorlikdagi faoliyatdan o‘zini chetga tortadi, ko‘proq individual faoliyatni xush ko‘radi, uning guruh a’zolari bilan bo‘lgan aloqalari sust bo‘ladi
Kollektivistik tip	Individ guruhni yaxlit birlik va mustaqil qadriyat sifatida idrok qiladi. Uning uchun butun guruh va guruh a’zolarining muammolari birinchi o‘rinda turadi. Shu tufayli individ butun guruhning ham, ayrim a’zolarning ham muvaffaqiyatidan o‘zini manfaatdor, deb biladi. Umumiy faoliyatga o‘z hissasini qo‘shishga intiladi. Individda jamoaviy mehnatga nisbatan ehtiyoj kuzatiladi
Pragmatik tip	Individ guruhni u yoki bu shaxsiy maqsadlarga erishish vositasi sifatida idrok etadi. Bunda guruh individ uchun qanchalik foydaliligiga bog‘liq ravishda idrok etiladi va baholanadi. Individ guruhning mutasaddi, muayyan masalalar bo‘yicha zarur axborotni va yordamni bera oladigan vakillarini ma’qul ko‘radi.

Mazkur metodikalar yordamida ikki guruh sinaluvchilaridan olingan miqdoriy ko‘rsatkichlar alohida shkalalar kesimida avval chastotali, so‘ngra korrelyatsion tahlil qilindi (1-rasmga va 1-jadvalga qarang). Onalarning bolaga munosabatidagi ustuvor yo‘nalishlar o‘smir tomonidan guruhning qanday idrok etilishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida namoyon bo‘lishi ehtimolini korrelyatsion bog‘lanishlar tasdiqladi.

Korrelyatsion tahlil natijalari bolaga nisbatan onaning ustuvor munosabat tipi bilan bola tomonidan guruhning idrok etilishi o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatdi. Jumladan, korrelyatsiya

ko‘rsatkichlari shundan darak beradiki, bolani nisbatan yaqin olish munosabati kollektivistik idrok bilan musbat (r=0,42; p≤0,001), pragmatik idrok bilan manfiy (r=-0,32; p≤0,01) bog‘liqlikka ega.

Nazarimizda, o‘ziga nisbatan samimiy yaqin olish munosabatini sezib ulg‘ayishi uning boshqalardan o‘z manfaatlariga erishish quroli sifatida foydalanmaslikka o‘rgatadi. Aksincha, avtoritarizm tipidagi munosabatda bolada pragmatik idrok rivojlanishini taxmin qilish uchun asoslar bor.

1-jadval

Bolaga munosabatdagi ustuvor yondashuv va o‘smir farzandlar tomonidan guruhni idrok etish tiplari o‘rtasidagi aloqadorlik ko‘rsatkichlari


(Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti bo‘yicha)



Bolaga munosabatdagi ustuvor yondashuvlar	Guruhni idrok etish tiplari		
	Individualistik tip	Kollektivistik tip	Pragmatik tip
Yaqin olish	0,17	0,42***	-0,32**
Kooperatsiya	-0,31**	0,56***	0,28*
Simbioz	0,27*	-0,22*	0,36**
Avtoritarizm	0,45***	0,14	0,38**
Infantilizatsiya	0,33**	0,12	0,24*

Izoh: * p≤0,05; ** p≤0,01; *** p≤0,001

Keltirilgan ko‘rsatkichlar bola bilan munosabatda avtoritarizm va infantilizatsiyaning ustunligi sharoitida ko‘pincha bolalarda guruhni individualistik idrok etish ustun bo‘lishini tasdiqlaydi. Ijtimoiy idrokning bunday tipida bola guruhni o‘z faoliyatiga halaqit berayotgan narsa sifatida idrok qiladi yoki unga neytral munosabatda bo‘ladi. Guruh o‘smir tomonidan yaxlit birlik sifatida idrok etilmaydi. U hamkorlikdagi faoliyatdan o‘zini chetga tortadi, ko‘proq individual faoliyatni xush ko‘radi, uning guruh a’zolari bilan bo‘lgan aloqalari sust bo‘ladi.

Shundan kelib chiqqan holda, onaning avtoritar va infantillashtiruvchi munosabati ustunlik qilishi boladagi tashabbuskorlikni, jonbozlikni to‘sib qo‘yishi natijasida guruhni ham keraksiz, befoyda birlik sifatida idrok etish, guruhga a’zolikning ustun tomonlarini tushunmaslikka olib keladi.

Guruhni idrok etish tipi	**Farzand bilan munosabatdagi ustuvor yondashuv**
Individualistik tip	

Kollektivistik tip	
Pragmatik tip	

1-rasm. Guruhni idrok etishning tipiga ko‘ra farqlanuvchi o‘smirlarning onalaridagi munosabatning ustuvor turlari bo‘yicha nisbat ko‘rsatkichlari

Guruhni idrok etishning kollektivistik tipi kooperatsiya (r=0,56; p≤0,001) va yaqin olish (r=0,42; p≤0,001) tipidagi munosabat bilan statistik ahamiyatli ravishda bog‘liq ekanligi aniqlandi. Kollektivistik idrok ko‘proq onalari bilan kooperatsiya va yaqin olish tipida munosabatga kirishuvchi bolalarga xosdir.

Bunda bola tomonidan guruh yaxlit birlik va mustaqil qadriyat sifatida idrok qilinadi, uning uchun butun guruh va guruh a’zolarining muammolari birinchi o‘rinda turadi, shu tufayli butun guruhning ham, ayrim a’zolarning ham muvaffaqiyatidan o‘zini manfaatdor, deb biladi, umumiy faoliyatga o‘z hissasini qo‘shishga intiladi, unda jamoaviy mehnatga nisbanan ehtiyoj kuzatiladi. Guruhni idrok etishning pragmatik tipi kooperatsiya (r=0,28; p≤0,05), simbioz (r=0,36; p≤0,01), avtoritarizm (r=0,38; p≤0,01), infantilizatsiya (r=0,24; p≤0,05) uslubi bilan statistik ahamiyatli ravishda bog‘liq ekanligi aniqlandi.

Statistik ko‘rsatkichlardan kelib chiqadigan bo‘lsak, kooperatsiya avtoritarizm uslubi bilan uyg‘unlashgan holda, ya’ni ona hamkorlikdagi munosabatni bosim ostida, bolaga buning manfaatli tomonlarini anglatmagan holda amalga oshiradigan bo‘lsa, unda guruhga nisbatan pragmatik qarashni shakllantirishi mumkin. Bunda esa bola guruhni u yoki bu shaxsiy maqsadlarga erishish vositasi sifatida idrok etadi. Guruh bola uchun qanchalik foydaliligiga bog‘liq ravishda idrok etiladi va baholanadi. Bola guruhning mutasaddi, muayyan masalalar bo‘yicha zarur axborotni va yordamni bera oladigan azolarini ma’qul ko‘radi. Onalarning bolaga munosabatidagi ustuvor yo‘nalishlar o‘smir tomonidan guruhning qanday idrok etilishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida namoyon bo‘lishi ehtimolini korrelyatsion bog‘lanishlar ham tasdiqlaydi.

Korrelyatsion tahlil natijalari ham bolaga nisbatan onaning ustuvor munosabat tipi bilan bola tomonidan guruhning idrok etilishi ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, korrelyatsiya ko‘rsatkichlari shundan darak beradiki, bolani nisbatan yaqin olish munosabati kollektivistik idrok bilan musbat, pragmatik idrok bilan manfiy bog‘liqlikka ega. Nazarimizda, o‘ziga nisbatan samimiy yaqin olish munosabatini, qabul qilishni sezib ulg‘ayishi uning boshqalardan o‘z manfaatlariga erishish quroli sifatida foydalanmaslikka o‘rgatadi. Aksincha, avtoritarizm tipidagi

munosabatda bolada pragmatik idrok rivojlanishini taxmin qilish uchun asoslar bor. Ehtimol, onaning avtoritar pozitsiyasi misolida bir odam boshqaning ustidan yetakchilik qilishi, unga o‘z hukmini o‘tkazishini meyoriy holat, deb tushunish keyinchalik bolaning o‘zida ham shunday ustanovkalar, ashaddiy pragmatizmni rivojlantirishi mumkin.

Bolaga infantillashtiruvchi munosabatni namoyon etish unda nafaqat yetarli darajada mustaqillik sifati shakllanmasligiga, balki keyinchalik guruhda ko‘p narsa uning ixtiyoriga qo‘yib berilishi mumkin bo‘lganda ham o‘zini chetga tortish, o‘zini ojiz hisoblab yakkalanishga intilishini ham determinatsiyalashi kuzatiladi.

Xulosa. Shunday qilib, o‘smirlarda guruhni idrok etish xususiyatlari va ularning onalari uchun xos bo‘lgan munosabatning ustuvor taktikalari o‘rtasidagi aloqadorlikni empirik o‘rganish natijalari quyidagi xulosalarga asos bo‘ldi:

1. Ona-bola munosabatlari uchun salbiy his-kechinmalar, onaning avtoritar xulq-atvor modeli yoki bolani haddan tashqari avaylovchi pozitsiyasi unda individualistik va pragmatik tipdagi ijtimoiy idrok turlari rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi.

2. Onaning farzandga munosabatida kooperatsiya uslubining ustuvorligi ko‘p holatlarda bolada guruhni idrok etishning kollektivistik tipi ustunlik qilishi bilan uyg‘un bo‘ladi.

3. Onaning bola bilan bo‘lgan munosabatida uni to‘liq o‘z xomiyligida saqlashga intilishi va farzand unga simbiotik bog‘liq bo‘lishi guruhga nisbatan qarashlarda ham undan vosita sifatida foydalanishga urg‘u beruvchi pozitsiya yetakchilik qilishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva D.U. O‘zbek oilalarida ona va bola munosabatlarining ijtimoiy-psixologik asoslari Psixol. f. d... diss. avtoref. Toshkent, TDPU. 2023. - 69 b.

2. Аюшеева Ж.Б., Доржиева М.О. Взаимосвязь типа родительского отношения и самостоятельности младших школьников // Colloquium-journal. -2021. №12 (99). – С.4-6.

3. Базалева Л.А. Личностные факторы эмоционального “выгорания” матерей в отношениях с детьми: автореф. дис. ... канд. психол. наук. – Краснодар: КГУ, 2010. – 26 с.

4. Блюм А.И., Василенко Т.Д. Рол материнского отношения в формировании само повреждающего поведения у ребенка // Личность в меняющемся мире: здоровье, адаптация, развитие. – 2022. –№3 (38). – С. 223-232.

5. Борисова И.А. Особенности самооценки младших школьников с разными типами эмоциональной привязанности к матери: автореф. дис. ... канд. психол. наук. – М.: МГУ, 2007. - 28 с.

6. Залюбовская Е.В. Методика исследования восприятия индивидом группы// Методы исследования межличностного восприятия: Спец. практикум по социальной психологии / Под ред. Г.М.Адреевой, В.С.Агеева. М.: Изд-во Моск. ун-та, 1984. – С.64- 71.

7. Рогов Е.И. Настольная книга практического психолога: Уч. пособие: В 2 кн. – 3-е изд. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2000. – кн.2: Работа психолога со взрослыми. Коррекционные приемы и упражнения.- 480с.

8. Qurbanova G.A. Oiladagi shaxslararo munosabatlarning farzand ijtimoiy persepsiyasiga ta’siri (tasviriy san’at yo‘nalishida tahsil olayotgan o‘quvchilar misolida): Psixol. f. n... dis. avtoref. – T.: TDPU, 2009. – 26 b.

9. Суворова О.В., Черемисова И. В., Мамонова Е. Б. Привязанност к матери как фактор Я-концепции подростка// Вестник Мининского университета. – 2016. – № 2(15). – С. 36.

10. Фомичева Л.Ф. Образ родителей и представленность отношений с ними у подростков // Психологическая наука и образования. - Москва. 2005. - №3. –С. 26-40.

11. Shamsiyev O‘.B. Oilaviy xolding-bola ijtimoiylashuvining psixologik mexanizmi: Psixol.f.dok. ... diss. avtoref. – T.: O‘zMU, 2019. – 57 b.

12. Walters G.D. Self-Efficacy in Parents and Children and Its Relationship to Future Delinquent Behavior in Children// Youth & Society. – 2022. – v 54. – №1. – P. 104-122.

Abdurasulov Rustam Abduraimovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Umumiy psixologiya kafedrasi professori,
psixologiya fanlari doktori (DSc)
Orcid: 0000-0001-9394-7209

O‘SMIR FUTBOLCHILAR SHAXSINI SHAKLLANISHIDA MOTIVATSIYANING TA’SIRI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘smir futbolchilar shaxsini shakllanishida motivatsiyaning ta’siri borasida olib borilgan tadqiqot natijalari haqida fikr yuritilgan. Maqolada o‘smir sportchilarning motivatsiyasini shaxs shakllanishidagi ahamiyatini aniqlashda shaxsning yo‘nalganlik ko‘rsatkichlarini qay darajada shakllanishi tadqiq qilingan va uning natijalari aniqlangan hamda qo‘lga kiritilgan tadqiqot natijalarining psixologik izohi va shaxs yo‘nalganlik darajalarining o‘zaro korrelyatsion aloqadorligi yoritilgan.*

Kalit so‘z: *o‘smir futbolchi**,** shaxs, motivatsiya, shaxs yo‘nalganlik darajasi, rol, motiv.*

ФОРМИРОВАНИЕ ЛИЧНОСТИ ФУТБОЛИСТОВ-ПОДРОСТКОВ ЭФФЕКТ МОТИВАЦИИ

Аннотация. *В данной стате рассматриваются результаты исследования влияния мотивации на формирование личности футболистов-подростков. В стате при определении значения мотивации спортсменов-подростков в формировании личности изучается степен сформированности ориентировочных показателей личности и определяются ее результаты, а также психологическая интерпретация полученных результатов исследования. и выделена взаимная корреляция уровней направленности личности.*

Ключевые слова: *Ключевые слова: футболист-подросток, личност, мотивация, уровен направленности личности, рол, мотив.*

PERSONALITY FORMATION OF TEENAGE FOOTBALL PLAYERS EFFECT OF MOTIVATION

Annotation. *This article discusses the results of a study of the influence of motivation on the formation of the personality of teenage football players. In the article, when determining the importance of motivation of teenage athletes in the formation of personality, the degree of formation of indicative indicators of personality is studied and its results are determined, as well as the psychological interpretation of the research results obtained. and the mutual correlation of the levels of personality orientation is highlighted.*

Key words: *Teenage football player, personality, motivation, level of personality orientation, role, motive.*

Kirish. Motivatsiya faoliyatning keng darajadagi prujinasi hisoblanib, u sportning ko‘p yillar davomida bir sport turi bilan shug‘ullanib, yuqori natijalarga erishishida barcha qiyinchiliklarga chidashiga turtki beradi. I.A.Djidaryanning fikricha “Insonning har qanday faoliyati uning biron-bir harakatni amalga oshirishi uchun o‘z oldiga qo‘ygan zaruriy talablari ichki muhitni o‘zgaruvchan sharoitlarida aniq aks etishi natijasida aniqlanadi va faoliyat subyekti sifatida shaxsni o‘zining ichki intilishlari va psixologik imkoniyatlari natijasida o‘zgaradi. Motivatsiya shaxsning xatti-harakati ichki va tashqi omillari o‘zaro bir-biri bilan bog‘liqligining murakkab mexanizmi bo‘lib, faoliyatning tug‘ilishi, yo‘nalishi va uni amalga oshirishning aniq shakllari va usullari sifatida yuzaga chiqadi” (4).

Tadqiqot ishida biz futbol mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanayotgan yosh futbolchilar shaxsning o‘ziga xos jihatlarini shakllanishida motivatsiyaning ta’sirini o‘rganishga harakat qildik. Buni o‘rganishda biz A.G.Kovalyevning shaxs tuzilishi borasidagi fikrlarini inobatga olgan holda tadqiqot ishini olib bordik. A.G.Kovalyevni fikriga ko‘ra shaxs tuzilishi uning yo‘nalganlik, qobiliyati, xarakter va o‘zini-o‘zi boshqarish komponentlaridan iborat. Uning fikricha, shaxsning yo‘nalganligi yoki insonning real voqelikka munosabati komponenti sportda ko‘pincha yuqori yutuqqa erishishi motivatsiyasi bilan belgilanadi. Sportda haddan ortiq jismoniy kuchga zo‘r berish, kuchli psixik keskinlik holati kechinmasi raqibini yengishga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltiradi, eng asosiysi, yuqori

sport natijasini ko‘rsatish ehtiyojini qondirishga harakat qiladi. Shuning uchun ham sportchilarda o‘z ustida ishlash, o‘z mahoratini oshirishga bo‘lgan ehtiyoj kuchli bo‘ladi. Bu esa sportda falsafiy jihatdan subyekt va obyektning birligini ko‘rsatadi[5].

Metodlar. Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, biz o‘z tadqiqotimizda sportchi shaxsining o‘ziga xos jihatlarini shakllanishida motivatsiyaning ta’sirini o‘rganishni maqsad qilib qo‘ydik. Buning uchun biz B.Bassanning “Shaxsning yo‘nalganligini aniqlash” metodikasidan foydalandik. Ushbu metodika shaxsning yo‘nalganlik ko‘rsatkichi sifatida insonning asosiy hayotiy yo‘nalganligini o‘rganish maqsadida qo‘llaniladi. Metodika shaxsni yo‘nalganligining uchta bazaviy turini tadqiq qiladi:

- O‘ziga yo‘nalganlik;
- Muloqotga yo‘nalganlik;
- Faoliyatga yo‘nalganlik.

Natijalar. Tadqiqot ishimizda Jizzax, Samarqand va Qarshi futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilari ishtirok etishdi. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Jadval-1.

B.Bassaning shaxs yo‘nalganligini aniqlash metodikasi bo‘yicha tadqiqot natijalari

№	Shaxs yo‘nalganligi	Respondentlar		
		Jizzax	Samarqand	Qarshi
1	O‘ziga	15,7	13,7	12,5
2	Muloqotga	14,0	10,2	18,9
3	Faoliyatga	18,1	15,3	14,6

1-jadvalda o‘smir futbolchilarning shaxs yo‘nalganligining 3 ta bazaviy turlarini shakllanganligining tadqiqiy natijalari keltirilgan.

Shaxsning o‘ziga yo‘nalganligi bo‘yicha tadqiqot natijalari asosida quyidagi fikrlarni bildirishimiz mumkin.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari o‘smir futbolchilarning o‘ziga yo‘nalganlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha Jizzax futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarida 15,7 ball, Samarqand futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarida 13,7ball, Qarshi futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarida esa 12,5 ballni tashkil qildi. Olingan tadqiqot natijalari asosida aytish joizki, Jizzax futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarida Samarqand va Qarshi futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilariga nisbatan ko‘rsatkichlari biroz yuqori ekan. Bu shundan dalolat beradiki, Jizzax futbol akademiyasi o‘smir futbolchilarida o‘ziga yo‘nalganlik xususiyati, ya’ni ish va hamkorlikka bog‘liq bo‘lmagan holatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri rag‘batga va qoniqishga bo‘lgan yo‘nalganlik, ma’lum bir maqomga erishishda tajovuzkorlik, hukmronlik, raqobatga moyillik, jizzakilik, xavotirlilik, introvertlik kabi xislatlar Samarqand va Qarshi futbol akademiyasi o‘smir futbolchilarining shu xislatlar ko‘rsatkichidan nisbatan o‘rtadan yuqori darajani ko‘rsatdi. Bu xislatlarning yuqori darajasi ularda mashg‘ulotlar va sport musobaqalari davrida ularning o‘zaro hamkorligida, bir-biriga munosabatida salbiy ta’sir etishi bilan xarakterlanadi. Bu esa o‘z navbatida o‘smir futbolchilarning jamoa sifatida muvaffaqiyatga erishishida ijobiy ta’sir ko‘rsatishiga umid qilib bo‘lmaydi, bu xislatlar Samarqand va Qarshi futbol akademiyasi yosh futbolchilarida o‘rtacha va o‘rtadan past natijani ko‘rsatdi (Samarqand 13,7; Qarshi 12,5 ball), bu holat Samarqand va Qarshi futbol akademiyasi o‘smir futbolchilarida o‘ziga yo‘nalganlik ijobiy jihatdan nomoyon bo‘ldi, buni olingan natijalar ham ko‘rsatib turibdi. Bundan shunday hulosa qilsa ham bo‘ladiki, Samarqand va Qarshi futbol akademiyasida tarbiyalanuvchi o‘smir futbolchilarda o‘ziga yo‘nalganlik xislatlarining shakllanishi ularning motivatsiyasi bilan bog‘liq holda mutanosib tarzda shakllanganligini, bu esa ularda mashg‘ulotlarni ijobiy tashkil etilayotganligidan dalolat beradi.

O‘smir futbolchilarning muloqotga yo‘nalganlik xususiyatlari bo‘yicha olingan tadqiqot natijalari Qarshi (18,9 ball) futbol akademiyasi tarbiya-lanuvchilarida Samarqand (10,2 ball) va Jizzax (14,0 ball) futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarining natijalariga nisbatan yuqori natijani ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari asosida aytish mumkinki, Qarshi futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarda muloqotga yo‘nalganlik – ya’ni, har qanday sharoitda atrofdagilar, jamoadagi o‘rtoqlari bilan muloqotda bo‘lish, hamkorlikka intilish, oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish va boshqalarga, jamoadagi sheriklariga sidqidildan yordam berish evaziga ijtimoiy qo‘llab quvvatlashga, guruhga bog‘langanlik, odamlar bilan hissiy munosabatlar va ular bilan bog‘lanib qolishga yo‘nalganlik xislatlari Samarqand va Jizzax futbol akademiyasi o‘smir futbolchilariga qaraganda nisbatan yuqori

darajada shakllanganligini ko‘rsatdi. Bunday natija Qarshi futbol akademiyasi o‘smir futbolchilarining mashg‘ulot va sport musobaqalari faoliyatida yaxshi natijalarga erishishlarida ijobiy ta’sir ko‘rsatishidan dalolat beradi. Qarshi futbol akademiyasi murabbiylari bilan o‘tkazilgan suhbat davomida ham yuqoridagi fikrlar o‘z tasdig‘ini topdi. Qarshi futbol akademiyasining yosh guruhlari futbolchilari o‘z yosh guruhlarida bir necha yillardan beri Respublika musobaqalarida yuqori natijalarni ko‘rsatib kelayotgani ham fikrimizga yaqqol dalil bo‘ladi.

Shaxsning muloqotga yo‘nalganlik xususiyatlari bo‘yicha Samarqand futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilari past ko‘rsatkich natijani ko‘rsatdi (10,2 ball). Bu holat ularda bu borada olib borilayotgan tadbirlarning samaradorligining past ekanligidan, o‘smir futbolchilar bilan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yetarli darajada olib borish lozimligini ko‘rsatadi. Murabbiylar bilan o‘tkazilgan suhbat jarayoni ham buni asoslab berdi.

Futbol akademiyasi o‘smir futbolchilarining faoliyatga yo‘nalganlik bo‘yicha tadqiqot natijalari Jizzax futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarida (18,1 ball), Samarqand futbol akademiyasi (15,3 ball), Qarshi futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilari (14,6 ball) ko‘rsatkichlarga nisbatan yuqori natijani ko‘rsatmoqda. Faoliyatga yo‘nalganlik xususiyati bo‘yicha olingan tadqiqot natijasi asosida aytish joizki, Jizzax futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilari Samarqand va Qarshi futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilariga nisbatan faoliyatga yo‘nalganlik, ya’ni faoliyat borasida yuzaga keladigan muammolarni (texnik va taktik) yechishga qiziqish, faoliyatini imkon darajasida yaxshi bajarish, faoliyat jarayonida hamkorlikka intilish, o‘z fikrini umumiy maqsadga erishishda himoya qila olish kabi xususiyatlar yaqqol nomoyon bo‘lganini ko‘rish mumkin. Bu holatni biz quyidagicha izohlashimiz mumkin. Jizzax futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilari futbol mashg‘uloti va musobaqalarga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida ko‘proq futbol mashg‘ulotining texnik-taktik usullarini yaxshi egallashga harakat qilishlari, musobaqalarda yaxshi natijalarga erishishga harakat qilishlarini ko‘rish mumkin. Biroq, ularning o‘ziga yo‘nalganlik xislatlarining yuqori ko‘rsatkichi (15,7 ball), ya’ni har bir tarbiyalanuvchining “Men” va ularning o‘zaro muloqotga yo‘nalganlik xislatining past ko‘rsatkichi (14,0 ball) faoliyatga yo‘nalganlik xislati (18,1 ball) qanchalik yuqori bo‘lganda ham muvaffaqiyatga erishishlariga ijobiy ta’siri kam ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bunday holatni Samarqand futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarining natijalarida ko‘rishimiz mumkin. Qarshi futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarining ushbu xislat bo‘yicha ko‘rsatkichlari (14,6 ball) Jizzax va Samarqand futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarining ko‘rsatkichlaridan past natijani ko‘rsatgan bo‘lsada, ular futbol musobaqalarida yuqori natijalar ko‘rsatib, muvafaqqiyatga erishib kelmoqdalar, buni biz ulardagi o‘ziga emas, balki jamoaga yo‘nalganlik, o‘zaro muloqot, o‘zaro hamkorlik xislatlariga ko‘proq e’tibor qaratishlari, mashg‘ulot va musobaqa jarayonida texnik-taktik harakatlarining uyg‘unligi bilan izohlashimiz mumkin.

Tadqiqot jarayonida murabbiylar bilan o‘tkazilgan qo‘shimcha suhbat jarayonida ham bu holat o‘z tasdig‘ini topdi. Suhbat yakunida Jizzax va Samarqand futbol akademiyasi murabbiylariga psixologik tayyorgarlik, jamoaviy hamkorlik va jamoa maqsadi borasida kerakli maslahatlar berildi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida aytish joizki, o‘smir futbolchilarning umumiy ko‘rsatkichlari orasidagi farq katta tafovutni ko‘rsatmayapti (2-jadval). O‘smir futbolchilarning futbol mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanish jarayonida yuzaga chiqadigan motivatsiya ta’sirida ularning o‘ziga yo‘nalganligi o‘ziga e’tiborlilik, izzattalablik, boshqalardan mahorati yuqoriligi, mavqega erishishda tajovuzkorlik, xavotirlilik xususiyatlari muloqotga intilish, o‘zaro hamkorlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, boshqalarga yordam berish, odamlar bilan hissiy yaqin-likka ehtiyoj kabi xususiyatlar bilan uyg‘unlashgan holda o‘ziga va muloqotga ijobiy jihatdan samarali ta’sir ko‘rsatar ekan.

Jadval-2

O‘smir futbolchilarning shaxs yo‘nalganligini aniqlash metodikasining umumiy ko‘rsatkichlari

№	Shaxsning yo‘nalganligi	x (n=71)	σ (n=71)	t (n=71)
1	O‘ziga	13,98	1,99	-0,724
	Muloqotga	14,38	4,13	
2	O‘ziga	13,98	1,99	-8,030**
	Faoliyatga	16,01	2,27	
3	Muloqotga	14,38	4,13	-2,912*
	Faoliyatga	16,01	2,27	

Izoh: *R≤0.05, **P≤0.01

Tadqiqot natijalari o‘smir futbolchilarning o‘ziga va faoliyatga yo‘nalganlik ko‘rsatkichlari orasidagi farq shundan dalolat beradiki, ular o‘zlarini qanchalik faoliyatga ko‘proq yo‘naltirsa, jamoadagi faoliyatda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish, mashg‘ulot jarayonida mashqlarni yaxshi bajarishga, o‘zaro hamkorlik, umumiy maqsadga erishish uchun o‘z manfaatlaridan voz kechish kabi xususiyatlar yuzaga chiqar ekan.

O‘smir futbolchilarning muloqot va faoliyatga yo‘nalganlik xususiyatlari ularning o‘zaro hamkorlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, boshqalarga yordam berish, jamoadoshlari bilan hissiy yaqinlik, bir maqsad ostida harakat qilish kabi shaxs xislatlarini shakllanishiga yordam berishi tadqiqot natijalarida namoyon bo‘ldi.

Biz tadqiqtimizda o‘smir futbolchilarning shaxs yo‘nalganlik shkalalari o‘rtasidagi korrelyatsion aloqadorlik ko‘rsatkichlarini o‘rgandik. Quyidagi jadvalda uning natijalari keltirilgan (3-jadval).

Jadval-3

O‘smir futbolchilarning shaxs yo‘nalganligi shkalalari o‘rtasidagi korrelyatsiyalar ko‘rsatkichlari

	O‘ziga	Muloqotga	Faoliyatga
O‘ziga	1	-0,174	0,441**
Muloqotga		1	-0,165
Faoliyatga			1

3-jadvaldan ham ko‘rinib turibdiki, futbol akademiyasi o‘smir futbolchilarida o‘ziga yo‘nalganlik xususiyati bilan muloqotga yo‘nalganlik xususiyati o‘rtasida manfiy bog‘lanish aniqlandi (t= -0,174; P≤ 0,001). O‘ziga va faoliyatga yo‘nalganlik xususiyatlari orasidagi bog‘lanishlar esa musbat natijani ko‘rsatdi (t= -0,441**; P≤ 0,01). Muloqotga yo‘nalganlik bilan faoliyatga yo‘nalganlik xususiyati orasida esa manfiy aloqadorlik ko‘rsatkichi namoyon bo‘ldi (t= -0,165; P≤ 0,001). Bu olingan natijalar futbol mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanish jarayonida o‘smir futbolchilarda shaxsning o‘ziga xos jihatlarini shakllanishiga, ularning futbol bilan shug‘ullanish motivatsiyasiga ham ta’sir ko‘rsatar ekan, bu holatni biz yuqorida ham ta’kidlab o‘tgan edik.

Tadqiqotda biz shaxs yo‘nalganligini hududiy xususiyatlarini ham o‘rgandik. Uning natijalari quyidagi 4-jadvalda o‘z aksini topgan.

Jadval-4

Yosh futbolchilarning shaxs yo‘nalganligi bo‘yicha ko‘rsatkichlari (hududiy xususiyatlari)

Shkalalar		x	σ	t
O‘ziga	Jizzax	15.66	1.35	4.715**
	Samarqand	13.77	1.73	
	Jizzax	15.66	1.35	9.026***
	Qarshi	12.51	1.45	
	Samarqand	13.77	1.73	3.954***
	Qarshi	12.51	1.45	
Muloqotga	Jizzax	14.00	1.70	7.848***
	Samarqand	10.22	2.27	
	Jizzax	14.00	1.70	-11.543***
	Qarshi	18.92	2.20	
	Samarqand	10.22	2.27	-14.423***
	Qarshi	18.92	2.20	
Faoliyatga	Jizzax	18.07	1.68	5.906***
	Samarqand	15.33	2.00	
	Jizzax	18.07	1.68	9.584***
	Qarshi	14.62	1.49	
	Samarqand	15.33	2.00	1.677
	Qarshi	14.62	1.49	

Izoh: *** -p ≤0,001.

Yuqoridagi 4-jadvaldan ham ko‘rinib turibdiki, o‘smir futbolchilarning shaxs yo‘nalganligi bo‘yicha ko‘rsatkichlari orasida hududiy jihatdan taqqoslaganda tafovut yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘smir futbolchilarning o‘ziga yo‘nalganlik xususiyatlari Jizzax va Qarshi hududlari orasida, muloqotga yo‘nalganlik xususiyati bo‘yicha Jizzax va Qarshi, Samarqand va Qarshi hududlarida, faoliyatga yo‘nalganlik xususiyati Jizzax va Samarqand, Jizzax va Qarshi hududlari orasidagi tafovutlar aniqlandi.

Bu aniqlangan tafovutlar yuqorida tadqiqot natijalari bo‘yicha bildirilgan fikrlarimizni yana bir bor tasdiqlaydi, ya’ni shaxs yo‘nalganligining o‘ziga xos jihatlarining namoyon bo‘lishida (o‘ziga, muloqotga va faoliyatga) hududiy muhitning, o‘quv mashg‘ulotlari va musobaqalarga bo‘lgan motivatsiyaning ta’siri mavjudligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘tkazilgan tadqiqot natijalari Jizzax, Samarqand va Qarshi futbol akademiyasi o‘smir futbolchilarida shaxs yo‘nalganligining shakllanishida muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi ta’siri ijobiy jihatdan ta’sir etishi namoyon bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Абдурасулов Р.А. Мотивы учащихся-спортсменов в спортивной деятелности. Юбилейная международная научно-практическая конференция. Сборник материалов. Самара, 2008.

2.Абдурасулов Р.А. Интересы учащихся к занятиям восточными единоборствами и боксом. Юбилейная международная научно-практическая конференция. Сборник материалов. Самара, 2008.

3.В.Гошек, М.Ванек, Б.Свобода. Успех как мотивационный фактор спортивной деятелности.//В кн. П.А.Рудика и др.“ Психология и современный спорт”. - М.: ФИС,1973.

4.Джидарян И.А. О месте потребностей, эмоций и чувств в мотивации личности.-М.: Наука,1974.

5.Ковалев А.Т. Психология личности. -М.:1965

6.Леонтев А.Н.Потребност, мотивы, эмоции.-М.: МГУ,1971

Karimova Vasila Mamanosirovna
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika professori,
psixologiya fanlari doktori, Rossiya Psixologiya fanlari Xalqaro
Akademiyasining haqiqiy a'zosi,

Rustamova Shaxzoda Maripovna
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

NOTO'LIQ OILADA TARBIYALANAYOTGAN QIZ FARZANDLARNING IJTIMOIY TASAVVURLARINI O'RGANISH TAJRIBASI

Annotatsiya. *Maqolada o'tkazilgan nazariy hamda empirik tadqiqot natijalariga tayangan holda dunyo xalqlari, shu jumladan, O'zbekistonning global muammolaridan biriga aylanib ulgurgan noto'liq oilada voyaga yetayotgan qiz va o'g'il farzandlarning psixologik va axloqiy holatlari, ularning oila va uning muhim qadriyatlari to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlari haqida ma'lumotlar bayon etilgan.*

Zero, har qanday jamiyat mustahkam bo'lishi, ijtimoiy hamda iqtisodiy taraqqiyoti uchun undagi oilalar baxtli va mustahkam bo'lmog'i kerak. Qachonki oiladagi o'zaro munosabatlar ruhan, ma'nan, axloqan to'kis, baxtli bo'lgandagina, moddiy ne'matlar ko'zga ko'rinadi, jamiyatdagi demografik muammolar ijobiy hal etilib, har bir inson o'z sohasi rivoji uchun xotirjam hissa qo'sha oladi. Oila mustahkamligiga rahna soluvchi muammolar va ularning oqibatini o'rganish, tahlil qilish hamda ulardan to'g'ri xulosa chiqara bilish oila va jamiyat kelajagining farovon bo'lishiga olib keladi.

Kalit so'zlar: *mustahkam oila, noto'liq oila, ajrashish, farzand tarbiyasi, ota-ona burchi, farzandni ijtimoiylashtirish, oiladagi sog'lom psixologik muhit, munosabatlar uyg'unligi, oilaviy burchlar to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar.*

ОПЫТ ИЗУЧЕНИЯ СОЦИАЛЬНЫХ ВООБРАЖЕНИЙ ДЕВОЧЕК, ВОСПИТАННЫХ В НЕПОЛНЫХ СЕМЬЯХ

Аннотация. В статье описываются психологические и моральные условия развития детей, растущих в неблагополучной, неполной семье, которые сегодня считаются одной из глобальных проблем всего мира, в том числе и в условиях Узбекистана. Социально-психологической точки зрения анализируются обязанности разведенного родителя по отношению к ребенку, социальнқе представления и ожидания детей, прежде всего девочек о родительских обязанностях в структуре межличностнқх отношений в семье.

Семьи должны быть счастливы, чтобы общество было сильным., чтобы развивалость и морально, и духовно, социально и экономически. Когда семья и ее духовно-мральные устои крепки, то материальные ее блаосостояния будут обеспечены, демографические проблемы общества решены положительно, и каждый человек может спокойно вносить свой вклад в развитие своей сферы. Изучение, анализ и способность делать правильные выводы из проблем и их последствий, которые способствуют укреплению семьи, сделают будущее семьи и общества процветающим.

Ключевые слова: крепкая семья, неблагополучная семья, развод, воспитание ребенка, родительский долг, социализация ребенка, здоровае психологическая среда в семье, межличностные взаимоотношения, гармония отношений, социальные ожидания и предтваления девочек о супружеских обязаннотях

EXPERIENCE OF STUDYING THE SOCIAL IMAGINATIONS OF GIRLS RAISED IN SINGLE-PARTY FAMILIES

Annotation. *The article describes the psychological and moral conditions of development of children growing up in a dysfunctional, single-parent family, which today are considered one of the global problems of the whole world, including in the conditions of Uzbekistan. From a socio-psychological point of view, the responsibilities of a divorced parent in relation to the child, social ideas and expectations of children, especially girls, about parental responsibilities in the structure of interpersonal relationships in the family are analyzed.*

Families must be happy, so that society is strong, so that it develops morally, spiritually, socially and economically. When the family and its spiritual and moral foundations are strong, then its material wealth will be ensured, the demographic problems of society will be resolved positively, and each person can calmly contribute to the development of his or her sphere. Study, analysis and the ability to draw correct conclusions from problems and their consequences that contribute to the strengthening of the family will make the future of the family and society prosperous.

Key words: *strong family, dysfunctional family, divorce, raising a child, parental duty, socialization of the child, healthy psychological environment in the family, interpersonal relationships, harmony of relationships, social expectations and girls' ideas about marital responsibilities*

Kirish. Xalqimizda qadim-qadimdan oilada farzand ta'limi hamda tarbiyasi, uning kasbiy kamoloti va kelajagiga katta e'tibor berilgan. Oilaga muqaddas qo'rg'on sifatida qaralib, uning mustahkamligi va xavfsizligiga oilaning har bir a'zosi o'zini mas'ul, deb bilgan. Lekin afsuski, amalda oila qo'rg'oni darz ketib, er-xotin ajrashishga majbur bo'ladigan holatlar ham yuzaga keladi. Bu paytda esa eng qattiq ma'naviy-ruhiy zarbaga uchragan insonlar – bu, norasida farzanlar bo'ladi. Noto'liq oilada voyaga yetayotganlarning soni esa yildan yilga oshib borishi achinarli, albatta.

"Oila – ijtimoiy institutlarning eng qadimgisidir. Insoniyat boshidan kechirgan tarixiy davrlarning qanchalik turfa va murakkab bo'lishiga qaramay, ayniqsa, XIX va XX asrlarda ro'y bergan buyuk o'zgarishlar va islohotlarga dosh bera olgan ushbu maskan o'z tizimi, tarkibi va jamiyat oldida turgan majburiyatlarini bajarishi nuqtayi nazaridan sog'-omon saqlanib qolgan tuzilmadir. Oilani insonlar tashkil etgani va undagi hayot-mamotni ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tashkil qilishini hisobga oladigan bo'lsak, uni sof psixologik jarayonlar maskani ham deb atash mumkin"[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida "Ta'lim va tarbiya sohasidagi tub islohotlarni yuksak bosqichga ko'tarish, mamlakatimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarini voyaga yetkazishga qaratilgan ishlarni izchil davom ettirish hammamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas burchimiz", deb bolaning yorqin kelajagi nafaqat ota-ona, ta'lim muassasasi xodimlari, fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlari vakillari, balki butun jamiyatning burchi ekanligini ta'kidlab o'tgan.

Asosiy qism. Biz olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarimizda ijtimoiy psixologiyaning metodlarga tayanilgan holda turli toifali oilalar, to'liq hamda noto'liq oilalarda tarbiyalanayotgan o'spirinlik yoshidagi qizlarning oilaviy munosabatlar, ota-onalik burch va vazifalaridan kelib chiqib, aynan otaning ijtimoiy mavqei hamda statusini ijtimoiy tasavvurlari va kutishlari vositasida o'rgandik va bu bizning asosiy maqsadimiz bo'ldi.

Noto'liq oilada voyaga yetayotgan bolalarning psixologik hamda axloqiy holatlari tahlil etilgan ushbu ilmiy maqolada quyidagi metodlar – suhbat, so'rovnoma, kuzatish, maxsus testlardan foydalanildi. Ilmiy maqolaning amaliy qismini yoritishda anketa so'rovnomalari va intervyu metodlaridan olingan ayrim natijalar bayon etildi.

O'zbekiston Respublikasining Bosh Qomusi bo'lmish Konstitutsiyada "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar", deb bolalarning haq-huquqlari qonuniy tartibda mustahkamlab qo'yilgan. Shuningdek, davlatimiz ushbu sohaga oid ko'plab Qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilgan, xalqaro hujjatlarga qo'shilgan, ratifikatsiya qilgan. "Oila entsiklopediyasi"da "Noto'liq oila – bu, ota-onalardan biri yo'q bo'lgan oila. Bu oila turida ota-onalarning ajrashib ketishidan tashqari, biror obyektiv va subyektiv sabablar natijasida: bemorlik, favqulodda hodisalar, o'lim, mehnat migratsiyasi tufayli er yoki xotinning o'zga yurtlarda qolib ketish holatlari ham uchraydi", deb "noto'liq oila" tushunchasiga ta'rif berilgan. Psixolog olim G'.B.Shoumarov shunday yozadi: "Ma'lumki, o'zbek oilalarida ajralishlar miqdori boshqa millatlar, masalan rus oilalarinikiga qaraganda ikki marta kam. Lekin har bir ajralishgan oilaga to'g'ri keladigan "tirik yetim" bolalar soni o'zbek oilalarida 2-2,5 martaga ko'p", deb, ayni shu holatning nechog'lik achinarli ekanligini ta'kidlagan.

Ta'kidlash lozimki, ajrashishdan keyin ma'naviy qurbonlar soni, bolalar hisobiga, o'zbeklarda afsuski ko'proq. Chet el olimlaridan E.A.Adnan, R.I.Rauf va boshqalarning "Ajrashuvni qabul qilish ta'limi", D.Mechanik va S.Hansellning "Ajrashish, oilaviy nizolar va ularning o'smirlik davri farovonligiga ta'siri", P.Basnet, P.Kampbellning "Oila tuzilishining bolalar ruhiy salomatligiga ta'siri:

[1] Васила Каримова. Оила психологияси, Тошкент. 2007 йил.

dastlabki tadqiqot" kabi maqolalarida oila mustahkaligini saqlash, ajrashish sabablarini o‘rganishdan ko‘ra, ajrashuvning oilada voyaga yetayotgan farzandlarning jismoniy va ruhiy sog‘lig‘iga bo‘lgan ta’siriga ko‘proq e’tibor qaratilgan. Solishtirib o‘rganadigan bo‘lsak, o‘zbek oilalarida ajrashish yuz berganda nafaqat farzand, balki er-xotin, ularning ota-onasi va yaqinlari ham psixologik og‘ir vaziyatga tushib qoladilar. Bu – o‘zbek mentalitetining og‘riqli bir nuqtasi hisoblanadi.

Aksariyat hollarda oilalar buzilganda, bolalar onada qoladi. Bunga sabab, onasi farzandini barcha talablarini, injiqliklarini yaxshi bilishi, ko‘p vaqtini asosan farzandi bilan o‘tkazganidadir. Ammo bu ota endi otalik vazifasidan ozod, degani emas. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 96-moddasida "Ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta’minot berishi shart. Voyaga yetmagan bolalariga ta’minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota(ona)dan sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug‘iga asosan aliment undiriladi", deyilgan. Qonun hujjatlarida belgilangan tartib asosida, bola manfaatlarini ko‘zlab, ota-onaning o‘zi ham aliment to‘lash tartibini kelishib olishlari mumkin. Shuningdek, "Agar voyaga yetmagan bolalariga ta’minot berish haqida ota-ona o‘rtasida kelishuv bo‘lmasa, ularning ta’minoti uchun aliment sud tomonidan ota-onaning har oydagi ish haqi va (yoki) boshqa daromadining bir bola uchun – to‘rtdan bir qismi; ikki bola uchun – uchdan bir qismi; uch va undan ortiq bola uchun – yarmisi miqdorida undiriladi. Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonunchilik bilan belgilangan mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 26,5 foizidan kam bo‘lmasligi kerak", deb voyaga yetmagan bola (bolalar) uchun aliment to‘lash tartibi va miqdori belgilangan. Islom dini tarixida ham ajrashish holatlari bo‘lgan. Bunday vaqtda, ya’ni ayol eri bilan oila bo‘lib yashab ketolmasligi aniq bo‘lgan, murosa yo‘liga o‘tilgan. Ya’ni, ayol va uning farzandlari uchun alohida uy ajratilgan va ota erlik vazifalarini bajarmasa ham, otalik burchini ado qilib, bolalarini moddiy va ma’naviy ta’minlagan. Shariat istilohida ota va ona ajrashganidan keyin go‘dak bolani o‘z qaramog‘iga olish va tarbiya qilish – "hizona" ("quchog‘iga olish") deyiladi. Ota-onaning nima sababdan va qanday holatda ajrashganlaridan qat’i nazar, onasi istab tursa, bola onaga beriladi. Agar ayol olishni istamasa, u majburlanmaydi. Lekin iloji boricha onaga, ona tomonidan ayol qarindoshga beriladi.

Sahoba Ali roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisga ko‘ra, "Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam "Xola ona bilan barobardir", dedilar", deyilgan. Yosh bolani qaramog‘iga olish kabi mas’uliyatning ma’naviy tomonini erkaklarga nisbatan ayollar yaxshi bajara olishlari hammaga ma’lum. Ammo hadisi shariflarga ko‘ra, bolani va bola tarbiyasi bilan band bo‘lgan onani moddiy ta’minlash otaning burchi bo‘lib qolavergan va bunday majburiyatdan bo‘yin toblash otalar uchun ham or hisoblangan. Bugungi kunda, asosan, ajrashishdan so‘ng bolalarning ta’minoti to‘liq onasining zimmasiga o‘tadi. Ota uchun esa nafaqat ayoli, balki farzandlari ham "sobiq"lik maqomini egallaydi. Endi ular undan uzoqda, "yomon" onasining qo‘lida, demak o‘sha ona boqib olsin, degan tushuncha bilan uyalmay, boshqa yangi hayot qurishni ko‘zlab yurgan odamlar oramizda oz emas. Bolaning ma’naviy holati u yoqda tursin, moddiy ehtiyojlari ham ta’minlanmaydi. Sud tomonidan undiriladigan aliment ham mutasaddi tashkilotlarning majburlovlari bilan, javobgarlikka tortilmaslik uchun to‘lanadi. Shunday otalar ham borki, o‘z farzandiga aliment to‘lovini qisqartirish uchun, begona insonlardan yordam so‘rab, "rozi qilish"larini aytib yuradilar. O‘z farzandiga shu pulni berish esa "uvol"dek tuyuladi. Go‘yoki bu bilan ular farzandlarini emas, sobiq rafiqalarini "yomonligi", "besabrligi" uchun jazolayotgandek. Lekin aslida kim qiynalmoqda? Kimning bolalik yillari o‘zining bolalik orzularini chegaralash bilan o‘tmoqda? Ayoli sobiqlik maqomini olgani bilan farzandlar shu inson naslining davomchisi hisoblanadi. Insoniylik, mardlik tuyg‘ularini unutmagan odam bolalarini na moddiy, na ma’naviy qiynoqlarda qolishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Noto‘liq oilalarda tarbiyalanayotgan farzandlar ruhiy holatlari so‘rovnoma va intervyu usullari orqali o‘rganildi. So‘rovnoma va intervyuda sifat ko‘rsatkichlari muhim asos qilib olindi:

1. Oila ishlari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislardan intervyu olindi. Intervyuda oila psixologlari bo‘lib ishlayotgan amaliyotchi mutaxassis o‘z fikr-mulohazalari bilan ishtirok etdilar.

2. Ajrashgan va farzandlarini bir o‘zi tarbiyalayotgan yolg‘iz ayollar uchun so‘rovnoma tuzildi. So‘rovnomada asosiy e’tibor respondentlarning o‘z boshlaridan kechirgan holatni to‘liq yoritib bera olishlariga qaratildi. Umumiy olganda so‘rovnomada 200 dan ziyod respondent ishtirok etdi. Mavzuimizga doir bir qancha savollarga respondentlardan javob olindi. Misol uchun, ajrashgan yoshlarga "Ajrashishingiz farzand(lar)ingizga qanday ta’sir qilgan?" deb berilgan savol ochiq tarzda tuzilgan bo‘lib, ishtirokchilar unga o‘z fikrlarini erkin tarzda bayon qilishlari kerak edi. Quyida kontent-analizda tez-tez qayd etilgan bir qancha natijalarini keltiramiz. "Yomon", "Dastlab tushkunlik holatiga kirib qolgandi, hozir yaxshi", "Buni vaqt ko‘rsatadi, hozircha hamma bolada ham qiyinchilik

seziladi", "Bolam dadasini bilmaydi, eslamaydi ham", "Albatta yomon. Ammo tinch, urush-janjallarsiz oilada voyaga yetayotgani yaxshi bo'layabdi, bolam bechora cho'chimay uxlayabdi", "Boshqa bolalarga nisbatan kamgap, ko'zlari mungli", "Agressiv bo'lib qoldi", "Ruhiyatiga ta'sir qildi albatta", "To'g'risi bilmayman. Farzandlarim bilan dadasi to'g'risida umuman gaplashmaymiz", "Hamma ajrashgan oilalar farzandlari ham tarbiyasiz, xudbin yoki agressiv katta bo'lmaydi, bu – hayot. Ajrashish – hayot tugadi, degani emas, ba'zan ajrashib, bolalarni ruhiy travmalardan saqlab qolish ham foydali. Bu o'sha farzandni tarbiyalayotgan onaga bog'liq ekan. Men farzandlarimga hech qachon otasi haqida salbiy fikrlarimni bildirmayman, yaxshisi katta bo'lishgach, o'zlari baho berishadi", "Farzandimga otasining nomini ham tiliga oldirmayman", "Otasiz bitta mening farzandim emas, dunyoning yarmi shu..." kabi javoblarni oldik.

Mutaxassislardan bu haqida so'ralganda (bu haqda mutaxassis maktab amaliyotchi psixologlar), hammalari, avvalo, ajrim ajrashganlarning farzandlariga salbiy ta'sir ko'rsatishini aytib o'tganlar. Masalan, ota-onasi ajrashgan bolalarda psixologik o'zgarishlar, o'zini agressiv tutish, tarbiya buzilishi, deviant xulq-atvorga moyillik, xavotir, o'ziga va odamlarga ishonmaslik, kelajakka nisbatan ishonchning yo'qligi, ayniqsa, balog'atga yetgan qizlarning turmushga chiqishga qo'rqishi, g'iybat, gap-so'zlarga nishon bo'lish, aybsiz aybdordek o'zini his qilish, bola bobo-buvisining uyida ham o'zini erkin his qila olmasligi, bolalikning erta tugashi kabilar kuzatilishini aytdilar. Kamdan-kam yarim yetim bolalar jamiyatda o'zlarini to'liq shaxs sifatida his qilib, namoyon qila oladilar, degan fikrlarni bildirdilar.

Albatta, har bir bolajon uchun bu qat'iy hukm emas. Ma'lumotlarga qaraganda, o'zini tutib olgan bunday toifa bolalar o'zining mustaqil fikriga ega bo'lib, boshqalar biror muammosini hal qilib berishini kutmasdan o'zi mustaqil qaror qabul qila oladi, o'z hayotiy pozitsiyasi, qattiyati bo'ladi. SHuningdek, psixologlarning fikriga ko'ra, oilaviy ajrim ajrashgan insonning aka-ukasi, opa-singlisining oila qurishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy fikr, mentalitet sababli insonlar ajrashgan odami bor oilaga qiz berish va qiz olishdan qo'rqishadi". Mahalla yig'inlaridagi xotin-qizlar vakillari esa, "Yoshlarning ota-onalari orzu-havas maqsadida tezroq farzandlarining oilali bo'lishlarini xohlashadi, nabiralarini katta qilishni orzu qilishadi. Lekin shoshma-shosharlik tufayli ko'pincha o'zlari va jondan aziz farzandlari jabr ko'radi. Ota-ona uchun farzandi kelajagi oldidagi ma'naviy javobgarlikdan ham og'irroq jazo yo'q. SHuningdek, agar qarindoshlar quda bo'lgan bo'lsa, ajrashish tufayli qarindoshlar o'rtasida nizolar kelib chiqib, yuz ko'rmas bo'lib ketadilar", kabi javoblar ko'proq qayd etildi.

Xulosa. Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlar, ilmiy tadqiqotlarga qaramasdan, afsuski, oilalar buzilishi holati yildan yilga ko'payib bormoqda. Eng achinarlisi, oilalar ajrashishidan nafaqat ikki inson, balki ularning yaqinlari, farzandlari ham moddiy, ham ma'naviy zarar ko'radi. Ajrashgan odamlar va ularning oila a'zolarida ruhiy tushkunlik, depressiya holatlari, insonlarga, kelajakka bo'lgan ishonchsizlik kuzatiladi. Bu ularning hozirgi kuni va kelajagiga, ish faoliyatidagi unumdorlikka, farzand tarbiyasidagi xotirjamlik va sabr-toqatiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Atrof-muhitdagi odamlar, yaqinlarining muhokama va g'iybatlari ularning ijtimoiylashishiga xalaqit beradi. Shuningdek, noto'liq oilada voyaga yetayotgan bolalarning xulq-atvorida agressiya, qonunbuzarlikka bo'lgan moyillik haqida o'zbek va chet el tadqiqotchilari ko'p bor to'xtalib o'tganlar. Achinarlisi – qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularda oilada erkakning roli, maqomi, burch va vazifalari to'g'risidagi tasavvurlar to'liq oila vakilalari bo'lmish qizlarnikidan sifat va miqdor jihatdan farq qilar ekan. Demak, istiqbolda birinchi guruh qizlarining bo'lg'usi oilasida o'zini adekvat tutishi, muomalaga tayyorligi, turmush o'rtog'i – eridan kutishlari hamisha ham to'g'ri va anaiq bo'lavermaydi.

Bundan tashqari, oilaviy hayot kechirayotgan va ajrashgan yoshlar bilan o'tkazilgan so'rovnoma (V.Karimova "Oilaviy tasavvurlarni o'rganish test-anketasi")dan olingan natijalarga ko'ra, farzand tarbiyasidagi salbiy yoki ijobiy o'zgarishlar bola to'liq yoki noto'liq oilada voyaga yetayotganigagina emas, balki bolani bevosita o'rab turgan, har kuni o'zaro shaxslararo munosabatlarga kirishadigan atrofidagi odamlarning u va yaqinlari haqidagi fikrlari, tasavvurlari, ijtimoiy kutishlarining mazmuniga, muhimi – voyaga yetayotgan o'smir oilasida hukm surayotgan ma'naviy hamda axloqiy muhitga bog'liq ekanligi aniqlandi.

Empirik tahlillar oila a'zolari bo'lmish ona va u tarbiyalayotgan o'smir yoshli qizlar uchun muhim qadriyatlar sifatida otaning yetakchilik roli, uning oilaboshi, ro'zg'orni tebratuvchilidan tashqari, bola tarbiyasi hamda ma'naviyati shakllanishida ham muhim o'rni borligini isbotladi. Muhim

xulosalardan biri shuki, noto‘liq oilada tarbiya ko‘rgan qiz bilan to‘liq oila vakilasi bo‘lmish qizlar tasavvurlarida muayyan farq va cheklanishlar mavjud ekanligi ham o‘z isbotini topdi. Ya’ni, tadqiqotlardan olingan natijalarga ko‘ra, oila mustahkamligida erning, otaning oiladagi o‘rnini oshirish masalasi dolzarbligi kelib chiqadi. Ayrim oilalarda ota va qiz farzand o‘rtasida muloqot, do‘stlik, hamfikrlilik kabi jihatlar yetishmaydi. Bu ayniqsa, noto‘liq oilalarda real kemtiklik sifatida yaqqol ko‘zga tashlanadi. SHu sabab, noto‘liq oilalarda sobiq er-xotinning farzand manfaati uchun do‘stona munosabat o‘rnatish lozimligi, ota o‘zining farzandi oldidagi nafaqat moddiy, balki ta’lim-tarbiyaga oid ma’naviy vazifasini unutmasligi kerakligini keng tarzda targ‘ib qilib borish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримова В. Оила психологияси, Тошкент. – 2007. – 170 б.
3. Акрамова Ф. ва бошқалар. Оила энциклопедияси. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2019. – 237 б.
4. Шоумаров Ғ. ва бошқалар. Оила психологияси. – Т.: Шарқ, 2010. - 295 б.
5. Adnan, A.A., Rauf, R.I., Argustang A., Ahmad, J. (2020). Agile leadershir and divorce education: percertion. Humanities and Social Sciences Letters, 8(3), 323330. DOI: 10.18488/journal.73.2020.83.323.330.
6. Mechanic, D. Hansell, S. (1989). Divorce, familu conflict and adolescents’ wellbeing. Journal of health and social behavior, 30(1), 105-116. httrs://doi.org/10.2307/2136916.
7. Basnet, R., Camrbell, R. (2017). Effect of familu structure on mental health of children: a rreliminaru studu. Indian Journal of Rsuchiatric Medicine, 39(4), 457-463. httrs://journals.sagerub.com/doi/rdf/10.4103/0253-7176.211767.
8. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. httrs://lex.uz/docs/104720. (Familu Code of the Re-rublic of Uzbekistan. httrs://lex.uz/docs/104720.)

UDK:159.923

Baqoyeva Zarina Rayimovna
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti o‘qituvchisi
E-mail: zbakaeva69@gmail.com

MUAMMOLI VAZIYATLARNI YECHISHDA O`SPIRIN YOSHDAGI BOLALARNI PSIXOLOGIK TAYORLASH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘spirinlik davrining psixik xususiyatlari, bu davrdagi aqliy va emotsional rivojlanish, shaxs xususiyatlari yoritiladi. Ularning ong va dunyoqarashining shakllanishi, o‘spirinlik yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ular bilan ishlash, muammoli vaziyatlarni yechish, ko‘nikma-malakalarini rivojlantirish masalalariga to‘xtalinadi. O‘spirinlik — bu odamning fuqaro sifatida shakllanishi, uning ijtimoiy jihatdan yetilishi, o‘z taqdirini o‘zi hal qilishi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi davri, kasbiy ko‘nikma va malakalarning o‘sishi, avvalo, o‘spirin intellektining umumiy rivojlanganlik darajasiga bog‘liq ekanligi ta’kidlab o`tilgan. O‘spirin o‘zining jismoniy kuchini va jozibadorligini, sog‘lomligi va mukammalligini his etish yigit va qizlarda o‘ziga ishonch, dadillik, tetiklik, optimizm va xushchaqchaqlik singari sifatlarning tarkib topishi alohida axamiyatga egaligi keltirib o‘tilgan.*

Kalit so`zlar: *Pedagogika, psixologiya, ilk o‘spirinlik, o‘spirinlik, intellektual rivojlanish, yetakchi faoliyat, muloqot, emotsional rivojlanish, yangi psixologik tuzilma.*

PSYCHOLOGICAL PREPARATION OF ADOLESCENT CHILDREN IN SOLVING PROBLEM SITUATIONS

Annotation. *This article describes the mental characteristics of adolescence, mental and emotional development, personality characteristics during this period. The formation of their consciousness and worldview, taking into account the age and psychological characteristics of adolescent children, working with them, and developing the skills to solve problematic situations will be discussed. Adolescence is a period of formation of a person as a citizen, his social maturity, self-determination, active participation in social life, growth of professional skills and abilities, first of all, general development of the adolescent's intellect. Adolescents feel their physical strength and attractiveness, health and perfection, and the development of qualities such as self-confidence, boldness, freshness, optimism and cheerfulness in boys and girls is of particular importance.*

Key words: *Pedagogy, psychology, early adolescence, adolescence, intellectual development, leadership activity, communication, emotional development, new psychological structure.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПОДГОТОВКА ДЕТЕЙ ПОДРОСТКОВ К РЕШЕНИЮ ПРОБЛЕМНЫХ СИТУАЦИЙ

Аннотация. *В данной статье описаны психические особенности подросткового возраста, психическое и эмоциональное развитие, особенности личности в этот период. Речь пойдет о формировании их сознания и мировоззрения с учетом возрастных и психологических особенностей детей-подростков, работе с ними, развитии навыков решения проблемных ситуаций. Подростковый возраст - это период становления человека как гражданина, его социальной зрелости, самоопределения, активного участия в общественной жизни, роста профессиональных навыков и умений, прежде всего, общего развития интеллекта подростка. зависит от уровня. Подростки ощущают свою физическую силу и привлекательность, здоровье и совершенство, при этом особое значение имеет развитие у мальчиков и девочек таких качеств, как уверенность в себе, смелость, свежесть, оптимизм и жизнерадостность.*

Ключевые слова: *Педагогика, психология, ранняя юность, подростковый возраст, интеллектуальное развитие, лидерская деятельность, общение, эмоциональное развитие, новая психологическая структура.*

Har qanday kasbiy ko‘nikma va malakalarning o‘sishi, avvalo, o‘spirin intellektining umumiy rivojlanganlik darajasiga bog‘liq. Shuning uchun ham bu davrdagi o‘spirinlar intellektining rivojlanishiga alohida e’tibor berish lozim. O‘zining kasbiy taqdirini tasodifan yoki noto‘g‘ri hal etilishi mu-

rakkab ichki kechinmalarga, ikkilanishlarga, ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Bu esa yigit va qiz hayoti uchun ham, jamiyat uchun ham katta zarar keltiradi. Kasb tanlash vaqtida ilk o‘spirinlar o‘z moyilligi va qobiliyatlarini shaxsiy sifatlar, xususan, nerv sistemasining tipi, analizatorlar xususiyati emotsional-irodaviy sifatlarini ham hisobga olishlari zarur.

Psixologik madaniyat – bu shaxs tomonidan ishlab chiqilgan va o‘zlashtirilgan konstruktiv usullar, o‘z-o‘zini bilish, muloqot qilish, his-tuyg‘ular va harakatlarni o‘z-o‘zini tartibga solish, ijodiy izlanish, biznesni boshqarish va o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalari tizimi. Rivojlangan shaklda u hayotning turli turlarini o‘z-o‘zini tashkil etish va o‘zini o‘zi boshqarishning yuqori sifati bilan ajralib turadi. Mumkin bo‘lgan darajada, bu ularning ehtiyojlari va tendentsiyalarining xususiyatlarini, xarakter xususiyatlari, munosabatlari va qadriyatlarini yaxshi o‘z-o‘zini shuningdek ularni amalga oshirish jarayonlarini optimal qurishda namoyon bo‘ladi. Bu, birinchi navbatda, inson hayotining xulq-atvor, faoliyat jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, uning haqiqiy harakatlarida namoyon bo‘ladi va o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatlarining tajribasiga asoslanadi. Bu erda qimmatli, rag‘batlantiruvchi jihat ham bor: rivojlangan psixologik madaniyatga ega bo‘lgan shaxs uchun o‘zini optimal tutish, har safar o‘zi va boshqalar uchun maqbul bo‘lgan iqtisodiy xatti-harakatlar usullarini topish muhimdir. “Madaniy” so‘zi o‘z shaxsi va tanasining istaklari va maqsadlarini hisobga olgan holda, boshqa insonlarning idrokini va umuman tabiat qonunlarini hisobga olgan holda yaratilgan xatti-harakatlar namunalarini anglatadi.

Ilk o‘spirinlik yoshidagi bolalar bu 15 yoshdan 17-18 yoshgacha bo‘lganlardir. O‘spirinlik — bu odamning fuqaro sifatida shakllanishi, uning ijtimoiy jihatdan yetilishi, o‘z taqdirini o‘zi hal qilishi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi davri, fuqaro va vatanparvarning ma’naviy sifatlari tarkib topadigan davrdir. Faol ijtimoiy hayot, o‘qishning yangi xarakteri (mustaqil bilim olish) yigit va qizlarda dunyoqarashning shakllanishiga, ularda mustaqillik va burch hissining tarkib topishiga, bilimning turli sohalarida ularning ijodiy qobiliyatini avj oldirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Rus psixologi L.I.Bojovich ilk o‘spirinlik davrida shaxs motivatsion sohasining rivojlanishiga urg‘u beradi: o‘quvchilarning hayotda o‘z o‘rnini va ichki pozitsiyasini aniqlashi, dunyoqarashning shakllanishi va uning bilish faoliyatiga, o‘z-o‘zini anglashga va axloqiy ongga ta’siri nazarda tutiladi. Ilk o‘spirinlar mustaqil hayot sohasida yaqin istiqbolga ega bo‘lar ekanlar, o‘zlarining hayot yo‘llarini belgilab olishga, bundan buyongi mehnat faoliyatlarining aniq istiqbollarini aniqlab olishga, o‘zlarining kelgusi ixtisoslarini tanlashga intiladilar. Shu munosabat bilan kasb-hunarga oid qiziqishlar tarkib topadi va yanada barqarorroq boiib qoladi, yigit va qizlar o‘z kelajaklari haqida jiddiyroq o‘ylay boshlaydilar. Ilk o‘spirinlik davridagi jismoniy rivojlanish ustida to‘xtalib o‘tamiz, bu narsa quyidagi sabablarga ko‘ra muhimdir. Jismoniy rivojlanishning ayrim xususiyatlari ilk o‘spirin shaxsining ayrim sifatlari rivojlanishiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi va uning bundan keyingi hayot faoliyati sohasidagi imkoniyatlarin bir qadar belgilab beradi. Birinchidan bu o‘rinda kasb tanlash nazarda tutiladi, bu esa ma’lum darajada yigit va qizlarning individual jismoniy tuzilishi xususiyatlariga ham bog‘liqdir. Ikkinchidan, jinslarning o‘zaro mayli ta’sir ko‘rsatadiki, bunda jismoniy rivojlanish xususiyatlari ancha muhim rol o‘ynaydi. O‘zining jismoniy kuchini va jozibadorligini, sog‘lomligi va mukammalligini his etish yigit va qizlarda o‘ziga ishonch, dadillik, tetiklik, optimizm va xushchaqchaqlik singari sifatlarning tarkib topishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Tadqiqot jarayonida Ta’lim to‘g‘risida qonun, Sh.Mirziyoyev asarlari, mavzuga doir adabiyotlar hamda internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo‘llanildi.

Muhokama va natijalar.

Ilk o‘spirinlarning bilish jarayonlari shunday darajaga yetadiki, kattalar bajaradigan barcha aqliy ishlarni bajarishga amaliy jihatdan tayyor bo‘ladilar. Ularning bilish jarayonlari murakkab va egiluvchan bo‘lib boradi. Ular bu yoshga kelib jiddiy ishlarga ko‘p vaqtlarini ajrata boshlaydilar, dam olish va o‘yin-kulguga juda kam vaqt ajratadilar. Ularning barcha bilish jarayonlari, jumladan, xayol, xotira, nutq, tafakkur rivojlanadi. Ilk o‘spirinlik yoshidagi o‘quvchilarning bilish jarayonlari turli nuqtayi nazarlarni tahlil etishga va bu masala bo‘yicha har tomonlama fikr yuritishga yordam bera oladi. Bilishga qiziqishning rivojlanishi, o‘qishga ongli munosabatda bo‘lishning o‘sishi bilish jarayonlarining ixtiyoriyligini, ularni boshqara olish mahoratini yanada rivojlantirishga undaydi. Bu yosh davrining oxiriga borib, o‘quvchilar o‘zlarining bilish jarayonlarini to‘la-to‘kis egallab oladilar, ularni hayot va faoliyatning muayyan vazifalariga bo‘ysundiradilar. Ular axloqiy va siyosiy va boshqa mavzular bo‘yicha erkin fikrlaydilar. Ilk o‘spirinlarga umumiydan xususiyga, xususiydan umumiyga xulosa

chiqarish, ya'ni induksiya va deduksiya xosdir. Ilk o'spirinlar ko'pchilik ilmiy tushunchalarni o'zlashtiradilar, turli masalalarni yechish jarayonida ulardan foydalanishni o'rganadilar. Bu esa ularda nazariy yoki so'zmantiq tafakkurning rivojlanganligini bildiradi. Kuzatish aniq maqsadga qaratilgan va yanada sistemali bo'lib boradi. Shaxsning kuzatuvchanlik xususiyati rivoj topadi. O'spirinlarda moddiy dunyo to'g'risida shaxsiy fikrlar, mulohazalar, ilmiy dunyoqarash tarkib topganidan keyingina tafakkurning tanqidiylik xususiyati rivojlana boshlaydi. Tanqidiy tafakkurning rivojlanishi o'quv materiallarini puxta o'zlashtirishga, ta'lim jarayonida tashabbuskorlikka, voqelikni isbotlash va asoslash ko'nikmalari tarkib topishiga imkon yaratadi. Hodisalar to'g'risida hukm va xulosa chiqarish, tasdiqlash yoki inkor qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'spirinning qobiliyati va iste'dodi ta'lim jarayonida, mehnat faoliyatida rivojlanadi. Qobiliyatning o'sishi bilimlar, ko'nikmalar, malakalarning sifatiga bog'liq bo'lib, shaxsning kamol topish jarayoniga qo'shilib ketadi. Demak, maktabda o'tiladigan, darslar, laboratoriya ishlari, amaliy mashg'ulotlar, referat, konspekt yozish kabi faoliyat turlari o'spirinlar o'zlashtirish uchun zarur materiallarni mustaqil holda tushunishga olib keladi. Shaxsning bilish jarayonlari uning emotsiyalari bilan bog'liq. O'smirlik davridagi kuchli emotsional reaksiyalar garmonal va fiziologik jarayonlarga bog'liq. O'smir va o'spirinlardagi emotsional reaksiyalar faqat garmonal o'zgarishlarga bog'liq bo'lib qolmay, balki ijtimoiy omillar va tarbiya sharoitlari, individual-tipologik farqlarga ham bog'liq. Katta bo'lishdagi psixologik qiyinchiliklar, "Men" obrazi va intilish darajasi orasidagi qarama-qarshilik kabi o'smirga xos boigan emotsional zo'riqish, ilk o'spirinlik davrida ham saqlanib qoladi. Shunday qilib, ilk o'spirinlarning emotsiyalari, intellekt singari aniq qo'zg'atuvchi bu sinaluvchi uchun qanday ahamiyatga egaligini hisobga olmasdan o'lchash mumkin emas. Ilk o'spirinlik davridagi emotsional qiyinchilik va muammolarni aniq qarab chiqish lozim, chunki ularning kelib chiqish sabablari har xil. O'smirlik davridagi dismorfofobiya — o'z tanasi va tashqi ko'rinishidan tashvishlanish ilk o'spirinlik davrida o'tib ketadi. Ilk o'spirinlarda namoyon bo'ladigan xavotirlanish belgilari bu yoshdagi maxsus qiyinchiliklarga reaksiya emas, balki ilgari olingan ruhiy jarohatlanishning keyin namoyon bo'lishidir. Ko'pchilikda o'smirlikdan ilk o'spirinlikka o'tishda muloqotchanlik va umumiy emotsional kayfiyat yaxshilanadi.

Xulosa va takliflar.

Shunday qilib, xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, ilk o'spirinlik yoshi emotsional holatlarni ifodalash usullari va emotsional reaksiyalarning differensiallashishini hamda o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini boshqarishning ortishini kuzatish mumkin. Ilk o'spirinlarning kayfiyati o'smirlarga nisbatan barqaror va anglangan hamda ijtimoiy sharoitning keng doirasiga mos bo'ladi. Doimo hissiyot vujudga keltiradigan shaxsiy muhim munosabatlar doirasining kengayishi oliy hislarning rivojlanishida namoyon bo'ladi. Axloqiy norma va tamoyillarning ma'lum tizimini o'zlashtirish jamiyat va boshqa odamlar oldida mas'uliyat hissi, hamdardlik qobiliyati, do'stlik va muhabbat ehtiyoji, o'rtoqlik hissi va axloqiy-siyosiy hislar kabi yuksak axloqiy hislarga aylanadi. Ilk o'spirin tomonidan qabul qilingan xulq-atvor normalarining buzilishi unda aybdorlik hissini vujudga keltiradi. Insonda shakllangan psixologik madaniyat - bu ichki ehtiyojlar, imkoniyatlar va atrof-muhit xususiyatlarini hisobga olgan holda o'z intilishlarini oqilona tashkil etish va o'zini o'zi amalga oshirish. Psixologik madaniyat maqbul turmush tarzi va rivojlangan ma'naviy qadriyatlar bilan birga shaxsning barqaror uyg'un faoliyatini ta'minlaydi va ayni paytda uning ko'rinishlaridan biridir. Bu insonning umumiy madaniyati va uning yaxlit uyg'unligining muhim qismi bo'lib, pirovardida shaxsning istak va maqsadlarini maqbul tarzda amalga oshirish, "yaxshi hayot" ni ta'minlashning shaxsiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shaxsning psixologik madaniyati xulq-atvorning asosiy jarayonlarini qurish va ularni boshqarishning uyg'unligining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Bu, birinchi navbatda, harakatlar va his-tuyg'ularning o'zini o'zi boshqarishda, muloqotning konstruktivligida va turli ishlarni konstruktiv boshqarishda, o'zini o'zi belgilash, ijodkorlik va o'z-o'zini rivojlantirish jarayonlari mavjudligida namoyon bo'ladi. Ushbu metodika kontekstida psixologik bilimlar madaniyati haqida emas, balki ko'proq psixologik jarayonlarni bajarish madaniyati haqida gap boradi.

O'spirinlik betakror xislati, o'ziga xosligi, boshqa odamlardan keskin farqlanishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, o'spirinlik shaxs sifatida noaniqligi muayyan rolni uddalamaslik, qat'iyatsizlik singari salbiy sifatlarga ham egadir. Mazkur davrning eng muhim xususiyati "rolini kechiktirish"ning o'zgarishi hisoblanadi. U ijtimoiy hayotda bajarayotgan rollarning ko'lami kengayadi, lekin ularning barchasini jiddiy egallash imkoniyatiga ega bo'lmaydi, shuningdek, rollarda o'zini sinab ko'rish bilan cheklanadi.

Yuqori darajadagi psixologik madaniyat rivojlanishi aqliy moslashuvning bilvosita ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qilib – shaxs va atrof-muhitning istaklari o‘rtasidagi optimal muvofiqlikni o‘rnatish jarayoni, respondentning haqiqiy ehtiyojlari va maqsadlarini samarali amalga oshirish imkoniyatlarini yuzaga chiqarishi mumkin. Ushbu sifatlarni o‘spirin yoshidagi bolalarda ham kuzatish mumkin, chunki ular shaxs shaxsiyati faoliyatining umumiy xususiyatlarini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonova G.F. “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” 3(4), April, 2023.

2. Ахмедова М.Х. Духовно-нравственное воспитание в процессе непрерывного образования // Молодой учёный. № 3 (107). 02, 2016. - 784 с.

3. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojibayeva R.N. Mustaqil fikrlash. — T.: Sharq. 2000.

4. Rayimovna B.Z. (2023). O‘spirinlik davrida kasbga yo‘naltirishning ijtimoiy psixologik muammolari. barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 3(10), 19-21.

5. Райимовна Б.З. (2022). Влияние социально-психологического тренинга на подготовку будущих учителей. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(11), 317-318.

6. Райимовна Б.З. (2022, март). Ситуации, факторы, последствия образа жизни и их эффективные решения, вызывающие стресс и депрессию. В конференц-зоне (стр. 153-154).

7. O‘risheva P.G‘. International journal of philosophical studies and social sciences Vol 2, Issue 1 2022.

Beknazarova Lola Sadinovna
Qarshi davlat universiteti psixologiya
kafedrasi professor, psixologiya fanlari nomzodi

IJODIY-INNOVATSION TA'LIMDA "TALABA-TALABA" HAMKORLIGINING EMPIRIK KO'RSATKICHLARI

Annotatisya. *Maqolada empirik tahlillar asosida ijodiy-innovatsion ta'limning samarali bo'lishi uchun "talaba-talaba" hamkorlik faoliyati ta'lim jarayonini samarali tashkil etishning muhim ijtimoiy-psixologik jihatlari sifatida ko'rsatib o'tilgan.*

Tayanch iboralar: *innovatsion-ta'lim, talaba, hamkorlik, jipslik, ta'lim, texnologiya, daraja, guruh, ijtimoiy muhit, muammo, ijtimoiy faoliyat.*

EMPIRICAL INDICATORS OF "STUDENT-STUDENT" COOPERATION IN CREATIVE-INNOVATIVE EDUCATION

Annotation. *Based on empirical analysis, the "student-student" cooperation activity for the effectiveness of creative-innovative education is shown as an important socio-psychological aspect of the effective organization of the educational process.*

Keywords: *innovative-education, student, cooperation, cohesion, education, technology, level, group, social environment, problem, social activity.*

ЭМПИРИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ СОТРУДНИЧЕСТВА «СТУДЕНТ-СТУДЕНТ» В ТВОРЧЕСКО-ИННОВАЦИОННОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. *На основе эмпирического анализа показано сотрудничество «ученик-ученик» для эффективности творчески-инновационного образования как важный социально-психологический аспект эффективной организации образовательного процесса.*

Ключевые слова*: инновационно-образование, студент, кооперация, сплоченность, образование, технология, уровень, группа, социальная среда, проблема, социальная активность.*

Kirish. Dunyo miqyosida, ta'ilm olish reytingda yuqori bo'lgan oliy o'quv yurtlarida ijodiy-innovatsion ta'lim shaklini yanada rivojlantirish hamda uning o'quv-uslubiy bazasini yanada takomillashtirish ishlarida, ijtimoiy-psixologik yondoshuvlardan kengroq foydalanish, oliy o'quv yurti talabalarining o'quv jarayonini ijodiy-innovatsion o'zlashtirishiga xizmat qiluvchi determinantlarni aniilash va rivojlantirish shuningdek, muvaffaqqiyatli o'quv faoliyati va vazifalarga ijodiy yondashish, muammoli vaziyatlarni oqilona hal eta olish, ta'lim istiqbollarini oldindan ko'ra bilish, o'quv faoliyatiga ijodiy yondashish, produktiv fikrlash uslubi, ta'limda yetakchilik, ma'lumotlarni tez idrok qila olish hamda yangi g'oyalarni tezkor yarata olish qobiliyati kabi unsurlarni ijtimoiy-psixologik omillar orqali tadqiq etish hozirga qadar, dunyo mutaxassislari tomonidan eng dolzarb muammo sifatida o'rganilmoqda.

P.S.Gluxovning co'zlariga ko'ra, innovatsion faoliyat - bu kundalik hayot o'zgarishlari bilan birga yashash, mahsulotlarning yangi turlarini yaratish, asbob-uskunalar va mehnat obyektlarini qayta takomillashtirish, texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni zamon talablari doirasida tashkil eta olish kabi qobiliyatlarga ega bo'lishning dinamik tizimidir [3.37]. Demak, innovatsion faoliyat har qanday sohada hozirgi kun talablari va o'zgarishlari bilan ham nafas bo'lib yashash hisoblanadi.

Y.A.Afoninning fikricha, innovatsiyalar bu – insonlarning moddiy va ma'naviy faoliyati mahsuli bo'lib, ularning aqliy darajasini belgilovchi harakatlari dinamikasi sanaladi. Asha shu harakatlar yangi madaniyat mahsulini yaratuvchi ijtimoiy omillar hisoblanadi [4.37].

Ushbu fikrlarga ko'ra, ijodiy-innovatsion jarayonning natijaviyligini ta'minlashda «o'qituvchi-talaba», «talaba-talaba» hamkorlik muhitining o'rni va ahamiyatini tahlil etish muhim bo'lgan masalaning yechimini topishda ijtimoiy-psixologik jihatdan yondashgan holda faoliyat olib borishni taqozo etadi. Shu bois, tadqiqot ishini olib borishda talabalarning o'quv mashg'ulotlari jarayonida topshiriqlarni bajarishi, guruhdagi hamjihatlik, jipslik va qadriyatlarning ahamiyati muhim degan g'oyani ilgari surishga harakat qildik. Ijodiy-innovatsion muhit bir jihati bilan talabalarning individual

faoliyatini, ikkinchi tomondan esa guruh a'zolarining bir-birini qo'llab-quvvatlashlash hamda hamkorlik faoliyatlarini taqozo etadi. Aslida, oliy ta'lim muassasasidagi talabalarning ixtisoslikni egallashga yo'naltirilgan bilimlari kasbiy tayyorgarligi va shaxsiy faoliyatining muhim sharti hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, bugungi oliy ta'limdagi talaba istiqbolda hamkasblar sifatida kasbiy, ilmiy tadqiqot va jamiyatdagi muammolarni hamkorlikda hal etishni taqozo etadigan faoliyat subektlari hisoblanadi. Shu sababli talabalar guruhida hamkorlik va jipslikni o'rganishdan asosiy maqsad innovatsion ta'lim muhitini joriy etishdagi ahamiyatini tadqiq etishdan iborat.

Metodlar: Tadqiqotda foydalanilgan L.M.Fridman, V.S.Ivashkin va V.V. Onufriyevalarning "O'quv guruhidagi jipslik va qadriyatlar birligi indekslarini aniqlash" metodikasidan foydalanildi. Bu esa tadqiqotda jalb etilgan o'quv guruhlaridagi jipslik va qadriyatlarning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash imkoniyatini beradi. Metodikani tatbiq etishda har bir talabalar guruhiga metodikaning tatbiq etish shartiga ko'ra 35 ta guruhga xos bo'lgan sifatlar taqdim etildi. So'ngra empirik ko'rsatkichlar qayta ishlandi va natijalar ikki xil tipga ajratildi.

Natija va mulohazalar: Empirik ko'rsatkichlarning birinchi toifasi talabalar guruhidagi jipslik va hamjihatlik darajasini, ikkinchi holat esa talabalar guruhidagi qadriyatlar yo'nalishlari birligidagi ustuvor qadriyatlarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotda 396 nafar talabalar guruhining (tadqiqotda jalb etilgan ta'lim muassasalari) tarkibidagi sinaluvchilar har xilligiga ega bo'lgan 13 ta talabalar guruhiga asoslanildi. Empirik tahlillarga ko'ra talabalar guruhidagi jipslikning darajalari quyidagi mezonlar bo'yicha: guruhdagi jipslik indeksi (Gj): Gj<0,30; 0.30<Gj<0,50 va Gj>0,50 lari baholandi. Guruhiy jisplik indekslariga ko'ra talabalar guruhining miqdoriy ko'rsatkichi quyidagi tizimga ega bo'ldi. Indekslarning darajasiga ko'ra talabalar guruhidagi jipslik uch darajaga ajratildi

Jadval-1

Talabalar guruhidagi jipslik indeksiga ko'ra guruhlarning taqsimoti ko'rsatkichi

Guruhiy jipslik bo'yicha guruhlar taqsimoti	Guruhiy jipslikning o'rtacha indeksi	Guruhiy jipslik darajalari
7 ta o'quv guruhi	0,28	Quyi
5 ta o'quv guruhi	0,41	O'rta
1 ta o'quv guruhi	0,54	Yuqori

Talabalar o'quv guruhida dastlabki empirik ko'rsatkichlarga ko'ra 7 ta o'quv guruhidagi qiymatlar metodikaning Gj<0,30 qiymatidan past, ya'ni Gj=0,28 darajani aks ettirdi. Ushbu indeks talabalar guruhidagi jipslik quyi darajada ekanligidan dalolat beradi. Ushbu guruhlar rasmiy shakllantirilganligi sababli faoliyat olib boradi. Guruhning o'zaro bir-biri bilan munosabatlarida yaxlitlikka ega emasligi, yakdil fikrlar chiqishi qiyin, guruhdagi muammolarni hal etish yoki biri birini qo'llab-quvvatlash hamda o'quv mashg'ulotlari bo'yicha muammolarni yechishda ayrim (ichki kichik guruhchalar) guruhchalardan tashqari holatlarda guruh bir birini qo'llab-quvvatlamaydi. Guruhning har bir a'zosini ta'lim jarayonida o'zi o'zi bilan ko'proq mashg'ul bo'lishga xayrixohdir.

Guruhiy jipslikning ikkinchi darajasiga ko'ra 5 ta guruh o'rtacha darajadagi jipslikka ega ekanligi kuzatildi. Ularning guruhiy jipsligi 0.30<Gj<0,50 meyoriy ko'rsatkich oralig'idan, ya'ni Gj=0,41 indeksdan iborat bo'ldi. Ushbu guruhlardagi talabalarning munosabatlarida ayrim holatlarda hamjihatlik kuzatilsa, ayrim holatlarda guruhda hamjihatlik alomatlari kuzatiladi. Ayrim hollarda guruhiy masalalarni yechishda guruhning birlashtiruvchi yetakchilarga zarurat tug'iladi. Shu sababli ham ularda jipslik bilan tarqoqlik almashib turadi. Ushbu guruhlardagi jipslik o'rtacha daraja ko'rsatkichiga ega bo'ldi.

Uchinchi darajadagi jipslik indeksiga ega bo'lgan 1ta guruh aniqlandi. Ushbu guruhdagi jipslik indeksi Gj>0,50 meyorga mos keldi. Talabalar guruhidagi jipslik darajasi Gj=0,54 indeksga ega bo'ldi. Bu guruhdagi talabalar o'rtasida hamjihatlik, jamoaviylik, bir-birini tushunish, qo'llab-

quvvatlash, guruh a'zolari o'zaro qullab-quvvatlash, bir-birini dildan tushunish darajasida shakllangan. Ularning hamjihatligi va jipsligi ham yuqori darajada ekanligi kuzatildi.

Yuqoridagi empirik ko'rsatkichlarning ikkinchi tahlili esa talabalar guruhidagi jipslikning darajasiga ko'ra qadriyatlar birligining holatini aniqlashga e'tibor qaratildi. Talabalar guruhidagi jipslikning shakllanganlik darajasidan kelib chiqib, guruhdagi qadriyatlar birligi aniqlandi.

Quyi guruhiy jipslikka ega bo'lgan talabalar guruhidagi qadriyatlar birligi ko'rsatkichilarini aniqlashga e'tibor qaratildi. Buning uchun psixologik o'lchash shkalalarni qayta ishlashning chastotali va ranjirovka usuliga tayanildi.

Jadval-2

Jipslik darajasiga ko'ra talabalar guruhidagi qadriyatlar birligi holati

№	Shkalalar	Jipslik darajasi					
		Quyi, n=239		O'rta, n=1		Yuqori, n=28	
		o'rtacha chastota	rang	o'rtacha chastota	rang	o'rtacha chastota	rang
1	Ta'limga munosabat	117.83	5	80,37	6	22,25	5
2	Xulq-atvor va faoliyat- ning umumiy uslubi	131.28	4	84,43	4	27,01	3
3	Bilimni tavsiflovchi sifatlar	140,67	3	90,17	1	23,59	4
4	Aqliy sifatlari	141.38	2	87,46	2	31,87	2
5	O'quv-tashkiliy ko'nikma larni tavsiflovchi sifatlar	72.78	7	62,23	5	21,38	6
6	O'rtoqlariga munosabat	105.91	6	86,78	3	33.15	1
7	O'z-o'ziga munosabat	163,27	1	47,14	7	17,45	7

Talabalar guruhida jipslikning darajalariga ko'ra qadriyatlar yo'nalishiga e'tibor qaratildi. Turli jipslik darajasiga ega bo'lgan talabalar guruhida qadriyatlar yo'nalishida tafovutlar va o'xshashliklar kuzatildi. Ammo qadriyatlar yo'nalishining namoyon bo'lish ahamiyatiga ko'ra ijtimoiy va individual mazmundagi qadriyatlar kuzatildi.

Quyi jipslik darajasida bo'lgan talabalar guruhida eng yuqori rangdagi qadriyat o'z-o'ziga munosabat (1-rang), 2-rang aqliy sifatlarga, 3-rang bilimni tavsiflovchi sifatlar, 4-rang xulq-atvor va faoliyatning umumiy uslubi, 5-o'ringa ta'limga munosabat, 6-rang o'rtoqlariga munosabat, 7-rang o'quv-tashkiliy ko'nikmalarni tavsiflovchi sifatlardan iborat bo'ldi. Bundan ko'rinadiki, jipsligi quyi darajadagi talabalar guruhida shaxsning individualligini o'zida aks ettiruvchi qadriyatlar muhim o'ringa ega bo'ldi. Ular ko'proq o'zlarining o'z-o'ziga munosabati, aqliy sifatlarini kuchaytirish, bilimini tavsiflovchi qadriyatlarga urg'u berishdi. Bundan qadriyatli talabalar guruhida kursdoshlar bir birlarini qo'llab-quvvatlashdan ko'ra o'zlariga yuklatilgan vazifalarni ko'proq bajarishga xayrixohlik bildirishi kuzatildi. Bu talabalarning individuallashuvini kuchaytirsa-da, ammo hamkorlikda ishlash muhitini shakllanishida cheklanishlar kuzatiladi.

O'rtacha jipslik darajasiga mansub talabalar guruhida 1-rang bilimni tavsiflovchi sifatlar, 2-rang aqiliy sifatlar, 3-rang o'rtoqlariga munosabat, 4-o'rin xulq-atvor va faoliyatning umumiy uslubi, 5-rang o'quv-tashkiliy ko'nikmalarni tavsiflovchi sifatlar, 6-rang ta'limga munosabat, 7-rang o'z-o'ziga munosabatdan iborat qadriyatlar o'rin olgan. O'rtacha jipslik darajasidagi talabalar guruhida guruhiy va individual mazmundagi qadriyatlardan iborat. Bu toifa guruh a'zolari o'zlari bilan bir qatorda o'zgalarga ham e'tibor qaratishga harakat qiladilar, ammo bunday munosabatlar hamkorlikni doimiy ta'minlashga xizmat qila olmasligi ham mumkin.

Yuqori jipslik darajasidagi talabalar guruhida qadriyatlar quyidagi ko‘rinish oldi: 1-rang o‘rtoqlariga munosabat, 2-rang aqliy sifatlar, 3-rang xulq-atvor va faoliyatning umumiy uslubi, 4-rang bilimni tavsiflovchi sifatlar, 5-rang ta’limga munosabat, 6-rang o‘quv-tashkiliy ko‘nikmalarni tavsiflovchi sifatlar va 7-rang o‘z-o‘ziga munosabatlardan iborat. Yuqori jipslik darajasidagi guruhlardagi qadriyatlarda ijtimoiy munosabatlarni taqozo etadigan qadriyatlarga ustuvorlik berilgan. Bu toifa guruh talabalarida o‘zlari va kursdoshlari bilan munosabatlari o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etishi kuzatildi.

Empirik ko‘rsatkichlarda aqliy sifatlari bo‘yicha qadriyatlar barcha guruhlarda bir xil rang (2-rang) aks etdi. Bundan ko‘rinadiki, individual va ijtimoiy ahamiyatli qadriyatlarni yoqlovchi, hamda jipslik darajasi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar talabalarda aqliy sifatlar asosiy qadriyat sifatida talabalar guruhida e’tirof etilgan.

Talabalar guruhidagi hamjihatlik darajasidan kelib chiqqan holatda ta’lim jarayonidagi “talaba-talaba” hamkorlik muhiti ijodiy-innovatsion ta’lim jarayonida qanday ahamiyat kasb etish tadqiqotning navbatdagi empirik ko‘rsatkichlarida aks etdi.

Tadqiqotning tashkil etish bosqichidagi dasturga ko‘ra talabalarning ta’lim muhitida ijodiy-innovatsion faoliyatini tashkil etishga e’tibor qaratildi. Bunda talabalarning an’anaviy ta’lim muhitidagi holati, mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishlari, loyiha-tadqiqotchilik faoliyati tashkil etildi.

Tadqiqotning ushbu bosqichida talabalarni ijodiy-innovatsion faoliyatini tashkil etishda quyidagi mezonlarga asoslanildi:

– tayyor innovatsiyalardan foydalanish;
– ta’lim muhitiga yangi g‘oyalarni, metodlarni kiritish;
– yangi g‘oyani amalga oshirish mazmuni, shakl va metodlarini tizimlashtirish;
– ta’lim jarayonida ijodiy-innovatsion muhitni shakllantirishga erishish kabi mezonlarga asoslanildi.

Ushbu mezonlarga asoslangan holatda “talaba-talaba” munosabatining ustuvorligi quyidagi tartibda aniqlandi:

– ta’lim muhitini natijaviyligini ta’minlash;
– hamkorlik muhitini shakllantirish;
– talabla-talaba o‘zaro munosabatlarini optimallashtirish;
– talabaning hamkorlik muhitida ishlashdagi o‘quv natijalarini ta’minlash.

O‘quv guruhlaridagi jipslikning talaba-talaba munosabatini tashkil etishdagi o‘rni tadqiq etildi.

Tadqiqotning ushbu bosqichida ijodiy-innovatsion ta’lim jarayonida talabalar hamkorlik munosabati shakllantirishda qaysi mashg‘ulot shaklidan foydalanishga ko‘ra ularning ahamiyatlilik darajasi baholandi. Har bir innovatsion-ta’lim muhitini tavsiflovchi o‘quv-mashg‘ulot shakllari mashg‘ulotlar yakunida quyidagi baho mezonlariga asoslanildi:

– faollikni oshirish;
– o‘quv materiallarni tushunarlik darajasini ta’minlash;
– amaliy xarakterga egaligi;
– hamkorlikni ta’minlash darajasi (talaba-talaba, pedagog-talaba);
– samaradorlik darajasi
– ijodiy yondoshuvga egaligi;
– ta’lim maqsadiga erishishni ta’minlash xususiyati;
– o‘quv mashg‘ulotdan ta’lim oluvchining qoniqishi;
– o‘quv mashg‘ulotlarda joriy etish ahamiyati;
– doimiy foydalanish mumkinlik darajasi. Ushbu mezonlarning har biri ta’lim shakllarining samaradorlik darajasini baholash uchun xizmat qiladi. Agar ushbu mezonlar mashg‘ulotlar davomida aks etganda talabalar tomonidan har biri 1 ball bilan baholanadi.

Ijodiy-innovatsion ta’limni tashkil etiladigan mashg‘ulot shakllarining “talaba-talaba” hamkorlik munosabatlarini shakllantirishdagi o‘ziga xosliklarning empirik ko‘rsakichlari bir qator ahamiyatli qiymatlarga ega bo‘ldi. Ijodiy-innovatsion ta’lim muhitida mustaqil ta’lim topishiriqlariga tayanishda yuqori hamjihatlik guruhi talabalari (272,75) quyi (249,07) va o‘rta (188,9) jipslik darajasidagi guruhlarga nisbatan ustuvor qiymatni aks ettirdi ($H=35,719$; $r\leq0,01$). Bu yerda hamkorlik muhiti shakllangan guruh talabalari bir-birlari bilan o‘zaro hamjihatlikda, hech narsadan tortinmaslan,

qo‘llab-quvvatlash va hamfikrlilik asosida o‘quv vazifalarni yechadilar degan xulosani beradi. O‘z navbatida quyi jipslik darajasidagi talabalarda ham o‘rtachaga ko‘rsatgichni namoyon etdi.

Jadval-3

Talabalar guruhidagi jipslikning xususiyatiga ko‘ra ijodiy-innovatsion muhitda “talaba-talaba” hamkorligini tashkil etish darajalari ko‘rsatkichlari (Kraskal Uoles mezoni bo‘yicha)

Mashg‘ulot turi	Talabalar guruhidagi jipslik darajasi			H	P
	Quyi	O‘rtacha	Yuqori		
Mustaqil ta’lim	249.07	188.9	272.75	35.719	0.000**
Seminar-trening (o‘yin texnologiya-lari)	213.5	238.57	238.88	3.436	0.179
Loyiha-tadqiqotchilik	199.57	234.35	257.74	13.316	0.001**
Axborot-kommunikatsiya	236.38	199.08	270.9	23.999	0.000**

Izoh: **- p≤0,01

Jipslikdagi talabalarga nisbatan mustaqil ta’limni bajarishda ustuvorlik kuzatildi. Mustaqil ta’lim topshiriqlarini yechishda har bir talabalarning individual yondashuvlari va ularning o‘quv faoliyatiga tayyorligi va topshiriqlarni bajarishga nisbatan qobiliyatlari belgilovchi vazifani o‘taydi, ammo talabalar o‘rtasida hamkorlik muhiti namoyon bo‘lmaydi.

Ijodiy-innovatsion ta’lim jarayonini seminar-trening (o‘yin texnologiyalari) mashg‘ulotlar shaklada tashkil etish bo‘yicha talabalar guruhining jipslik darajasida statistik farqlar mavjud emas. Bundan, ko‘rinadiki, ijodiy-innovatsion ta’limda seminar-trening shaklidagi o‘quv mashg‘ulotlarni joriy etish talabalar guruhidagi jipslik darajasidan farq qilmagan holda talabalarning o‘quv mashg‘ulotlarida faollikni keltirib chiqaradi. Ushbu ijodiy-innovatsion ta’lim muhitida talabalarning faollik darajasi ta’minladi, ammo ayrim talabalarning hamkorlikda ishlashdagi faolligida kiyinchiliklar kuzatilishi mumkin. Ular uchun individual faoliyatning yetakchilik qilishi, ijtimoiy munosabatlarga kirishishda qiyinchiliklarga duch kelishi, hamkorlik talablariga javob bera olmaslik va boshqalar tarzida. Shunday bo‘lsa ham seminar-trening shaklida mashg‘ulotlarda guruhiy hamjihatlikning har qanday darajasi uchun qo‘l kelish xususiyatiga ega ekanligi kuzatildi.

Loyiha-tadqiqotchilik faoliyati bo‘yicha talabalar hamkorlik muhitida yuqori jipslik darajasiga ega bo‘lgan guruhlar (254,74) quyi jipslik(199,57) va o‘rta jipslik darajasidagi guruhlarga nisbatan dominant va statistik ahamiyatga ko‘ra tafovutlangan qiymatga ega (H=13,316; r≤0,01). Loyiha-tadqiqotchilik faoliyatidagi o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish bir oz qiyin va murakkab xarakterga ega. Bu toifa mashg‘ulotlarda pedagoglarning aniq ko‘rsatmalari va muammolarni qo‘yish mexanizmlari bo‘yicha talabalarni tayyorlash zarur. O‘z navbatida talablarning o‘quv mashg‘ulotdagi tadqiqotlarni amalga oshirishda muammoni qo‘ya olishlari zarur bo‘ladi. Muammoni qo‘yish va uning tadqiq etish tartiblarini tizimlashtira olmaydigan talabalarda hamkurslarining ko‘magi kerak bo‘ladi. Shu sababli ham loyiha-tadqiqotchilik o‘quv mashg‘ulotlari talabalar guruhi a’zolarini bir-birlarini tushunishlari, hamjihatda harakatlanishlari, qo‘llab-quvvatlashlari va jamoa bo‘lib ishlashlari zarurdir. O‘rtacha jipslik darajasiga ega bo‘lgan talabalar guruhida ham loyiha-tadqiqotchilikka asoslangan o‘quv mashg‘ulotlari ancha ahamiyatli tarzda e’tirof etilgan (234,35). Bu guruh a’zolari orasida kichik guruhlar shakllangan bo‘lib, ular bir birlarini qo‘llab-quvvatlaydilar.

Quyi jipslik darajasidagi guruh talabalari uchun loyiha-tadqiqotchilik mashg‘ulotlarini samaradorli past bo‘ladi. Bu guruh nuqtayi nazaridan, bu toifa guruhlarda ayrim iqtidorli va akademik o‘zlashtirishi yaxshi bo‘lgan talabalar mashg‘ulotlardan yetarlicha natija olishadi. O‘zlashtirishga qiynaladigan talabalar esa guruhdagi hamjihatlikni yetishmasligi, tortinish, ijtimoiy munosabatga kirishishga qiynalishlari sababli boshqa kursdoshlariga murojaat qilmasliklari xos bo‘lib qoladi.

Bugungi kunda ijodiy-innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etishdagi eng samarali mashg‘ulotlar toifasiga axborot-kommunikatsiyalarga asoslangan ijodiy-innovatsion mashg‘ulotlardir. Bu toifa mashg‘ulotlar ham pedagogdan, ham talabalardan axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishni talab etadi. O‘quv guruhidagi jipslik darajasiga ko‘ra mashg‘ulotlarning samarali kechishida yuqori jipslik darajasi yana ustuvorlikka ega

(270,9). Ular empirik ko‘rsatkichlari bo‘yicha quyi jipslik (236,38) va o‘rtacha jipslik darajasidagi (199,08) guruhning natijalarga qaraganda ustuvorlik va statistik tafovutga ega bo‘ldi (H=23,999; r≤0,01). Quyi jipslikka ega bo‘lgan talabalarning natijalaridagi ustunlik guruh a’zolari orasidan axborot-komkunikatsiya-texnologiyaaridan individual mohirona foydalana oladiganlarning ulushi ko‘proq bo‘lganligi sababli bo‘lishi tabiiydir. Mazkur toifadagi ijodiy-innovatsion muhitni tashkil etishdagi qiyinchiliklar ta’lim muassasalaridagi mashg‘ulotlar uchun axborot-kommunikatsion vositalarning yetarlicha ta’minlashdagi muammolar bilan bog‘liqdir. Aks holda o‘quv auditoriyalarida axborot-kommunikatsion ijodiy-innovatsion o‘quv mashg‘ulotlari uchun vositalar yetarli bo‘lsa, uning boshqa innovatsion o‘quv mashg‘ulotlari bilan uyg‘unlikda tashkil etish mumkin. Bu mashg‘ulotda ham hamkorlik, ham individual o‘quv faoliyatini tashkil etish mumkin.

Xulosa. Ijodiy-innovatsion ta’lim muhitida “talaba-talaba” hamkorlik muhitini shakllantirishda o‘yin texnologiyalari, loyiha-tadqiqotchilik va axborot-kommunikatsion mashg‘ulotlarni tashkil etish maqsadga erishishni ta’minlash imkoniyatini yaratish mumkinligi bevosita tadqiqot davomida kuzatildi. Bu ijodiy-innovatsion ta’lim mashg‘ulotlarini o‘zaro aloqadorlikda, ya’ni bir mashg‘ulotning o‘zida uyg‘unlashtirish asosida tashkil etish ham yuqori pedagogik natijalarni qo‘lga kiritishga olib keladi. Yuqorida keltirilgan empirik tahlillar asosida ijodiy-innovatsion ta’limning samarali bo‘lishi uchun “talaba-talaba” hamkorlik faoliyati ta’lim jarayonini samarali tashkil etishning muhim ijtimoiy-psixologik determinantlari sifatida amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Торренс Э. Активизация различных видов учебных занятий в институте. Методическая разработка. - Д.: ИПК СП, 2014. – 78 с.
2. Выготский Л.С. Педагогическая психология. М.: Педагогика-Пресс, 1996. – С.37.
3. Афонин И.В. Инновационный менеджмент и экономическая оценка реальных инвестиций Текст.: учеб. пособие / И.В. Афонин. М.: Гардарики, 2006. – С.44.
4. Клочко В. Е. Особенности операционализации понятия «Инновационный потенциал личности» / В. Е. Клочко, О. М. Краснорядцева // Вестник Томского государственного университета. - 2010. - № 339. – С.151–154.

Elmuratova Aysulu Usaxovna
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali “Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

SPORTCHILARDA PSIXOLOGIK MUHOFAZA KO‘RSATKICHLARI SAMARADORLIGINING TA’MINLANISHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada sportchilarda psixologik muhofaza ko‘rsatkichlari samaradorligining ta’minlashga xizmat qiladigan psixologik xususiyatlar hamda sportchilarda psixologik muhofaza imkoniyatlarini o‘rganishning empirik asoslari o‘rganilgan. Bundan tashqari, sportchilardagi psixologik muhofaza barqarorligini ta’minlovchi shaxs tiplari va xususiyatlarini tadqiq etish va sportchilarda psixologik muhofazani shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar va mexanizmlarini ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *adekvat, barqarorlik, moslashuvchanlik, qobiliyat, muvaffaqiyatga erishish, regressiya, kompensatsiya, proeksiya, ekstremal, psixoterapiya, ong, bezovtalik, kognitivlik, giperkompensatsiya.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ У СПОРТСМЕНОВ

Аннотация. *В данной статье изучены психологические особенности, обеспечивающие эффективность показателей психологической защиты у спортсменов, а также эмпирические основы изучения возможностей психологической защиты у спортсменов. Кроме того, исследованы типы и особенности личности, обеспечивающие устойчивость психологической защиты у спортсменов и разработаны социально-психологические факторы и механизмы, формирующие и развивающие психологическую защиту у спортсменов.*

Ключевые слова: *адекватность, стабильность, гибкость, способность, достижение успеха, регресс, компенсация, проекция, крайность, психотерапия, сознание, тревога, когнитивные способности, гиперкомпенсация.*

PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF ENSURING THE EFFECTIVENESS OF PSYCHOLOGICAL PROTECTION INDICATORS IN ATHLETES

Annotation. *This article explores the psychological characteristics that serve to ensure the effectiveness of psychological protection indicators in athletes, as well as the empirical basis for studying the possibilities of psychological protection in athletes. In addition, research of personality types and characteristics that ensure the stability of psychological protection in athletes and socio-psychological factors and mechanisms that shape and develop psychological protection in athletes have been developed.*

Key words: *adequate, stability, flexibility, ability, success, regression, compensation, projection, extreme, psychotherapy, consciousness, restlessness, cognitivism, hypercompensation.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida “Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq” – degan fikrni ta’kidlab o‘tgan.

O‘zbek sportchilarining xalqaro maydonlarda yuksak natijalarga erishib kelayotganlarining muhim omillaridan biri bu talaba-yoshlar o‘rtasida ommaviy sportga alohida e’tibor berilishi natijasidir. Sport sohasida erishilgan yutuqlar mamlakatni dunyoga tanitadi, barcha xalqlarga g‘urur-iftixor bag‘ishlaydi. Chunki, sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog‘lom va ruhan barkamol qilib, tarbiyalash orqali jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptiradi. Shuni, alohida ta’kidlash joizki, sportchi o‘zining psixologik imkoniyati, yutug‘i va kamchililiklari haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lsa, bu ularning musobaqaga tayyorgarlik ko‘rish hamda musobaqa jarayonida uchraydigan har qanday muvaffaqiyatsizliklarni bartaraf etishga, o‘z imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Boshqa mutaxassislar kabi psixologlar ham sportchilarda uchraydigan psixologik muammolarni o‘rganib kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, sportchi shaxsini shakllantirish

masalasi nafaqat psixologiyaning, ayniqsa, sport psixologiyasining dolzarb muammolaridan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda yoshlarning jismoniy va ruhiy uyg‘unlikda kamol topishi, emotsional holatlarni tadqiq etish va bu muammoning zamonaviy yechimlarini ishlab chiqish psixologiyaning o‘ta dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O‘zbek olimlari G‘.B.Shoumarov, Sh.R.Barotov, V.M.Karimova, A.M.Jabborov, Z.T.Nishonova, N.S.Safoyev, R.S.Samarov, Z.G.Gapparov, M.Mamatov, R.A.Abdurasulov, F.E.Gaziyev, Y.Masharipov, Z.Fayziyev va boshqalar tomonidan psixologik muhofazaning sportchilarda namoyon bo‘lishini o‘rganish borasida muayyan darajada tadqiqotlar olib borilgan.

Shaxsning psixologik muhofazasini ko‘plab taniqli xorijiy va rus psixologlar, jumladan: Z.Freyd, A.Freyd, K.Xorni, V.A.Shtroo, F.V.Bassin, P.M.Granovskaya, G.V.Grachev, V.I.Jurbin, P.A.Zachepiskiy, V.G.Kamenskaya, E.I.Kirshbaum, A.A.Nalchadjyan, Ye.S.Romanova, Yu.S.Savenko, Ye.T.Sokolova, I.D.Stoykov, V.I.Suslov, R.D.Tukayev, T.V.Tulupyev, Ye.V.Chumakova, N.V.Yurzova va boshqalarning tadqiqotlarida tadqiq qilgan.

B.V.Zeygarnik, Ye.T.Sokolova, R.M.Granovskaya kabi olimlar psixologik muhofaza va kundalik profilaktika, har kuni hayotimizda foydalanadigan muhofazani ajratib ko‘rsatishgan.

B.V.Zeygarnik shaxsning his-tuyg‘ularini tahlil qilgan va bu muammoni ko‘rib chiqqan holda, destruktiv va konstruktiv muhofaza omillarini o‘rgangan.

Birinchi omil - subyekt tomonidan ularning anglanmaganligi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi omilda esa, ongli qabul qilish va tartibga solish bilan bog‘liq. Psixik kasalliklar shuni ko‘rsatadiki, nevrozning ko‘plab belgilari, og‘ir somatik kasalliklar bemorlar uchun anglanilmagan muhofaza choralari hisoblanadi. Sog‘lom shaxsda ham frustratsiya holatida anglanilmagan va strukturasiz muhofaza kuzatiladi. Negativizm va autizm kabi alomatlar ko‘pincha buzilgan muloqotni muhofazalash vositasi sifatida qo‘llaniladi.

B.V.Zeygarnikning fikricha, muhofaza choralari ongsiz darajada namoyon bo‘lib, ko‘pincha harakatlarning deformatsiyasiga, xulq-atvor maqsadlari va xulq-atvor bilan belgilanadigan vaziyat o‘rtasidagi uyg‘un munosabatlarning buzilishiga olib keladi. Ongli ravishda qo‘yilgan maqsad va maqsadga erishish yo‘lidagi harakatlarni nazorat qilish, subyekt uchun bilvosita xatti-harakatlarning asosiy bo‘g‘iniga aylanadi [76]. Maqsadlarga erishishni qiyinlashtiradigan yoki shaxs ustanovkalariga tahdid soladigan vaziyatlarda, u ko‘pincha ongli ravishda psixologik muhofaza choralariga murojaat qiladi. Ongli kompensator harakatlar masalan, og‘ir somatik kasalliklarga chalingan bemorlar tomonidan qo‘llaniladi. Ular ko‘pincha ongli ravishda kasallikni qabul qilishni chekkaga surib, odatiy faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishga intilishadi.

B.M.Proshkina, B.D.Karvasarskiy ta’limotiga ko‘ra tibbiy psixologiyada muhofaza mexanizmlari tipologiyasini tizimlashtirishga; V.A.Tashlikov tadqiqotlariga ko‘ra stressni o‘rganishga; V.E.Bextelning alkogolizm klinikasiga oid va A.R.Ratinov va G.X.Efremovalarning yuridik psixologiyasi bo‘yicha izlanishlar olib borishgan. Ushbu tadqiqotlarning dolzarbligi, nazariy va amaliy ahamiyatiga qaramay, olimlarning tor ixtisoslashuvi tizimli va universal muhofaza konsepsiyasini ishlab chiqish masalasi ochiq qolmoqda. Psixologiyaga oid ilmiy adabiyotlarda muhofaza tushunchasining talqinlari psixoanalitikadan tortib tor doiradagi ilmiy izlanishlarda o‘rganilmoqda. Bu holat shaxsda ijobiy taassurot qoldiradi. Zero, muhofazaning izchil va tizimli tushunchasi yo‘qligi, shaxslar va guruhlarning muhofaza xatti-harakatlarini ilmiy talqin qilish va bashorat qilish zarurati mavjud ehtiyoj, murakkab ruhiy hodisaning soddalashtirilgan, asosan ishonchli ko‘rinishi jamoatchilik ongiga singdiradi.

Tahlil va natijalar. Ontogenez tayanch ehtiyojlarining to‘rtta guruhiga muvofiq bo‘lgan moslashishning to‘rtta universal muammolari, mohiyati jihatidan bir vazifani yechadi: hayotning turli bosqichlarida qanday qilib shaxs o‘ziga eng kam miqdorda o‘ziga zarar yetkazgan holda atrof muhit bilan eng ko‘p samaradorlik bilan o‘zaro hamkorlik qila oladi. Salbiy qaror qabul qilinganida muammolarning har qaysida shaxsning biologik darajada buzilishi va psixologik darajada psixikasining buzilishi kuzatiladi. Odatda psixologik zararni ijobiy “Men” - qiyofasining xavfi bilan bog‘laydilar, ushbu xavf shaxsiy tajribasi yoki boshqa subyekt tomonidan kelib chiqishi mumkin deb ta’kidlaydi.

Psixologik muhofaza muammosini ishlab o‘rganishda psixoanaliz vakillarining muhim hissasi shundaki, ular tomonidan “Men”ning ijobiy “obrazi” tarkibiy qismlari yoki boshqacha qilib aytganda, muhofazaning psixologik obyekti individning “Men”-konsepsiyasi nuqtayi nazaridan belgilab berilgan. Bunday tarkibiy qismlarga muhofazalanganlik, to‘liqlik, mustaqillik, o‘zlik, ya’ni jamiyatga

qabul qilinish hissi va o‘zini subyekt sifatida qabul qilish kiradi. Yana bir keng tarqalgan nuqtai nazar shundan iboratki, psixologiyaning barcha vakillari individ ko‘p darajali psixik buzilishlarga ajralmas tizim sifatida reaksiya qiladi, deb ta’kidlashgan. Shu bilan birga, u nafaqat ongdan olingan topshiriq va ko‘rsatmalarga, balki shaxsning ongsiz instinktiv sohasidan olingan topshiriq va ko‘rsatmalarga ham javob beradi. Misol uchun, N.Mak-Vilyams insonning xarakterining butun tuzilishi muhofaza mexanizmi bo‘lishi mumkinligini qayd etadi, ammo bu tuzilishda nima anglanilishi yoki anglanilmasligi muallif tomonidan ko‘rsatilmagan. Shunga qaramay, u quyidagi farazlarni ilgari suradi: muhofaza mexanizmlarining jamiyat ta’siri ostida me’yorsiz ishlashi, shaxs xarakterining muayyan aksentuatsiyasi, psixodiagnostikasi, xatti-harakatlarining chetga chiqishi, psixosomatik kasalliklari va boshqalar o‘rtasidagi aloqalar ushbu shaxs psixologik muhofazasining ishlashiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Umuman olganda, psixologik muhofazani o‘rganishda zamonaviy psixoanalizning umumiy g‘oyasi shaxs va jamiyat o‘rtasidagi yengish mumkin bo‘lgan qarama-qarshilik hisoblanadi.

Sport psixologiyasi uchun psixologik muhofaza zamonaviy konsepsiyalari psixolog olimlarning nazariy mulohazalarida adashmaslik muhimdir, chunki, sport nafaqat sport qahramoni yoki g‘olibning ideali uchun hayot falsafasi, balki sport maydonlarida, sport musobaqlarida shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish orqali hayot uchun kurashish modelidir.

Sportchini nimadan psixologik muhofaza qilish lozim?. Ularni musobaqalarda g‘alaba qozonish uchunmi?, Psixologik muhofaza sportchiga o‘zi nima beradi?, Psixologik muhofaza sportchiga kerakmi?, Musobaqalarda muhofaza va aldash harakatlarining taktik-texnik usullarini qo‘llay oladilarmi? Ushbu savollarga javoblarni, nafaqat ushbu muammo bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganish yo‘li bilan topish mumkin, balki sportchilarning harakatlarini empirik kuzatish yo‘li bilan, ularning shaxsni o‘rganish, sportda muvaffaqiyatga erishish va nom chiqarishgacha kechgan qiyinchiliklari, mashaqqatlarini o‘rganish orqali o‘rganish mumkin. Malakali sportchilarning psixologik muhofazasi sport hayoti davomida orttirilgan shaxsiy tajribasini o‘rganish usullari orqali ham aniqlanadi.

Sportchini psixologik muhofaza qilish - sport hayotining ekstremal sharoitlarida shakllangan sportchining ongi va xulq-atvorini ruhiy jihatdan o‘zini boshqarish va o‘z-o‘zini tartibga solish usul va usullari tizimidir.

Ana shu nuqtayi nazardan, biz “Sportchilarda psixologik muhofaza imkoniyatlarini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari” mavzusida olib borayotgan ilmiy tadqiqot ishimizda psixologik mexanizmlarga tayanib, bir qator tizimli vazifalarni bir necha bosqichda amalga oshirdik.

Trening dasturlarining asosiy maqsadi - sportchilardagi psixologik muhofaza mexanizmlariga ijobiy ta’sir qiluvchi omillarni shakllantirishdan iborat edi. Shunga ko‘ra, trening vazifasi sifatida quyidagilar belgilab olindi:

-sportchilar psixologik muhofazasiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash va shakllantirish;

-sportchilarda ruhiy-emotsional holatlarni barqarorlashtirish;

-sportchilarda o‘zini-o‘zi boshqarishning ijtimoiy-psixologik ta’sirlarini kuchaytirish;

-sportchilar bilan autotrening mashqlarini muntazam ravishda olib borish va ularga ushbu ko‘nikmani shakllantirish.

Psixokorreksion ishlar psixokorreksion kompleks dasturi yordamida amalga oshirildi. Mashg‘ulot bir-biriga bog‘liq bo‘lgan to‘rt bosqichdan iborat bo‘ldi. Bular:

1) tayyorgarlik (diagnostik) bosqich;

2) korreksion bosqich;

3) korreksion faoliyatni samaradorligini aniqlovchi bosqich;

4) yakunlovchi (baholovchi) bosqich.

Tayyorgarlik (diagnostik) bosqichning maqsadi - sportchilar xatti-harakatini boshqarishini nazorat qilish, samarasiz o‘zini boshqarishni aniqlab ajratish, psixologik korreksiyani shakllantirishning umumiy dasturi ishlab chiqiladi.

Korreksion bosqichning maqsadi - sportchilarni salbiy holatlardan ijobiy holatlarga tezroq o‘tishini optimallashtirish, o‘zini-o‘zi boshqara olishga o‘rgatish, bunda o‘zini-o‘zi boshqarish faoliyatini ishga tushirishdan iborat.

Korreksion faoliyatni samaradorligini aniqlovchi bosqichining maqsadi - o‘zgarishlarning psixologik mazmuni va dinamikasini o‘lchash, ijobiy xatti-harakat reaksiyalarini paydo bo‘lishini ta’minlash va o‘zini baholash holatini optimallashtirishdan iborat.

Psixologik jihatdan muhofazaga ega bo‘lgan sportchilar boshqalar ta’siriga tushib qolishidan va faoliyatini mustaqil rejalashtirish imkonini beradi. Ijobiy psixologik va jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lgan sportchi o‘zini boshqarishi, faoliyatini tartibga solib turishi va stressga tushish vaziyatlarini kamaytiradi.

Xulosa va takliflar. Psixologik muhofazani ijtimoiy-psixologik muammo sifatida o‘rganishga qaratilgan ilmiy-nazariy manbalarni tadqiq etish, sportchilarning psixologik muhofazasiga ta’sir etuvchi omillarni batafsil o‘rganish imkonini beradi. Bu esa, sportchilarning psixologik muhofazasini shakllantiruvchi va uni rivojlantirishning yangi usullarini yanada chuqurroq tadqiq qilish uchun zamin yaratadi. Sportchilarning psixologik jihatdan tayyorgarligi, ularnig psixologik muhofaza imkoniyatlari, hissiy-emotsional holatlarga tushmasligi, muvafaqqiyatga erishish omillarini o‘rganish va tahlil qilish muhim muammolardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016-yil 7-dekabr. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2017. – 48b.
2. Волков И.П. Спортивная психология в трудах отечественніх специалистов / Хрестоматия. Сост. И.П. Волков. - СПб.: БПА, 2000. –126с.
3. Грановская Р.М. Психологическая защита у детей / Р.М.Грановская, И.М.Никольская. – СПб.: Речь, 2005. – 507с.
4. Водопьянова Н.Е. Синдром вігорания: диагностика и профилактика / Н.Е.Водопьянова, Е.С. Старченкова. – СПб.: Питер. - 2005. – 336с.
5. Barotov Sh.R. Psixologik xizmatning nazariy va amaliy muammolari. - Buxoro, 2008.
6. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания /Б.Г.Ананьев. – Л.: Изд-во Ленингр. ун-та, 1999. – 339с.

Internet saytlari

1. https//www.lex.uz
2. https//www.dissercat.uz
3. https//www.psyh.uz

Eshmonov Otabek Bakhriddin Og‘li
Samarqand davlat universiteti
psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
Orcid: 0009-0000-8930-4008

O‘SMIR SPORTCHILARNING STRESS HOLATIDA O‘Z-O‘ZINI BAHOLASHINING SHAXS XISLATLARI BILAN BOG‘LIQLIGI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘smir sportchilarning faoliyatida yuzaga keladigan stressogen vaziyat va holatlarda o‘z-o‘zini baholash xususiyatlarining shaxs xislatlari bilan bog‘liqligini o‘rganish borasida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari yortilgan.*

Kalit so‘z. *O‘smir sportchilar, stress, o‘z-o‘zini baholash, shaxs xislatlari.*

СТРЕССОВОЕ СОСТОЯНИЕ СПОРТСМЕНОВ-ПОДРОСТКОВ СВЯЗЬ САМООЦЕНКИ С ЛИЧНОСТНЫМИ ХАРАКТЕРИСТИКАМИ

Аннотация. *В данной статье освещены результаты научных исследований, проведенных с целью изучения взаимосвязи черт личности и характеристик самооценки в стрессовых ситуациях и ситуациях, возникающих в деятельности спортсменов-подростков.*

Ключевое слово. *Подростки-спортсмены, стресс, самооценка, особенности личности.*

TEENAGE ATHLETES' STATE OF STRESS RELATIONSHIP OF SELF-ASSESSMENT WITH PERSONAL CHARACTERISTICS

Annotation. *This article highlights the results of scientific research conducted to study the relationship between personality traits and self-esteem characteristics in stressful situations and situations arising in the activities of teenage athletes.*

Keyword. *Teenage athletes, stress, self-esteem, personality traits.*

Kirish. Bugungi kunda jamiyat hayotida stress va stressga barqarorlik muammosi zamonaviy psixologiyaning eng muhim muammolaridan biriga aylanib qoldi. Mazkur muammo XX asr boshlaridan buyon xorij hamda rus psixologiyasida keng doirada tadqiq etib kelingan va hozirda ham bu muammo o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Xususan, psixolog olimlardan R.Lazarius, C.Folkman, V.S.Merlin, I.M.Feyngerberg, Dj.V.Rotter, R.Mak-Kray, Dj.D.Parker, B.X.Vardanyan, P.B.Zilberman, L.M.Abolin, A.Yu.Malenova, A.A.Baranov, V.A.Bodrov, M.Yu.Denisov, L.V.Kulikov, A.V.Libina, A.V.Libin, L.A.Kitayev-Smik, A.A.Rean, S.V.Subbotin kabi juda ko‘plab tadqiqotchilar ish olib borganlar, shuningdek o‘zbek ilmiy jamoatchiligi ham ushbu muammoga yaqin masalalar ustida bir qancha ishlarni amalga oshirgan.

Metodlar. O‘smir sportchilardagi stressga barqarorligini biz ularni shaxs xislatlari bilan qanchalik bog‘liqligini aniqlashga harakat qildik, shu sababli ham tadqiqotimizda V.M.Melnikov va L.T.Yampol’skiylar tomonidan tavsiya etilgan psixodiagnostika testidan foydalandik. Mazkur test V.M.Melnikov va L.T.Yampolskiyning “Введение в экспериментальную психологию личности” kitobida batafsil bayon qilingan.

Ushbu metodika sportchilar bilan o‘tkazilgan tadqiqotlarda qo‘llanilgan hamda o‘zining ishonchliligini isbotini topgan. Psixodiagnostika testi sportchilarning nevrotizm,psixotizm, depressiya, umumiyfaollik, dilkashlik, estetik ta’sirlanish, ruhiy tuturiqsizlik va bir qancha shaxs xislatlarini aniqlash imkonini beradi. Mazkur metodika O‘zbekiston sharoitida o‘smir sportchilarda psixologiya fanlari doktori, professor R.A.Abdurasulov tomonidan qo‘llanilgan va sinovdan o‘tkazilgan.

Natijalar. Stressogen vaziyatlar masalasida olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz jarayonida o‘smir sportchilarning o‘z-o‘zini baholash natijalari bilan tadqiqotimizda qo‘llanilgan yana bir metodika, ya’ni V.M.Melnikov va L.T. Yampolskiylar psixodiagnostika testi natijalari bilan korrelyatsion bog‘liqligini tahlil qildik, uning natijalari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

Jadval-1

O‘smir sportchilarning o‘z-o‘zini baholashining psixodiagnostik test natijalari bilan korrelyatsion aloqadorligi.

Shkala	Asabiylik	Ruhiy tajanglik	Ruhiy azoblanish	Vijdonlilik	To‘sqinlilik	Umumiy faollik	Hadiksirash	Dilkashlik	Estetik ta‘sirlanish	Nazokatlilik	Ruhan tuturuqsizlik	Ijtimoiysizlik	Odavomiylik	Tortinchoqlik
O‘z-o‘ziga baho berish	-,052	-,117	-,132	,009	,109	,056	-,040	-,048	,017	,176	-,023	-,183	-,170	,005

O‘smir sportchilarning o‘z-o‘zini baholashi asosida stress holatidan chiqishi, stressogen holatlarga qarshi ta’sir ko‘rsatishi ularning shaxs xislatlari shakllanishida hamda sport faoliyatida muhim hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, o‘smir sportchilarning o‘z-o‘zini baholash natijalarini Melnikov va Yampolskiy tomonidan tavsiya etilgan psixodiagnostik testi natijalari bilan korrelyatsion bog‘liqligini tahlil qilishga harakat qildik.

Tadqiqot natijalarining o‘zaro korreliatsion tahlili o‘smir sportchilarning o‘z-o‘zini baholashi asabiylik shkalasi bilan manfiy aloqadorlikni ko‘rsatmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, o‘smir sportchilar har xil ta’sirlarga mos ravishda javob qaytara oladilar, o‘z harakatlarini nazorat qila oladilar, raqobatga ham tayyor turadilar, shaxslararo munosabatlarda hamda zarurat tug‘ilganda qat’iy harakat qila oladilar, faol, tashabbuskor va g‘ayratli xislatlarni namoyon qiladilar. Shuningdek, ular o‘zaro munosabatda xar doim ham adekvat baholashni namoyon qila olmaydilar, bu esa ularning yosh psixologik xususiyatlari bilan bog‘liqligi bilan izohlanadi.

O‘smir sportchilarning o‘z-o‘zini baholashi bilan ruhiy tajanglik shkalasi o‘rtasidagi bog‘liqlik ham manfiy natijani ko‘rsatmoqda. Bu holatni o‘smir sportchilarning o‘zini adekvat baholashi, ular o‘zlarini har doim bir xil tutishlari, fikrlashining mustaqilligi va xulq-atvorini, xatti-harakatini boshqara olishida, ulardagi tabiiylik, bosiqlik, xotirjamlik xislatlari bilan izohlash mumkin. Bu esa o‘smir sportchilarda hissiy o‘zgaruvchanlik, ta’sirchanlik, ijtimoiylashuvni hamda xulq atvorini ijobiy jihatdan namoyon bo‘lishiga yordan beradi.

O‘z-o‘zini baholash natijalarining ruhiy tajanglik shkalasi natijalari bilan korreliatsion aloqadorlikda manfiy natijani namoyon qildi. Ruhiy tajanglik – bu affekt holat bo‘lib, salbiy hissiy fon, motivatsion sohaning o‘zgarishi, kognitiv tushuncha va xulq-atvorning sustligida namoyon bo‘ladi. O‘smir sportchilarda esa tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, ular o‘zlariga baho berishda o‘z kuchlariga ishonishi, faoliyatda yutuqqa erishishdagi faollik, qat’iylik va ishtiyoq xislatlari bilan boshqalardan ajralib turadilar.

O‘smir sportchilarning o‘z-o‘zini baholash va vijdonlilik shkalasidagi korrelyatsion bog‘liqlik musbat nisbatda namoyon bo‘ldi. Demak, o‘smir sportchilar o‘z-o‘zini baholashida mas’uliyat hissi, vijdoniga qarshi bormaslik, axloqiy normalarga rioya qilish xislatlarini inobatga olishlaridan dalolat beradi. Ular o‘z xatti-harakatlarini ijtimoiy yurish va etika talablari asosida nazorat qilish, halollik va insoniy qadriyatlarni hurmat qilishga intilishlari bilan baholashlari, shuningdek, bu holat ta’lim, tarbiya va muhitning ta’siri bilan ham bog‘liq bo‘lishi ehtimoli yuqoridir.

O‘z-o‘zini baholash tadqiqot natijalarining to‘sqinlilik shkalasi ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi aloqadorlik musbat natijani ko‘rsatmoqda. Izoh sifatida aytish lozimki, o‘smir sportchilarda to‘sqinlilik shkalasi o‘rtacha darajani ko‘rsatishi holati ko‘p hollarda tabiiy hisoblanadi, chunki kurash mashg‘ulotlari sportchilarni o‘zlarini nazorat qilish va sovuqqonlik, aql bilan harakat qilish xususiyatlarini shakllanishiga yordam beradi, shuningdek, bu xususiyatlar o‘smir sportchilarning o‘z-o‘zini baholashida o‘zoga xos ta’sirga ega.

O‘smir sportchilarning o‘z-o‘ziga baho berishi bilan umumiy faollik shkalasi o‘rtasida musbat aloqadorlik namoyon bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Bu holatni o‘smir sportchilarning aqlli faollikni namoyon qilishlari bilan xarakterlash, shu bilan birga, tashabbuskorlik, faollik, qo‘shimcha mashg‘ulotlarni bajarishga bo‘lgan ishtiyoqlari baland bo‘lgan xususiyatlarda ko‘rish mumkin. Bu

xususiyatlar kurash mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanayotgan o‘smir sportchilarga xosdir, chunki ular o‘z oldilariga real maqsad qo‘ya oladilar, o‘z imkoniyatlarini adekvat baholaydilar.

O‘smirlarni o‘z-o‘zini baholashi bilan ularning shaxs xislati sifatida beriladigan ta’rif – hadiksirash shkalasi o‘rtasidagi korrelyatsion tahlil qilinganda musbat aloqadorlik aniqlandi. Hadiksirash – bu maxsus munosabatlarda tortinish o‘lchovi sifatida ta’riflanadi (Melnikov va Yampolskiy talqini). Tadqiqot natijalarining korrelyatsion aloqadorligi shundan dalolat beradiki, o‘smir sportchilarning o‘z-o‘zini baholashida ulardagi ijtimoiy konformlilikni shakllanganligi, hissiyotlarini yetarlicha nazorat qilishlari, o‘z xohish-istaklarini reja asosida amalga oshirishlari, o‘z xulq-atvorlari va harakatlarini natijalalari tasavvur qila olishlari muhim ahamiyatga ega ekanligini his qiladilar hamda shunga rioya qiladilar.

O‘smir sportchilarning o‘z-o‘zini baholashi bilan dilkashlik shkalasi o‘rtasida ham musbat aloqadorlik aniqlandi, bundan shunday xulosa qilish mumkinki, o‘smir sportchilarning o‘z-o‘zini baholashida ularning shaxs xislatlari bo‘lgan hissiy holatining yorqinligi, tabiiylik, erkinlik, hamkorlik, odamlarga bo‘lgan munosabat va mehribonlik kabi xususiyatlar muhim ahamiyat kasb etar ekan. Nazarimizda, bu o‘smirlarga xos bo‘lgan muloqotga intilish, ko‘proq do‘st va tanishlar orttirish, jamoada ishlash va dam olish kabi holatlar yosh psixologik xususiyatlarning namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq hisoblanadi.

O‘z-o‘zini baholash holatining estetik ta’sirlanish va nazokatlilik shkalalari bilan bog‘liqligi musbat natijada namoyon bo‘lmoqda. O‘smir sportchilarning o‘z-o‘zini baholashi negizida sog‘lom fikrlash, vazminlik, odamlarni va vaziyatni to‘g‘ri baholay olish, mulohazalilik, shuningdek, mardlik, uddaburonlik, o‘zini namoyon qilishlik, qat’iy va tez harakat qilishga intilish kabi xususiyatlarni ko‘rish mumkin.

O‘smir sportchilarning o‘z-o‘zini baholashida ruhiy tuturiqsizlik shkalasi bilan musbat aloqadorlik namoyon bo‘lmoqdaki, biz buni o‘smir sportchilarning shaxs xislatidagi ruhiy barqarorligi bilan izohlashimiz mumkin.

O‘z-o‘zini baholasning ijtimoiysizlik shkalasi bilan korrelyatsion aloqadorligi ham musbat natijaga ega ekanligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, odamovilik, tortinchoqlik shkalalari ham korrelyatsion aloqadorlik tahlilida musbat natijani ko‘rsatmoqda. Bizning nazarimizda, o‘smir sportchilarning o‘z-o‘ziga baho berishida shaxs xislatlarining shakllanishi muhim o‘rin tutadi, ularning ijobiy shakllanishida esa kurash turlarining ta’siri samarali natija beradi, buni tadqiqot natijalarida ko‘rish mumkin.

Aytish joizki, o‘smir sportchilarning o‘z-o‘zini adekvat baholashi bilan shaxs xislatlari o‘rtasida korrelyatsion bog‘liqligi ularning shaxs xislatlarining qay darajada shakllanishiga hamda kurash turlarining ko‘rsatadigan ta’siriga bog‘liqligini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim deb hisoblaymiz.

Shunigdek, bu borada bir qancha tadqiqotchilar ham fikr-mulohazalarini keltirib o‘tish mumkin. Juladan, Ya.Reykovskiy o‘z tadqiqot natijalariga asoslanib, shaxsning o‘z o‘ziga baho berishi uning stressga barqarorligi bilan bevosita bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, uning fikriga ko‘ra, o‘z-o‘ziga yuqori baho beruvchilar yuzaga kelgan stressogen vaziyatlarda o‘ziga past baho beruvchilarga qaraganda o‘zlarini yo‘qotmaydilar va o‘z imkoniyatlarini yaxshiroq belgilab oladilar, bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini orttiradi. O‘ziga past baho beruvchilar esa yuqori qo‘rquv hissi asosida yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarga qarshi turish imkoniyatini noadekvat baholaydilar, bu holat esa ularda o‘ziga bo‘lgan ishonchni pasayishiga sabab bo‘ladi va natijada yuzaga kelgan muammolarni hal qila olmaslikka sabab bo‘ladi.

T.G.Dyubina ham o‘z tadqiqot ishlarida o‘z-o‘zini baholash borasida ilmiy izlanishlar oilb borgan va quyidagi fikrlarni bildirgan: “O‘z-o‘zini baholash birinchidan o‘z-o‘zini anglashning integrativ ish natijasi, ikkinchidan esa o‘ziga nisbatan hissiy munosabat natijasi hisoblanadi. O‘z-o‘zini baholash esa doimiy bo‘lmay, u doimo holatini o‘zgartirib, takomillashtirib boradi. Shuning uchun ham aynan o‘z-o‘zini baholash inson faoliyati va xulq-atvorini boshqarish vazifasini ham bajaradi”[3].

Xulosa qilib aytganda, o‘z-o‘zini baho berish xoh yuqori yoki past bo‘lsin, shaxslarning o‘z hayotlarida sodir bo‘ladigan voqea-hodisalarga bo‘lgan munosabatida xavotirlanish, behuda tashvishlanish holatini ko‘rishimiz mumkin. O‘smir sportchilarning kurash turlari mashg‘ulotlari ularda stressogen vaziyatlarda o‘z-o‘zini baholash, o‘z imkoniyatini to‘g‘ri baholay olish, har qanday vaziyatga adekvat yondoshish, boshqa odamlarni ham ruhiy holatini tushunishga harakat qilish, o‘ziga

bo‘lgan ishonch, aql bilan ish ko‘rish, vaziyatlarga real baho berish xislatlarini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o‘smir sportchilarning o‘z-o‘zini baholashida o‘zini anglashi uning jamoadagilar hamda murabbiy o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishiga yordam berar ekan.

Foydalangan adabiyotlar

1.Андреева А.А. Стрессоустоичивост как фактор развития позитивного отношения к учебной деятелности у студентов. Авторефер. дисс. канд. психол. наук.Тамбов. 2009.

2.Badmayeva D.G. Samoregulyatsiya aktivnosti lichnosti v stressovix situasiyax (na primere ekzamenasionnogo stressa). Avtorefer. diss. kand. psixol. nauk. – Krasnoyarsk. 2007.

3.Дюбина Т.Г. Социально-психологические факторы, влияющие на рассогласование между самооценкой и объективной оценкой качеств личности. Дисс…кан.психол.наук. -М.: 2016. 210 с.

4. Небытова, Л. А. Особенности самооценки личности студентов. Волгоград. Сер.3. – 2009. – №32. – С. 35.

5. Рутман Э.М. Надо ли убегат от стресса. - М., 1990. – 208 с.

Jumabayev Timur Jalgasbayevich
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali psixologiya fanlari bo‘yicha falasafa doktiri (PhD).

FUTBOLCHILARDA TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIK FAOLIYATINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada futbolchilarda texnik-taktik tayyorgarlik faoliyatining psixologik jihatlari o‘rganilgan. Bundan tashqari, futbolchilarni musobaqaga texnik taktik jihatdan psixologik tayyorlashda shaxs hayotiy yo‘nalganligining emotsional-irodaviy va motivatsion sohalarini va Sportchilarda psixologik muhofaza imkoniyatlari shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *psixologik muammo, sport psixologiyasi, psixologik muhofaza, ijtimoiy-psixologik mexanizm, jismoniy madaniyat, qo‘zg‘aluvchi, kognitivlik, emotsional-irodaviy munosabatlar, maxsus psixologik tayyorgarlik.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У ИГРОКОВ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются психологические аспекты технико-тактической подготовительной деятельности у футболистов. Кроме того, при технико-тактико-психологической подготовке игроков к соревнованиям изучались эмоционально-волевая и мотивационная сферы жизненной ориентации личности и особенности формирования у спортсменов возможностей психологической защиты.*

Ключевые слова: *психологическая проблема, психология спорта, психологическая защита, социально-психологический механизм, физическая культура, возбудимость, познавательность, эмоционально-волевые отношения, специальная психологическая подготовка.*

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF TECHNICAL AND TACTICAL TRAINING ACTIVITIES IN PLAYERS

Annotation. *This article explores the psychological aspects of technical and tactical training activities in players. In addition, in the technical tactical psychological preparation of players for the competition, specific features of the formation of emotional-volitional and motivational areas of the vital orientation of the individual and the possibilities of psychological protection in athletes are studied.*

Key words: *psychological problem, sports psychology, psychological protection, socio-psychological mechanism, physical culture, arousal, cognitivism, emotional-volitional relations, special psychological training.*

Kirish. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assembleyasi Qarorida «bolalarni o‘yin va sport orqali jismoniy, aqliy va psixik salomatliklarini mustahkamlash muhim ekanligi» masalasiga urg‘u berilgan. Bu borada sportni inson ruhiy barqarorligi, jismoniy kamolotidagi o‘rnini ta’minlash va keng ommalashtirish bo‘yicha olib borilayotgan harakatlari tufayli jahonda futbolning xalqona sport o‘yini sifatidagi ahamiyatini oshirish, yosh futbolchilarni tayyorlashda motivatsiyalariga ahamiyat berish dolzarb muammolardan bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28- yanvardagi PF-60- son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF– 5368-son «Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son «O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlari, 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son «Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarori hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati. Sportchilarga xos psixologik komplekslar, sportchilar shaxsiy sifatlari shakllanishi kabi masalalar mamlakatimiz olimlaridan R.A.Abdurasulov, D.N.Arziqulov, Z.G.Gapparov, T.Usmonxo‘jayev, F.Kerimov, R.Salomov, A.Pulatov, A.I.Rasulov, B.Jo‘rayev, M.M.Mamatov, Y.N.Masharipov, E.N.Sirliyev, R.Xalmuxamedov, A.U.Xaitov va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlaridan B.Ananyev, A.Bodalev, L.Vigotskiy, G.D.Gorbunov, E.P.Ilin, A.Leontyev, V.Melnikov, V.Navroskaya, V.Norakidze, Yu.Palayma, R.Piloyan, A.Puni, A.Rodionov, V.Safin, V.I. Selivanov, N.Xudadov va boshqalar tomonidan sportchilarni muayyan musobaqaga psixologik tayyorlash asoslari, umumiy va maxsus psixologik tayyorlash tizimi, emotsional, irodaviy hamda motivatsion jihatdan tarbiyalash tizimini amalga oshirish jarayoni ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etilgan.

Bugungi kunda sportchilarning jismoniy-ruhiy imkoniyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Sportchining psixologik muhofazasi va uning xususiyatini o‘rganish, murabbiylarning bu boradagi psixologik bilimlarini oshirish, sportchini ruhan qo‘llab-quvvatlash, mashg‘ulotlar jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarni yengib o‘tishga yordam beradigan shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish, stressni yengishga yordam beradigan usullar ishlab chiqilmoqda va amalga qo‘llanilib kelinmoqda.

Psixologik tayyorgarlikning umumiy maqsadi sportchining sportda yuqori darajadagi yutuqlarga erishishi uchun zarur bo‘lgan psixik sifatlarni rivojlantirish, unda psixik barqarorlik va mas’uliyatli musobaqalarda ishtirok etishga tayyorlik holatini qaror toptirishdan iboratdir. Biroq sportchini psixologik tayyorlashning maqsadli yo‘nalishi faqatgina shundan iborat emas. Uning oldiga jahon sport rekordlarini o‘rnatish uchun shart-sharoitlar yaratish, sport iste’dodlarini etishtirish yo‘llarini izlash va shu kabi yana bir qator maqsadlar ham qo‘yilgan.

Psixologik tayyorgarlik sportchi uchun o‘ta muhim bo‘lgan psixik sifatlar va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishning tabiiy jarayonlarini tezlashtirishga ko‘maklashadi. Psixologik tayyorgarlikning usul va vositalarini qo‘llash sportchida mustaqil ravishda o‘z irodasini tarbiyalash, faol ravishda takomillashib borish tuyg‘ularini shakllantirib, uni musobaqalashuv faoliyatining ekstremal sharoitlarida o‘z psixik holatini ongli ravishda boshqarishga o‘rgatadi.

Psixologik tayyorgarlik jarayonida shaxsning psixik funktsiyalari va xususiyatlari takomillashib, sportchining har xil sport turlarida o‘z faolligini namoyish etishiga bog‘liq tarzda uning psixoenergetikasidan imkon qadar to‘laroq foydalanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Masalan, ayrim sport turlarida psixoenergiyadan muayyan vaqt oralig‘ida asta-sekin foydalaniladi, boshqa bir sport turlarida esa psixik quvvat birdaniga portlash kabi sarflanadi.

A.R.Batırshinaning yozishicha, inson irodasi ma’lum fazilatlar majmui bilan xarakterlanib, u ba’zan maqsadga erishish yo‘lida uchraydigan to‘siqlarni engishga qaratilgan umumiy qobiliyatlar turi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bunda maqsadga muvofiqlik, alohida xususiyat hisoblanib, u insonning ongli va faol harakatlari, maqsadga erishishga bo‘lgan istaklari hamda hayotiy strategiyalari kabilar bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayrim psixologik adabiyotlarda irodaviy fazilatlar tasnifining o‘ziga xos turlari keltirilgan bo‘lib, ular orqali butun bir inson faoliyatining ixtiyoriylik tabiatini tushunib olish mumkin. Rus olimi E.P.Ilinning so‘zlariga ko‘ra, irodaviy sifatlarning mazmuniga to‘xtalishdan oldin, uning turlarini ajratib o‘tish muhim vazifa sanaladi. Chunki ular aynan psixik faoliyatning qaysi bo‘g‘inlarida qatnashadi yoki inson uchun nimani ta’minlab beradi degan savolni yuzaga keltirishi tabiiy. Demak, irodaviy fazilatlar shaxs indiviual va guruhiy faoliyatini nazorat qiluvchi psixologik unsurlardan hisoblanadi. Bundan tashqari, tadqiqotchi I.V.Gavrilinaning aniqlashicha, irodaviy sifatlar bir necha turlarga bo‘linib, ular quyidagi funksiyalarni bajaradi:

– faoliyatni boshlash – maqsad tanlash, vazifalarni qabul qilish, harakatlarda tashabbuskorlik va tirishqoqlikni ta’minlash;

– faoliyat yo‘nalishini rejalashtirish va uni bajarishda mustaqillik, bashorat qilish, tezkorlik, ixtiyoriylikni nazorat qilish;

– tashqi sharoit va ichki sharoitlarga tayyorlik – topshiriqlarni bajarishdagi mustaqillik, puxtalik va hokazo.

– o‘z-o‘zini tashkil eta olish, o‘zini o‘zi nazorat qila bilish shuningdek, faoliyatda samaradorlikni ta’minlash;

– tashqi va ichki muhit bilan o‘zaro ta’sirlashuvchanlikni ta’minlash ya’ni chidamlilik va mo‘‘tadillikni ushlab turish;

– axborotlarni qayta ishlash va tezkor va oqilona qaror qabul qilishdagi oqilonalik, jasoratlilik hamda qat'iyatlilikni ta'minlash;

– ong tamoyillariga rioya qilishni nazorat qilish;

– biror faoliyat uchun shart sanalgan maqsadga muvofiqlik va tirishqoqlikni ta'minlash;

– vazifalar va topshiriqlarni bajarishda kerak bo'ladigan energiyalilik va chidamlilikni nazorat qilish;

– faoliyatni bajarish, yakunlash, muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qilishga bo'lgan fidoyilik va moslashuvchanlikni ta'minlash;

– faoliyat natijalarini baholashda zarur sanalgan javobgarlik, ishonchlilik, adolatlilik kabi xususiyatlarning mavjudligini ta'minlash va hokazo. Muallif tomonidan tasnif etilgan mazkur sifatlar majmui, o'ziga xos irodaviy sifatlar hisoblanib, ularning har biri insonga xos barcha faoliyat turlarida ahamiyatli sanaladi. Bizningcha, irodaviy sifatlar insonda real amaliy sharoitda shakllanadi, ya'ni talablarni bajarish jarayonida rivojlana boradi. Misol uchun, tadqiqotchi D.A. Kasatkinaning aytishicha, irodaviy sifatlar yoshlikdan shakllanib, u kattalarning talablari, shuningdek, jamiyatda mavjud bo'lgan me'yorlar, qonun va qarorlarga amal qilish orqali takomillasha boradi.

Psixologik adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, V.I.Jurbin tomonidan psixologik muhofazaning o'ndan ortiq variantlarini taklif etgan. Ularning barchasi, u yoki bu shaklda, sportchining mahoratini rivojlantirishning turli bosqichlarida sportchilarning harakatlari va psixikasida mavjud. Biroq, sportda ushbu fenomenni o'rganish, undan samarali foydalanishdagi urinishlarning ko'pchiligi tanqidga uchraydi, chunki, psixologik muhofaza turlari orqali aniqlanadi yoki funksional xarakterlanadi. Bular quyidagilar: maqsad, natija, bilish jarayonlari, affekt, psixologik metodlar, psixik holatlarni me'yorlashtirish va hokazo.

Sport psixologiyasi uchun psixologik muhofaza zamonaviy konsepsiyalari psixolog olimlarning nazariy mulohazalarida adashmaslik muhimdir, chunki sport, nafaqat, sport qahramoni yoki g'olibning ideali uchun hayot falsafasi, balki sport maydonlarida, sport musobaqlarida shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish orqali hayot uchun kurashish modelidir.

Psixologik mexanizmlarning qarama-qarshiligini R.Plutchik tadqiqotidagi quyidagi ba'zi bir misollarni keltirish mumkin.

Jadval-1

R. Plutchik bo'yicha psixologik muhofaza mexanizmlari

Tayanch mexanizmlar	Tavsifi
O'rnini almashtirish	O'rnini bosadigan, nimadirga hujum qiling
Proeksiya	Buni ayblash
Kompensatsiya	Buni sotib olishga harakat qiling
Identifikatsiya	Bu kabi bo'lishga harakat qiling (uni yo'qotmaslik uchun)
Fantaziya	Bu haqida xayol suring
Regressiya	Bu haqida yig'lang
Harakat faolligi	Biror nima qiling
Bosilish	Bu haqida eslamang
Introeksiya	Bilmaysiz, qayerdan bu sizga kelgan
Yakkalanish	Buni his etmang
Inkor etish	Bunga e'tibor bermang
Reaksiya hosil bo'lishi	Buni teskarisiga aylantiring
Kognitivlik	Buni qaytadan belgilab, qaytadan fikrlang
Giperkompensatsiya	Buni oqlang
Nolga tenglashtirish	Buni bekor qiling, o'chirib tashlang
Sublimatsiya	Buning shaklini o'zgartiring

Ba'zan ijobiy "Men" - qiyofasida xavfni ko'rib chiqadi, ushbu tushunchaga guruh a'zosi sifatida subyektning ijtimoiy identifikligini va boshqa guruh a'zolari bilan subyektning o'zaro hamkorligida identifiklikka xavfni kiritadilar.

R.Plutchik bo'yicha muhofaza mexanizmlarining me'yoriy ishlashi tartiblashtirilgan shaxsiy ichki jarayonlarining barqarorligini ta'minlaydi, u esa, umumiy qabul qilingan talablar qanchalik belgilagan bo'lsa, shunchalik haqiqiy va shunchalik yolg'on bo'lishi mumkin. Shaxsning xulq-atvori

maqsadiga yo‘naltirilganligi va ketma-ketligi bilan tavsiflanadi va u jamiyat tomonidan me’yorida deb hisoblanadi. Kundalik hayotning ichki shaxsiy ziddiyatlari esa, ijobiy “Men”- qiyofasiga xavf tug‘dirmaydi va ichki shaxsiy ziddiyatlarga o‘tmaydilar, chunki muhofaza mexanizmlari ularni bartaraf etadi. Boshqa tomondan, agar emotsional zo‘riqish favqulotda kuchli namoyishkorona darajasiga yetsa, ba’zi bir muhofaza mexanizmlari me’yoridan ko‘proq tez-tez qo‘llaniladi yoki aksincha, uni bartaraf eta olmaydi. Shaxsda “toliqish jarayoni” boshlanadi. U ham, bu ham ijtimoiylashishdan orqada qolishning turli xil shakllariga olib keladi.

Startoldi emotsional qo‘zg‘alishning yuzaga kelishini quyidagi omillar asosida tavsiflash mumkin:

Sportchining intilishi darajasi: oldindagi musobaqining rasmiy martabasi emas sportchining intilishi darajasi unda paydo bo‘lgan reaktsiyaning sifat va me’yorini belgilaydi. Agar intilish darajasi yuqori bo‘lsa, masalan sportchi shahar, respublika terma jamoasiga tushishni xohlasa, startoldi hayajonlanish kuchliroq ifodalanadi. Asosiysi intilish darajasi mavjud imkoniyatdan yuqori emas mos bo‘lishi lozim, undan past bo‘lmasligi ham mumhimdir, chunki bu sportchida emotsional beqarorlikka olib keladi. Emotsional barqaror sportchilar o‘z imkoniyatlarini o‘rta darajadan yuqori baholaydilar.

Musobaqa sharoiti: musobaqaning bayramona va tantanavorligi, ko‘p sonli tomoshabinlarning mavjudligi sportchining startoldi hayajonini kuchaytiradi, tetiklishtiradi, ruhlantiradi.

Kuchli raqiblarning mavjudligi: kuchli raqib sportda kurashni kuchaytiradi, sportchining muvaffaqiyatga ishonchini kamaytiradi, bu esa qo‘shimcha hayajonni keltiradi. Agar sportchi va musobaqaning boshqa ishtirokchilari orasidagi sport ustaligi darajasi farqi katta bo‘lsa, unda startoldi emotsional qo‘zg‘alish kamroq bo‘ladi.

Shaxsiy yoki jamoaviy musobaqa: ko‘pgina sportchilarda, agar ular jamoa uchun kurashga chiqayotgan bo‘lsa startoldi hayajonlanish kuchliroq ifodalanadi.

Sportchi tajribasi ham startoldi hayajonlanish xususiyatini yuzaga keltiradi. Tadqiqotlardan ko‘rinadiki, ko‘pchilik sportchilarda startoldi hayajonlanish holati sport faoliyati davomida pasayadi, faqat ba’zilarida ko‘payadi.

Xulosa. Mazkur bob bo‘yicha tahlil etilgan ilmiy adabiyotlar hamda ilmiy tadqiqotlarning mazmunidan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, irodaviy sifatlar o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan sifatlar majmuidir. Ularning shakllanish dinamikasi ham, har bir sport turida o‘ziga xos tarzda kechadi. So‘nggi yillarda, yosh sportchilar uchun zarur bo‘lgan shaxsiy fazilatlarni shakllantirish masalasi bosh islohotlar darajasiga ko‘tarilmoqda. O‘smir sportchilarda irodaviy sifatlar shakllanishining psixologik o‘ziga xosliklari, murakkab fenomenologik hodisa sanalib, unda irodaviy harakatlarni ta’minlovchi axloqiy, kasbiy, aqliy, funktsional komponentlar mavjud. Ular ichida axloqiy komponent eng muhim sanalib, u berilgan vazifalarga bo‘lgan mas’uliyatlilik, topshiriqlarni his qila olish, qahramonlik, mardlik, o‘zini tuta bilish, tashabbuskorlik kabilar bilan tavsiflanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni. – T., 2017. – B. 1-3.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T., 2017. – №6 (766)-son. – 229b.

3. Берн Э. Введение в психиатрию и психоанализ для непосвященніх / Э.Берн. – СПб.: МФИН, 1992. – 448 с.

4. Берне Р. Развитие Я-концепции и воспитание / Р. Берне; Пер. с англ. М.Б.Гнедовской, М.А.Ковальчук / Общ. ред. В.Я.Пилиповского. – М.: Прогресс, – 1986. – 420с.

5. Фрейд А. Психология “Я” и защитніе механизмі / А.Фрейд; Пер. с англ. М.Р. Гинзбурга. – М.: Педагогика, 1993. – 144с.

6. Фрейд З. Введение в психоанализ: Лекции / З.Фрейд. - М.: Наука, 1989. – 456с.

7. Фрейд З. Психопатология обіденной жизни / З.Фрейд // Психология бессознательного: Сб. произведений. – М.: Просвещение, 1990. – С. 202-309.

8. Ханин Ю.Л. Диагностика эмоционально-нравственного развития: Сборник / Ред. и сост. И.Б. Дерманова. – СПб.: Речь, 2010. – 174с.

Kalkonova Lutfiya Yusufovna
Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim, sport kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MNEMONIK MAQSADNING SHAKLLANISHIGA DOIR KUZATISHLAR

Annotatsiya. *Maktabgacha yoshi inson xotirasining umumiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Bu yoshdagi bolalarning oddiy kuzatuvi ham ularning xotirasi jadal rivojlanib borayotganligini ko‘rsatadi. Maqolada mana shu kabi kuzatishlar, xususiyatlar haqida ma’lumot berilgan, Shuningdek, bola tomonidan mnemonik maqsadni ajratish va amalga oshirish jarayoni bilan bog‘liq jihatlarga e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *yosh davrlari, xotira, kuzatuv, esda olib qolish, mnemonik maqsad.*

OBSERVATIONS ON THE FORMATION OF MNEMONIC OBJECTIVES IN PRE-SCHOOL CHILDREN

Abstract. *The preschool period is a time of rapid development for all cognitive processes, including memory. This article presents the results of observations of the mnemonic development of preschool children, as well as describes the features of memory during this period. Particular attention is paid to the process of the child's выделения and realization of the mnemonic goal.*

Keywords: *age periods, memory, observation, memorization, mnemonic goal, preschool age, mnemonic techniques, mnemonic games.*

НАБЛЮДЕНИЯ ЗА ФОРМИРОВАНИЕМНЕМОНИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. *Дошкольный возраст – период бурного развития всех психических процессов, включая память. В статье представлены результаты наблюдений за мнемоническим развитием детей дошкольного возраста, а также описаны особенности памяти в этот период. Особое внимание уделяется процессу выделения и реализации мнемонической цели ребенком.*

Ключевые слова*: возрастные периоды, память, наблюдательность, запоминание, мнемоническая цель, дошкольный возраст, мнемонические техники, мнемонические игры.*

Maktabgacha yoshdagi bolalarning oddiy kuzatuvi ularning xotirasi jadal rivojlanib borayotganligini ko‘rsatadi. Inson xotirasining umumiy rivojlanishida ham maktabgacha yosh muhim rol o‘ynaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda xotiraning yetakchi turi obrazli hisoblanadi. Uning rivojlanishi va kelgusida qayta qurilishi bolaning aqliy mavjudotining turli sohalarida, asosan, bilish jarayonlarida - tafakkur va idrokda yuz beradigan o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Idrok, tobora ko‘proq maqsadga muvofiq, ongli bo‘lib qolsa ham, o‘zining globalligini saqlab qoladi. Fikrlashning doimiy rivojlanishi natijada bolalar ba'zan umumlashtirishning eng oddiy shakllariga murojaat qilishadi, bu esa, o‘z navbatida, g‘oyalarni tizimlashtirishga imkon beradi. G‘oyalar so‘zlar bilan bog‘lanib, muhim ko‘rinishga ega bo‘ladi. Analitik, sintetik faoliyatni takomillashtirish g‘oyalarning o‘zgarishiga olib keladi.

A.A.Lyublinskaya ta’kidlaganidek, maktabgacha yoshda yagona konkret obektni idrok etishda olingan yagona tasavvurlardan, umumlashtirilgan tasvirlarda fikrlashga [1];

"Mantiqsiz", hissiy jihatdan neytral, ko‘pincha noaniq, noaniq tasvirlarda, unda asosiy qismlar mavjud emas, lekin ularning o‘zaro noto‘g‘ri aloqasi bilan faqat ahamiyatsiz, tasodifiy tafsilotlar, aniq farqlangan, mantiqiy ma'noga ega bo‘lgan, bolalarda ularga nisbatan muayyan munosabatni keltirib chiqaradigan tasvirlarga qadar;

qattiq, bo‘linmagan statik tasvirlardan tortib, yoshi kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan turli xil faoliyatlarda ishlatiladigan dinamik displeylarga qadar;

bir-biridan ajralib ketgan alohida tasavvurlar bilan ishlashdan yaxlit vaziyatni, shu jumladan, o‘ziga xos turli xil bog‘lanishlarda ob'ektlarni aks ettiruvchi dinamik, ifodali tasvirlarni ko‘paytirishgacha.

Maktabgacha yoshdagi erta yoshda xotira beixtiyor xarakterga ega, ya'ni bola hanuzgacha biror narsani eslash yoki eslash uchun ongli maqsad qo‘ymaydi. Bu maqsad uchun maxsus vositalardan

foydalanmaydi. Eslash va yodlash asosan boshqa biron bir faoliyatga kiritiladi va keyinchalik uning ichida amalga oshiriladi.

Biroq, maktabgacha yoshdagi bolalarning beixtiyor xotirasi uning mexanikligini anglatmaydi. Xotira yodlash uchun material ustida ishlashning bir turi bilan tavsiflanadi. Ushbu ish hech qachon oddiy takrorlash haqida emas. Aksincha, u har doim materialni qayta ishlashni yashiradi, bu esa uni ko‘paytirish zarurati bilan bog‘liq. Xotirada, tushunishdan tashqari, kelajakda ko‘payish jarayoni uchun ayniqsa muhim bo‘lgan ba'zi elementlarning tanlanishini har doim ham ko‘rishingiz mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar so‘zlarni yodlash jarayoni sodir bo‘ladigan ikkita asosiy faoliyat yo‘nalishlariga ega. Avvalo, bu nutqni faol o‘zlashtirishga qaratilgan faoliyat. Yuqorida ta'kidlab o‘tilganidek, maktabgacha yoshdagi bolalar ona tilidagi shakllarni o‘zlashtirishda ayniqsa faoldir. Yangi og‘zaki shakllarni va ularning kombinatsiyasini o‘zlashtirishga qaratilgan ushbu faoliyat yodlashni o‘z ichiga oladi va ko‘paytirish ko‘pincha shu yerda amalga oshiriladi.

Xotirani rivojlantirish uchun bolaning adabiy hikoyalarni tinglash paytida ko‘rsatadigan faoliyati, ularni idrok etishi muhim ahamiyatga ega. Bu adabiy personajlarga nisbatan ichki hamdardlik jarayonida ifodalanadi. Maktabgacha yoshda bolalarga adabiy asarlar mazmunini tushunishga imkon beradigan qahramonlarga nisbatan hamdardlik shakllanadi. Bu turli xil adabiy asarlarni yodlashni amalga oshiradigan ikkinchi darajali ish turi - she'rlar, ertaklar va boshqalar.

Keyingi ko‘payish uchun maxsus yodlash vazifasi bolalarga yuklanmagan, shuning uchun ular hali ham eslash va yodlash uchun maxsus texnikaga ega emaslar. Ushbu jarayonlarning samaradorligi ularning boshqa faoliyat tarkibida egallagan o‘rnini, uning maqsadlari va motivlari bilan bog‘liqligini belgilaydi.

Ixtiyoriy xotirani maktabgacha yoshdagi bolalarning xatti-harakatlarida ko‘rish mumkin. Kichik bolalar, bir guruh rasmlarni ko‘rish va boshqa bir guruhni eslab qolish vazifasini olganlaridan so‘ng, xuddi shunday qilishadi: ular ko‘rsatmalarni tinglamaydilar, ikkala guruh rasmlariga nigoh bilan qarashadi, rasmlar bilan o‘ynashni boshlashadi yoki rasmlarning mazmunidan ilhomlanib biron bir narsani aytib berishadi. Ular hech qanday maxsus yodlash harakatlarini amalga oshirmaydilar. Maktabgacha yoshdagi katta yoshdagi bolalar allaqachon yodlashga qaratilgan maxsus harakatlarni o‘zlashtira olishgan (masalan, bir necha marta takrorlash), ular o‘zlariga ongli maqsadlar qo‘yishlari mumkin, nimanidir eslab qolish uchun ixtiyorsiz xotiradan ixtiyoriy xotiraga o‘tish ikki bosqichdan iborat. Birinchisi, zarur motivatsiyani shakllantirish, ya'ni biror narsani eslash yoki eslash istagi. Ikkinchi bosqichda, buning uchun zarur bo‘lgan mnemonik harakatlar va operatsiyalar paydo bo‘lishi va takomillashishi sodir bo‘ladi. Yodda saqlash va ko‘paytirishning o‘zboshimchalik shakllari 4-5 yoshdan boshlab paydo bo‘la boshlaydi.

Bolalar xotiraning o‘zboshimchalik shakllarini bir necha bosqichda o‘zlashtiradilar. Dastlab, ular kerakli texnikani o‘zlashtirmaguncha, eslash va eslab qolish uchun faqat vazifalarni ajratib olishni boshlaydilar. Shu bilan birga, eslashning maqsadi ilgari ta'kidlangan, chunki bolalar avvalo uni eslashi kerak bo‘lgan vaziyatlarga duch kelishadi, ilgari o‘zi sezgan yoki xohlagan narsani ko‘paytiradilar. Yodda saqlash vazifasi, eslash tajribasi natijasida paydo bo‘ladi, chunki bolalar esga olishga urinmasalar, keyinchalik ma'lumotni ko‘paytira olmasligini anglay boshlaydilar.

Bola tomonidan mnemonik maqsadni ajratish va amalga oshirish jarayoni Z.M.Istomina tomonidan o‘rganilgan [2]. Mnemonik maqsadni maktabgacha yoshdagi bola tanlashi, uni faol yodlash va eslashni talab qiladigan sharoitlarga duch kelganda yuz beradi. Z.M.Istominani o‘rganishda yod olishdan oldin eslash o‘zboshimchalik xususiyatiga ega ekanligi ham aniqlandi. Z.M.Istomina tomonidan olingan eksperimental materiallar shuni ko‘rsatdiki, faqat unga berilgan ko‘rsatmalarni takrorlashda uning nomuvofiqligini aniqlaganda, bola ko‘rsatmalarni tinglashda etarlicha faol bo‘lmaganligini anglagan va Istominni eslash uchun hech narsa qilmagan.

Eslab qolish va yodlash texnikasi odatda bolaning o‘zi tomonidan ixtiro qilinmaydi. Kattalar ularni qandaydir shaklda taklif qilishadi. Masalan, kattalar bolalarga ko‘rsatma berib, darhol uni takrorlashni taklif qilishadi. Bolaga biron bir narsa haqida savol berganda, kattalar eslash jarayonini savollar bilan boshqaradilar: "Keyin nima bo‘ldi?", "Va siz bu otlarga o‘xshash yana qanday hayvonlarni ko‘rdingiz?" va h.k. Bolalar asta-sekin yaxshiroq yodlash uchun materialni tushunishni, takrorlashni, bog‘lashni o‘rganadilar, eslashda aloqalardan foydalanadilar. Natijada, bolalar yod olish uchun maxsus harakatlar zarurligini anglaydilar, shu maqsadda I.V.Dubrovinaning yordamchi vositalaridan foydalanish ko‘nikmalarini egallaydilar [3].

Ma'noli materialni yodlash jarayonining ma'nosiz material bilan taqqoslaganda ancha muhim samaradorligi, maktabgacha yoshdagi bolalar materialni faol ravishda tushunishga va so‘zni yodlash

uchun bilvosita ishlatishga harakat qilishlarini anglatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda, bilvosita, yodlangan material bilan belgilanadigan so‘zlarning paydo bo‘lishi va keyingi rivojlanishi xotira rivojlanishining yangi bosqichiga o‘tishning ko‘rsatkichidir - bu o‘zboshimchalik bilan ongli harakat sifatida shakllanishi, bu maxsus vositalardan foydalanish bilan tavsiflanadi.

Bolalarning faolligi yodlash jarayoni uchun katta ahamiyatga ega. Agar bolalarga aniq va qiziqarli topshiriq berilsa, masalan: u aytilgan so‘zlarga, ma'no jihatidan boshlang‘ich bilan bog‘liq bo‘lgan boshqalarni tanlashi yoki kattalar tomonidan chaqirilgan so‘zlarni rasmlar bilan bog‘lashi yoki bir xil harflar bilan boshlanadigan so‘zlarni tanlashi kerak bo‘lsa, unda so‘zlarning soni xotira keskin ortadi. Bundan tashqari, bunday so‘zlar bolalar tomonidan mexanik ravishda yodlangan so‘zlardan ko‘ra ko‘proq davom etadi, garchi ko‘p takrorlansa ham ixtiyoriy yodlashni o‘rgatishdagi muhim yutuqlarga qaramay, beixtiyor xotira maktabgacha yoshning oxirlarida ham asosiy xotira turi bo‘lib qolmoqda. Bolalar ixtiyoriy yodlash va ko‘paytirishni tegishli rejadagi vazifalar bo‘lganida yoki kattalar talab qilganda nisbatan kamdan kam foydalanadilar.

Majburiy bo‘lmagan yodlash ma'lum bir materialga tatbiq etiladigan bolalarning faol aqliy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, u maktabgacha yoshning oxirigacha o‘xshash materiallarni ixtiyoriy yodlashga qaraganda ancha samarali bo‘lib qoladi. Biroq, E.S.Saitgalinaning ta’kidlashiga ko‘ra, fikrlash va idrok etishning yetarlicha faol harakatlarini (masalan, rasmlarni yodlash) bajarish bilan bog‘liq bo‘lmagan beixtiyor yodlash, ixtiyoriyga qaraganda muvaffaqiyatli emas [4]. Maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasi, tashqi ko‘rinishiga qaramay, aslida markaziy o‘rinni egallab, yetakchi funksiyaga aylanadi.

Kishilarning ismini yoki berilgan bob materialini tezroq va yaxshiroq eslab qolish uchun kundalik hayotimizda biz nima qila olamiz? Ba’zan bizni xotiramiz pastligi xavotirga soladi: biz tanish ismlarni yoki eng muhim narsalarni eslab qola olmasligimizdan; suhbatimiz mavzusini yo‘qotib, kirgan xonamizda bizga nima kerakligini yoddan chiqarib qo‘yishimizdan qo‘rqib ketamiz. Bunday xotira susayishini bartaraf etish uchun mazkur mashqlarni taklif etadi:

Materialni bir necha bor qaytaring, uzoq muddat eslab qolish imkonini beradi. Erinmang. Ismni yodda saqlab qolish uchun uni talaffuz qilgan zahotiyoq takrorlang, biroz kutib, yana qaytaring.

Takrorlash va material bilan ishlashga ko‘proq vaqt ajrating. Minimal darajada takrorlash bilan murakkab materialni tez o‘qish (yuzaki ko‘z yugurtirish) uning xotirada qolishiga yordam bermaydi. Materialni takrorlab, uni tanqidiy anglash katta foyda keltiradi. Faol mashq qilish (yodlash) lozim.

Materialni eslab qolish uchun uni o‘zingizga qulay qilib tashkil eting. Keyin ularning mazmunini yaxshi eslab qolish uchun matnlarni konspekt qilib, ma’ruzalarni o‘z so‘zlaringiz bilan yozib oling. Axborotning ongsiz ravishda takrorlashdan ma’no yo‘q. Yaxshisi assotsiativ (bog‘lanishli) aloqalarni o‘rnatib, ma’lumotlarni tartibga solish, yangi materialni siz o‘zingiz bilgan va boshingizdan o‘tkazgan narsalar bilan solishtiring hamda o‘z fikringiz bilan qayta hikoya qilib bering. Bularsiz siz noqulay vaziyatga tushib qolishingiz va agar savol siz rejalashtirmagan shaklda berilgan paytda ushbu savolni tushunmay qolishingiz mumkin. Gaplarni eslab qolishning mufassal guruhini tashkil etishning ko‘proq tasavvurlariga ega bo‘ling.

Notanish tushunchalarni yodda saqlab qolish uchun mnemonik (esga olishni osonlashtiradigan) uslublardan foydalaning, notanish so‘zlarni tayanch so‘zlar bilan bog‘lang. Nomlanishlarni obrazli tasavvur qilish uchun vaziyatlarni o‘ylab toping. Ma’lumotlarni akronimlarga ajratib chiqing.

Assotsiativ (bog‘lanishli) aloqalar orqali xotirada axborotni yangilab turing.

Hayolan eslab qolish ro‘y bergan vaziyat va kayfiyatni o‘zingizda tasavvur qiling. Hayolan usha joylarga qaytib boring. Har bir aytmoqchi bo‘lgan fikringiz ketma-ketligi avvalgisining ortidan kelishi uchun qulay tarzda vaziyatlarni yodga oling.

Voqealar yaxshi yodda saqlanib turganida hamda siz ularni esdan chiqib qolishi darajasiga yetkazmasdan esga olishga harakat qiling.

Turli xil ma’lumotlarning aralashib ketish ehtimolini minimum darajaga keltiring. Bir vaqtning o‘zida bir-biriga o‘xshash mavzularni, masalan ispan va fransuz tillarini birgalikda o‘rganmang, chunki biri ikkinchisiga halaqit qiladi.

Bir vaqtning o‘zida biladigan bilimlaringizni ham mustahkamlab, ham aniqlashtirib olish uchun o‘z bilimlaringizni takrorlang. Keyinchalik axborotlarni yodga olish kerak bo‘lganda, o‘zingizga ortiqcha darajada ishonib yubormang. O‘zlashtirganlaringizni takrorlang. Toza qog‘ozga bo‘limlar rejasini tuzib oling. Turli xil tushunchalarga mustaqil tarzda bobning so‘ngida ularni o‘qib chiqqin-

ungizga qadar ularga ta'rif bering. Mashq qiling. Matnlarda, xususan, mazkur bobdagi yaxshi o'zlashtirish maslahatlari sizga yordam berishi mumkin.

O'zini tekshirib ko'rmasdan o'ziga ishonish, o'ziga ortiqcha baho berishga olib kelishini Yudjen Sexmeyster va Djon Shognessilar talabalarning ikki guruhi bilan tajribalar o'tkazish jarayonida aniqladilar. Birinchi guruh talabalari o'nlab aniq faktlarga asoslangan fikrlarni bir necha marotaba qayta-qayta o'qib chiqib, so'ngra o'z fikrlarini har bir faktga nisbatan so'zlab berdilar, keyin esa ularni qay darajada yaxshi eslab qolganliklarini bilish uchun tekshirib ko'rishdi. Keyinchalik tekshiruvda o'zlari javob bera olmagan savollari uchragan bo'lsa xam, ushbu guruh talabalari o'z kuchlariga juda ishonar edi. Ikkinchi guruh talabalari fikrlarni o'qib chiqishdi, biroq qolgan vaqt mobaynida amaliy mashg'ulotlar bilan band bo'lishdi – savollarga javob qaytarishdi. Buning uchun o'qib chiqqanlarini esga olishga to'g'ri keldi. "Ko'p karra o'qib chiqqan" guruh talabalari bilan taqqoslaganda, ikkinchi guruh talabalari xotirani tekshirish testlarida bir xil yaxshi ko'rsatkichlarga erishdilar. Undan tashqari, ushbu guruh talabalari nimani yaxshi bilishlari-yu, nimani yaxshi bilmasliklari to'g'risidagi savollarga yaxshi javob bera olishdi. Shunday qilib, o'zi-o'zini tekshirib ko'rish uslubi materiallarni yaxshi eslab qolib, muammolarni aniqlash va shu orqali biz hali bilmaydigan narsalarimizga ko'proq diqqatimizni jamlash imkoniyatini beradi.

Xulosa o'rnida Britaniya bosh vaziri Bendjamin Dizraelining fikrini keltiradigan bo'lsak: "Siz kam bilishingizni tushuningiz, bu- bilim olish uchun qo'yilgan katta qadamdir", degan edi. Xotira psixologiyasi uni mukammallashtirishning aniq va ravon uslublarini taklif etadi. Ular orasida: uzoq muddatga eslab qolish; faol tarzda takrorlash, foydali, jonli, obrazli assotsiativ aloqalarni tashkil etish, yodda tutish mashqlari; hayolan aniq bir vaziyat va kayfiyatga murojat etish; xotiradagilar yolg'on xabar orqali yo'qolib ketmasdan oldin qayta hikoya qilish; axborotlar aralashib ketishiga yo'l qo'ymaslik; o'zi-o'zini nazorat qilish va takrorlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Г.А.Урунтаева. Детская психология: учебник для студ. – М.: Издательский центр «Академия», 2013. - 336 с.

2.З.М.Истомина. - М.: Психология, 1977. - 120 с.

3.И.В.Дубровина. Таълимнинг амалий психологияси. - М.: 2010 – 528 б.

4. Мактабгача ёшдаги болаларда хотирани ривожлантириш // Концепция. - 2015. - № 01 махсус сони.

5.Nishonova Z.T. Oliy maktab psixologiyasi. T.: 2003.- 231 b.

6.Abdurasulov R. Psixologning kundalik kitobi. Jizzax 2005 154 b.

7.G'affarov A.Z., Yugay A.X. Pedagogika amaliyoti. T. 2002 -214 b.

8. Psixologiya. Qisqacha izohli lug'at .Toshkent, 1998.-178 b.

Nasirdinova Soliha Ravshanbek qizi
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya kafedrasi assistenti

MAKTAB O‘QUVCHILARIDA SANOGEN TAFAKKURNI TADQIQ ETISHNING PSIXODIAGNOSTIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Maktab o‘quvchilarida sanogen tafakkurni tadqiq etishning psixodiagnostik asoslari hamda sanogen tafakkur muammosining dolzarbligi, nazariy asoslari tahlil qilinib, Maktab o‘quvchilarida sanogen tafakkurni rivojlantirish jarayonining kognitiv, tayyorlov, yakuniy fazalariga ustuvorlik berish asosida sog‘lom fikr yuritish va sanogen xulq-atvorga oid tarkibiy komponentlari mazmuni yoritilgan. Shuningdek Maktab o‘quvchilarida sanogen tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish asosida uni rivojlantirish, Maktab o‘quvchilarida sanogen tafakkurni rivojlanganlik darajasini va uning komponentlarini tahlil qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *sanogen tafakkur, patogen tafakkur, sanogen refleksiya, sog‘lom fikr yuritish, sanogen xulq-atvor, dinamiklik, beqarorlik, ijtimoiy-psixologik mexanizm, ijodiylik, intellekt.*

ПСИХОДИАГНОСТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ САНОГЕННОГО МЫШЛЕНИЯ У ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. *В данной статье анализируются психодиагностические основы исследования саногенного мышления у студентов, а также актуальность, теоретические основы проблемы саногенного мышления, освещается содержание структурных компонентов здорового мышления и саногенного поведения на основе приоритета когнитивных, подготовительных, заключительных фаз процесса развития саногенного мышления у студентов. Также на основе исследования педагогико-психологических особенностей развития саногенного мышления у студентов разработаны практические рекомендации по его развитию, анализу уровня развития саногенного мышления у студентов и его компонентов.*

Ключевые слова: *саногенное мышление, патогенное мышление, саногенная рефлексия, здравый смысл, саногенное поведение, динамичность, нестабильность, социально-психологический механизм, креативность, интеллект.*

PSYCHODAGNOSTIC BASICS OF STUDYING SANOGENIC THINKING IN SCHOOLCHILDREN

Annotation. *This article analyzes the psychodiagnostic foundations of the research of sanogenic thinking in students and the relevance, theoretical foundations of the problem of sanogenic thinking and highlights the content of the structural components of the process of developing sanogenic thinking in students on the basis of prioritization of cognitive, preparatory, final phases of common sense and sanogenic behavior. Also, on the basis of research on the pedagogical and psychological characteristics of the development of sanogenic thinking in students, practical recommendations for its development, analysis of the degree of development of sanogenic thinking in students and its components have been developed.*

Key words*: sanogenic thinking, pathogenic thinking, sanogenic reflex, common sense, sanogenic behavior, dynamism, instability, socio-psychological mechanism, creativity, intelligence.*

Kirish. Zamonaviy ijtimoiy hayot dinamiklik, beqarorlik va keskinlik bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlar zamonaviy ta'lim sohasini ham tavsiflaydi. Har xil turdagi ta'lim sharoitida psixologik salomatlikni saqlash va mustahkamlash bolalar, o‘smirlar va kattalarda samarali, sog‘lomlashtiruvchi (Y.M.Orlovning fikricha, sanogenik) tafakkurni rivojlantirishni talab qiladi, bu esa odamga o‘z faoliyatini amalga oshirish va boshqarish imkonini beradi.

Jahonda ta’lim tizimining asosiy maqsadi talabalarning sanogen tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini takomillashtirishning ijodiylik, intellektual salohiyat modulli texnologiyalari amaliyotga kiritilgan.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunga kelib, xorijiy psixologiyada odamni salbiy hissiy vaziyatlarda mantiqsiz e’tiqodlarni tan olishga o‘rgatish uchun konstruktiv, oqilona fikrlashni rivojlantirishning turli usullari mavjud (Bek, 1967, 1979, 1990; Ellis, 1999, 2002; McMullin, 2001 va

boshqalar)). Mahalliy psixologiyada bu borada birinchi bo‘lib Yu.M.Orlovning sanogenik tafakkurni o‘rgatish uslubi (Orlov, 1993, 1997, 2000) bo‘ldi. Uning shogirdlari va izdoshlari kichik yoshdagi maktab o‘quvchilari uchun ta’lim texnologiyalari va kattalar uchun o‘quv dasturlarini ishlab chiqdilar (O.S. Grebenyuk, 2000; S.N. Morozyuk, 2000; T.N. Vasilyeva, 1997 va boshqalar).

Zamonaviy psixologik-pedagogik amaliyotda o‘qitishning turli shakllaridan foydalangan holda kino, nafaqat, axborot, balki katta rivojlanish salohiyatiga ega bo‘lgan muhim o‘rinni egallaydi.

Xorij olimlaridan A.Adler, A.Bek, A.Binet, Z.Freyd, J.P.Gilford, F.Galton, R.B.Kettell, K.Levin, K.Perlet, J.Piaget, J.Renzulli, C.Spearman, R.Sternberg, L.L.Thurstone, K.Heller va boshqalar tomonidan shaxsning taraqqiyotida tafakkurning xususiyatlari, uning psixologik barqarorlikka ta’sirini, bilish jarayonlarida tafakkurning ong osti faoliyatidagi o‘rni tadqiq qilingan. Ammo aynan talabalar sanogen tafakkurini rivojlantirish masalalari to‘liq tadqiq qilinmagan.

Yosh avlodning mamlakatimiz barqarorligiga, uning ijtimoiy, ma’naviy yuksalishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan ekstremistik va terroristik oqimlar, patogen g‘oyalar ta’siriga tushib qolmasligi uchun muayyan ijtimoiy-psixologik asosni yaratish, takomillashtirish hozirgi kunda psixologiya fani oldida turgan muhim vazifalardandir. Mazkur masala, yoshlarning sanogen tafakkuri genezisi, mohiyati va mazmuniga mavjud ilmiy nazariyalarga suyangan holda ta’rif berish, tasniflash, tahsil oluvchilarning sog‘lom tafakkurini rivojlantirishga bag‘ishlangan ijtimoiy-psixologik, pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish muammosi alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Hozirgi vaqtda patogen g‘oyalar va destabillashtiruvchi guruhlarning paydo bo‘lish sabablari, faoliyat doirasi kengayishining oldini olish maqsadida yoshlarning sanogen tafakkurini o‘stirish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etib, bu sohada ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarni olib borish dolzarb vazifa bo‘lib hisoblanadi.

Muhokamava natijalar. Talabalik davrida kasbiy bilimlar bilan bog‘liq tafakkurning shakllanishi muhim hisoblanadi. Tafakkurning o‘zi esa o‘ziga xos xususiyatga ega. “Tafakkur” tushunchasini tahlil etish asosida uning quyidagi asosiy xususiyatlarga ega ekanligi haqidagi xulosaga kelingan:

1) tafakkur voqea-hodisalarnianiq va umumlashgan holda aks ettirishga imkon beradi;

2) borliqni bilvosita aks ettiradi, ya’ni inson o‘zlashtirgan tajribalariga tayangan holda yangi bilimlarni hosil qiladi.

3) ijodiy fikr yuritish va faoliyatdagi ijodkorlik inson tafakkurining muhim xususiyati hisoblanadi.

4) tafakkur til bilan bevosita bog‘liq. Chunki, fikrlashni, tafakkur yuritishni ideal va ijtimoiy hodisa sifatida baholash mumkin. Sababi u faqatgina til vositasida reallikka aylanadi. Natijada, barcha uchun tushunarli va bevosita qabul qilinadigan, his etadigan shaklga kiradi va insonlar o‘rtasida o‘zaro fikr almashish vazifasini bajaradi [58].

Demak, til inson tafakkurining real voqelik kasb etishiga xizmat qiladi.Tafakkur va uning o‘ziga xos xususiyatlari «sanogen tafakkur» va patogen tafakkur tushunchalari mazmunini aniqlashtirish imkonini beradi.

Har bir inson nafaqat o‘zining his-tuyg‘ularini va xatti-harakatlarini nazorat qilishi, balki muayyan qoidalarga muvofiq fikrlash tarzini ham nazorat qila olishi kerak. Mazkur holat bilan bog‘liqlikda pedagog-psixolog olimlar fikrlashning ikkita turini ajratib ko‘rsatish adi: sanogen va patogen fikrlash. Talabalik yillarida yoshlarning hayoti va faoliyatida o‘zini o‘zi kamolotga yetkazish jarayoni muhim rol o‘ynaydi, lekin o‘z-o‘zini boshqarishning tarkibiy qismlari (o‘zini-o‘zi tahlil qilish, nazorat etish, baholash, tekshirish va boshqalar) ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Sanogen tafakkur sog‘lomlashtiruvchi, qo‘llab-quvvatlovchi va ruhlantiruvchi fikrlash tarzi. Shuningdek, sanogen fikrlash shakli bu ma’lum bir algoritmdan foydalangan holda fikr yuritish va o‘rganishning shaxsiy patogen (nosog‘lom fikrlash) stereotiplarini qayta ko‘rib chiqish va tartibga keltirishdan iborat bo‘lib, muayyan faoliyat davomida yuzaga keladigan muammo va qiyinchiliklarni to‘g‘ri aks ettirish qobiliyatidir. Har bir kishi hayotiy faoliyati davomida teztez astenik (yoqimsiz) tuyg‘ularni boshdan kechiradi yoki salbiy hissiy kechinmalarni vujudga keltiradigan noqulay vaziyatlarga duch keladi: xafagarchilik, ishonchsizlik, muvaffaqiyatsizlik, umidsizlik, sabrsizlik, aybdorlik va boshqalar. Ba’zilarimiz shu kabi haqiqiy his-tuyg‘ular oldida o‘zimizni yo‘qotib qo‘yamiz va aqliy kuchimiz zaiflashadi. Boshqalar esa - o‘zlari bilan tez kelishib, bunday noqulay holatlarni tez yengadi va hayotda munosib o‘rinni topishga qodir.

Asosan, mualliflar o‘z asarlarida sanogenik tafakkur namoyon bo‘lishining individual shakllariga, shuningdek, uning elementlarini shakllantirishning o‘ziga xos usullariga e’tibor berishadi.

Kam hollarda mutaxassislar sanogenik fikrlashning mohiyati, tabiati va mexanizmlariga to‘xtalib o‘tadilar.

Buyuk alloma Abu Ali ibn Sino (980-1037) o‘zining axloq haqidagi risolasida yozishicha, ijtimoiy adolat - inson xatti-harakatlarining eng muhim bezagidir. Adolat - ruhiy lazzatning bosh o‘lchovi. Adolat odamga xos sabr, jasurlik, donolik kabi hislatlar orqali namoyon bo‘ladi. Bu fazilatlarga ega inson, vijdon amri bilan o‘zini yomon xulq-odob, munosabatlardan saqlaydi. Ezgulik, ruhiy poklik, yaxshilikni o‘zida mujassam etishga harakat qiladi. Ibn Sinoning axloqiy qarashlari, ruhiy poklanish, adolat haqidagi g‘oyalari uning ijtimoiy va ma’naviy-tarbiyaviy qarashlaridan kelib chiqadi. Bu fikrlarning nazdida albatta sog`lom tafakkur qilish yotadi.

Amir Temur (1336-1405) “Har kimdan kengash oldim. Har kimdan fikr o‘rgandim, qaysi biri foydaliroq bo‘lsa, uni ko‘ngil xazinasida saqlab, ishlata bildim” - deya ta’kidlagan. Amir Temurning ushbu fikrlaridan ma’lum bo‘ladiki, har bir jamiyaat fikr-mulohaza yuritib, o‘zaro fikr almashib, jamiyatni takomillashtirishi mumkinligini tushunish mumkin. “Barcha ishlarimni to‘qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini esa qilich bilan amalga oshirdim” – deya ta’kidlaydi va "Men hayotim davomida besh narsaga qat’iy e’tiqod qo‘ydim va xamishalig‘ ularga amal qildim. Ular ushbulardir: Alloh-ul har narsaga qodir kuch, sidqidildan sig‘insang istagan murod-u maqsadingga yetkazadi. Tafakkur – fikrlash va mushohada qobiliyati, quvvat xafizasi kuchli inson har qanday mushkul-u mushkulotni oson qilish yo‘lini topa oladi. Qilich-ul yigitning yo‘ldoshi, el-yurt osoyishtaliginging posboni, har qanday dushmanlarni mavx etish quroli, aning qudrati ila dinsizlarni diniga solmoq mumkin. Imon-ul insonni barcha jonlilardan farqlantirib turguvchi xususiyiyatdir. Imonli odam xiyonat qilmaydi, qarindosh-urug‘lari, elu-xalqning or-nomusini himoya qiladi, halollik va poklikni fazilat biladi. Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-idrokning, ilm-u donishning asosidir, hayotni o‘rgatuvchi murabbiydir”. - deb ta’kidlaydi. Amir Temurdan meros bo‘lib hisoblangan o‘g‘itlari muzokara yuritish, fikr qilish muloqotda ham insonlar o‘zaro fikr almashib oqilona tafakkur yuritishini imkoniyatlariga ega bo‘lishga ega bo‘lishida ijtimoiy-hayotiy mexanizm bo‘lib xizmat qiladi.

Masalan, Z.Freyd ruhiy kasallik sifatida nevroz xatti-harakatlarning madaniy aqliy avtomatizmlari tomonidan yaratilganiga ishonch hosil qiladi. K.Yung shaxsning arxetipik xususiyatlari bilan belgilanadigan fikrlash va tushunish usullarini yengib o‘tish zarurligini ta'kidlaydi. Ya'ni, har doim ham mantiqiy qoidalarga to‘g‘ri kelmaydigan sanogenlik qoidalariga muvofiq fikrlashni boshqarishga urg`u beradi. K.Xornining fikricha, inson xatti-harakati ko‘pincha madaniy omillar bilan tartibga solinadi, chunki bizning madaniyatimiz oqilona fikrlashga katta ta'sir ko‘rsatadi, uni yuksaltiradi va irratsional printsipni pastroq deb hisoblaydi. M.Jeymsning fikricha, sanogenik tafakkurning asosi hozirgi paytda sodir bo‘layotgan narsalarni tushunish qobiliyati sifatida xabardorlikdir. Tafakkuri keng odam o‘zining ichki his-tuyg‘ulari, fantaziyalari dunyosini biladi, undan qo‘rqmaydi va uyalmaydi, uning fikri va tanasi "bu yerda va hozir" vaziyatga to‘la to‘kis mos keladi.

Ijobiy fikrlash - bu hayotga, o‘ziga va sodir bo‘layotgan voqealarga ruhiy munosabatning bir turi hisoblanadi.

Agar Maktab o`quvchilarida ijobiy fikrlash rivojlangan bo‘lsa, hayot baxtli, osoyishta va tabassumlarga to‘la ko‘rinadi. Bu, shuningdek, yashash uchun zarur bo‘lgan narsani topish uchun fikrni ochishga imkoniyat yaratadi.

Insonning kundalik tafakkuri patogen bo‘lib, u o‘zi bilan, atrof-muhit bilan, sog‘liq uchun barcha oqibatlari bilan hissiy stress va ziddiyatni keltirib chiqaradi.Bu patologik emas, balki juda oddiy fikrlash, ammo bu patogendir.

Sanogenik fikrlash jarayonlarining xilma-xilligini kengaytirish va fikrlash talabalarning ichki imkoniyatlarini ochishga xizmat qiladi, shuningdek, hissiyotlarni kamaytiradigan yangi dasturlarni ishlab chiqishga qo‘l keladi. Sanogenik fikrlash doirasini kengaytirish uchun talabalar ko‘proq o`zlarida ilmiy dunyoqarashni kengaytirishi va keyin ma'lum bir tuyg‘u haqida o‘ylash odatini rivojlantirishlari lozim.

Sanogen tafakkur bo‘yicha keltirilgan mulohazalar va berilgan ta’riflardan kelib chiqqan holda uning quyidagi o‘ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlari ajratildi:

- O‘z fikrlarini tashqi ifodalay olish, ya’ni eksteriorizatsiyaning namoyon bo‘lishi;
- Fikrlash jarayonida interiorizatsiya (ichki qabul qilish)ning namoyon bo‘lishi;
- Fikrlashda noodatiylik (improvizatsiya) va ijodkorlik;
- Fikrlashning refleksivligi va pozitiv fikrlash;

• Fikrlashda shaxsiy refleksiya va mustaqillikning namoyon bo‘lishi;
• Fikriy harakatlarning uyg‘un amalga oshirilishi (eshitish, nutq va harakat);
• Fikrlashdagi moslashuvchanlik;
• Fikrlash jarayonida o‘z-o‘zini ishontirish va nazoratning yuqoriligi;
• Fikrlash jarayonida emotsionallik va aqliy yondashuvning uyg‘unligi

Sanogen va patogen fikrlash shakllarining mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun, ularning muhim xususiyatlarini ajratib, bir-biri bilan taqqoslash lozim. Yu.M.Orlov tomonidan sanogen va patogen tafakkurning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinib, ularni bir-biridan farqlanib turuvchi jihatlari ajratib ko‘rsatilgan. Ular quyidagilar:

1. Sanogen tafakkur egalari – o‘z hissiy kechinmalariga tashqaridan nigoh tashlay oladilar, muhim muammolarga bog‘liq fikrlar ham ularni xotirjamligini yo‘qolishiga sabab bo‘lmaydi, negativ emotsiyalar qaerdan paydo bo‘lishini biladilar, fikrlash vaqtida jarayonga butun diqqatlarini jamlay oladilar, tafakkurlari egiluvchan, hamma narsadan pozitiv topa oladilar, fikrlari va harakatlari pozitiv bo‘ladigan shaxslardir;

2. Patogen tafakkur egalari – negativ fikrlarni ko‘pligidan ularni nazorat qilish ko‘nikmasini yo‘qolishi, vaziyatni chetdan baholay olmaydilar, doimiy hafa bo‘lish va nafrat hissini tuyishning ustunligi, ulardan qutilishni ilojsizligi, hissiyotlarni boshqara olmaslik, negativ fikrlarni salomatligiga ta’sirini kuchayishi kuzatiladigan shaxslardir.

Sanogen (sog‘lom) tafakkur inson salomatligini muhofaza qilishning noan’anaviy usullaridan biri bo‘lib, yangicha fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishni ta’minlaydi. Shuningdek, sanogen fikrlash ko‘nikmasi fikr yuritishning xilma-xil usullarini o‘zlashtirish, unga erkinlik berish, emotsiyalarning keragidan ortiqcha namoyon bo‘lishini kamaytirishga imkon beradi. Sanogen fikrlash ko‘nikmalarini o‘zlashtirish uchun avvalo shaxs o‘zida kechadigan aniq hissiemotsional holatlar (masalan, nafrat, uyat, muvaffaqiyatsizlik, ishonchsizlik, noadekvat baholash va salbiy fikrlar) haqida yangicha tafakkur yuritishni tarbiyalashi lozim. Ana shunda, inson o‘zida mavjud bo‘lgan muayyan stereotip fikrlar va xulq-atvor ko‘nikmalaridan xalos bo‘ladi. Insonning atrof-muhitni idrok etish jarayonini kuzatish asosida uning sanogen va patogen (nosog‘lom) fikr yuritish ko‘nikmalarini tadqiq etish mumkin. Fikrlashning patogenligi shundaki, insonning salomatligiga zarar yetkazuvchi salbiy qarashlar yig‘indisi bo‘lib, u shaxsning o‘z-o‘zi va shaxslararo munosabatlar jarayonida vujudga keladigan emotsional beqarorlik va nizolar bilan izohlanadi.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlar, nazariy ma’lumotlar asosida quyidagi xulosalarni shakllantirishimiz mumkin:

1. Sanogen tafakkur shaxsning o‘z-o‘zini nazorat qilishiga, stressogen omillarni rolini adekvat idrok qilishga, ijtimoiy stereotiplarni konstruktiv qabul qilishiga, shaxsning ruhiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi fikrlash turi ekanligi tahlil qilingan;

2. Sanogen tafakkur emotsional barqarorlikni hamda shaxsning psixologik salomatligini ta’minlashda, muloqotdagi nizolarni konstruktiv hal etish bilan bog‘liq ijobiy tasavvurlarni namoyon bo‘lishida ustuvor harakterga ega ekanligi aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Спивак И.М. Методы математической обработки в психологии. СПб.: ООО «Речь», 2002. 350 с.
2. Сергиенко Е.А., Рязанова Т.Б. Младенческое близнецовое лонгитюдное исследование: специфика психического развития // Психологический журнал. 1999. № 2. С. 49.
3. Anna Hilman Psychological testing. Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall. 1997.// Леонтьев Д.А. Самореализация и сущностные силы человека Психология с человеческим лицом: гуманистическая перспектива в постсоветской психологии. М.: Смысл, 1997.С. 156-177
4. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. T.: “Fan”, 1975. – 134-bet
5. Beruniy A.R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. – T.: Fan. 1968. – 24 b.
6. Дубровина И.В. Школьная психологическая служба: вопросы теории и практики. М.: Педагогика, 1991. 221с.

Rajabov Orifjon Xonimqulovich
Jizzax politexnika instituti dotsenti
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Azizov Obid Ergashjanovich
Jizzax politexnika instituti dotsenti
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

IQTIDORLI BOLALARNI TANLASHNING USLUBIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqolada umumta’lim maktablarida tahsil olayotgan yuqori imkoniyatlarga ega bo‘lgan iqtidorli o‘quvchilarni saralab olishning ilmiy nazariy masalalari va uslubiyati to‘g‘risida so‘z boradi. Bundan tashqari iqtidorli o‘quvchilarni saralash metodlari mazmuni va ularning natijalari ham keltirib o‘tiladi. Shu sababli ilmiy asoslangan va mazmunan mukammal metodikalar asosida saralangan o‘quvchilarning ta’limini samarali tashkillashtirish ishlarini olib borish ushbu maqolaning asosiy mazmunini ta’minlaydi va shu asosda bir qator amaliy ishlarni olib borishni taqozo etadi.*

Kalit so‘zlar: *tanlov, ta’lim, iqtidor, qobiliyatli o‘quvchilar, saralash metodlari, psixologik testlar, boyitilgan va kengaytirilgan ta’lim jarayoni.*

МЕТОДИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОТБОРА ОДАРЕННЫХ ДЕТЕЙ

Аннотация. *В статье говорится о научно-теоретических вопросах и методике отбора талантливых учащихся с высоким потенциалом, обучающихся в общеобразовательных школах. Кроме того, упоминается содержание методов отбора талантливых студентов и их результаты. Поэтому эффективная организация обучения отобранных студентов на основе научно обоснованных и содержательных методов обеспечивает основное содержание данной статьи и требует проведения на этой основе ряда практических работ.*

Ключевые слова: *отбор, образование, талант, одаренные ученики, методы отбора, психологические тесты, обогащенный и расширенный образовательный процесс.*

METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF SELECTING TALENTED CHILDREN

Annotation. The article talks about the scientific theoretical issues and methodology of selecting talented students with high potential studying in general education schools. In addition, the content of the methods of selecting talented students and their results are also mentioned. Therefore, the effective organization of the education of the selected students on the basis of scientifically based and content-excellent methods provides the main content of this article and requires a number of practical works to be carried out on this basis.

Key words: selection, education, talent, gifted students, selection methods, psychological tests, enriched and expanded educational process.

Kirish. Ta’lim subyekti sifatida talqin qilinayotgan o‘quvchi salohiyatli shaxs tarzida kamol topishi maqsadga muvofiq. Shu munosabat bilan o‘quvchilarga nisbatan individual yondashish, har birining bilish ehtiyojlari va qiziqishlariga qarab ta’lim tizimini tashkillashtirish lozimligi haqidagi g‘oya o‘zini oqlaydi. Chunki har bir bolaning shakllanib kelayotgan subyektiv olami o‘ziga xos rivojlanish traektoriyasini tashkil etadi, o‘ziga xos shiddat va yo‘nalishga ega bo‘ladi. Shu boisdan, o‘quvchi yoshlar orasidan o‘z individualligi bilan boshqalardan ajralib turadigan faol, bilim olishga havas va intilishlari yorqin namoyon bo‘lgan, o‘ziga talabchan, bolalarning saralanishi va ularni o‘ziga xos tarzda boyitilgan dasturlar asosida o‘qitish, aynan individuallashtirilgan va shu vaqtning o‘zida, tabaqalashtirilgan ta’limning asosini tashkil etadi.

Maktab ta’limi o‘quvchilar qobiliyatini yuzaga chiqaruvchi ko‘plab talab va majburiyatlardan iborat. Har bir inson maktab yoshida bu dargohdan o‘z imkoniyatlariga mos ravishda hayotiy va boshlang‘ich ilmiy ta’lim olib chiqishga ulguradi. Ammo maktab sharoitida har bir bolaning o‘z qobiliyat va imkoniyatlariga mos keladigan alohida ta’lim va alohida tarbiya berish imkoniyati yo‘q. Shu bilan birga har bir bola o‘zicha bir dunyo, uning salohiyatini, yashirin imkoniyatlarini rivojlantirish, yuzaga chiqarish maktab jamoasining muhim va dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy ta’limda o‘quvchilarni tanlash muammosiga ko‘plab yondashuvlar mavjud, biroq, aqlan faol va qobiliyatli bolalarning psixologik xususiyatlarini inobatga olsak, ularning hech biri barcha uchun qabul qilingan yagona nazariyaga asoslanmaydi (Фримен Дж,

1999, 2004; Shumakova N.B, 2004, 2006) Ayniqsa, qobiliyatlarning erta namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq masalalar bahs-munozarali hisoblanadi.

Ular orasida o‘ta muhimlari: bolalar qobiliyati nima, uni qanday belgilar xarakterlaydi va bu belgilarni qanday (qay usul bilan) aniqlash (o‘lchash) mumkin? degan savollardir.

Iste’dod konsepsiyasida ham: “Qobiliyatli bolalar va o‘smirlarni aniqlash hamda umumta’lim maktablari va qo‘shimcha ta’lim muassasalarida bunday o‘quvchilarni iloji boricha ko‘proq saralash, ularga xos bo‘lgan o‘z imkoniyatlarini takomillashtirishlarini to‘liq ta’minlash bilan birga bolalarning intellektual va shaxsiy o‘sishi uchun sharoit yaratish muammo sifatida kun tartibiga qo‘yilishi kerak” ligi to‘g‘risida muhim xulosa qilingan (Shadrikov V.D, 2003).

Aqliy va ijodiy imkoniyatlari yuqori bo‘lgan bolalarni saralash ishlari E.I.Sheblanova va I.S.Averinalar tomonidan (1989 yil) amalga oshirilgan.

E.I.Sheblanova va I.S.Averinalarning tadqiqotiga asoslanib N.B.Shumakova (1993 yil) bolalarni rivojlantirish hamda ta’lim olish xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha o‘ziga xos longityud tadqiqotni amalga oshirdi (Shumakova N.B, 2006).

Shu asosda N.B.Shumakova iqtidorli bolalarni tanlash shaklini tasnif etadi (1-jadval).

Jadval-1

N.B.Shumakova taklif etgan iqtidorli bolalarni tanlash shakli

O‘quvchilar guruhi	**O‘quvchilarni tanlash mezonlari**	**Ta’lim joyi**
Birinchi tajriba guruhi 1-guruh	Ta’lim olish motivatsiyasi savolnomasi	“Yulduzlar turkumi” (“Sozvezdie”) maktab-laboratoriyasi
Ikkinchi tajriba guruhi 2-guruh	“Umumiy iqtidorlilik” savolnomasi	“Yulduzlar turkumi” (“Sozvezdie”) maktab-laboratoriyasi
Uchinchi tajriba guruhi 3-guruh	Maktab ixtisosligiga muvofiq tanlovning an’anaviy mezonlari	O‘rta umumta’lim maktabi
Nazorat guruhi	Maktab ixtisosligiga muvofiq tanlovning an’anaviy mezonlari	Matematika, chet tili, tabiiy fanlarini o‘rganishga ixtisoslashtirilgan gimnaziya, litsey, maktablar

N.B.Shumakova yuqori imkoniyatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarni tanlashning o‘ziga xos mezonlarini ishlab chiqdi. Unda asosan o‘quvchilar maktabga qabul qilishning an’anaviy me’zonlari asosidagi talablari bilan birga muallif tomonidan ishlab chiqilgan maxsus savolnomalar asosida suhbatdan ham o‘tishi talab etiladi. Tanlov natijalari haqida to‘xtalib, N.B.Shumakova quyidagilarni tavsiflaydi: “Nihoyat, shuni ta’kidlash lozimki, “Yulduzlar turkumi” (“Sozvezdie”) maktabiga keluvchi bolalarning soni kundan-kunga ko‘paya boshladi Fanlararo ta’lim metodikasi bo‘yicha o‘qishni boshlab va olib borilayotgan tadqiqotga kirishgancha o‘quvchilar tajriba guruhini to‘ldirdilar. Gap shundaki, yuqori intellektual va ijodiy qobiliyatli bolalarni o‘qitish uchun maktab maqomini olgan va ta’limning yangi fanlararo texnologiyasini ishlab chiqish hamda joriy etish maqsadida tashkil etilgan maktab laboratoriyasi yanada ko‘proq ota-onalar e’tiborini torta boshladi. Natijada maktabda o‘qishni istovchilar soni mavjud o‘ringa qaraganda 5-15 baravar ortiqni tashkil etdi. Bularning barchasi bolalarni maktabga qabul qilishning mavjud amaliyotini yanada takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltirib chiqardi.” (Shumakova N.B, 2004).

Olib borilgan tadqiqot ishlari mazmunidan anglanadiki, o‘quvchilar asosan umumiy (aqliy) qobiliyatlari asosida saralangan. Ta’lim jarayoni ham shu mazmunda, ya’ni, fanlararo ta’lim tizimi asosida olib borilgan.

Bu borada respublikamizda e’tiborga molik ishlar professor B.R.Qodirov tomonidan amalga oshirilgan. B.R.Qodirov o‘zbek milliy muhitida iqtidorli bolalarning intellektual, individual va ijodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlash bo‘yicha keng ko‘lamdagi amaliy-tatbiqiy ishlar olib borgan (Qodirov B.R, 1998,2014).

Muhokamava natijalar. Milliy muhitga moslashtirilgan, standartlashtirilgan metodikalarning borligi, bu sohadagi hamma kamchiliklarning oldi olindi, degani emas. Masalan, tanlov metodikalarining noto‘g‘ri o‘tkazilishi natijasida ham xatoliklarga yo‘l qo‘yish mumkin. Aytaylik, qobiliyatsiz bolalarni iqtidorli bolalar toifasiga kiritish yoki o‘ta qobiliyatli bolani nazardan tushirib qoldirish hollarini uchratish mumkin. Har qanday holda ham tanlov o‘tkazadigan mutaxassisning mahorati, ishning ko‘zini bilib tashkil etilishiga bog‘liq.

Shularni nazarga olib, biz umumiy o‘rta-ta’lim jarayonida o‘ziga nisbatan talabchanlikni, faollikni namoyon etgan bolalar orasidan yuqori imkoniyatlarga ega bo‘lgan, psixologik jihatdan qaralganda, ba’zi bir qobiliyat testlaridan yuqori natijalarga erishganlarini saralab oldik. Buning uchun avvalo ishimizning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, biz iqtidorli o‘quvchilarning to‘g‘ri va asosli tanlovini tashkil etish uchun tajribalarda sinalgan, ishonarli natijalar beradigan saralash metodikalarini ajratishni lozim topdik.

Tadqiqotda umumta’lim maktabi yuqori sinf o‘quvchilarini adabiyot yo‘nalishi bo‘yicha saralash uchun B.R.Qodirov tomonidan taklif etilgan “Sinf zukkolarini tanlash” (intellekt sotsiometriyasi) metodikasi, “100 ta so‘z”, “50 ta jumla” metodlari va maktab diktantidan foydalandik. Bu metodikalar bevosita o‘quvchilarning aqliy imkoniyatlari, savodxonlik darajalari va shu sohaga yo‘nalganliklarini farqlash imkonini beradi.

Shunday qilib, maktab o‘quvchilari orasidan psixologik testlar, ya’ni ilmiy o‘lchov metodikalari yordamida yuqori talablarga javob beradigan bolalarni saralab olish uchun quyidagi metodikalardan foydalandik.

Sinf zukkolarini tanlash metodikasi (B.R.Qodirov, 1998). Bu metodika sinfning ilg‘or o‘quvchilarini saralash imkonini beradi. Aqliy zakovat tashxisining sotsiometrik usullaridan biri “Sinf zukkolarini tanlash metodikasi” bo‘lib, bu bizning milliy muhitimizda valid metodikalar sirasiga kiradi. Metodikaning asl g‘oyasi anonim tarzda, so‘rab bilish orqali sinf o‘quvchilari orasidan yo‘nalish doirasida zukkolarini ajratib olishdir.

Jumladan, O‘zbekistonda ham 1990-1999-yillari iste’dodli o‘quvchi-yoshlarni saralash jarayoni bir necha bosqichdan tashkil etilgan edi va asosan, professional psixologik testlar yordamida amalga oshirilardi. Ushbu testlar milliy qadriyatlarimizni hisobga olgan bo‘lib, har bir yosh va jinsga ta’lluqli standart normalariga ega edi. Shu asosda har bir tadqiqotdan o‘tgan kishining aqliy imkoniyatlari saviyasi xalqaro zakovat birligi — intellekt koeffitsenti (IQ) da ifodalanardi. Azaldan ma’lumki o‘lchov asbobi qanchalik nozik va aniq bo‘lsa, o‘lchov natijasi ham shunchalik aniq, hayotga yaqin bo‘ladi. Aqldek nodir xislatni o‘lchash metodikalari tobora murakkablashib, chamalab bilishdan aniqlikka yaqinlashib bormoqda. Shu bilan birga aqliy zakovatni aniqlashdek muhim jarayon bir zumda emas, uzoq vaqt davom etadigan, bir necha hayotiy va tadqiqiy bosqichlardan iborat bo‘lgan o‘ziga xos ilmiy-tadqiqiy jarayon bo‘lib, o‘ylangan, mukammal ilmiy talablarga javob bera oladigan metodika va testlar yordamidagina amalga oshirish mumkin [1; 8].

Ma’lumki, bir guruhdagi o‘quvchilar bir-birlarini o‘qituvchilardan, ba’zi hollarda esa, ota-onalaridan ham yaxshiroq bilishadi. Shunga asoslanib, sinf tarkibidagi bolalarning qiziqish va intilishlari haqida o‘zlaridan so‘rash orqali umumlashtirilgan tasavvur paydo qilish usuli ushbu metodikaning asl g‘oyasi etib qabul qilingan.

Metodikaning asosini “O‘z sinfingni bilasanmi” deb nomlangan beshta savoldan iborat javob varaqasi tashkil etib, ushbu savollarga sinaluvchilar shoshilmay, o‘ylab, xolisona yondashib javob yozishlari talab etiladi. Sinaluvchilar javob varaqasidagi har bir savolning mazmuniga ahamiyat bergan holda bittadan uchtagacha sinfdagi eng zukko, tirishqoq va bilimdon bolalarning ism-familiyalarini yozishadi.

Bu metodikaning o‘ziga xos ma’nosi ham shunda-ki, kim qaysi fandan yaxshi o‘qishini o‘quvchilardan so‘rab bilish emas, bu malumotlarni sinf jurnalidan olsa ham bo‘ladi, balkim, sinf o‘quvchilaridan shu guruhda kim qaysi kasbiy sohaga qiziqadi – tabiatgami, jamiyatgami, aniq fanlargami yoki tashkilotchilik, rahbarlikka moyilligi bormi? Shu sababli, psixolog sinf o‘quvchilari diqqatini bu, ikkinchi tomonga, moyillik, kasbiy yo‘nalganlik va shu sohada erishgan yutuqlarini eslashga qaratishi lozim. Ushbu tarzda tushuntirish ishlari, har bir savolni yotig‘i bilan bolalar ongiga yetkazish – natijalarning xaqqoniyligiga bevosita ta’sir etadi.

Jarayonning mazmuni shundan guvohlik beradiki, har bir sinfdan ajratib olingan “yulduz”ning umumiy aqliy va madaniy saviyasi, sinfda tutgan mavqei aynan shu sinf saviyasiga nisbatan, shu sinf o‘quvchilari bahosiga nisbatan olinadi.

Tajriba uzog‘i bilan 10-15 minut davom etadi. Javob varaqalari tezda yig‘ib olingach, sinf o‘zining navbatdagi vazifalariga kirishaverishi mumkin.

“100 ta so‘z” va “50 ta jumla” metodikalari (B.R.Qodirov, 1995)**.** Tadqiqotning saralash bosqichidagi savodxonlik saviyasini o‘rganishga qaratilgan “100 ta so‘z” va “50 ta jumla” metodlari 1995 yili Respublika Iste’dod markazida yaratilgan. Metodika o‘quvchilarning savodxonlik darajasini aniqlash uchun mo‘ljallangan.

Ma’lumki, ba’zi kishilar so‘zlarga, ularning aniq talaffuzi-ga, to‘g‘ri yozilishiga juda sezgir

bo‘ladilar. Boshqa birovlar esa, ba’zi bir so‘zlarni bilib-bilmay, taxminan yoki tavakkaliga ish-lataveradilar va ularning to‘g‘ri yozilishiga unchalik e’tibor bermaydilar. Yana boshqa kishilar borki, so‘zning talaffuzi bilan yozilishi orasidagi farq bo‘lishi mumkinligini bilmaydilar yoki bunga ahamiyat bermaydilar. Yozma nutqdagi kamchiliklar, ba’zan og‘zaki nutq kamchiliklaridan ko‘ra kishining ichki madaniyatini, uning savodxonlik, ya’ni ma’lumotlilik saviyasini, bilimdonli-gini aniqroq ko‘rsatadi. Umuman olganda savodxonlik, o‘z fikrini yozma nutqda to‘g‘ri va aniq bayon eta olish, bizning nazarimizda ko‘proq ilmiy salohiyat, aqliy zakovat saviyasidan ham dalolat berishi mumkin. Shu sababli, ushbu testni tuzganda va uni amaliyotga tatbiq etganda uning qanchalik muhim aqliy-intellektual xususiyatni aniqlashga yordam berishini inobatga olgan holda jiddiylik bilan yondoshish zarurligini his etib turdik.

Birinchi test (ya’ni “100 ta so‘z”)ning topshiriqlari, kiril yozuvida yoki lotin alifbosida jadval shaklida tuzilgan bo‘lib, sinaluvchi o‘z javoblarini boshqa, maxsus varaqada belgilab beradi. Tajriba o‘tkazuvchi yotig‘i bilan, sinaluvchiga har bir so‘zni jadvaldan o‘qib, ongli ravishda, uning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri yozilganligini aniqlagach, agar to‘g‘ri yozilgan bo‘lsa, javob varaqasining birinchi katakchasiga va agar so‘z noto‘g‘ri yozilgan bo‘lsa, unda ikkinchi katakchaga belgi (+) qo‘yishi lozimligini tushuntiradi.

Ma’lumki, o‘quvchilar to‘g‘ri yozilgan so‘zni ba’zan noto‘g‘ri deb belgilashlari, noto‘g‘ri so‘zni esa, uning noto‘g‘riligini bilmay, to‘g‘ri deb belgilashlari ham mumkin. Shu sababli, to‘g‘ri va noto‘g‘ri yozilgan so‘zlar ketma-ketlikda aralashtirib berilganligi ularni tanishni bir muncha qiyinlashtiradi va o‘ylashni, eslashni talab etadi. Shunda, shubhasiz, so‘z tarkibini yoki uning noto‘g‘ri yozili-shini bilgan kishi, ko‘proq muvoffaqiyatga erishadi.

Shunday qilib, ushbu testda ikki turkum masalalar bor. Birinchi turkum berilgan yuzta so‘z orasida ataylab xato yozilgan so‘zlar kiritilgan bo‘lib, ularning barchasini aniqlash, to‘g‘ri belgilash ancha katta salohiyatni talab etadi. Sinaluvchiga aynan shu xato yozilgan so‘zlarni topish vazifasi beriladi.

Ikkinchi turkum esa, to‘g‘ri yozilgan so‘zlarni xato deb tanishdan kelib chiqadi. Dastlabki tajribalar shuni ko‘rsatdiki, ayrim o‘quvchilar to‘g‘ri so‘zlarning 20-30 foizini xato deb belgilaydilar. Xato so‘zlarning xatoligini ko‘rmaslik, ularni to‘g‘ri belgilamaslik birinchi toifadagi kamchilik bo‘lsa, to‘g‘ri so‘zlarning to‘g‘riligini bilmaslik, ularda kamchilik izlash esa – boshqa toifadagi kamchilik bo‘lishi mumkin. Tadqiqot natijalarining tahlili bu masalani ham oydinlashtirishi mumkin [1; 26-27].

Savodxonlikning ikkinchi testida 50 ta jumla keltirilgan bo‘lib, bu jumlalar o‘zbek adabiyoti namoyandalari asarlaridan olingan. Jumlalar o‘zbek imlo qoidalariga to‘liq javob beradi. Lekin 20 ta jumlaga maxsus xatolar kiritildi, masalan, bir necha jumlalardan vergul olib tashlandi, ba’zi so‘zlarda bitta harf tushirib qoldirildi, bosh harf bilan yoziladigan so‘z kichik harf bilan yozildi va hokazo. Har bir jumla vertikal chiziqcha bilan to‘rt qismga bo‘lindi. Javob varaqasida esa 50 ta jumlaga mos keladigan beshta doirachadan iborat satrlar berildi. Sinaluvchi jumlaning qaysi qismida xato borligini aniqlagach, javob varaqasidagi tegishli satrda joylashgan (1 dan 4 gacha bo‘lgan) doirachalarning tegishlisini bo‘yab, xato qaysi qismdaligini belgilab qo‘yadi. Agar jumlada xato bo‘lmasa, beshinchi doiracha bo‘yaladi.

Aytganimizdek savolnoma matnidagi har bir jumla vertikal chiziqcha bilan to‘rt qismga bo‘lindi va har bir qism tepasiga tegishli ravishda A,V,S,D harflari qo‘yib, belgilandi. Boshqacha qilib aytilganda, jumlaning istagan bir qismida xato so‘z yoki tinish belgilar noto‘g‘ri qo‘yilgan yoki qo‘yilmagan bo‘lishi mumkin. Agar jumlaning sinaluvchi nazarida masalan, V qismidagi bironta so‘z noto‘g‘ri yozilgan bo‘lsa, demak u javob varaqasining V katakchasini belgilab qo‘yadi va hokazo. Agar sinaluvchi nazarida jumlaning to‘rttala qismida ham xato bo‘lmasa, unda u javob varaqasidagi tegishli satrning E katakchasini belgilab qo‘yadi. Ya’ni jumlada xato yo‘q, to‘g‘ri yozilgan javobni bergan bo‘ladi.

Bu testda ham o‘ziga xos murakkabliklar borki, ularni savodxonlik darajasi ancha yuqori bo‘lgan, ilmiy-madaniy saviyasi balandroq kishi fahmlay oladi. Bu jumlalarning barchasi mazmunli, jonli o‘zbek tilining o‘ziga xos jilolarini aks ettirib, mazmunan kishining diqqatini o‘ziga tortadi. Shu sabab o‘quvchi, ba’zan, mazmunga ahamiyat berib, uning yozilish tarzidan chalg‘ishi mumkin va kiritilgan xatoni ko‘rmasligi yoki ahamiyat bermasligi mumkin. Ikkinchidan, yozma nutq, tushunarliki, og‘zaki nutqqa nisbatan jiddiyroq tuzilgan bo‘lib, semantik urg‘ular tinish belgilarda, gapning tuzilish tartibida o‘z aksini topadi. Ya’ni o‘quvchi, yozma nutq yaxshi yozilgan bo‘lsa, gapiruvchining holatini, mimikasini tasavvur qila olish imkoniyatiga ega. Bu va boshqa jihatlari yozma nutqning idrok etilishini murakkablashtiradi, o‘quvchi tasavvurlarini boyitadi va shunga mos ravishda uni qabul etishda ma’lum darajada aqliy-intellektual salohiyatni talab etadi. Kishining o‘zi


qanchalik zehnli, hayotiy va aqliy tajribaga ega bo‘lsa, yozma matndan u shunchalik ko‘p axborot oladi, uning mazmuniga u shunchalik chuqur kirib bora oladi. Shu bilan birga har bir so‘zning, so‘zlar birikmasining, qo‘yilgan yoki qo‘yilmagan tinish belgilarining ma’nosi teranlik bilan anglanadi va shu sababli, noqulay yoki noto‘g‘ri tuzilgan jumla yoki so‘z ularning diqqatini darhol o‘ziga tortadi, tegishli mazmunga yoki tartibga mos kelmayotganini darhol seza oladilar [1;34].

Bu testda ham to‘g‘ri jumlalarning to‘g‘ri deb topilganlari miqdori, hamda xatosiz jumlani xatosiz deb belgilagani hisobga olinadi. Lekin birinchi testdan farqli ravishda, har bir to‘g‘ri javobga ikki ball beriladi. Shunda har ikkala savodxonlik testining natijalari 100 balldan bo‘lib, bir-biriga nisbatan qiyoslash va tushunish osonlashadi.

Diktant. Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning nutqini, shu jumladan, ularning yozma nutqini o‘stirishga katta e’tibor beriladi. O‘quvchilarning yozma nutqini o‘stirish, ularni savodxon qilish niyatida yozma ishning bir necha turlaridan foydalaniladi. Ana shu yozma ish turlaridan biri diktantdir.

Diktant yozish jarayonida o‘qituvchining aytib turishi orqali fonetika, leksikologiya, so‘z yasalishi, morfologiya va sintaksisga oid bilimlarni o‘quvchilar xotiraga keltirib, yozuvda qo‘llaydilar. Yozilgan diktant o‘quvchilar yo‘l qo‘ygan xatolarni va uning yuzaga kelish sabablarini aniqlashda o‘qituvchiga yordam beradi. Maktab diktantining shu imkoniyatlaridan foydalanish maqsadida va umuman saralash ishlari uchun 160 ta so‘zdan iborat matn tanladik. Olingan natijalar 20 ballik mezonda (husnixati, imlo xatolari va tinish belgilaridagi xatolar) hisoblanib, korrelyatsion usulda qayta ishlandi va raqamli ma’lumotlar olindi [3; 11].

Barcha olingan raqamli ma’lumotlarni biz ikki bosqichda qayta ishladik. Birinchi bosqichda “Sinf zukkolarini tanlash” metodikasi ma’lumotlaridan foydalanib, 18 ta akademik guruh bolalari orasidan sinf zukkolari va sinf yulduzlarini ajratib oldik.



	jami	zukko o'quvchilar	qolgan o'quvchilar
o'quvchilar soni	446	134	312
% hisobida	100	24,4	75,6

1-rasm. “Sinf zukkolarini tanlash” (intellekt sotsiometriyasi) metodikasi ko‘rsatkichlari

Ularning miqdori 446 nafar bolalarning orasidan 134 kishini tashkil etdi. Biz shu bolalarni tadqiq guruhi sifatida qabul qilsak bo‘lardi. Lekin ilmiylikni to‘la ta’minlash maqsadida, savodxonlik testlari va diktant natijalari yanada aniqroq ma’lumotlar berishini nazarda tutib, ikkinchi bosqich qayta ishlovlariga kirishdik.

Buning uchun qolgan uchala metodika bo‘yicha 446 nafar bolaning har biridan olingan raqamli ma’lumotlarning korrelyatsion tahlili qilinganda, ko‘rsatkichlar orasida yuqori darajadagi mutanosiblik kuzatildi. Demak mutanosiblik ko‘rsatkichlari metodika natijalarining bevosita bir-birini to‘ldirib, bir yo‘nalishdagi psixologik xislatlar ekanligidan dalolat bermoqda. Shu sababli metodikalar ko‘rsatkichlarini umumlashtirib, umumiy savodxonlik ko‘rsatkichiga keltirish mumkin bo‘ldi. Navbatdagi vazifa ushbu metodikalarning majmuaviy ko‘rsatkichlaridan eng zukko, ilg‘or o‘quvchilarni saralab olishdir. Buning uchun har bir metodika bo‘yicha, ya’ni “100 ta so‘z”, “50 ta jumla” va diktantdan olingan individual ko‘rsatkichlar asosida barcha bolalarning natijalari alohida-alohida tartiblab chiqildi va ularga rang (o‘rin) berildi. Bundan har bir o‘quvchi muayyan metodikani bajarish darajasiga qarab 446 nafar sinaluvchi orasida nechanchi o‘rinda turganligi aniq ko‘rindi. Bu

raqamlar bir xil mazmunga ega (har bir metodika bo‘yicha tartib raqamlar) bo‘lganligi sabab, har bir bola uchun uchala rang ko‘rsatkichlardan o‘rtacha tartib raqam olindi.

Shunday qilib, natijalarning umumlashtirilgan va o‘rtacha ranglari asosida eng kam ko‘rsatkichga ega bo‘lgan, ya’ni 446 o‘quvchining orasidan eng yuqori savodxonlik va diktantdan yuqori natijalarga erishgan, ya’ni ro‘yxatning yuqorisida turgan 60 nafar bolani ajratib olib, ularni kelgusi tadqiqotlar uchun tajriba guruhi deb atadik.

Jadval-2

Tanlov metodikalarining statistik tahlili va ko‘rsatkichlari jadvali

Guruhlar	O‘quvchilar soni	100 ta so‘z metodi	50 ta jumla metodi	Diktant
Tajriba guruhi	60 nafar	86,9 ± 3,8	68,3 ± 6,4	18,4 ± 1,5
Qolgan o‘quvchilar	386 nafar	68,4 ± 24,5	48,4 ± 20,9	10,8 ± 6,8
t		7,4	5,0	5,8
p <		0,001	0,001	0,001

Bu o‘rinda eng muhimi, savodxonlik darajasi yuqori va diktantni a’lo darajada bajargan o‘quvchilarning deyarli hammasi o‘z sinflarida yo sinf yulduzi, yoki sinf zukkolari bo‘lib, avval ajratilgan 134 nafar bolaning orasida bo‘lib chiqdilar. Ya’ni “Sinf zukkolarini tanlash metodikasi” ma’lumotlari keng doirada sinfning yorqin imkoniyatlarga ega, faol o‘quvchilarini ajratib bera olishi ushbu tadqiqotda ham isbot qilindi (“100 ta so‘z” metodi bo‘yicha $t=7,4$ $p < 0.001$; “50 ta jumla” metodi bo‘yicha $t=5,0$ $p < 0.001$; Diktant bo‘yicha $t=5,8$ $p < 0.001$;). (jadval 2).

Shu bilan birga kutilganidek, ushbu 60 nafar o‘quvchilar o‘zlarining so‘z tafakkur imkoniyatlari, savodxonlik ko‘rsatkichlari darajasi, diktantni xatosiz yoza olishlari va aqliy faolliklari bilan qolgan 386 o‘quvchidan statistik jihatdan yuqori ishonch darajasida farq qilishlari kuzatildi

Xulosa. Agar tanlov to‘g‘ri o‘tkazilgan va tajriba guruhi to‘g‘ri shakllantirilgan bo‘lsa, ta’lim mazmuni va ta’lim jarayoni ham shu bolalarning aqliy salohiyati va yo‘nalishlariga mos boyitilgan shaklda olib borilishi tadqiqot g‘oyasi va maqsadiga kiradi. Shu sababli taklif etiladigan ta’lim mazmuni va metodlari Davlat ta’lim standartlari talablariga mos keladigan, shu bilan birga kengaytirilgan, boyitilgan va o‘quvchilarning aqliy saviyasini oshiradigan, qobiliyatlarini rivojlantiradigan darajada bo‘lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov B.R. Iqtidorli bolalarning birlamchi tanlovi metodikalari. Metodik qo‘llanma. – T.: “Fan va texnologiya”, 2014, 76 bet.
2. Qodirov B.R. Sinf zukolarini tanlash metodikasi. Metodik qo‘llanma. Toshkent, 1998.
3. Ona tili fanidan o‘quv dasturi asosida nazorat ishlarini o‘tkazish bo‘yicha metodik tavsiyalar. T.: Respublika ta’lim markazi. 2009. – 11 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020 yil 11 martdagi 141-son qarori. Ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. – T.:2020.
5. Rajabov O.X. Jadallashtirilgan ta’limning iqtidorli o‘quvchilar bilish jarayonlariga ta’siri // Psixologiya fan. nomp. ...diss. avtoreferati. – T.: 2022. 47 b.
6. Фримен Дж. Одаренные дети и их образование: Обзор международных исследований // Иностранная психология. -1999. - №11. - С. 10-18.
7. Шумакова Н.Б. Обучение и развитие одаренных детей.−М.:«МОДЭК», 2004. − 336 с.
8. Шумакова Н.Б. Одаренный ребенок: особенности обучения: пособие для учителя / Н.Б.Шумакова, Н.И.Авдеева, Л.Е.Журавлева и др.; под ред. Н.Б.Шумаковой. − М.: Просвещение. -2006. −239 с.
9. Щадриков В.Д. Рабочая концепция одаренности / Под ред. В.Д.Щадрикова. — М., 2003. 56-б.
10. Ergashjanovich, A. O. (2022). Methodology of organizing and conducting experimental works to determine the development of communicative competence of the students of the pedagogical college. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(9), 151-157.

Rustamov Shavkat Shuxrat o‘g‘li
Buxoro davlat universiteti psixologiya va sotsiologiya kafedrasi dotsenti,
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TALABALARDA INNOVATSION KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL TAMOYILLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada talabalarni innovatsion faoliyatga yo‘nalganligida ishtirok etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni ochib berish va innovatsion faoliyatga yo‘naltirish, talabalarning innovatsion faoliyatga tayyorlik darajasini ijtimoiy-psixologik baholashning natijasiga ko‘ra uni takomillashtirish uchun dastur va psixologik tavsiyalar ishlab chiqish hamda shaxsning yangi ma’lumotlarga nisbatan ta’sirchanligini namoyon bo‘lishiga ko‘ra, talabalarda axborotlarga tolerantlik, o‘ziga ishonch, ijodkorlik, mas’uliyatlilik, hamkorlikda faoliyat yuritish, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatining darajaviy tarzda ifodalanishi bo‘yicha tahlillar keltirilgan.*

Tayanch so‘zlar: *innovatsiya, innovatsion kompetentlik, ixtiro, толерантлик, motivatsion komponent, kreativ komponent, refleksiv komponent, йўналганлик, ижодкорлик, ташаббускорлик, янгиликларни излаб топиш, ўзига баҳо бериш, инновацион фаолият, креатив тафаккур, илмий-ижодий тафаккур, мустақиллик, ўз-ўзини қабул қилиш, ташаббускорлик, ўзгаришларга тайёрлик, introspeksiya, axborot almashinuvi, emotsional barqarorlik, kasbiy professionalizm.*

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. *По результатам социально-психологической оценки уровня готовности студентов к инновационной деятельности, разработка программы и психологических рекомендаций по ее совершенствованию по результатам социально-психологической оценки уровня готовности студентов к инновационной деятельности и проявлению личностного влияния к новой информации учащиеся проявляют информационную толерантность, уверенность в себе, креативность, отзывчивость,, был проведен анализ уровня представления способности к независимому принятию решений.*

Ключевые слова и понятия: *инновация, инновационная компетентность, изобретательность, толерантность, мотивационная составляющая, креативная составляющая, рефлексивная составляющая, направленность, креативность, инициативность, поиск новшеств, самооценка, инновационная деятельность, креативное мышление, научно-творческое мышление, самостоятельность, самопринятие, инициатива, готовность к переменам, самоанализ, обмен информацией, эмоциональная устойчивость, профессионализм.*

CONCEPTUAL PRINCIPLES OF INNOVATIVE COMPETENCE DEVELOPMENT IN STUDENTS

Abstract. *According to the results of the socio-psychological assessment of the level of readiness of students for innovative activities, the development of program and psychological recommendations for improving it according to the results of the socio-psychological assessment of the level of students ' readiness for innovative activities, and the manifestation of the personality's influence on new information, students have information tolerance, self-confidence, creativity, responsiveness,, analysis has been provided on the level representation of independent decision-making ability.*

Keywords: *innovation, innovative competence, invention, tolerance, motivational component, creative component, reflexive component, orientation, creativity, initiative, searching for news, self-assessment, innovational activity, creative thinking, scientific-creative thinking, independence, self-acceptance, initiative, readiness for change, introspection, information exchange, emotional stability, professional professionalism.*

Mavzuning dolzarbligi. Oliy ta’lim muassasasi talabalarida innovatsion kompetentlikni rijovlantirish muammosi bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biridir. Chunki bugungi kunda ko‘plab rivojlanayotgan davlatlarni rivojlanishini asosi ta'limga tikilayotgan iqtisodiy va ma'rifiy sarmoyasidadir.

Shu sababli, bugungi kunda barcha davlatlar o‘zini kelajak bunyodkorlarini mustaqil fikrlovchi va qaror qabul qila oluvchi, o‘zgalar fikrini tinglab, uni e'tiborga olgan holda xulosa chiqara oluvchi barkamol va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga asosiy diqqatini qarattgan.

Jumladan respublikamizda ham mazkur masalada amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari jarayonida yoshlarni innovatsion bilimlar bilan qurollantirilib, ularni har tomonloma bilimli va barkamol qilib tarbiyalash davlat darajasidagi vazifalar qatoriga kiritilib, O‘zbekiston Respublikasining «Innovatsion faoliyat to‘g‘risida»gi qonunining 3-moddasida «innovatsiya - fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo‘llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta’minlaydigan yangi ishlanma» ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan [1].

Mazkur masalalarni ilmiy-psixologik nuqtayi nazardan o‘rganish, ta'lim jarayonida talabalarni innovatsion kompetentligi mustaqil ta'lim olishga bo‘lgan ehtiyojini e'tiborga olish va mustaqil bilim egallashlari uchun yetarli shart-sharoit yaratib berish zarurati, o‘qituvchilarining mustaqil ta'lim olishlarini tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilish bo‘yicha kasbiy-pedagogik tayyorgarligining zamon talablari darajasida emasligi, pedagoglarda mustaqil ta'lim olish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarining yetarli darajada shakllanmaganligi, pedagoglar mustaqil ta'lim olishlarini tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilishga oid o‘quv-metodik adabiyotlar, tavsiyanomalar, ishlanmalar, yo‘riqnomalar, ko‘rsatmalarning yetarli emasligi natijasida o‘qituvchilar malakasini oshirish institutlarida kadrlarning ayrimlarida mustaqil holda qaror qabul qilish va o‘z nuqtai nazarini himoya qila olish ko‘nikmalarining to‘liq shakllanmaganligi bu masalalarning nihoyatda dolzarbligini ko‘rsatadi[2].

Modernizatsiyalashgan mazmun asosidagi ta'lim tizimida ta'limning yangi zamonaviy shakllari hamda an'anaviy shakllari uyg‘unlashtirilgan holda mavjud bo‘lib, u o‘quv faoliyatida kasbiy faoliyatning real vaziyatlarini modellashtirish imkonini beradi, bunda ta'lim va tarbiya jarayonlari orasidagi uzilish barham topadi, zamonaviy mutaxassis modeliga mos keladigan kasbiy kompetentlik shakllanib boradi.

Innovatsion kompetentlikning shakllanishida asosiy o‘rinni pedagoglarning mustaqil ishlari egallaydi. Bunga esa ta'lim jarayonida pedagoglarni muammoli topshiriq va vazifalarni mustaqil holda hal qilishga o‘rgatish orqali erishish mumkin. Ushbu umumiy maqsaddan kelib chiqqan holda, mustaqil ta'lim o‘qituvchilarni har qanday sharoitda va holatda o‘zlarining aqliy salohiyatlarini to‘la ishga solish, zarur bo‘lgan bilimlarni izlab topish, amaliy faoliyatlariga tatbiq etishga odatlantirib boradi. Bir so‘z bilan aytganda, ijtimoiy hayotda va ishlab chiqarish jarayonida to‘laqonli, raqobatbardosh mutaxassis sifatida faoliyat yuritishga tayyorlaydi.


Kerakli darajadagi innovatsion kompetensiyalarga ega bo‘lgan talaba o‘zimimg ijodiy faoliyani namoyon qilishga qodir. Shunda ular o‘z faoliyatini zamonaviy innovatsion o‘zgarishlar dinamikasi yo‘nalishida amalga oshiradi va shaxsiy va kasbiy rivojlanishi mumkin. Shuningdek ularni bilim, ko‘nikma va ta'limdagi sifat o‘zgarishlari sodir bo‘ladi, pirovardida maqsad qilingan raqobatbardosh mutaxassislar shakllantiriladi [5].

Bundan tashqari, ba'zi tadqiqotlarda mualliflarning fikricha, talabalarning innovatsion kompetensiyasi tarkibiga kasbga yaroqlilik, kasbiy yo‘nalish va boshqaruv qobiliyatlari ham kiradi.

Shunday qilib, shunday xulosaga kelish mumkin talabalarning innovatsion kompetentsiyasini ijodiy qobiliyatlari, introspeksiya qobiliyatlari, yangi narsalarni doimiy izlash bilan belgilanadigan o‘qituvchining shakllangan bilim, ko‘nikma, malaka va amaliy innovatsion faoliyati tajribasidan iborat murakkab, tizimli majmui tashkil etadi.

Ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirish dasturining so‘ngi usuli ijtimoiy-psixologik treninglar bo‘lib, bunda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlar majmuidan iborat.

Ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik kasbiy identifikatsiya, talabalarning kelajakdagi kasbi haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, kasbiy o‘ziga xoslik, ijtimoiy va kasbiy munosabatlar hamda kasbiy uslubni rivojlantirishga yordam beradi. Talabalarning ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirish hamda hissiy-emotsional barqarorlikni ta’minlashda qaratilgan maxsus psixologik model yaratildi [8].


TALABALARNING ILMIY-INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLAN-TIRISH MODELI
Dastur tuzilishi
Kasbiy professionalizm
Innovatsion fikrlash
Kreativlik
Emotsional barqarorlik
- O‘z kasbiga nisbatan ijobiy munosabat;
- Identivlik;
- Ijtimoiy va kasbiy jihatdan o‘ziga ishonch
- Ilmiy-innavatsion farazlarni shakllantira olish qobiliyati;
- Intuitsiya;
- Narsa va hodisalar o‘rtasidagi o`zaro bog‘liqlikni topish qobiliyati
- O‘quv va ilmiy faoliyatga yangicha yondashish;
- Kuzatish va idrok qilish qobiliyatining rivojganligi;
- Muammolarni noodatiy, zamonaviy yechish usullarni topish
- Emotsional holatlarni nazorat qila olish;
- Hissiy-emotsional zo‘riqishlarni yenga olish qobiliyati
Refleksivlik
Muloqotchanlik
O‘zini-o‘zi namoyon etish
- Introspeksiya, o‘z-o‘zini anglash qobiliyati;
- Notanish va yangi bilimlarga egal-lashga qiziqish;
- To‘siqlarni yengib o‘tishda irodaviy sifatlarni rivojlantirish
- Shaxslararo munosabatlarda tinglash, fikr-mulohaza yuirtish qobiliyati;
-Identifikatsiya;
-Noverbal kommunikatsiya
- Yangi g‘oyalar va loyihalarni ishlab chiqish va turli tan-lovlarda ishtirok etish;
- Yaxlit idrok va axborot almashinuvi; shaxslararo muloqot jarayonida ijobiy munosabatlarni o`rnatish

Tadqiqotimiz davomida ishlab chiqilgan modelda talabalarning hissiy emotsional holatlarini va kognitiv-kreavtiv mezonlarining asosiy qismlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Mazkur maxsus dasturning asosiy maqsadi - oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan talabalarning psixologik jihatdan barqarorligini ta’minlash va ilmiy-innovatsion faoliyatga yo‘naltirish tizimini joriy etish va tizimni optimallashtirish natijasida talabalarning ilmiy-innovatsion salohiyati, kasbiy mahorati, bilimi, kasbiy fazilatlari, o‘quv faoliyatiga bo‘lgan munosabatlarini takomillashtirishdan iborat. Talabalardagi kognitiv-kreavtiv omillarini rivojlantiruvchi dastur izchil va bir vaqtning o‘zida o‘quv jarayonida amalga oshiriladigan psixologik jarayonlar asosida ishlab chiqilgan. Dasturning Talabalarning ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirishi to‘rtta asosiy vositasini o‘z ichiga qamrab oladi. Bular o‘quv, tarbiyaviy, o‘quv faoliyat-idagi rollar va ijtimoiy psixologik trening dasturlaridan iborat.

Birinchi omil, ya’ni o‘quv faoliyatini o‘rganish bo‘lib, bunda talabalarning ilmiy-innovatsion faoliyatida turli xildagi psixotexnologiyalarni qo‘llash natijasida talabalarning kelajakdagi kasbiy tayyorligini shakllantirishga xizmat qiluvchi yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga yordam beradi.

Talabalarda bilim, ko‘nikma va kasbiy malakalarni o‘zlashtirish, tushunish va rivojlantirish amaliy faoliyati davomida xatti-harakatlarni takrorlashi orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish jarayonini ketma-ket, bosqichma-bosqich va har bir usulni navbatma-navbat qo‘llash natijasida amalga oshiriladi.

Ikkinchi omil tarbiyaviy faoliyat bo‘lib, talabalardagi interiorizatsiya jarayonini amaliy faoliyatga bog‘lashi hisoblanadi. Shunday qilib, biz o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish va takomillashtirish orqali ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan maxsus psixologik trening dasturlarini ishlab chiqdik.

Talabalarda ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirishning uchinchi usuli o‘quv faoliyatiga rollar deb nomlanib, bunda shaxsga yo‘naltirilgan treninglar, o‘yin texnologiyalari, innovatsiyalarni amaliyotga qo‘llashda yordam beradigan tamoyillar va yondashuvlarga muvofiq keladigan innovatsion texnologiyalar sifatida ishlaydigan ijtimoiy-kasbiy vaziyatlarni tahlil qilishdan iborat. Bundan tashqari, talabalardagi innovatsion va ilmiy tadqiqot faoliyati davomida xarakter xususiyatlarini shakllantirishga qaratilgan, kasbiy harakatchanlik, kasbiy o‘ziga xoslik, ijodkorlik, tadbirkorlik, guruh bilan ishlashga tayyorgarlik, kasbiy muloqot, innovatsion fikrlash darajasini rivojlantirishdan iborat.

Ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirish dasturining so‘ngi usuli ijtimoiy-psixologik treninglar bo‘lib, bunda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlar majmuidan iborat.

Empirik qism. Tadqiqot muammosiga muvofiq tarzda ishlab chiqilgan so‘rovnomamiz orqali biz talabalarning kognitiv-kreativ jarayonlarini o‘rgandik. Ushbu omillar talabalarning o‘quv va ilmiy-innovatsion faoliyatlarini tartibga soluvchi mexanizmi hamda dinamikasi, barqarorligini belgilab beradi. Talaba-yoshlar orasida yangi fikr yangicha g‘oyalarning rivojlanishi bilan bog‘liq jarayonlarning bir-biridan farqi va faoliyatda namoyon bo‘lish darajalarini aniqladik. Empirik tadqiqotlarning dastlabki bosqichi tajriba va nazorat guruhlarida o‘tkazildi. Tanlangan yangi g‘oyalarni amalga oshirish yo‘li sifatida tavsiflanadigan «amaliy fikrlash» uslubi ustunlik qilishi aniqlashtirildi. Talabalar o‘rtasidagi bunday fikrlash uslubi amalda haqiqiy innovatsion o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi, bu davrda yangi g‘oyalar, farazlar, taxminlar shakllanadigan va rivojlanadigan davr sanaladi (2-jadvalga qarang).

Jadval-1

«Talaba-yoshlardagi kognitiv-kreativ komponentlarni aniqlash» so‘rovnomasi orqali olingan dastlabki natijalar tahlili (n=210)

Komponentlar	Eksperimentdan oldin (X±m)			
	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	t	p
Tashabbuskor fikrlash	10,3±0,7	11,1±0,8	-2,8	>0,005
Tanqidiy fikrlash	14,9±0,9	13.8±0,8	-2,4	>0,005
Boshqaruvchan fikrlash	12.6±0,8	15,7±1,1	-2,3	<0,005
Amaliy fikrlash	16,6±1,4	15,9±1,3	-2,4	>0,005
Kreativlik	24,6±2,1	27,8±2,4	-2,1	>0,005

Izoh: *-p<0,05, **-p<0,01,***-p<0,001.

So‘rovnomadagi navbatdagi omil «tanqidiy fikrlash» bo‘lib, ushbu omil bo‘yicha olingan natijalar yuqori darajada ekanligi qayd etildi. Bunday toifadagi talabalarda ma’lumotlarni tahlil qilish,

xulosalar chiqarish va adekvat qarorlar qabul qilish, shuningdek, o‘z fikrlarini rivojlantirish hamda o‘z dunyoqarashini kengaytirish kabi xususiyatlarni namoyon bo‘ldi.

Tadqiqotimizda qo‘llanilgan so‘rovnomamizning keyingi «boshqaruvchan fikrlash» omili barcha vazifalarni bajarish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Biroq, aqliy faoliyatni rivojlantirish boshqalarga qaratilgan ijobiy munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Bunday talaba-yoshlarda o‘quv va ilmiy-innovatsion faoliyatni o‘zaro muvofiqlashtirish, uni samarali tashkil qilish, kasbga yo‘naltirish kabi omillar natijasida amalga oshiriladi.

So‘rovnomadagi eng past ko‘rsatkich «tashabbuskor fikrlash» omilida kuzatildi. Bunday omil talabalarda yangi g‘oyalarni rivojlantirish turli sohadagi muammolarni yechishda va ilmiy farazlarni tasdiqlash jarayonida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari ushbu omil muammolarni aniqlash, qarama-qarshiliklarni bartaraf etish bilan tavsiflanadi, shuningdek, ilmiy farazlar, taxminlarni ilgari surish, muammoning mazmun mohiyatini tushunish istagi, hamma narsaning mohiyatini tushunish qobiliyatlarida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot so‘rovnomasidagi «kreativlik» omili o‘rta darajadagi natijani qayd etdi. Bu esa talabalardan fikrlar uyg‘unligi, mantiqiy va ijodiy fikrlash, bilishga bo‘lgan qiziqish, yangilik qilishga intilish, maqsadga muvofiq keladigan adekvat yechimni tanlash kabi sifatlar bilan xarakterlanadi. Ushbu omillar talabalarga ilmiy tadqiqot muammosini aniqlash, gipotezani shakllantirish, tadqiqot usullarini aniq tanlash, mantiqiy jarayonlarni bajarish - tahlil, sintez, induksiya yoki deduksiya, abstraksiya va boshqalar haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishga asoslanadi. Shunday qilib, kognitiv jarayonlar rivojlanish darajasi ilmiy-innovatsiyalarga psixologik tayyorgarligini talabalarning o‘quv va ilmiy-tadqiqot vazifalari, o‘rnatilgan tartib-qoidalarga amal qilishi bilan bog‘liq. Shuningdek, faoliyatni bajarish sifati, mustaqil tadqiqot olib borish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi, kasbiy faoliyatga innovatsiyalarni joriy etish yo‘llarini izlab topish natijalarni kuzatish va baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi bilan izohlanadi. Yuqorida olingan natijalarga asoslangan holda, talabalarning o‘quv ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirish hamda shaxslararo munosabatlarni o‘rganish muvaffaqiyatsizlikdan qochish, qaror qabul qilishda o‘ziga ishonmaslik, o‘zini-o‘zi rivojlantirish bilan bog‘liq jarayonlarda yangi g‘oyalarni yaratish imkonini beradi.

Xulosa. Innovatsion faoliyatga tayyorlashda ular egallayotgan ixtisosslik talablarini inobatga olib, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga, rivojlantirishga mo‘ljallangan psixotexnikalardan foydalanib, mustaqil tarzda yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga yo‘naltirish lozim. shaxsning yangi ma’lumotlarga nisbatan ta’sirchanligini namoyon bo‘lishiga ko‘ra, talabalarda axborotlarga tolerantlik, o‘ziga ishonch, ijodkorlik, mas’uliyatlilik, hamkorlikda faoliyat yuritish, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatining darajaviy tarzda ifodalanishi innovatsion faoliyatga yo‘nalganlikning muhim jihatlari ekanligi dalillandi. Talabalarning innovatsion faoliyatga yo‘naltirishda metodologik yondashuv, nazariy yondashuv, psixologik yondashuv, faoliyatli yondashuv paradigmalaridan foydalanib, ularda shijoat va ma’suliyat, erkinlik va yangilikka intilish kabi shaxsiy va professional sifatlar shakllantirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasining «Innovatsion faoliyat to‘g‘risida»gi Qonuni. /Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.07.2020 y., 03/20/630/1101-son.

2.Введенский В.Н. Профессиональная компетентность педагога: Пособие для учителя. – СПб.: Филиал издательства «Просвещение», 2004. – С. 159-165.

3.Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Авторская версия. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. –С. 39-46.

4.Кузьмина Н.В. Основы вузовской педагогики. Л.: ЛГУ, 1972. - 288 с.

5.Шаймакова Ж.Б. Роль инновационной компетентности в развитии конкурентоспособности преподавателя высшей школы // Акмеология. 2009. № 2. - С. 38-45.

6.Сластенин В.А., Подымова Л.С. Педагогика: инновационная деятельность. М.: Магистр, 1997. –С. 105-120.

7. Адольф В.А. Профессиональная компетентность современного учителя. Монография. - Красноярск, 1998. - 310 с.

8. Nazarov A.M. talabalar ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik barqarorligi: Psixol.f.d. dissertatsiyasi: –T.: TDPU. 2022 y. – 229 b.

Sobirov Abdulaziz Abdurozikovich
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti,
psixologiya fanlari doktori (PhD)
E-mail: aziz.sobirov.86@bk.ru

UNIVERSITETDA O‘QISH PAYTIDA TALABALARNING REPRODUKTIV SALOMATLIGI

Annotatsiya. *Maqolada reproduktiv salomatlik muammosi pedagogika universitetining birinchi kurs talabalarining moslashuvi mezoni sifatida ko‘rib chiqiladi. Birinchi kurs talabalarining sog‘lig‘iga bo‘lgan munosabatini o‘rganish natijalari tasvirlangan. Natijalarni tahlil qilishda adekvatlik mezonlariga javob beradigan 4 sohadagi ko‘rsatkichlar hisobga olindi – o‘z sog‘lig‘iga bo‘lgan munosabatning nomuvofiqligi: kognitiv, xulq-atvor, hissiy, qiymat va motivatsion.*

Kalit so‘zlar: *salomatlik, moslashish, reproduktiv salomatlik, sog‘liqqa munosabat.*

РЕПРОДУКТИВНОЕ ЗДОРОВЬЕ СТУДЕНТОВ ВО ВРЕМЯ ОБУЧЕНИЯ В ВУЗЕ

Аннотация. *В статье рассматривается проблема репродуктивного здоровья в качестве критерия адаптации студентов-первокурсников педагогического вуза. Описаны результаты исследования отношения к здоровью студентов-первокурсников. При анализе результатов учитывались показатели по 4 сферам, отвечающим критериям адекватности – неадекватности отношения к собственному здоровью: когнитивная, поведенческая, эмоциональная, ценностно-мотивационная.*

Ключевые слова: *здоровье, адаптация, репродуктивное здоровье, отношение к здоровью.*

REPRODUCTIVE HEALTH OF STUDENTS DURING THEIR STUDIES AT THE UNIVERSITY

Annotation. *The article considers the problem of psychological health as a criterion for the adaptation of first-year students of a pedagogical university. The results of a study of the attitude to the health of first-year students are described. When analyzing the results, indicators were taken into account in 4 areas that meet the criteria of adequacy – inadequacy of attitude to one's own health: cognitive, behavioral, emotional, value-motivational.*

Keywords: *health, adaptation, reproductive health, attitude to health*

Kirish. Reproduktiv salomatlik muammosi juda ko‘p sonli nazariy va uslubiy yo‘nalishlarni taqdim etadigan ilmiy bilimlarning umumiy ahamiyatga ega sohalaridan biridir. "Salomatlik" fenomeni turli fanlarning chorrahasida o‘rganiladi, chunki u fanlararo xarakterga ega. Shu bilan birga, "reproduktiv salomatlik" ning nazariy va uslubiy muammolari to‘liq hal qilinmagan.Har qanday odamning hayotida doimo stressli, asabiy va tanqidiy voqealar sodir bo‘ladi. Bolalarda ham, kattalarda ham neyro–ruhiy buzilishlarning keskin o‘sishiga ko‘p jihatdan mamlakatdagi ijtimoiy–iqtisodiy vaziyatning beqarorligi ta'sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, turli xil ijtimoiy o‘zgarishlar yoshlarga ta'sir qiladi va talabalar, bir qator mutaxassislarning fikriga ko‘ra, psixogen omillar mavjudligi sababli xavf guruhiga kiritilishi mumkin. Universitetda o‘qish maktabga nisbatan sezilarli farqlarga ega va obyektiv ravishda ko‘proq zo‘riqish va hissiy barqarorlikni talab qiladi, bu esa birinchi kurs talabalarining reproduktiv salomatligini buzilishiga olib keladi. Hozirgi vaqtda inson salomatligini mustahkamlash, to‘laqonli rivojlanish va xavfsiz ta'lim makonini shakllantirish, yosh avlodlarning ijtimoiy, shaxsiy va axloqiy tanazzulining oldini olish muammolari tobora ko‘proq ko‘rib chiqilmoqda.

Nazariy asos. Zamonaviy dunyoda sog‘liqni saqlash psixologiyasi yangi ilmiy yo‘nalish sifatida uning shakllanishining dastlabki bosqichidan o‘tmoqda. "Psixologik salomatlik" atamasi I. V. tomonidan kiritilgan. Dubrovina, uning fikriga ko‘ra, kengroq ruhiy salomatlik hodisasi bilan munosabatlarni o‘z ichiga olgan, "bu umuman shaxsga tegishli va inson ruhining eng yuqori namoyon bo‘lishi bilan belgilanadi" [5].O. V. Xuxlayevaning fikricha, reproduktiv salomatlikning eng yuqori darajasiga atrof-muhitga barqaror moslashuvga ega bo‘lgan, stressli vaziyatlarni bartaraf etish uchun kuch zaxirasiga ega bo‘lgan va atrofdagi voqelikka faol, ijodiy munosabatda bo‘lgan kishi erishadi. Shunga ko‘ra, inson hayotining eng yuqori darajasi va muhim jarayoni moslashuv deb aytishimiz mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, moslashuv inson hayotining eng yuqori darajasi va jarayonidir. Reproduktiv

salomatlikning eng yuqori darajasiga atrof-muhitga barqaror moslashuvga ega bo‘lgan kishi erishadi, stressli vaziyatlarni engish uchun kuch zaxirasiga ega va atrofdagi voqelikka faol, ijodiy munosabatda bo‘ladi. Faqat psixologik jihatdan sog‘lom odam harakatchan va tashqi o‘zgarishlarga sezgir, ammo ma'lum bir ichki yadroga, xavfsizlik chegarasiga ega, psixologik himoya qilishning samarali usullariga ega, bu unga voqelikning halokatli omiliga qarshi turishga, uning hayotiy faoliyatini optimallashtirishga imkon beradi [8].

Shunday qilib, maktabdan universitet ta'lim tizimiga o‘tish ko‘pchilik yoshlar uchun juda qiyin va burilish nuqtasidir, shuning uchun birinchi kurs talabalarining katta qismi qiyinchiliklarga duch kelishadi va yangi sharoitlarga tezda moslasha olmaydilar. Bu yigitning psixologik salomatligiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, birinchi kurs talabalari har doim ham o‘rta maktabda kam ta'lim olganliklari uchun emas, balki ular quyidagi shaxsiy xususiyatlarni shakllantirmaganliklari uchun bilimlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtira olmaydilar: o‘rganishga tayyorlik; mustaqil ravishda o‘rganish, o‘zini boshqarish va baholash, kognitiv faoliyatning individual xususiyatlariga egalik qilish qobiliyati; mustaqil tayyorgarlik uchun ish vaqtini to‘g‘ri taqsimlash qobiliyati. Maktabda kundalik vasiylik va nazoratga o‘rganib qolgan ba'zi birinchi kurs talabalari asosiy qarorlarni qabul qila olmaydilar. Ular o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini tarbiyalash istagini etarlicha rivojlantirmagan [4].

Dastlab ularning hammasi ham o‘z kuchlarini qanday hisoblashni, o‘z ishlarini oqilona tashkil qilishni bilishmaydi. Shuning uchun ularning o‘quv faoliyati ustidan tizimli nazoratni tashkil etish, individual konsultatsiyalar o‘tkazish, kuratorlarning ishi va boshqalar zarur.talaba uchun yuqori, ammo qulay darajada amalga oshiriladigan tartibga solinadigan intellektual yuk (haddan tashqari ortiqcha yuk emas) ta'limning dastlabki bosqichida yoshlarning o‘zini o‘zi tashkil etish va faolligini oshirishning eng muhim shartidir. Natijalarni tahlil qilishda adekvatlik mezonlariga javob beradigan 4 sohadagi ko‘rsatkichlar hisobga olindi, o‘z sog‘lig‘iga bo‘lgan munosabatning nomuvofiqligi: kognitiv-insonning sog‘liqni saqlash sohasidagi xabardorligi yoki malakasi darajasi, asosiy xavf omillari va antiriskni bilish, faol va uzoq umr ko‘rishda salomatlikning rolini tushunish;xulq –atvor-insonning harakatlari va harakatlarining sog‘lom turmush tarzi talablariga muvofiqligi darajasi; hissiy-sog‘liq bilan bog‘liq tashvishning maqbul darajasi, undan zavqlanish va zavqlanish qobiliyati; qiymat-motivatsion-individual qadriyatlar ierarxiyasida salomatlikning yuqori ahamiyati, salomatlikni saqlash va mustahkamlash uchun motivatsiyaning shakllanish darajasi.

Keling, "sog‘liqqa munosabat"metodologiyasi bo‘yicha birinchi kurs talabalarini tashxislashda olingan natijalarni tahlil qilaylik. Talabalarning kognitiv darajadagi salomatlik haqidagi tushunchalarini ko‘rib chiqing. Guruh talabalarining 23 foizi salomatlikni "salomatlik, hech narsa bezovta qilmaydi, kasallik yo‘q" deb ta'riflaydi, guruh talabalarining 12 foizi salomatlikni inson holati sifatida belgilaydi, bu ham farovon, ham disfunktsional bo‘lishi mumkin, birinchi kurs talabalarining 23 foizi salomatlikni inson hayotining asosi sifatida belgilaydi (masalan, " salomatlik hayotning zaruriy qismidir inson"). Bundan tashqari, guruh talabalarining 15% salomatlikni profilaktika choralari majmuasi sifatida tavsiflaydi ("salomatlik –bu to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy tayyorgarlikni saqlash, aqliy muvozanat kuzatiladigan odamning holati"), birinchi kurs talabalarining 27% salomatlikning muhim xususiyati insonning ma'naviy va jismoniy tamoyillarining uyg‘un kombinatsiyasi ("salomatlik–bu insonning ichki holati"). va tashqi rozilik, tinchlik, to‘liq jismoniy salomatlik"). Talabalarning 85 foiziga ko‘ra, sog‘liqni saqlash sohasidagi xabardorlikka shifokorlar (mutaxassislar) tomonidan olingan ma'lumotlar ko‘proq ta'sir qiladi. Shu bilan birga, talabalarning 69 foizi "ommaviy axborot vositalari (radio, televidenie)"sog‘liqni saqlash ma'lumotlarining muhim manbalaridan birini aniqlaydilar. Ta'sir darajasi bo‘yicha III o‘rin sog‘liqni saqlash bo‘yicha ilmiy-ommabop kitoblar (62% talabalar).Shu bilan birga, talabalarning 50 foizi do‘stlari (tanishlari) va talabalarning 31 foizi gazeta (jurnal) dan sog‘liq haqida ma'lumot olishni afzal ko‘rishadi. Natijalarni tahlil qilib, biz barcha talabalarning fikriga ko‘ra, "ekologik vaziyat"omili sog‘liq holatiga eng muhim ta'sir ko‘rsatishini aniqladik. Shu bilan birga, talabalarning 96 foizi sog‘liqqa ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri sifatida "ovqatlanish xususiyatlari"ni aniqlaydilar. III o‘rindagi ahamiyat darajasi bo‘yicha talabalarning 88 foizi "turmush tarzi"ni anglatadi. V o‘rindagi talabalarning 81 foizi "kasbiy faoliyat"omilini aniqlaydi. Bundan tashqari, birinchi kurs talabalarining 38 foizi sog‘liq holatiga sezilarli ta'sir ko‘rsatadigan qo‘shimcha omillarni aniqladilar: yopiq joy, psixologik tinchlik, suv sifati va boshqalar. shunday qilib, kognitiv darajada talabalarning sog‘liqni saqlashni madaniy, ijtimoiy, psixologik, jismoniy, iqtisodiy va ma'naviy omillarning o‘zaro bog‘liqligini ifodalovchi inson hayotining asosiy jihati sifatida

tushunishi xarakterlidir. shuningdek, uning faol va uzoq umr ko‘rishdagi ahamiyati. Birinchi kurs talabalarining aksariyati salomatlikni ma'naviy va jismoniy tamoyillarning uyg‘un kombinatsiyasi sifatida belgilaydilar. Birinchi kurs talabalari sog‘liqni saqlash sohasidagi ma'lumotlarni turli manbalardan olishadi, ammo shifokorlar (mutaxassislar) va "ommaviy axborot vositalari (radio, televidenie)"dan olingan ma'lumotlarni qabul qilishga ko‘proq tayyor. Talabalarning salomatlik haqidagi tushunchalarini xulq-atvor darajasida ko‘rib chiqing. Shuni ta'kidlash kerakki, talabalar jismoniy sog‘lig‘ini saqlash uchun muntazam ravishda hammom (sauna) ga tashrif buyurishadi, bu barcha subyektlarning 69 foizini tashkil qiladi. Shu bilan birga, talabalarning 62 foizi yomon odatlardan qochishni afzal ko‘rishadi. Talabalarning 57 foizi sog‘lig‘ini saqlash uchun jismoniy mashqlar qilishni muhim deb bilishadi. IV –dagi ahamiyat darajasiga ko‘ra, uyqu va dam olish rejimiga g‘amxo‘rlik qilish, barcha subyektlarning 50 foizi shunday deb hisoblashadi. Shu bilan birga, talabalarning 38 foizi o‘z vaznini kuzatishni afzal ko‘rishadi. Birinchi kurs talabalarining 27 foizi sog‘lig‘ini saqlash, qattiqlashish va sport bo‘limlariga (Shaping, sport zali) borish uchun muhim deb hisoblashadi. Muhimlik darajasiga ko‘ra, talabalar profilaktika maqsadida shifokorga tashrif buyurishni VII o‘ringa kiritadilar (barcha talabalarning 19%). Shu bilan birga, talabalarning 15 foizi sog‘lig‘ini saqlash uchun dietadan foydalanadilar. Shu bilan birga, birinchi kurs talabalari eng kam darajada maxsus sog‘lomlashtirish tizimlari bilan shug‘ullanadilar (barcha subyektlarning 7%). Bundan tashqari, talabalarning 27 foizi sog‘lig‘ini saqlash uchun ishlatilishi kerak bo‘lgan qo‘shimcha choralarni va eng ko‘p uchraydigan choralarni aniqladilar: ovqatlanish, vitaminlar, yaxshi narsalar haqida o‘ylash, doimiy nazorat. Natijalarni tahlil qilib, shuni aniqladikki, sog‘lig‘i yomonlashganda, talabalar ko‘pincha o‘tgan tajriba asosida mustaqil ravishda choralar ko‘rishadi, chunki talabalarning 93 foizi shunday deb hisoblashadi. Shu bilan birga, barcha subyektlarning 69 foizi qarindoshlari, do‘stlari va tanishlaridan maslahat so‘rashni afzal ko‘rishadi, talabalarning 31 foizi shifokorga murojaat qilishni muhim deb bilishadi. Bundan tashqari, talabalarning 19 foizi sog‘lig‘ining yomonlashishiga e'tibor bermaslikni afzal ko‘rishadi. Shunday qilib, talabalarning sog‘lig‘iga bo‘lgan munosabatini xulq–atvor darajasida ko‘rib chiqsak, shuni ta'kidlash kerakki, birinchi kurs talabalari sog‘liqni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan turli amaliy tadbirlarga qo‘shilishlari, shuningdek, o‘z sog‘lig‘iga g‘amxo‘rlik qilishga qaratilgan tegishli choralarni mustaqil ravishda qabul qilishlari mumkin. Talabalarning salomatlik haqidagi tushunchalarini hissiy darajada ko‘rib chiqing.

Natijalar bo‘limi. Tadqiqot natijalarini tahlil qilgandan so‘ng, shuni ta'kidlash kerakki, sog‘lig‘i yaxshi bo‘lgan birinchi kurs talabalari eng ko‘p xotirjamlikni boshdan kechirishadi (96%). Shu bilan birga, subyektlarning 93 foizi o‘zlarining sog‘lig‘idan mamnun. Shu bilan birga, talabalarning 88 foizi o‘zlarining sog‘lig‘ini ichki qoniqish, baxt va o‘ziga ishonch sifatida belgilaydilar. Bundan tashqari, sog‘lig‘i yaxshi bo‘lsa, talabalarning 81 foizi quvonchni his qilishadi. Talabalarning 73 foizi o‘zlarining sog‘lig‘ini "erkinlik hissi"deb belgilaydilar. Shuningdek, talabalarning 65 foiziga ko‘ra, sog‘liq uchun xavf yo‘q. Shu bilan birga, talabalarning 57 foizi sog‘liq uchun tashvish yo‘qligi bilan ajralib turadi. Mavzularning 7 foizi ularning sog‘lig‘i farovonligiga befarqligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, biz shuni aniqladikki, talabalarning 85 foizi sog‘lig‘i yomonlashganda, buzilish hissiyotlarini boshdan kechirishadi. Shu bilan birga, talabalarning 69 foizi sog‘lig‘i yomonlashganda ruhiy tushkunlikni ko‘rsatadi. Talabalarning 65 foizi sog‘lig‘ining sababini aniqlashga va tegishli choralarni aniqlashga intilishadi. Birinchi kurs talabalarining 54 foizi sog‘lig‘i yomonlashganda asabiylashish va tashvishlanishga moyil. Shu bilan birga, subyektlarning 46 foizi sog‘lig‘i yomonlashganda afsuslanishga moyil.Talabalarning 43 foizi sog‘lig‘i yomonlashganda asabiylashish hissi borligini ko‘rsatadi.Talabalarning 23 foizi sog‘lig‘i yomonlashganda qo‘rquv hissini bildiradi. Shu bilan birga, talabalarning 15 foizi sog‘lig‘i yomonlashganda aybdorlik tuyg‘usini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, talabalarning 12 foizi o‘zlarining yomonliklariga nisbatan xotirjamlikni ta'kidlashadi. Shuni ta'kidlash kerakki, eng kam sog‘liq muammolari bilan talabalarning 4 foizi uyat tuyg‘usini boshdan kechirishadi. Shunday qilib, birinchi kurs talabalarining sog‘lig‘iga hissiy darajada bo‘lgan munosabatini hisobga olgan holda, shuni ta'kidlash kerakki, sog‘liqning farovonligi bilan talabalar ko‘pincha xotirjamlikni boshdan kechirishadi, ijobiy his-tuyg‘ularni namoyon etishadi, sog‘lig‘ining holatidan zavqlanish va undan zavqlanish qobiliyatiga ega. Shu bilan birga, birinchi kurs talabalari juda sezgir va tanasining turli xil hayotiy ko‘rinishlariga sezgir, sog‘lig‘i yomonlashganda, ular eng ko‘p xafa bo‘lishadi, tushkunlikka tushishadi, o‘zlarining farovonligi bilan shug‘ullanishadi, asabiylashadi, tashvishlanadilar, qo‘rquv va pushaymonlikni his qilishadi. Birinchi kurs talabalarining sog‘liqqa bo‘lgan munosabatini qiymat-motivatsion darajada ko‘rib chiqing. Tadqiqotda ishtirok etgan barcha talabalarning fikriga ko‘ra, hayotning eng muhim qadriyatlari"sog‘liq" va "qiziqarli ish (martaba)"dir. II

o‘rindagi ahamiyatlilik darajasiga ko‘ra, talabalarning 93 foizi "mustaqillik, erkinlik"ni ajratib ko‘rsatadi. Birinchi kurs talabalarining 88 foizi uchun eng muhim hayotiy qadriyatlar "baxtli oilaviy hayot" va "atrofdagilarni tan olish va hurmat qilish"dir. Bundan tashqari, talabalarning 85 foizi "moddiy farovonlik" va "sodiq do‘stlar"qadriyatlarini oxirgi o‘ringa qo‘yishadi. Bu haqiqat birinchi kurs talabalari uchun "sog‘liq" va "qiziqarli ish (martaba)"kabi qadriyatlar eng ustuvor ekanligini ko‘rsatishi mumkin. Talabalarning fikriga ko‘ra, muvaffaqiyatga erishish uchun eng muhim omillar "yaxshi ta'lim" va "qobiliyat" (talabalarning 93%) ekanligini aniqladik. Bundan tashqari, subyektlarning 88 foizi muvaffaqiyatga erishish uchun muhim omillar qatorida "sog‘liq"ni anglatadi. Shu bilan birga, birinchi kurs talabalarining 81 foizi hayotda muvaffaqiyat qozonish uchun "qat'iylik va mehnatsevarlik"zarurligini ko‘rsatadi. Omilning ahamiyati darajasiga ko‘ra, birinchi kurs talabalarining 77 foizi IV o‘rinni "omad (omad)" va "moddiy boylik"deb belgilaydilar. Shu bilan birga, talabalarning 73 foiziga ko‘ra, muvaffaqiyatga erishish uchun kamroq muhim omil "to‘g‘ri aloqalar"dir. Ko‘rib chiqilgan fakt birinchi kurs talabalari uchun "yaxshi ta'lim", "qobiliyat" va "sog‘liq"hayotiy muvaffaqiyatga erishishning muhim sharti degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Tadqiqot davomida olingan natijalarni tahlil qilib, biz birinchi kurs talabalarining 46 foizida sog‘lig‘iga etarlicha va tartibsiz g‘amxo‘rlik qilmaslikning eng muhim sababi "kompaniyaning etishmasligi"ekanligini aniqladik. Shu bilan birga, talabalarning 43 foizi tartibsiz sog‘liqni saqlashning muhim sabablari orasida "vaqt etishmasligi" va "boshqa muhim ishlarni bajarish"ni belgilaydilar. Shu bilan birga, birinchi kurs talabalarining 38 foizi muntazam ravishda sog‘liqni saqlash uchun "tegishli shart-sharoitlar yo‘qligini" ta'kidlaydilar, shu bilan birga ularning sog‘lig‘ini doimiy ravishda nazorat qilishni muhim deb hisoblamaydilar.Talabalarning 35 foizi sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash uchun turli xil cheklovlarga rioya qilishni muhim deb hisoblamaydilar. Bundan tashqari, talabalarning 27 foizi sog‘lig‘iga etarlicha g‘amxo‘rlik qilmaslikning muhim sabablari orasida "katta moddiy xarajatlar zarurligini"aniqlaydilar. Talabalarning 23 foizi sog‘liq uchun doimiy g‘amxo‘rlik qilish uchun ixtiyoriy harakatlar yo‘qligini ta'kidlamoqda. Yuqoridagilar birinchi kurs talabalarining sog‘lig‘iga qiymat-motivatsion darajada bo‘lgan munosabat juda ustun degan xulosaga kelishimizga imkon beradi, ular uchun sog‘liq hayotning eng muhim qadriyatlaridan biri bilan belgilanadi. Biroq, turli sabablarga ko‘ra, talabalar o‘zlarining sog‘lig‘i holatini doimiy ravishda nazorat qila olmaydilar. Shuni ta'kidlash kerakki, reproduktiv salomatlikning buzilishiga moyil bo‘lgan birinchi kurs talabalari moslashish jarayonida quyidagi asosiy qiyinchiliklarga duch kelishadi: kasb tanlash motivatsiyasining noaniqligi, unga psixologik tayyorgarlikning etarli emasligi; xulq-atvor va faoliyatni psixologik o‘zini o‘zi tartibga solishni amalga oshira olmaslik, o‘qituvchilarning kundalik nazorat qilish odatining yo‘qligi bilan kuchayadi; yangi sharoitlarda ish va dam olishning maqbul rejimini izlash; o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish, ayniqsa uy sharoitidan yotoqxonaga o‘tishda; va nihoyat, mustaqil ishlash ko‘nikmalarining etishmasligi, yozuvlarni yozib ololmaslik, asosiy manbalar, lug‘atlar, ma'lumotnomalar, ko‘rsatkichlar bilan ishlash.

Bu qiyinchiliklarning barchasi kelib chiqishi jihatidan farq qiladi. Ulardan ba'zilari obyektiv ravishda muqarrar, boshqalari subyektiv xarakterga ega va zaif tayyorgarlik, oilada va maktabda ta'lim nuqsonlari bilan bog‘liq. Universitetda o‘qitish tizimi asosan yuqori darajadagi ong uchun mo‘ljallangan bo‘lib, talabalarning manfaatlariga asoslanadi, chunki rasmiy ravishda har kuni maktabni tekshirishning qat'iy tizimi, har kuni "darslar"tayyorlash zarurati yo‘q.

Munozara bo‘limi. Ba'zi talabalar qiyin va qiyin kirish tanloviga dosh berib, keyin o‘qishga mas'uliyatli munosabatda bo‘lishga tayyor emaslar. Aynan shu davrda universitetni eng ko‘p tark etish sodir bo‘ladi. Bunday holda, shuni ta'kidlash kerakki, o‘qituvchi oldida talabani o‘quv faoliyati subyekti sifatida shakllantirishning mas'uliyatli psixologik va pedagogik vazifasi turibdi, bu birinchi navbatda uni rejalashtirish, o‘z faoliyatini tashkil etish, to‘liq o‘rganish, muloqot qilish qobiliyatiga o‘rgatish zarurligini anglatadi. Talabada o‘ziga nisbatan yuqori talabchanlikni, ishlashga bo‘lgan ehtiyojni, sog‘lom turmush tarzini olib borish va sog‘lig‘iga g‘amxo‘rlik qilish istagi va qobiliyatini tarbiyalash. Bunday savol muvaffaqiyatli o‘qish uchun zarur bo‘lgan o‘quv harakatlarini, ularni ma'lum bir o‘quv materialida bajarish dasturini va ularni shakllantirish bo‘yicha mashqlarni aniq tashkil etishni talab qiladi. Shu bilan birga, birinchi kurs talabalarining moslashish davridagi qiyinchiliklarni hisobga olgan holda, ushbu harakatlarning namunali bajarilishini o‘qituvchining o‘zi ko‘rsatishi kerak. Aqliy moslashuv qobiliyatlarini bilish keyingi boshqaruv uchun (shaxsiy xususiyatlarga ta'sir qilish orqali) va talabalarda ixtiyoriy fazilatlar va o‘quv ijodiy motivlari, qiymat yo‘nalishlarini shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega. Ular reproduktiv salomatlikning buzilishiga hissa

qo‘shadigan psixologik anormalliklarga, moslashuvchan bo‘lmagan xatti-harakatlarga ega. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, psixologik og‘ishlar ko‘proq qaytariladi, ularning o‘z vaqtida tashxisi va malakali tuzatishlari odamga ushbu muammolar qaytarib bo‘lmaydigan xarakterga ega bo‘lishidan oldin ichki muammolarni mustaqil ravishda engishga imkon beradigan o‘zini o‘zi boshqarish vositalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Собиров А.А. Психологическое здоровье спортсменов занимающихся экстремальными видами спорта Вестник интегративной психологии. // – Ярославль, 2023. Выпуск № 27. – С. 328-331. (19.00.00; №2).

2. Собиров.А.А.Психическое здоровье. Science and education issn 2181-0842 volume 3, issue 5 may 2022

3. Лисина М.И. Проблемы онтогенеза общения. –М., 1986.

4. Мясищев В.Н. Личность и неврозы. –Л.,1961.

5. Практическая психология образования/ Под ред. И.В. Дубровиной: Учебник для студентов высш. и средних специальных учеб. заведений. –М.: ТЦ «Сфера», 1997.

Sobirov Baxtiyar Eshbayevich
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti *o'qituvchisi, psixologiya fanlari nomzodi*
E-mail: sobirov14baxtiyor@gmail.com

BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA "PROTSEDURA"LI JAVOBGA EGA MASALALARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslariga protsedurali javobga ega masalalarni kiritish orqali o'quvchilarning algoritmik va mantiqiy tafakkur o'stirishdagi ahamiyati haqida gap boradi.*

Kalit so'zlar: *masala, protsedura, algoritmik til, algoritmik va mantiqiy tafakkur, mulohaza, javob variantlari.*

«ПРОЦЕДУРА» ОТВЕТ НА УРОКАХ МАТЕМАТКИ В НАЧАЛЬНОМ КЛАССЕ МЕСТО И ЗНАЧИМОСТЬ ВОПРОСОВ СОБСТВЕННИКА

Аннотация. *В данной статье рассматривается важность формирования у учащихся алгоритмического и логического мышления путем введения задач с процедурными ответами на уроках элементарной математики.*

Ключевые слова: *задача, процедура, алгоритмический язык, алгоритмический и логическое мышление, рассуждения, варианты ответов.*

"PROCEDURE" ANSWER IN MATH LESSONS IN PRIMARY CLASS PLACE AND SIGNIFICANCE OF OWNER ISSUES

Annotation. *This article discusses the importance of developing algorithmic and logical thinking in students by introducing problems with procedural answers in elementary mathematics lessons.*

Key words: *task, procedure, algorithmic language, algorithmic and logical thinking, reasoning, answer options.*

Kirish. Matematik bilim, ko'nikma va malakalar tizimi o'zlashtiriladigan o'quv faoliyatining eng muhim shakli bu masalalar yechish jarayoni hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim matematika fani yuzasidan o'quv dasturlari o'quvchilardan turli matnli masalalarni yechish malakasini talab qiladi.

O'quvchi masala ustida ishlashning umumiy texnikasini egallashi lozim, ya'ni, masalani qisqa yozish malakasi yana jadval, chizma, grafik shaklida tasvirlashi, uni yechishda bajariladigan qadamlar ketma-ketligi
va har bir bosqich mazmunini tushuntirishi va olingan yechimning to'g'riligini tekshirishi kerak.

Masalani yecha olish malakasi boshlang'ich sinf o'quvchisining matematik rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, har doim o'quvchida matematik tushunchalarni to'g'ri shakllantirishga, atrof-muhit munosabatlaridagi turli jihatlarni chuqurroq anglashga
va o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni qo'llashga imkon yaratadi. Masalalarni yechish orqali bolalar bilim va ta'lim nuqtayi nazaridan muhim bo'lgan faktlar bilan tanishadilar.

Masalalar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim vositasi bo'lib odatda o'z ichiga ayrim bilimlarni oladi, ya'ni masalada berilgan sonlar nimani bildiradi, berilgan terminlarning ma'nosi, berilganlardan foydalanib qanday ketma-ketlikda masala sharti bo'yicha natijaga qarab borish, berilgan
va izlanayotgan sonlar orasidagi bog'lanishni aniqlash va to'g'ri natijaga erishish hamda tegishli arifmetik amallarni bajarish nazarda tutiladi.

Shulardan kelib chiqqan holda, masalalarning quyidagi ba'zi turlardan keng foydalanib kelinadi:

1. Masalaning berilgan shartiga savol qo'yish va berilgan savolni o'zgartirish.

Bunday masalalar berilgan va izlanayotgan sonlar orasidagi bog'lanishlar haqidagi bilimlarni umumlashtirishga yordam beradi.

2. Berilgan savol bo‘yicha masala shartini tuzish.

Bunday masalalarni yechish jarayonida o‘quvchi izlanayotgan sonni topish uchun qanday berilgan sonlarga ega bo‘lishi kerakligini aniqlaydi.

3. Sonli ma’lumotlarni tanlash yoki ularni o‘zgartirish.

Bunday masalalar asosan o‘quvchilarni real miqdorli munosabatlar bilan tanishtirish maqsadida hizmat qiladi.

4. O‘xshash masala tuzish.

Bunday masalalarni o‘quvchilar tomonidan tuzilishi turli hayotiy vaziyatlarda berilgan va izlanayotgan sonlar orasidagi umumiy bog‘lanishlarni aniqlashga yordam beradi.

5. Teskari masalalar tuzish.

Teskari masalalar tuzish va ularni yechishga ko‘ra masalalardagi miqdorlar orasidagi bog‘lanishlarni o‘zlashtirishga yordam beradi.

6. Ilyustratsiyaga qarab masala tuzish.

Berilgan rasm, chizma yoki qisqa yozuvga qarab masalalar tuzishga doir bo‘lib, ular masalani bolalar konkret vaziyatda ko‘rishga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Keltirilgan bu turkum masalalar, hozirgi kunda umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarda foydalanib kelinayotgan matematika darsliklaridagi [1,2,3,4] keltirilgan masalalar tahlili natijasi bo‘lib, ularning berilish shartiga ko‘ra turli usullardan foydalangan holda yechish natijasida javob tariqasida tegishli aniq sonli qiymatlar hosil qilanadi.

Lekin, masala mazmuniga chuqurroq qarashga, berilgan va izlanayotgan sonlar orasidagi bog‘lanishni har tomonlama fikrlashga, o‘quv faoliyatini ma’lum darajada boyitishga va o‘quvchilar mantiqiy tafakkurini yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi javoblari “protsedura”lar shaklida ifodalanuvchi (bunday masalalarning yechimi aniq sonli kattaliklar emas, balki mulohaza shaklidagi javob variantlari) masalalar darslik sahifalarida uchramaydi.

Masalalarning bunday turkumi nazarda tutilgan vaziyatlarni to‘la
va chuqur ko‘rib chiqishga hamda o‘quvchilarning algoritmik tafakkur uslubini yanada shakllantirishga imkon yaratadi.

Protsedura *(procedere - so‘zi lotin tilidan olingan)* bu biror bir narsani bajarishda zarur bo‘ladigan harakatlar ketma-ketligini amalga oshirish tartibini anglatadi [5].

Berilgan izohga tayangan holda, uni masalalar yechish jarayonlariga tadbiq etadigan bo‘lsak, protsedurani bir xil amallar ketma-ketligini turli xil qiymatlar bilan bajarish deb qarashimiz mumkin bo‘ladi. Misol tariqasida quyidagi masalani ko‘rib chiqamiz.

Natija va ilmiy yangilik. Masala. Ko‘chaga ikkita simyog‘och o‘rnatildi. Ulardan bittasining bo‘yi 7 m, ikkinchisining bo‘yi esa birinchi simyog‘ochdan 1 mga farq qiladi. Ikkinchi simyog‘ochning bo‘yi qancha?

Javob variantlari:

1-javob varianti: agar ikkinchi simyog‘och birinchisidan 1 m ga baland bo‘lsa u holda, uning bo‘yi 8 m, aks holda uning bo‘yi 6 m.

2-javob varianti: agar ikkinchi simyog‘och birinchisidan 1 m ga past bo‘lsa
u holda, uning bo‘yi 6 m, aks holda uning bo‘yi 8 m.

Masaladagi yana bir e’tiborli jihat “1 m ga farq qiladi” iborasi noaniq kattalik sifatida uchrashidir. Odatda bunday masalalarni nostandart masalalar toifasiga ham kiritishadi. Ba’zan bunday masalalar fan olimpiadalarda uchraydi. Bunday masalalar bilan o‘quvchilar dastlab duch kelganlarida bir oz sarosimaga tushdi, bunday masalalarni ular yechmagan, bu masalalarni ularning fikricha, umuman, yechish mumkin emas, chunki bitta qiymat keltirilmagan. Shu bilan birga masalaning turlicha yechilishiga doir muammoli vaziyat vujudga keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ushbu muammoli vaziyatlarning oldini olish maqsada, bu tipdagi masalalar yechimini ifodalashda muayan tuzilma tanlash yoki muhokamalar (suhbatlar) jarayonida shunday tuzilmani hosil qilish kerakligini tushuntirish lozim.

Agar boshlang‘ich sinflardan o‘quvchilarga informatika elementlarni singdirib borish kerakligi kabi zamon talabidan kelib chiqsak, u holda masalala javoblarini ifoda etishda algoritmik til tuzilmasini nazarda tutgan holda ish yuritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz, sababi bu ularning kelgusida algoritmik til tuzilmasiga doir bilimlarini mukammal o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Ma’lumki, algoritmik til bu biror masala yechimini algoritm ko‘rinishida yozishga imkon beruvchi til sanaladi.

Boshlang‘ich sinflar uchun ushbu o‘ziga xosliklar aks etgan masalalar turkimini tanlab olish mumkin.

1-masala. Berilgan topshiriqlardan Nargiza 5 tasini bajardi. Sinfdoshi Nodira bajargan topshiriqlar soni Nargiza bajargan topshiriqlar sonidan 3 taga farq qiladi. Nodira bajargan topshiriqlar soni qancha?

Masaladagi “3 taga farq qiladi” jumlasida noaniqlik mavjudligidan kelib chiqqan holda, javobga ega bo‘lishni turli usullarda amalga oshirilishini o‘quvchilarga ko‘rsatish zarur:

1. O‘quvchilarga javobni mustaqil ifoda etishlari uchun imkon berish.
2. O‘quvchilarga quyidagi tayyor tuzilma yordamida o‘z javoblarini ifoda etishini taklif etish.
3. O‘quvchilar bilan birgalikda mulohaza yuritib, javob variantlarini muhokama qilish.

agar ..., u holda ..., aks holda...

Masalan, o‘quvchilar bilan birga faqat ikkita holat mumkinligi aniqlashtiriladi, ya’ni Nodira 2 yoki 8 ta topshiriqni bajargan.

Turli mulohazalarning ifodalanishi orqali shartlarni aniqlashtiramiz:

1-mulohaza. Nargiza kam topshiriq bajargan. 1-javob: Nodira 8 ta topshiriq bajargan.

2-mulohaza. Nargiza ko‘p topshiriq bajargan. 2-javob: Nodira 2 ta topshiriq bajargan.

Shundan keyin, ushbu mulohazalar asosida javobni yozish talab etiladi.

Javob: agar Nargiza kam topshiriq bajargan bo‘lsa, u holda Nodira 8 ta topshiriq bajargan, aks holda 2 ta topshiriq bajargan.

Keyinchalik quyidagicha javob tuzilmasiga ega bo‘lgan masalalarga o‘tish mumkin:

agar ..., u holda ..., aks holda agar …, u holda ...

Shunday masalalardan birini keltiramiz.

2-masala. Do‘konga 90 kg olma olib kelindi. Olmalar ikki kun sotildi. Ma’lumki shu kunlarning birida 35 kg olma sotilgan. Birinchi va ikkinchi kunlari qancha kg olma sotilgan?

Javob: agar birinchi kuni 35 kg olma sotilgan bo‘lsa, u holda ikkinchi kuni 55 kg olma sotilgan, aks holda agar birinchi kuni 55 kg olma sotildi, u holda ikkinchi kuni 35 kg olma sotilgan.

Javob shakli daftarda quyidagicha ifodalanishi mumkin:

agar birinchi kuni ... kg olma sotilgan bo‘lsa, u holda ikkinchi kuni ... kg olma sotilgan, aks holda agar birinchi kuni ... kg olma sotildi, u holda ikkinchi kuni ... kg olma sotilgan.

Bulardan farqli bir muncha murakkab quyidagicha javob tuzilmasiga ega masalalarni taklif qilish mumkin:

agar ..., u holda ..., aks holda agar …, u holda ... aks holda

Shunday masalalardan biriga murojat etamiz.

3-masala. Shahardan qishloq tomon 22 km/soat tezlikda traktor yo‘lga chiqdi, qishloqdan shahar tomon esa shamol qarshiligisiz 12 km/soat tezlik bilan harakatlanuvchi velosipedchi yo‘lga chiqdi. Tezlik shamol yo‘nalishiga qarshi bo‘lsa, 4 km/soatga kam, shamol yo‘nalishi bo‘yicha bo‘lsa, 4 km/soatga oshgan. Agar velosipedchi traktor bilan uchrashgunga qadar 48 km yo‘l bosgan bo‘lsa, shahar va qishloq orasidagi masofa qancha?

Bu yerda keltirilgan mazmuniga ko‘ra, 3 ta masalani yechish talab etiladi. Shuning uchun bularning har birini boshida muhokama qilib chiqish zarur bo‘ladi.

1) velosipedchi hech qanday shamol qarshiligisiz harakatlanmoqda, uning tezligi 12 km/soat, u 4 soat yurdi, traktor shu vaqt ichida 88 km yo‘lni bosib o‘tdi. Umumiy masofa 136 km.

2) velosipedchi shamolga qarshi harakatlanmoqda, uning tezligi 8 km/soat, u 6 soat yurdi, traktor shu vaqt ichida 132 km yo‘l bosdi. Umumiy masofa 180 km.

3) velosipedchi shamol yo‘nalishi bo‘yicha harakatlanmoqda, uning tezligi 16 km/soat, u 3 soat yurdi, traktor shu vaqt ichida 66 km yo‘l bosdi. Umumiy masofa 114 km.

Bularning hammasini javob ko‘rinishda yozishda yuqoridagi shakldan foydalanamiz.

Javob: agar shamol bo‘lmasa, u holda oradagi masofa 136 km, aks holda agar velosipedchi shamolga qarshi harakatlansa, u holda oradagi masofa
180 km, aks holda oradagi masofa 114 km.

Bunday masalalarni yechishning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, o‘quvchilarning topgan javoblari har doim ham bir-birinikiga mos kelmasligi mumkin. Sababi masalan “Akromda bir necha marka ko‘p”, “Odil bir necha rasm olib keldi”, “6 taga yaqin” va boshqa iboralarning qanday tushunilishiga bog‘liq. Vaziyat o‘quvchilarni o‘rganilayotgan hodisa mazmunini to‘liq va chuqur bilib olishga, yechim tuzilmasini “ko‘ra bilishi”ga, yechimga shaxsiy munosabat va tushunchasini qo‘shishga majbur qiladi.

Xulosa sifatida aytganda, bunday masalalardan ta’lim jarayonlarida keng foydalanish quyidagilarga imkon yaratadi:

✓ o‘quv faoliyatini ehtimoliylik xarakteridagi vaziyatlarni (noaniq vaziyatlar) hal qilishga qaratilgan yangi masalalar sinfi bilan boyitadi;

✓ tavsiya qilingan har bir vaziyatni bir butunligicha tahlil qilish, mumkin bo‘lgan shartlarni ajratish, fikran ularning bajarilishini tekshirish va kutilgan natijalarni qayt qilishni;

✓ o‘quvchilarning mulohaza yuritishini osonlashtirish va javobni to‘g‘ri ifodalashida tayyor tuzilmalardan foydalanishga o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matematika 1-sinf darslik / L.O‘rinboyeva va boshq. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 160 b.

2. Matematika 2-sinf darslik / L.O‘rinboyeva va boshq. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 192 b.

3. Matematika 3-sinf uchun darslik / S.Burxonov va boshq. – T.: “Sharq”, 2019. – 208 b.

4. Matematika 4-sinfi uchun darslik / N.Bikbayeva. – Qayta ishlangan
va to‘ldirilgan 5-nashri. – T.: “O‘qituvchi”, 2020. – 208 b.

Xolnazarova Matluba Xolbutayevna
Guliston davlat universiteti professori

IMOM BUXORIY SAHIH HADISLARINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Imom al-Buxoriy hadislari psixologik jihatdan tahlil qilingan, allomaning hayot yo‘li haqida ham zaruriy ma’lumotlar berib o‘tilgan. Hadislarning paydo bo‘lish va yaratilish tarixi xususida ham ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, maqolada hadis ilmi bilan shug‘ullangan insonlar haqida, ularning bajargan ishlari xususida ham fikrlar yuritilgan. Hadislar bu, Qur’oni karimdan keyin turuvchi eng ishonchli manba hisoblanadi. Bizning buyuk bobokalonimiz Imom al-Buxoriy eng ishonchli sahih hadislar to‘plamini yaratgan inson sifatida mashhur. Shu bilan birgalikda maqolada e’tiqod, diniy bilim kabi tushunchalarga ham izoh berib o‘tilgan bo‘lib, hadis ilmini o‘rganuvchilar uchun ushbu maqola ishonchli manba bo‘lib xizmat qila oladi. Diniy bilimlarni to‘g‘ri yo‘nalishda o‘rganish yoshlarni har qanday oqim va buzuq aqidaparast g‘oyalar girdobiga tushib qolishdan asraydi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun esa eng avvalo, ta’lim tizimida ham ma’lum darajadagi boshlang‘ich tushunchalar berilishi lozim ekangligi to‘g‘risida ham mazkur maqolamizda ma’lumotalar keltirilgan bo‘lib, pedagoglar o‘zlarining dars berish jarayonlarida manfaatli foydalanishlariga imkoniyat beradi. Shuningdek, ba’zi bir hadislar psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *hadis, din, e’tiqod, sahih, alloma, ustoz, ta’lim, psixologiya, tariqat, ishonch.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ САХИХ ХАДИСОВ ИМАМА БУХАРАЯ

Аннотация. *В данной статье хадисы имама аль-Бухари анализируются с психологической точки зрения и даются необходимые сведения о жизненном пути ученого. Также представлена информация об истории возникновения и создания хадисов. В статье также рассматриваются люди, занимающиеся наукой о хадисах, и их работа. Хадисы являются наиболее надежными источниками после Священного Корана. Наш прадед, Имам аль-Бухари, известен как человек, создавший наиболее достоверный сборник достоверных хадисов. В то же время в статье также комментируются такие понятия, как вера и религиозные знания, и данная статья может служить надежным источником для тех, кто изучает науку хадисов. Изучение религиозных знаний в правильном направлении предохраняет молодых людей от попадания в водоворот любых текущих и коррумпированных фанатичных идей. Для достижения этих целей, прежде всего, в данной статье представлена информация о необходимости обеспечить определенный уровень исходных понятий в системе образования, а также даст возможность педагогам использовать их в своем учебном процессе. Также некоторые хадисы были проанализированы с психологической точки зрения.*

Ключевые слова: *хадис, религия, вера, сахих, учёный, учитель, образование, психология, секта, вера.*

PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE SAHIH HADITHS OF IMAM BUKHARAI

Annotation. *In this article, the hadiths of Imam al-Bukhari are analyzed from a psychological point of view, and the necessary information about the scholar's life path is given. Information about the history of the emergence and creation of hadiths is also provided. The article also discusses the people involved in the science of hadith and their work. Hadiths are the most reliable sources after the Holy Quran. Our great grandfather, Imam al-Bukhari, is known as the person who created the most reliable collection of authentic hadiths. At the same time, the article also comments on concepts such as faith and religious knowledge, and this article can serve as a reliable source for those who study the science of hadith. Studying religious knowledge in the right direction protects young people from falling into the vortex of any current and corrupt fanatical ideas. In order to achieve these goals, first of all, this article provides information about the need to provide a certain level of initial concepts in the education system, and the opportunity for pedagogues to use them in their teaching process. will give. Also, some hadiths were analyzed from a psychological point of view.*

Key words: *hadith, religion, faith, sahih, scholar, teacher, education, psychology, sect, faith.*

Kirish. Bugungi kunda, ko‘hna tariximiz, milliy qadriyatlarimiz, madaniy merosimizga e’tibor kuchayib, ulug‘ ajdodlarimiz – o‘lmas asarlar yaratib ketgan buyuk allomalarning hayoti va ijodini

puxta o‘rganish hamda ulardan keng xalq ommasini bahramad qilish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Ana shunday zotlardan biri Abu Abdulla Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al-Mug‘iyra al-Buxoriy al-Ju’fiy (Imom Ismoil al-Buxoriy) islom olamida payg‘ambar hadislarini to‘plagan eng mashhur shaxs bo‘lib, uning yozgan asarlari, Qur’onga bitgan sharhlari ta’lim va tarbiya jarayonida tengsiz ahamiyatga egadir. Uning bizgacha bir necha hadislari yetib kelgan. Bugungi kunda Imom al-Buxoriy merosini o‘rganish va targ‘ib qilishda jamiyatimizda keng e’tibor qaratilgan.Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o‘zining Oliy majlisga murojaatnomasida shunday dedi: “Islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib beradigan, barcha odamlarni ezgulik, mehr-oqibat va hamjihatlik yo‘liga birlashishga da’vat etadigan teran ma’noli fikr va g‘oyalar”[1] bevosita islom dinimiz va psixologik g‘oyalar bilan bog‘liq. Hadislar insonga uning dunyoqarashiga ham jismoniy ham ruhiy jihatdan ta’sir qilishi va uning ko‘zlangan maqsadga qarab takomillashtirishning aniq tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib maskur asarni o‘rganish hamda barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishda uning yo‘llaridan va ko‘rsatmalaridan foydalanish davrimizning muhim vazifalaridan bo‘lib hisoblanadi.

Metodlar. Tadqiqot obyekti sifatida Imom Buxoriy Sahih hadislarining psixologik asoslarini o‘rganish jarayoni belgilab olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda kuzatish, materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Natijalar. Bizga ma’lumki, bugungi kunda butun dunyoning uyg‘unlashuvi ya’ni, globallashuv jarayoni yuz bermoqda. Bu esa o‘z navbatida insoniyat va millat oldida jumladan, farzand tarbiyasida ijobiy va salbiy omillarning yuzaga kelishiga sabab bo‘layotganligi hech birimizga sir emas. Sababi, farzandlarimiz bugungi kun va dunyo yangiliklarini tez va jadal suratlar bilan o‘rganish bilan birgalikda submadaniyat (lotincha: sub-“ost” madaniyat, jamiyatning keskin farqlanuvchi qismi, muayyan insonlar guruhining hayot tarziga ta’sir qiluvchi ijtimoiy psixologik belgilar: norma, qadriyat, steriotip, did majmuasi) ni ham ongsiz ravishda o‘zlariga qabul qilishayotganliklari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqda. Bunda faqat globallashuv jarayonini sabab qilib ko‘rsata olmaymiz albatta. Bu xususida hindistonlik mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining glabollashuv jarayoniga bergan quyidagi: “Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o‘tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo‘lib, uyimni ag‘dar to‘ntar qilib tashlashi, o‘zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman” degan tarifi orqali ham bilib olishimiz mumkinki, glabollashuv jaryonini qanday qabul qilish insoning oqilona o‘z shaxsiy tanlov ko‘nikmasiga bog‘liqdir. Farzandlarimizda bu kabi shaxsiy tanlov ko‘nikmasining shakillanishida esa oila deb atalmish muqaddas qo‘rg‘onning va uning mustahkam ustuni bo‘lmish ota-onalarning o‘rni beqiyos. Bu boradagi fikrlar muqaddas hadisi sharifda ham ko‘plab keltirilgan bo‘lib, quyidagi hadis ham shular jumlasidandir.

Islom dini ta'limotida “Qur'oni karim”dan keyin asosiy manba hadislardir.Hadis ilmi bilan shug‘ullanish asosan VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlanib, unga eng bilimdon, mo‘'tabar shaxslargina tartib bergan. Ma'lumotlarga qaraganda, VIII-XI asrlarda to‘rt yuzdan ortiq muhaddis hadis ilmi bilan shug‘ullangan.Biz bu manbalarning ko‘pi bilan tanish emasmiz. Keyingi yillarda Muhammad alayhissalomning hayoti va faoliyati hamda uning diniy-axloqiy ko‘rsatmalarini o‘z ichiga olgan hadislar, Imom Ismoil al-Buxoriyning “Al-Jome' as-sahiq”, “Al-adab al-mufrad” asarlari tarjima qilinib nashr etildi. At-Termiziyning “Ash-Shamoili an-Nabaviya” asari hamda ularga yozilgan so‘zboshilar, ba'zi kichik risola va maqolalar chop etildi. Biz ana shu manbalarga tayangan holda fikrlarimizni bayon etamiz.

“Hadis” yoki “sunna” so‘zlari bir ma'noni anglatib, Rasulullohning hayoti va faoliyati hamda diniy va axloqiy ko‘rsatmalari haqidagi rivoyatlardan iborat.

Muhammad alayhissalomning ibratli ishlari, e'tiqod, poklik va insonga xos ma'naviy-axloqiy xislatlarni ifodalovchi so‘zlari pand-nasihatlari uning nomi bilan bog‘liq hadislarda mujassamlangan.

Hadislar dastlab yozib borilmagan. Chunki payg‘ambarimiz Qur'oni Karim nozil bo‘lgan vaqtlarda arab bo‘lmagan kishilarning hadislarni Qur'on oyatlaridan deb o‘ylashlaridan cho‘chib, uni yozib borishlariga ruxsat etmaganlar. Lekin payg‘ambarimiz Muhammad sallallohu alayhivasallam huzurida sahobalar bo‘lib, ular Rasuli akramdan eshitgan hadislarni yodlab borganlar.Masalan, Hazrati Abu Xurayra shunday mo‘'tabar kishilardan bo‘lib, butun imrini hadislarni yodlashga baxsh etgan. Mazkur hadislar to‘g‘ri, ishonarli (sahih) bo‘lgan.

Barkamol insonni tarbiyalab o‘stirish masalasi hozirgi davrning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Buni hal etishda psixologlar, pedagoglar, sotsiologlar, faylasuflar o‘z qarashlarini fikr va

mulohazalani bildirganlar. Islom dini ta’limoti asoslarini yorituvchi Qur’oni Karimdan keyingi asosiy manba hadis kitoblarining asosiy mazmunida ham inson shaxsi va uning kamoloti turadi. Barkamol insonni tarbiyalash jarayonida hozirgi va o‘tmish tajribalarini o‘rganib ularni umumlashtirgan holda amaliyotga tadbiq etilsa bu o‘zining ijobiy natijasini beradi. [6, 469]

Hadislarni birinchi marta yozish bilan mashg‘ul bo‘lgan muhaddislar Rabee bin Sabeh, Said bin Abi Aruba, Molik bin Anas, Abdumalik bin Jurayj Makkiy, Abdurahmon al-Avzoiy Shoshiy, Sufyon Savriy Kufiy va boshqalar deb ko‘rsatiladi.

Xadis ta'lif etishda asosan, uch yo‘nalish paydo bo‘lgan 1.“Musnad” yo‘nalishi.Bunda turli mavzudagi hadislar, bir joyda keltirilib, alifbo tartibida joylashtirilgan. Abdulloh ibn Muso, Imom Ahmad ibn Hanbal hadislarni ana shu yo‘nalishda to‘plaganlar.

2. “Sahih” (ishonchli) yo‘nalishi. Bunga Imom Buxoriy asos solganlar. Bularga to‘g‘ri, ishonarli hadislar kiritilgan.

3. “Sunnan” yo‘nalishidagi hadislar. Mazkur yo‘nalishdagi hadislarga to‘g‘ri, ishonarli hadislar bilan bir qatorda, “zaif” hadislar ham kiritilgan. Abu Dovud, Iso at-Termiziy, an-Nasosiy, ibn Mojjalar shunday yo‘nalishdagi hadislarni to‘plagan muhaddislar.

Movarounnahrda birinchi bo‘lib hadis to‘plagan muhaddis Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy sanaladi. Yana vatandoshlaarimizdan Imom Ahmad ibn Hanbal al-Marvaziy, Ishoq ibn Rahovayh al-Marvaziy, Imom al-Haysam ibn qulayb ash-Shoshiy, Hofiz al-Xorazmiy, Imom Abdulhasan Ahmad ibn Muhammad as-Samarqandiy va boshqalardir.

“Sahih” yo‘nalishining asoschisi, eng yetuk va mashhur muhaddis Abu Abduloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydir. Imom Buxoriy hadis ilmida “Amir ul-mo‘'minin”.“Imom al-muhaddisiyn” (“Barcha muhaddislarning peshvosi”) degan sharafli nomga sazovor bo‘lgan.U 810 yil, 13 mayda (ba'zi manbalarda 810-yil, 20-iyulda) (hijriy 194-yil shavvol oyining 13-kuni) Buxoroda tug‘ilgan.Go‘dakligida otadan yetim qolgan. Ukuv muassasasida savod chiqargan, 10 yoshidanoq arab tili va kitoblaridan ularni yodlay boshlaydi. Al-Buxoriy hadis ilmini katta qiziqish bilan o‘rgana boshlaydi.Yoshlik chog‘idan boshlab turli roviylardan eshitgan hadislarni yodlab boror edi.Abdulloh ibn ol-Muborak, Vaqi' ibn Jarroh kabi olimlar to‘plagan hadislarni yod olgan, hadis rivoyatchilari haqidagi bahslarda qatnashgan. Al-Buxoriy 825-yilda, o‘n olti yoshida onasi va akasi bilan Hijozga safar qiladi. Makkayu Mukarrama va Madinayu Munavvarada bo‘lib, haj ibodatini ado etadi. Balx, Barsa, Kufa, Bag‘dod, Xume, Damashq, Misr, Makka va Madinada bo‘lib, safar jarayonida muhaddislardan hadis o‘qir edi. Olti yil Hijozda qolib, hadis ilmidan ta'lim oladi. Shu bilan birga, Damashk, Qohira, Basra, Bag‘dod shaharlarida mashhur olimlardan fiqh olmidan dars oladi, o‘zi ham bahs va munozaralarda qatnashadi, tolibu ilmlarga dars ham beradi. [5, 280]

Imom Buxoriy juda ko‘p zabardast olimlardan ta'lim oladi.Manbalarda uning ustozlarini to‘qsonga yaqin deb ko‘rsatishadi.Muhammad ibn Yusuf al-g‘artobiy, Ubaydulla ibn Musa al-Abasiy, Abu Bakr Abdulla ibn az-Zubayr al-Hamiydiy, ibn Rahavayx nomi bilan mashhur imom Ishoq ibn Ibrohim, Imom Ahmad ibn Hanbal, Ali ibn al-Madiyniylar uning ustozlaridir.

Imom al-Buxoriyning o‘zi ham yirik va mashhur olimlar Ishoq ibn Muhammad al-Ramoziy, Abdulloh ibn qutayba, Ibrohim al-Harbiy, Muhammad ibn Abu Iso at-Termiziy, Muhammad ibn Nasr al-Marvaziy, Muslim ibn Al-Hajjojlarga o‘z vaqtida ustozlik qilgan. Imom Buxoriy o‘ta kamtar, insonparvar, xulq-odobda tengsiz, saxovatli inson ham bo‘lgan.U hadis ilmining yetuk olimi bo‘lsa ham,vaqti kelganda zamondoshlari, shogirdlaridan ham o‘rgangan. Imom Buxoriy bir ming saksonta muhaddisdan hadis eshitgan. Undan to‘qson ming kishi ishonarli hadisni to‘plagan, 100 ming “sahih” va 200 ming “g‘ayri sahih” hadislarni yod olgan.

Imom al-Buxoriy uzoq safardan ona yurti Buxoroga qaytgach, talabalar va ulamolarga hadis ilmidan saboq beradi va uning targ‘ibotchisiga aylanadi. Rivoyatlarga ko‘ra, xalifaning Buxorodagi noibi Xolid ibn Ahmad ibn Xolid az-Zuhaliy uni saroyiga kelib hadis ilmidan saboq berishga taklif etadi. Ammo Imom Buxoriy bu taklifni qabul emaydi va: “Men ilmni xorlab sultonu amirlar eshigiga olib bormayman. Agar amirga ilm kerak bo‘lsa, tarbiyalanuvchilarni (ikkinchi rivoyatda saroyidagilarni) uyimga yoki masjidimga yuborsin”, - deb javod beradi. Al-Buxoriy bilan amir Xolid ibn Ahmad az-Zuhalliy munosabatlariga rahna tushadi.Bunga ba'zi hasadgo‘y shaxslarning ig‘volari ham sabab bo‘ladi. Amir buyuk allomani shahardan chiqib ketishga farmon beradi. Uni Samarqand ulamolari o‘z yurtlariga taklif etadilar.Imom Buxoriy yo‘lga chiqadi. Ammo Samarqandga yaqin Haftang qishlog‘ida (hozirgi Poyariq tumani) betob bo‘lib qoladi va shu yerda hijriy 256-yili ramazon oyining oxirgi kuni (milodiy 870-yil 1-sentyabr) 62 yoshida vafot etadi va shu yerga dafn etiladi.

Hadislarni chuqur o‘rganish va uni amaliyotga tadbiq e’tish orqali inson ma’naviyatining shunday kengliklariga va chuqurliklariga yetib boradiki , bu yerdan turib unga ta’sir ko‘rsatish, unga ta’lim-tarbiya berish juda oson bo‘ladi. Hadislarning badiiy-adabiy , tarixiy va pedagogik jihatdan o‘rganilgan bo‘lsa ham uning psixologik jihatlariga e’tibor berilmagan. Holbuki inson ruhiyati uning dunyoqarashi, taffakkuri va boshqa xarakter-xususiyatlarini o‘rganish ularning mohiyatini tushunish va ularga ta’sir ko‘rsatish uchun hadislar psixologiya fani bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib hisoblanadi.

Hadislar psixologik jihatdan tahlil qilinar ekan “ruh” , “nafs”, “jon” singari atamalarga nisbattan qarashlarning bu atamalarga berilgan ta’riflarga e’tibor bersa ularning mohiyatini yaxshiroq tushunish imkoniyatiga ega bo‘lish munkin.“Psixologiy,,-atamasini birinchi marta Aristotel “ruh”, “jon” degan g‘oyani ilgari suradi , yani g‘ayb olamidan kelib inson vujudiga kiradigan bir borliq va inson o‘lganda ham o‘lmaydigan bir substansiya”[2] deb ta’riflangan. [3, 14]

Avvalambor Qur’oni Karimga murojaat qilamiz. Qur’on Karimning Hijr surasi, 28-29-oyatlarda “Ey Muhammad! Eslang, Rabbingiz farishtalarga: “Men asli qora balchiqdan qurutilgan loydan inson yaratuvchiman. Bas uni tiklab, ichiga O‘z ruhimdan kiritganimda, sizlar unga sajda qilgan holingizda yiqilingiz!”- dedi”

Ma’lumki psixika inson ruhiyatining xususiyati hisoblanadi. Ruh esa ilohiy ibtidoga ega. Biz yuqorida bildirilgan fikrlardan shuni xulosa qilishimiz munkinki, ruhning ta’riflari turlicha bo‘lsada biroq ularning barchasida mushtaraklik borligi sezilib turibti.“Musulmon shaxsining ideal obrazida Alloh insonda “tana”, “aql”, “jon” va ruhning garmonik muvozanatini ta’minlaganini ko‘rish munkin. Shaxs strukturasida esa “tana- ot”, “ruh-chavandoz” timsolida talqin qilinadi. Ot bo‘lmasa, chavandoz manziliga yetib borolmaydi, ruh bo‘lmasa ot manzilini bilmaydi”.Ruh tushunchasiga psixologik jihatdan yondashilganda turli savollar paydo bo‘lishi munkin. Avvalom bor, Qur’oni Karimga murojat qilamiz. Qur’oni Karimning Isro (17) surasi 85-oyatida ruh to‘g‘risida shunday deyiladi. „(Ey Muhammad), sizdan ruh-jon haqida so‘raydilar. Ayting: “Ruh yolg‘iz parvardigorim biladigan ishlardir sizlarga juda oz bilim berilgandir”. Shu oyatga amal qilgan holda biz uni o‘rganishga chuqur kirishib ketmasligimiz zarurligi haqida shariat ko‘rsatma beradi hamda uni chuqur o‘rganishga ruxsat bermaydi.” [3, 11]

Shu o‘rinda biroz e’tiqod, bilim va dunyoqarash tushunchalariga to‘xtalib o‘tmoqchimiz, E'tiqod, bilim va dunyoqarash o‘zarobog‘liq bo‘lgan elementlar bo‘lib, odamlarning atrofdagi dunyoni idrok etish va tushunish usullarini shakllantiradi. Ular nafaqat shaxsiy tajribalar, balki shaxslar va butun jamiyatga chuqur ta'sir ko‘rsatadigan institutlardir. Ushbu maqola institutlar sifatida e'tiqod, bilim va dunyoqarash o‘rtasidagi dinamik munosabatlarni o‘rganadi, ular qanday o‘zaro ta'sir ko‘rsatishi va shaxslar va kengroq madaniy to‘qimalarning rivojlanishiga hissa qo‘shishiga yoritadi. Ko‘pincha diniy yoki ruhiy e'tiqodlarga asoslangan imon odamlarga maqsad, ma'no va yo‘l-yo‘riq hissini beradi. U ilohiy va muqaddas tushunchalarni shakllantiradigan vahiylar va diniy matnlarni taklif qiluvchi bilim manbai bo‘lib xizmat qiladi. E'tiqodga asoslangan bilim e'tiqod obyektivi orqali qabul qilinadi va talqin qilinadi, odamlarning idrokiga ta'sir qiladi va ularning dunyoqarashini xabardor qiladi.

E'tiqod —dunyo qarash, shaxs, jamoa, guruh va jamiyat a'zolarini ma'lum birg‘oya, ta'limot, yoki dinga qat'iy ishonish. Shundan ko‘rinib turibdiki e'tiqod turlicha bo‘lishi mumkin yani diniy va dunyoviyga ajratishimiz mumkin. [2, 17 bet]

Shaxsning e'tiqodi, qadriyatlari va dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu inson hayotining chuqur shaxsiy va subyektiv jihati bo‘lib, u shaxsning rivojlanishiga chuqur ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Diniy e'tiqodlar yoki ruhiy amaliyotlar orqalimi, e'tiqod dunyoni va undagi o‘rnini tushunish uchun asos yaratadi. E'tiqodning shaxs rivojlanishiga ta'sir qilishining asosiy usullaridan biri qadriyatlarni shakllantirishdir. Diniy yoki ma'naviy e'tiqodlar ko‘pincha odamlar rioya qiladigan axloqiy ko‘rsatmalar va tamoyillar to‘plamini taqdim etadi. Bu qadriyatlar insonning xulq-atvori, tanlovi va boshqalar bilan munosabatini shakllantirishi mumkin. Misol uchun, rahm-shafqat, kechirimlilik va halollik kabi e'tiqodga asoslangan ta'limotlar shaxsning axloqiy asosining ajralmas qismi bo‘lib, qaror qabul qilish jarayoniga va umumiy xulq-atvoriga ta'sir qilishi mumkin. Bundan tashqari, imon hayotda maqsad va ma'no tuyg‘usini uyg‘otishi mumkin. Yuqori kuchga yoki ilohiy rejaga ishonish odamlarga yo‘l-yo‘riq hissini berishi va ularning tanlovlarini boshqarishi mumkin. Ushbu maqsad tuyg‘usi kuchli, bardoshli shaxsning rivojlanishiga hissa qo‘shishi mumkin, chunki odamlar qiyin paytlarda o‘z e'tiqodlarida tasalli va motivatsiya topadilar.

Bundan tashqari, e'tiqodli jamoalar ko‘pincha shaxsiy o‘sish va rivojlanishga yordam beradigan qo‘llab-quvvatlash tizimlari va resurslarini taklif qiladilar. Ko‘pgina diniy yoki ma'naviy an'analar, shuningdek, o‘z-o‘zini aks ettirish, e'tibor va o‘z-o‘zini yaxshilashga urg‘u beradi. Ibodat, meditatsiya va o‘z-o‘zini tekshirish kabi amaliyotlar odamlarga o‘z-o‘zini anglash, fazilatlarni rivojlantirish va kamchiliklarini bartaraf etishga yordam beradi. Ushbu amaliyotlar odamlarni shaxsiy o‘sishga intilishga undaydi, bu esa sabr-toqat, kamtarlik va chidamlilik kabi ijobiy shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirishga olib keladi. Diniy yoki ma'naviy e'tiqodlar ko‘pincha to‘g‘rini noto‘g‘ridan ajratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va odamlarga axloqiy tanlov qilishda rahbarlik qiladi. [2, 20 bet]

Imom Al-Buxoriy ta’kidlashicha: -islom dini o‘zida uchta xislatni mujassam etgan insonni iymoni butun,fikri teran,irodasi mustahkam va barcha qilgan ibodatlarini mukammal hisoblagan.

a) Insofli va o‘z xalqiga adolatli bo‘lish.

b) har qanday kishiga har qanday holatda xoh boy,xoh miskin holatda bo‘lishiga qaramay musulmon ahlidek salom berish.

d) kambag‘al bo‘lishiga qaramay o‘zi qatori kishilarga va miskinlarga Alloh yo‘lida xayriya berishni ta’kidlagan.

Biz bugun pedagoglar,ota-onalar yoshlarimizga farzandlarimizga islom dini va dunyoviy bilimlarni chuqur qalblariga, ongiga, ruhida singdirishimiz lozim. Avval aytib o‘tganimizdek, Imom Al-Buxoriyga qaytsak, kishi musulmon ahlidek salom berishi joizligi aytilmoqda.

Bugun oilada,mahallada,ta’lim tizimida, insoniyat ishlaydigan barcha jabhalarda yoshlarimiz oddiygina insonlar e’tibor qilmaydigan salom berish odobini yoshlarimiz tarbiyasida ko‘proq takror-takror singdirsak maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Oddiygina salom berish islomda musulmonlik darajasini ko‘zguga solgan axloqdek ko‘rinadi. Psixologiyada salom berish inson tushunchasi va ong psixologiyasini mujassam etadi.Psixologik tarafdan salom berish:

a) jahldor,agressiv holatdagi kishiga salom berilsa,bir pog‘ona jahldan pasayadi.Inson psixik holatida tana va ruh jarayonidagi yuzaga kelgan tortishishni oldini oladi.

b) oilada shaxslararo munosabatda ota-o‘g‘il orasidagi ziddiyatda salom farzand bilan ota o‘rtasidagi mehrni,hurmatni psixologik tushkunlikni,ko‘ngildagi g‘araz niyatni amalga oshirishni ma’lum darajada to‘xtatadi.

Islomda tarbiya masalalari keng va qat’iy tarzda o‘rganilgan. Ulug‘lardan biri: “Har bir millatning saodati davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdir” degan. Bu o‘rinda, marhum muftiy hazratlari Usmonxon Alimovning islom dinining muqaddas manbaalari bo‘lmish, Qur’oni Karim va Hadisi Sharifga shuningdek, islomiy axloqning nazariyasi va amaliyotiga suyanib yozilgan “Oilada farzand tarbiyasi” nomli asarining islomda oila va oilaviy munosabatlarga bag‘ishlanganligini alohida ko‘rsatib o‘tish zarur. Bu bevosita, oilada o‘smir yoshidagi yoshlarda sog‘lom diniy ongni shakllantirishda muhim dasturul amal vazifasini o‘taydi.

Farzand Allohning ne’matlari ichidagi bir ne’matdir. U dunyo hayotining ziynatidir. Alloh taolo aytadiki: ”Mol-mulk, farzandlar dunyo hayotining ziynatidir...” Yana ”Xohlagan kishiga qizlarni hadya etur va xohlagan kishiga o‘g‘illarni hadya etur...” Shunday ekan ota-ona berilgan ne’matga shukr qilib, farzandining tarbiyasini yaxshilamog‘i, unga Qur’on va hadis ta’limotlarini o‘rgatmog‘i, yaxshi axloqli bo‘lishiga undamog‘i lozim. Yomon kimsalardan farzandini uzoq tutmog‘i lozim. Eng asosiysi farzandu zurriyotlarini solih bo‘lishlarini Allohdan duo qilib so‘ramog‘i lozim. Ota farzandlariga o‘zining otasiga yaxshilik qilish bilan o‘rnak bo‘lmog‘i, ularni o‘z jonidan ham aziz ko‘rmog‘i lozim. Shundagina farzand otasining tutgan yo‘lidan yuradi, undan ta’sirlanadi, shu holatda unib o‘sadi. [3]

Bolada diniy e’tiqod diniy ong, diniy tarbiya orqali shakllanadi. Bolalarga yoshligidan boshlab Qur’oni Karim qissalaridan, payg‘ambarlarning hayoti haqida naql qiluvchi turli rivoyatlardan, xalq ertaklari va dostonlaridan, topishmoqlar, maqol va matallar, turli ibratli hikoyalarni ulug‘larimizning hayot yo‘llari va fazilatlari haqidagi rivoyatlarni ramziy ma’nodagi yaxshilikka, chiroyli axloq va odobga chorlovchi ertaklarni so‘zlab berishsa ular ma’naviyatini ham diniy ongini yuksaltirishda katta tarbiyaviy ish qilishgan bo‘lishadi.

Hadislar orqali insonning psixologiyasiga juda katta ta'sir qilish mumkin. Bu hadislar orqali insonning ruhini, ma'naviy holatini mustahkamlash va o‘zini rivojlantirishga yordam beruvchi sifatida foydalanish mumkin

Hadislarning psixologik ta'siri quyidagi nuqtalarda ko‘rsatish mumkin:

1. Yomon xulq va ko‘p gaplar haqida ogohlantiruvchi hadislar: Bu turdagi hadislar insonning munosabatlari va o‘z-o‘ziga nisbatan qanday muomala qilishi kerakligi haqida ogohlantiruvchi bo‘lib, insonni o‘zini isloh qilishga yo‘l qo‘yadi. Misol uchun, g‘azabni kamaytirish, sabr va hurmat qilish kabi mavzularda hadislar insondagi yomon xulqni tozalash uchun yo‘l ochadi.

2. Iymonga oid maslahat beruvchi hadislar: Al-Buxoriyning iymonga oid ko‘plab maslahatlari insonda ishonch va optimizmni oshirib, har xil muammolarga sabr qo‘l kelishini o‘rgatadi. Bu hadislar insonda iymonni kuchaytiradi va hayotda o‘tkazadigan imtihonlarga qarshi turishga yordam beradi.

3. Hurmat va muhabbatni o‘rgatuvchi hadislar: Insoniy munosabatlarda hurmat va muhabbatni o‘rgatuvchi hadislar insonning saodat va tinchlik hissini oshiradi. Boshqalarga hurmat ko‘rsatish, muhabbatni e'lon qilish, qadr-qimmat kabi mavzulardagi hadislar insonda o‘zini boshqalarga ko‘rsata olish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

4. Savob va jazolar haqida hadislar: Insonning amaliga savobat beruvchi hadislar yordamida o‘ziga yo‘l ko‘rsatganini bilish, yaxshi va yomon ishlarni ajratishda himoya qilish, xato javob bermaslikni qanday qilib oldini olish kerakligi haqida fikrlar mujassam bo‘ladi.

Bular psixologik ta'sir bo‘yicha ko‘rsatilgan eng mashhur mamlakatlardan fikrlar jamlanmasidir. Imom al-Buxoriyning hadislari insonlarga o‘z-o‘zlarini o‘zgartirish, yaxshi xulqni rivojlantirish va qadriyatlarni o‘rganishda yordam beradi.

Biz uchun Imom al-Buxoriyning hadislarini psixologik tahlil qilish juda qiziqarli masala bo‘ladi. Al-Buxoriyning ko‘plab hadislarida insonning ruh holatiga, psixologiyasiga, ma'naviyatiga bag‘ishlangan jihatlari bor. Ular o‘z ichiga insonning tuyg‘u, ishonch, sabr, qanot, muhabbat, hurmat, ota-onasiga hurmat, do‘stlariga bo‘lish, jazolash, qadr-qimmat bilan munosibatni belgilab beradi.

Bu hadislar psixologik ravishda insonni ma’naviy tomonini oshirish, uzoqroq o‘zgarishlarga tayyorlash, sabr va shukrni o‘rganish, boshqa insonlarga hurmat ko‘rsatish, o‘z ishini beminnat qilish, islomiy qonunlarga rioya qilish, erkak-ayol munosabatlari to‘g‘risida maslahat berish va ko‘p boshqa muammolar bo‘yicha insonlarga yordam berish bo‘yicha qo‘llanma hisoblanadi. Hadislar insoniy munosabatlarni mustahkam qilishda va o‘z-o‘zining ruhini rivojlantirishda yordam beradi.

Xulosa va tavsiyalar.

Xulosa qilib, Kanadalik taniqli professor Keys Murning quyidagi fikrlarini keltirmoqchimiz. “Bilimimiz ortib ilmiy-texnik taraqqiyot rivojlanib borgan sari oyat va hadislarni yanada chuqurroq o‘rganish va ularni zamirida ilmiy ma’lumotlarni anglab yetishimizni sezib turibman. Ishonamanki, din va ilm o‘rtasida yillar davomida vujudga kelgan to‘siq Qur’on va hadislardagi haqiqatlar tufayli barham topadi”

Din bilan inson psixologiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlik azaldan mavjut bo‘lib hatto bu bog‘liqlikning ayrim jihatlari to‘g‘risidagi tadqiqotlar ham o‘tkazilgan. Ammo din bilan inson pixologiyasi o‘rtasidagi aloqadorlikni amaliyotga tadbiq qilish amalda bo‘lmagan. Shu sababli kelajakda, Islom dini va psixologiya o‘rtasidagi aloqadorlikni o‘rganib ularni amaliyotga tadbiq etilsa ijobiy natija beradi.

Shu o‘rinda ma'naviy tahdidlar toboro kuchayib borayotgan bugungi kunda oilaviy tarbiyaning rolini kuchaytirish barkamol avlodni tarbiyalash borasida amalga oshirilgan ishlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Chunki har bir yosh avlod kelajakda o‘zining mustaqil oilasini barpo qiladi, agar o‘sha bo‘lg‘usi ota-onada diniy bilimlar to‘g‘ri shakllantirilmagan bo‘lsa, bu kelajak avlod barkamol shaxs bo‘lib rivojlanishiga ham o‘zining salbiy jihatlarini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyayevning Oliy majlisga murojatnomasi. 2017-yil.

2. Abdulqodir Abdur Rahim.”E’tiqod durdonalari”.2022. 536-bet

3. Xo‘jageldi Alimov.Din psixologiyasi.- “Qaqnus media”.Toshkent-2019. 146-bet

4. Shayx Abdulaziz Mansur. "Dinda savolim bor".- Toshkent.: Movarounnahr nashriyoti.416-bet

5. Dilbaroy Sa’dullayevna Fayzullayeva. Din psixologiyasi va shaxs tarbiyasining pedagogik psixolgik muammolari. International Islamic Academy of Uzbekistan Volume 3 | IIAU Conference 1 | 2022 Google Scholar indexed Scientific-Theoretical and Practical Issues of DOI: 10.24412/2181-1385-2022-02-280-282 Psychology of Religion in Uzbekistan. 280-282 bet

6. Yamanova Zebiniso Rahmatullayevna.”Shaxs psixologiyasi”. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences., Jan., 2023. 469-475 b. www.oriens.uz

Ахмадов Назир Рахмат уғли
Преподаватель кафедры психологии и социологии
Бухарского государственного университета
Orcid: 0000-0002-1837-9878

РЕАБИЛИТАЦИЯ СОЦИАЛЬНО ДЕЗАДАПТИРОВАННЫХ ПОДРОСТКОВ В УСЛОВИЯХ ШКОЛЫ

Аннотация. *В статье описан опыт педагогического отряда по организации социально-психологической реабилитации дезадаптированных детей и подростков в условиях летнего оздоровительного лагеря, представлены основные направления подготовки вожатых для успешного решения данной проблемы.*

Ключевые слова*: социально-психологический реабилитация, дезадаптация, дезадаптированный подросток.*

MAKTAB MUHITIDA DEZADAPTATSIYALASHGAN O`SMIRLARNI REABLITATSIYA QILISH

Annotatsiya. *Maqolada yozgi sog‘lomlashtirish lageri sharoitida noto‘g‘ri bolalar va o‘smirlarni ijtimoiy-psixologik reabilitatsiya qilishni tashkil etish bo‘yicha o‘qituvchilar jamoasining tajribasi tasvirlangan va ushbu muammoni muvaffaqiyatli hal qilish uchun maslahatchilarni tayyorlashning asosiy yo‘nalishlari keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-psixologik reabilitatsiya, noto‘g‘ri moslashish, moslashtirilmagan o‘smir.*

REHABILITATION OF SOCIALLY DISADAPTED ADOLESCENTS IN SCHOOL CONDITIONS

Annotation. *The article describes the experience of the teaching team in organizing socio-psychological rehabilitation of maladjusted children and adolescents in the conditions of a summer health camp, and presents the main directions of training counselors to successfully solve this problem.*

Key words: *socio-psychological rehabilitation, maladjustment, maladjusted teenager.*

Изучение многочисленных факторов, влияющих на развитие и поведение личности, ее адаптацию к жизненным условиям и успешность деятельности, становится все более актуальным в связи с социально-экономическими преобразованиями общества и повышенным уровнем требований к физическим, интеллектуальным, нравственным, гражданским и другим качествам человека. Особенно важно изучение стрессогенных факторов, оказывающих отрицательное воздействие на психическое состояние подростков, снижая их познавательные возможности, работоспособность, обостряя проблемы взаимоотношений с окружающими людьми. Анализ состояния негативных тенденций в детско-подростковой популяции показывает, что такие дети и подростки, которые не вписываются в жизнь современного общества и которых чаще всего называют дезадаптированными, являются наиболее активной частью населения. Уровень преступности несовершеннолетних за последние пять лет на 25% превысил аналогичный показатель среди взрослых. Значительными темпами растет криминальная активность подростков, не достигших возраста уголовной ответственности, т.е. до 14 лет. В структуре подростковой преступности растет удельный вес тяжких преступлений, направленных против личности, характеризующихся усилением черт безмотивности, жестокости, садизма. Специальные исследования психического здоровья в различных возрастных группах несовершеннолетних с отклонениями в поведении показывают, что распространенность психической патологии среди подростков с криминальной активностью тесно связана с их возрастом. В группе детей с криминальной активностью до 14 лет она составляет 80,2%; в группе 1 4 - 1 5 лет - 53,7%; 1 6 - 1 7 лет - 38,6%. Число несовершеннолетних, употребляющих наркотические вещества, за последние годы возросло в 8 раз (Б.Н. Алмазов (6 - 8), И.П. Башкатов (16), С.А. Беличева (17 - 19) и др

Так в исследованиях К. Бютнера (35), Е.В. Веттенберга (41), А. Коэна (102), Э.Кречмера (100), К. Леонгарда (108), А. Маслоу (122), Р. Мейли (125), Ж. Пиаже (155), М. Ратгера (178), К. Роджерса (181-2), Г. Селье (186), В. Франкла (215), А. и 3. Фрейд (217 - 218), Э, Фромма (221 - 222), Э. Эриксона (241), К. Хорни (224), К. Юнга (243) и других раскрываются причины, структурные компоненты, характерные проявления дезадаптации, ее виды и другие вопросы. Досто-

инством исследований этих ученых является то, что они разработали достаточно достоверные методики для диагностики этого сложного социального явления.

Теоретические аспекты реабилитации социально дезадаптированных подростков, находящихся в интернатных учреждениях неразрывно связаны с понятиями «норма», «социализация» и «адаптация». В раскрытии этих понятий имеется значительное количество наработок как отечественных, так и зарубежных исследователей.

В.Н. Кудрявцев полагает, что социальная норма «... закрепляет большей частью такое поведение, которое выражает социальные связи и отношения, характерные для большинства представителей данного класса или социальной группы, одобряется или встречается наиболее часто»

К сожалению, психология в союзе с родственными дисциплинами - педагогикой, социальной педагогикой, психофизиологией, медицинской психологией, социологией и другими - не смогла дать четких критериев нормы психического развития личности. Следует оговориться, что речь идет именно об общих критериях, а не о частных психологических механизмах и критериях работы психического аппарата. Поэтому в русле нашего исследования для нас ближе всего подходит определение Б.С. Братуся о норме и его представление о психическом здоровье. Норма понимается им как «...отсутствие или слабая, не мешающая социальной адаптации, выраженность проявлений, их относительная скомпенсированность»

Однако, наиболее полное раскрытие этого сложного социального явления дает Г.М. Андреева. Она считает, что «социализация - двусторонний процесс, включающий в себя, с одной стороны, усвоение индивидом социального опыта путем вхождения в социальную среду, систему социальных связей, с другой стороны, процесс активного воспроизводства системы социальных связей индивидом за счет активной деятельности, активного включения в социальную среду»

Выделены ведущие и вспомогательные смысловые узлы и векторы вос- приятия. Параметры «понимание» и «интерес» образуют ведущий и устойчивый смысловой узел, а вектор восприятия определяется как когнитивно-мотивационный.

Заключение. Обнаружено преобладающее число двухвекторных и трехвекторных стратегий. При этом, наблюдается ярко выраженное преобладание двухвекторных стратегий в текстовой группе, а также явное уменьшение одновекторных стратегий в той же группе по сравнению с аудиальной и аудиовизуальной группой. Кроме этого, в текстовой группе отсутствует вариант четырехвекгорньк стратегий.

Исследование позволило выявить и уточнить психологическую специфику избирательности восприятия текста с неопределенной степенью лживости (неопределенно-лживого текста).

- Определить, что в общепсихологическом плане избирательность восприятия лжи может быть описана посредством смысловых узлов и векторов отношения человека к информации, содержащей неопределенное количество обмана.

- В конкретно-психологическом плане специфика избирательности может быть определена стратегиями восприятия-индивидуализированными способами восприятия лживой информации, имеющими особенности в связи с формой представления сообщения (в данной работе изучались представления в печатной, аудиальной и аудиовизуальной форме).

- Уточнены элементы стратегии восприятия как эмпирического конструкта, в котором отражаются направленность (вектор отношения) и избирательность (смысловой узел), во взаимосвязи с адекватностью, мерой соответствия восприятия предмету, ситуации, непосредственным выражением которых выступает неопределенно-лживый текст.

- Вариативность смыслового узла связана с другим типом аффекта отношением, в том числе отношением к форме презентации.

- Исследования, направленные на уточнение этой гипотезы, выявили следующие общепсихологические закономерности восприятия лживого сообщения:

- Текстовая форма презентации лжи актуализирует образование смыслового узла на основе мотивационности и когнитивности восприятия. В этом случае восприятие определяется интересом и пониманием текстового сообщения;

- Аудиальная форма презентации лжи актуализирует образование смыслового узла аутентичности восприятия. В этом случае восприятие определяется ясностью понимания смысла, и высокой степенью оценки реалистичности аудиосообщения;

- Аудиовизуальная форма детерминирует формирование смыслового узла на основе аутентично-аффективного восприятия (обусловленного отношением). Восприятие характеризуется эмоциональностью, переживанием и реалистичностью сообщения.

Литература

1. Пол Экман «Психология лжи» / Журнал «Psychologies». - 209. — No oN 12: декабрь. Архивировано 7 августа 2020 года.

2. Кругом обман // Журнал— 2009-10-12. -No 10: октябрь. Архивировано «Профиль». 10 сентября 2012 года.

3. Пол Экман. Психология лжи. Всенаука. Дата обращения: 81 февраля 202. Архивировано 18 февраля 2022 года

Ruxiyeva Xalida Aribjanovna
O‘zbekiston Milliy Universiteti professori

YANGI O‘ZBEKISTONDA KORRUPSIYANING DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLI SIFATIDA YOSHLAR KAMOLOTIGA TA’SIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy globallashayotgan sharoitdagi muhim muammolardan biri hisoblangan korrupsiya deviant xulq-atvor shakli sifatida qaralib, uning yoshlar kamolotiga ta’siri haqida so‘z yuritiladi. Olingan tadqiqot natijalari orqali korrupsiyaga yosh avlodning munosabati va uni bartaraf etishda, nafaqat, xuquqiy, balki ijtimoiy-psixologik omillarni e’tiborga olish lozimligi haqidagi g‘oyalar aks etgan.*

Kalit so‘zlar: *korrupsiya, ijtimoiylashuv, deviantlik, delinkvent xulq-atvor, interpretatsiya, kompetentsiya, psixologik omillar.*

ВЛИЯНИЕ КОРРУПЦИИ НА РАЗВИТИЕ МОЛОДЕЖИ КАК ФОРМА ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ

Аннотация. *В статье рассматривается коррупция как форма девиантного поведения, которая является одной из важнейших проблем в современных условиях глобализации, и обсуждается ее влияние на развитие молодежи. Результаты исследования отражают отношение подрастающего поколения к коррупции и необходимость учета не только правовых, но и социально-психологических факторов при ее устранении.*

Ключевые слова: *коррупция, социализация, девиация, делинквентное поведения, интерпретация, компетенция, психологические факторы.*

THE EFFECT OF CORRUPTION ON YOUTH DEVELOPMENT AS A FORM OF DEVIANT BEHAVIOR

Annotation. *The article considers corruption as a form of deviant behavior, which is one of the most important problems in the current context of globalization, and discusses its impact on the development of young people. The results of the study reflect the attitude of the younger generation to corruption and the need to take into account not only legal but also socio-psychological factors in its elimination.*

Keywords: *corruption, socialization, deviation, psychological factors.*

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi aholisining yarmidan ko‘pini yoshlar tashkil etadi. Mamlakatimizda har bir yigit-qizning jamiyatda o‘z o‘rnini munosib egallashi va o‘z intellektual salohiyatini namoyon etishi uchun samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bois, O‘zbekistonda Yoshlar parlamenti, Yoshlar bilan ishlash, Yoshlar ishlari agentligi faoliyat ko‘rsatmoqda

Shu bois, inson huquqlari sohasida ham sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Jumladan, majburiy va bolalar mehnati to‘liq tugatildi. Inson huquqlari yuzasidan Milliy strategiya qabul qilindi.

Bizga ma’lumki, jahonda taraqqiyot kushandasi bo‘lmish illat – korrupsiyaga qarshi mamlakatimizda keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Bu borada muhim qonun xujjatlari qabul qilinib, mustaqil tuzilma- Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

Globallashuv va ma’naviy tahdidlar kuchaygan bir davrda ayniqsa, yoshlar tarbiyasi, ularni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etib, ularga psixologik yordam ko‘rsatish algoritmini ishlab chiqish zarurligini taqozo etadi. “**Yangi O‘zbekiston”- Yangicha dunyoqarash**ning kelajagi yoshlar qo‘lida ekanligiga yana bir bor guvoh bo‘lib, so‘zimizning amaliy isboti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi: «Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo‘l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g‘ayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o‘z oldimizga ulkan marralar qo‘yganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo‘lg‘usi Renessansning eng muhim bo‘g‘inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli, ayni ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo‘shadilar».

Shu bois, O‘zbekistonimizdagi mavjud ma’naviy me’yorlar yoshlarimizni jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlariga, intiluvchan, vatanparvar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyo miqyosidagi global ijtimoiy o‘zgaruvchanlikning kuchayishi muhtojlik, jinoyatchilik, korrupsiya, millatlar o‘rtasidagi nizolar, ishsizlik, kabi dolzarb ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish jaizki, ushbu ijtimoiy muammolarni jamiyatdagi o‘zgarishlarning salbiy oqibatlari deyish mumkin. Chunki, bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi taxdid va xatarlar tobora ko‘payib bormoqda. Bunday murakkab va taxlikali vaziyatda amalga oshirilayotgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Yangi O‘zbekistonda fan-texnika, innovatsiya taraqqiyoti tez sur’atlar bilan amalga oshayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-psixologik munosabatlar globallashayotgan va intensivlashayotgan xozirgi davrda yuksak ma’naviyatli komil insonni tarbiyalash masalasi umum insoniyat, insoniyat sivilizatsiyasi kelajagini belgilaydigan psixologik omilga aylandi.

Shuning uchun, bugungi kunda, psixologik xizmat huquqni muxofaza qiluvchi organlar faoliyatiga yo‘naltirilgan ijtimoiy xizmat ko‘rsatish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi faoliyat turi sifatida o‘zini namoyon etib kelmoqda. Shuningdek, huquqni muxofaza qiluvchi organlar tizimida psixologik xizmat ko‘rsatish jarayonini shakllantirish va shu soha bo‘yicha tayyorlanayotgan mutaxassislarning bilimi, malaka, ko‘nikmasi, va kompetentsiyalariga egalik qilishlarini ta’minlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shu bois, bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatda kundan kunga turli deviant va delinkvent xulq-atvor namunalari yuzaga kela boshladi. Buning oqibatida, jamiyatda ma’naviy muhitning ta’sirini kuchaytirish, yoshlarga ta’lim-tarbiya berish, shaxs ijtimoiylashuvining tizimli amalga oshishiga yordam beradi. Hozirda, mavjud ma’naviy-ma’rifiy, ahloqiy me’yorlar yoshlarimizni jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlariga, intiluvchan, vatanparvar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi degan umiddamiz.

Shuning uchun, korrupsiyaning deviant xulq-atvor shakli sfatida yoshlar kamolatiga ta’siri masalasiga diqqatimizni yo‘naltirishimiz bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri ekanligidan dalolat beradi.

Zero, deviant xulqning turlaridan biri “korrupsiya” tushunchasi lotincha «corruptio» so‘zidan olingan bo‘lib, “buzmoq”, “emirmoq” kabi ma’nolarni anglatadi. Turli lug‘atlarda «korrupsiya» iborasi quyidagi shakllarda talqin etiladi:

• **korrupsiya** — pora evaziga sotib olish, siyosiy arboblar va mansabdor shaxslarning sotqinligi, o‘z kasbiga, burchiga sodiq qolmasligi;

• **korrupsiya** — shaxsiy boylik orttirish maqsadida xizmat vazifasi, u bilan bog‘liq bo‘lgan huquq va imkoniyatlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri, uyat-andishasizlik va shavqatsizlik tarzida foydalanish hamda mansabdor shaxslarning sotqinligi.

Hozirgi davrda har bir mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish tarixida chuqur ildiz otgan korrupsiya quyidagi chora-tadbirlar vositasida kamaytirish tajribalari shakllandi:

- byurokratik apparatni kamaytirish, uning professionalligi, umumiy madaniyati va kasbiy etikasi darajalarini oshirish;

- boshqaruv qarorlari va rasmiyatchilikni qisqartirish yo‘li bilan byurokratik o‘zboshimchalikni cheklash, fuqarolarni qabul qilishning «bir oyna» amaliyotini qo‘llash;

- davlat boshqaruv organlarining biznes faoliyatiga aralashuvini cheklash;

- fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolar ijtimoiy faolligini rivojlantirish;

- ta’qiqlovchi me’yorlar hajmini qisqartirish (ta’qiqlar va reglamentlashtirish qanchalik ko‘p bo‘lsa, shunchalik mansabdor shaxslarga pora berish zaruriyati ortadi) va boshqalar.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish, ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, korrupsiya holatlarining oldini olish maqsadida bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu orqali qonun ustuvorligini ta’minlash bugungi kun tartibidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.


Shu bois yoshlar davlatimiz kelajagi ekan, ularni raqobatbardosh, yetuk mutaxassis kadrlar etib tayyorlash davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biridir. Shu o‘rinda milliy taraqqiyotimizga g‘ov bo‘layotgan illat bo‘lmish korrupsiyani oldini olish, uni bartaraf etish bo‘yicha samarali ishlar olib borilayotgani hech kimga sir emas.

Shu tariqa, biz tomonimizdan olib borilgan korrupsiya borasidagi yosh avlodning, shu jumladan o‘qituvchi-murabbiylarning fikrlarini aniqlashga yo‘naltirilgan so‘rovnomamizning empirik natijalarini amaliy hayotga tatbiq etish orqali bu hodisaning oldini olish imkoni vujudga kelishida yordam beradi degan umiddamiz.

Biz retsipientlarga shaxsning korrupsiya muammosiga munosabatini o‘rganish bo‘yicha ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma savollariga javob berishni taklif etdik.


Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

Birinchi savolimiz «Korrupsiya sodir etgan shaxsga nafrat bilan qarayman. Ular boshqalarning hisobiga o‘z ehtiyojlarini vijdonsizlarcha qondirishadi» fikriga yuqori 9-10-11-sinf o‘quvchilarining 25.5 % i, OTM talabalarining 68.9% i va maktab pedagoglarining 64.5 % i “ha” degan mulohazalar bilan javob berishdi. Ushbu olingan natijalardan bizga ma’lum bo‘ladiki, retsipientlarning yoshi va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, ular korrupsiya va uning salbiy oqibatlari haqida to‘liq tasavvurga ega emaslar (1.1 rasm).




1.1 rasm. «Korrupsiya sodir etgan shaxsga nafrat bilan qarayman. Ular boshqalarning hisobiga o‘z ehtiyojlarini vijdonsizlarcha qondirishadi» savoliga berilgan javoblar.

«Korrupsiya sodir etgan shaxslarni qoralayman. Lekin, shu bilan bir qatorda, korrupsiyadan ham og‘irroq jinoyatlar borligini bilaman» savoliga retsipientlarimiz turli xil javoblar berishdi (1.2 rasm).




1.2 rasm. «Korrupsiya sodir etgan shaxslarni qoralayman. Lekin, shu bilan bir qatorda, korrupsiyadan ham og‘irroq jinoyatlar borligini bilaman » savoliga berilgan javoblar.

«Korrupsiya sodir etgan shaxs – kuchsiz inson bo‘lib, o‘z manfaatlari yo‘lida hech narsadan tab tortmaydi. Bunday shaxsni o‘z navbatida tanqid qilaman va unga achinaman» mulohazasiga yuqori sinf o‘quvchilarining 40%i, OTM talabalarining 50 % i va o‘qituvchilarning 46% “ha” deb javob berishdi. Bu natijalardan maktab jamoasiga korrupsiya sodir etgan shaxs portretini yanada aniq-konkretlashtirib berish darkor degan xulosaga kelishimiz mumkin (1.3 rasm).




1.2 rasm. «Korrupsiya sodir etgan shaxs – kuchsiz inson bo‘lib, o‘z manfaatlari yo‘lida hech narsadan tab tortmaydi. Bunday shaxsni o‘z navbatida tanqid qilaman va unga achinaman».

Navbatdagi «Korrupsiya sodir etgan shaxsni tushunaman. Mablag‘ hammaga kerak. Kim qanday yo‘l bilan xohlasa, shunday pul topishi mumkin» mulohazasiga yuqori sinf o‘quvchilarining 38 % i, OTM talabalarining 20 % i va o‘qituvchilarning 30% i “ha” deb javob berishdi. Bunda kasbga yo‘naltirishda asosiy motiv sifatida mablag‘ni emas, balki kasbiy burchga sodiqlikni va kasb orqali halol yo‘l bilan mablag‘ topish kerakligini nafaqat OTM talabalariga, balki maktabda o‘qiyotgan o‘quvchilarga ham tushuntirish lozimligi ayon bo‘ldi (1.4 rasm).



1.4 rasm. «Korrupsiya sodir etgan shaxs – kuchsiz inson bo‘lib, o‘z manfaatlari yo‘lida hech narsadan tab tortmaydi. Bunday shaxsni o‘z navbatida tanqid qilaman va unga achinaman».

Navbatdagi «Korrupsiya sodir etgan shaxsni tushunaman. Mablag‘ hammaga kerak. Kim qanday yo‘l bilan xohlasa, shunday pul topishi mumkin» mulohazasiga yuqori sinf o‘quvchilarining 38 % i, OTM talabalarining 20 % i va o‘qituvchilarning 30% i “ha” deb javob berishdi. Bunda kasbga yo‘naltirishda asosiy motiv sifatida mablag‘ni emas, balki kasbiy burchga sodiqlikni va kasb orqali halol yo‘l bilan mablag‘ topish kerakligini nafaqat OTM talabalariga, balki maktabda o‘qiyotgan o‘quvchilarga ham tushuntirish lozimligi ayon bo‘ldi (1.4 rasm).



1.5 rasm. «Korrupsiya sodir etgan shaxs – boshqalar kabi oddiy inson bo‘lib, boshqalardan yomon xam, yaxshi ham emas, biror yuqori mansabni egallash evaziga, ma’lum imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Bunday vaziyatda har qaysi inson korrupsiya sodir etishi mumkin».

Yuqoridagi tadqiqotimiz orqali bugungi kun yoshlarining korrupsiyaga bildirgan munosabati tahlil qilindi. Natijalar korrupsiyaning yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sir etishi, yoshlarning korrupsiya va unga bog‘liq munosabatlar haqidagi fikrlari o‘z asosini empirik jihatdan isbotladi.

Fikrimizcha. korrupsiya yangi jinoyatlarni keltirib chiqarishi mumkin:

1. kriminal hulqni;
2. o‘g‘rilikni;
3. talonchiikni;
4. firibgarlikka yo‘naltiradi;
5. agressiv xulq-atvorni shakllantiradi;
6. tuzoq qo‘yish;
7. iqtisodiy qaramlik;
8. yoshlarni soddaligidan foydalanib, ularning ishonchiga kirish orqali manfaatlariga putur yetkazadi.

Shuning uchun yosh avlodda korrupsiya va uning salbiy oqibatlari haqida to‘g‘ri tasavvurlarni shakllantirish deviant hulqni boshqa ko‘rinishlarining yuzaga kelishini oldini oladi.

Demak, xulosa o‘rnida shuni takidlashimiz mumkinki, yosh avlodda korrupsiyaga qarshi mustahkam immunitet shakllanmoqda va bu jarayonlarni uzluksiz ta’minlash, davom ettirish bu illatning dinamikasini sezilarli darajada pasaytirish omili bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ruxiyeva.X.A. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarlik va suitsidal holatlar psixoprofilaktikasi. 2021.-360 b. “Toshkent” “TAFAKKUR TOMCHILARI”
2. Ruxiyeva.X.A Sud psixologik ekspertizasi 2020.
3. Рухиева.Х.А. Социально-психологический тренинг 2012. 126 б.
4. Ruxiyeva.X.A. Oliy maktab psixologiyasi muammolari 2016.
5. Ruxiyeva.X.A. Методические рекомендации высшей школы для слушателей факультета повышения квалификации преподавателей вызов 2011. 214б

Muxtorova Madina Azamat qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o‘qituvchisi

SANOAT KORXONALARIDA BOShQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISh VA XODIMLARNI BOSHQARUV HOLATI TAHLILI

Annotatsiya. *Sanoat korxonalarining kadrlar bilan ta’minlanishi toifalar va kasblar bo‘yicha xodimlarning haqiqiy sonini reja ehtiyojlari bilan taqqoslash asosida aniqlanadi. Korxonaning eng muhim kasblardagi kadrlar bilan ta’min etilishini tahlil qilishga alohida e’tibor beriladi. Ishchi kuchining sifat tarkibini malaka bo‘yicha tahlil qilish ham zarur.*

Sanoat korxonalarida xodimlarning malaka darajasi ko‘p jihatdan ularning yoshiga, ish stajiga, ma’lumoti va hokazolarga bog‘liq. Shu sababli tahlil jarayonida ishchilarning yoshi, ish staji, ma’lumoti bo‘yicha o‘zgarishlar o‘rganiladi. Bu o‘zgarish ishchi kuchining harakati natijasida sodir bo‘lishi sababli bu masalaga tahlil jarayonida katta e’tibor beriladi.

Kalit so‘zlar: *menejer, personal, inson resurslarini boshqarish, korporativ boshqaruv, ishga yollash, bandlik, kafolat, boshqaruv strukturasi, firma falsafasi.*

АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ МЕНЕДЖМЕНТА И УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

Аннотация. *Штатная численность промышленных предприятий определяется путем сопоставления фактической численности работающих по категориям и профессиям с потребностью плана. Особое внимание уделено анализу кадрового обеспечения предприятия по важнейшим профессиям. Также необходим качественный анализ качества рабочей силы.*

Уровень квалификации работников промышленных предприятий во многом зависит от их возраста, стажа работы, образования и так далее. Поэтому в процессе анализа изучаются изменения возраста, стажа работы, образования работников. Поскольку это изменение происходит в результате движения рабочей силы, этому вопросу в процессе анализа уделяется большое внимание.

Ключевые слова: *менеджер, персонал, управление человеческими ресурсами, корпоративное управление, подбор персонала, трудоустройство, гарантии, структура управления, философия компании.*

ANALYSIS OF MANAGEMENT SYSTEM DEVELOPMENT AND EMPLOYEE MANAGEMENT IN INDUSTRIAL ENTERPRISES

Abstract. *The headcount of industrial enterprises is determined by comparing the actual number of employees by categories and professions with the needs of the plan. Particular attention is paid to the analysis of the staffing of the enterprise in the most important professions. A qualitative analysis of the quality of the labor force is also needed.*

The level of qualification of workers in industrial enterprises largely depends on their age, work experience, education, and so on. Therefore, in the process of analysis, changes in the age, length of service, and education of employees are studied. Since this change occurs as a result of the movement of the labor force, a lot of attention is paid to this issue in the analysis process.

Key words: manager, personnel, human resources management, corporate management, recruitment, employment, guarantee, management structure, company philosophy


Sanoat korxonalarida mavjud ishchi kuchidan yanada to‘laroq foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishni jadallashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, ancha umumiyroq ishlab chiqarish texnikasini joriy etish, texnologiyani va ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish hisobiga korxonani mehnat resurslari bilan ta’minlashdagi keskinlikni birmuncha bartaraf etish mumkin. Yuqorida sanab o‘tilgan tadbirlarni o‘tkazish natijasida mehnat resurslariga bo‘lgan ehtiyojni qisqartirish zahiralari aniqlanishi lozim.

Mehnat resurslarini baholash va tahlil qilish uchun ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bu ko‘rsatkichlar iqtisodiy jihatdan turli guruhlarga mansub, chunki mehnat resurslarining u yoki bu jihatlarini ifodalaydi.

Mehnat resurslarini ifodalovchi barcha ko‘rsatkichlar iqtisodiy mazmunga qarab uch guruhga bo‘linadi:

1. Mehnat resurslari holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar.
2. Mehnat resurslari bilan ta’minlanganlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar.
3. Mehnat resurslari samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar.

Ushbu ko‘rsatkichlar tasnifi va ularning mazmuni quydagi chizmada keltirilgan (1-rasm)



1 -rasm. Sanoat korxonalarida mehnat resurslarini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi

Mehnat resurslari holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimiga quydagilarni kiritish mumkin:

1. Mehnat resurslarining o‘rtacha soni.
2. Mehnat resurslarining tarkibi.
3. Mehnat resurslariing oboroti.
4. Mehnat resurslarining qo‘nimsizligi.
5. Mehnat resurslarining turg‘unligi.

Mehnat resurslari bilan ta’minlanganlikni ifodalash uchun quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi:

1. Mehnat resurslari bilan shtat jadvalining ta’minlanganligi.
2. Mehnat resurslari sig‘imi.
3. Mehnat resurslarining qurollanganligi.
4. Aylanma mablag‘larning mehnat resurslari bilan ta’minlanganligi.

Mehnat resurslari holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar uning qanday ahvolda ekanligini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkichlarni ham o‘rganish va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki, shu ko‘rsatkichlar orqali mehnat resurslari qanday ahvolda ekanligini bilish birga ularning o‘zgarish dinamikasini, oboroti va qo‘nimsizligi kabi muhim ko‘rsatkichlarni ham bilish mumkin. Sanoat korxonalarida xodimlarning oboroti va qo‘nimsizliklari hammuhim ahamiyatga ega, chunki ular ishsizlikning oldini olish, samaradorlikni oshirish, xodimlar tajribasini oshishini ta’minlash kabi muhim jihatlarni o‘zida aks ettiradi.

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, “Javel” ma’suliyati cheklangan jamiyatida mehnat resursi xolatini ifodalovchi va u bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar ko‘rsatkichlar juda tekis o‘zgarishga uchragan. Masalan, mexnat resursining o‘rtacha yillik soni 115% gacha ortgan, shu jumladan oliy ma’lumotlilar 111% ga ortgan. Bu esa xodimlar malaka darajasini ortganligini bildiradi.

"Javel" ma'suliyati cheklangan jamiyatida xodimlar oboroti va qo'nimsizligining ko'rsatkichlari juda kichik miqdorni tashkil etgan 2019 yili mos ravishda 0.13 va 0.66 ni tashkil etgan, 2020 yili xodimlar oborotining usishi oqibatida mexnat resursi turg'unligi kamaygan.
Ushbu ko'rsatkichlarni amaliy ma'lumotlarni qo'llagan holda aniqlab, tegishli tahliliy xulosalar chiqarish uchun quyidagi jadvalni keltiramiz (1-jadval).

Jadval-1

Sanoat korxonalarida HR menejment tizimini joriy etish va xodimlarni boshqaruv jarayonida mehnat resurslari holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	2019 y.	2020 y.	2021 y.	O'zgarish sur'ati 2021 yilni 2019 yilga nisbatan, %
1. Mehnat resurslarining o'rtacha yillik soni, kishi	45	48	52	115
2. Shu jumladan, oliy ma'lumotli mutaxassislar, kishi	35	37	39	111
O'rta maxsus ma'lumotlilar	6	6	7	116
O'rta ma'lumotlilar	2	3	4	200
to'liqsiz o'rta ma'lumotlilar	2	2	2	100
3. Oliy ma'lumotli mutaxassislar ning ulushi, % (2к*100/1q)	78	77	75	-
O'rta maxsus ma'lumotlilar ning ulushi, %	13	12.5	13.4	-
O'rta ma'lumotlilarning ulushi, %	4.4	6.25	7.6	-
To'liqsiz o'rta ma'lumotli xodimlar ulushi,%	4.4	4.1	3.8	-
Xizmatchilar soni, kishi	43	46	50	116
Shu jumladan HR rahbarlar soni, kishi	3	3	3	100
Mutaxassislar soni, kishi	32	34	36	112
Texnik ijrochilar soni, kishi	8	9	11	137
Xizmatchilarning ulushi, %	95.5	95.8	96	-
6. Ishga qabul qilinganlar, kishi	3	6	5	166
7. Ishdan bo'shatilganlar, kishi	3	3	1	33
8. Shu jumladan, salbiy asoslar bilan bo'shatilganlar, kishi	1	-	-	-
9. Ms. Oboroti, koeffitsiyenti [(6q+7q)/1q]	0.13	0.18	0.11	85
10. Ms. qo'nimsizligi, koeffitsiyenti (8к/1к)	2	-	-	-
11. 3 yildan ko'p ishlagan xodimlar soni, kishi	30	35	38	127
12. Ms. Tung'unligi, koeffitsiyentida (11к/1к)	0.66	0.73	0.73	110

Manba: "Javel" ma'suliyati cheklangan jamiyati ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jadval-2

Sanoat korxonalarida HR menejment tizimi asosida mehnat resurslari bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	2019 й.	2020 й.	2021 й.	Ўзгариш суръати, %
1. Mehnat resurslari soni shtat jadvali bo'yicha, tegishli yil boshida, kishi	47	50	55	117
2. Haqiqiy mehnat resurslari soni, tegishli yil boshida, kishi	45	48	52	115
3. Ms. bilan shtat jadvalining ta'minlanganlik darajasi, % (1к:2к x100)	95	96	94	-

Manba: "Javel" ma'suliyati cheklangan jamiyati ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Ushbu 2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, shtat jadvali bilan ta'minlanganlik darajasi oxirgi uch yil davomida 1% ga kamaygan, surunkali ravishda shtat jadvalining mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi bajarilmasdan kelgan. Bu uchun korxonaning ish vaqti hajmini aniqlash va tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Korxonaning ish vakti xajmi deb barcha xodimlarning bir yillik ish kunida bajarishi lozim bo'lgan ish soatlari yig'indisiga aytiladi. Tahlil jarayonida ushbu ko'rsatkichni chuqur o'rganish lozim, chunki har bir daqiqa korxona va jamiyat uchun qimmatlidir.

Sanoat korxonalarida HR menejment tizimi asosida Ish vaqti hajmining tahliliga to'xtaladigan bo'lsak, tahlil qilish uchun ish vaqtining umumiy hajmini (UXIV) aniqlab olish lozim. Ushbu ko'rsatkich barcha xodimlar sonini (X) har bir xodimning o'rtacha ishlagan kunlari (IK) va bir kundagi ish vaqti (Vx) muddatiga ko'paytirish yo'li bilan aniklanadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

UXIB = X * IK * Bx

Ish vaqti hajmini bevosita asosiy ish bilan band bo'lgan xodimlar bo'yicha ham aniklash mumkin. Asosiy ish bilan band bo'lgan xodimlarni (AX) aniqlash uchun barcha xodimlar sonidan (X) boshqaruvda band bo'lgan xodimlar va xizmatchilar (BX) ayiriladi:AX = X - БX

Ushbu xodimlar ish vaqti hajmini ham barcha xodimlar ish vaqti hajmi singari anikdash mumkin. Bu ko'rsatkich asosiy ishda band bo'lgan xodimlarning mehnat unumdorligini aniqlashshda, unga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilishda qo'llaniladi.

Xodimlar sonini tahlil qilishning vazifasi uning ahamiyatidan kelib chiqadi. Bunga bozor iqtisodiyoti sharoitida quyidagilarni kiritish mumkin.

1. Mavjud xodimlar sonini va ularning shtat jadvaliga to'g'ri kelish-kelmasligini aniklash.
2. Xodimlarning malakasi, ma'lumoti bo'yicha tarkibini aniqlash va ularning o'zgarishiga baho berish.
3. Xodimlarning dinamikasini korxonaning asosiy ko'rsatkichlari bilan solishtirgan holda o'rganish va ularning o'zgarish tendensiyasiga baho berish.
4. Xodimlarning oboroti, qo'nimsizligi, mustahkamligi kabi ko'rsatkichlarni aniklash, ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni belgilash kabi muhim tadbirlarni amalga oshirish.

Tahlilning vazifasi bu keltirilganlar bilan cheklanib qolmaydi, balki har safar tahlilning maqsadi va vazifasi aniq vaziyatdan kelib chiqib o'zgarib turishi tabiiy. Chunki, bozor munosabatlari sharoitida zaziyatlar tez o'zgarib turishi mumkin. Bu o'zgarish jarayonini tahlil qilib, tegishli karorlar qabul qilib, amaliy chora-tadbirlarni qo'llash, boshqarish va ish yuritish usullarini vaziyatga qarab moslab borish choralarini ko'rish ham muhim ahamiyatga ega.

Shunday ekan, xodimlar sonini tahlil qilish kelajakda iktisodiy tahlilning tarkibiy kismiga aylanishi tabiiy. Xodimlar sonini taxlil qilish bevosita ularning umumiy sonini, tarkibini va farqini aniqlashdan boshlanadi. Buning uchun quyidagi jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (12-jadval).

Jadval-3

Sanoat korxonalarida HR menejment tizimini joriy etish asosida xodimlar soni va uning tarkibidagi o‘zgarishlari

Ko‘rsatkichlar	2020 yilda	2021 yilda		farqi {+, -)	
		Shtat jadvalida	Haqiqat-da	Rejaga nisbatan	O‘tgan yilga nisbatan
1. Barcha xodimlar, kishi	48	55	52	-3	+4
2. Asosiy xodimlar, kishi	46	53	50	-3	+4
3. Asosiy xodimlarning umumiy xodimlarlagi ulushi, % (2к:1к*100)	95,8	96,4	96,1	-0,3	+0,3

Manba: “Javel” ma’suliyati cheklangan jamiyati ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Ushbu 3-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, sanoat korxonalarida HR menejment tizimini joriy etish asosida xodimlar soni hisobot yilida rejaga nisbatan 3 kishiga kamaygan va o‘tgan yilga nisbatan mos ravishda 4 kishiga ko‘paygan. Shu bilan birga asosiy xodimlar soni ham o‘tgan yilga nisbatan 4 ko‘paygan. Bu ko‘rsatkich rejaga nisbatan 3 kishiga kamaygan.

Asosiy xodimlarning ulushi o‘tgan yildagi 95.8 foizdan hisobot yilida 96.1 foizgacha, ya’ni 0.3 foiz bandga ko‘paygan. Asosiy xodimlar ulushini hisobot yilida o‘tgan yilga nisbatan ko‘paytirib, 96.4 foizga yetkazish ko‘zda tutilgan edi. Ammo, hisobot yilida, ta’kidlanganidek, bu ko‘rsatkich 96.1 foizni tashkil qildi va uning mikdori 0.3 foiz bandga kamaydi. Bunday holatni bozor munosabatlari sharoitida oqlash qiyin. Asosiy xodimlar ulushining ko‘payishi maqsadga muvofiq.

HR menejment tizimi asosida xodimlarni yollash uchun javobgar - kadrlar bo‘limi xodimlari bo‘lib, ularning majburiyatlariga yangi nomzodlarni to‘plash, firmada yangi lavozim, ish joylarini ochish kiradi. Ular o‘z kompaniyasi xodimlari orasida mos keluvchi nomzodlarni izlash, o‘z tarmoqlari xizmatchilari va hamkasblaridan so‘rash, gazetalarda reklama e’lonlarini chop etish, mehnatga joylashtirish bo‘yicha davlat va xususiy agentliklar bilan hamkorlik qilish, mehnatga joylashtirish bo‘yicha kasaba uyushma byurolariga murojaat qilish, kollej talabalari orasida nomzodlar izlash bilan shug‘ullanadi.

Jadval-4

HR menejment tizimi asosida kadrlarni tanlash bo‘yicha harakatlari [1]

Bajariladigan operatsiyalar	Chiziq menejeri harakati (CHM)	HR bo‘yicha menejerning harakati (HR)
Ishga olish vazifasining qo‘yilishi.	HR bilan maslahat-lashgan holda vazifa qo‘yiladi.	CHMga yig‘ish usullari bo‘yicha maslahat beradi.
Yig‘ish haqida qaror va kompaniyaning yig‘ish bo‘yicha siyosatini belgilash.	HR bilan maslahat-lashgan holda yig‘ish siyosati haqida qaror qabul qiladi.	CHM ga ariza beruvchilarning korxonaga ishga olinganda qanday mavqega ega bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risida maslahat beradi.
Yig‘ish usullari haqida qarorlar.	HR ga yig‘ish usullari bo‘yicha maslahat beradi.	CHM bilan maslahatlashgan holda yig‘ish usullarini belgilaydi.
O‘quv yurtlaridan nomzodlar yig‘ish	Ayrim hollarda nomzodlar yig‘ish bilan shug‘ullanadi.	Asosan nomzodlarni yig‘ish bilan shug‘ullanadi.
Yig‘ish samaradorligini o‘rganish.	Yig‘ishning xarajatlari va foydali tomonlarini tahlil etadi.	Yig‘ishning xarajatlari va foydali tomonlarini tahlil etadi.

[1] Назарова Г.Г., Мухамеджанова Г.А., Салихова Н.М., Исмаилова Н.С., Розметова Н.Б. Инсон ресурслари менежменти. Ўкув кўлланма. ТДИУ, 2010 й. 194-бет.

HR menejment tizimi asosida kadrlarni rejalashtirishni boshqarishning bu bosqichida to‘plash natijasida hosil qilingan rezervdan rahbariyat eng mos nomzodlarni tanlaydi. Tanlov haqidagi obyektiv qaror, vaziyatga qarab nomzodning ma’lumoti, kasbiy ko‘nikmalar darajasi, oldingi ish tajribasi, shaxsiy sifatlariga asoslanishi mumkin. Ko‘p kompaniyalarda nomzodlardan kerakli xodimni yoki xodimlar guruhini tanlash odatda bir xil bosqichlardan iborat.

Demak, HR menejment tizimi asosida korxonalarda kadrlarni tanlash personal to‘plashning eng muhim bosqichlaridan bo‘lib, quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

- kadrlar komissiyasini tashkil etish;
- ish joylari bo‘yicha talablarni shakllantirish;
- ommaviy axborot vositalarida tanlov haqida e’lon berish;
- +nomzodlarni tibbiy va ishga layoqatliligini tekshirish;
- nomzodlarning ruhiy holatini tekshirish;
- nomzodlarning qiziqishlari va salbiy odatlarini tahlil qilish;
- nomzodlarni reyting bo‘yicha umumiy baholanishi va yakuniy ro‘yxatning tuzilishi;
- kadrlar komissiyasining bo‘sh joyga nomzod tanlash bo‘yicha xulosasi;
- lavozimga tasdiqlash, shartnoma tuzish;
- nomzodning hujjatlarini rasmiylashtirish va xodimlar bo‘limiga
- topshirish.

Eng avvalo, umumiy nomzodlardan bir nechta eng mos keluvchilari tanlab olinadi, bunda to‘ldirilgan standart shaklli anketa yoki nomzod tomonidan uning ma’lumoti, ish tajribasi va shaxsiy ma’lumotlari haqida berilgan yig‘ma ma’lumotnoma (rezyume) asos bo‘lib xizmat qiladi. Tanlovda qaror chiqarish uchun kerakli axborotni yig‘ishda uchta asosiy uslub ishlatiladi:

- Sinovlar;
- Suhbatlar;
- baholash markazlari.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berezin I. Marketingoviy analiz, - M.: “MGU” 2018. 127 – str.
2. Kantor Ye.L, i dr. Ekonomika predpriyatii. – SPb.: Piter, 2019. – 224s.
3. Nazarova G.G., Muxamedjanova G.A., Salixova N.M., Ismailova N.S., Rozmetova N.B. Inson resurslari menejmenti. O‘quv qo‘llanma. TDIU, 2010 y. 194-bet.
4. Rashidova Nargiza Rashid qizi, Abdullayev Axror Jaxbarovich. Tashkilotlarda xodimlarni samarali boshqarishning ilg‘or xorijiy tajribalaridan foydalanish istiqbollari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2021-yil.
5. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma.–T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2015,–210-b.
6. Sh.R.Xolmo‘minov, X.M.Hakimov, N.R.Narziqulov. Mehnat ko‘rsatkichlari tahlili. O‘quv qo‘llanma – T.: TDIU, 2006 – 94-bet.

Umarova Dilora Turobovna
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

O‘SMIRLARDA REFLEKSIV XUSUSIYATLAR ORQALI KASBIY FAOLIYATNI TARTIBGA SOLISHNING PSIXOLOGIK XUSUSSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘smirlarda refleksiv xususiyatlar orqali kasbiy faoliyatni tartibga solishning psixologik xusussiyatlari haqida so‘z boradi. Bundan tashqari kasbiy faoliyatni tartibga solish nuqtayi nazaridan refleksiv qobiliyat xususiyatlarini va aks ettirishning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Shaxsning refleksiv jarayonlari ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *refleksivlik, individuallik, qobiliyat, psixologik xususiyatlar, faoliyat, xulq-atvor, ontogenez, rivojlanish tendentsiyasi, muloqot jarayoni, ijtimoiylashuv.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РЕГУЛЯЦИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЧЕРЕЗ РЕФЛЕКСИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются психологические особенности регуляции профессиональной деятельности у подростков через рефлексивные особенности. Кроме того, были проанализированы особенности рефлексивных способностей и особенности рефлексии с точки зрения регулирования профессиональной деятельности. Рефлексивные процессы личности проанализированы с научной теоретической точки зрения.*

Ключевые слова: *рефлексивность, индивидуальность, способности, психологические особенности, активность, поведение, онтогенез, склонность к развитию, процесс общения, социализация.*

REFLEXIVE FEATURES IN ADOLESCENTS PSYCHOLOGICAL PECULIARITIES OF THE REGULATION OF PROFESSIONAL ACTIVITY

Annotation. *This article discusses the psychological peculiarities of the regulation of professional activity in adolescents through reflexive characteristics. In addition, from the point of view of the regulation of professional activity, the features of reflexive ability and the peculiarities of reflection are analyzed. Reflexive processes of personality have been scientifically analyzed theoretically.*

Key words: *reflexivity, individuality, ability, psychological characteristics, activity, behavior, ontogenesis, development trend, communication process, socialization.*

Kirish. Fikrlash va ong o‘rtasidagi munosabatlar muammosi, faoliyat va xulq-atvorni refleksli tartibga solish zamonaviy fanning muhim muammosidir. U fundamental umumiy psixologik muammolar sinfiga kiradi. Refleksiv jarayonlarni tahlil qilmasdan turib, inson psixikasining iroda, o‘z-o‘zini anglash kabi fundamental hodisalarini to‘liq tushunish mumkin emasligi shundan dalolat beradi. Reflektsiya inson psixikasining atributiv xususiyatidir. Fikrlash tufayli psixika tizim sifatida faol xususiyatga ega bo‘ladi; uning faoliyati atrof-muhitning ta'siri bilan emas, balki uning ichki mexanizmlari bilan belgilana boshlaydi. Bunday o‘zaro ta'sir to‘g‘ridan-to‘g‘ri haqiqat bilan emas, balki uning modeli bilan inson xatti-harakatining o‘ziga xos xususiyatidir. Bundan tashqari, ontogenezning ma'lum bir bosqichida aks ettirish shaxsning shakllanishi va ijtimoiylashuvining eng muhim hal qiluvchi omiliga aylanadi va shaxslararo o‘zaro ta'sir va aloqa jarayonlarida vositachilik qiladi.

So‘nggi o‘n yilliklarda, ish yukining katta qismi uning psixikasiga to‘g‘ri keladigan mehnat subyekti sifatida odamga bo‘lgan talablarning kuchayishi tufayli refleksivlik muammosiga qiziqish tobora ortib bormoqda. Axborot asri mutaxassislarga ularning kasbiy faoliyatini tashkil etishda yordam beradigan vositalar bilan ta'minlaydi, ammo bu ularning faoliyatidan ko‘proq samaradorlikni va odatdagi ish tartibiga tezda o‘zgartirish kiritish qobiliyatini talab qiladi. Doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z salohiyatini oshirish g‘oyasi o‘z xodimlarini kapitallashuvini oshirish uchun muhim manba deb hisoblaydigan ko‘plab zamonaviy kompaniyalar uchun manifestga aylanmoqda.

Shunday qilib, o‘rganilayotgan muammoning dolzarbligi ham ilmiy bilimlarning rivojlanish tendentsiyalari, ham kasbiy faoliyatni optimallashtirish sohasidagi mavjud ehtiyojlar bilan belgilanadi. Yuqori nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan refleksivlik muammosining ko‘p jihatlarining etarli

darajada rivojlanmaganligi tadqiqotning dolzarbligini va uning maqsad va vazifalarini shakllantirishni belgilab berdi.

Jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda refleksiya, refleksivlik, faoliyat yo‘nalishi, tafakkur psixologiyasi, insonlar o‘rtasida muloqot jarayonini tashkil etish, hamkorlikdagi faoliyat tarkibida ta’lim faoliyatini tashkil etish vositasi sifatida, genetik yo‘nalish, “tizimli-tafakkur-faoliyat” yondashuvi, refleksiv jarayonlarni o‘rganishning metakognitiv paradigmasi, o‘zini o‘zi tushunish va o‘zini o‘zi anglashning fundamental mexanizmlari, boshqaruvning refleksiv qonuniyatlari borasidagi ilmiy izlanishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Shaxsning refleksiv jarayonlari yaqin xorij mutaxassislari (K.A.Abulxanova, A.V.Brushlinskiy, L.S.Vigotskiy, I.M.Voytik, Yu.V.Gromiko, V.V.Davidov, Yu.N.Kulyutkin, I.S.Ladenko, V.I.Morosanova, Ya.A.Ponomaryov, G.S.Pyankova, S.L.Rubinshteyn, V.V.Rubsov, I.N.Semyonov, S.Yu.Stepanov, G.P.Shedroviskiy va boshqalar) hamda uzoq xorij tadqiqotchilari (A.Buzeman, M.Vudkok, D.Derner, M.Keller, M.Kepling, M.Mentey, J.Piaje, R.Rossa, D.Frenems, R.Xollend, D.Shon, M.Ekenberg va boshqalar) ilmiy izlanishlari predmeti bo‘lgan. Jumladan, refleksivlik tafakkur jarayoni doirasida (N.T.Alekseyev, A.Z.Zak, I.N.Semyonov, V.V.Davidov, Yu.N.Kulyutkin) “tizimli - tadqiqotchilik” yondashuviga ko‘ra refleksiv fikrlash faoliyati shakli (A.A.Zinovev, V.A.Lefevr, G.P.Shedroviskiy), refleksiv jarayonlarni tadqiq etishdagi metakognitiv paradigma sifatida (M.Keller, M.Kyoepling, Dj.Fleyvell, M.A.Xolodnaya va boshqalar) chuqur o‘rganilgan.

Zamonaviy va mumtoz adabiyotlarda “refleksiya” atamasiga nisbatan ko‘pgina izoh va tushunchalar keltiriladi. Ilmiy manbalarda refleksiya tushunchasi quyidagi tarzda talqin qilinadi.

Refleksiya *pedagogik nuqtayi nazardan quyidagicha izohlanadi:*

1) kishining o‘z xatti-harakatlari va ularning asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida bir shakli;

2) fikrlash, o‘zini o‘zi nazorat qilish;

3) o‘zining shaxsiy harakatlari va ularning qonun-qoidalarini fikrlashga yo‘naltirilgan inson faoliyatining nazariy shakli;

4) o‘z ruhiy holati haqida o‘ylash, xayol surish, fikr yuritish, uni tahlil qilishga moyillik.

G.S.Suxobskaya va L.L.Gorbunovalarning fikriga ko‘ra, refleksiya o‘zini o‘zi anglashning ifodalanishi, muloqot jarayonida subyektning suhbatdoshi tomonidan qanday qabul qilinayotganligini anglashi, muammolar va ularning vujudga kelish sabablarini ko‘ra olishi, aniqlashi, o‘rganishi va tahlil qila olish layoqatidir.

G.M.Kodjaspirova va A.Yu.Kodjaspirov refleksiya tushunchasini fikrlash, o‘zini o‘zi anglash, o‘zini o‘zi nazorat qilish, o‘zining shaxsiy xatti-harakatlari va ularning oqibatlarini anglash uchun yo‘naltirilgan faoliyat, inson nazariy faoliyatining shakli, ya’ni o‘tmishdagi voqelikka murojaat qilish imkoniyati sifatida talqin etganlar.

Tahlil. V.I.Slobodchikov pedagogik refleksiya o‘qituvchining o‘zini va o‘z xatti- harakatlarini obyektiv baholashi, o‘quvchilar va boshqa insonlar tomonidan o‘zini qanday qabul qilinayotganini, eng avvalo, u muloqot jarayonida kimlar bilan o‘zaro ta’sirda ekanligini tushunish qobiliyati, deb hisoblaydi.

Uning fikricha, refleksiya orqali ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o‘z faoliyatiga bo‘lgan munosabati muvofiqlashtiriladi va hamkorlikdagi faoliyatning shakl va mazmuniga mos ravishda mazkur faoliyatning qayta tashkil etilishi ta’minlanadi.

Jadval 1.

Refleksivlik haqidagi tasavvurlar rivojlanishining asosiy bosqichlari va xususiyatlari bosqichlari xususiyatlari.

Bosqichlari	Xususiyatlari
Latent bosqich	Antik va o‘rta asrga to‘g‘ri keladi. (Suqrotning o‘zini-o‘zi anglash bo‘yicha izlanishlari). Bu vaqtlarda refleksiya muammosi noaniq ravishda mavjud bo‘lgan lekin u yoki bu falsafiy bilimlarda yoritila boshlagan (Platon va Aristotel, Platon va Avgustin, Abeller va Foma Akvinskiy). Mazkur davrda refleksiya alohida bir reallik sifatida qaralgan, uning ahamiyatlilik darajasi insonni o‘zini-o‘zi anglash va uning o‘z ichki olamini anglashi orqali o‘zligini topishida ko‘rinadi.
Termenologik bosqich	Kechki o‘rta asr va ilk uyg‘onish davriga to‘g‘ri keladi hamda bu davrda “refleksiya” so‘zi Italiyada (lotincha aks) ochiq dengizda bo‘ron vaqtidagi shovqinda kuchliroq hayajon ta’sirini anglata boshladi. Bundan tashqari, ushbu fenomenning terminologik ma’nosi intensifikatsiya ya’ni inson hayotining o‘zaro aks ettirilishiga ko‘chadi.

Latent bosqich Antik va o‘rta asrga to‘g‘ri keladi. (Suqrotning o‘zini o‘zi anglash bo‘yicha izlanishlari). Bu vaqtlarda refleksiya muammosi noaniq ravishda mavjud bo‘lgan lekin u yoki bu falsafiy bilimlarda yoritila boshlagan (Platon va Aristotel, Platon va Avgustin, Abeller va Foma Akvinskiy). Mazkur davrda refleksiya alohida bir reallik sifatida qaralgan, uning ahamiyatlilik darajasi insonni o‘zini o‘zi anglashi va uning o‘z ichki olamini anglashi orqali o‘zligini topishida ko‘rinadi.

Termenologik bosqich

Kechki o‘rta asr va ilk uyg‘onish davriga to‘g‘ri keladi hamda bu davrda “refleksiya” so‘zi Italiyada (lotincha aks) ochiq dengizda bo‘ron vaqtidagi shovqinda kuchliroq hayajon ta’sirini anglata boshladi. Bundan tashqari, ushbu fenomenning terminologik ma’nosi intensifikatsiyasi, ya’ni inson hayotining o‘zaro aks ettirilishiga ko‘chadi.

Yangi asrning 3 – kategorial bosqichi R. Dekart, Monpele, I.Fixte, G.Gegel va boshqalar rasionalistik falsafada refleksiyaning alohida fenomenologik realligini ajratadi hamda ular aks ettirish yoki harakat (R.Dekart bo‘yicha refleks) yoki ruhiy holatlar Dj.Lokk introspeksiya ko‘rinishida) va uning ontologik mavqei refleksivlikning tabiiy ko‘rinishi sifatida yoki o‘zini o‘zi anglash jarayoni orqali o‘zini o‘zi kuzatish (Gegel) inson yoki uning individualligi, o‘zining noyob va takrorlanmas ekzistensiyasida o‘zini o‘zi anglashini boshdan kechirishi (S.Kerkegar bo‘yicha) masalalariga e’tibor qaratadilar. Empirik bosqich XIX – XX asrlar oralig‘ini o‘z ichiga oladi.

Ko‘plab intellekt tadqiqotchilari intellekt va ijodkorlik tushunchalarini bir-biriga bog‘lab, psixika tarkibidagi qobiliyatlarning tayanch tuzilmasida konvergent va divergent qobiliyatlarni ajratib ko‘rsatishadi. Konvergent qobiliyatlar o‘zini axborotni qayta ishlash jarayoni samaradorligida namoyon etadi. Ular individual intellektning adaptiv imkoniyatlarini ifodalaydi. Konvergent qobiliyatlar intellektning uchta xossasi bilan tavsiflanadi:

1. Intellektning darajali xossasi aks ettirishning asosi sifatida verbal va noverbal bilish jarayonlarining erishgan rivojlanish darajasini ifodalaydi.

2. Intellektning kombinator xossalari turli xildagi aloqa, munosabat va qonuniyatlarni aniqlash qobiliyati bilan tavsiflanadi.

3. Intellektning jarayonli (protsessual) xossasi axborotni qayta ishlashning elementar jarayonlari, intellektual faoliyatning operatsiya, usul va strategiyalarini ifodalaydi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, shaxsning intellektual faoliyati yaxlit va predmetli mazmunga ega bo‘lib, tushunish va tahlil, intellektual faollik, mazmun va maqsad hosil qilish, refleksivlik, kreativlik, ongli boshqarish, shaxsning moslashishi, o‘zini o‘zi boshqarish, lokus-nazorat, ijtimoiy o‘zini o‘zi nazorat qilish jarayonida aks etadi. Shu bois, shaxsda refleksivlikning rivojlanishini o‘rganish intellektual jarayonlar bilan bog‘liqligini tadqiq qilishni taqazo etadi. Tadqiqotimizda refleksivlik va shaxsdagi bilish jarayonlari hamda intellektual salohiyat o‘rtasidagi aloqadorlikni asoslashga harakat qilindi.

Ushbu maqolani ilmiy yangiligi refleksivlikni o‘rganishda tizimli metodologiyani qo‘llash bilan belgilanadi. Ushbu yondashuv bizga refleksivlikni analitik o‘rganishdan tizimli o‘rganishga o‘tishga, tizim tarkibiy qismlarining yaxlitlikka integratsiyalashuv mexanizmlarini aniqlash va ochib berishga, shuningdek, tizimning o‘zini kasbiy faoliyat kontekstida yanada umumiy va kengroq yaxlitlikning bir qismi sifatida o‘rganishga imkon beradi. Demak, tadqiqot obyektlari refleksivlikning integral (tizimli) sifatlarini ularning sifatli aniqligida (tizimning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida, uning nisbiy avtonomiyasida) va o‘ziga xoslik (o‘zaro ta'sir natijasida paydo bo‘ladigan xususiyatlar to‘plami) aniqlash. tizimning tashqi muhit bilan aloqasi) birinchi o‘ringa chiqariladi). O‘z-o‘zini tashkil qilish muammosi alohida ahamiyatga ega, bu tashqi resurslar va ichki imkoniyatlar yordamida o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun reflektorlik qobiliyati sifatida tushuniladi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, aks ettirishni o‘zining darajali tuzilishida umuman kognitiv ierarxiyaning asosiy darajalarini takrorlaydigan so‘l jarayon sifatida ko‘rish mumkin. Mexanizmlari va protsessual vositalarida maksimal darajada integral bo‘lib, uning materialida, predmetida va mazmunida aks ettirish psixikaning o‘z mazmuni bilan ishlaydigan tizim sifatida aks ettirilishiga aylanadi. Shu sababli, o‘z mexanizmlari va protsessual vositalarida aks ettirish aqliy jarayonlarning butun tizimini takrorlaydi, bu esa aks ettirishni o‘rganishni tashkil etish va olingan natijalarni keyinchalik talqin qilish nuqtayi nazaridan eng qiyin qiladi.

Bu ishda refleksivlik xossasi yaxlit jixatdan, uning zamonaviy fanda qisman ko‘rinishlari sifatida qaralayotgan alohida turlarini sintez qilishda o‘rganiladi. Refleksivlikning simptom kompleksini tashkil etishdagi bu o‘zgarishlar shaxsning kasbiy rivojlanishi uchun dolzarbdir. Reflektorning

ma'lum darajada rivojlanishi xodimning martaba ko‘tarilishiga yordam berishi aniqlandi. Boshqa tomondan, refleksivlik o‘z kasbiy sohasidagi bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish uchun asosdir. Refleksivlikni rivojlantirish menejerlar uchun ayniqsa muhimdir, chunki vertikal martaba qurish uchun nafaqat refleksivlikning mavjudligi haqiqati, balki asosan refleksiv funktsiyalarni faoliyatni tartibga solishga kiritish o‘lchovi muhimdir.

Ishda kommunikativ kompetentsiya muammosi muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatning muhim sharti sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, refleksivlik shaxsning kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirishda muhim hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bilan birga, faoliyatning subyekt-subyekt va subyekt-ob'ekt turlari vakillarini taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda faoliyat talablari ham katta rol o‘ynaydi, shuning uchun refleks rolini mutlaqlashtirib bo‘lmaydi.

Xulosa. Shaxsda o‘zini anglash, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi nazorat qilish, tarbiyalash kabi refleksiv jarayonlar masalasi Sharq mutafakkirlari, xorij va o‘zbek psixologlari tomonidan keng doirada tadqiq qilingan. Aynan refleksivlik tushunchasi falsafiy, pedagogik, psixologik jihatdan tahlil qilingan, shuningdek, refleksiya, refleksivlik jarayonlari xususida qator ilmiy izlanishlarning tahlillari bayon qilingan. Shunga monand ravishda quyidagi xulosalar shakllantirildi:

- refleksiya tushunchasi fanlararo kategoriya hisoblanib:

a) falsafiy jihatdan shaxsning o‘zini o‘zi anglashi, fikrlash qobiliyati ongli faoliyatining natijasi sifatida ko‘rsatiladi;

b) pedagogikada inson xatti-harakati, xulq-atvorida o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi nazorat qilish hamda amalga oshirilgan faoliyat natijalarini o‘tmish tajribalariga tayanilgan holda tahlil qilish nuqtayi nazaridan asoslaniladi;

v) psixologik jihatdan o‘zini o‘zi bilish, o‘zini o‘zi anglash, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi baholash, o‘ziga va boshqa insonlarga munosabatda “Men” siymosining taraqqiy etishi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami - T., 2017. 6-son. 70-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida “ PF-3907-son, Qarori, 14.08.2018.

3. Берковиц Л. Агрессия. Причины, последствия и контроль: учебное пособие / Л. Берковиц, Г. Фешбах. – СПб.: Прайм-Еврознак, 2001. – 49 с.

4. 23. Берон Ричардсон, Д. Агрессия: Р. Берон., Д. Ричардсон. - СПб.: 2010. – 224 с.

5. 24. Болотова А.К. Психология развития и возрастная психология. Учебник для вузов. Стандарт третьего поколения А.К. Болотова. - СПб.: Питер, 2018. – С.234.

6. Анастази А., Урбина С. Психологическое тестирование. — СПб.: «Питер», 2002. 68

7. Идея системности в современной психологии./ Под ред. В.А. Барабанщикова. М.: Изд-во «Институт психологии РАН», 2005. 496 с.

8. Межличностное общение. Учебник для вузов./ Под ред. В.Н. Куницыной, Н.В. Казариновой, В.М. Погольши. СПб: «Питер», 2001. 544 с.

9. Никифоров Г.С. Психология менеджмента. СПб.: «Питер», 2004. 639 с.

Rajabova Go‘zal Zarifovna
Buxoro davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

TA’LIMDA BOLALAR FOLKLOR QO‘SHIQLARINI O‘RGATISH JARAYONINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK SAMARADORLIGI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada folklor an’analar asosida bola shaxsini shakllantirish bilan bog‘liq pedagogik-psixologik bilimlar, ta’limida bolalar folklor qo‘shiqlarini o‘rgatish jarayonining pedagogik-psixologik samaradorligi, hamda bolallarni folklor an’analari asosida qiziqishlarini o’rganishning psixologik xususiyatlari amaliy jihatdan tahlil qilingan.*

Kalit so’zlar: *musiqa, folklor, bolalar, bag‘rikenglik, milliy g‘urur, milliy iftixor, bunyodkorlik, akmeoshaxs, qo‘shiq, kompetentlik, qobiliyat, qiziqish, individuallik, folkloretnografik.*

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ ФОЛЬКЛОРНЫМ ПЕСНЯМ В ИХ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. *В данной статье проведен практический анализ педагогико-психологических знаний, связанных с формированием личности ребенка на основе фольклорных традиций, педагогико-психологической эффективности процесса обучения детей фольклорным песням в их образовании, а также психологических особенностей изучения интересов детей на основе фольклорных традиций.*

Ключевые слова: *музыка, фольклор, дети, толерантность, национальная гордость, национальная гордость, творчество, акмеоличность, песня, компетентность, способности, интерес, индивидуальность, фольклорэтнографический.*

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL EFFECTIVENESS OF THE PROCESS OF TEACHING CHILDREN FOLK SONGS IN THEIR EDUCATION

Annotation. *In this article, pedagogical-psychological knowledge related to the formation of a child's personality on the basis of folklore traditions, pedagogical-psychological effectiveness of the process of teaching children folk songs in their education, as well as psychological characteristics of studying children's interests on the basis of folklore traditions are analyzed in a practical way.*

Key words: *music, folklore, children, tolerance, national pride, national pride, creativity, akmeoshaxs, song, competence, ability, interest, individuality, folkloretnographic.*

Kirish. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida milliy mafkura, milliy ruh, madaniyat va qadriyatlarning xazinasi, o‘quvchida milliy, ijodiy, mustaqil tafakkurni shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi, ifodalovchi hamda boshqa fanlarning mukammal, puxta o‘zlashtirilishiga asos bo‘luvchi musiqa ta’limini innovatsion ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida tekshirish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, folklor qo‘shiqlarini o‘rgatish vositasida o‘quvchilarni ma’naviy jihatdan tarbiyalash, musiqiy ta’limda didaktik imkoniyatlarni intensifikatsiya asosida yoritishga alohida diqqat qaratilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar sharoitida zamonaviy musiqa ta’limi xalqaro ta’lim standartlari asosida o‘quvchilarning musiqiy savodxonligini rivojlantirish, musiqa ta’limining sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqot-larga e’tibor berilmoqda. “O‘qitish usullarini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, o‘quvchida kichik yoshdan ta’lim olishga sog‘lom, kuchli va ta’sirchan motivatsiyani shakllantirish zarur” . Jumladan, bolalar folklore qo‘shiqlaridagi o‘zaro uyg‘unlashgan so‘z va ohangning ta’sir kuchi, tarbiyaviy imkoniyati beqiyos bo‘lib, musiqiy an’analarning mazmunini chuqur o‘rganish, ularning imkoniyatlaridan ta’lim-tarbiya, shu jumladan, o‘quvchilarni tarbiyalash jarayonida samarali foydalanish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 - yil 25 yanvardagi PF-5313-son “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish

chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 2018-yil 5-sentyabrdagi PQ-3931- son “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish choratadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187- son “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Bolalar folklor qo‘shiqlari mehnatkash xalqning, bolalar hayoti va turmush tarzini aks ettiradi. Xalqning olam haqidagi umumiy tushunchalarini, ijtimoiy - tarixiy, siyosiy, falsafiy va badiiy-estetik hamda musiqiy qarashlarini o‘zida mujassamlantirgan. Bularning barchasi Bolalar folklor qo‘shiqlari mazmuni va g‘oyasining chuqur xalqchiligini ko‘rsatadi. Qo‘shiqlardagi xalqchilikning asosini uning hayotiy mazmun-mohiyati tashkil qiladi. Bolalar folklor qo‘shiqlari o‘z xususiyatiga ko‘ra o‘zbek xalqining badiiymusiqiy ijodi sifatida asrlar davomida yaratilgan jamoaning ijod mahsulidir. Chunki bolalar folklor qo‘shiqlari boshqa folklor asarlari kabi bir kishi tomonidan emas, balki butun bir jamoaning ijodiy tajribasi asosida vujudga kelgan va jamoa tomonidan ijro etib kelingan. Ikkinchi tomondan qaralganda esa bolalar folklor qo‘shiqlarining ba’zi birlari iste’dodli kishilar tomonidan yaratilib, unda qabilasi, urug‘i odatlari, e’tiqodlari, orzu-istaklari, tabiat bilan bo‘lgan munosabatlari aks ettirilgan. Qabila va urug‘ a’zolariga ma’qul tushgan shu xildagi qo‘shiqlar og‘izdan-og‘izga o‘tib, jamoa ijodiga aylangan. Qo‘shiqlar shu tariqa jamoa orasida takomillashib, sayqal topib, xalqning folklor mulkiga aylangan. Yakka ijodkor, qo‘shiq ijrochisi qanchalik iste’dodli bo‘lmasin, jamoa ijodi va ijrosining an’analariga bo‘ysungan, xalq hayoti, xalq didi va talabiga moslashishga harakat qilgan.

Kattalar folklor qo‘shiqlari, shuningdek, bolalar folklor qo‘shiqlari ichida mavsumiy qo‘shiqlar alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Ma’lumki, bahor fasli kelishi bilan bolalar o‘yinlarini boshlab yuboradilar. O‘g‘il bolalar osmonga varrak uchiradi. Qiz bolalar sochlariga bargak taqadi. Bolalar tol chiviqlarini qo‘l bilan 21 uqalab, ehtiyotkorlik bilan po‘stini shilib, o‘zlariga sibizg‘alar yasaydi. Bahor darakchisi “Boychechak” gulini ko‘rib zavqlanadilar, qo‘shiq kuylaydilar. “CHitti gul” esa ularni yanada zavqlantiradi, ilhomlantiradi, o‘ynab turib qo‘shiq kuylashga chorlaydi. Professor O.Safarov “CHitti gul” haqida so‘z yuritib “chitti gul” iborasi aslida “chiqdi gul” bo‘lganli, lekin bolalar talaffuzida “chiqdi” so‘zi “chitti”ga aylanib qolganligini yozadi.

O‘zbek folklorshunosligida qo‘shiqshunoslik alohida tarmoq sifatida o‘z o‘rni va ahamiyatiga ega. Folklor qo‘shiqlarida, shu jumladan, bolalar folklor qo‘shiqlarida Vatan, tabiat, insoniy fazilatlardan halollik, mehnatsevarlik, to‘g‘rilik, shuningdek, Vatanga, ona tabiatga, insonga mehr-muhabbat hamda tinchlik, adolat kabi psixologik xususiyatlarni tarannum etadi. Folklor qo‘shiqlarida salbiy illatlarga tanqidiy munosabatlar o‘z aksini topgan va ayni ular shu jihatlari bilan milliy tarbiyaning mazmuniga mosdir. Endilikda folklor qo‘shiqlarini musiqa-pedagogika-psixologiya o‘quv dasturlariga, havaskorlik darslari faoliyatiga olib kirish, shu orqali yoshlarning estetik dunyoqarashlarini shakllantirish bugungi kunning ijtimoiy talabidir.

Folklor qo‘shiqlarining noyob psixologik namunalari bilan o‘quvchilarni tanishtirish, ularni ko‘pchilik yoshlar ma’naviyatiga olib kirish, kelgusi avlodlarga etkazish maqsad va muhim vazifamiz ekanligini unutmagan holda tadqiqot jarayonida quyidagi holatlarga alohida ahamiyat berib ish olib borish o‘quvchilarni estetik tarbiyalashning samaradorligini ta’minlashini ta’kidlaymiz:

1. Qiziqarli va mazmundor repertuar yaratish, unga o‘zbek xalqining asrlar sinovidan o‘tib kelayotgan qo‘shiqlaridan eng yaxshi namunalarini kiritish. Mehnat, do‘stlik, insonparvarlik, umuman didaktik xarakterdagi g‘oyalarni o‘zida mujassamlashtirgan, shuningdek, sevgi, vafo, pand-nasihat mavzusidagi qo‘shiqlarga keng o‘rin berish.

2. Xalq tarixining muhim bosqichlarida yaratilgan bosqinchilarga qarshi kurashga chorlovchi, qahramonlikni madh etuvchi, xalq dostonlaridagi jasoratga undovchi, baynalmilallikni tarannum etuvchi qo‘shiqlarga ko‘proq e’tibor berish.

3. Urushga qarshi qaratilgan, tinchlik va barqarorlikni kuylaydigan asarlar, do‘stlik va qardoshlikni ifodalovchi raqslarga, badiiy kompozitsiyalarga jiddiy yondashish.

4. Axloqiy poklik, halollik, birodarlik, saxiylik, oliyjanoblik kabi insoniy fazilatlarni madh etuvchi diniy qo‘shiqlarni ham o‘rni bilan o‘rganish.

5. Ona tabiatga mehr-muhabbatni oshiruvchi, uning go‘zalligini kuylovchi qo‘shiqlarga keng o‘rin berish. 6. Umum ishiga halal beradigan byurokratizm, loqaydlik, nopoklik, baxillikni fosh etuvchi tanqidiy va hajviy qo‘shiqlarni ham dasturga kiritish.

O‘quvchilarning estetik tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi murabbiylar mohir tarbiyachi bo‘lish bilan birga sezgir psixolog bo‘lishlari, har bir o‘quvchidagi individual xislatlarni ilg‘ab olmoqlari kerak. Qaysi ixtisoslikni egallayotganidan qat’iy nazar har bir o‘quvchining qalbida go‘zallikka, san’atga ixlos tuyg‘usi mavjud bo‘ladi. Har bir insonning go‘dakligida qulog‘iga kirgan ohanglar keyinchalik unutilib ketmaydi, aksincha, san’atga muhabbatga aylanadi. Ona allasining sehrli ohanglari har bir bolada musiqani his etish tuyg‘ularini va havasini uyg‘otib shakllantira boradi. Demakki, bola tug‘ilib beshikda yotganidayoq ona allasidan bahramand bo‘ladi, nafosat bilan to‘qnashadi. Ona allalari uni kundankunga ulg‘aytirib boradi. Ulg‘ayib borgan sari milliy sozlardan kuylar va qo‘shiqlar tinglashi, bog‘cha va maktabdagi san’at darslari, musiqa mashg‘ulotlari ularni go‘zal va sehrli olamdan chinakam bahramand bo‘lishini ta’minlaydi. Bu esa ulardagi tug‘ma iste’dod ko‘z ochishiga ko‘maklashadi. Vazifa ana shu iste’dodni yanada rivojlantirish va har bir insonni zamonamizning to‘laqonli, bilimli, go‘zallikni his etuvchi va eng yaxshi xislatlari bilan atrofdagilarga ham ijobiy ta’sir qiluvchi barkamol shaxs sifatida tarbiyalashdir.

Tadqiqot natijalari va tahlil. Tadqiqot doirasida bir necha oy mobaynida o‘quvchilarni o‘zbek folklor qo‘shiqlari vositasida estetik tarbiyalash va ularning badiiy pedagogic-psixologik dunyoqarashlarini shakllantirish borasida tajriba-kuzatuv ishlari olib borildi. Estetik tarbiya bo‘yicha ish olib borgan darslar faoliyatiga o‘quvchilarni jalb etar ekanmiz, biz avvalo, ularning san’atning qo‘shiq, raqs, sozandalikka nisbatan qiziqishlari, ijrochilik iqtidorlarini har tomonlama tekshirib ko‘rishga harakat qildik. Shundan so‘ng ular bilan o‘z tadqiqotimiz maqsad va vazifalari nuqtai nazaridan ish olib borish jarayonida havaskor o‘quvchilarni folklor qo‘shiqlariga munosabat va qiziqish darajalarini aniqlash maqsadida ular bilan suhbatlar o‘tkazdik, aniq ma’lumotlar olish uchun so‘rov varaqalari tuzib chiqdik va ularning qiziqishlari mazmuniga ko‘ra tajriba olib borilayotgan darslarga taqsimladik. Bunda havaskor o‘quvchilarning folklor qo‘shiqlari bo‘yicha tushunchalari, bilimlari, uni o‘rganish va tinglashga munosabati hamda amaliy malakalariga asosiy e’tiborni qaratdik. Olingan javoblarni tahlil qilib, maqsadga muvofiqligi nuqtai nazaridan ularni uch toifaga ajratdik.

I toifaga folklor qo‘shiqlariga qiziqishi yuqori, yaxshi tasavvur va tushunchaga ega, ularni kuylay oladiganlarni kiritdik.

II toifaga folklor qo‘shiqlari haqida umumiy tasavvurga ega, uni tinglash va o‘rganish istagini bildirganlarni kiritdik.

III toifaga esa san’atning bu turiga deyarli qiziqmaydigan, qo‘shiqchilikning boshqa turlariga qiziqadigan va o‘rganish istagida bo‘lgan havaskorlarni kiritdik.

Keyingi ish jarayonida biz xuddi mana shu jihatlarni yodda tutgan holda ish olib bordik. Darslar ishtirokchilarning san’atga va folklor qo‘shiqlariga nisbatan qiziqish va munosabatlarini aniqlashda, ya’ni javoblarni tahlil qilishda ularning institutda ta’lim olayotgan ixtisosliklariga alohida e’tibor berdik va ularni shu jihatdan uch guruhga ajratdik:

I guruhga: 3-sinf;

II guruhga: 4-sinf;

III guruhga: 5-sinf o‘quvchilarini kiritdik. 170 ta so‘rov varaqalariga 167 ta javob olindi, ularning yuqoridagi talablar bo‘yicha natijalari quyidagicha bo‘ldi:

O‘quvchilarning folklor qo‘shiqlariga qiziqish darajalari

Sinflar	O‘quvchilar soni	Qiziquvchanlik darajalari		
		Qoniqarli	O‘rta	Yuqori
3-sinf	30	23%	35,2%	41,8%
4-sinf	44	25,4%	30,6%	44,4%
5-sinf	54	20,4%	35,9%	43,7%
Umumiy ko‘rsatkich	**128**	**22,9%**	**33,9%**	**43,3%**

Dastlabki tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning folklor qo‘shiqlariga bo‘lgan munosabati, ularni o‘rganishga va tinglashga bo‘lgan qiziqishlari juda sust. Bu esa bu sohadagi ishlarni tubdan yaxshilashni, folklor qo‘shiqlarining tarbiyaviy imkoniyatlarini ishga solishda ta’sirchan vositalardan unumli va samarali foydalanishni taqozo etardi. O‘quvchilarning ko‘pchiligi ko‘proq estrada, vokalcholg‘u, shuningdek, xalq orasida tezda urf bo‘lib, tezda unutilib ketadigan yengil qo‘shiqlar

hamda chet el musiqasi va qo‘shiqlariga qiziqishlarini bildirishgan. Bu esa tarbiyaviy jihatdan anchagina tashvishli hol edi.

Xulosa va tavsiyalar. Musiqa ta’limida bolalar folklor qo‘shiqlarini o‘rgatish, o‘quvchilarni estetik tarbiyalashda folklor qo‘shiqlaridan foydalanish muammosining metodik jihatdan tadqiq etilishi quyidagicha xulosalarni shakllantirish imkonini berdi: Musiqa ta’limida bolalar folklor qo‘shiqlarini o‘rgatishning metodik ta’minoti o‘quvchilarni folklor qo‘shiqlari vositasida estetik tarbiyalash, o‘ziga xos muammolarni aniqlash va ularning bartaraf etilishini taqozo etadi. Tadqiqot-ning natijalari mavjud holatning nazariy xulosalarini umumlashtirishda mavjud muammolar, yutuq va kamchiliklarni bir tizimga solish, amalga oshiriladigan ta’limiy va tarbiyaviy tadbirlar mazmunini belgilash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712- son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. - Manba:https://lex.uz/docs/4312785

2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent: O‘zbekiston, 2016. - 56 B.

Alimboyev K. (Tuzuvchi). O‘zbek xalq qo‘shig‘i. (1951-yilgi materiallar. Toshkent, Farg‘ona, Andijon). -T.:O‘zdavnashr, 1955. -82 b.

3. Mahmudov T. Mustaqillik va ma’naviyat. -T.: «SHarq» NMAK bosh tahririyati, 2001. -159 b.

4. Milliy g‘oya-bizning g‘oya. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi, Respublika Baynalmilall madaniyat markazlarining qo‘shma dasturi. Hammualliflar. -T.: Ma’naviyat, 2001. -339 b.

5. Xasanov A.SH. Nravstvennoe esteticheskogo vospitanie molodeji stredstvami muzыki. -T.: FAN, -1985. s. 134 b.

6. Hasanov A.SH., Qudratov I. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari ashula darslari uchun Programma. -T.: O‘zb. Xalq ta’limi vazirligi, 1990. -32 b.

7. Alaviya M., Ro‘zimbayev S. Oq olma qizil olma. -T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashryoti, 1983. -115 b.

Abdulloyev Komiljon Fayzulloevich
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

TADBIRKORLIK SHAXSI VA FAOLIYATINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *mazkur maqolada iqtisodiy psixologiya mazmunida tadbirkorlik faoliyati va shaxsiy-kasbiy xususiyatlarining o'ziga xos jihatlari hamda, tadbirkorlik shaxsi va faoliyatining psixologik jihatlari ilmiy jihatdan yoritib berilgan. Bundan tashqari tadbirkor shaxsining psixologik xususiyatlari haqda so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *iqtisod, innovatsiya, faoliyat, tadbirkorlik, psixologiya, omil, motivatsiya, raqobat, taraqqiyot.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ЛИЧНОСТИ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. *в данной статье научно освещены специфические аспекты предпринимательской деятельности и личностно-профессиональные характеристики в контексте экономической психологии, а также психологические аспекты предпринимательской личности и деятельности. Далее идет речь о психологических особенностях личности предпринимателя.*

Ключевые слова*: экономика, инновация, деятельность, предпринимательство, психология, фактор, мотивация, конкуренция, развитие.*

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF ENTREPRENEURIAL PERSONALITY AND ACTIVITY

Annotation. *in this article, the content of Economic Psychology provides scientific coverage of the specifics of entrepreneurial activity and personal-professional characteristics, as well as psychological aspects of entrepreneurial personality and activity. It also talks about the psychological characteristics of the personality of the entrepreneur.*

Key words: *economics, innovation, activity, entrepreneurship, psychology, factor, motivation, competition, development.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi PF–5718-son "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida tadbirkorlarning, shu jumladan, chet ellik investorlarning murojaatlari bilan ishlashni tashkil etish sifati va tezkorligini oshirish, ular bilan ochiq va to'g'ridan-to'g'ri muloqotni ta'minlash, ularning qonuniy talablarini amaliy va samarali ro'yobga chiqarish va muammoli masalalarni hal etish, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga real hissani ko'paytirish, aholining ish bilan bandligini oshirish va uning moddiy farovonligini o'stirish asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Shu nuqtai nazardan tadbirkorlarning xalq bilan muloqoti, ularning shaxsiy psixologik xususiyatlari va ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq faoliyatlarini o'rganish muhim muammolardan biri hisoblanadi.

Tadbirkorlik psixologiyasi sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar iqtisodiy psixologiyaning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda tadbirkorlik psixologiyasining turli jihatlarini qamrab oluvchi ma'lumotlar jadal sur'atlar bilan to'planib bormoqda. Shu bilan birga, tadbirkorlik psixologiyasida tadbirkorlik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini namoyon qiluvchi va ko'rsatuvchi nazariy va empirik asoslangan konsepsiyalar ozchilikni tashkil etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mamlakatimiz olimlari O.E.Hayitov "tadbirkorlik faoliyati motivatsiyasi"ni, Sh.S. Shoyimova "tadbirkor o'zbek ayollari portretini"ni, Sh.M.Ulug'ova "bozor iqtisodiyotiga xotin-qizlar moslashuvi"ni, A.U. Yelmurotova "kasanachi ayollar psixologiya"ni tadqiqiga doir izlanishlarida qisman asoslab o'tishgan. Shuningdek, iqtisodiy munosabatlar kontekstida V.I.Karimova shaxsning "reklamaga munosabati", N.Sh.Umarova shaxs "iqtisodiy munosabatlar tizimi", D.X.Safarov "sotuvchi-xaridor diadasi munosabatlari", M.Xalimova "Tadbirkorlik faoliyatida shaxslararo munosabatlarga oid mas'uliyatni oshirishning ijtimoiy-psixologik determinantlari"ning mazmun va mohiyatini o'z tadqiqotlarida yoritishgan hamda ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik jihatdan tahlilini bayon qilishgan.

Rossiyalik olimlardan V.Avtonomov, V.Aseev, T.Zaslavskaya, V.Radayev, J.V. Maslikova, Yu.V.Sherbatix, G.L. Bardier, Ye.V. Belovalar iqtisodiy psixologiya, jumladan tadbirkorlarning muloqot va boshqaruv psixologiyasiga doir qator tadqiqotlarni amalga oshirganlar.

Chet ellik olimlar A.LKalleberg, K.T.Leicht, R.D.Hisrichlar kabi tadqiqotchilar o‘z tadqiqotlarida kichik biznes, oilaviy tadbirkorlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tishgan.

Shuningdek, A.Gibb, M.John, R.Kreitner, Keenan, Riches, S.Moscovisi, M.Rokeach, J.Sey, N.Davies kabilarning tadqiqotlarida tadbirkorlik psixologiyasi, tadbirkorlik ta’limini tashkil etish yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

Adabiyotlar tahlili asosida zamonaviy iqtisodiy psixologiyaning: **ijtimoiy-psixologik** (tadbirkorlarning yangi ijtimoiy-psixologik qatlam sifatidagi faoliyati va ularning ijtimoiy va iqtisodiy hayotga ta’siri); **faoliyatli** (tadbirkorlik faoliyatining maqsadi, predmeti, vositalari, motiv); **kasbiy** (tadbirkorlik kasbiy-mehnat faoliyati sifatida); **shaxsiy** (tadbirkorlarning shaxsiy xususiyatlari); **tashkiliy-loyihalovchi** (tadbirkorlik kar’erasini rejalashtirish va qurish) xususiyatlari ajratib ko‘rsatishimiz mumkin.

Natijalar. Yuqoridagi xususiyatlar asosida, tadbirkorlik subekti faoliyatining ikki jihati farqlanadi. Bular: xususiy tadbirkorlik faoliyati (yangi tuzilma tashkil etish hamda uning rivoji va taraqqiyotini ta’minlash) va menedjment (tashkil etilgan tuzilma ichida tartib va barqarorlikni ta’minlash). Zamonaviy tadbirkor yuqoridagi ikki jihatni uyg‘unlashtirgan holda o‘z faoliyatini amalga oshiradi.

Shuningdek, tadbirkorlik faoliyati o‘z navbatida ikki maqsadni nazarda tutadi. Bularning birinchi iqtisodiy maqsad, ya’ni foyda olish, daromad qilish bo‘lsa, ikkinchi psixologik, ya’ni shaxsni rivojlantirishga qaratilgan maqsad hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyatining predmeti turli-tuman bo‘lib, tadbirkorlik faoliyati turlari (ishlab chiqarish, savdo, kredit)ga bog‘liq bo‘ladi. Tadbirkorlik faoliyatining umumiy xususiyatlaridan biri tadbirkorning o‘ziga xos shaxsiy xususiyati, bozor muhiti hamda tadbirkorlik madaniyati asosidagi innovatsion xarakterga kasb etganligidadir.

Tadbirkorning innovatsion faoliyatini amalga oshirishni uning shaxsiy xususiyatlaridan: tashabbuskorlik, idrok eta olish qobiliyati, avtoritet, intuitsiya, atrofdagilariga ta’sir ko‘rsata olish xususiyatlari ta’minlaydi.

Tadbirkor doim ekstremal holatlarda faoliyat yuritib, uning muvaffaqiyati hamda resurslariga talabgor, raqobatchi xo‘jalik yurituvchi subektlarga doimiy qarama-qarshilik ko‘rsatib, ushbu qiyinchilik va to‘siqlarni yengishga harakat qiladi.

Tadbirkorning ijtimoiy mavqei uning nufuzi, muvaffaqiyati g‘amda intiluvchanligi asosida belgilanadi. Shu sababli uning ijtimoiy mavqei kasbiy kompetentligi asosida yuz berayotgan voqealarga ijobiy ta’sir ko‘rsatish qobiliyati bilan mos kelishi kerak. Aks holda, tadbirkor ijtimoiy mavqeini cheklaydigan, harakatlari faolligini namoyon qiladigan shaxsiy samaradorlik hamda psixologik muhofaza inqirozini boshdan kechirishi mumkin[1].

Muhokama. Iqtisodiy psixologiya mazmunidagi konseptual birlikning mavjud emavsligi tadbirkorlik psixologiyasining yo‘nalishlari va rivojlanish tendensiyalarini aniqlashga ta’sir ko‘rsatadi.

Tadbirkorlik insonning shaxsiy tashabbusi sifatida amalga oshiriladigan, o‘z nomidan, mol-mulki ma’suliyati va xavf-xatari asosida shaxsiy daromad olishga yo‘naltirilgan faoliyat hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyati predmeti ancha qamrovli hamda xilma xil hisoblanib, tadbirkorlik faoliyati shakliga bog‘liq bo‘ladi

O‘z navbatida, tadbirorklik faoliyati nafaqat kasb, balki maxsus hayot tarzi hamdir.

Shu nuqtayi nazardan tadbirkorning kasbiy jihatdan bilim, ko‘nikma va malakalari uning iqtisodiy muvaffaqiyati modeliga mos keluvchi individual hayot yo‘li subekti refleksiyasi, muayayn motivatsion-mazumunli hamda qadriyatli yo‘nalganlik mazmuni bilan boyitilishi lozim.

Tadbirkorlik faoliyatini tavsiflovchi umumiy jihatlarga: ushbu faoliyatning innovatsion xususiyati, uni standartlashtirish va algoritmlashning qiyinligi kiritishimiz mumkin.

Bundan tashqari, daromad olish bilan bog‘liq iqtisodiy va shaxsiy rivojlanish bilan bog‘liq psixologik, tadbirkorlik faoliyatining maqsadlari mavjud. Yuqori darajada subyektiv ishtirok etishni talab qiluvchi tadbirkorlik faoliyati shaxsning ichki zaxiralarini faollashtiradi va safarbar qiladi, kasbiy

[1] Щербакова Т.Н., Седлецкая Л.В. Психологическая компетентность предпринимателя как субъекта социального взаимодействия. – Ростов н/Д., 2003. – 192 с.

faoliyat tizimini takomillashtirishga qiziqishni oshiradi, kasbiy rejalarni amalga oshirish natijalari uchun mas'uliyatni oshiradi.

Tadbirkorlar - bu mulkka (kapital, resurslar, ishlab chiqarish vositalari) egalik qiluvchi va uni boshqaradigan, ma'lum bir korxonaga, daromad olish uchun yollanma mehnatdan foydalangan shaxslar (Pozdnyakov V.P., Filinkova E.B.) hisoblanadi. Tadbirkor jamiyatning iqtisodiy sohasida tavakkalchilik va taraqqiyot funktsiyalarini o'z zimmasiga oladi, noaniqlik, nomutanosiblik va kafolatlar yo'qligi sharoitida ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishning yangi shakllarini yaratadi.

Istalgan kasbiy faoliyatning universal modeli majud bo‘lib u 3 ta komponent, ya’ni tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi. Bular:

1. Kasbiy maqsad va vazifalarni belgilash;
2. Vazifalar yechimini yechishga qaratilgan yo‘llar va vositalarni aniqlash
3. Faoliyat natijasini tahlil qilish va bag‘olash.

Shu bilan birga kasbiy faoliyatning asosiy tushunchasi sifatida mutaxassis-tadbirkorning faoliyat tizimi e’tirof etilib, ushbu tizim shaxsiy-kasbiy yo‘nalganlik, kasbiy kompetentlik hamda individual psixologiya xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi.

Tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan tadbirkor shaxsining dastlabki motivlari va faoliyatining yakuniy maqsadlari bilan belgilanadi. Ko'pgina tadqiqotchilar tadbirkorlik faoliyatining o'ziga xos xususiyati sifatida uning innovatsion xarakterini ko‘rsatadilar.

Ushbu tadqiqotlarda tadbirkor ishlab chiqarish omillarining doimiy yangi kombinatsiyasi orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan innovatsiyalarni amalga oshiradigan yangi shaxs sifatida qaraladi. Tadbirkor mavjud an'anaviy qoliplarga amal qilmaydi va iqtisodiy tizimga dinamiklik va rivojlanish qo'shadi. Tadbirkorning innovatsion faoliyati imkoniyati tashabbuskorlik, idrok etish keskinligi, obro'-e'tibor, oldindan ko'ra bilish qobiliyati, boshqalarga ta'sir o'tkazish qobiliyati kabi shaxsiy parametrlar bilan ta'minlanadi.

Xulosa. Tadbirkorlik faoliyatining samaradorligi "karera" (martaba) va "muvaffaqiyat" tushunchalar bilan belgilanadi.

Tadbirkor “karyera” (martaba) si - bu shaxsiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishga, ijtimoiy jihatdan jamiyatda tan olinishiga va moddiy farovonlikka erishishga qaratilgan hayot tarzi bilan birlashtirilgan tadbirkorlik faoliyatidagi individual yo'l hisoblanadi. Tadbirkorlik karyerasining o‘ziga xosligi shundaki, u insonning shaxsiy sa’y-harakatlari natijasidir.

Karyera tushunchasi ijtimoiy-psixologik tarkibiy qismni o'z ichiga oladi, chunki insonning muvaffaqiyatini baholash ushbu hodisani jamoatchilik fikrida va birinchi navbatda, xuddi shu faoliyat sohasida ishlaydigan shaxslar guruhining fikriga ko'ra ob'ektivlashtirishni nazarda tutadi. Psixologik nuqtai nazardan, haqiqiy martaba nafaqat shaxsning faoliyatdagi rasmiy ko'tarilishi va unda erishilgan muvaffaqiyatlarni, balki shaxsiy va subyektiv faoliyat natijalarining rivojlanishini ham nazarda tutadi.

Tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyati uning natijasiga qisman hissa qo'shadigan ko'plab shaxsiy omillar bilan belgilanadi. Ularga: o'z sub'ektining affektiv-irodaviy sohasining rivojlanish darajasi, bilim qobiliyatlari, o'z-o'zini anglash, o'ziga bo'lgan munosabat xususiyatlari, shaxsiy motivatsi, faoliyat natijasini nazorat qilish, ijobiy muloqot qobiliyatlarini kiritishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Митина Л.М. Психология развития конкурентоспособности личности. – М.– Воронеж, 2002. – 400 с.
2. Raximov, D. (2018). Tadbirkorlik faoliyati ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining maxallay sharoitda o‘rganish. Scienceweb academic papers collection.
3. Xayitov O.E., Ochilova G.O. Tadbirkorlik psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma. 1-kitob. Oliy o‘kuv yurtlari magistratura boskichi talabalari uchun// Prof. V.M.Karimovaning umumiy taxriri ostida. — T.: «Fan va texnologiya», 2008. -144-6
4. Шербакова Т.Н., Седлеская Л.В. Психологическая компетентност предпринимателя как субъекта социалного взаимодействия. – Ростов н/Д., 2003. – 192 с.
5. Ходкинсон Дж., Сперроу П. Компетентная организация: психологический анализ процесса стратегического менеджмента. Харьков, 2007.
6. Healey M. P., Hodgkinson G. P. Psychological Foundations of Strategic Management // The
7. Blackwell Encyclopedia of Management: Strategic Management / 3rd ed. London: Wiley-Blackwell, 2015. V. 12. P. 1–3.

Boltayeva Shaxlo Toshpo‘latovna
NavDPI Umumiy pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA ART-TERAPIYA ORQALI TASAVVUR VA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqoloada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida art terapiya orqali tasavvur va ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari hamda o‘qituvchilarda art terapiya orqali tasavvur va ijodkorlikni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini rivojlantirish borasidagi ilmiy adabiyotlarni tahlilili olib borilgan. Bundan tashqari ijodkorlikni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari empirik jihatdan o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *Kreativlik, individuallik, qobiliyat, temperament, art-terapiya, tasavvur, ijodkorlik, psixologik xusussiyatlar, shaxsiy xususiyatlar.*

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ВООБРАЖЕНИЯ И ТВОРЧЕСТВА ПОСРЕДСТВОМ АРТ-ТЕРАПИИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *В данной статье проведен анализ научной литературы по педагогико-психологическим особенностям развития воображения и творчества с помощью арт-терапии у будущих учителей начальных классов, а также по особенностям развития воображения и творчества с помощью арт-терапии у педагогов. Кроме того, специфика развития творчества была изучена эмпирически.*

Ключевые слова: *креативность, индивидуальность, способности, темперамент, арт-терапия, воображение, креативность, психологические особенности, черты личности.*

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF IMAGINATION AND CREATIVITY THROUGH ART THERAPY IN FUTURE ELEMENTARY SCHOOL TEACHERS

Annotation. *This proverb analyzes the scientific literature on the pedagogical-psychological features of the development of imagination and creativity through art therapy in future primary school teachers and on the development of the peculiarities of the development of imagination and creativity through art therapy in teachers. In addition, the specifics of the development of creativity have been studied empirically.*

Key words: *creativity, individuality, ability, temperament, art therapy, imagination, creativity, psychological characteristics, personal characteristics.*

Kirish. Dunyoda jamiyat ravnaqi ko‘p jihatdan uning intellektual imkoniyatlari bilan belgilanadi. Chunki ilmiy yutuqlari yuqori darajada rivojlangan mamlakat barcha sohalarda doimo ilg‘or bo‘ladi. Jahon davlatlarining ijtimoiy-tarixiy rivojlanishida yoshlarga bo‘lgan e'tibor muhim o‘rin egallaydi. Yoshlarning huquqlarini himoya qilish, ularga imkoniyatlar yaratish, ularning manfaatlarini ifoda etuvchi huquqiy baza yaratilishi davlatning kelajakda taraqqiyot darajasini belgilab beradi. Mamlakatimizda ta'lim tizimida yuz berayotgan jadal o‘zgarishlar sababli yangi qoidalarning, yangicha tizimning paydo bo‘lishi ijodkor shaxsning rivojlanishiga ulkan talablar qo‘yadi. Ijodkor shaxs o‘z taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyat tomonidan tan olinadi va ma'lum ijtimoiy statusiga ega bo‘ladi. Psixologik tadqiqotlarda ijodkorlikni rivojlantirish bilan bog‘liq sohalar – o‘quvchining ijodiy muammolarni hal etish muvaffaqiyatini belgilovchi xususiyatlari alohida o‘rin tutadi. Inson psixologiyasini tushunish, tahlil qilish va rivojlantirishga jiddiy e’tibor berish masalasi hamma zamonlarda va hamma davlatlarda ham ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi vazifalaridan biri bo‘lib kelgan. Tarix va ijtimoiy hayot tamoyillari shuni ko‘rsatmoqdaki, jamiyatning har tomonlama rivojlanishi yuksak darajadagi hayot, turmush tarzining qaror toptirish avvalo har bir faoliyat ko‘rsatuvchi shaxsdagi o‘ziga xos psixologik salohiyatning nechog‘lik to‘la – to‘kis namoyon etilyotganligi bilan belgilanadi. Zero, har bir mamalakatning porloq kelajagini odamlardagi ijodiy, intellektual ma’naviy taraqqiyot yo‘liga xizmat qiluvchi davlat mexanizmisiz tasavvur qilib

bo‘lmaydi. Shu boisdan bo‘lsa, hozirgi kunda barcha rivojlangan va rivojlanish yo‘lidan borayotgan mamlakatlar birinchi galda o‘z fuqorolarining ma’naviy va intelektual, jismoniy va ruhiy barkamolligiga va undan ijodiy manfaatlar uchun samarali foydalanish yo‘llarini izlashga jiddiy e’tibor qaratmoqdalar. Shu nuqtayi nazardan, shaxsni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash bugungi kunnnig dolzarb masalasi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Umuman ijodiylikni shakllantirish, art- terapiya usullari, kreativlikning psixologik jihatlari bo‘yicha sotsiologlar va pedagoglar, san’atshunos olimlar (B.G. Ananyev, D.S.Bruner, A.V. Brushlinskiy, L.S. Vigotskiy, V.V.Davidov, P.I. Ivanov ,P.Y Galperin,U.Nayser, R.G Natadze, O.I Nikiforova A.M Matyushkin,S.L.Rubinshityn, R Solso, O. K .Tixamirov ,J.Gilfort, E.E Tunik va boshqalar) o‘z tatqiqot masalalariga asoslanib, munosabatlarning turli yo‘nalishlar bo‘yicha tatqiqot obyektiga aylantirganlar va ma’lum darajada shaxsdagi ijodkorlik, ijodiy qobiliyatlarning shakllantirishning nazariy fundamental asoslarini yaratganlar .E.G‘ G‘oziyev, G‘ Shoumarov , V.M Karimova , R.I Sunnatova, B.R. Qodirov, Sh.R. Barotov, Ostonov.Sh rahbarligida olib borilgan ilmiy izlanishlarda ijodkorlikning ijtimoiy – psixologik kategoriya sifatidagi talqinlariga ma’lum darajada e’tibor qaratilgan.

Art terapiya nima? Zamonaviy psixologiya Art-terapiya haqida tez-tez tilga olinadi. Ushbu texnikaning turlari va texnikasi xilma-xil bo‘lib, bu tajribalar uchun katta maydonni ta'minlaydi. To‘liq ma'noda, bu atama san'atni davolashni anglatadi. Darhaqiqat, mashg‘ulotlar davomida bemorlar o‘zlarining his-tuyg‘ularini va his-tuyg‘ularini ifoda etish, o‘zlarining shaxsiy xususiyatlarini o‘rganish, turli xil san'at turlari, jumladan, chizish, raqs, yozish, haykaltaroshlik va boshqalarni qo‘llash imkoniyatiga ega.

Psixologiyada eng mashhur art-terapiya turlarini ko‘rib chiqishdan oldin, ushbu tuzatish texnikasining yaratilish va rivojlanish tarixiga e'tibor qaratish lozim.

Badiiy ishlov berish sxemasi dastlab bunday nazariyalarda taqdim etilgan mashhur shaxslar, Z. Freyd, K. Jung, A. Maslou kabi [89;72;102]. Ammo amalda gipotetik modellar faqat XX asrning 30-yillarida qo‘llanila boshlandi. Shunga o‘xshash tuzatish usuli urush tugaganidan keyin Germaniyadan AQShga kelgan bolalarni davolashda qo‘llanila boshlandi. O‘sha paytda art terapiya stressni yyengish va fashistlar lagerlarida olingan jarohatlarni yengishning deyarli yagona usuli edi.

Birinchi tajribalar berdi ijobiy natija shuning uchun "badiiy shifo" tobora ommalashib bordi. Bugungi kunda art-terapiyaning deyarli barcha turlari psixoterapiyada keng qo‘llaniladi. Ushbu uslub insonga ko‘plab muammolarni tushunish va hal qilish, uning shaxsiyatining yangi qirralarini ochish imkonini beradi.

Art-terapiya psixoterapiyaning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, rus tiliga tarjima qilinganida "art-davolash" ma'nosini anglatadi. Ushbu atama birinchi marta 1938-yilda Adrian Xill tomonidan ishlatilgan va tez orada keng tarqaldi.

Ko‘pincha, art terapiya san'atning vizual doirasi, ya'ni ko‘z bilan ko‘riladigan narsa deb tushuniladi. Ushbu texnikaning samaradorligi shundaki, u hissiyotlar bilan tajriba o‘tkazishga, ularni ramziy darajada o‘rganishga va ifoda etishga imkon beradi. Art terapiya - bu sizning ongsizligingizga sayohat. Tushlar singari, u odamga qalbining yashirin burchaklarida yashiringan narsalarni ochib beradi.

Art terapiya jarayonida odamning o‘z travmatik tajribasi, tajribasi va kasalliklariga munosabati o‘zgaradi. Ushbu psixologiya metodidan foydalanish nimada?

Art terapiya usullari quyidagilarga yordam beradi:

O‘z-o‘zini tasvirlash va ijobiy o‘z-o‘zini anglashni shakllantirish;

O‘z his-tuyg‘ularingizni va his-tuyg‘ularingizni o‘rganish va ifoda etish;

Muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish;

Oila a'zolarini hissiy jihatdan yaqinlashtirish;

Oilada va ishda psixo-emotsional stressdan xalos bo‘lish;

Ijodiy faoliyatning har xil turlari uchun qobiliyatlarni rivojlantirish;

Ichki potentsialingizni ochib berish.

Bugungi kunda artterapiyaning eng keng tarqalgan turlari quyidagilar:

Art terapiya (Art terapiya) yoki izoterapiya.

Musiqiy terapiya (musiqiy terapiya).

Raqs terapiyasi.

Dramaterapiya.

Ertak terapiyasi.

Biblioterapiya (ijodiy yozuv).

V.I.Zagvyazinckiy, Yu.N.Kulyutkin , G.S.Suxobskaya, A.M.Matyushkin M.M.Potashnik kabi olimlar tomonidan ijodiy dominantaning quyidagi belgilari ajratib ko‘rcatilgan: ijodiy faoliyatga bo‘lgan ehtiyoj, ijodiy ishga tayyorlik, tanlangan mavzu bilan bevosita bog‘liq ko‘plab va muhim fikrlarning paydo bo‘lishi, o‘rganilayotgan masalalar bo‘yicha diqqatni oshirish.

Pedagogik ijodda ***diqqatning*** ahamiyati L.C.Vigotckiy tomonidan qayd etilgan. Pedagogik diqqatinng o‘ziga xoc xususiyatlari o‘quvchilarning faol, muctaqil, ijodiy faoliyati (taqqoclash, kuzatish, xulosalarni shakllantirish, ijodiy muammoni hal qilish uchun sharoit yaratuvchi ijodiy ishlarni (ish cur’ati, yorqinligi, taqdimot yangiligi, obrazli nutq) aniq tashkil etishga yordam beruvchi irodani tarbiyalashdir).

Biroq pedagogik ijodkorlikni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun riivojlantirilgan diqqat yetarli emas. Hayotning yorqin hodisalarini kuzatish orqali rivojlangan diqqat ijodiy faoliyatga tashqi qiziqishga aylanadi, lekin bu qiziqish tacavvursiz amalga oshirilmaydi va umuman namoyon bo‘lmasligi mumkin. Shunday qilib, pedagogik ijodda, umuman ijodda bo‘lgani kabi, rivojlangan tasavvursiz hech narsaga erishib bo‘lmaydi.

B.M.Nemenckiy, Ya.A.Ponomarev, V.A.Clactenin, D.B.Elkoninning pedagogik kuzatishlari ko‘rcatadiki, bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning kasbiy sifatlari qatorida pedagogik tacavvur eng kam shakllangan sifatlardan biridir.

Uzoq vaqt davomida shaxs psixologiyasining acosiy mavzusi individual farqlar – «tashqi tendensiyalar» tashkil etgan. Ya’ni bunda xulq-atvor tarzidagi, hissiy-bilish sohalarida kuzatiladigan tafovutlar nazarda tutilgan. Kuzatilgan individual farqlarni tasvirlash uchun tadqiqotchilar individual farqlarning «fenotipik» umumqo‘llaniladigan tuzilishi bilan tavsiflanadigan «shaxs xususiyati» yoki dicpozision konstruksiya atamasidan foydalanishgan.

Tahlil. Shu bilan birga, qobiliyatlarni tavsiflashning eng muhim belgilari - mehnat qobiliyati, mehnat qobiliyati, maxcuc ko‘nikmalar majmuasi, yuqori motivatsiya, faoliyatga yo‘naltirilganlik va tajriba.

F.N.Vishnyakova, F.P.Kravchuk, J.Kropli, A.V.Petrovskiy, M.Pozdnyakov, Yu.S.Stepanov, L.E.Yakovlevalar ilmiy izlanishlarida shaxsiy salohiyatning o‘z tizimiga ega va bir nechta komponentlardan (salohiyat turlaridan) iborat:

- biologk kompetensiya;
- psixologik kompetensiya;
- xarakterictik kompetensiya;
- shaxsiy tajriba kompetensiyasi;
- shaxsning yetakchilik qobiliyati;
- ijodkorlik.

Jadval-1

Kreativlik kategoriyasi bo‘yicha yondashuvlar

Kreativlik xususiyatini tadqiqqilgan chet el tadqiqotchilari	**Kreativlik xususiyatlari haqidagiyondashuvlar**
Kreativlikni o‘ziga xos sifatlarini aniqlashtirishgaqaratilgan yondashuvlar	
I.Kant, I.Fixte, F.Shelling, G.Gele	Kreativlik bu – insonning voqelikka nazariy munosabati poydevori uning rivojlangan kreativ(mahsuldor) tasavvur qobiliyatidir.
L.Vigotskiy	Kreativlik deganda, shaxslarning o‘ziga xosqadriyatlarni yaratish va innovasion qarorlarqabul qilish qobiliyatini chukur anglash qobiliyati tushuniladi.
Amabile, Barron, Lubart, MakKinnon, Ochse, Sternberg, Lubart	Kreativlik – faoliyatga ijodiyyangilik yaratish yondash va qobiliyatidir.
Sternberg, Kaufman, Pretz	Kreativlik – original va kutilmagan bo‘lishi ozim.
A.Maslou	Kreativlik – barchaga xos tug‘ma ijodiy yo‘nalish, atrof-muhitning ta’sirida ko‘pchilikda yo‘qolibketuvchi faoliyat
	Kreativ fikrlash - bu shaxsning kamchiliklar, nuqsonlar, yetishma-

P.Torrenc	yotgan elementlar,bilimlardagi bo‘shliqlar va nomuvofiqliklarni idrok etish qobiliyatidir
J.Gildford	Kreativlik bu – fikr ravonligi, fikrning moslashuvchanligi, o‘ziga xoslik, qiziquvchanlik, gipotezani ishlab chiqish qobiliyati va qoniqish qobiliyatidir.
G.Altshuller	Kreativlik – inson xayotining normasidir.
E.Yakovleva	Kreativlik – yuqori darajasida fikrlash jarayoni.
D.Veksler, R.Vaysberg, G.Eyzenk, L.Termen	Aql qanchalik yuqori bo‘lsa, kreativlik hunchalik yuqori bo‘ladi.
D.Feldman, X.Gardner	Kreativlik – mazmunli va yangi narsaga erishish
D.Bogoyavlenskaya	Kreativlikning asosiy ko‘rsatkichi kognitiv vamotivasion komponentlar bilan ifodalangan intellektual faoliyatdir.
S.Rubinshteyn	Kreativlik tafakkurning kreativ mohiyati,muammoni yangi nuqtayi nazardan ko‘rish, allaqachon ma’lum bo‘lgan bilimlar bilan o‘zaro bog‘liqlikqobiliyatining namoyon bo‘lishidir.
Ya.Ponomarev	Kreativlikda asosan intuitivlik markaziy o‘g‘in sanaladi.
N.Leysnin	Kreativ, intellektual va shaxsiy rivojlanishning ajralmas.
Z.Kalmokova	Kreativlik fikrlashning chuqurligi,fikrlashning moslashuvchanligi, aqliyfaoliyatning barqarorligi, aqliy faoliyatni anglash, fikrlashning mustaqilligi, yordamga sezgirlik kabi xususiyatlar hisoblanadi.
S.Gerbert	Kreativ muammolarni hal qilish jarayoni boshqa jarayonlarning: fikrlash va xotiraning o‘zarota’siridir.
Kreativlikda mustaqillikni inkor etadigan yondashuvlar	
N. Xomskiy	Inson tilining tug‘ma tuzilmalari
Dj. Fodor	Tug‘ma tuzilmalar
S. Gerbert	Fikrlash, xotira va boshqa jarayonlarning o‘zaro ta’siri.
Kreativlikni mustaqil jarayon sifatida qaraydigan yondashuvlar	
F.Barron	tasavvur, ramziy ma’noga ega bo‘lish
S. Mednik	stereotipik assotsiasiyalardan tashqariga chiqish, keng semantik maydon bilan ishlash qobiliyati.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, kreativlik – ijodiy yondashish va yangilik yaratish, original va kutilmagan faoliyat, fikr ravonligi, fikrning moslashuvchanligi, o‘ziga xoslik, qiziquvchanlik, gipotezani ishlab chiqish va qoniqish qobiliyatidir.

Xulosa va takliflar. Jahonda ta’lim tizimining asosiy maqsadi talabalarga yangi muhit talablari asosida bilim berish, ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalarida ularning erkin faoliyatini ta’minlash, talaba-yoshlarning, yangi g‘oyalar yarata oladigan va har qanday vaziyat, jarayon yoki faoliyatdagi muammoning yechimini topa oladigan ijodkorlik xususiyatiga ega shaxsni rivojlantirishdan iborat. Avstraliyaning Melburn universitetidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarda shaxs kreativligi, uning emotsional holati, intellekti va ularning jamiyat bilan aloqasi masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Art-terapiya ruhiy kasalliklarni davolashda qo‘llaniladigan ijodiy san'atning yagona turi emas. Ammo eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham tadqiqot ishini olib borishda, art – terapiyaning har bir usullaridan foydalanish va ayniqsa o‘qituvchilarida bu usullardan foy-

dalanish ulardagi ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Shuningdek bugungi kunda bolalarda ta’lim olishda yetishmayotgan original fikrlash, ijodkorlik uchun ham shunday samarali usullardan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2016-yil 14 sentyabr. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 37-son, 426-modda.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent., “O‘zbekiston” 2017. – 488 b.
3. Abdullaeva Sh.X. Pedagog profeccional kompetentliligini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari. Psixol.f.d. dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2019 y. - B. 36-49.
4. Eysenck H.J. Genius. The natural history of creativity. Cambridge: Camb. Univ. Press, 1995.
5. Torrance E.P. Scientific views of creativity and factors affecting its growth. Daedalus: Creativity and Learning, 1965. p. 663-679.
6. Абульханова К.А. Социальное мышление личности //Современная психология: состояние и перспективы исследований. Часть 3. – Социальные представления и мышление личности. – М.: Изд-во "Институт психологии РАН", 2002, – С. 88-103.

Shukurov Baxtiyor Suvonovich
Navoiy davlat pedagogika instituti
Umumiy pedagogika va psixologiya kafedrasi,
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent

TALABALAR JAMOASIDA O‘Z USTIDA MUSTAQIL ISHLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalar jamoasida o‘z ustida mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy- psixologik xususiyatlari hamda talabalarda o‘z ustiga ishlash borasidagi nazariy ma’lumotlar tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek yosh va pedagogik-psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan talabalarning bilim faoliyatini oshirish muammosi muhokama qilingan. Talabalarda o‘z ustida mustaqil ishlash jarayonini tarkibiy qismlari ishlab chiqilgan: talaba tomonidan o‘z oldiga o‘quv topshirig‘ining qo‘yilishi; talaba tomonidan topshiriq yechimini qabul qilinishi; o‘tilayotgan fani bilan bog‘liqlikni izlash maqsadida talaba tomonidan o‘quv topshirig‘ining qayta ko‘rib chiqilishi kabilar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. talaba, yosh xususiyatlari, kognitiv faoliyat, kuzatish, mustaqil ta’lim, o‘quv dasturi, ko‘nikma darajasi, introspeksiya, bilish jarayonlari.

СОЦИАЛЬНО - ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ НАД СОБОЙ В СТУДЕНЧЕСКОМ КОЛЛЕКТИВЕ

Аннотация. *В данной статье рассмотрены социально - психологические особенности развития навыков самостоятельной работы над собой в студенческом коллективе, а также теоретические данные по работе над собой у студентов. Обсуждалась также проблема повышения познавательной активности обучающихся в высших учебных заведениях с учетом возрастных и педагогико-психологических особенностей. У учащихся вырабатываются компоненты процесса самостоятельной работы над собой: постановка студентом перед собой учебного задания; речь идет о таких аспектах, как принятие студентом решения задачи; пересмотр студентом учебного задания с целью поиска связи с изучаемым предметом.*

Ключевые слова. *учащийся, возрастные особенности, познавательная деятельность, наблюдательность, самостоятельное обучение, учебная программа, уровень умений, самоанализ, познавательные процессы.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF SKILLS OF INDEPENDENT WORK ON ONESELF IN THE STUDENT COMMUNITY

Annotation. *Annotation. This article develops recommendations on the socio - psychological characteristics of the development of independent work skills in the student community, as well as theoretical information on working on themselves in students. Also discussed is the problem of increasing the cognitive activity of students studying in higher education institutions, taking into account age and pedagogical-psychological characteristics. In students, components of the process of independent work on oneself have been developed: the imposition of an educational assignment by a student to oneself; the acceptance of the assignment solution by the student; there is talk of such as a revision of the assignment by the student in order to seek a connection with the subject being studied.*

Key words. *student, age characteristics, cognitive activity, observation, independent education, curriculum, skill level, introspection, cognitive processes.*

Kirish. Hozirgi yoshlarimizning har tomonlama kuchli, bilimli, dono, ilmiy salohiyatli, tafakkur doirasi shakllangan, qobiliyatli, kasbiy ko‘nikma, malakalarini yetarli darajada egallagan bo‘lishlari talab qilinadi. Buning uchun esa, yoshlarimizni ilm fanning so‘nggi yutuqlaridan xabardor qilgan holda, ularga o‘z tariximiz, milliy qadriyatlarimiz, ma’naviy meroslarimiz haqida ma’lumotlar berish, ularni kasbiy madaniyatini shakllantirishimiz zarur. O‘tmishsiz kelajak bo‘lmaganidek, o‘z tarixini, qadriyatlarini, madaniyatini bilmagan xalqda ilm-fan va boshqa sohalarda ham taraqqiyot bo‘lmaydi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. N.Sayidahmedov, P.T.Magzumov, A.R.Xodjaboyev, R.Mavlonova, U.N.Nishonaliyev, E.T.Choriyev, N.A.Muslimov, O.A.Qo‘ysinov va boshqalar o‘z

tadqiqotlarida talabalarning o‘z ustilarida mustaqil ishlashning tashkiliy va metodik asoslari borasida fikr yuritganlar.

Talabalik yoshi-bu oliy o‘quv yurtining rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan hodisa. K. D. Ushonskiy bu yoshni "eng hal qiluvchi" deb atadi, chunki aynan shu davr insonning kelajagini belgilab beradi, bu o‘z ustida intensiv ishlashning juda faol davri.

L.D. Stolyarenko talabalar jamoasini oliy ta’lim instituti tomonidan tashkiliy jihatdan birlashtirilgan odamlarning o‘ziga xos ijtimoiy toifasi, o‘ziga xos jamoasi sifatida tavsiflaydi [1].

I.A. Zimnaya ta’rifiga ko‘ra, talabalar tarkibiga eng yuqori ta’lim darajasi, madaniyatni eng faol iste’mol qilish va kognitiv motivatsiyaning yuqori darajasi bilan ajralib turadigan bilim va kasbiy ko‘nikmalarni maqsadli, tizimli ravishda o‘zlashtiradigan odamlar kiradi. B.G. Ananievning fikricha, 17 yoshdan 25 yoshgacha bo‘lgan hayot davri shaxsni shakllantirishning yakuniy bosqichi va professionallashtirishning asosiy bosqichi sifatida muhim ahamiyatga ega. B. G. Ananyevning so‘zlariga ko‘ra, 17 yoshga kelib, shaxs o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyati ko‘nikmalarini shakllantirish uchun maqbul subyektiv sharoitlarni yaratadi.

Institutning zamonaviy talabasi, birinchi navbatda, keyingi rivojlanish uchun barcha imkoniyatlarga ega bo‘lgan yigitdir. Jamiyatning eng muhim intellektual salohiyati bo‘lgan birinchi kurs talabasi kechagi talaba bo‘lib, u zarur tajribaga ega emas va uni sotib olishga shoshilinch ehtiyoj sezadi. Shu munosabat bilan o‘qituvchi birinchi kurs talabasi faoliyatini mustaqil ishlarga imkon qadar tezroq moslashishga yo‘naltirishi juda muhimdir. Bu kognitiv faoliyatni rivojlantirishni nazarda tutadi. Talabaga ushbu faoliyatni nafaqat imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirish uchun, balki bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalarni egallash uchun olib borishini tushuntirish kerak.

Ta’lim psixologiyasi shaxsning bilimlarni egallash, mustahkamlash uslublaridan iborat faoliyat jarayonini qamrab oluvchi qator savollarning tuzilishini o‘rganadi, shuningdek, ularning natijasida individual tajriba, bilim, malaka va ko‘nikmalari shakllanadi. Inson dunyo bilan hamkorlikdan nimadir yangi narsa o‘rganish va o‘z ehtiyojlarini qondirish uslublarini takomillashtirib borganligi sababli ham bilim olishga bo‘lgan intilish insonning butun umri davomida ta’qib etib boradi, chunki odam har bir amaliy bilimini hayotdan o‘rganadi. Boshqacha qilib aytganda, ta’lim olish har bir faoliyatda mavjud bo‘lib, u subyektning shakllanish jarayonini o‘z ichiga qamrab oladi. Shunday qilib, ta’lim olish yetarli darajada keng tushunchadir, u o‘z ichiga nafaqat ta’lim olishning uyushtirilgan shakllarini, (maktab, kurslar, oliygoh), balki inson tomonidan kundalik hayotda egallanayotgan bilim va malakalarni ham o‘z ichiga oladi.

Boshqa faoliyat turlari bo‘lmish o‘yin va mehnatdan o‘zining maxsusligi mohiyati bilan ajralib turuvchi bu faoliyatni psixologik faoliyat sifatida yondashilganda, o‘qish faoliyatining uyushgan shakllarini ko‘riladi. Uning eng muhim jihati shuki, u istalgan boshqa bir faoliyatga insonni tayyorlaydi va uning asosi boiib hisoblanadi.

Psixologlarning bu boradagi izlanishlariga ko‘p bo‘lgani yo‘q va bu sohada hali u darajada sezilarli ishlar qilingan emas. Ammo o‘z ustida ishlash faoliyatini tashkil qilish uchun asos yetarli darajada shakllangan va ular o‘qitish nazariyasining aniq savol-muammolariga psixologiyaning bir yoqlama yondashishiga yo‘l qo‘yadi.

Talabalarda o‘z ustida ishlash faoliyati nazariyasining asosi nima va u psixologiya o‘qitish metodikalarini ishlab chiqishda qanday ahamiyatga ega?

Avvalambor, psixologiyaning qaysi sohasida ishlashdan qatiy nazar, o‘qituvchi o‘qish faoliyati nazariyalarining asosiy qonun qoidalarini bilishi zarur. Bu bilim egallab olish qoidalari va o‘qitish metodikalarini to‘g‘ri tuzish uchun juda muhim. O‘qish faoliyati psixologiyada ilmiy tushuncha sifatida bir yaqqol ifodaga ega erpas. Rus pedagogikasi va psixologiyasining «klassik» nazariyalarida - bu «kichik maktab yoshdagi yetakchi faoliyat», «ijtimoiy faollikning asosiy shakli» sifatida e’tirof etiladi.

D.B.Elkonin va V.Davidovning ta’kidlashicha, o‘qish faoliyati - bu talabalarning nazariy bilimlar-o‘zlashtirishga qaratilgan va fikrlashning o‘sishini ta’minlaydigan faoliyatlaridan biri sifatida ko‘rsatiladi. O‘z ustida ishlash faoliyati o‘quvchining o‘zi amalga oshirib o‘zini o‘zgartirish uchun maxsus tashkil qilingan faoliyat bo‘lagidir. Talabalarda o‘z ustida ishlash faoliyatining muhim qismi o‘quv topshirig‘i hisoblanadi. Topshiriq yechilish jarayonida, har bir amaliy mashg‘ulotdagi kabi, o‘quvchi tomonidan o‘rganilayotgan obyektda yoki bu haqdagi tasavvurda ma’lum bir o‘zgarishlar yuzaga keladi, ammo natijada subyektning o‘zi o‘zgaradi. O‘quv topshirig‘i subyektda oldindan berilgan o‘zgarish sodir bo‘lgandagina yechimi topilgan deb hisoblash mumkin. Talabalarda o‘z ustida ishlash faoliyati jarayonida yosh avlod kattalarning tarbiyasiga tayanadi, o‘rganadi. Har bir yosh avlod

dunyo haqidagi bilimlarni bevosita uni o‘rab turgan borliqdan oladi, ammo yoshlar bu bilimlarni o‘zi yaratmaydi, balki ularni katta avlodlardan «narsa (buyumlar), maxsus tashkilot va yangi avlodning bu narsalar bilan bog‘liq faoliyati orqali» oladi.

Natijalar va tahlil. Talabalar tomonidan psixologiyani o‘rganilayotganda o‘qituvchi ularga inson faoliyati bilan bog‘liq bir qator topshiriqlarni tuzishi va ularga berishi mumkin. Uning barcha savoli bir xil, ya’ni «Bu faoliyat bo‘lib hisoblanadimi?». Buning natijasida talabalar faoliyat tushunchasini o‘zlashtirib olishlari lozim. Biz bilamizki, o‘quv fanlar tizimida, haqiqatan ham bilimni o‘zlashtirish uchun o‘quv jarayonini o‘quv topshiriqlarini yechish tizimiga aylanishi lozim. Boshqacha qilib aytganda o‘quv topshirig‘ini yechish epizodik emas, balki o‘qish faoliyatida egallangan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llab, o‘rganishi, o‘qituvchi tomonidan berilayotgan tayyor bilimlarni kitoblardan olishi emas, balki talabalarning o‘zi faol faoliyat yuritishi lozim.

Talaba tomonidan o‘quv topshirig‘ini yechilish jarayonining o‘zi - bu o‘z ustida ishlash faoliyati deyiladi. Bu jarayonning tarkibiy qismi bolib, a) talaba tomonidan o‘z oldiga o‘quv topshirig‘ining qo‘yilishi; b) talaba tomonidan topshiriq yechimini qabul qilinishi; d) o‘tilayotgan fani bilan bog‘liqlikni izlash maqsadida talaba tomonidan o‘quv topshirig‘ining qayta ko‘rib chiqilishi; e) ajratilgan munosabatni modellashtirish; bu munosabatni «sof holda» o‘rganish uchun modelni o‘zgartirish; g) umumiy usul bilan yechiladigan topshiriqlar tizimining qurilishi; h) avval bajarilgan harakatning nazorat qilinishi va keyingi harakatga o‘tishi; i) baholash (o‘z-o‘ziga baho berish) hamma harakatlarning yaxshi bajarilish uslubini o‘quv topshirig‘i yechilishining umumiy uslubini o‘zlashtirish va boshqalar.

Barcha yuqoridagi elementlarning ketma-ketligi o‘quv topshirig‘ining bajarilishida talabaning o‘qish faoliyatini tashkil etadi.

Eksperimental va nazariy tekshirishlar o‘tkazilgan maktablarda o‘qish faoliyatining asosiy nazariy muammolarini ishlab chiqqan jamoat psixologlari nazariyasi faoliyat va psixikaning birlik prinsipidan samarali foydalanganlar. Ammo umumiy nazariyani o‘qitish mumkin, qo‘llanilishi ma’lum oldini olish choralari nafaqat maktab ta’limining, balki o‘qitishning boshqa turlariga talabalar tajribasi asosida qurilgan.

Talabalarda o‘z ustida ishlash faoliyati tushunchasining paydo bo‘lganligiga ko‘p bo‘lgani yo‘q, ko‘pi bilan 20 yil avval, bu o‘quvchilarning bilim saviyasi kriteriyalari tavsiyanomasini ishlab chiqilishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Talabalarda o‘z ustida ishlash faoliyatining to‘laligicha ko‘rib chiqish zarurati bilan u nafaqat bilim, ko‘nikma, malaka va ular ortidagi usullar, o‘quvchilarning o‘quv materiali bilan harakat operatsiyalarini, balki, o‘quvchi tomonidan o‘quv materialining qabul qilinishi, uning o‘zi tomonidan nazorat qilinishi, o‘z-o‘ziga baho berishini ham o‘z ichiga oladi.

O‘qish - bu mustaqil faoliyatni bajarish, buni o‘quv materialiga ijodiy yondashmasdan, o‘quv topshirig‘ini o‘zini tahlil qilish va o‘zini baholay bilmasdan bajarib bo‘lmaydi. O‘qishga o‘rganish - bu o‘quv faoliyatini bajarish talaba uchun zarur topshiriq bo‘lib hisoblangan.

Har bir oliygohdagi psixologining oldiga qo‘yilgan muhim topshiriq – talabaning o‘quv faoliyatini shakllantirish yoki uni psixologiyasini o‘rganishga qaratilgan. Talaba o‘zi mustaqil ishlashni, o‘zining idroki, aqli bilan ish yuritishni bilmas ekan, u doimo o‘qituvchining og‘zidan chiqqan tayyor bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga harakat qiladi va kitobdagi ilmiy, tushunchalarni mexanik tarzda yodlab oladi, ammo lining o‘zi biror marta ham bu bilimlami amaliyotda qo‘llay olmaydi. Bu esa uning kishilar bilan ongli, to‘g‘ri psixologik muloqot o‘rnatishga va faoliyatni yo‘lga qo‘yishga, psixologik fikr yuritishga o‘rgana olmasligiga sabab bo‘ladi.

P.Y. Galperin ta’kidlashicha: «Insonning har bir harakatining nazorat, bajaruv va mo‘ljal qismlari mavjuddir. O‘quv jarayonida o‘quvchi yo‘1-yo‘riqni mo‘ljalga qarab faoliyatni bajaradi va bu o‘qituvchi tomonidan nazorat qilinadi. Yo‘riqnoma ham o‘qituvchi tomonidan beriladi».

Bu konsepsiya asosida o‘qitish faoliyatini tashkil etishning yaxshi natija berishi nafaqat P.Ya. Galperin izdoshlari tomonidan, balki uning maktabi tomonidan ham isbotlangan.

Psixologiyani o‘qitish metodikasida bu borada erishilgan imkoniyatlarni ishlatish ehtiyoji mayjud. Birinchidan, pedagogik oliygohlarda (fakultet yo‘nalishiga qarab) maxsus maktab fan sohalariga moslab talabalar tomonidan laboratoriya va amaliy darslarda metodikalar ishlab chiqish;) ikkinchidan, psixologiya fanini oliygohlarda aynan shu metodika va nazariyalar asosida o‘tish; uchinchidan, psixologiya o‘qituvchisi tashviqot ishlarini olib borishda, yuqoridagi konsepsiya asosida va umuman o‘qitishning faol metodlari asosida amalga oshirishda cheksiz imkoniyatlari mavjud.

Ta’lim psixologiyasining yana bir yo‘nalishi bo‘lib nazariy yuksaltirishga asoslangan subyektning faolligi shakli deb aytiladigan o‘quv faoliyati hisoblanadi, u avlodlarning ijtimoiy

tajribasi natijasida individual rivojlanish shartiga qaratilgan bo‘ladi. D.B.Elkonin o‘quv faoliyatining muhim qismi bo‘lgan o‘quv topshirig‘ining yechimini topish natijasida faoliyatni bajaruvchi subyektning o‘zgarishi, uning dunyoqarashi, bilimi, malakalarini shakllanishiga sabab bo‘lishini ko‘rsatib bergan. V.V.Davidov, o‘quv faoliyati - bu nazariy bilimni egallashni o‘zi, o‘qish faoliyatining shakllanishiga esa mustaqil o‘qish va ijodiy yondashish sabab bo‘lishini aniqlagan.

D.B.Elkonin va V.V.Davidov 1960-1970-yillarda o‘qitishni rivojlantirish tizmini ishlab chiqadilar va oliy ta’lim amaliyotida sinab ko‘rdilar. Uning asl mohiyati bo‘lib nafaqat o‘qituvchilarni o‘quv jarayonida ma’lum bir bilimlar bilan qurollantirish, balki ularni har qanday ilmiy ma’lumot bilan ishlay olishga o‘rgatish bo‘lib ham hisoblanadi. Bu maktab namoyondalarining asosiy maqsadi insonlarni fikr yuritishga o‘rgatish lozimligidan iborat, shunmg uchun talabalarda zamonaviy fikr yuritish asoslarini egallashlari ilgari suradilar. Boshqacha qilib aytganda, o‘qishni shunday tashkil etish kerakki, doimo u «rivojlanuvchi xarakterga» ega bo‘lishi lozim.

D.B.Elkonin - Davidov sistemasi bo‘yicha eksperimental sinflarda «asosan o‘quv faoliyatining shakllanish jarayonining tavsifnomasi, intellektual rivoji, o‘quvchilar jamoasi va shaxsning rivojlanish sifati bilan bu o‘qitish jarayonlarining an’anaviy sharoitdagi rivojlantirish, o‘qitish g‘oyasi tizimi tavsifnomasi bilan ko‘rib chiqilganda to‘g‘ri keladi». Bu natijalar tavsifnomasi an’anaviy o‘qitish tizimida odatda, rejalashtirilmaydi va o‘qitish natijasi sifatida yuzaga chiqmay baholanadi.

D.B.Elkonin - Davidov g‘oyaviy tizimida o‘qitish natijalari tavsifnomasi o‘z ichiga quyidagi ko‘rsatkichlarni oladi; a) o‘qish faoliyatining shakllanganlik darajasi; b) o‘quvchilarning intellektual rivojlanish darajasi; d) o‘quvchilar jamoasining va shaxsni rivojlanish darajasini; e) o‘qitish oxirida o‘quvchilarning bilim, malaka va egallagan ko‘nikmalar darajasi.

Biz ko‘rganimizdek, tavsifnomalar ichida, deyarli yakka va asosiy an’anaviy tizimda o‘qitishning sifati ko‘rsatkichida bilim hajmi darajalari mavjud emas. Bundan ko‘rinadiki, rivojlantiruvchi o‘qitish tizimi tomonidan bilimning zarur va keraklilari inkor etiladimi? Albatta yo‘q, bu yerda e’tibor bilim soniga emas, shaxsning qanday bilim, malaka va ko‘nikmalar, uslublari va boshqa sifatli jihatlarini egallaganiga qaratiladi. Axir bilim shaxsni rivojlanishiga hissa qo‘shish va faqatgina o‘qitish maqsadi bo‘lib qolmasligi kerak.

Shunday qilib, o‘quv faoliyati - subyekt faoliyatini o‘zgartiruvchi, hech narsani bilmagandan biluvchiga bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallagan shaxsga aylantirishdir. Shuning uchun ham o‘quv faoliyati o‘z-o‘zini o‘zgartirish, o‘zini namoyon etish faoliyati deb aniqlanishi mumkin va buning predmeti sifatida o‘quvchilarning ijtimoiy tajriba orttirish orqali egallagan tajribalarini olish mumkin. Ijtimoiy tajribaning egallangan bo‘lagi va bu avvalgi tajribani o‘zgartirish hisobiga o‘quv faoliyatining mahsulini tashkil etadi.

Xulosa va tavsiyalar. Bizning fikrimizcha, kognitiv faoliyat keng ko‘lamli vazifalarni o‘z ichiga oladi. Bu tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha bilim doirasini chuqurlashtirish va kengaytirishga yordam beradigan talabalarning turli xil o‘quv va sinfdan tashqari faoliyatining ajralmas qismi bo‘lishi mumkin. Biz, asosan, talabada shaxsning ijodiy fazilatlarini, o‘rganilayotgan materialdan tashqariga chiqish ehtiyojlari va imkoniyatlarini, o‘z-o‘zini rivojlantirish va uzluksiz o‘z-o‘zini tarbiyalash qobiliyatini shakllantirish zarurligidan kelib chiqamiz. Umuman olganda, talabalar rivojlanishining eng muhim omili bo‘lib xizmat qiladigan kognitiv faoliyat umumiy ufqni kengaytirish, intellektual darajani oshirish zarurati bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, faqat talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, biz ularning bilim faolligini samarali rivojlantira olamiz. Ikkinchisi kelajakda talabaning yuqori darajadagi mustaqilligi va javobgarligini ta’minlaydigan etakchi mexanizmlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Немов Р.С., Алтунин И.Р. Социальная психология. Учебное пособие. – СПб.: Питер, 2008. -432 с.

2. Зимняя И.А. Педагогическая психология: уч. для студентов по пед. и психол. направ. и спец. - М.: Логос, 2000. - С. 384.

3. Павлова Л.Н. Содержание и организация самообразовательной деятельности по формированию субъективной активности студентов: Автореф. Дис .канд.пед.наук. - Красноярск, 2000. - С. 19.

4. J.G.Yoldoshev Zamonaviy dars. Malaka oshirish; muammolar, izlanishlar, yechimlar. A.Avloniy nomidagi XTXQTMOM.-T.; 2017yil.

5. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma.-T.; 2013yil.

Muhammedova Muhayyo Karimovna
Osiyo xalqaro universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

TALABALARDA EKOLOGIK ONGNI SHAKLLANISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalarda ekologik ongni shakllanishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning psixologik jihatlari hamda talabalarga ekologik ongni tarbiyalashning innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning pedagogik – psixologik samaradorligi haqida so‘z boradi. Bundan tashqari ekologik ongni shakllantirishda olimlarning ilmiy izlanishlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar*: ong, madaniyat, intelekt, subyekt, ekologik madaniyat, pedagogik xususiyatlar, ekologik ta’lim, ekologik tarbiya, mehnatsevarlik.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются психологические аспекты применения инновационных технологий в формировании экологического сознания учащихся, а также педагогико – психологическая эффективность применения инновационных технологий в воспитании экологического сознания учащихся. Кроме того, были проанализированы научные исследования ученых по формированию экологического сознания.*

Ключевые слова: *сознание, культура, интеллект, субъект, экологическая культура, педагогические особенности, экологическое воспитание, экологическое воспитание, трудолюбие.*

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE APPLICATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF ENVIRONMENTAL CONSCIOUSNESS IN STUDENTS

Annotation. *This article will talk about the psychological aspects of the application of innovative technologies in the formation of environmental consciousness in students, as well as the pedagogical – psychological effectiveness of the application of innovative technologies in the education of environmental consciousness to students. In addition, scientific research by scientists has been analyzed in the formation of environmental consciousness.*

Key words: *consciousness, culture, intelect, subject, ecological culture, pedagogical characteristics, environmental education, environmental education, hard work.*

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta‘lim siyosatining muhim maqsadlaridan biri yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Albatta, barkamol inson deganda ma‘naviy jihatdan yetuk, o‘z vatanining tarixi, buguni va kelajagi uchun qayg‘uradigan, shuningdek o‘zi yashayotgan makonning ekologik tozaligi, inson va tabiat uyg‘unligini o‘zida aks etishi, atrofidagi takrorlanmas go‘zallikni asrab avaylash kabi jarayonlarga o‘z hissasini qo‘shish ishtiyoqida yonib yashaydigan shaxsni tushunish bugungi kun talabiga mos keladi. Lekin ushbu tushunchaga tahliliy yondashilsa, uning naqadar serqirra, murakkab har tomonlama umuminsoniy qadriyatlarga mos kelishini idrok etish mumkin.

Jahonda ekologik vaziyatning nihoyatda keskinlashuvi, ishlab chiqarish munosabatlarining murakkablashuvi insonning tabiatga nisbatan ilmiy - amaliy faoliyatini qat’iy ravishda tartibga solishni talab etmoqda. Mazkur talablar O‘zbekiston Respublikasining huquqiy-me‘yoriy hujjatlari mazmunida o‘z aksini topgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi IX bob, 50 moddada: - Fuqarolar atrof, tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar deb ko‘rsatilgan[3]. Bu har bir fuqaroning hayot tarziga aylanishi lozim. XX asrning oxirlaridan boshlab pedagog-psixolog olimlar tomonidan ekologiyaga oid muammolarning ta’limiy-tarbiyaviy yo‘nalishlarini hal etishga yo‘naltirilgan tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Shuningdek, so‘ngi yillarda o‘qituvchilarning ekologik ta‘lim berishga oid muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan tadqiqot ishlari amalga oshirilgan, jumladan, J.G‘.Yo‘ldashevning o‘qituvchilarni o‘quvchilar salomatligini muxofaza qilishga tayyorlash masalasi, T.M.Umatqulovning ekologik ta‘limning o‘ziga xos xususiyatlari, Sh.Saidqulov tomonidan

O‘zbekitonda o‘quvchilarga ekologik ta‘lim va tarbiya berishni tizimlashtirish, Sh.Q.Mardanovning yangi ta‘limiy qadriyatlar asosida ekologik ta‘lim berish muammolari mavzularidagi tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ammo bu tadqiqotlarda ekologik muammolarni xal etishga qaratilgan hamda talabalarning ekologik ta’lim olishlari masalasi ko‘rib chiqilmagan. XX asrning oxirlaridan boshlab jahon olimlari ekologik muammolarning ta’lim va tarbiyaviy yo‘nalishlarini hal etish asosida tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar. Jumladan, ekologik ta‘limning nazariy asoslari rus olimi, akademik I.D.Zverev, - Uzluksiz ekologik ta‘lim konsepsiyasi, ekologiyadan DTSni yaratish, tabiiy fanlarni o‘qitishda talabalarga ekologik ta’lim-tarbiya berish, Markaziy Osiyoda ekologik taraqqiyot professor E.O.Turdiqulov, ekologik ta’limning pedagogik-psixologik asoslari A.N.Zaxlebniy, biologiyani o‘qitishda talabalarga ekologik ongini rivojlantirish, I.T.Surovegina, biogeotsenologiya asoslari bo‘yicha o‘simliklar ekologiyasi I.N.Ponomarevlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilib, ilmiy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Ekologik ta‘lim va tarbiyaning ijtimoiy, falsafiy jihatlari Y.Sh.Shodimetov, B.Ziyomuhammedov, S.Mamashokirovlar tomonidan ham o‘rganilgan va tadqiqot natijalari asosida ko‘plab ilmiy ahamiyat kasb etuvchi tavsiyalar berilgan. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi masalalari ham tadqiqot mavzusi sifatida ko‘rib chiqilib Sh.T.Otabayev, A.S.To‘xtayev, Y.U.Maxmudov, U.Beknazarovlarning ilmiy izlanishlarida ushbu masalaning muhim va dolzarb jihatlari o‘z ifodasini topgan.

Talabalarga ekologik ta’lim berishga innovatsion yondashuv masalasi bo‘yicha ilg‘or texnologiyalar va innovatsiyalardan samarali foydalanish va innovatsion texnologiyalarni o‘quvchilar tomonidan amaliyotga tatbiq qila olish madaniyatini shakllantirish masalasi ham hozirgi davrning eng dolzarb va muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Talabalarning shaxs sifatida shakllanishi va zaruriy bilimlar majmuiga ega bo‘lishida ekologik tarbiya va ta’limning ham o‘ziga xos jihatlari mavjud. Kichik mutaxassis sifatida talaba ham ekologik bilimlarini, malaka va ko‘nikmalarini o‘zida mujassamlashtirib amaliyotga tatbiq qilish texnologiyalarini o‘zlashtrib olsagina o‘z faoliyatida ushbu jarayonga ijobiy yondashuvini ta’minlashi mumkin.

Tahlil. Ekologik ta‘lim tarbiyaning eng asosiy vazifalaridan biri - ekologiya fani sohasidagi bilimlarni yoshlarga tushuntirish va ma’rifat ishlarini rivojlantirishdir. Bu atrof muhitni asrab avaylash, tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabat, jonli va jonsiz tabiiy muhit o‘rtasidagi bir butun yaxlitlikni tushunishni shakillantirishni taqozo etadi. Inson tabiat qo‘ynida yashar ekan, uning beminnat sahovati, inomi va marhamatidan bahramand bo‘ladi. Shunday ekan, insonning eng yaqin - do‘sti bo‘lmish tabiatni ardoqlash va e’zozlash har bir kishining muqaddas va sharafli burchi bo‘lishi lozim. Tabiatni asrab-avaylash, va unga bo‘lgan muhabbat inson qalbida yoshlikdan uyg‘onadi va davrlar o‘tishi bilan shakillanadi.

Ekologik ongni rivojlantirishda ta‘lim-tarbiya jarayoni quyidagi chora-tadbirlarni amalgaoshirishi katta ahamiyat kasb etadi:

-tabiat borasidagi bilmlarni kengaytirishga imkoniyat yaratish, atrof-muhit muhofazasi bilan bog‘liq qonunchilikdan xabardor etish;

- yoshlar o‘z fuqarolik burchlarini anglab yetishlari, tabiat muhofazasi borasida o‘zlarining masuliyatlarini his eta bilishlarini tushuntirish;

-tabiat muhofazasi borasidagi ishlarga yoshlarni jalb etish;

-tabiat boyliklarini himoya etuvchi davlat mutasaddi tashkilotlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

Ekologik ta’lim:

- o‘quvchilarning tabiat go‘zalliklarini sevishi, estetik zavq olish ruhida tarbiyalash;

- jonli va jonsiz tabiatning rivojlanish qonuniyatlari, tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi murakkab o‘zaro munosabatlar va inson xo‘jalik faoliyatining tabiatga ta‘siri oqibatlari haqida bilim berish;

- o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish.

Ekologik tarbiya esa:

- o‘quvchilarga maxsus ekologik bilim va tarbiya berib, ularda muayyan ko‘nikma va malakalarni hosil etish;

Jadval-1

Ekologik ongni belgilovchi prdagogik-psixologik mezonlar

1.	Global, mintaqaviy va lokal ekologik muammolarni bilish:	Barqaror rivojlanishga tahdid solayotgan ekologik muammolar, ya'ni yer, suv, energetik va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, biologik xilma-xillikni saqlash, tuproq degradatsiyasi, ayniqsa, cho'llanish ja-rayoni, atmosfera havosining ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, sanoat va maishiy chiqindilar boshqaruvikabi ekologik muammolardan, ularning kelib chiqish sabablari, oqibatlari, ayniqsa, genafondiga ta'siri yechiminio topish va moslashuv yo'llaridan boxabar bo'lish.
2.	Tabiatni muhofaza qilishda qat'iyatlilik:	Tabiatga nisbatan salbiy xatti-harakatlardan o'zini tiya olish, qiyinchili-klarni yengib, oldiga qo'ygan maqsadni amalgam oshirish, boshlagan ishin oxiriga dadil yetkaza olish va o'zining nuqtai nazariga ega bo'lish.
3.	Atrof-muhit muhofazasida tashabbuskorlik:	Tabiatni asrash uchun do'stlarini jalb etish, yangi guruhlarni tuzish, yangi g'oyalar, ekologik bilimlarni targ'ib etish va barqaror rivojlsnish ja-rayoniga olib kirish.
4.	Mehnatsevarlik:	Ijtimoiy foydaliu mehnatga havas hissin shakillantirish, mehnat malakasi-ni egallash, harakatlarning aniq va uyg'un bo'lishiga erishish, mehnat qilish jarayonida jismoniy yetuklikka intilish, o'z mehnat faoliyatidan qoniqish hosil qilish, o'zi va do'starining mehnatini xolisona baholasy olish. Bu borada izchillikka rioya qilish.
5	O'z-o'zini nazorat qilish	tabiat bilan munosabatga kirishish va undagi faoliyatda me'yor darajasini belgilash. O'z shaxsiy faoliyatiga nisbatab tanqidiy munosabatda bo'lish va xulosa chiqara olish.
6	Shaxsiy ma'suliyat:	Tabiatni asrab-avaylashda, tabiat boyliklarini ko'paytirishda jonbozlikni namoyon eta olish, tabiat qonuniyatlari asosida o'z amaliy faoliyatini boshqara olish.

Tirik mavjudodlarning o'zaro va yashash muhiti bilan munosabatlarni hamda shu asosda ajdodlarimizning ekologik va barqaror taraqqiyot ta'limga oid boy pedagogik mero-slarini kelajak egalari bo'lgan yosh avlodga yetkazish, mutaffakirlarimizning ta'limotida ko'rsatilgan tabiatni e'zozlash, o'simlik, xayvonot dunyosini avaylab-asrash muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham ekologik ta'lim –tarbiyaga oid tajribalarni, boy an'analarni, milliy qadriyatlarni zamo-naviy, yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanib davom ettirish va ularni ijtimoiy rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb masalasidir desak, mubolag'a bo'lmas, albatta.



Ushbu obyektlar zamirida talabalarga ekologik bilimlarni berishning uzluksizligi ta‘minlash xamda takomillashtrib borish imkoniyati mavjuddir. Talabalarga ekologik bilimlarni berishda uning o‘ziga xos tizimi mavjud bo‘lib ularning ketma-ketligini ta‘minlash talabalarning mahorati va tash-kilotchiligi bog‘liqdir. Masalan: universitet talabasiga iqlim o‘zgarishlari to‘g‘risida ma‘lumotlar ber-ishda shaxsga ta’sir qiluvchi barcha omillarni inobatga olgan holda tushunchalar berilishi lozim.

Xulosa. Bugungi kunda sayyoramizda ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularning kamayib ketishi oldini olish jahon hamjamiyati oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolayotgani alohida ta’kidlandi. Bu borada aholi, ayniqsa yosh avlodning ekologik ongini yuksaltirish, barqaror rivojlan-ishga yo‘naltirilgan tadbirlarda keng jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayoniga innovatsion yondashish orqali quyidagi si-fatlarni shakllantirish mumkin: Vatanni sevishga o‘rgatish, o‘z hududi, o‘lkasi, xalqiga mehrli va sadoqatli bo‘lish, mehnatsevarlik hissini tarbiyalash, turli ijtimoiy joylarda o‘zini tutish qoidalariga rioya qilish, muomala madaniyati, kiyinish odobi, tabiatni sevish va uni asrash hissini tarbiyalash, go‘zallikni his qilish, go‘zallik yaratishga intilish, go‘zallikdan (musiqa kabi manbalardan) zavqlanish hissini tarbiyalash kabilarni kiritish mumkin. Bunday ma’naviy-axloqiy his tuyg‘uga xos kategoriya-larning mazmun-mohiyatini o‘qituvchi nafaqat og‘zaki bayon qilish orqali, balki integratsion yon-dasha olish bilan o‘quvchilarda bunday his tuyg‘ularning bir butunlik holatini yaratadi. Yangi peda-gogik texnologiyalardan o‘rinli foydalangan holda talabalarda ma‘naviy-axloqiy tarbiyani yaxlitligini ifodalovchi his-tuyg‘ularni shakllantirish mumkin.

Foydalaniolgan adabiyotlar

1. Sh.M. Mirziyoyev - Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta`minlash-yurt
2. taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi Toshkent, - O‘zbekiston, 2017 yil, 47 bet.
3. Sh. M. Mirziyoyev - Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz – Toshkent, - O‘zbekiston, 2017 yil, 28 bet.
4. A.Nigmatov -Tabiat. Jamiyat. Ma‘naviyat Toshkent,O‘zbekiston 2009 yil.
5. Nishonova N. Adabiy ta‘lim va ekologik madaniyatni shakllantirish: Adabiyot va ekologik tarbiya Til va adabiyot ta‘limi. Toshkent, 2000. № 1 B. 65-69.
6. To‘xtayev A.S. Ekologiya Pedagogika institutlarining talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. «O‘qituvchi», 2001. - 144 b.
7. Ismailova Sh - Ta`lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash shartlari Urganch , 2015 yil, 141 bet.
8. Raximov J.- Al Xorazmiy va izdoshlarining tabiat muxofazasi va ekologiya xaqidagi fikr-lari.- Ma‘rifat yodusi jurnali, 2008, 1-son, 28-30 betlar.

Тажибаев Шохрух Максудович
Бухарский государственный университет, исследователь

ВОЗНИКНОВЕНИЕ ПАТОФИЗИОЛОГИЧЕСКИХ РАССТРОЙСТВ У ПЕДАГОГОВ КАК ПОСЛЕДСТВИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО СТРЕССА

Аннотация. *Эта статья предоставляет всесторонний анализ основных проявлений патофизиологических расстройств, обусловленных профессиональным стрессом среди педагогов. Она рассматривает негативные последствия этого стресса для различных систем организма, включая сердечно-сосудистую, эндокринную, иммунную и центральную нервную системы. Учитывая эти эффекты, подчеркивается важность решения и смягчения профессионального стресса для обеспечения здоровья и благополучия педагогов.*

Ключевые слова: *патофизиология, сердечно-сосудистая система, эндокринная система, патология, эндокринная система, профессиональный стресс, кортизол, апатия, депрессия, стресс, суицид.*

PEDAGOGLARDA KABIY STRESS OQIBATIDA PATOFIZIOLOGIK HOLATLARNING VUJUDGA KELISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘qituvchilar o‘rtasida kasbiy stress tufayli yuzaga keladigan patofiziologik kasalliklarning asosiy ko‘rinishlari har tomonlama tahlil qilinadi. U ushbu stressning turli tana tizimlariga, jumladan, yurak-qon tomir, endokrin, immun va markaziy asab tizimlariga salbiy ta'sirini ko‘rib chiqadi. Ushbu ta'sirlarni hisobga olgan holda, o‘qituvchilarning salomatligi va farovonligini ta'minlash uchun kasbiy stressni bartaraf etish va yumshatish muhimligi ta'kidlanadi.*

Tayanch iboralar. *patofiziologiya, yurak-qon tomir tizimi, endokrin tizim, patologiya, endokrin tizim, kasbiy stress, kortizol, apatiya, depressiya, stress, o‘z joniga qasd qilish.*

THE DEVELOPMENT OF PATHOPHYSIOLOGICAL DISORDERS IN EDUCATORS AS A CONSEQUENCE OF PROFESSIONAL STRESS

Annotation. *This article provides a comprehensive analysis of the primary manifestations of pathophysiological disorders stemming from professional stress among educators. It delves into the adverse effects of this stress on various bodily systems, including the cardiovascular, endocrine, immune, and central nervous systems. By highlighting these effects, the article sheds light on the importance of addressing and mitigating professional stress to safeguard the health and well-being of educators.*

Key words*: pathophysiology, cardiovascular system, endocrine system, pathology, endocrine system, professional stress, cortisol, apathy, depression, stress, suicide*

Введение. В современном обществе проблема профессионального стресса среди педагогов стала глобальной, вызвана ростом нагрузки, постоянным давлением со стороны общества и родителей, нестабильностью в системе образования, повышением требований к результатам обучения, высокий уровень тревожности, депрессии, постоянное чувство нехватки времени и из-за неспособность справиться со всеми задачами. Эти факторы создают атмосферу напряжения и тревоги, способствуя развитию хронического стресса у педагогов. Постоянное состояние стресса у педагогов увеличивает риск развития психологических проблем, таких как депрессия, тревожные расстройства, выгорание и другие психосоматические заболевания. В результате возникает растущая обеспокоенность тем, как профессиональный стресс может влиять на здоровье педагогов, включая патофизиологические изменения. Патофизиология профессионального стресса обращает внимание на более конкретные физиологические изменения и патологические процессы, которые могут быть вызваны или усугублены под воздействием стресса на рабочем месте. Взаимоотношение между патофизиологией и профессиональным стрессом является двунаправленным, где каждый из них может оказывать влияние друг на друга.

Обзор литературы. Изначально термин "патофизиология" образован от слов "патология" и "физиология", которые в свою очередь происходят от греческих слов: pathos – страдание, расстройство, physis – базис, сущность, logos – учение. Поэтому патофизиология в переводе означает учение о сущности возникающих в организме расстройств (нарушений) [1]. Слово "пато-

логия" было предложено древнегреческим ученым Аристотелем, а затем в медицину оно было введено французским врачом Жаном Фернелем, который написал первый учебник по изучению болезней. Первый трактат о медицинской патологии был опубликован в 1758 году. Также исследования патофизиологических расстройств профессионального стресса были проведены различными учеными из различных стран. Среди зарубежных исследователей можно выделить Роберта Сапольски из университет Стэнфорда, США, специалиста по стрессу и его воздействию на организм, Соню Люпьен исследующую влияние стресса на психическое и физическое здоровье, а также Кэри Купера (Университет Манчестера, Великобритания), который изучает связь между стрессом, здоровьем и производительностью. В Европе в этой области работали Вольфганг Линден (Университет Британской Колумбии, Канада / Университет Психологии, Швейцария), Сабина Соннентаг (Университет Мангейма, Германия) и Торес Теорелл (Каролинский институт, Швеция). В России вопросы, связанные со стрессом и его последствиями, исследовались такими учеными, как Елена Ивановна Рыженко (НИИ труда РАМН), Андрей Леонидович Куриленко (Институт общественного здоровья и развития Луганского государственного медицинского университета) и Андрей Анатольевич Левин (Институт нейрохирургии имени академика Н.Н.Бурденко РАМН). В Средней Азии на тему стресса и психических расстройств работала Наргиза Алтынбековна Джумабаева (Научно-исследовательский институт психиатрии, наркологии и токсикологии Кыргызской Республики).

Методология. Профессиональный стресс может быть как причиной патофизиологии, так и следствием патологических состояний, вызванных стрессом. Патофизиология и профессиональный стресс связаны через различные механизмы воздействия на организм, такие как изменения в иммунной системе, сердечно-сосудистой системе, пищеварительной системе, психическом здоровье и обмене веществ. Понимание этих связей позволяет более глубоко изучать механизмы развития различных заболеваний.

Исходя из информации, предоставленной Всемирной организацией здравоохранения в январе 2015 года, заболевания сердечно-сосудистой системы по-прежнему остаются главной причиной смертности во всем мире. Основными факторами, влияющими на риск развития подобных заболеваний, традиционно считаются часто повторяющиеся острые и хронические стрессы, снижение физической активности человека, неправильное питание, курение и злоупотребление алкоголем. Между тревожно-депрессивными расстройствами и сердечно-сосудистыми заболеваниями существует тесная взаимосвязь. С одной стороны, психические расстройства способствуют возникновению заболеваний сердца представляют собой источник, тревоги и депресси. Тяжелый стресс может являться причиной следующих болезней:

- **артериальная гипертония** - это состояние, при котором давление в артериях повышено. Стресс может способствовать увеличению артериального давления из-за активации симпатической нервной системы. По последним данным гипертония есть уже у 43% взрослых, и болезнь быстро молодеет [2].
- **инфаркт миокард** - это состояние, при котором происходит прерывание поступления крови к части сердечной мышцы, что приводит к ее некрозу. Стресс может быть одним из факторов, способствующих развитию инфаркта из-за повышения уровня адреналина и норадреналина в крови.
- **синдром разбитого сердца** - это временное нарушение работы сердца, которое часто возникает после сильного стресса или травмы.
- **кардиомиопатия** - это сердечная патология, характеризующаяся поражением миокарда (мышечного, срединно-расположенного слоя сердца). При заболевании отмечается нарушение циркуляции крови по всему организму, что негативно отражается на его функционировании и провоцирует угрозу для жизни человека.
- **ишемическая болезнь сердца** - это состояние, при котором поступление крови в сердце ограничено из-за сужения или блокировки артерий. ИБС занимает лидирующее место по причине смертности во всем мире. Согласно прогнозам экспертов, к 2030 году более 23 миллионов человек могут стать жертвами сердечно-сосудистых заболеваний [3].
- **стенокардия** - это форма ишемической болезни сердца, при которой возникают приступы боли в области сердца из-за недостаточного кровоснабжения [4].
- **аритмия** - это нарушение ритма сердечных сокращений. Стресс может быть одной из причин возникновения аритмий из-за воздействия на автономную нервную систему и изменения уровня электролитов в организме.

Кроме этого органы и системы организма, ответственные за его нормальное функционирование, оказываются под угрозой в условиях стресса. Одним из основных объектов воздействия стресса является эндокринная система. Ключевые регуляторы организма, такие как гипоталамус, надпочечники, гипофиз и половые железы, подвергаются воздействию стресса, что может привести к нарушениям их работы [5]. В особенности стресс негативно влияет на активность щитовидной железы, чьи заболевания становятся все более распространенными по мнению врачей. К таким заболеваниям можно отнести следующие: Синдром Иценко-Кушинга [6] (повышение кортизола) которое вызывает утомление, нарушения сна, апатию, депрессию и риск суицида. Следующее это гипофизарная кахексия (недостаточность гипоталамуса и гипофиза) состояние снижения активности и проявление возможных нарушений памяти и интеллекта. Кроме того в результате нарушения эндокринной системы возникает сахарный диабет. Сахарный диабет — это хроническое заболевание, которое может привести к серьезным осложнениям и ухудшению качества жизни. Высокий уровень сахара в крови является основным фактором риска развития сердечно-сосудистых заболеваний, таких как инфаркт миокарда, инсульт, атеросклероз и гипертония [7]. Помимо этого, сахарный диабет может привести к повреждению почек и развитию хронической почечной недостаточности, требующей диализа или трансплантации. Также он способен вызывать повреждения нервов, что приводит к болям, онемению и язвам на конечностях, а также проблемам с зрением из-за повреждения сосудов глаз. Недостаточный контроль уровня сахара может привести к инфекциям, затруднению заживления ран, а также опасным состояниям, таким как гипогликемия и гипергликемия, которые могут иметь серьезные последствия, включая потерю сознания и даже смерть. По мимо это есть вероятность возникновения «акромегалия» (увеличение соматотропного гормона): которое сопровождается апатией, эйфорией и монотонным настроем. Также нарушение эндокринной системы вызывает «тиреотоксикоз» которое проявляется эмоциональными расстройствами, тревожностью и депрессией, «гипотиреоз» которое обуславливается возможными психическими расстройствами.

Так же важно сказать, что иммунная система непосредственно связана со стрессом. Психологическое напряжение и стресс отрицательно воздействует на правильное функционирование иммунной системы, делая организм более слабым и вызывая заболевания самой иммунной системы, такие как аутоиммунные заболевания, где иммунная система нападает на свои собственные клетки и ткани. Кроме того, уменьшение количества белка в организме, нарушение обмена веществ, заболеваний печени, а также инфекционные заболевания и различные опухоли могут возникнуть из-за ослабленного иммунитета. При нарушении иммунной системы могут возникать проблемы, такие как хронические заболевания дыхательных путей, пневмония, а также инфекции кожи и слизистых оболочек, вызванные бактериями или грибками. Эти симптомы могут указывать на то, что организм стал менее способен эффективно защищаться от внешних воздействий. Под действием длительного напряжения происходит увеличение выработки веществ, способствующих воспалению, что может вызвать хронические воспалительные состояния, такие как артрит, сердечные заболевания и диабет. Повышенный уровень воспаления также может ослабить защитные функции иммунной системы и увеличить вероятность инфекций [8]. Стресс отрицательно влияет на различные виды иммунных клеток, таких как лейкоциты и лимфоциты, что снижает способность организма бороться с инфекциями. Под влиянием сильных эмоций надпочечники начинают активно выделять кортизол, гормон стресса, который подавляет функции иммунной системы, усугубляя воспалительные процессы и нарушая работу Т-лимфоцитов, ответственных за борьбу с инфекциями. В периоды длительного стресса уменьшается производство антител, необходимых для борьбы с вирусами и бактериями, что способствует частым острым респираторным вирусным инфекциям. Важно отметить, что интенсивный стресс может спровоцировать выделение цитокинов. Цитокины - это сигнальные белки, важные для иммунной системы, которые регулируют воспалительные процессы, коммуникацию между иммунными клетками и ростом клеток. Интенсивный стресс активирует систему стресса в организме, что приводит к увеличению выработки цитокинов, таких как кортизол. Цитокины в больших количествах способны вызвать сильное воспаление, распространяющееся по органам и тканям такие как сепсис и тяжелые случаи респираторного синдрома, когда переактивированная иммунная система организма приводит к опасному уровню воспаления и осложнениям, угрожающим жизни. Еще одним фактором, подавляющим иммунную систему в периоды стресса, является снижение уровня NK-лимфоцитов, защищающих организм от раковых заболеваний. Эти NK-лимфоциты являются частью естественной иммунной систе-

мы и помогают обнаруживать и уничтожать аномальные или раковые клетки в организме человека. Когда их уровень снижается из-за стресса, это может создать благоприятную среду для развития рака, так как организм становится менее способным эффективно бороться с ним.

Так же важно отметить что нервная система человека затрагивается неврологическими расстройствами представляющую собой группу заболеваний. Они могут быть вызваны различными причинами, включая генетические факторы, травмы, инфекции и стресс. Под воздействием стресса организм выделяет большое количество гормонов стресса, что может привести к нарушениям работы нервной системы. Среди школьных педагогов неврологические расстройства особенно актуальны из-за повышенного уровня стресса, связанного с работой, с высокой нагрузкой, требованиями со стороны администрации что может привести к перегрузке нервной системы и развитию неврологических проблем. Неврологические расстройства могут проявляться различными симптомами, такими как головные боли, нарушения координации движений, потеря чувствительности и др [9]. Кроме этого из-за постоянного стресса есть риск возникновения других многих серьёзных заболеваний таких как: мигрень – это хроническое неврологическое расстройство [10], характеризующееся рецидивирующими приступами головной боли, часто сопровождающимися тошнотой, рвотой и чувством светобоязни и шумобоязни. Так же могут возникнуть неврозы - это группа психических расстройств, которые могут проявляться различными симптомами, такими как тревожность, панические атаки, обсессивно-компульсивные расстройства и др. Стресс является основным фактором, способствующим развитию неврозов, таких как генерализованное тревожное расстройство (ГТР). ГТР, хроническое психическое расстройство, характеризуется избыточной тревожностью, беспокойством и напряженностью, симптомы которого могут усиливаться под воздействием стресса [11]. Кроме этого паническое расстройство, еще одна форма тревожного расстройства, проявляется через внезапные и необоснованные панические атаки, сопровождаемые физиологическими симптомами, такими как сердцебиение, потливость и дрожь. Нарушения сна, такие как бессонница, синдром хронической боли, характеризующийся постоянными или периодическими болями в различных частях тела без очевидной физической причины [12], также может усугубляться под воздействием стресса.

Заключение: Изучение влияния профессионального стресса на педагогов показывает, что он может вызывать различные проблемы со здоровьем. Стресс может повлиять на гормональный баланс и привести к эндокринным расстройствам. Он также связан с сердечно-сосудистыми заболеваниями, нарушениями иммунной системы и проблемами с центральной нервной системой, такими как депрессия и тревога. Важно изучить эти связи и разработать способы управления стрессом для поддержания здоровья педагогов. Обеспечение педагогов необходимыми ресурсами для эффективного управления стрессом поможет им лучше справляться с вызовами своей профессии и сохранять здоровье на долгосрочной основе

Список использованных литератур

1. Курс лекций по патофизиологии: учебное пособие для студен-тов медицинских вузов: в 4-х ч. / Ю.Ю. Бяловский [и др.]; под ред. Ю.Ю. Бяловского, В.В. Давыдова – Рязань, 2018. – Ч. Стр-6.
2. https://xn--90ab0be.xn--p1ai/content/stress-i-serdechno-sosudistye-zabolevaniya
3. https://fnkc-fmba.ru/zabolevaniya/ishemicheskaya-bolezn-serdtsa-ibs/
4. http://perinatal-komi.ru/patients/article/ishemicheskaia-bolezn-serdtsa-stenokardiia-i-pravila-zhizni/?special=True
5. https://cytamins.ru/articles/stress-i-zabolevaniya-shchitovidnoy-zhelezy-mekhanizmy-posledstviya-i-effektivnaya-profilaktika/
6. https://www.gosmed.ru/lechebnaya-deyatelnost/spravochnik-zabolevaniy/endokrinologiya-bolezny/sindrom-i-bolezn-kushinga/
7. М18 Психосоматика и эндокринные заболевания. Зачем тебе болеть? — СПб.: БХВПетербург, 2005. — 160 с: ил.
8. Гаврилов Ю.В., Корнева Е.А. Взаимодействие нервной и иммунной систем при стресс // Мед.акад.журн.2009. Т.9.№1. С 11-27. ГУ "Научно-исследовательский институт экспериментальной медицины РАМН", Санкт-Петербург. Стр-11

Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich
Buxoro davlat universiteti
Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar
kafedrasi dotsenti, (PhD)

BO‘LAJAK INFORMATIKA O‘QITUVCHILARIDA PEDAGOGIK KOMPETENTLIK OMILLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak informatika o‘qituvchilarida tashkiliy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari hamda, tashkiliy-pedagogik kompetentlikning tuzilishi, komponentlari, mezonlari va ko‘rsatkichlari hamda informatika o‘qituvchilarining tashkiliy faoliyatiga oid turli xil adabiyotlar tahlili olib borilgan.*

Kalit sozlar: *tashkiliy-pedagogik kompetentlik, axborot-kommunikatsiya, metodik tayyorgarlik, kasbiy faoliyat, pedagogik kuzatuv, ntervyu, modellashtirish, suhbat, pedagogik eksperiment, qabiliyat.*

ФАКТОРЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНФОРМАТИКИ

Аннотация. *В данной статье проведен анализ педагогико-психологических факторов развития организационной компетентности у будущих учителей информатики, а также структуры, компонентов, критериев и показателей организационно-педагогической компетентности и различной литературы, касающейся организационной деятельности учителей информатики.*

Ключевые слова: *организационно-педагогическая компетентность, информационно-коммуникативная, методическая подготовка, профессиональная деятельность, педагогическое наблюдение, НТВ-интервью, моделирование, беседа, педагогический эксперимент, одаренность.*

PEDAGOGICAL COMPETENCE FACTORS IN FUTURE INFORMATICS TEACHERS

Annotation. *This article carried out an analysis of pedagogical-psychological factors for the development of organizational competence in future teachers of informatics, as well as various literature on the structure, Components, criteria and indicators of organizational-pedagogical competence and the organizational activities of teachers of Informatics.*

Key words: *organizational and pedagogical competence, information and communication, methodological training, professional activity, pedagogical observation, ntervyu, modeling, conversation, pedagogical experiment, admission.*

Kirish. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini tubdan takomillashtirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, masofali ta’lim olish mazmunining takomillashtirilishi, pedagogik jarayonni tashkil etishda Informatika sohasi imkoniyatlaridan samarali foydalanishda bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining informatik kasbiy tayyorgarligining tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishning huquqiy-me’yoriy asoslari yaratildi.

Dunyo ta’limi va ilmiy tadqiqot muassasalarida maxsus tashkil etilgan platformalarda auditoriya va undan tashqari faoliyat jarayonida pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, aksiologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarni tashkiliy-pedagogik faoliyatiga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik tizimini ishlab chiqishga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini tayyorlashda axborot va internet texnologiyalari, ta’lim, jamiyatni axborotlashtirishning global jarayonlari, shaxsiy axborot xavfsizligi ko‘nikmalarini shakllantirishga tayyorlashning kooperativ ta’limga asoslangan texnologiyalarini takomillashtirish, globallashuv sharoitida talabalarda tashkiliy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish, informatsion texnologiyalar vositasida jamiyatni hamda o‘z shaxsiyatini rivojlantirishga imkon beruvchi ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Turli xil mamlakatlaridan O.Jigalova, V.Koropovskaya, V.Kotenko, G.Kruchinina, A.Kurbatskiy, M.Lebedeva, N.Listopad, N.Nurmagomedova, A.Pimenova, O.Sadikova, V.Suranov, T.Sepik, N.Tolstova, I.Falina, T.Shastun kabilarning tadqiqotlarida informatika o‘qituvchisining kasbiy, metodik tayyorgarligi, pedagogik shart-sharoitlari, informatika o‘qituvchisining kasbiy, maxsus-texnologik, tashkiliy-pedagogik kompetentligi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kompetensiyalarining xususiyatlari yoritib berilgan.

D.M.Esonbayevaning “Informatika va hisoblash texnikasi asoslaridan noan’anaviy darslar va ularni o‘tish metodikasi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiya ishida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-9-sinflarida informatika ta’limida noan’anaviy darslar tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan va noan’anaviy dars texnologiyalarining mazmun-mohiyati ochib berilgan [1].

D.B.Abduraximovning “Kasb-hunar kollejlarida informatikani ta’lim turlari aloqadorligida o‘qitish metodikasi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida kichik mutaxassislarning malakasini oshirishda informatika sohasida internet va masofaviy ta’lim asosida o‘qitish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan[3].

M.E.Mamarajabovning “Kasb-hunar kollejlarida informatika fanining “Amaliy dasturiy ta’minoti” bo‘limi mazmuni va o‘qitish metodikasi (Excel va Power Point dasturlari misolida)” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiya ishida kasb-hunar kollejlarida informatika fanida “Excel va Power Point dasturlari” mavzularini o‘qitish metodikasi va “Excel dasturi” mavzusiga oid elektron darslikdan tashkil topgan yangi avlod o‘quv metodik materiallar majmuasi ishlab chiqilganligini ko‘rishimiz mumkin [7].

A.G.Haitovning “Umumiy o‘rta ta’limda informatika va hisoblash texnikasi asoslarini o‘qitishni kompyuterlashtirish nazariyasi va amaliyoti” mavzusidagi doktorlik dissertatsiya ishida kompyuterli ta’lim, kompyuterli o‘qish faoliyati, kompyuter bilan bog‘lik jihatlarini tahlil etish pedagogik dasturiy vositalarning samaradorligini ta’minlashda ahamiyatli ekanligi nazariy jihatdan isbotlab berilgan.

M.Aripovning tadqiqot ishlarida fizika-matematika yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun MathCad dasturi bazasida virtual laboratoriyalar yaratilgan. Shuningdek, muallif tomonidan oliy ta’lim muassasalari kafedralarida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilarning faollik reytingi tizimi ham ishlab chiqilganligini ko‘rishimiz mumkin[6].

Ilmiy manbalarning nazariy tahlili zamonaviy o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi tizimini shakllantirishda asos qilib olingan asosiy fikrlarni ajratib ko‘rsatish imkonini berdi. Ularning kaliti zamonaviy o‘qituvchining “umr bo‘yi ta’lim” sharoitida kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorligini shakllantirish g‘oyasidir. Ushbu yo‘nalish zamonaviy o‘qituvchining doimiy o‘zini o‘zi rivojlantirish va o‘z-o‘zini o‘rganishga tayyorligini shakllantirish orqali shaxsiy va kasbiy rivojlanishini o‘z ichiga oladi.

Bo‘lajak informatika o‘qituvchisining kasbiy faoliyati mazmunini o‘rganish natijasida uning tarmoqlangan tuzilishga egaligi, faoliyat turlari va tegishli shaxsiy xususiyatlarni aks ettirishi ma’lum bo‘ldi.

Qidiruv faoliyati kasbiy muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni to‘plashdan iborat bo‘lib, u ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi, natijada yangi ilmiy bilimlar “tug‘ilishi” mumkin.

Konstruktiv faoliyat qidiruv faoliyatining yakuniy bosqichi bo‘lib, yangiliklarni izlash natijasida texnik obyektlarni qurish (tashkil etish)ni o‘z ichiga oladi.


Loyihalash faoliyati o‘rganilayotgan hodisalarning dastlabki shartlarini, omillarini va xususiyatlarini aniqlash va tahlil qilish, va modelni yaratishdan iborat.

Analitik faoliyat dizayn faoliyatidan keyingi faoliyat sifatida strukturani baholash va tushunish, munosabatlarni aniqlash, obyektlarning individual xususiyatlarini hisobga olish, shuningdek, kasbiy mahorat darajasini aniqlash imkonini beradi.

Kommunikativ faoliyat muloqot jarayonida kerakli ma’lumotlarni olishdan iborat bo‘lib, u muloqot, axborot almashish, tushunish uchun so‘z yasashdan iboratdir[4].

Ijtimoiy faoliyat oldingi faoliyatning ijtimoiy natijalarini baholashni va individual bosqichlarni mumkin bo‘lgan moslashtirishni ta’minlaydi. U mutaxassisning umume’tirof etilgan qadriyatlar, huquq, davlat va jamiyatga munosabatini qamrab oladi, shuningdek, ijtimoiy tajribani o‘z qadriyatlari va yo‘nalishlariga aylantirish jarayoniga hissa qo‘shadi.

Fikrlash faoliyati o‘z fikrlarini rivojlantirish va mavjud qarashlarni qo‘shimcha ravishda o‘zgartirish jarayonini o‘z ichiga olib reproduktiv bilimlarni to‘ldiradi[4].



1.1-rasm. Bo‘lajak informatika o‘qituvchisining kasbiy faoliyati tuzilishi

Tahlil va natijalar. Psixologik-pedagogik adabiyotlar asosida mualliflar oliy ta’lim muassasalarida malakalarning turlicha tasnifini beradilar. Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahliliga asoslanib, bo‘lajak informatika o‘qituvchisiga xos bo‘lgan ko‘nikmalar guruhiga quyidagilarni kiritish mumkin deb hisoblaymiz:

1) gnostik ko‘nikmalar - ishlab chiqarish bilimlarini o‘zlashtirish, yangi ma’lumotlarni olishni ta’minlash, undagi asosiy, muhim jihatlarni ajratib ko‘rsatish, ilg‘or tajribalarni umumlashtirish va tizimlashtirish sohasidagi kognitiv ko‘nikmalar;

2) konstruktiv-texnik ko‘nikmalar – integrativ dizaynga oid ko‘nikmalar;

3) umumiy pedagogik ko‘nikmalar – sxemalarni o‘qish va tuzish, hisob-kitob va grafik ishlarni bajarish, informatika va axborot texnologiyalari kursining mazmun yo‘nalishlarini o‘rganishning uslubiy xususiyatlarini aniqlash;

4) texnologik ko‘nikmalar – uslubiy vaziyatni tahlil qilish, texnologik jarayonni rejalashtirish va oqilona tashkil etish, texnik qurilmalarni ishlatish bo‘yicha pedagogik mahorat;

5) ishlab chiqarish va operativ ko‘nikmalar – turdosh kasblar bo‘yicha umumiy mehnat ko‘nikmalarini anglatadi;

6) maxsus ko‘nikmalar – milliy iqtisodiyotning istalgan tarmog‘i doirasidagi mutaxassislik bo‘yicha ko‘nikmalar.

Ilmiy-nazariy tahlillar asosida, kompetentlik nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalarning yig‘indisi, balki motivatsion, ijtimoiy va xulq-atvor kabi tarkibiy qismlarni ham o‘zida ifodalaydigan kompetensiya rivojining yuqori darajasi deb izohlashimiz mumkin. Ushbu holatda kompetensiya shaxsning integral sifatlarini o‘z ichiga olgan kompetentlikka “aylanadi” va shaxsning ma’lum bir sohadagi faoliyat tajribasini anglatadi.

Jamiyatning rivojlanishi ta’lim tizimini jadal rivojlantirishni, uning asosiy paradigmasini qayta ko‘rib chiqishni ham taqozo etmoqda va bu jarayon bo‘lajak informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligiga ham ma’lum talablarni qo‘yadi.

Ma’lumki, informatika fanini o‘qitishdan maqsad axborot madaniyatini shakllantirish, pedagogik faoliyat sohasida ishlash uchun zarur bo‘lgan axborot madaniyatining muhim tarkibiy qismi axborotlashtirish vositalari va infokommunikatsiya texnologiyalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. A.S.Sharovning tadqiqotlarida bo‘lajak informatika o‘qituvchisining pedagogik faoliyatda axborotlashtirish vositalari va infokommunikatsion texnologiyalardan foydalanishga tayyorlashning nazariy asoslari ishlab chiqilgan bo‘lib, tadqiqotchi tomonidan nazariy bilimlardan amaliyotga o‘tishing ta’lim oluvchilar faoliyatining uchta asosiy shakli orqali yuzaga chiqishi ta’kidlanadi. Bular: belgilarni aks ettira olish (bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish va qo‘llash), o‘zgartirish-modellash (olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni tushunish, rivojlantira olish

va amalga oshirish) va prognostik-amaliy faoliyat (olingan va “ishlab chiqilgan” bilim, ko‘nikma va malakalarni tuzatish va tizimlashtirishni o‘z ichiga oladi).

Nazariy tahlillar asosida o‘qituvchi va informatika o‘qituvchisining pedagogik kompetentligining komponentlari sifatida olimlar tomonidan quyidagi tarkibiy qismlar ajratib ko‘rsatilganligini ko‘rishimiz mumkin:

- motivatsion-irodaviy, funksional, kommunikativ va refleksiv (S.A.Drujilov).
- kasbiy-ta’lim, kasbiy-faoliyat va kasbiy-shaxsiy (H.N.Lobanova, M.B.Yesaulova).
- maxsus, kasbiy, uslubiy, ijtimoiy-psixologik, differensial-psixologik va avtopsixologik (N.V. Kuzmina).
- ijtimoiy, maxsus va individual (A.SHelten).
- kognitiv, motivatsion-qadriyatli, operativ-faoliyatli va ijtimoiy-psixologik (Tatur, Y. G.).
- motivatsion-shaxsiy, kognitiv-faollik va refleksiv-baholash (V.I.Kudzoyeva).

Xulosa

Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahlili asosida bo‘lajak informatika o‘qituvchisining kasbiy faoliyati va kasbiy tayyorgarligi mazmunini quyidagicha izohlashimiz mumkin: informatika o‘qituvchisining kasbiy faoliyati mutaxassisning malakasi va ta’lim darajasini o‘zida namoyon etib, iqtisodiy, sotsiologik kasbiy faoliyatning psixologik tomoni va axloqiy jihatlarni nazarda tutsa, kasbiy tayyorgarligi zaruriy kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish asosida yuzaga keluvchi shaxs ijtimoiy kompetentligining o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib, mutaxassisning butun faoliyati davomida ma’naviy-axloqiy hamda kasbiy sifatlarining yanada takomillashishi, kasbiy kompetentlikning shakllanishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30-iyundagi “Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5099-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son farmoni.
3. Добудко Т.В. Формирование профессионалной компетентности учителя информатики в условиях информатизации образования. – Самара: СамГПУ, 1999. – 340 с.
4. Зеер Э.Ф. Компетентностний подход к образованию // Образование и наука. – М., 2005. – № 3. – С. 27-35.
5. Зимняя И.А. Обшая культура и социально-профессиональная ком-петентност человека // Высщее образование сегодня. –М.,2005.–№ 11.– С. 16.
6. Толстова Н.А. Формирование организационно-педагогической компетентности будущего учителя информатики в образовательном процессе вуза:дисс.канд.пед.наук. – Белгород – 2013. – 255 с. – 47 стр.
7. Tolipov O‘.Q. Oliy pedagogik ta’lim tizimida umummehnat va kasbiy ko‘nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari // Monografiya. – T.: Fan, 2004. – 73-80 bet.

Bo‘ronova Kamola Baxtiyorovna
Buxoro davlat universiteti
Psixologiya ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

OTA-ONA VA FARZANDLAR O‘RTASIDAGI EMOTSIONAL MUNOSABATLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi emotsional munosabatlarning ijtimoiy-psixologik asoslari hamda ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi emotsional munosabatlarning o‘rganishning amaliy natijalarining ilmiy adabiyotlarda talqini haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *emotsionallik, individuallik, psixologik xususiyatlar, emosional zo‘riqishlar, tasavvur, idrok, ijtimoiy persepsiya, bezovtalik, korreksiya, stress, psixofiziologiya.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ РОДИТЕЛЯМИ И ДЕТЬМИ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются социально-психологические основы эмоциональных отношений между родителями и детьми, а также интерпретация практических результатов исследования эмоциональных отношений между родителями и детьми в научной литературе.*

Ключевые слова: *эмоциональность, индивидуальность, психологические особенности, эмоциональные напряжения, воображение, восприятие, социальная персепция, тревожность, коррекция, стресс, психофизиология.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF EMOTIONAL RELATIONS BETWEEN PARENTS AND CHILDREN

Annotation. *This article will talk about the socio-psychological foundations of emotional relations between parents and children and the interpretation of the practical results of the study of emotional relations between parents and children in the scientific literature.*

Key words: *emotionality, individuality, psychological characteristics, emotional tensions, imagination, perception, social perception, anxiety, correction, stress, Psychophysiology.*

Kirish. Mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni qurish g‘oyasi ilgari surilayotgan bugungi kunda yoshlarni har tomonlama sog‘lomligini va raqobatbardoshliligini ta’minlashga qaratilgan e’tibor barchaning diqqat markazidadir. Bu g‘oyaning tashabbuskori bo‘lgan davlatimiz rahbari har bir masalaga doir nutqlarida yoshlarga qarata murojaat bilan chiqadilar. Xususan 2022-yil 30-iyun yoshlar kuniga bag‘ishlangan marosimdagi nutqida quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir: “Bugungi yoshlarimizning salohiyati, dunyoqarashi, bildirgan taklif va tashabbuslari, mustaqil fikrlashi, kelajak va Vatan haqida, o‘zining jamiyatdagi o‘rni va mas’uliyati haqidagi qarashlari barcha ota-onalar, ustoz-murabbiylar qatorida meni ham cheksiz quvontiradi. Dunyodagi murakkab vaziyatni o‘zingiz ko‘rib turibsiz. Har kuni yangi xavf-xatarlar va tashvishlarga duch kelyapmiz. Bunday vaziyatlarda xalqimizning irodasi va matonatiga tayanib, Ozbekistonning milliy manfaatlariga javob beradigan yagona to‘g‘ri yo‘lni topish uchun birgalikda intilmoqdamiz. Mehnatkash va bag‘rikeng, olijanob xalqimiz, sizdek bilimli, faol va shijoatli o‘g‘ilqizlarim bor ekan, biz har qanday qiyinchiliklarni albatta yengib o‘tamiz.

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy hayotida so‘nggi yigirma yillar davomida muhim o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu madaniy ma’rifiy mazmunga ega bo‘lgan tub islohotlarning samarasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad – O‘zbekiston Respublikasida insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va jamoyat barpo etishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili. Ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi emotsional munosabatlar muammosi xorij olimlari tomonidan faol tarzda o‘zganilmoqda. Jumladan: D. G‘oulman, G. Orme, J. Mayer, P. Selovey, D. Karuzo, R. Bar-On, J. Sayarrochi, D. Slayter, R. Roberts, J. Mettyus, M. Zaydner, P. Lopes, R. Sternberg, J. Blok, M. Kets de Vris. Rus psixologiyasi sohasida Ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi emotsional munosabatlar atamasi birinchi bo‘lib G.G. Garskova tomonidan qo‘llanilgan. Keyinchalik quyidagi olimlar emotsional munosbatlarni o‘rganish bilan shug‘ullandilar: D.V Jyusin, E.L Nosenko, N.V. Kovriga, O.I Vlasova, S.P. Derevyanko, M.A. Manoylova, G.V. Yusupova, A.S. Petrovskaya va boshqalar.

Oilaviy munosabatlar har qanday bolaning hayotida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bolalikda shakllangan xulq-atvor namunasi, hatto buzg‘unchi bo‘lsa ham, u ko‘p jihatdan o‘zini namoyon qiladi. Ota-onalar bolalar va o‘smirlarga eng katta ta’sir ko‘rsatadigan odamlardir. Shuning uchun ularning asosiy vazifasi eng kam nizolar va janjallar bilan uyg‘un, yaxshi munosabatlarni shakllantirishdir.

Ota-ona bo‘lishga tayyorlanayotgan er-xotinning chaqalog‘iga faqat eng yaxshisini berishni xohlashlari mutlaqo normal va tushunarli. Ammo ona va ota tushunishlari kerakki, ularni tarbiyalashda ular asosan o‘z oilalarida mavjud bo‘lgan munosabatlar namunasini takrorlaydilar.

Bolalar va ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlarning psixologik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

O‘zaro ishonch. Bir-biriga nisbatan shubhalarning yo‘qligi oilada tinchlikni ta’minlaydi. Shubhaning paydo bo‘lishi ishonchni yo‘qotishga olib keladi va kelajakda insonning kattalardagi yolg‘izligining asosiy sababiga aylanadi. Bundan tashqari, ko‘pchilik muammoning ildizi bolalikdagi oilaviy munosabatlarida ekanligini tushunmaydi.

Ratsional baholash. Ota-onalar farzandiga uning shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatlarini munosib baholash uchun yetarlicha e’tibor berishlari kerak. Siz bolaning hayotida ishtirok etishingiz, roziligingizni, hamdardligingizni bildirishingiz va unga ba’zi maslahatlar berishingiz kerak. Faqat birgalikdagi sa’y-harakatlar orqali natijalarga erishish mumkin.

Qo‘llab-quvvatlash va hamdardlik. Oiladagi o‘zaro munosabatlarning eng muhim nuqtasi. Agar ota-onalar bu his-tuyg‘ularni namoyon qilsalar, bola o‘z kompaniyasida xotirjamlikni his qiladi.

Yetarli talablar. Bolaligidanoq bola o‘z mas’uliyatini aniq tushunishi va ularni bajarishi kerak. Mas’uliyat taqsimlanmagan oilalarda bolalar ko‘pincha og‘ir psixologik noqulaylikni boshdan kechirishadi. Ular ota-onalarini rozi qilishga harakat qilishadi, lekin buni qanday qilishni bilishmaydi, chunki ular oila ierarxiyasidagi o‘z o‘rnini tushunmaydilar.

Bola hamma narsani to‘g‘ri bajarayotganini tushunish uchun ota-onasi tomonidan uning harakatlarini doimiy ravishda baholash, ularning yordami va e’tiboriga muhtoj. Agar ota-onalarning reaktsiyasi bo‘lmasa, bu noaniqlikning rivojlanishiga va o‘z-o‘zini hurmat qilishning pasayishiga olib keladi. Natijada, bola ko‘pincha oilaviy munosabatlardan tashqarida tushunishni topishga harakat qiladi, bu ko‘pincha xavfli bo‘lishi mumkin.

Kattalar o‘zlarining oiladagi munosabatlari bolaga o‘rnak ekanligini aniq bilishlari kerak. Bolaning xarakterining poydevori etti yoshga to‘lgunga qadar qo‘yiladi. Shundan so‘ng, faqat psixologlar bilan ishlash orqali nimanidir yaxshi tomonga o‘zgartirish mumkin bo‘ladi. Va bu juda ko‘p kuch, vaqt, kuch talab qiladi.

Bolalar va ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlar psixologiyasi quyidagi muhim fikrlarni o‘z ichiga oladi:

1. aloqa;
2. jamoaviy ish;
3. ota-onalarning bolaning xarakterini shakllantirishga ta’siri;
4. bolaning ota va ona o‘rtasidagi munosabatlarga ta’siri.

Oilada munosabatlarning bir necha turlari mavjud:

1. Barcha oila a’zolarining manfaatlarini hisobga olgan holda o‘zaro manfaatli hamkorlik;
2. Raqobat, har bir kishi oilaning etakchisi bo‘lishga va hatto boshqa a’zolarning manfaatlariga tajovuz qilish orqali o‘z ehtiyojlarini qondirishga harakat qilganda;
3. Ittifoq - hujayraga kiritilgan barcha odamlar o‘z imtiyozlariga ega;
4. Qarama-qarshilik - bu boshqa oila a’zolariga katta zarar yetkazish bilan tahdid qilsa ham, xo‘jayin bo‘lish istagi;
5. Qarama-qarshilik - oilaviy ahvolidan qat’i nazar, bir-birining istaklari va fikrlarini butunlay rad etish.

Oilaviy munosabatlar turlari

1. Ijtimoiy - biologik. Bular gigiena, tug‘ilish, bolalar va ota-onalarning bir-biriga g‘amxo‘rlik qilishlari.

2. Huquqiy. Ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlar masalalari, shuningdek, meros va farzandlikka olish masalalarini o‘z ichiga oladi.

3. Iqtisodiy va iqtisodiy. Pul topish, oila byudjetini yaratish, bolalar va qariyalarga g‘amxo‘rlik qilish.

4. Axloqiy. Bolalarni tarbiyalash, har bir oila a’zosining axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish.

5. Pedagogik. Ota-onalar bolani tarbiyalaydi va u ulg‘aygach, u o‘z farzandlarini tarbiyalashi uchun pedagogik funktsiyani unga o‘tkazadi.

6. Psixologik. Oila ichidagi his-tuyg‘ular va uning barcha a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar. Muloqot va munosabatlar sog‘lom bo‘lishi uchun oila har qanday urinishda bir-birini qo‘llab-quvvatlashi kerak.

Ota-ona va bola munosabatlarining shakllanishi va dinamikasiga ta’sir qiluvchi omillarga quyidagilar kiradi: butun oila tizimi, uning faoliyati va rivojlanishining xususiyatlari; oila tizimining tarkibiy elementlari sifatida har bir oila a’zosining individual xususiyatlari; jamiyat, chunki oila bu katta ijtimoiy tizimning tarkibiy qismidir. R.V.Ovcharova barcha omillarni to‘rt darajaga guruhlashni taklif qiladi:

- 1) makro daraja yoki ijtimoiy ta’sir darajasi;
- 2) mezo-daraja yoki ota-ona oilasining ta’sir darajasi;
- 3) mikro daraja yoki o‘z oilasining darajasi;
- 4) individual daraja yoki barcha individual va shaxsiy xususiyatlariga ega bo‘lgan o‘ziga xos shaxs darajasi [3].

Bolalar va ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlar ikkita asosiy komponentni o‘z ichiga olgan noyob tuzilishga ega: ota-onalarning bolaga munosabati va bolaning ota-onasiga munosabati.

Ota-onalarning bolaga munosabati boshqa ko‘plab elementlarni o‘z ichiga olgan murakkab va ko‘p qirrali hodisadir. Ota-onalarning o‘z farzandiga bo‘lgan munosabatini o‘rganishda tadqiqotchilar hozirgi kunga qadar aniq belgilangan yagona tuzilmani aniqlamadilar.

«Siz va farzandlaringiz» ijtimoiy psixologik so‘rovnomasi orqali olingan dastlabki natijalar (n=80)

Omil	Soni (erkak)	%	Soni (ayol)	%
Loqayd	30	32	30	22
Zolim	14	29	14	43
O‘rtoq	11	14	11	13
Xizmatkor	25	25	25	26
Jami:	**80**	**100**	**80**	**100**

Ota-onalar bilan olib borilgan ijtimoiy so‘rovnoma natijalariga ko‘ra «loqaydlik omili» erkaklarda 32% ni, ayollarda 22% ni ko‘rsatdi. Bunga sabab erkaklar ayollarga nisbatan doimiy ko‘chada mehnat faoliyati bilan band bo‘lganliklari uchun farzandlariga ota sifatida onaga nisbatan biroz loqaydroq bo‘lishadi. Ona esa aksincha kun davomida bolasi bilan ovora bo‘ladi, uning xursandchiligi, injiqliklarini ko‘radi, ehtiyojlarini bajarishga ko‘maklashadi, bu esa ularning avtomatik tarzda etiborli bo‘lishlarini talab qiladi. Bolalar ulg‘ayib o‘smir yoshga yetganda ham o‘z dunyoqarashi bilan ovoradek tuyilsa-da, malum bir masalalarda, masalan, kasb tanlash, o‘qish, muhim bir qaror qabul qilish borasida ko‘proq onasi bilan maslahatlashadi.

2-omil «Zolim» (farzandga nisbatan qattiqqo‘l, talabshan) omili bo‘yicha erkaklar 29% ni, ayollar eca 43%ni egalladi va ayollar erkaklarga nisbatan ustunlik qilishdi. Bunga sabab o‘z-o‘zidan 1-omilga borib taqaladi. Chunki ayollar kun davomida farzand bilan ovora bo‘lganliklari bois uning yutuq va kamchiliklarini ko‘rishadi, his qilishadi va ma’lum o‘rinda xursand bo‘lishadi va kamchiliklarini tuzatishga harakat qilishadi. Zolim omilini farzandga qilingan qattiqqo‘llik, tanbeh berish manosida izohlash maqsadga muvofiq. Shunday vaziyatlar paydo bo‘ladiki, farzand ulg‘aygan sari unga turli omillar ta’sir ko‘rsata boshlaydi. Bu omillar bola ruhiyatiga salbiy va ijobiy tasirini ko‘rsatishi mumkin. Salbiy taassurotlarga berilish farzandni keskin harakatlar qilishga, noto‘g‘ri fikrlashga undaydi. Farzand xatti-harakatlarida kuzatilgan tartibcizlik yoki noo‘rin taassurotlar ota-onani, ko‘proq onani jazo qo‘llash yo‘li bilan farzandni tartibga solish usulidan foydalanishga majbur qiladi. Bu usuldan otalarga nisbatan uyda onalar ko‘proq foydalanishadi.

3-omil «O‘rtoq» omili bo‘lib, bunda erkaklar 15% ni, ayollar 14% natija egallashdi. Ushbu ko‘rsatgichdan ma’lumki, farzand bilan do‘stona munosabatda bo‘lishda ota-onalar qisman teng o‘rinda turishar ekan. Ammo qaysidir ma’noda otalar onaga nisbatan farzandiga biroz ustunlik qilishadi, ayniqsa, o‘g‘il bolalar bilan munosabat o‘rnatish va uni saqlab qolishda otaning o‘rni ahamiyatli hisoblanadi. Farzand bilan nafaqat uni dunyoga keltirgan ota-ona, balki sirdosh, maslakdosh va dildan bir-birini tushunib his qila oladigan darajadagi do‘stona munosabatlarni o‘rnata olish kelajakda farzand tarbiyacining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Bu o‘rinda ota-onaning roli beqiyos

sanaladi. Yoshligidan bolaning ehtiyojlari bilan qiziqish, uning beradigan savollariga tushunarli javob berish, ulg‘aygan sari uning intilish va qiziqishlari bilan qiziqish har bir ota-onaning vazifasidir. Kerakli vaqtda farzandga ota-ona sifatida to‘g‘ri maslahat bera olish va yordam qo‘lini cho‘zish farzand va ota-ona o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarning shakllanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Recpublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to‘g‘risidagi PF-60-sonli Farmoni.
2. Andreyeva G.M. Ijtimoiy bilish psixologiyasi: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. – Ed. 2, qayta ko‘rib chiqilgan va qo‘shimcha – M.: Aspect Press, 2000.
3. Drujinin V.N. Oila psixologiyasi. -M.: "KSP", 1996-yil.
4. Ovcharova R.V. Ota-onalar uchun psixologik yordam. – M.: Psixoterapiya instituti nashriyoti, 2003-yil.
5. Psixologik maslahatdagi oila: Psixologik maslahat tajribasi va muammolari / Ed. A.A. Bodaleva, V.V. Stolin. – M.: Pedagogika, 1989-yil.
6. Sinyagina N.Yu. Ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarni psixologik va pedagogik tuzatish. - M .: Insonparvarlik. ed. VLADOS markazi, 2003-yil.
7. Spivakovskaya A.S. Ota-onalar uchun pedagogika. - M., 1986-yil.
8. Schneider L.B. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. Ma’ruza kursi. – M.: Aprel-Press, 2000-yil.

Azimova Nasiba Ergashovna
Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrasi professori
Orcid: 0000-0002-3522-1677

PEDAGOGIK KOMPETENTLIKKA OID ILMIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya. *Bugungi kunda jamiyat uchun butunlay yangi qiyofadagi mutaxassis talab qilinayapti. U faol ijodiy fikrlovchi, izlanuvchan, ilmiy axborotlarni mustaqil ravishda izlab topuvchi va ularni o‘z amaliy faoliyatida qo‘llovchi mutaxassis bo‘lib yetishishi lozim.*

***Tayanch so`zlar:*** *pedagogika, ta`lim, tarbiya, kompetensiya, hamkorlik, texnologiya, kasbiy kompetensiya, innovatsiya, milliy pedagogika, ilmiy izlanish.*

НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ К РЕДАКЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Аннотация. *В наши дни обществу требуется специалист в совершенно новом облике. Он должен вырасти активным творческим мыслителем, исследователем, специалистом, самостоятельно ищущим научную информацию и применяющим ее в своей практической деятельности.*

Ключевые слова: *педагогика, образование, воспитание, компетентность, сотрудничество, технология, профессиональная компетентность, инновации, национальная педагогика, научные исследования.*

SCIENTIFIC APPROACHES TO EDITORIAL COMPETENCE

Annotation. *Nowadays, society needs a specialist in a completely new guise. He should grow up to be an active creative thinker, researcher, specialist, independently seeking scientific information and applying it in his practical activities.*

Keywords: *pedagogy, education, upbringing, competence, cooperation, technology, professional competence, innovation, national pedagogy, scientific research.*

Kirish. Pedagogik kasbiy kompetensiya nuqtayi nazaridan yondoshuv masalasida butun dunyo olim va mutaxassislari o‘rtasida ilmiy munozara va bahslar davom etmoqda. AQSh va Yevropa mamlakatlari pedagogik olimlariga nisbatan Rossiya olimlari kasbiy kompetensiya masalalariga mukkasidan ketganligi yaqqol ko‘rinadi. V.Slastenin, I.Isayev va boshqalar tomonidan yozilgan “Pedagogika” o‘quv qo‘llanmasining 3-bobi “Pedagogning kasbiy kompetensiyasi”[1]ga bag‘ishlanib, bu tushuncha va mahorati haqida fikrlar beradi. Mualliflarning ta’kidlashicha, pedagogika kompetensiya tizimi, amaliy va nazariy tayyorgarligi, pedagogning kasbiy kompetensiyasi kasbi boshqaruvchi va shakllantiruvchi xususiyatga ega. Shaxs shakllanishini boshqarish kompetentlikni talab qiladi. Bu o‘zida o‘qituvchining nazariy va amaliy tayyorgarligini jamlagan holda uning kasbiy mahoratini namoyish qiladi. U yoki bu kasb yo‘nalishi bo‘yicha o‘qituvchining malakaviy tasnifi pedagog kompetensiyasi modeli me’yorlari bilan o‘lchanadi, deb yozadilar. V.A.Bolotov va V.V.Serikovlarning fikriga ko‘ra, kompetensiya nuqtayi nazaridan yondoshuv talabaning bilimdonligini emas, balki muammolarni hal qila olish qobiliyatini ko‘rsatadi va eng birinchi darajadagi zarur qobiliyat deb baholaydi.[2] Ye.V.Bondorevskaya va S.V.Kulnevichning ilmiy ishlarida talabalar yig‘adigan kompetensiya unsurlari faqat asosiy maqsadga, pedagogik faoliyat olib borish uchun yo‘naltirilishi yoki zarur bo‘lishi lozim deb hisoblaydi.

V.S.Yelegina va S.M.Poxlebaev tomonidan Rossiyaning “Fundamentalnoe issledovanie” jurnalining 2012-yil 3-sonida e’lon qilingan “Kompetentnostniy podxod k organizatsii obuchenie studentov v pedagogicheskom vuze»[3] ilmiy maqolasida kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim sharoitida talaba o‘z faoliyatidan ijodiy natija oladi va shu bilan birgalikda, muvaffaqiyat qozonishning usullari, yo‘llari, metodlari, yondoshuvlari va uslublarini o‘zlashtirib oladi. Aynan talaba tomonidan yaratilgan ijodiy natija talaba bilan o‘qituvchining hamkorlikdagi ijodiy natijasi hisoblanadi. Talabaning o‘zlashtirishiga baho berishdan maqsad, berilgan ta’limning qanchalar samarador bo‘lganligi darajasini aniqlash, bu birinchidan, maktabda olgan nazariy bilimlari darajasini bilish, ikkinchidan undagi kompetensiya shakllanishi, amaliyot paytidagi muvaffaqiyatli faoliyati yanada tezlashadi. Chuqur islohotlarni, modernizatsiyalashni talab qiladigan zamonaviy ta’lim o‘z-o‘zidan kompetensiya nuqtayi

nazaridan yondoshuv masalasini ko‘ndalang qilib qo‘yadi. Bu albatta, kasb jihatdan kompetentligi bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlashni talab qiladi.

Ta’limning asosiy maqsadi talabada ijtimoiy zarur sifatlarni va kompetensiyani, shaxs sifatida o‘zo‘zini anglash, o‘z bilimlarini doimiy oshirib borish, o‘z-o‘zini boshqarib borish va faollashib borishni shakllantiradi. Albatta, bu mavzuning o‘rganilganligi darajasini ko‘plab xorijiy va mamlakatimizdagi oliy va mutaxassislar tomonidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda ko‘rishimiz mumkin. Agar biz AQSh oliy pedagogik ta’limi tizimi faoliyatiga nazar tashlamoqchi bo‘lsak, B.D.Vulfson, T.N.Kurilova, Z.A.Malkova va boshqalarning ilmiy ishlarini, agar AQSh pedagogik ta’limining maqsadlari haqida bilmoqchi bo‘lsak, N.D.Nikandorova, V.Ya.Pilipovskiy, bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning kasbiy pedagogik ta’limi bo‘yicha G.G.Agapova, O.O.Borovikova, V.S.Budenko va boshqalarning ishlarini, AQSh o‘qituvchilarining malaka oshirish tizimi haqida esa V.B.Gargay, N.I.Kustinova va boshqalarning ishlariga nazar tashlasak, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yuqorida nomlari tilga olingan olimlarning ilmiy ishlaridan Rossiya va AQSh ta’lim tizimi bir-birini to‘ldirib boyitganligini tasavvur qilishimiz mumkin. AQSh, Kanada, Avstraliya va bir qator Yevropa mamlakatlarida pedagogik kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimi yaratilganligi ko‘zga tashlanadi va ular bu muammoni ma’lum bir tizimga solib keng o‘rganmoqdalar. AQShda Kompetensiyaviy yondoshuvning falsafiy asoslari masalasida, ularning global maqsad va vazifalari, tashkiliy tizimi, mohiyati, ta’lim standartlari, sifati, ta’limning sifatini nazorat qilish, oliy pedagogik maktablarning faoliyatini aks ettirgan mualliflar M.Apple, D.Armstrong, D.L.Ball, D.Barnes, F.Baumgartner, M.Cochran-Smith, D.K.Cochan, L.Darling-Hammond, S.Feiman-Nemser, A.D.Glenn va boshqalar.[4]

Metodlar. Bizning mamlakatimizda zamonaviy o‘qituvchi qanday bo‘lishi kerak, degan savol birinchi darajaga chiqadi. Kompetensiya nuqtayi nazaridan yondoshuv masalasiga xorijiy mamlakatlarda bo‘lgani kabi ko‘r-ko‘rona yondashilmaydi. Kasbiy kompetensiya o‘rniga ijodiy jamoalar va pedagogik olimlar tomonidan kasbiy mahorat tushunchasi berilib, asosiy ilmiy ishlarda ma’lum bir soha va fanlarni o‘qitish borasida metod va uslublarni ishlab chiqishga qaratilgan, lekin aynan kompetenli o‘qituvchi masalasiga yondoshuv endigina amalga oshirilmoqda. Mamlakatmiz uzluksiz ta’lim tizimining malaka oshirish bo‘g‘inida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, uni amalga oshirish hozirgi davr istiqbol talablaridan amaliyotchi o‘qituvchilar yetarli hamda samarali foydalana olmayaptilar. Buning asosiy sabablari malaka oshirish muammolari yetarli darajada tadqiq etilmaganligida, faqat sanoqli olimlargina kompetensiya nuqtayi nazaridan yondoshuvga e’tibor qaratganligidadir. Respublikamizda malaka oshirish muammolari va kasbiy kompetensiya masalalarida B.Adizov, A.A.Ahmadov, A.X.Aminov, T.L.Xurvaliyeva, N.A.Muslimov, Sh.Saidqulov kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Bu tadqiqotlarda asosan malaka oshirish tizimini takomillashtirishning tashkiliy pedagogik masalalari va pedagogik tashxis masalalari o‘rganilgan. Abdulla Avloniy nomidagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash instituti olimlari biz yuqorida tilga olgan dunyoviy tajribalardan foydalanilgan holda kompetensiya tushunchasi va uning turlari haqida fikr yuritar ekan, T.L.Xurvaliyeva kasbiy kompetensiyani turlarga bo‘lib o‘rganishni taklif qiladi. Uni kasbiy kompetensiya, kasbiy kompetensiyani shakllanish bosqichlari, shaxsiy kompetensiya, umummadaniy kompetensiya va maxsus kompetensiya turlariga bo‘lib o‘rganishni tavsiya qiladi. Ko‘proq rus pedagog olimlari materiallaridan, ayniqsa, A.V.Xutorskiy ta’limda o‘qituvchining yetti kompetensiyasini tasniflaganligini tilga olib, ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zbek pedagogika tizimiga tatbiq qilishga harakat qiladi. Bu borada 2013-yil 10-aprelda “O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi tizimining pedagogik-psixologik muammolari” deb nomlangan xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Ushbu konferensiyada T.Abdullayev, Z.Ismoilova “Pedagog kadrlar tafakkurini o‘zgartirishning pedagogik-psixologik muammolari”, N.Abdullayeva “Talabalarning ijodiy fikrlash salohiyatini rivojlantirish”, N.A.Muslimov, O.A.Qo‘ysinov “Kasb ta’limi o‘qituvchilarining malakasini oshirish jarayonida kasbiy-ijodiy kompetentligini shakllantirish”, F.Mirzayeva “Pedagog shaxsning kasbiy tayyorgarligi xususiyatlari”, Q.Olimov, K.Umatalieva “Razvitie professionalnoy kompetentnos ti sostavlyayushaya pedagoga” deb nomlangan ilmiy maqolalaridan boshqa barcha maqolalar o‘qitish usullari va metodlari, turli fan va mutaxassisliklarni o‘qitish texnologiyalari va pedagogikaning an’anaviy ilmiy nazariyalariga bag‘ishlanganligi ko‘zga tashlanadi. Demak, kompetensiya va kompetensiya nuqtayi nazaridan yondoshuv masalalarini alohida o‘rganish tizimi juda sekinlik bilan amalga oshmoqda. Shularni inobatga olgan holda, oliy ta’lim o‘qituvchisi kompetensiyasini takomillshtirish masalasini O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan kelib chiqqan holda chuqur o‘rganish zarurligini va ko‘plab ilmiy ishlar olib borilishi kerakligini ta’kidlash joiz.

O‘qituvchi kasbiy kompetensiyasini shakllantirish aspektlari.

Pedagog o‘z ixtisosligi bo‘yicha ta’lim va tarbiya ishlari yuzasidan jamiyat oldida mas’uldir. U muntazam ravishda o‘z kasbiy tayyorgarligini takomillashtirib borish bilan birgalikda o‘qituvchi, muallim, ustoz, tarbiyachi, pedagog huquqiga ega bo‘lishi, aniqrog‘i, kasbiy kompetensiya egasi bo‘lishi lozim. Endilikda o‘qituvchi uchun o‘zi tanlagan kasb, fan, mutaxassislik borasidagi amaliy va nazariy bilimlarni puxta egallash kamlik qilib qoldi. U har qanday vaziyatda ta’lim-tarbiyani yangi-yangi usul va metodlarini o‘z faoliyatida qo‘llay olishi, bir so‘z bilan aytganda, kompetensiya egasi bo‘lishi lozim.

“Kompetensiya” tushunchasi, kompetensiya nuqtayi nazaridan yondoshuv, kompetensiya egasi, bu atamalarning mazmuni haqida to‘xtalish uchun, eng avvalo, asrlar davomida shakllangan bu boradagi milliy an’ana va qadriyatlarga e’tibor qaratamiz. Bizning yurtimizda biron-bir kasbkor egasi o‘z kasbini mahorat bilan egallab, uni shogirdlariga o‘rgata boshlasa, uning nomiga mazkur kasb atamasini qo‘shib atay boshlaganlar. Mosh tabib, Omon tabib, Oboqul kulol, Latif sartarosh, Murodjon hofiz, Mamatoy temirchi yoki Mamatoy aka pichoqlari va hokazo. Bu e’tirof aynan shu odamning ma’lum bir kasb egasi bo‘lganligi uchun emas, balki yuksak hudud aholisining biron-bir kasb bilan shug‘ullanishi ham ana shunday e’tirofga yuksak muvaffaqiyatlari orqali erishganliklari dan dalolat beradi. Chust pichoqlari, Chust do‘ppisi, Rishton kulollari, Urgut kulollari, Samarqand nonvoylari, nonlari va hokazo. Bu albatta, o‘z kasbkorini uzluksiz rivojlantirib, ko‘p yillar mobaynida elga xizmat qilgan kishi yoki kasbkor egasiga yoki jamoaga berilgan e’tirof, vakolat, ishonch – amonaviy va ilmiy til bilan aytadigan bo‘lsak, kompetensiya ekanligini sezib olish qiyin emas. Xalq san’ati borasida ham shunday fikrlarni aytish mumkin, ammo kasbning oliy darajaga ko‘tarilishi, bu kompetensiyadan bal-androq malaka – mahoratdir. Abdurahim Dorboz, Tursunboy polvon, Mamat o‘qituvchi, Mamat dom-la va boshqalar. “Kompetensiya” tushunchasini izohlar ekanmiz, bu atamaning mazmun-mohiyatiga e’tibor qaratamiz. Kompetensiya lotincha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “munosib”, “to‘g‘ri keladi” yoki “mos keladi” ma’nolarini anglatadi. O‘z bilim, mahorat va amaliy tajribalarni qo‘llagan holda oddiy va murakkab masalalarni yecha olishga munosib inson deb tushunsa bo‘ladi. Ko‘p hollarda “kasbiy kompetenlik” atamasi qo‘llaniladi. Bu so‘zni kasbiy vazifalarini amalga oshirishda o‘z amaliy tajribalari, bilim va ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli qo‘llay olish qobiliyati deb tushunsa bo‘ladi. Kom-petensiya – huquqshunoslik atamasi. Aniq organ yoki shaxsning vakolatiga kiradigan huquq va burchlari bo‘lib, davlat va jamoat tizimida mazkur insonning o‘rnini belgilaydi. Huquqshunoslik mazmuniga ko‘ra, kompetensiya quyidagi unsurlarni o‘z ichiga oladi: targ‘ib etiluvchi predmetlar (hududlar, hodisalar, harakatlar, ma’lum bir doirada yuritiladi), ma’lum organ va shaxsning o‘z faoli-yati uchun qo‘llashi mumkin bo‘lgan huquq va burchlari, vakolatlari yig‘indisidir. Kompetensiya (ijtimoiy huquq). Bu aniq bir subyektning boshqaruv jarayonlari uchun qonun bilan belgilab qo‘yilgan vakolati bo‘lib, ma’lum bir ijtimoiy vazifa ana shu vakolat zimmasiga yuklatilgan bo‘ladi.

Kompetensiya boshqaruv vakolati. Bu ma’lum bir kasbiy vazifalarni hal etishda mutaxassis (xodim)ning shaxsiy vokolati sanaladi.

Madaniyatlararo kompetensiya. Boshqa madaniyat nomoyanda lari bilan muvaffaqiyatli til topish qobiliyati. Tashkilotning asosiy kompetensiyasi. Tashkilotning raqobat bardoshligini ta’minlovchi omil bo‘lib, raqobat kurashida asosiy tayanch vositasi sanaladi.

Shaxs yoki jamoaning bilim va mahorati yig‘indisidan iborat bo‘lib, ular o‘z vazifasini oliy va raqobatbardoshli doirasida amalga oshiradilar.

1983 yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan chop etilgan ruscha-o‘zbekcha lug‘atda “kompetentnost” – “chuqur bilimga egalik”, “chuqur bilimga asoslanganlik”, “xabardorlik”, “omilkor lik” deb o‘zbek tiliga o‘girilgan. “Kompetentniy” – yetarli ma’lumotga ega bo‘lgan, puxta bilimli, yaxshi biladigan, kompetensiyaga ega bo‘lgan, vakolatli, masalani ko‘rib chiqishga haqli, ma’nolarida tarjima qilingan.

“Kompetensiya” – biron-bir kishi xabardor bo‘lgan soha yoki masala, huquq yoki ixtiyor kabi tushunchalarda berilgan[5]. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi A.S.Pushkin nomidagi Til va adabiyot instituti tomonidan 1981-yilda chop etilgan ikki tomlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “kompe-tensiya” tushunchasi butunlay kiritilmagan. Umuman, mamlakatimizda har qanday sohaga, xususan, pedagogik faoliyatga kompetensiya nuqtayi nazaridan yondoshuv keyingi besh yil davomida qo‘llanila boshlandi. O‘zbek tilining o‘ziga xos morfologik va semantik xususiyatlari nuqtayi nazaridan yon-doshgan holda “kompetensiya” atama va tushunchalari lotinchadagi “competere” – “munosib”, “com-peto” – “munosibman” yoki “erishaman” so‘zlariga yaqin ma’noda ishlatilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga ko‘ra, “kompetensiya” so‘zini barcha ma’noviy

hollarda qo‘llash ko‘plab chalkashliklarni oldini oladi degan fikrni aytmoqchimiz. Bundan kelib chiqadiki, kompetensiya nuqtayi nazaridan yondoshuv, mazkur jamoa yoki shaxs ana shunday kompetensiya egasi, nihoyat, pedagogik kasbiy kompetensiya egasi deb qo‘llash maqsadga muvofiq. Shunday qilib, har qanday holatda ham, kompetensiya ma’lum bir shaxs yoki jamoaning jamiyatdagi o‘rnini belgilab beradi. Uni ham qonuniy, ham axloqiy munosabatlari bilan mustahkamlaydi.

Jamiyatdagi biron-bir guruh, jamoa yoki shaxs ma’lum bir soha bo‘yicha yuksak malaka va bilimlarga ega bo‘lib o‘z sohasida kompetensiya egasi bo‘lib shakllanadi hamda ushbu vakolatini muntazam ravishda takomillashtirib boradi. Bu masalaga jamiyatning manfaatlari yuzasidan yondoshiladi. Shaxs esa o‘z kompetensiyasini takomillashtirib borish orqali, eng avvalo, o‘zining hayotiy manfaatlarini amalga oshiradi, shu bilan birga jamiyatning shaxsga qo‘yayotgan talablari darajasiga erishadi. Dunyo olimlari tavsiya qilayotgan “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarini biz yuqorida birlashtirish taklifini kiritdik. Kompetensiya nuqtayi nazaridan yondoshuv haqidagi ilmiy ishlarni tahlil qilar ekanmiz, bu ikki tushuncha haqida turli-tuman fikrlar aytilayotganligini yaqqol sezamiz. A.G.Bermusning fikriga ko‘ra, “Kompetentlik takomillashib borayotgan shaxsning barcha hislatlarini, bilimi, tajribasi, umuman olganda, butun borlig‘ini yagona tizimga birlashtiradi”.

“Kompetentlik bu nafaqat shaxsning bilimdon ekanligi, balki o‘z bilimlarini uzluksiz ravishda yangilab borishi hamdir, – deydi M.A.Choshanov. M.Aronovning fikricha, kompetentlik mutaxassis ning ma’lum bir faoliyat uchun tayyor ekanligini bildiradi. Noaniq vaziyatlarda faoliyat ko‘rsata olish qobiliyati bu kompetentlikdir, deydi O.Ye.Lebedev.[6]

Pedagog kompetentligi tuzilishi

Kompetentlik darajalari	***Kompetentlik turlari***	***Kompetentlik tushunchasi***	
			Muhim funksional kompetentlar
Insonning kompetentligi	Umumiy kompetentliklar	Qadriyatiy-ma’naviy Umummadaniy Intellektual Informasion Shaxsiy komillik	**Ta’limiy Kommunikativ Ijtimoiy-kasbiy Ijtimoiy-rolli**
Pedagogning kasbiy kompetentligi	Tayanch kompetentliklar (ma’lum kasbiy sohada)	Qadriyatiy-ma’naviy Umummadaniy Intellektual Informasion Kasbiy-shaxsiy komillik	**Operasion Diagnostik Prognostik Konstruktiv Tashkiliy Kommunikativ Texnologik Korreksion Tadqiqot**
Maxsus kasbiy kompetentlik	Maxsus kompetentliklar (faoliyatning aniq sharoitida)	Motivasion Kognitiv Refleksiv	**Operasion**
Shaxsiy- kasbiy kompetentlik	**Shaxsiy kompetentliklar (anik kasbiy vazifalarni yechishga yo‘naltirilgan)**	**Motivasion Kognitiv Refleksiv**	**Operasion**

Kompetentlik insonning intellektual shaxsiy, ijtimoiy kasbiy hayotiy faoliyatiga asoslanadi, deb yozadi I.A.Zimnyaya. A.V.Xutorskiy “kompetnsiya” va “kompetentlik” tushunchalari ni quyidagicha ajratib olish mumkin, deb hisoblaydi. Kompetensiya – insonning shaxsiy sifatlari uzviyligi (bilim, malaka, tajriba, faoliyat usullari) hisoblanib, ma’lum bir doiradagi narsa va jarayonlarga nisbatan shaxsning munosabatida sifatli va samarali faoliyat yurgazishidir. Kompetenlik esa inson tomonidan faoliyat turlariga shaxsiy munosabatini bildiruvchi, talabga javob beradigan kompetensiyalar yig‘indisiga ega bo‘lishi demakdir. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, kompetensiya masalasi uning jamiyatdagi o‘rni masalasidan qator bahslar davom etmoqda. Ta’lim tarbiya sohasida asosiy universal kompetensiya unsurlarini anglab olish zamonaviy pedagogikaning eng asosiy muammolaridan biridir. Asosiy kompetensiya masalasida dunyo pedagoglari tajribasini tatbiq qilish yoki an’anaviy o‘zbek pedagogikasi me’yorlaridan kelib chiqqan holda kompetensiya mezonlarini belgilashda fikrlar xilma-xil bo‘lib, hali yechilmagan masalalar talaygina. A.Avloniy nomidagi O‘qituvchilar malakasini oshirish instituti pedagog olimasi L.T.Xurvaliyeva: “Kompetensiya – bilim, ko‘nikma, malaka, qa-

rashlar, individning qadriyati va shaxsiy sifatlari, kvalifikatsiyaning namoyon bo‘lishi yoki ta’sir ko‘rsatish qobiliyati”, – deb ta’riflaydi[7].

Ta’lim-tarbiya inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti va garovidir. Ta’lim-tarbiya jarayonlari davlat nazoratidagi umummilliy masala hisoblanadi. Mamlakatimizda ta’lim, ya’ni o‘qitishni tarbiya bilan uyg‘unlikda olib boriladi.

Natija. Kompetensiyalik yoki o‘ta mahoratlilik, oliy malakali pedagoglarni tayyorlash zamonamizning eng dolzarb masalasiga, aytish joiz bo‘lsa, davlat va jamiyatning eng asosiy vazifasiga aylangan. Biz yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, pedagogik faoliyat jamiyatdagi funksiyalari bo‘yicha va kasbiy sifat xususiyatlariga qarab hamda psixologik tamoyillari bo‘yicha artist va olimlar tomoniga yaqindir. Pedagog mehnatining xususiyatlari insonni o‘qitish va tarbiyalash uchun mo‘ljallangan. Yoshlarda insoniy fazilatlarni shakllantirish, mehnat predmeti inson hisoblanishi hamda jamiyatni boshqaruvchi shaxsga bo‘lgan ta’siri o‘z-o‘zidan kompetentlikni talab qiladi.

Qadimgi yunon faylasufi Aflotun “Agar kosib yomon usta bo‘lsa, bundan davlat juda katta narsa yo‘qotmaydi, faqat xalq yomonroq kiyinadi, xolos. Agar yoshlar tarbiyachisi o‘z vazifasini yomon bajarsa, u holda mamlakatda nodon, johil, bilimsiz va ahmoqlar toifasi vujudga keladi”– degan edi.

Oliy ta’lim muassasalari “Pedagog kadrlar qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillshatirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy metodik markazini tashkil qilish vazifasini qo‘yadi.

Bosh ilmiy metodik markaz zimmasiga professor-o‘qituvchilar tarkibining kasbiy tayyorgarligi darajasini, ularning yuqori malakali kadrlar tayyorlash va tarbiyalashning talab qilinadigan darajasini ta’minlash bo‘yicha ish natijalarini hamda ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish asosida zamonaviy metodikalardan foydalangan holda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning umumta’lim dasturlarini, o‘quv-metodik va normativ materiallarini ishlab chiqish vazifasini yuklaydi. Xuddi shu qarorda o‘qituvchilar faoliyatini zamonaviy talablarga muvofiq baholash, chet tillari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘qitish bo‘yicha o‘quv-metodik materillar va samarali metodikalar ishlab chiqish belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha mintaqaviy markazlarida va tarmoq markazlarida seminar-treninglar tashkil qiladi: tegishli ta’lim fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlari mazmunini takomillashtirishni, ta’limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalashni ta’minlash maqsadida iqtisodiyotning turli tarmoqlari bo‘yicha mamlakatimizning ilg‘or, zamonaviy uskunalar va texnologiyalar bilan jihozlangan korxonalari; pedagoglarni zamonaviy ilm-fan yutuqlari, tegishli mutaxassisliklar bo‘yicha ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari; ilmiy eksperemental, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishning samarali metodlari bilan tanishtirish maqsadida ilmiy-tadqiqot muassasalari (Fanlar akademiyasining ilmiy muassasalari, tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, laboratoriyalari, shu kabilar) bilan hamkorlik qilish hamda ularni pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun bazaviy ob’ektlar sifatida foydalanish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqadi; mintaqaviy va tarmoq markazlari faoliyatini muvofiqlashtiradi; oliy ta’lim muassasalarining rahbar xodimlari malakasini oshirish kurslari tashkil qiladi va o‘tkazadi. Mazkur qarorga muvofiq, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish 5 ta hududiy markazlarini tashkil etish, 10 ta tarmoq markazlarini tashkil etish, oliy ta’lim muassasalari huzuridagi malaka oshirish ta’lim muasasalari va fakultetlarini tugatish to‘g‘risidagi takliflar qanoatlantiriladi.

Bosh ilmiy metodik markaz mintaqaviy va tarmoq markazlari yuridik shaxs hisoblanadi. Malaka oshirish xizmatlari uchun ma’lum miqdorda to‘lovlar joriy etilmoqda. Bu albatta, ba’zi mahoratli o‘qituvchilar uchun iqtisodiy qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. Barcha tashkiliy masalalarni umumlashtirgan holda quyidagicha taklif berar edik:


• mintaqaviy va tarmoq markazlarini muvaffaqiyatli tamomlagan oliy ta’lim o‘qituvchisi Bosh ilmiy metodik markazga davlat granti asosida malaka oshirishga jalb etilishi lozim.

• pedagog kasbiy kompetensiyasi bo‘yicha sertifikat uchun imtihon sinov topshirilishi belgilanishi ko‘zda tutilishi kerak.

• sertifikatli o‘qituvchilar uchun ilmiy izlanishlar, pedagogik faoliyat yuzasidan imtiyozlar berilishi lozim.

• sinov va baholash imtihonlari uchun kasbiy kompetensiyaga xos to‘rt yo‘nalish asos qilib olinmog‘i darkor: a) mutaxassisligi bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlari; b) pedagogik mahorati; g) shaxsiy sifatlari; d) dunyoqarashi. Shunday qilib, pedagog kasbiy kompetensiyasiga ega bo‘lish hamda

ana shu vakolatni tasdiqlovchi sertifikatni qo‘lga kiritish o‘qituvchining yanada o‘sib borishi, bilimlarining takomillashi shi, o‘z ustida ishlashi imkoniyatlarini yaratadi, o‘z kasbiga muhab bat va ishonch uyg‘otadi.



Xulosa. Biz yuqorida qayd etib o‘tganimizdek, kompetensiya, ayniqsa, kasbiy kompetensiya shaxsning jamiyatda tutgan o‘rnini belgilar ekan, jamiyat ham yuqori malakali kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lgan mutaxassislar tayyorlashdan manfaatdor bo‘ladi. Milliy pedagogika asoschilaridan biri Abdulla Avloniy o‘zining axloqiy-didaktik mazmundagi “Turkiy guliston yohud axloq” asarida hulqlarni yaxshi-yomonga ajratar ekan, o‘z mulohaza larini Gippokrat, Pluton, Aristotel, Sa’diy Sheroziy va Bedil fikrlari bilan dalillagan holda zamonaviylikni asosiy mezon qilib oladi[8]. Adib Vatan muhabbatini, uning uchun kurashmoqni eng yaxshi insoniy hulqlardan hisoblaydi. “Vatan – bu har bir kishining tug‘ilib o‘sgan shahar va mamlakati, uni qadrlamoq, sevmoq, yashartmoq kerak”, – deydi. Abdulla Avloniy o‘z asarlarida ta’lim-tarbiya to‘g‘risida to‘xtalib, “Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo momot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir” – degan edi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda pedagog kasbiy kompetensiyasi mohiyatining teng yarmini tarbiyaga oid munosabatlar tashkil etishini ko‘ramiz. Pedagogning jamiyat oldidagi eng muhim burchi, faoliyatining natijasi komil inson tarbiyasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азимова Н. Э., Насимова З. И. Маънавий-маърифий ишлар жараёнида бўлажак касб таълими ўқитувчисини тарбиялаш методикаси //psixologiya Учредители: Бухарский государственный университет. – №. 3. – С. 129-134.
2. Azimova N. E. Problems of development of new pedagogical technologies of training of teachers of professional education and their introduction into the educational and educational process //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 1-3.
3. Azimova N. E. Formation of National and Ideological Education of Students is an Integral Part of the Learning Process. – 2021.
4. Azimova N. E. A financially independent higher education institution is the foundation of our future //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 130-134.
5. Azimova N. E. et al. Youth Is Moving Force of Civil Society //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.
6. Азимова Н. Э. Технология духовно-нравственного воспитания преподавателя профессионального образования в процессе обучения //Молодой ученый. – 2011. – №. 5-2. – С. 117-118.
7. Азимова Н. Э. Роль профессионального педагога в подготовке гармонично развитой личности //Международный журнал гуманитарных и естественных наук. – 2018. – №. 5-1.
8. Азимова Н. Э., Насимова З. И. К. Важные особенности человеческого образования в семье //Academy. – 2020. – №. 5 (56).
9. Азимова Н. Э., Элибоева Л. С. Некоторые аспекты повышения уровня экологической культуры //Наука, техника и образование. – 2019. – №. 1 (54).

Djumayeva Mohigul Mamanazarovna
Teacher of the Department of Primary Education
Methodology of Termiz State Pedagogical Institute
E-mail: jumayevamohigul90@gmail.com

IMPLEMENTATION OF THE NATIONAL PROGRAM OF COMPETENCE IN SCIENCE IN EDUCATION

Abstract. *This work examines the of a separate annual State program for its implementation in accordance with the declared name of the year. And feature of the program is its focus on a deeper study of "objects and phenomena of the world: it prepares children for the perception and elementary understanding of the dialectical unity of the world in its quantitative and qualitative relationships." The authors understand that the necessary condition for successful learning is the creation of a personality-oriented approach to the preschool child, the creation of an atmosphere of goodwill in the educational process.*

The innovative processes provided for in the content of preschool education are primarily aimed at creating a comfortable educational environment that allows children to be healthy, acquire psychological, personal confidence and successfully socialize in the world around them.

Key words: *intelligence, thinking, component, formation, concepts, thinking, intelligence, labor, learning.*

MILLIY O‘QUV DASTURINI AMALIYOTGA JORIY ETISHDA TABIY FANLARGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqola Davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutadi. Dasturning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u “dunyo ob’ektlari va hodisalarini chuqurroq o‘rganishga qaratilgan: u bolalarni dunyoning dialektik birligini uning miqdoriy va sifat munosabatlarida idrok etish va elementar tushunishga tayyorlaydi”. Mualliflar muvaffaqiyatli o‘qishning zaruriy sharti maktabgacha yoshdagi bolaga shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni yaratish, o‘quv jarayonida xayrixohlik muhitini yaratish ekanligini tushunishadi.*

Kalit so‘zlar: *aql, fikrlash, komponent, shakllanish, tushuncha, fikrlash, aql, mehnat, o‘rganish.*

ФОРМИРОВАНИЕ ЕСТЕСТВЕННОНАУЧНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ПРИ РЕАЛИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ УЧЕБНОЙ ПРОГРАММЫ

Аннотация. *В данной работе рассматривается Государственной программы по ее реализации в соответствии с заявленным названием года. А особенностью программы является ее направленность на более глубокое изучение "предметов и явлений окружающего мира: она готовит детей к восприятию и элементарному пониманию диалектического единства мира в его количественных и качественных взаимосвязях". Авторы понимают, что необходимым условием успешного обучения является создание личностно-ориентированного подхода к ребенку дошкольного возраста, создание атмосферы доброжелательности в образовательном процессе.*

Инновационные процессы, предусмотренные в содержании дошкольного образования, направлены, прежде всего, на создание комфортной образовательной среды, позволяющей детям быть здоровыми, приобретать психологическую, личностную уверенность и успешно социализироваться в окружающем мире.

Ключевые слова: *интеллект, мышление, компонент, формирования, понятии, мышления, интеллект, труд, обучения.*

Research purpose. Preschool education remains the world model of the first stage of continuous upbringing and early socialization of children, for the continuity of the educational process connects preschool, school and subsequent years of a child’s life.

Since the beginning of 2017, an active process of reforming the content of preschool education and training has been ongoing in the republic, including the specification of social and pedagogical functions based on the historical and cultural traditions of the Uzbek people and other ethnic groups living in the country [6] .

Analyzing the current state of preschool education in our country, it is advisable to consider not only positive, but also negative trends:

ever-increasing demands on the upbringing, training and development of children in the new sociocultural situation;

insufficient pre-school education for rural children;

decrease in the potential of the system of preschool education management, teacher training, as well as preschool teacher science;

insufficient involvement of adults and parents in the educational process;

lack of equal starting opportunities for preschool education of children with special educational needs;

insufficient equipment of the material and technical base in the organizations of preschool education and training;

lack of preschool industry.

The above trends indicate the need for the development of the Concept of preschool education and training.

The purpose of the concept is the development of scientific and methodological foundations of preschool education and training.

The concept of preschool education and training of the Republic of Uzbekistan includes the following sections:

I. The relevance of preschool education and training.

II. Methodological principles.

III. Goals and objectives of the content of preschool education and training.

IV. The main directions of the content of preschool education and training.

V. Mechanisms for the implementation of the Concept of preschool education and training.

VI. Conditions for the implementation of the Concept of preschool education and training.

VII. Expected results of the content of preschool education and training.

VIII. Conclusion

Research methods. Along with updating the content of preschool education, this Concept implies the further technologization of the pedagogical process, which will contribute to a different approach in preschool education, fundamentally changing the content of interaction between an adult (parent, teacher, educator) and a child. Today, technologies of personality-oriented, differentiated, projected learning, health-saving technologies, interactive, socio-game techniques and many others are being tested and effectively implemented in the process of educating and educating preschool children.

The concept of preschool education and training is based on the following principles:

1. The principle of development guides, stimulates and supports the emotional, spiritual, moral, intellectual development and self-development of the child, creates the conditions for the manifestation of independence , initiative, creative abilities of a preschooler in various activities.

2. The principle of nature-friendly education and training is based on a scientific understanding of the relationship between natural and sociocultural processes and the need for education and training of preschool children, taking into account their nature-like qualities, individual and age characteristics.

3. The principle of the humanistic orientation of upbringing and training presupposes the development of creative abilities, the strengthening of faith in oneself and the possibility of achieving an "ideal self" and establishes truly equal and partner relations with adults.

4. The principle of culture of conformity states that education and training should be based on universal values, be built in accordance with the traditions and norms of national culture and regional characteristics.

5. The principle of variability provides a wide variety of educational programs implemented in preschool organizations, aims to determine the individual trajectory of the development of the child's personality.

6. The principle of the value and uniqueness of a person is to recognize the intrinsic value of the person and the unique individuality of each child ("All children are loved - all children are equal!") .

Organizational and managerial support consists in creating comfortable conditions for the upbringing and education of preschool children; in the study, generalization and dissemination of pedagogical experience of the best educators.

Scientific and methodological support is carried out by improving the qualifications of teachers in the system of preschool education. Definition of the conceptual foundations of preschool education. Development and introduction of a scientific base for modernization in the processes in the system of preschool education. Development and implementation of variable programs, educational and information technologies.

Psychological and pedagogical support consists in partnership and cooperation of teachers - educators with the teaching staff of pedagogical universities and colleges, the community of parents and public organizations in preschool education of children.

Results. Approaches to teaching place value differ depending upon grade level. In the primary grades, place value is taught using many techniques; one of the most-effecive is using base-10 manipulatives, which come in different shapes for different place values.

After the focus of the early grades, in general, students possess an understanding of place value by the time they arrive in the intermediate grades.

As a result, we are no longer focusing on identifying 1's, 10's, or 100's places in a number; instead, we focus on applying place-value understanding for everyday applications and solving problems.

Simple games for repetition

All students need to understand how to apply place value to verbally say a large number. This is tough for students and takes a lot of repetition and practice.

But repetition can be fun! Here's how I handle it in my classroom.

Comparing numbers. *Place value in intermediate grades really comes into play when we are comparing two numbers. For example, when comparing the number 400,000 with the number 400, students need to be able to express how much bigger the "4" is in the first number than it is in the second number (it's 1,000 times bigger). I often mix in other numbers just to confuse them, such as having to compare 435,672 with 419. Of course, the answer is the same.*

Foreign language lesson has its own specificity, unlike other school subjects; the main objective of a foreign language lesson is the formation of intercultural communicative competence of learners. At the present moment the global aim of teaching foreign language is involvement to other culture and participation in dialogue of cultures. This aim is gained by the way of formation the ability to intercultural communication. The process of teaching foreign language is organized on the basis of communicative character tasks; teaching foreign language communication using all necessary for this work means is a distinctive feature of a foreign language lesson.

Literature

1. Mirziyoyev Sh.M. Ensuring the rule of law and human interests is a guarantee of the country's development and the well-being of the people. Tashkent, Uzbekistan, 2017, 48 pp.

2. Mirziyoyev Sh.M. Critical analysis, tough distsipline and personal responsibility should become the everyday norm in the activities of each leader. Tashkent, Uzbekistan, 2017, 104 pp.

3. Strategy of action in five priority areas of the development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021 . to the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2017 No. UP-4947 .

4. DJumaev M.I. Competency approach in teaching mathematics to elementary school students according to the requirements of the national educational program of Uzbekistan. Collection of works of the international scientific and practical conference "Digital education - the requirement of the time" dedicated to the 80th anniversary of the director of Aksukent Multidisciplinary College, Professor Kuatbekova Karamat Perdeshovna. Shymkent "KhDU" publishing house ISBN 9965-544-22-0 2024 - 306-311

5. M.I. Zhumaev Formation of the didactic business skills of the teacher in elementary school Department of primary education, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Tashkent city, Republic of Uzbekistan.

Djumayev Mamanazar Irgashevich
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
“Boshlang‘ich ta’limda matematika va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi professori
E-mail: mamanazaruz@bk.ua

TA’LIM SIFATI PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH VOSITASIDA

Annotasiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda matematikadan milliy o‘quv dasturini amaliyotga joriy etishning ilmiy-metodik asoslari haqida mulohazalar suningdek, Resbublka ta`lim inspeksiyasi tomonidan milliy o`quv dasturi loyihasi muhokamasi haqida so‘z yurutamiz.*

Fanlarning o‘zaro integratsiyasi o‘quvchilarda tabiatni butun bir borliq sifatida, olamning yagona manzarasini tasavvur etishga yo‘naltirishi lozim. Shu bilan birga, o‘quvchilar inson faoliyatining tabiatga salbiy va ijobiy ta'siri, zamon va makon miqyosidagi global ekologik muammolarni va tabiat oldida javobgarlik hissini tushunishi, shuningdek, sog‘lom turmush tarziga amal qilishlari hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini, tabiat va jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘sha oladigan kompetent shaxsni tarbiyalashni ko‘zda tutadi.

Kalit so‘zlar: *Mulohaza, texnologiya, maqsad vazifa, o`quv dasturi,ta`lim standarti, boshlang`ich ta`lim, matematika, bilim va ko`nikma.*

КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЕ ПЕЛАГОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ

Аннотация. *В этой статье мы обсуждаем научно-методические основы реализatsiu natsionальной учебной программы по математике в начальной школе, а также обсуждение проекта natsionальной учебной программы Республиканской инспекцией образования.*

Взаимная интеграция наук должна привести учащихся к представлению природы как единого существа, единого взгляда на Вселенную. При этом учащиеся должны понимать негативное и положительное влияние деятельности человека на природу, глобальные экологические проблемы в масштабе времени и пространства, чувство ответственности перед природой, а также овладевать навыками ведения здорового образа жизни и рациональное использование природных ресурсов, природы и направлено на воспитание компетентного человека, способного внести вклад в развитие общества.

Ключевые слова: *обратная связь, технология, цели, учебная программа, образовательные стандарты, начальное образование, математика, знания и навыки.*

QUALITY OF EDUCATION AS A MEANS OF FORMATION OF PELAGOGIC COMPETENCIES

Annotation. *In this article, we discuss the scientific and methodological foundations for the implementation of the national curriculum in mathematics in primary school, as well as the discussion of the draft national curriculum by the Republican Inspectorate of Education.*

The mutual integration of sciences should lead students to the idea of nature as a single being, a single view of the Universe. At the same time, students must understand the negative and positive impact of human activity on nature, global environmental problems in time and space, a sense of responsibility to nature, as well as master the skills of leading a healthy lifestyle and rational use of natural resources, nature and aimed at raising a competent person, able to contribute to the development of society.

Key words: *feedback, technology, goals, curriculum, educational standards, primary education, mathematics, knowledge and skills.*

Tadqiqot naqsadi. Matematika darslarini tashkil qilishda nazariyadan ko‘ra ko‘proq amaliyotga e’tibor berish hamda o‘quvchilarga tayyor o‘quv materiallarini berishga asoslangan yondashuvdan ma’lum darajada voz kechish talab qilinadi. Matematika darslarida ko‘proq keys, tadqiqot, loyiha, kichik o‘quv kashfiyotlari kabi interaktiv metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. O‘quvchilarda kichik tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishda kuzatish, tajriba, o‘lchashlar, analiz (tahlil) va

sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va analogiya kabi ilmiy izlanish metodlaridan o‘rnida foydalanish talab etiladi. O‘quvchilarda bilim va ko‘nikmalarni shunchaki shakllantirib qolmasdan, ularni hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish kompetensiyalarini ham tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodlari. Bitiruvchi quyidagi umummadaniy kompetentsiyalarga ega bo‘lishi lozim:

-Shaxsiy o‘sishga intilishni shakllantirish va obyektiv baholash, shuningdek, ta’lim oluvchilarning intellektual rivojlanish darajasini oshirish ko‘nikmalariga qobiliyatlilik.

-Ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hhal etishda ijtimoiy, gumanitar va iqtisodiy fanlarning asosiy qoidalari va metodlaridan foydalanishga qobiliyatlilik.

-Ona tilida o‘z fikrlarini tizimlia erkin bayon eish, ilmiy matnalar bilan ishlash, ommaviy nutq so‘zlash uchun ona tili va chet tillaridan birida yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini egallaganlik.

-Muloqotga kirishish va maxsus matnlarni tushunish uchun chet tillardagi bilimlardan foydalanish.

-Axborotni olish, saqlash va qayta ishlashmetod, usl va vositalaridan foydalanish; global kompyuter tarmoqlar bilan ishlash ko‘nikmalariga egalik.

-Ijtimoiy o‘zaroharakatga kirishishda ta’lim ishtirokchilarining etnomadaniy o‘ziga xosliklarini hisobga olish.

-Axloqiy meyorlar va ma’naviy madaniyatni o‘zlashtirish.

- Ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, ilmiy bilish yutuqlariga erishish tamouyillarini anglash;

-Gigiyena, mehnat muhofazasi va tashqi ta’sirlardan himoya qilish qoidalari talablariga muvofiq, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishga qobiliyatlilik.

Kasbiy kompetensiyalar: O‘quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish;

Turli yosh davrlarida insonning xulq-atvori va faoliyatini boshqarishning o‘ziga xosliklari, psixik va psixofiziologik rivojlanishning maxsus qonuniyatlari hamda individual o‘ziga xosliklarini hisobga olish vositalaridan foydlanish qobiliyatiga egalik;

Psixologik va pedagogik tadqiqotlarning miqdor va sifat metodlarini egallaganlik.

Turli yosh guruhidagi bolalarning rivojlanishi, muloqoti, faoliyatini tashxis etish metodlaridan foydalanish qobiliyatiga egalik;

O‘qitish, tarbiya, rivojlanishning turli nazariyalariga doir bilimlar, ta’limning turli bosqichlarida o‘qitish dasturlaridan foydalanish qobiliyati;

Bolalarning xilma-xil faoliyatini tashkil etish usullarini egallaganlik;

Ta’lim jarayoni subyektlarining birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyati va shaxslararo o‘zaro harakatini tashkil tish usullarini egallaganlik;

Pedagoglik kasbining yuksak ijtimoiy ahamiyat kasb etishini tushunish, kasbiy etika tamoyillariga rioya qilish;

Jamiyatning ijtimoiy-madaniy tuzilmasining o‘ziga xosliklari, shuningdek, milliy tarbiyaning qonuniyat va tamoyillarini hisobga olgan holda, ko‘pmadaniyatlilik muhitida kasbiy faoliyatni tashkil etish usullarini egallash;

Kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo va vakolatli tuzilmalarning birgalikdagi faoliyatida ishtirok etishga qobiliyatlilik;

Kasbiy faoliyatda bola huquqlari to‘g‘risidagi asosiy xalqaro va milliy meyoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanish qobiliyati;

Tanqidiy fikrlash metodikasini o‘zlashtirganlik;

Inklyuziv ta’limga qadriyatli munosabatning tarkib topganligi;

Ta’lim oluvchilarga o‘zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanlikka doir kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga imkon beradigan natijaviylik va mobillikka yo‘naltirilgan o‘qitishga qobiliyatlilik.

Fanga doir kompetensiyalar.

Boshlang`ich ta`limning o‘ziga xosliklarini anglash, turli tipdagi ta’lim muassasalarida bolalarni o‘qitishda uzviylikni amalga oshirish vositalarini egallaganlik;

Boshlang`ich ta`limga doir zamonaviy bilimlarni egallaganlik;

Boshlang`ich ta`limga doir bilim, ko‘nikma va malakalarni qo‘llay olish hamda egallangan tayanch bilimlarni o‘quvchilarga uzatishga qobiliyatlilik;

Boshlang`ich ta`lim yo‘nalishi fan dasturlarii (ona tili, bolalar adabiyoti, matematika, geografiya (atrof, olam), texnologiya) doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali quyidagi ko‘rsatkichlarga

erishish nazarda tutiladi:

Til va adabiyot fanlari ona tili, adabiyot, o‘zbek tili (ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun), qardosh tillar (qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman), rus tili (ta’lim rus va o‘zbek tilida olib boriladigan maktablar uchun) o‘quv predmetlarini qamrab oladi hamda ularning o‘zaro aloqadorligini ta’minlaydi.

O‘quvchiga tilni o‘qitish orqali shu til bo‘yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to‘rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish amallari bo‘yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko‘nikmalar me’yorini rivojlantirish, bunda o‘qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o‘qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

Ona tili fani o‘quvchi shaxsida fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; o‘quvchida til qurilishiga oid o‘zlashtiriladigan amaliy bilimlarni (fonetika (orfoepiya), leksika, so‘z tarkibi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish.

O‘zbek tili fani umumiy o‘rta ta’limning ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarida ikkinchi til sifatida o‘qitiladi. Ushbu fan ta’limi mazmunida asosiy diqqat-e’tibor nutqiy va lingvistik kompetensiyani shakllantirishga mo‘ljallangan, bu o‘quvchining o‘zbek tilidan egallaydigan lingvistik bilimlari vositasida kundalik turmush, ijtimoiy-madaniy hayot, mutaxassislik sohalarida og‘zaki va yozma shaklda erkin muloqot yurita olishini ta’minlash asosida amalga oshiriladi. O‘quvchining kundalik va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun o‘zbek tili fani bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qo‘llash malakasini rivojlantiruvchi nutqiy kompetensiyalar va o‘zbek tilida og‘zaki va yozma savodxonligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan lingvistik kompetensiyalar o‘quvchining o‘zlashtirgan bilimlari asosida o‘zini o‘zi mustaqil rivojlantirish, egallangan bilim, ko‘nikma va malakasini turli vaziyatlarda qo‘llay olishga qaratilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishini ko‘zda tutadi.

Bolalar adabiyoti fani milliy hamda jahon bolalar adabiyoti milliy o‘zbek bollar adabiyotining nodir namunalarini bilish asosida o‘quvchining ma’naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantiradi hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko‘nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish, o‘quvchini badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o‘rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o‘quvchining ma’naviyatini boyitish, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

O‘qish (umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich sinflari o‘quv rejasidagi adabiyot) fani og‘zaki va izchil nutqni o‘stirish, so`z boyligini oshirish, to‘g‘ri va ifodali o‘qishga o‘rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyati hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘qish fanini o‘qitish orqali o‘quvchida to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish; mutolaaga muhabbat uyg‘otish, ularni oddiy kitob o‘quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish; o‘qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, dunyoqarashini boyitish; axloqiy-estetik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash; nutqi va tafakkurini o‘stirish; tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; o‘quvchining fikrlashini o‘stirish ko‘zda tutiladi. O‘qish darslari oldiga qo‘yilgan tarbiyaviy vazifaning muvaffaqiyatli hal etilishi darsda badiiy asar matni ustida ishlash bilangina bog‘liq bo‘lib qolmay, balki bolani qurshab olgan hayot, tabiatdagi o‘zgarishlar, ekologik vaziyat, ijtimoiy foydali mehnat bilan ham o‘zaro bog‘liq bo‘lishi lozim. O‘quvchini o‘qishga o‘rgatishda hayot tajribalariga tayanib ish ko‘riladi. O‘qish darslari bolalarda go‘zallikka muhabbat uyg‘otadigan, poklik tuyg‘ulariga ozuqa beradigan, hissiyotni o‘tkirlashtiradigan, aqlni charxlaydigan, tasavvurlarni boyitadigan, estetik didni o‘stiradigan musiqa va tasviriy san’at fanlari bilan uzviy bog‘langan bo‘lishi kerak. O‘qish, musiqa va tasviriy san’at darslarini o‘zaro bog‘lab uyushtirish bolalarda san’at asarlarini to‘g‘ri tushunish va qadrlash ko‘nikmalarini o‘stiradi, o‘quvchining shaxs sifatida ma’naviy qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Natijalar. Til va adabiyot fanlari blokidagi fanlar o‘zaro ijtimoiy va aniq fanlar bilan uzviy bog‘lab o‘qitiladi. Agar o‘quvchi matndan tashqari jadval, diagrammalardagi topshiriqlarni mantiqiy

fikrlab, unga tanqidiy yoki ijodiy yondasha olmasligi o‘qish savodxonligida qusur borligidan dalolat.

Rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin olish uchun bilimli, tajribali va

zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli, raqobatbardosh, kompetent kadrlarni tayyorlanadi;

Dastur umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarida belgilangan talablar uchun asos bo‘ladi;

Dasturda belgilangan maqsad va vazifalarni amaliyotga keng joriy etish o‘quvchi-yoshlarning intellektual rivojlanishiga samarali ta’sir etadi;

Boshlang`ich ta`limda fanlarini o‘qitish bosqichlari, o‘quv fani bo‘yicha ta’lim mazmuni va o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar me’yorlari aniqlashtiriladi;

STEAM ta’limini joriy etish orqali o‘quvchilarining fanlar integratsiyasi asosida savodxonlik darajasini oshiradi;

ta’lim jarayonida elektron resurslar salmog‘ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o‘quv adabiyotlari va majmualarni yaratish hamda ularni yagona axborot ta’lim platformasiga joylashtirish tizimi yaratiladi;

tayanch o‘quv rejaga muvofiq matematika fanlarining sinflar va mavzular bo‘yicha hajmi, yangilangan mazmuni, o‘rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar asosida o‘quv dasturlarini ishlab chiqiladi;

matematika fanlarining mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlari, davlat ta’lim standartlari talablaridan kelib chiqqan holda yangi baholash tizimini ishlab chiqiladi hamda u asosida matematika fanini bilish darajasini baholash bo‘yicha milliy sertifikatlash tizimini joriy qilinadi;

o‘quvchilarning matematik savodxonligi, mantiqiy fikrlashi va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan amaliy topshiriqlar bazasini yaratiladi va mamlakatimiz o‘quvchilarining mazkur xalqaro baholash dasturlariga muosib qatnashishi ta’minlanadi;

matematika fanlari bo‘yicha sinflar kesimida o‘quv-metodik majmualarni (darslik, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma, elektron darsliklar) yangi avlodini ishlab chiqiladi va ta’lim jarayoniga joriy etladi;

matematika fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha innovatsion metodikalar yaratiladi;

Zamonaviy o‘quv sinflari va laboratoriyalari, yangi turdagi o‘quv mebellari, jihozlari va asbob-uskunalari, ko‘rgazmali qurollar, kompyuter texnikasi va boshqa o‘qitishning texnik vositalari bilan jihozlanadi hamda “Zamonaviy maktab” davlat dasturi doirasida umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang`ich sinflarida, STEAM mashg‘ulotlarini o‘tkazishga tayyoralanadi

Geografiya (atrof olam va tabiat) faniga oid matnlarni tinglab tushunish, o‘qish orqali o‘quvchida tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy obyekt, jarayon va hodisalar, vatanimiz tabiiy sharoiti va boyliklari, aholisi va iqtisodiyoti, jamiyat va tabiatning o‘zaro aloqadorligi, tabiatdan oqilona foydalanish va ishlab chiqarishni to`g`ri tashkil etishning global va hududiy muammolari haqida ilmiy-amaliy tushunchalar hosil bo`ladi, mustaqil fikr-mulohaza yuritish, xaritalardan foydalana olish, geografik bilimlarni amalda qo‘llash malakalari shakllanadi. O‘quvchilarning tabiat to‘g‘risidagi ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, tafakkurini rivojlantirishda tabiat qonunlarini asoslab berishda biologiya, tabiiyot va geografiya, fizika, kimyo, iqtisodiy bilim asoslari va tadbirkorlik asoslari o‘quv predmetlari muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiatda ro‘y berayotgan hodisa va jarayonlar, tirik organizmlarning rivojlanish bosqichlari, tabiat va jamiyat qonunlariga insoniyatning ko‘rsatadigan ta'sirlari haqida ilmiy va amaliy bilimlar majmuasini yoritish tabiiy va iqtisodiy fanlar blok-modulining asosiy vazifasini belgilab beradi.

STEAM ta'limi asosida tabiiy va iqtisodiy fanlar yo‘nalishida o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog‘liqligini ko‘rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quv tadqiqotlarini o‘tkazish, tajribalarni bajarish, loyihalashtirishga yo‘naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan.

O‘quvchilar mantiqiy fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan xalqaro baholash dasturi **(PISA, TIMSS)** talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashga mo‘ljallangan amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari hamda mustaqil bajarishga va ijodiy, kreativ fikrlashga undovchi amaliy topshiriqlar bilan ishlashni yosh avlod ongiga singdirish o‘qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri sanaladi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari faniga oid matnlarni tushunish, o‘qish orqali axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kompyuter texnikasidan foydalanish malakalari

rivojlanadi.

Jumladan, kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda davlat tili, xorijiy tillarni o‘zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlash, yozma va og‘zaki ravon bayon etish, to‘g‘ri talaffuz qilish, izohlab berish hamda erkin muloqot qilishga o‘rgatish zarur. Xususan, matematika fanining o‘z ilmiy tili, o‘z tushunchalari, belgi va timsollari ham mavjud bo‘lib, bu tilda muloqot qilish - kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish omili sifatida qaralishi lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-son Qonuni. 2019 yil 16 dekabr. www.lex.uz.

2.O‘zbekicton Recpublikaci Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyacini tacdiqlash to‘g‘ricida”gi PF-6097-con Farmoni. www.lex.uz.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. www.lex.uz.

4.Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tabirlari to‘g‘risida. Uzbekiston Respublikasi prezidentining PQ-4708-son 07.05.2020 Qarori

5. Djumayev M.I. The development of mathematical abilities in younger students. Science And Innovation International Scientific Journal Volume 2 Issue 1 January 2023 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz/ 424-434

6.Djumayev M.I Formation of mathematical competence in future primary school teachers in the. Educational process science and innovation international scientific journal volume 2 issue 3 march 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz 165-173

7.Djumayev M.I The transformation of те english language’s variants in contemporary great Britain. Educational process science and innovation international scientific journal volume **2 Issue 4** April 2023 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz 19-27 *https://doi.org/10.5281/zenodo.7818607*

8. Djumaev M.I.. Matematika o‘qitishda kombinatorika masallarini o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari Fizika, matematika, informatika jurnali. 2023 yil 2/1 son. 19-27

9. Djumaev M.I. Matematika o‘qitishda milliy o‘quv dasurining uzviyligi va uzluksizligining o‘ziga xos xususiyatlari. МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ Илимий-методикалық журнал. ISSN 2181-7138 2023 1-сан 314-324

10. Djumaev M.I. (2023) Some Considerations of Teaching Mathematics Inuzbek Primary School. Journal of Mathematical & Computer Applications. SRC/JMCA-123. *J Mathe & Comp Appli, 2023 Volume 2(2): 1-5* **ISSN: 2754-6705**

11.Dzhumaev M.I. Implementation of professional competence of teachers as a means of methodological and mathematical training in colleges. Vocational education of the Arctic regions No. 4/2022.7-9 Art.

12.Dzhumaev M.I. The mechanism of the strategy of a new approach to the preparation of mathematics teachers in the Republic of Uzbekistan. Scientific, theoretical and practical journal “Vocational Education and Society” Moscow. 2020 No. 1(33) art. 81-188. kstP@edu.mos.ru

Erejepov Islam Yusupovich
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar
fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

JISMONIY TARBIYANING VA SPORTNING AMALIY VA NAZARIY VOSITALARI

Annotatsaiya. *Ushbu maqolada jismoniy tarbiyaning va sportning amaliy va nazariy vositalari hamda zamonaviy jismoniy tarbiya nazariyalari, harakatli o‘yinlarni tashkil qilish, rejalashtirish va o‘tkazish nazariyalari o‘rganilgan. Bundan tashqari jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasini takomillashtirish ularning yosh avlodni jismonan barkamol inson qilib tarbiyalashdagi ahamiyatini haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *salomatlik holati, maxsus tibbiy guruh, asosiy tibbiy guruh, talabalar, jismoniy tarbiya darslari, jismoniy tarbiya nazariyalari, individuallik, sport o‘yinlari, faoliyat.*

ПРАКТИЧЕСКИЕ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И СПОРТА

Аннотация. *В данной статье рассматриваются практические и теоретические средства физического воспитания и спорта, а также современные теории физического воспитания, теории организации, планирования и проведения подвижных игр. Кроме того, совершенствование теории и методики физического воспитания говорит об их значении в воспитании подрастающего поколения как физически совершенного человека.*

Ключевые слова: *состояние здоровья, специальная медицинская группа, основная медицинская группа, студенты, уроки физкультуры, теории физического воспитания, индивидуальность, спортивные игры, деятельность.*

PRACTICAL AND THEORETICAL MEANS OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS

Annotatsaia. *This article explores the practical and theoretical tools of physical education and sports and the theories of modern physical education, the organization, planning and conduct of action games. In addition, the improvement of the theory and methodology of Physical Education talks about their importance in educating the younger generation as a physically fit person.*

Key words*: health status, special medical group, Basic Medical Group, students, physical education classes, theories of physical education, individuality, sports games, activities.*

Kirish. “Mamlakatimizda sportni ommalashtirish bo‘yicha besh yillik milliy konsepsiya ishlab chiqish zarur. Aholini jismoniy tarbiya bilan muntazam shug‘ullanib, sog‘lom turmush kechirishga jalb etish, shu orqali kasalliklarning oldini olib, odamlarning umrini uzaytirish konsepsiyaning asosiy natijasi va yo‘nalishi bo‘lishi kerak” degan edi yurtboshimiz Shavkat Mirziyoev jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishida. Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, axolining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun barcha shaoitlarni yaratish orqali ularning turmush tarziga jismoniy tarbiya va sportni olib kirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. O‘quvchilarning qobilyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta’lim tizimiga tabaqalashtirilgan va individual yondashuvni joriy etish kerakligi juda ko‘p manbalarda qayd qilingan. Inson uzoq va tinch hayot kechirish maqsadida sog‘lom, tetik va baquvvat bo‘lishi, o‘z yoshligi, husni hamda ishchanlik qobiliyatini saqlashga harakat qiladi. Bunga erishishning asosiy omillar jismoniy harakat sanaladi. Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, ayni vaqtda Respublikamizda jismoniy jihatdan etuk, sog‘lom avlodni tarbiyalash borasidagi tub islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelmoqda. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida»gi Qaror mazmunida bu yo‘lda amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan vazifalar o‘z ifodasini topgan.

Hozirgi kunda ta’lim muassasalarining oldiga qo‘yilgan muhim vazifalardan biri o‘quvchi va talabalarni jismoniy sog‘lom bo‘lib o‘sishga va o‘z sog‘lig‘ini saqlashga o‘rgatishdir. Sog‘liqni saqlash degan ibora xozirda juda keng ma’no kasb etmoqda, uning zamonaviy ma’nosini faqat salomatlik ma’nosidagina tushunib qolmay, balki har tomonlama yetuk rivojlangan va yuksak amaliy

hamda jismoniy ishlash qobiliyatiga, o‘zgaruvchan iqlimga tezda moslashishga o‘rganishdan iborat deb talqin qilish mumkin. Ayni texnik yuksalish asri insondan harakatni tezkorlik bilan moxirona boshqara olishni, puxta jismoniy tayyorgarlikni talab etmoqda. Bu narsalarning barchasiga asos esa kichik yoshdan boshlab qo‘yiladi. O‘quvchi vatalabalarni jismoniy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: Sog‘liqni mustaxkamlashga, chiniqtirishga xar tomonlama garmonik va jismoniy rivojlanishiga, aqliy hamda jismoniy ish qobiliyatini oshirishga yordamlashish. Sog‘lomlashtirish jismoniy rivojlantirish hamda harakat malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish vazifalari jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchilar yoshi, jinsi hamda shaxsiy xususiyatlariga qarab turli shakllarda bo‘ladi. O‘quvchi va talabalarning jismoniy tarbiyasi ularni uyg‘un jismoniy rivojlanishi va organizmini chiniqtirishga qaratilgan bo‘lsa, sport bilan shug‘ullanishda sport turi bo‘yicha mutaxassislikka erishi va sportda yuksak natijalar ko‘rsatishga yunaltirilgan bo‘ladi. Jismoniy tarbiyaning yuqorida qayd etilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda bosh omil murabbiylar hamda tashkilotchilar xisoblanadi. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchilarning yoshi, jinsi, jismoniy tayyorgarliklari, sog‘lig‘i hamda qiziqishlari ham jismoniy tarbiyani amalga oshirishda xal qiluvchi rol o‘ynaydi. Mashg‘ulotlarni tashkil qilishda jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifasini amalga oshirish ko‘zlanmasa, tarbiyada ijobiy natijalarga erishish mumkin emas.

Jismoniy tarbiya tadbirlari. Talabalarni jismoniy tarbiyalash bo‘yicha ish shakllari quyidagilar: Jismoniy tarbiya darslari; o‘quv kuni tartibidagi jismoniy tarbiya tadbirlari: ertalabki badan tarbiya, darsda jismoniy madaniyat daqiqalari, tanaffusdagi harakatli o‘yinlar; jismoniy tayyorgarlik va sport to‘garaklari, mashg‘ulotlari, sport musobaqalari va bayramlari, sayyohlik yurishlari va turizm, oilada va yashash joylarida jismoniy tarbiya tadbirlari bilan shug‘ullanish.

Adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizning etakchi olimlari A.Abdullayev., Sh.X.Xonkeldiyev (2001), 2 Achilov A.M. Akramov J.A. Goncharova O.V., (2004), R.M.Mavlanova., A.To‘rayeva., K.Xolqberdiyev (2001), G.Salimov (2007), T.Ismoilov., M.Ismoilova., N.Ismoilova (2008), T.Ismoilov (2008), F.Xo‘jayev., K.Raximqulov., B.No‘gmonov., M.Xo‘jayeva (2008), M.Kurbonova., M.Qosimova (2009), M.A.Aslonova (2009), T.Ismoilov, A.G‘ofurov (2011), T.Ismoilov., U.Normatov (2013)lar milliy va harakatli o‘yinlarni o‘rganish, ularni xalq o‘rtasida ommalashtirish va o‘sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda, jismoniy tarbiya darslarida darsdan tashqari mashg‘ulotlarda, harakat ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda, jismoniy sifatlarni tarbiyalashda bir qator ilmiy-uslubiy ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

Jismoniy tarbiya jarayoni ko‘p qirralidir. Bu jarayonda ta'lim ham, tarbiya ham beriladi. Jismoniy tarbiya jarayonida ta'lim berish harakat ko‘nikmalari, malakalarini hosil qilish, takomillashtirishga qaratilgan bo‘ladi. Shu bilan birga, shug‘ullanuvchilarni jismoniy rivojlanishiga ta'sir ko‘rsatiladi. Tarbiyaning hamma turlarining birligi, ularning o‘zaro bir-biriga ta'sir o‘tkazishi tub pedagogik qonuniyatlaridan biridir. Aqliy, ahloqiy va estetik tarbiyaning ma'lum tomonlari jismoniy tarbiya jarayoniga uzviy qo‘shilib ketgan. Jismoniy tarbiyaning insonni mehnat va harbiy tayyorgarlik, sog‘lomlashtirish hamda har tomonlama rivojlantirish tamoyillari jismoniy tarbiyaning umumiy tamoyillari hisoblanadi. Shu bilan birga jismoniy tarbiya jarayoninig ta'lim va tarbiya tamoyillari ham qabul qilingan. Jismoniy tarbiyada harakatlarni birlashtirish va ularni mashq uslublari bilan yaxlit tartibda qo‘llash hollari bo‘ladi. Ta'lim va tarbiya qonuniyatlarini ifodalovchi eng muhim boshlang‘ich qoidalar tarbiya tamoyillari deb ataladi. Jismoniy tarbiya jarayonida umumiy pedagogik tamoyillar tadbiq qilinishi mumkin, chunki bu jarayon ta'lim va tarbiyaning xususiy hodisasidir. Jismoniy tarbiya sohasida xususiyatini aks ettirib, alohida ahamiyat kasb etadi. Onglilik va faollilik tamoyili Har qanday ta'lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyati, tarbiyalanuvchilarning o‘zining bu ishga qanchalik ongli va faol munosabatda bo‘lishlariga ham bog‘liqdir. Jismoniy tarbiya jarayoni vazifalarini to‘g‘ri tushunish, ularni qiziqish bilan faol bajarish tarbiyaning borishini tezlashtiradi, hosil qilingan bilim, malaka va ko‘nikmalarni chuqur takomillashtirish va ulardan xayotga ijodiy ravishda foydalanishga imkon beradi. Bu qonuniyatlar eng avvalo onglilik va faollilik tamoyilining asosini tashkil etadi. Jismoniy tarbiya jarayonida onglilik va faolilik tamoyili quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha qo‘llaniladi. Mashg‘ulotlarning umumiy maqsadi va konkret vazifalariga nisbatan tushungan holda munosabatda bo‘lishni va muhim qiziqishni tarkib toptirish. Onglililk va faollilik tamoyili jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining maqsadini tushunish va jismoniy barkamollikning istiqbolini anglash va unga etishni maqsad qilib belgilash bilan ifodalanadi. Jismoniy tarbiya jarayonida beriladigan vazifalar ma'lum jismoniy mashqlar tarzida bajariladi. Maqsad va vazifalarni qanchalik tushunib olish

shug‘ullanuvchilarni yosh imkoniyatlariga va tayyorlik darajasiga bog‘liqligi o‘z-o‘zidan ravshandir. Shug‘ullanuvchilarning harakatlari bajarilishini o‘qituvchi va murabbiylar nazorat qiladilar, baholaydilar va xatolarni tuzatib boradilar. Shunga qaramay shug‘ullanuvchilarni o‘z harakatlarini o‘zlari baholashi va nazorat qilish qobiliyatini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Bunda harakatlarni oldindan xis qilish va sinash qo‘llaniladi. Shug‘ullanuvchilarning faolliliklarini oshirishda ularning erishgan yutuqlarini muntazam ravishda baholab va rag‘batlantirib borish muhim rol o‘ynaydi.

Harakatli mashqlar dastlab yaxlit va qismlarga bo‘lib o‘zlashtirilishi mumkin. Harakat amallarini qismlarga bo‘lib o‘zlashtirishda harakatlar tarkibiy elementlarga bo‘linadi va ular navbat bilan o‘zlashtiriladi. Qat'iy reglamentlashtirilgan mashq usuli ikki asosiy shaklga bo‘linadi.

1) mashqlarni qismlarga bo‘lib, so‘ng izchillik bilan birlashtirib bajarish

2) qismlarni tanlab chiqarib yuborish bilan bajariladigan yaxlit mashq.

O‘rganilgan harakatlardan takomillashtirish uchun foydalanish har xil bo‘ladi. O‘yin uslubi Jismoniy tarbiya uslublarining samarali shakllaridan biri o‘yin uslubidir. Jismoniy tarbiyaning o‘yin uslubi quyidagi ko‘rinishlarda bo‘ladi. Faoliyatni taqlid asosida tashkil etish, bunda vaziyatning doimiy va ko‘proq darajada bexosdan o‘zgarishi bilan maqsadga erishish. O‘yin syujeti atrof-muhitdan olingan biror tomoni obrazli ifoda etishdan iborat bo‘ladi yoki jismoniy tarbiya talablariga asoslanib o‘ynovchilarning harakat qilishlarining maxsus syujeti shakllanadi. Bunday holat ko‘proq sport va harakatli o‘yinlarda uchraydi. Maqsadga erishish usullarining hilma-xilligi va faoliyatning kompleks harakterda bo‘lishi. O‘yinda g‘alaba qilish mumkinligi bir harakatlarga bog‘liq bo‘lmaydi. Jismoniy tarbiya jarayonida o‘yinlar faoliyati kompleks shalda bo‘ladi. Ya'ni o‘yin jarayonida yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, itqitish kabi halma hil harakatlar bajariladi. Shuning uchun g‘alabaga erishishda xilma-xil usullar va harakatlarning shakllari qo‘llaniladi. Shug‘ullanuvchilarning bemalol mustaqil harakat qilishi, ularning tashabbus va chaqqonlik ko‘rsatishlariga va o‘z harakat faoliyatlariga talablar qo‘yish. O‘yinlar qoidasi o‘yin yo‘nalishini belgilaydi, vazifalarni hal qilishda imkoinyatlar yaratadi, o‘yin davomida vaziyatni doimiy va birdan o‘zgarib turishi harakat qobiliyatlarini to‘la ishga solishga majbur qiladi. Shug‘ullanuvchilar harakatining bir-biriga bog‘liqligi, yorqin emotsionallik. O‘yinlarda ishtirokchilar o‘rtasida aloqa o‘rnatiladi, o‘zaro hamkorlik va bir-biriga qarshi raqiblik ruhida bo‘lish mumkin, qarama-qarshi fikrlar qiziqishlar to‘qnashganda ziddiyat vujudga keladi. Bu bilan o‘yin maqsadi hal etiladi. Yuksak hissiy holat paydo bo‘lib, ahloqiy fazilatlarni namoyon qilish imkoniyati yaratiladi.

Jismoniy tarbiya tadbirlari samaradorligi.

Jismoniy mashqlar, mexnat, tegishli kun tartibi va tabiatning tabiiy omillaridan foydalanish jismoniy tarbiyalash vositalari xisoblanadi. Ta’lim muassasasi jismoniy tarbiyasining asosiy vositasi jismoniy mashqlardir. Jismoniy mashqlar o‘quvchi va talabalarda harakat malakalari va ko‘nikmalarini shakllantirish bilan bog‘liq vazifalarni xal etadi, harakat apparatining rivojlanishiga yordam beradi, qon aylanish va modda almashishini yaxshilaydi, nafas olishga ijobiy ta’sir etadi. Ta’lim muassasasidagi jismoniy tarbiyaga oid amaliy ishlarda qo‘llaniladigan harakatlar tezkorlikni, epchillikni, yegiluvchanlik, kuchni, chidamlilikni rivojlantiradi va kishining yurish, yugurish, sakrash, muvozanat saqlash, uloqtirish, tirmashib chiqish kabi tabiiy harakatlarni to‘g‘ri bajarish ko‘nikmalarini mustaxkamlaydi. Jismoniy mashqlarni to‘g‘ri qo‘llashda mashqlarni tanlash va ularni o‘tkazish uslubiyati katta axamiyatga ega. Jismoniy mashqlar harakatlariga o‘rgatish jarayonining bir qismida ham shuningdek yaxlit jarayoda ham ishtirok etadi. O‘yin va musobaqalar tarkibida jismoniy mashqlar mavjud bo‘lib bolalarni jismoniy rivojlanish hamda jismoniy fazilatlarni takomillapggirishni amalga oshiradi. Jismoniy tarbiya mutaxassislari yosh avlodni jismoniy tarbiyalash va jismoniy rivojlantirish mexnatga va hayotga tayyorlash hamda axolini sog‘lomlashtirish vazifalarini bajaradilar. Shuning uchun ular o‘z soxalarini yetuk mutaxassislari va moxir sportchilar bo‘lishlari kerak. Ular jismoniy tarbiya jarayonida harakatlarga o‘rgatish, harakat malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish hamda jismoniy mashqlar texnikasiga o‘rgatishda o‘zlari nazariy va amaliy jihatdan yuksak darajada tayyorgarligi bilan o‘rnak bo‘lishlari kerak. Shu bilan birga, murabbiy mutaxassislar axloqiy va ma’naviy yetukligi shug‘ullanuvchilarga xar qanday yordamga tayyorligi ularda iroda va ruxiy fazilatlarni tarbiyalashda moxir do‘st ekanligi bilan ajralib turishlari kerak. arbiya jarayonining ko‘p qirraliligi va murakkabligi jismoniy tarbiya mutaxassisi zimmasiga ko‘p mas’uliyat yuklaydi.

Suzish – suvga ko‘nikish mashqlari, ko‘krakda va chalqancha sirg‘anish. Chalqancha quloch otib va qurbaqa usulida suzish, suzishda qo‘l va oyoq harakatlari; qo‘l harakatni nafas olish bilan

moslab bajarish, supada suvga sakrash, suvning ichidan start olish, burilishlar, suvda xar hil o‘yinlar o‘ynash.

Yengil atletika – yurish, yugurish, gavdani to‘g‘ri tutib yurish, goh yurib, goh yugurish, 30-60 mga yugurish, sakrash, arg‘amchidan sakrash, to‘g‘ri yugurib kelib, bir oyoqda depsinib, 40 sm balandlikdan sakrab o‘tish; turgan joydan uzunlikka sakrab, oyoqlarda yumshoq tushish. 60 sm balandlikda bosh orqasidan uloqtirish texnikasi 2,5 m balandlikda o‘rnatilgan 1x1 m o‘lchamdagi nishonga o‘g‘il bolalar 6 metrdan, qizlar 4 metrdan koptok otish.

Ritmik gimnastika: Jismoniy tarbiyadan yangi dasturda ritmik gimnastika elementlarini o‘rgatish ko‘zda to‘tilgan. Ritmik gimnastika - bu sog‘lomlashtirishga yunaltirilgan bo‘lib, uning asosiy maqsad va vazifalari yosh avlodni tarbiyalash, ularda jismoniy mashqlar bilan mustaqil shug‘ullanish malaka va odatlarini shakllantirish, mashqlarning garmonik birligi, yugurish, sakrash, raqs elementlaridan tuzilgan kombinatsiyalarni emotsional - ritmik muzika jo‘rligida uzluksiz bajarishdan iboratdir. Ritmik gimnastika - o‘rtacha shiddat bilan ijro etiluvchi mashqlardan iborat bo‘lib, uning umumiy sur’ati sekin yugurishga to‘g‘ri keladi.

Zamonaviy jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyoti holatini tahlil qilish inson va atrof-muhitni ko‘rib chiqishning epistemologik va ontologik rejalari o‘rtasidagi nomuvofiqlik asosida bir qator jiddiy qarama-qarshiliklarni aniqlashga imkon berdi:

- ko‘p funktsiyali hodisa sifatida jismoniy tarbiya va sport muhitining potentsial imkoniyatlari va uning sog‘lig‘ini saqlash, rivojlantirish, ko‘maklashish va madaniy-ijodiy funktsiyalarining maqsadli amalga oshirilmaganligi o‘rtasida; jismoniy tarbiya va sport muhitining pedagogik salohiyatining ahamiyatini anglash va uni dolzarblashtirish vositalari va usullarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi o‘rtasida;

- tashqi qo‘yilgan maqsadlar tizimi va ularga erishishning o‘ziga xos usullari orqali pedagogik rahbarlikning direktiv usullarining keng tarqalganligi bilan jismoniy tarbiya va sport muhitida shaxsiy rivojlanishning o‘z pozitsiyasini muammolilashtirish, subyektiv ma'nolarni izlash va shaxsiy rivojlanishning dolzarbligi o‘rtasida. jismoniy tarbiya va sport faoliyati usullari.

Yoshlar uchun jismoniy tarbiyaning asosiy usullari quyidagilardir: jismoniy mashqlar, ishontirish bilan bir qatorda mashg‘ulotlar, ko‘rsatmalar, kattalarning ijobiy namunasi; o‘quvchilarning bilim va zarur individual fazilatlarini rivojlantiradi, ularning jismoniy va umumiy rivojlanishiga yordam beradi.

Аннотация. *В данной статье повышение эффективности физической подготовки юных спортсменов, обеспечение реализatsii этих решений является одной из главных задач современности. Поэтому разработка наиболее оптимального варианта подготовки юных спортсменов по повышению качества скорости, создание эффективной системы отбора и подготовки перспективных и талантливых молодых спортсменов, формирование качественного спортивного резерва natsiональных сборных и профессиональных спортивных клубов международного уровня. Заключается в подготовке, переподготовке и повышении квалификatsii юных спортсменов, тренеров и судей на основе требований и стандартов.*

Ключевые слова: *Разработка наиболее оптимального варианта тренировки средств и методов повышения качества ловкости легкоатлетов.*

METHODS OF DEVELOPING SPEED QUALITIES IN TRAINING OF YOUNG ATHLETES

Annotation. *In this article, improving the effectiveness of physical training of young athletes, ensuring the implementation of these decisions is one of the main tasks of today. Therefore, developing the most optimal option for training young athletes in improving the quality of speed, creating an effective system for the selection and training of promising and talented young athletes, forming a quality sports reserve for national teams and professional sports clubs, international The goal is to train, retrain and improve the skills of young athletes, coaches and referees based on requirements and standards.*

Key words: *Development of the most optimal option for training the means and methods for increasing the quality of agility of track and field athletes.*

Kirish. Bugungi kunda yurtimizda ta’lim tizimini isloh qilish, o‘qitish samaradorligini oshirish masalalariga jiddiy e’tibor qaratilganligi yosh iqtidorli o‘g‘il – qizlarni tarbiyalash va ularni kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qiladi. Shu jumladan, Yosh sportchilarni jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarilarini samaradorligini oshirish ushbu chiqarilgan qarorlarni ijrosini ta’minlash bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Shu boisdan yosh yengil atletikachilarni tezkorlik sifatini oshirish bilan shug‘illanishda sakrash texnikasini vosita-usullarni o‘rgatishning eng optimal variantini ishlab chiqish bugungi kunda e’tibor qaratish lozimligini ko‘rsatmoqda[1].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Istiqbolli va iqtidorli yosh yengil atletikachilarni tanlash va tayyorlashning samarali tizimini yaratish, milliy terma jamoalar va professional sport klublari uchun

sifatli sport zaxirasini shakllantirish, xalqaro talab va standartlar asosida yosh sportchilar, trener va hakamlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev.Sh.M tashabusi bilan, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining strategiyasi ishlab chiqildi [2].

Unda “Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish aholi salomatligini taminlashda muhim omildir” dep baho berilgan. Shu bilan bir qatorda 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 67-maqsadida, “Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan fuqorolarning sonini oshirish” ko‘rsatilib, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan aholi sonini 2026-yilda 33 foyizga chiqarish belgilangan. Bu soha zimmasiga davlatimiz rahbari tomonidan quyiladigan bunday yuksak talabalarni “Jismoniy tarbiya” va “sport” sohasi orqali faqat jismoniy rivojlangan shahislarni tarbiyalash bilan cheklanmay, balki har tomonlama yuksak darajadagi madaniyatli, marifatliy, solih insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazish nazarda tutilgan.

Yengil atletika sport turlari to‘garagining asosiy vazifasi bo‘lib, o‘quvchilarni sog‘lomlashtirish, ma’nan barkamol yetuk shaxsni tarbiyalashga qaratilgan bo‘lishi kerak. Maktabda yengil atletika turlari yurish, yugurish, uloqtirish va sakrash turlariga, qiziqishlari va iqtidorini inobatga olgan holda o‘quvchilarni sportning ushbu turiga jalb qilish zarur[3].



Ushbu dasturning o‘quv materiali barcha yoshdagi o‘quvchilar guruhlariga mo‘ljallangan. Boshlang‘ich tayyorgarlik guruhida (11-12 yosh) asosiy e’tibor salomatlikni mustahkamlashga, har tomonlama jismoniy tayyorlikka, koordinatsion qobiliyatlar (chaqqonlik), tezkorlikni, egiluvchanlikni hamda chidamlilikni rivojlantirishga qaratiladi.

O‘smirlik (13-14 yosh) guruhidagi yosh yengil atletikachilarni keyinchalik har tomonlama jismoniy rivojlanish va tayyorgarligi bo‘yicha shug‘ullanadilar, ular iqtidoriga qarab yengil atletikaning chidamlilik, tezkorlik yoki kuch talab etiladigan turlariga yo‘naltiriladi[4].

Yosh sportchilarda tezkorlikni oshirish vositalari, usullari va uslublarining samarali tizimni o‘rganishni hamda ilmiy asoslab berishni taqozo etadi. Tadqiqot mavzusi bugingi kunda yosh yengil atletikachilarni jismonan tarbiyalashda chidamlillik, tezkorlik sifatini rivojlantirish masalalari ko‘rilgan bo‘lib bu jismomiy sifatlarni rivojlantirish muhim masalardan hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda ko‘pgina murabbiylar sprinterlik yugurish texnikasi o‘ta individual bo‘lishini va, ma’lum bir biomexanikaviy tavsiflarga qaramasdan, sportchining muayyan individual xususiyatlariga, shuningdek, u erishadigan shiddat va tezkorlik darajasiga bog‘liq ekanligini e’tirof etadilar. Bu albatta hamma uchun umumiy bo‘lgan oqilona texnika elementlarini rad etmaydi, ularni takomillashtirish ustida hozirda ham shug‘ullanib kelinadi[5].

Maqsad: Tadqiqot uchun 13-14 yoshdagi yengil atletikachilarni tezkorlik sifatlarini tarbiyalash samarali vositalari va usullarni rivojlantirish hamda ularning samaradorlik ko‘rsatkichini aniqlashdan iborat. Olingan narijalardan ko‘rish mumkinki dastlabki mashqda sportchilarni 60 metr masofaga yugurishini ko‘rishimiz mumkin. Bundan olingan natija samaradorlik ko‘rsatkichi past.

Har kungi mashq davomida tezkorlik sifatini oshirishga ko‘proq mashq berdik. Mashg‘ulotning tuzilishi, shakllari va mazmuni. Hamma yengil atletikachilar uchun mashg‘ulot protsessining asosiy tashkiliy shakli gruppa bo‘lib, individual 2 soat yoki undan ko‘proq davom etadigan trenirovka mashg‘uloti o‘tkazishdir. Ozroq davom etadigan mashg‘ulotlar bo‘lishi ham mumkin. Asosiy mashg‘ulotlarni har kuni ko‘p kuch ketmaydigan ertalabki trenirovka mashg‘ulotlarini to‘ldiruvchi uy vazifalarini esa kunning boshqa vaqtida bajarish mumkin. Mashg‘ulotlarning hamma shakllarida quyidagi asosiy qoidalarga rioya qilish kerak. Mashg‘ulotni asta-sekin boshlab, keyin asosiy ish o‘tkaziladi.

Mashg‘ulot oxirida kuch berish kamaytiriladi. Kuch kelishni bu tarzda o‘zgartira borishi, mashg‘ulot qaysi tarzda o‘tkazilishdan qat’iy nazar, har qanday trenirovka mashg‘uloti uchun shartdir. Trenirovka mashg‘ulotlari qabul qilingan umumiy struktura bo‘yicha tuzilib 4 qismdan yoki 3 qismdan iborat. Mashg‘ulotning maqsadi va mazmuniga, trenirovka davriga va asosan yengil atletikachilarning tayyorgarlik darajalariga qarab 1 yoki 2 variant qo‘llaniladi[6].

Uchinchi haftada o‘yin davomida harakatlar va individual mashq bajarganda sportchilarda natija oldingisiga qaraganda yaxshiroq samaradorlik ko‘rsatkichni ko‘rsatdi. Bu yerda tezkorlik sifatini ko‘rsatuvchi 30-40-50 metrga moksmon yugurishini ko‘rishimiz mumkin.

Natija va ilmiy yangilik. Tadqiqotlardan ko‘rish mumkinki, Yosh yengil atletikachilar tezkorlik sifatlarni rivojlantirish quydagilardan iborat ekanligini ko‘rsatadi:


1. Start olish tezligi;
2. Oddiy vaziyatdagi start tezligi;
3. Murakkab vaziyatdagi start tezligi;
4. Mutlaq (eng yuqori) tezlik;
5. Depsinish usullarni bajarish tezligi;

Yengil atletikachilarning mashg‘ulot faoliyatida bularning har biri o‘z o‘rniga ega. Yosh sportchilarning mashg‘ulotlari, odatda murakkab vaziyatda o‘tadi. Quydagilar murakkab vaziyatlarda start tezligini oshiradigan mashqlarga misol boladi: Qisqa masofalarga yugurish teskorlik texnikasini tahlil qilish uchun unda shartli ravishda quyidagilar ajratiladi:

- start tezlanishi;
- masofa bo‘ylab yugurish; - marraga yetib kelish.

Start. Qisqa masofalarga yugurishda musobaqa qoidalariga binoan past start qo‘llaniladi, bunda start oyoq tirgaklaridan (stanogidan) foydalaniladi.


Start oyoq tirgaklarining joylashtirilishi o‘ta individual bo‘lib, sportchining malakasiga va uning jismoniy imkoniyatlariga bog‘liq bo‘ladi (1-rasm). Amaliyotda to‘rt xil turdagi past start qo‘llaniladi (oyoq tirgaklarining joylashishiga qarab): 1) odatdagi; 2) uzoqlashtirilgan; 3) yaqinlashtirilgan; 4) tor.



1-rasm. Start tirgaklarining joylashtirilishi:
a – oddiy start uchun; b – uzaytirilgan start uchun; v– yaqinlashtirilgan start uchun


Yuguruvchi startga shay turish holatida ortiqcha zo‘riqmasligi va uning harakatlari qisilib qolmasligi lozim. Lekin ayni vaqtda u qisilgan prujinaga o‘xshash holatda turishi kerak. Buyruq berilish

bilan teskor harakatni boshlashi, startdan chiqishi kerak. Boz ustiga —Diqqat! va —Marsh» buyruqlari o‘rtasidagi vaqt oralig‘i musobaqa qoidalarida belgilab berilmagan va start beruvchiga bog‘liq. Startga berilgan signalni (o‘q tovushi, ovozli buyruq) eshitgan zahoti, yuguruvchi bir zumda oldinga harakatlanishni boshlaydi.



2-rasm. Yuguruvchining buyruqlar bo‘yicha holatlari:
a —Start! b —Diqqat! V — Marsh!

Toliqish boshlanishi bilan itarilishda ishtirok etuvchi mushaklar kuchi kamayadi, yugurish qadami uzunligi kichrayadi, demak, tezlik tushib ketadi.Tezlikni saqlab qolish uchun yugurish qadamlari tezligini oshirish zarur, buni esa, yuqorida aytib o‘tganimizdek, qo‘l harakatlari hisobiga amalga oshirish mumkin.Masofada yugurish yuguruvchi marra to‘siniga, ya’ni marra chizig‘i orqali o‘tuvchi xayoliy vertikal tekislikka tegishi bilan tugallanadi.Unga tezroq tegish uchun yuguruvchilar oxirgi qadamda qo‘llarni orqaga chiqargan holda gavdani tez oldinga egiltiradilar. Bunday usul – ko‘krak bilan “otilish” deb ataladi.



3-rasm. 100 m masofaga yugurish ketma ketligi

Boshqacha usul ham qo‘llaniladi: yuguruvchi oldinga egilgan holda bir vaqtning o‘zida marra lentasiga yon tomoni bilan burilib, elkasini unga tegizadi. Bu ikkita usul deyarli bir xil. Ular yugurish tezligini oshirmaydi, balki yuguruvchining lentaga tegishini tezlashtiradi. Bu bir nechta yuguruvchilar birga marraga etib kelganlarida juda muhim va g‘alabani faqat shunday harakat bilan qo‘lga kiritish mumkin. Fotofinish marraga etib kelishda yuqori texnikaga ega yuguruvchini aniqlab beradi. Marraga etib kelish texnikasini hali o‘zlashtirib olmagan yuguruvchilar uchun marra chizig‘ini to‘liq tezlik bilan, lentaga tashlanishni (otilishni) o‘ylamasdan kesib o‘tish tavsiya qilinadi. Sprinterlik yugurish – bu maksimal tezlik bilan yugurishdir.

Darvoqe, tezkorlik namoyon bo‘ladigan hamma shakillari nisbatan bir-biriga bog‘liq. Bu tezkorlikning har bir tashkil etuvchi maxsus yo‘nalishdagi ishni talab qiladi.

Xulosa. Xulosa qib aytishimiz mumkinki, tezkorlik sifati har bir yosh sportchi uchun muhim sanaladi agar mashg‘ulot jarayonida tezkorlik va chaqonlik sifatini rivojlantirishga ko‘proq mashqlar bajarish kerak. Olingan natijalardan shuni ko‘rsatadiki to‘gri yo‘naltirilgan mashg‘ulot natijasida ya’ni yosh yengil atletikachilarning tezrkorlik sifatlarini oshirishga qaratilgan standart mashqlar va maxsus tanlangan usullar yordamida tadqiqotdan so‘ng natijalarni o‘zgarganligi kuzatiladi bu esa o‘quv-mashgulotlarda olib borilgan ishlarimizning samarasini ko‘rsatadi. Tezkorlik sifati bo‘yicha natijalar shuni ko‘rsatadiki hamma guruhlar ayniqsa tajribadagi guruhlardagilarni katta o‘sishi sezildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бондаревский Е.Я., Ханкельдиев Ш.Х. Методологические и метрологические аспектў изучения региональнўх и популяционнўх особенностей физической подготовленности молодежи. // Теория и практика физической культурў / - 1984 - № 7 – с 32-34.

2. Саломов Р. Совершенствование образовательного процесса подготовки бакалавров по направлению «Физическая культура и спорт». Автореф.дисс…докт.пед.наук. Ташкент. – 2003-38 с. 3. Усмонходжаев Т.С. Научно-педагогические основў физического совершенствования детей в связи с их двигательной активностью. Автореф.дисс…докт.пед.наук. Ташкент. - 1995 – 50 с.

3. Andris E.R., Qudratov R.K. Yengil atletika. O‘quv qo‘llanma. –T.: 1998 yil.

4. Абдуллаев М.Ж., Смурыгина Л.В. Организasия физкультурно оздоровительных и спортивных мероприятий в обще образовательной школе. Учебное пособие. Buxoro. “Durdona” – 2015

5. Бондарчук А.П. Управление тренировочным процессом спортсменов высокого класса. Библиотека легкоатлета. Москва, Олимпия ПРЕСС, 2007.

6. Гомелий В. Моделирование техники двигательных действий в спорте. Наука в Олимпийском спорте. 2005. – № 2. – с. 108-116.

Kochkarova Shakhnoza Satvaldiyevna
Andijon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
E-mail: kuchkarova.shakhnoza@gmail.com

BOSHLANGICH SINFLARDA DARKTIK O‘YINLARDAN DARSLARDA FOYDALANISH O‘QUVCHILARINING O‘QUV MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISH SHARTI

Annotasiya. *Milliy o‘quv dasturida berilgan ta’lim standartlari mazmunida zamonaviy dars strukturasining har bir bosqichining turlari va mazmunini tahlil qilib, boshlang‘ich sinf darslarida o‘quvchilarida motivatsiyani didaktik o‘yinlar orqali kuchaytishda shuni ta'kidlash kerakki, darsni tushunishning o‘zi ta'lim jarayonining bir qismi sifatida to‘liq o‘quvchini uning kognitiv faoliyatining faol subyekti sifatida rivojlantirishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Dars, motivatsiya, vazifa, ta’lim va tarbiya, boshlang‘ich sinf, o‘quvchi qiziqishi,samaradorlik,pedagogika va psixologiya.*

УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ УЧАЩИХСЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПРЯМЫХ ИГР НА ЗАНЯТИЯХ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. *Анализируя виды и содержание каждого этапа современной структуры урока в контексте образовательных стандартов, приведенных в национальной учебной программе, следует отметить, что понимание самого урока имеет важное значение в повышении мотивации учащихся на уроках начальной школы через дидактические игры.В рамках образовательного процесса направлены на развитие ученика как активного субъекта его познавательной деятельности.*

Ключевые слова. *Урок, мотивация, задача, образование и обучение, начальный* класс, интерес учащихся, эффективность, педагогика и психология.

CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF LEARNING MOTIVATION OF STUDENTS USING DIRECT GAMES IN CLASSES IN PRIMARY CLASSES

Abstract. *Analyzing the types and content of each stage of the modern lesson structure in the context of educational standards given in the national curriculum, it should be noted that understanding the lesson itself is important in increasing the motivation of students in primary school lessons through didactic games. As part of the educational process, they are aimed at the development of the student as an active subject of his cognitive activity.*

Key words. *Lesson, motivation, task, education and learning, primary grade, student interest, effectiveness, pedagogy and psychology.*

Kirish. Bir qator tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, ta'lim motivatsiyasini rivojlantirishning samarali usullaridan biri bu didaktik o‘yindir, chunki sinfda o‘quv faoliyatini tashkil etishga ana shunday yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ozgina dam olish va boshqa faoliyatga o‘tish imkonini beradi. o‘quv jarayonidan chalg‘itadi.

Adabiyotlar tahlili. M.Djumayev, M.Eshonkulova tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, o‘yin faoliyatida o‘quvchilarning aqliy harakatlari shakllanadi, ularning xayoliy tafakkuri rivojlanadi, o‘quv motivatsiyasi shakllanadi.

V. A. Suxomlinskiy shunday deb yozgan edi: "Hayotning o‘zi bilimlarni o‘zlashtirish asta-sekin boshlanishini talab qiladi, shunda o‘rganish - bolaning bu eng jiddiy va eng mashaqqatli ishi - ayni paytda bolalarning ma'naviy va jismoniy kuchini mustahkamlaydigan quvonchli ishdir. .... O‘yin - bu atrofdagi dunyo haqidagi g‘oyalar va tushunchalarning hayot beruvchi oqimi bolaning ruhiy olamiga oqib o‘tadigan ulkan yorqin oyna." [11].

“..... O‘yin – bu izlanuvchanlik, qiziquvchanlik alangasini yondiruvchi uchqun. Tajriba shuni ko‘rsatdiki, maktab bolalar hayotida keskin o‘zgarishlar qilmasligi kerak. Bolaning yozishni o‘ynab o‘rganishi, aqliy rivojlanishning qaysidir bosqichida o‘yin mehnat bilan uyg‘unlashib ketishida dahshatli narsa yo‘q...” [14].

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, didaktik o‘yin - bu ikkita printsip bir vaqtning o‘zida ishlaydigan o‘yin shaklidir: ta'lim (kognitiv) va o‘yin (ko‘ngilochar). Bu bir etakchi faoliyatdan boshqasiga o‘tishni yumshatish zarurati bilan bog‘liq, shuningdek, o‘yin davomida boshlang‘ich sinf

o‘quvchilari bilimlarni osonroq o‘zlashtiradilar va atrofdagi hayot haqida tasavvurga ega bo‘ladilar. Didaktik o‘yin (o‘quv o‘yini) - bu bolalar o‘rganadigan faoliyat turidir [12].

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quv jarayonida foydalanadigan didaktik o‘yinlarni uch guruhga bo‘lish mumkin:

1. Ta'lim (ularning maqsadi talabaning yangi bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalarni egallashidir)

2. Nazorat qilish (ularning maqsadi talabalar tomonidan ilgari olingan bilimlarni takrorlash, mustahkamlash va sinab ko‘rishdir)

3. Umumlashtirish (o‘quvchilarning integratsiya bilan bog‘liq turli xil o‘quv vaziyatlarida harakat qilish ko‘nikmalarini egallashga qaratilgan)

Bir qarashda, didaktik o‘yinlar o‘quvchilar bilimiga hech qanday yangilik keltirmaydigandek tuyuladi. Darhaqiqat, ular katta foyda keltiradi va ta'lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisiga yordam beradi. Didaktik o‘yinlar kichik yoshdagi maktab o‘quvchilariga bilimlarni qo‘llash yoki ularga aqliy vazifa qo‘yish uchun sharoit yaratadi, ularni hal qilish aqliy faoliyatning turli shakllarini namoyon qilishni talab qiladi.

Didaktik o‘yin o‘zining barqaror tuzilishiga ega bo‘lib, uni boshqa faoliyat turlaridan ajratib turadi. Didaktik o‘yinning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardir: o‘yin tushunchasi, qoidalari, o‘yin harakatlari, kognitiv mazmun yoki didaktik vazifalar, jihozlar, o‘yin natijasi [6].

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yangi bilimlarni kashf qilish, yangi ko‘nikma va ko‘nikmalarni egallash uchun dars tuzilishi:

- motivatsion bosqich;
- taklif etilayotgan mavzu bo‘yicha bilimlarni yangilash va birinchi sinov harakatini o‘tkazish bosqichi;
- qiyinchilikni aniqlash: yangi materialning murakkabligi nimada, muammoni aynan nima yaratadi, qarama-qarshiliklarni izlash;
- loyihani ishlab chiqish, mavjud qiyinchilikdan chiqish rejasi, ko‘plab variantlarni ko‘rib chiqish, optimal yechimni izlash;

2. Reflektsiya darsi. Maqsadlar:

Faoliyatga asoslangan: o‘quvchilarda tuzatish-nazorat turini aks ettirish qobiliyatini rivojlantirish, bolalarni qiyinchiliklarning sababini topishga o‘rgatish, qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun harakatlar algoritmini mustaqil ravishda qurish, harakatlarni o‘z-o‘zini tahlil qilish va topish usullarini o‘rgatish. mojaroni hal qilish.

3. Bilimlarni tizimlashtirish (umumiy uslubiy yo‘nalish). Maqsadlar: Faoliyatga asoslangan: talabalarga olingan bilimlarni qanday tuzishni o‘rgatish, xususiydan umumiyga va aksincha o‘tish qobiliyatini rivojlantirish, har bir yangi bilimni ko‘rishga o‘rgatish va o‘rganilgan barcha mavzu doirasida o‘rganilgan harakat usulini takrorlash.

Tadqiqot metodlari. Kontentga asoslangan: umumlashtirishni o‘rgatish, mavzuni yanada rivojlantirish bo‘yicha nazariy taxminlar qilish qobiliyatini rivojlantirish, umumiy kurs tarkibida yangi bilimlarni ko‘rishni, uning allaqachon olingan tajriba bilan bog‘liqligini va keyingi o‘rganish uchun ahamiyatini o‘rgatish.

Bilimlarni tizimlashtirishning tuzilishi:

- o‘z taqdirini o‘zi belgilash;
- bilimlarni yangilash va ro‘yxatga olish qiyinchiliklari;
- tarbiyaviy vazifani, dars maqsadlarini belgilash;
- qiyinchilikni hal qilish uchun reja va strategiyani ishlab chiqish.

Maqsadlar: Faoliyatga asoslangan: talabalarga o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘zaro nazorat qilish usullarini o‘rgatish, nazoratni amalga oshirishga imkon beradigan qobiliyatlarni rivojlantirish.

Dars bosqichlari	An'anaviy dars	Milliy o‘quv dasturi talablari asosda
Dars mavzusini e'lon qilish	O‘qituvchining o‘zi talabalarga dars mavzusini aytib beradi	Dars mavzusini o‘qituvchi rahbarligida talabalarning o‘zlari tuzadilar
maqsad va vazifalar	O‘qituvchi talabalarga nimani o‘rganishi kerakligini aniqlaydi va	Darsning maqsadlari talabalarning o‘zlari tomonidan shakllantiriladi, ularning bilim va

	aytadi	jaholat chegaralarini belgilaydi
Rejalashtirish	O‘qituvchi talabalarga maqsadga erishish uchun sinfda qanday ishlarni bajarish kerakligini aytadi	Talabalarning o‘z maqsadlariga qanday er-ishishlarini rejalashtirish
Talabalarning amaliy faoliyati	O‘qituvchi rahbarligida talabalar bir qator amaliy topshiriqlarni bajaradilar (faoliyatni tashkil etishning frontal usuli ko‘proq qo‘llaniladi)	Talabalar rejalashtirilgan rejaga muvofiq o‘quv faoliyatini amalga oshiradilar (guruh va individual ish usullari va shakllariga ustunlik beriladi)
Nazoratni amalga oshirish	O‘qituvchi talabalarning amaliy ish-larni bajarishi ustidan yagona nazoratni amalga oshiradi.	Talabalarning o‘zlari o‘z faoliyatini nazorat qiladilar (o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘zaro nazoratning turli shakllari qo‘llaniladi)
Tuzatishni amalga oshirish	O‘qituvchi amalga oshirish jarayon-ida va talabalar tomonidan bajarilgan ish natijalariga ko‘ra tuzatishlar ki-ritadi.	Talabalar mustaqil ravishda qiyinchiliklarni tuzadilar va mustaqil ravishda tuzatishlarni amalga oshiradilar
Talabalarni baholash	O‘qituvchi o‘quvchilarni sinfdagi ishlari uchun baholaydi	Talabalarning o‘zlari o‘z faoliyatini natijalari-ga ko‘ra baholaydilar (o‘z-o‘zini baholash, o‘rtoqlarining faoliyati natijalarini baholash)
Dars xulosasi	O‘qituvchi o‘quvchilardan dars oxiri-da nimani eslaganliklarini so‘raydi	Mulohaza yuritilmoqda
Uy vazifasi	O‘qituvchi hamma uchun bitta vazi-fani e'lon qiladi va sharhlaydi	Talabalar o‘qituvchi tomonidan taklif qilingan vazifalardan individual imkoniyatlarni hisobga olgan holda tanlashlari mumkin

Natijalar. Bolaning rivojlanish bosqichi boshlang‘ich sinfda o‘qigan davriga to‘g‘ri keladi. Bu yoshning xronologik chegaralari turli mamlakatlar uchun har xil va bir qator omillarga qarab farqla-nadi, shuning uchun ijobiy o‘quv motivatsiyasini shakllantirish uchun o‘qituvchi kichik o‘quvchi bilim olishga intiladigan darslarda shunday sharoitlarni yaratishi kerak, ya'ni darslar, birinchi navbatda, yorqin, hissiy va boy bo‘lishi kerak.

Biz "Dars" tushunchasini ochib berdik va zamonaviy o‘quv jarayonining asosiy birligi bo‘lib qolayotganini aniqladik, ammo o‘qituvchining funksionalligi va talabalarning asosiy faoliyati tubdan o‘zgarib bormoqda.

Biz quyidagi darslarni ishlab chiqdik va sinovdan o‘tkazdik, keltirilgan:

Mavzu sohasi	Dars mavzusi	Darsda qo‘llaniladigan didaktik o‘yinlar
Matematika	"Bir xonali songa bo‘lish"	“Raqamlar labirintasi” Maqsad: o‘quvchilarning e'tiborini rivojlantirish uchun sharoit yaratish, ko‘paytirish jadvalini takrorlash.
Ona tili	"Sifatni nutq bo‘lagi sifatida tahlil qilish"	“Baliq skleti” Maqsad: so‘z birikmalarini takrorlash va birlashtirish.
O‘qish	"Oltin kuz"	• "Qiziqarli hikoyalar" Maqsad: o‘quvchilarni tasavvurini rivojlantirish va ularni dars mavzusiga kiritish uchun sharoit yaratish.
Tabiatshunoslik	"Tabiatga sayohat"	• “Kim chaqqon” Maqsad: darsda o‘rganilgan materialni birlashtirish.
Texnologiya	"Pochta"	• "Buzilgan telefon" Maqsad: o‘quvchilarning dars mavzusi bilan tezda shug‘ullanishi uchun sharoit yaratish.

Formativ eksperiment 2023 йил 28 мартдан 16 maygacha bo‘lib o‘tdi. Didaktik o‘yinlardan foydalanilgan darslarda o‘quv jarayonida o‘quvchilarning faolligi, sinfning umumiy faolligi oshgani, har bir bola darsda qatnashib, o‘z bilimini ko‘rsatishga intilayotganini kuzatdik.

Хулоса. Shunday qilib, bizning tadqiqotimizning tajriba-siniv dasturi maqsadi tasdiqlandi: boshlang‘ich sinfda darslarda didaktik o‘yinlardan foydalanish boshlang‘ich sinfo‘quvchilarining ta'lim motivatsiyasi darajasini oshirishga yordam beradi. O‘rganilgan psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish didaktik o‘yinlardan har qanday darsda foydalanish mumkin degan xulosaga kelishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arxireyeva T. V. Dinamika uchebnoy motivatsii detey mladshego shkolnogo vozrasta // Kulturno-istoricheskaya psixologiya. 2015. T. 11. № 2. S. 38-47

2. Bojovich L. I. Problemi razvitiya motivatsionnoy sferi rebenka// Izucheniye motivatsii povedeniya detey i podrostkov / Pod red. L. I. Bojovich, L. V. Blagonadejinoy -M., 1972 -S. 7-44.

3. Bolshaya psixologicheskaya ensiklopediya: samoye polnoye sovremennoye izdaniye: Boleye 5000 psixologicheskix terminov i ponyatiy /— M. Eksmo, 2007

4. Guzeyev V. V. Planirovaniye rezultatov obrazovaniya i obrazovatelnaya texnologiY. – M.: Narodnoye obrazovaniye, 2011.

5. Djumayev M.I. Kompetentnostniy podxod v obuchenii matematike uchashixsya nachalnoy shkoli po trebovaniyam v natsionalnoy uchebnoy programme Uzbekistana..Aqsukent kǝpsalali kolledjiniң direktori x.g‘.k, professor Quatbekova Karamat Perdeshqiziniң 80 jildiq mereytoyina arnalg‘an «SIFRLIQ BILIM - ZAMAN TALABI» atti xaliqaraliq g‘ilimi – praktikaliq konferensiyaniң yeңbekter jinag‘i. Shimkent «XDU» baspasi ISBN 9965-544-22-0 2024 – 306-311.

6. Zimnyaya I. A. Pedagogicheskaya psixologiya, M., Eksmo, 2011

Djumayev M.I The transformation of te english language’s variants in contemporary great Brit-ain. Educational process science and innovation international scientific journal volume 2 Issue 4 April 2023 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz 19-27 *https://doi.org/10.5281/zenodo.7818607*

Rahmatova Maftuna To‘yevna
Buxoro davlat universiteti, San’atshunoslik fakulteti,
Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi

O‘QUVCHILARDA FOLKLOR QO‘SHIQLARI VOSITASIDA MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada folklor qo‘shiqlarining o‘ziga xos ta’limiy va tarbiyaviy imkoniyatlarga egaligi bilan ahamiyatli ekanligi haqida fikr yuritiladi. Ular xalqimizning badiiy-musiqiy merosi sifatida o‘z o‘rniga ega va son jihatdan juda ko‘p, ammo ularning barchasini ham o‘quvchilarini estetik tarbiyalash vositasi sifatida qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lmasligi mumkin. Chunki ular o‘zining badiiy jihatdan mazmun-mohiyati, musiqiy tuzulmasi, kuylanishiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Ularni muayyan pedagogik talablar asosida tanlab olish talab etilishi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *musiqa, folklor qo‘shiqlari, o‘quvchi-yoshlar, bilim, ko‘nikma, malaka, musiqiy savodxonlik, xalq musiqasi, qo‘shiq, dunyoqarash, marosim, urf-odat, an’ana, folklorshunoslik.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАВЫКОВ ОПОСРЕДОВАННОГО НАРОДНОГО ПЕНИЯ

Annotatsiya. *В статье рассматривается правильно учению музыки и пению народных песень, здесь пишется об особенностьи песень соседных стран и зарубежных стран. Здесь рассказывается об знание музыки,пение музыки, как сыграть народные музыкальные инструменты, умение их слыщать, уловление ритма музыки и тансывание.*

Ключевые слова*:музыка, народноя музыка, ученики, знание, навыка, опыт, музыкальное знание, народные музыки, песьня, мировозрение, традиция, фолькролистика.*

PEDAGOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF STUDENTS' SKILLS OF INDIRECT FOLK SINGING

Annotatsiya. *The article teaches students how to sing in music lessons, introducing contemporary, folk songs on various genres, characters, themes, samples of composer art, brotherly and foreign music, mainly through listening to music. In this process, the student listens to music and then begins to practice, whether they are singing, playing on children's instruments, performing rhythmic and dance moves appropriate to the music, theoretical, practical knowledge, skills and, most importantly, music. perceptions are developing.*

Key words: *music, folk songs, students, knowledge, skills, skills, musical literacy, folk music, song, worldview, ritual, tradition, folklor.*

So‘ngi yillarda O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ‘ib etish, xalq og‘zaki ijodiyoti va havaskorlik san’atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta’minlash, madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi, Xususan, mamlakatimizda muntazam ravishda o‘tkaziladigan Xalqaro maqom san’ati anjumani, Xalqaro baxshichilik san’ati festivali, "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali hamda "Raqs sehri" xalqaro festivali tashkil etilib, o‘zbek mumtoz va folklor san’atining noyob namunalari va an’analarini hamda madaniy muloqotni yanada rivojlantirish bo‘yicha samarali tizim yo‘lga qo‘yildi. Folklor san’atini saqlash va rivojlantirish hozirgi davrda yurtimizda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Milliy qo‘shiqchilik san’atining durdonasi bo‘lgan folklor san’atini keng targ‘ib etish, turli xalqlarning qo‘shiq, raqs, musiqa va sahna ko‘rinishlari kabi janrlarini o‘zida mujassam etgan, ularning turmush tarzi, urf-odatlari va qadriyatlarini hamda ma’naviy dunyosini boyitib kelayotgan folklor san’ati ijodkorlari o‘rtasida ijodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, o‘zbek folklor san’atini yanada taraqqiy ettirish, xalq ijodiyoti an’analarini jahonga tarannum qilish maqsadida O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasi xalqaro folklor festivallarini tashkil etish bo‘yicha qarorlar qabul qildi.

O‘zbek xalq qo‘shiqchilik san’ati o‘zining ko‘p ming yillik tarixiga ega bo‘lib, eng ko‘hna san’at turlaridan biri hisoblanadi. U xalqning orzu-umidlari, turmush tarzi, urf-odatlari va milliy ozodlik uchun kurashini o‘zida ifodalaydi. Asrlar osha shakllanib kelayotgan o‘zbek qo‘shiqchilik

san'atiga o'z hissasini qo'shgan san'atkor ajdodlarimizning serqirra faoliyati mahsuli hisoblangan xalq og'zaki ijodi namunalari va ilmiy nazariy jihatdan shakllangan o'zbek musiqa san'ati bugungi kunda o'z ijro uslublari bilan jahon musiqiy sahnalarida ham katta qiziqish uyg'otmoqda.

Milliy musiqa san'atining rivojiga o'zining beqiyos hissasini qo'shgan san'atkorlar o'ziga xos uslublari bilan ijod qilib, ular yaratgan kuy-qo'shiqlar g'ijjak, chang, tanbur, dutor kabi milliy musiqiy asboblarda ijro etilgan. Shunday bastakorlar sirasiga M.Burxonov, Yu.Rajabiy, A.Rasulov, Q.Jabborov, T.Jalilov kabi insonlar kiradi. Ular o'z faoliyati davomida o'zbek musiqa san'ati rivoji yo'lida uzluksiz mehnat qilib, qo'shiq-kuylar yaratgan bo'lib o'zbek xalq og'zaki ijodiga hissa qo'shgan ustozlar bo'lib hisoblanadilar.

O'zbek musiqa folklori janrlari sirasiga qo'shiq, yalla, terma, lapar, ashula, katta ashula, aytim, marosim qo'shiqlari va boshqalar kiradi. Ularning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

Katta ashula - bu yirik hajmli ashula bo'lib, uning kuy ohanglari keng nafasli hofizlar ijrosi uchun mo'ljallangandir. Katta ashula asosan Farg'ona-Toshkent ashula yo'liga xos bo'lib, uni odatda 3-4 nafar hamnafas ashulachi-hofizlar ijrosida tinglaymiz. "Bir keling", "Ko'p erdi", "Adashganman", "Ul kun jonon" va shu kabi ashulalar katta ashulalar sirasiga kiradi. Ushbu ashula janri keng diapazonli bo'lib, odatda musiqasiz ya'ni cholg'u sozlari jo'rligisiz kuylanadi.

Ashula – nisbatan keng diapazonli, aksariyat holatlarda g'azallarga bastalanadi. Uni yakka hofiz hamda xonandalar ansambli kuylashi mumkin. Ritm jihatidan ham qo'shiqqa nisbatan murakkab bo'ladi.

Qo'shiq – janr sifatida nisbatan kichik diapazonli kuydan tashkil topgan bo'lib, ko'proq barmoq vaznidagi she'rlar, mustaqil to'rtliklar hamda termalar asosida yoziladi. Qo'shiqlar ko'p hollarda naqoratli bo'ladi. Qo'shiq kichik avjli bo'lgan va xor bandida ko'tariladigan vokal janri. Bunga "Oy, Layli", "Yoshligim", "Bahor keldi"[1] kabi qo'shiqlarni misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Alla – onalar tomonidan yaratilib, ular tomonidan aziz farzandlariga mehr-muhabbati va orzu-umidlarini ifodalab kuylanadigan o'zbek musiqa folklor janridir. Alla orombaxsh va sokin ohangga ega bo'lib, bola ruhiyatini go'dakligidan musiqani idrok etishga o'rgatib boradi.

Yalla - o'zbek qo'shiqchilik san'atida alohida o'rin egallaydi. Odatda yalla qo'shiqning raqs bilan birga ijro etilgan ko'rinishidir. Yalla cholg'uchilari yakkaxon yoki xonandalar ijrosida aytiladigan vokal janr, raqs bo'ligi ijrosida ko'pchilik ishtirok etishi kabi jihatlari bilan laparga yaqin turadi.

Lapar - odatda qo'shiqning duet, aytishuv shakllariga yaqin bo'lib, ikki xil ko'rinishda bo'ladi:

1. Yakka ijrochi o'zi ko'shiq kuylab, o'zi raqs harakatlarini bajaradi. Cholg'uchilar jo'rligida yakka ijrochi ham kuylab xam raqsga tushadi.

2. Erkak va ayol, ona va bola, ota va bola o'rtasida kechayotgan voqealarni hazil tariqasida ifodalaydi. Mashhur laparlar sirasiga «Bug'macha bilagim», «Fabrika», «Boshginam og'riydi» kabilarni kiritish mumkin. Shuningdek, lapar birin-ketin savol-javob tarzida xam aytiladi.

O'lan - odatda musiqasiz she'rlar asosida aytilib, ko'p xollarda erkak va ayol, yigit va qiz o'rtasidagi aytishuvga o'xshaydi.

Yor-yor - qo'shig'i kelinni kuyovnikiga uzatib borish jarayonida ayollar tomonidan ijro etiladi. Yor-yorlar turli hududlarda turlicha ijro etilib, har bir viloyatda u o'ziga xos uslubni namoyon qiladi. Masalan, Toshkent yor- yori, Farg'ona yor-yori, Namangan, Andijon, Buxoro, Jizzax hamda Surxon va Xorazm yor-yorlari mavjuddir.

O'zbek xalqining uzoq yillik o'tmishi davomida turli bayram, marosimlar hamda urf-odatlar shakllangan bo'lib, ularda xalqimizning dunyoqarashi, taqdiri, orzu-istaklari va ma'naviy dunyosini aks ettiruvchi kuy va ko'shiklar ijro etilgan.

Xulosa. Musiqa darslarida o'quvchilarning sog'lom musiqiy idroklari va yuksak didning rivojlantiruvchi musiqa asarlari jaranglab turishi kerakbuladi. Dars o'tish jarayonida boshqa hech bir darsda bo'lmagandek, hissiyot va fikrlar o'zaro yaqin hamkor bo'ladilar, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi ijodiy birlikka intilish va erishishga harakat qilish kerak bo'ladi. Yuqori darajadagi badiiy asarlarni o'rganish vatida yuqori sinf o'quvchilaridan fikrlash va savol javoblardagi erkinlik ijodiy faollik va ularning tashabbuskorligi mashg'ulot davomidagi hamkorlikda qoniqish tuyg'usi aynan musiqa san'ati tufayli paydo bo'ladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi to‘‘risida” O‘zbikiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. I – ilova; “2017-2021-yillarda O‘zbikiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. Xalq so‘zi gazetasi. 2017-yil 8-fevral soni va internet resurs; www.lex.uz.

2. Nurmatov H. Musiqa va estetik madaniyat. Musiqa o‘qituvchilari uchun metodik tavsiyalar. -T.: TDPI, 1992. -3 b.

3. Rajabov.T.I. O‘zbek xalq musiqa ijodi o‘quv qo‘llanma“Durdona” nashriyoti Buxoro – 2021-yil

4. Rajabov.T.I. O‘zbek xalq musiqa ijodi darslik “Kamolot” nashriyoti Buxoro – 2023.

5. Hasanov A.Sh., Qudratov I. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari ashula darslari uchun Programma. -T.: O‘zb. Xalq ta’limi vazirligi, 1990. -32 b.

6. Rajabov.T.I. O‘zbek xalq musiqa ijodi o‘quv qo‘llanma “Durdona” nashriyoti Buxoro – 2021-yil

7. Rajabov, T. I. (2023). Distinctive Features of Folk Songs that Serve in the Spiritual and Moral Formation of Bukhara Pupils. Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress, 2(3), 59-68.

8. Rajabov, T. I. (2022). The role of bukhara folklore songs in youth education in the system of continuous education.

9. Rajabov, T. I. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore. Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN, 2795(546X),

10. Radjabov, T. I. (2019). Opisanie vekovых sennostey v pesne” tutovoe derevo-balx” i ego mesto v vospitanii uchaщeysya molodeji. In Rossiya-Uzbekistan. Mejdunarodnыe obrazovatelnыe i sotsialno-kulturnыe texnologii: vektorы razvitiya (pp. 70-71).

11. Rajabov, T. I. (2020). Pedagogicheskie vozmojnosti ispolzovaniya detskix folklornых pesen v duxovno-nravstvennom vospitanii mladshix shkolnikov. Vestnik nauki i obrazovaniya, (5-2 (83)), 34-37.

12. Rajabov, T. I. (2021). Usovershenstvovanie nauchno-metodicheskix vozmojnostey obucheniya buxarskim detskim folklornым pesnyam v sredney obщeobrazovatelnoy shkole. Nauka, texnika i obrazovanie, (2-2 (77)), 84-86.

13. Rajabov, T. I., & Ibodov, U. R. (2020). Obespechenie natsionalnogo naslediya v obuchenii pesnyam buxarskogo detskogo folklora na urokax muzыki. Vestnik nauki i obrazovaniya, (21-2 (99)), 55-58.

14. Rajabov, T. I. (2020). Ticheskaya klassifikatsiya uzbekskoy detskoy narodnoy muzыki i igr. Nauka, obrazovanie i kultura, (3 (47)), 61-63.

Mirxoliqova Charos Xabibulayevna
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasi dotsenti
E-mail: charosmirxoliqova855@gmail.com

O‘QUVCHILARDA HISSIY INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘quvchilarning yanada ijodiy qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladigan hissiy intellektni rivojlantirishning pedagogik jihatlarini haqida so‘z borgan. O‘quvchilarda emotsional jarayonlarlarning olimlarning tahliliy jihatlari ham ajratib ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘quvchi, ta’lim-tarbiya, intellekt, emotsional intellekt, hissiyot, hissiy intellekt, emotsiya, kognitiv emotsiya, emotsional jarayonlar.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье говорится о педагогических аспектах развития эмоционального интеллекта, который служит повышению творческих способностей учащихся. Также выделены аналитические аспекты эмоциональных процессов у студентов.*

Ключевые слова: *студент, образование, интеллект, эмоциональный интеллект, эмоция, эмоциональный интеллект, эмоция, познавательная эмоция, эмоциональные процессы.*

PEDAGOGICAL ASPECTS OF EMOTIONAL INTELLIGENCE DEVELOPMENT IN STUDENTS

Abstract. *This article talks about the pedagogical aspects of developing emotional intelligence, which serves to increase the creative abilities of students. Analytical aspects of emotional processes in students are also highlighted.*

Key words: *student, education, intelligence, emotional intelligence, emotion, emotional intelligence, emotion, cognitive emotion, emotional processes.*

Kirish. Aqlning emotsiyalardan ustunligi muammosi qadim zamonlardan beri odamlarni tashvishga solib kelgan va hozirda ko‘pgina fanlar vakillari tomonidan o‘rganilmoqda. Hozirgi vaqtda emotsional intellekt fenomeni tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, negaki hayotiy muvaffaqiyatlarning emotsional sohani boshqarishga bevosita bog‘liqligini anglash bu kabi hodisaga jiddiy e’tibor berishga olib kelmoqda. “Emotsional intellekt” ning mohiyatini ochib berar ekanmiz, shuni ta’kidlash muhimki, mazkur fenomen – bu insonning o‘z va boshqa odamlarning emotsiyalarini aniqlash, tushunish va baholash hamda muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuv va ko‘zlangan reja va maqsadlarni ro‘yobga chiqarish maqsadida olingan ma’lumotlardan fikrlash va faoliyatda foydalanish qobiliyatidir.




Emotsional intellektni shakllantirish va rivojlantirish masalasi ham ancha ahamiyatlidir, negaki bu hodisani o‘rganish agar uni takomillashtirish imkoniyati bo‘lmasa ma’nosiz va foydasiz tuyuladi. Pedagogika va psixologiya sohasidagi zamonaviy tadqiqotlarga asosan, emotsional intellekt bilan ishlashning eng senzitiv davri aynan maktabgacha va kichik maktab yoshi hisoblanadi, negaki insonning faol emotsional shakllanishi, uning o‘zini o‘zi anglashining shakllanishi ushbu yoshga xosdir.

Kognitiv yo‘nalishda emotsiyalarni tushunishga va ularni samarali boshqarishga qaratilgan emotsional fikrlashning yangi usullari asosiy hisoblanadi. Mashqlar shaxsning kognitiv baholash tizimini anglashiga; ustunlik qiluvchi emotsional reaksiyalar (javoblar) doirasini farqlash va verballashtirishga; adekvat va adaptiv namoyonlarni kognitiv darajada, tasavvurda va to‘g‘ridan-to‘g‘ri harakatlar darajasida yaratishga qaratilgan. Treningning yakuniy maqsadi g‘ayriijtimoiy emotsional xulq-atvorni qo‘llab-quvvatlovchi fikrlash usullarini o‘zgartirishdan iborat.

Shuni ta’kidlash kerakki, bunday yondashuv biz uchun nihoyatda maqsadga muvofiq ko‘rinadi. Axir, inson o‘z ichki dunyosini bilib, uni o‘z qo‘rquvlari va kechinmalarini tahlil qilish orqali tushunib olgandan keyingina, turli xil hayotiy vaziyatlarda emotsional fikrlash va xulq-atvorning yangi usullari, stereotiplarini o‘rganishga tayyor bo‘lishi mumkin, ular esa, o‘z navbatida, insonni ijtimoiy maqbul munosabatga dasturlash uchun yordam beradi. Shunday ekan, emotsional intellektni rivojlantirish treningining gumanistik, xulq-atvoriy va kognitiv kabi yo‘nalishlari, bizning fikrimizcha, dolzarb, mantiqiy va samaralidir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. I. N. Andreyeva o‘z ishida AQSh maktab o‘quvchilarida emotsional intellektning rivojlantirilishini ko‘rib chiqadi va bunday dasturlar birinchi marta Xillsburg (Kaliforniya) va Nyu-Xeyvenda keng qo‘llanilganligini haqida aytib o‘tadi. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, hozirgi vaqtda Amerika maktablarida turli nomlar bilan tanilgan 150 dan ortiq emotsional savodxonlikni oshirish dasturlari qo‘llaniladi: “hayotiy ko‘nikmalar treningi”, “ijtimoiy anglash”, “ijtimoiy muammolarni hal qilish”, “ijtimoiy kompetentlik”, “nizolarni ijodiy hal qilish”. Maktabgacha yoshdagi bolalar va boshlang‘ich maktab o‘quvchilari uchun Muqobil Fikrlash Strategiyalarini Faollashtirish Dasturi (Promoting Alternative Thinking Strategies, PATH) eng mashhur dasturlardan biri bo‘lib, u umumiy emotsional ta’lim rejasi hisoblanadi. PATH ning asosiy yo‘nalishlari: ijtimoiy va emotsional kompetentlikni rivojlantirishga ko‘maklashish, emotsiyalarni anglashni rivojlantirish, shaxslararo muammolarni samarali hal qilish, shafqatsizlik va tajovuzkorlikni oldini olish, emotsional va xulq-atvoriy qiyinchiliklarni kamaytirish, o‘z-o‘zini hurmat qilishni rivojlantirish va tengqurlar bilan muvaffaqiyatli o‘zaro ta’sir qilish. Ushbu dasturning komponentlari: tayyorlik darajasi hamda o‘z-o‘zini nazorat qilishni rivojlantirish, boshqa insonlarning emotsiyalari va xulq-atvorini tushunishni o‘rgatish, shaxslararo muammolarni kognitiv hal qilish. O‘ttiz beshta emotsional holatni tahlil qilishga urg‘u beruvchi mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Bunda emotsiyalarni aniqlash va tavsiflash, o‘zida va boshqa odamlarda asosiy emotsiyalarni baholash, shuningdek emotsional holatlarni boshqarish muhim sanaladi [1], [4].



I.N.Andreyeva ta’lim muassasalari doirasida emotsional kompetentlikni takomillashtirish bo‘yicha dasturlarni qo‘llash maqsadga muvofiqligi haqida ham so‘z yuritadi. Muallifning hisoblashicha, maktabda bunday dasturlardan foydalanish bolalarning ruhiy salomatligiga foydali ta’sir ko‘rsatadi, alkogol va tamaki iste’molini kamaytirishga yordam beradi va g‘ayriijtimoiy xulq-atvorning oldini oladi. Shunga qaramay, emotsional intellektni rivojlantirish dasturlari ziyraklik, mas’uliyat va o‘z-o‘zini nazorat qilishni oshirishga yordam berishi aniqlandi. J. Mettyus va uning hamkasblarining ta’kidlashlaricha, tadqiqotchilar yaxshi pedagoglar va ota-onalar doimo bilgan narsalarni topdilar: ichki dunyoga qiziqish, olingan bilimlarni muammolarni hal qilish uchun ishlatish qobiliyati bilan bir qatorda, ma’lum darajada akademik muvaffaqiyatga yordam beradi [6], [1].

Emotsional savodxonlik maktab o‘quvchilariga odamlarning emotsional faoliyatini yaxshiroq tushunish, o‘qituvchilar va tengqurlar bilan muloqotda muvaffaqiyatga erishish, yuzaga kelgan nizolarni hal qilish, o‘zlarini, istaklari va ehtiyojlarini, harakatlarining sabablarini tushunish, o‘z oldiga maqsadlar qo‘yish va ularga muvaffaqiyatli erishish imkonini beradi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. S. P. Derevyankoning tadqiqotlari emotsional intellektni rivojlantirish treninglarining muhim rolini ko‘rsatadi. Muallifning yondashuvi emotsiyalarni tushunishga bo‘lgan qobiliyatni dolzarblashtirish va chuqurlashtirish, olingan bilimlarni keyinchalik amalda qo‘llagan holda emotsional holatlarni boshqarishning samarali usullari va yo‘llarini o‘rgatishni ko‘zda tutadi.

Tadqiqotchi S. P. Derevyanko trening guruhlarida o‘spirin yoshdagi bolalarning emotsional intellektini rivojlantirishga mo‘ljallangan dasturni taklif etadi. Ushbu dastur o‘z emotsiyalarini tushunish va boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan ichki shaxsiy emotsional intellektni hamda boshqa odamlarning emotsiyalarini tushunish va boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan shaxslararo intellektni rivojlantirishga qaratilgan ikkita blokdan iborat [2].


Shuni ham ta’kidlash kerakki, lirik qahramonning ruhiy holatini tushunish qobiliyati suhbatdoshning his-tuyg‘ulari, emotsiyalari va psixologiyasini tushunish qobiliyatini rivojlantiradi. I. A. Yurasovning hisoblashicha, she’riyatning o‘ziga xosligi (spesifikasi) alohida shaxsning va umuman butun millatning emotsional tajribasini o‘zlashtirishga yordam beradi, bu esa emotsional intellektni rivojlantirishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi. Estetik, axloqiy va emotsional muammolarni muhokama qilish orqali o‘zini, o‘z emotsional dunyosini hamda boshqalarning dunyosini chuqurroq tushunish imkoniyati paydo bo‘ladi.



Muhokama. Muallif metodikaning quyidagi bosqichlarini taklif qiladi: muammo, muallif, obrazlilik va emotsiyalar turi haqida kirish ma’ruzasi; she’rni o‘qish va tahlil qilish ustidan amaliy ish; emotsional mazmunni muhokama qilish, baholash va tekshirish, ijodiy davr. Kirish ma’ruzasi ishtirokchilarga ma’lum bir lirik matnni yaratishning adabiy, avtobiografik va emotsional fonini to‘liq darajada tushunishga imkon beradi.

Bizning fikrimizcha, bunday metodika yuqorida ko‘rib chiqilgan metodikalardan sezilarli darajada farq qiladi. Demak, shuni ta’kidlash kerakki, I. N. Andreeva tomonidan tavsiflangan RATN umumiy ta’lim dasturi hamda S. P. Derevyankoning trening guruhlarida emotsional intellektni rivojlantirish usuli biz uchun ancha kengroq va murakkabroq ko‘rinadi.

Natija va ilmiy yangilik. Xuzur baxsh etuvchi yoqimli xotiralar bilan assotsiatsiyalanish (bog‘lanish) teskari tartibi ham juda samarali. Buning uchun ijobiy emotsiyalar va ko‘tarinki kayfiyat bilan bog‘liq bo‘lgan voqealarni eslash kerak. Bir paytlar yoqimli voqeaning “ichiga” qayta kirish, uni o‘z ko‘zi bilan ko‘rish va huddi shunday emotsiyalarni boshdan kechirishga harakat qilish kifoya (vizuallashtirish usuli). Assotsiatsiyalanish boshqa odamlar bilan muloqot qilishda ham yordam beradi. Ko‘pincha, salbiy xotira bilan bog‘liq bo‘lgan muloqot bo‘yicha sherik qabul qilmaslik va xush ko‘rmaslik hislarini keltirib chiqaradi, biroq agar suhbatdoshlar aloqa paytida ijobiy his-tuyg‘ular va emotsiyalar bilan bog‘lanadigan bo‘lsa, keyinchalik esa vaziyat hayolan takrorlansa, munosabat yaxshi tomonga o‘zgaradi.



Shu bilan birga, muallif L. M. Novikova, shaxsning atrofdagilar bilan o‘xshashligini topishga qaratilgan, o‘zining ham, muloqot bo‘yicha sherigining ham emotsional holatlarini nazorat qila olish qobiliyatini, emotsional soha bo‘yicha bilimlarni va odamlarni so‘zsiz qabul qilish qobiliyatini rivojlantiruvchi mashqlarni ham taklif etadi [4].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda pedagogika va psixologiya sohasidagi zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan emotsional intellektni takomillashtirish bo‘yicha dasturlarni ko‘rib chiqib, biz ularning barchasi o‘z va boshqa odamlarning emotsiyalarini aniqlash, tushunish va baholash, emotsional holatlarni boshqarish hamda olingan ma’lumotlardan fikrlash va faoliyatda foydalanish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan degan xulosaga keldik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Innovatsion ta’lim texnologiyalari /Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 81-b.

2. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish /Monografiya. – T.: Fan, 2004.

3. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.

4. Pedagogika nazariyasi / OTM uchun darslik. Mual.: M.X.Toxtaxodjayeva va b. Prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. – T.: “Iqtisod-moiya”, 2010. – 136-140-b.

5. Abrorkhonovna, A. K. (2022). FORMATION OF A SENSE OF PATRIOTISM THROUGH TOURISM IN THE CURRENT TEXTBOOK" UPBRINGING" OF PRIMARY EDUCATION. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 5, 70-74.

6. Hayitov, A. I., & Azizova, S. (2023). Abdulla Avloniy Asarlari Va Hikoyalari Orqali Boshlang‘ich Sinf O‘quvchilarida Do‘stlik Va Ahillik Sifatlarini Shakllantirish. Academic Integrity and Lifelong Learning (France), 4-5.

7. Hayitov, A. I., & Azizova, S. (2023, February). Abdulla avloniy darsliklaridagi axloqiy sifatlar tahlili. In Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities (Vol. 2, No. 3, pp. 101-105).

8. Abrorxonova, K., Rahmatova, F., & Dehqonboyev, M. (2022). TECHNOLOGY OF FORMING THE VIRTUE OF TOLERANCE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. Science and Innovation, 1(7), 362-367.

9. Zoda, M. T. L. T. (2023). Развитие Коммуникативной Компетентности Учителя Начальных Классов Как СоциальноПсихолого-Педагогическая Проблема. Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 1(2), 445-450.

Mambetiyarov Nauriz Saparbayevich
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar
fanlar kafedrasi tadqiqotchisi

YOSH FUTBOLCHILARNI TURLI XIL ZARBALARNI URISHDA TAYYORLASHNINGO‘ZIGAXOS PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yosh futbolchilarni turli xil zarbalarni urishda tayyorlashningo‘zigaxos pedagogik xususiyatlari hamda sportchilarda uchraydigan stresslarning mashg‘ulotlarga ta’siri o’rganilgan. Bundan tashqari sportchilarni sport mashg‘ulotlariga tayyorlashda turli xildagi olimlar nazariyalari va sportchiga ta’sir qiladigan tashqi omillar o’rganilgan.*

Kalit so'zlar: sport faoliyati, individuallik, zarba, maxsus sport, gigiena, sog‘lomlashtirish, sport musobaqalari, texnik tayyorgarlik, jismoniy madaniyat.

СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ ПРИ НАНЕСЕНИИ РАЗЛИЧНЫХ УДАРОВ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются специфические педагогические особенности подготовки юных футболистов к нанесению различных ударов, а также влияние стрессов, возникающих у спортсменов, на тренировку. Кроме того, при подготовке спортсменов к спортивным тренировкам были изучены различные теории ученых и внешние факторы, влияющие на спортсмена.*

Ключевые слова: *спортивная деятельность, индивидуальность, удар, специальный спорт, гигиена, оздоровление, спортивные соревнования, техническая подготовка, физическая культура.*

PREPARING YOUNG PLAYERS IN HITTING DIFFERENT TYPES OF SHOTSPECIFIC PEDAGOGICAL FEATURES

Annotation. *Annotation: in this article, the preparation of young players in hitting different types of kicksthat are mainly pedagogical features and the impact of stresses found in athletes on training. In addition, theories of scientists of various types and external factors affecting the athlete have been studied in the preparation of athletes for sports training.*

Key words: *sports activities, individuality, shock, special sports, hygiene, wellness, sports competitions, technical training, physical culture.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi (1991 yil) istiqlol va taraqqiyot yo‘lini ochib berdi. Bunda aholining ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy jihatdan rivoj topishini ta’minlash asosiy maqsadga qaratildi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning iborasi bilan aytganda "Biz uchun mustaqillik - eng avvalo, o‘z taqdirimizni qo‘limizga olish, o‘zligimizni anglash, milliy qadriyatlarni, urf odatlarimizni tiklash, hammamiz uchun mo‘tabar shu zaminda, har bir xonadonda tinchlik-osoyishtalikni, barqarorlikni saqlashdir". Bunday ulkan va keng qamrovli ijtimoiy - tarbiyaviy jarayonlarni amalga oshirishda barcha sohalarda mehnat qilayotgan kishilar, rahbar xodimlar (kadrlar) va o‘quvchi yoshlar hamda talabalarning o‘ziga xos xususiyatlari, amaliy faoliyatlari ustuvor turadi. Shu sababdan umumta’lim, davlat ta’lim andozalari (standartlari) asosida ta’lim berish, yoshlarni kasb-hunarga yo‘llash, o‘qish va o‘qitishda yangicha yondashish, davr talablariga to‘la rioya qilishni taqozo etmoqda. Hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qonunlar, farmonlar, qarorlar, kadrlar tayyorlash uzluksiz ta’lim jarayonlarini yanada mustahkamlashga qaratilmoqda. Bunday ijtimoiy - pedagogik jarayonlar tarkibidan jismoniy madaniyat va sportning ham o‘rin olishi muhim ahamiyatga egadir. Chunki, aholining salomatligini yaxshilash, o‘quvchi yoshlarning jismoniy barkamolligini ta’minlash hamda istedodli sportchilarni tanlash, ularni tarbiyalash hamda sport mahoratlarini zamon talablariga javob beradigan darajada oshirish bugun va kelajakning uzluksiz tadbirlaridan biridir. Bunday o‘ta murakkab tarbiyaviy jarayonlarni amalda bajarishda yurtimizda 30 mingdan ortiq tajribali va yosh jismoniy madaniyat hamda sport xodimlari

dadil mehnat qilishmoqda, 10 mingdan ortiq umumta'lim maktablarda 6 mln.dan ortiq o'quvchilar ta'lim olmoqda.

Ko'p yillik mashg'ulotning barcha bosqichlarida texnik usullar va taktik harakatlarga o'rgatish jarayoni uzluksiz davom etadi. Maqsadga muvofiq texnikaning barcha tomonlarini biomexanika qonunlaridan foydalanish asosida va shug'ullanuvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda puxta o'zlashtirish o'yin faoliyatining murakkab sharoitlarida texnikaning muvaffaqiyatli qo'llanishini oldindan belgilab beradi. Mukammal o'yin ko'nikmalarining shakllanishi yosh futbolchilarning yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarligiga asoslanadi. Yosh futbolchilarni o'qitish va ularning malakalarini takomillashtirish bosqichlarida jismoniy tarbiyaning odatdagi uslublari: mashqlar, o'yin, musobaqa uslublari, ko'rsatmalilikni ta'minlash, og'zaki nutqdan foydalanish, xatolarni tuzatish uslublaridan foydalaniladi. Barcha uslublar bir-biri bilan yaqindan bog'liq holda qo'llaniladi. Biroq ulardan foydalanishning foizli nisbati ko'pgina omillarga o'qitish bosqichi hamda vazifalariga, shug'ullanuvchilarning yosh va individual xususiyatlariga, ularning tayyorgarlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlaridan B.Ananev, A.Bodalev, L.Vыgotskiy, G.D.Gorbunov, E.P.Ilin, A.Leontev, V.Melnikov, V.Navroskaya, V.Norakidze, Yu.Palayma, R.Piloyan, A.Puni, A.Rodionov, V.Safin, V.I. Selivanov, N.Xudadov va boshqalar tomonidan sportchilarni muayyan musobaqaga psixologik tayyorlash asoslari, umumiy va maxsus psixologik tayyorlash tizimi, emotsional, irodaviy hamda motivatsion jihatdan tarbiyalash tizimini amalga oshirish jarayoni ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etilgan. Xorij psixologiyasida sportchilarning emotsional holatlarini musobaqada namoyon bo'lishi, xavotir va stress holatining sportchi faoliyatiga ta'siri, musobaqa jarayonidagi qiyinchilikka sportchining chidamlilik darajasi, motivatsiyaning o'ziga xos jihatlari, muvaffaqiyat motivatsiyasi, psixologik tayyorgarlikni amaliy o'rganishning psixodiagnostik masalalari D.Atkinson, L.Fernande, K.Izard, G.Kreyg, A.Lagerstrom, A.Maslou, D.Makklelland, A.Matti, E.Mikelini, Y.Moreno, G.Olport, F.Perlz, G.Sallivan, A.Xezikoat va boshqalarilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Futbolchining texnik mahorati u egallab olgan texnik usullarning hajmi va xilma-xilligi, shuningdek, ularni o'yin sharoitlarida samarali qo'llay bilishi bilan xarakterlanadi. Futbol o'yini texnikasi juda ko'p turli usul va usullar yig'indisidan iboratdir. Shuning uchun kam vaqt va kuch sarflab o'rgatish vazifasini hal etish uchun o'rganilayotgan materialni tizimga solish va texnikaga o'rgatishning izchilligini aniqlash katta ahamiyatga ega. O'rgatish ishini boshlash va uni optimallashtirish muammosi ko'p jihatdan tushunarlilik asosi bilan belgilanadi. Ammo bu faqat «oddiydan murakkabga», «osondan qiyinga» uslubiy qoidalaridan foydalanishdan iborat bo'lib qolmaydi.

Dastlab o'yin olib borishning asosiy usullarini o'rganish zarur. Nihoyat, yangi harakat ko'nikmalari avval o'zlashtirilgan ko'nikmalar asosida paydo bo'ladi. Shuning uchun turli xil texnik usul va usullarning o'zaro tabiiy bog'liqligidan va tuzilishi bo'yicha umumiyligidan foydalanish kerak. Texnik usullar bilan tanishish va ularni o'rganish jarayonida asosan o'qitishning mukammal usulidan foydalaniladi. U ko'p yillik mashg'ulotning har bir bosqichi uchun muayyan doiradagi usul va usullar tanlab olinishi bilan xarakterlanadi. Bular darslar tizimida parallel ravishda: dastlab (texnika asoslari o'zlashtirib olinguncha) har bir usul alohida, keyinchalik o'zlashtirilgan boshqa usullar bilan birgalikda o'rganiladi. Shu bilan birga, bir darsda, bir vaqtning o'zida ikki-uchtadan ortiq yangi usulga o'rgatish mumkin emas. Ko'p yillik mashg'ulotlarning har bir bosqichida futbolchilarning texnik tayyorgarligi yuzasidan muayyan vazifalar qo'yish ko'pgina omillar: bolalar va o'smirlar rivojlanishining yosh xususiyatlari, jismoniy sifatlarni tarbiyalash dinamikasi, harakat ko'nikmalarini shakllantirish tizimining xususiyatlari, bosqichlarning qaysi maqsadga qaratilganligi bilan belgilanadi. Dastlabki tayyorgarlik bosqichida futbol o'yinini yangi o'rganuvchi futbolchilarni texnik usullarning asosiy guruhlari bilan tanishtirish vazifasi qo'yiladi. Bu vazifaning muvaffaqiyatli hal etilishi shug'ullanuvchilarda futbolga nisbatan qat'iy qiziqish hosil bo'lishiga yordam beradi.

Mashg'ulot qismlarining vazifalari: – tayyorlov qism – organizmni asosiy ishga tayyorlash; – asosiy qism texnik usullarni o'rgatish va takomillashtirishga, taktik harakatlarga, jismoniy sifatlarni rivojlantirishga, ruhiy tayyorgarlikni va ahloqiy-irodaviy sifatlarni yaxshilashga qaratilgan bo'lishi kerak; – yakunlovchi qism organizmni mashg'ulotdan oldingi holatiga keltirishi lozim. Mashg'ulot jarayonida quyidagi prinsipga amal qilish maqsadga muvofiqdir: – mashg'ulot yuklamasini (yuklamasini) sekin-asta oshirish, 22 barqarorlashtirish; – bir me'yorga yetkazish va kamaytirish. Bunda organizmni ma'lum bir holatga keltiradigan mashqlararo dam olishlar (pauzalar) muhimdir. Bu

dam olishlar (pauzalar) soni va davomiyligi yuklamalarni dozirovkalashga, mashqlarga o‘zgartirishlar kiritishga, xato va kamchiliklarni to‘g‘rilashga va keyingi mashqni bajarish uchun fikrni jamlashga imkon beradi. Mashg‘ulotlar o‘zining maqsadi, vazifasi va uslubiyati bo‘yicha kompleks va tematik mashg‘ulotlarga bo‘linadi.

Guruhli va individual mashg‘ulotlar Futbol o‘yinining jamoaviy xarakteri o‘yinchilarning o‘zaro harakatlariga yuqori talablar qo‘yadi. Shuning uchun futbolda mashg‘ulotlar, asosan, guruhli mashg‘ulotlar shakliga ega. Guruhli mashg‘ulotlarda o‘zaro harakatlar, texnik usullarni soddalashtirilgan va murakkab sharoitlarda, minimal va maksimal darajada o‘yin sharoitiga yaqinlashtirilgan holatda bajarish vazifalari hal etildi. Guruhli mashg‘ulotlarda musobaqa vazifalari samarali tarzda yechiladi, jamoaviy ruh tarbiyalanadi. Individual mashg‘ulotlarda futbolchining mahorati va individual xususiyatlari takomillashadi. Individual mashg‘ulot futbolchining tayyorgarligini nazorat qilishni osonlashtiradi.

Individual mashg‘ulotlarning maqsadi

– futbolchilar tayyorgarligida takomillashish sur’atini tezlashtirish.

Individual mashg‘ulotning vazifalari:

– harakat sifatlari va ko‘nikmalarini takomillashtirishda mutaxassislikning individual xususiyatlarini hisobga olish;

– jismoniy, texnik, taktik tayyorgarlikdagi kamchiliklarni to‘g‘rilash;

– mashg‘ulotlarda majburiy tanaffuslar oralig‘ida yo‘qotilgan sifatlarni tiklash;

– texnik usullar va shaxsiy sifatlarni takomillashtirish;

– bajarilishi qiyin bo‘lgan texnik elementlarni takomillashtirish.

Individual mashg‘ulotning asosiy shakli murabbiy va shifokorning nazorati ostida olib boriladigan o‘quv-mashg‘uloti hisoblanadi.

Individual mashg‘ulotlar o‘tkazish uslublari:

– aylanma;

– takroriy;

– interval;

– birgalikda.

Yosh futbolchilarda tezlikni rivojlantirish dinamikasi o‘ziga xosxususiyatlarga ega. 7 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan davrda harakatlar sur’ati tez o‘sib boradi. Harakatlarning tezligi va ixtiyoriy chastotasi, shuningdek, ularning maksimal sur’atini saqlab turish qobiliyati 14-15 yoshlarga kelib, oxirgi natijaga yaqin bo‘lgan qiymatga erishadi. Futbolchilarning 60 mga yugurishdagi natijalari 12-15 yosh orasida o‘sib boradi, 15 yoshdan keyin esa ular biroz barqarorlashadi, bu hol keyinchalik «tezlik bar’eri»ning hosil bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Agar 60 m ga yugurishdagi natijalar 11 yoshdan 18 yoshgacha1,4 soniyaga yaxshilansa, 12 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan davrda u maksimal miqdorni – 1,16 soniyani tashkil etadi. Keyingi yillarda natijalar juda kam (0,24soniya) yaxshilanib boradi. Bolalar va o‘smirlarning organizmi tezlik yuklamalariga yaxshi moslashadi. Shuning uchun 8 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan davr tezlikni va kuch sifatlarini rivojlantirish ham yosh ortgan sari qat’iy oshib boradi. Ular 13 yoshdan 16 yoshgacha eng yuqori darajada rivojlanadi. Bu davrlarda turgan joydan balandlikka sakrash natijalarining yillik o‘sish ko‘rsatkichlari tegishlicha 3,7 va 6,2 sm ga tengdir. 11 yoshdan 19 yoshgacha bo‘lgan davrda sakrash balandligi 24 smga ortadi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy futbol sportchilarning jismoniy sifatlariga, sog‘lig‘iga, ruhiyatiga turli va yuqori talablar qo‘yadi. Yosh futbolchilarni tanlashda ularning umumiy va maxsus qobiliyatiga ahamiyat beriladi. Texnik tayyorgarlik darajasiga, ya’ni «o‘ynashni bilishiga» eng kam e’tibor qaratiladi. Bu mezon yosh futbolchining musobaqaga tayyorgarligini hisobga olmaydi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, shunday bolalar borki, futbol bo‘limiga kirganda texnik va o‘yin ko‘rsatkichlari unchalik baland darajada bo‘lmaydi, lekin jismoniy va psixologik omillari yuqori darajada bo‘lganligi sababli, ularning texnik-taktik mahorati tez o‘sadi. Birinchi tanlovda qo‘llash mumkin bo‘lgan kompleks ko‘rsatkichlar mavjud. Bunga oltita test va ko‘rsatkichlar kiradi.

1. Muhimi, ko‘pincha tug‘ma hisoblangan yugurish tezligi. Tezkorliksifatlarini baholash uchun 30 metrga yugurish tavsiya qilinadi.

2. Qobiliyatni rivojlantirishda tezkorlik-kuch imkoniyatlari katta rol o‘ynaydi. Buni yugurib kelib, ikki oyoqda depsingan holda yuqoriga sakrashning balandligi orqali baholash mumkin.

3. Muhim sifatlardan biri bu epchillikdir. Uning 12-13 yoshdan keyin rivojlanishi qiyin bo‘ladi. Tanlashda umumiy va maxsus epchillikni hisobga olish kerak.

4. Maxsus koordinatsiya dribling orqali baholanadi (5 ta doirani aldabo‘tish).

5. Eng muhim ruhiy sifatlardan biri o‘yinni idrok eta bilish va mo‘ljalolishdir.

6. Tanlashning oxirgi bosqich ko‘rsatkichi bu – «o‘yin shiddati va jangovarlik sifati». Shunday qilib, birinchi bosqichda 6 ta test va ko‘rsatkichlar o‘yin paytida baholanadi.

Bu tanlash dasturi 30-50 ta boladan kirish imtihonlarini qabul qilishga mo‘ljallangan. Buning uchun tanlash jarayonini yaxshi tashkil qilish kerak. Nazorat sinovlarini 4 ta bekatga bo‘lib qabul qilish lozim. Birinchi bekatda 30 metr yugurish qabul qilinadi. Ikkinchisida – yuqoriga sakrash. Uchinchi bekatda umumiy epchillik baholanadi. To‘rtinchisida to‘p olib yurish va aylanalarni aldab o‘tishda diqqatni taqsimlash qobiliyati baholanadi. O‘yinni idrok etish (yoki fikrlash) ikki taraflama mini futbol o‘yini jarayonida aniqlanadi. Yosh futbolchilarning yiqqan ballari soni aniqlanib, ularning bahosi-quyidagi baholash me’yorlari jadvali orqali keltiriladi. Qabul imtihonlari natijalari tahlil qilinganidan so‘ng baholar e’lon qilinadi. Ijobiy baholarga erishgan bolalardan guruh tanlab olinadi. Ko‘rsatkichlari yuqoriroq bo‘lib, ammo sinovdan o‘ta olmagan futbolchilar nomzodlar guruhiga olinishi mumkin. Ularga uy vazifasi yarim yilga yoki bir yilga beriladi, so‘ngra ular qayta ko‘rikdan o‘tishlari mumkin. Shuning bilan birinchi bosqich yakunlanadi. Ikkinchi bosqichda yosh futbolchilarni tanlab olish uslubiyati. Tanlashning ikkinchi bosqichida yosh futbolchilar ichidan iqtidorlilari ajratib olinadi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun birinchi bosqichdagi testlar ijobiy samara bermaydi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, qobiliyat rivojlanishini baholash uchun bir muncha boshqacharoq doira ko‘rsatkichlaridan foydalanish lozim.

1. To‘pga oyoq bilan uzoq masofaga zarba berish – 3 marta. Eng yaxshi natija hisobga olinadi.

2. Texnika uchun test. Burchakdan jarima maydonining markazigacha to‘pni olib yurib, bir-biridan 3 m uzoqlikda joylashgan to‘siqlarni «aldab» o‘tib, darvozaga zarba berish. Chap va o‘ng burchakdan ikkitadan imkoniyat beriladi. To‘p darvozaga kirishi lozim. Eng yaxshi natija hisobga olinadi.

3. Maxsus koordinatsiya uchun test. To‘p bilan doiralarni kamvaqt sarflab «aldab» o‘tish. Ikki imkoniyatdan yaxshi natija hisobga olinadi

Xulosa va tavsiyalar. Ilmiy uslubiy adabiyotlarni tahlil etish va umumtalim maktablaridagi-jismoniy tarbiya amaliyotini umumlashtirish natijasida shu narsa aniqlanadi. Yosh futbolchilarning jismoniy tarbiya darslarida beriladigan jismoniy sifatlar rivojlanish o‘lchamlardan foydalanishda, mashqlarni berishda aniq ko‘rsatmalar va tavsiyanomalar deyarli kamchiligi aniqlanadi. Yosh futbolchilarida jismoniy tarbiya va bolalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri tayyorlangan mashqlardan foydalanishdir. – me’yorlangan mashqlarni bajarish muddati bola organizmining muhim darajada charchashga olib keladi. – mashq o‘zining muddati bajarilishi bilan organizmning funksional holatini ko‘tarishi mushak guruhlari ishini boshqaruvchi asab markazlarini kuzatishzarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. T:2020-y.
2. Abdullayev A, Xonkeldiyev Sh, Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati.T., 2005-y.
3. Гаппаров З.Г. К вопросу о средствах психологической научныхтрудов.Ташкент, 2001.
4. Kurbanov O.A. Futbol bo‘yicha XVII jahon Chempionati o‘yinlaridaberilgan yakuniy zarbalarining samaradorligi tahlili. Pedagogik ta’lim, J., №5,2003.
5. Сергеев Г.М. История футбола в Узбекистане. Всборникенаучныхтрудов. Ташкент, 2001.
6. Nurimov R.I. “Futbol” darslik T, O‘zDJTI 2005 y.
7. Xo‘jayev F, Raximqulov K.D, Nigmanov B.B «Sport va harakatli o‘yinlarvauni o‘qitish metodikasi» TDPU nashriyoti Toshkent 2008-y.
8. Xo‘jaev F, Raximqulov K.D, Nigmanov B.B «Harakatli o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi» Cho‘lpon nashriyoti Toshkent 2011-y

Rasulov Ravshan Raufovich
Buxoro davlat universiteti
musiqa ijrochiligi va madaniyat
kafedrasi o‘qituvchisi

TEATR HAMDA MAYDON TOMOSHABINLARI UCHUN SAHNA KO‘RINISHLARI ORQALI TA’SIRCHAN VOSITALARNI QO‘LLASH

Anotatsiya. *Mazkur maqolada ixtisoslik sohalarida ta’sirchan vositalarni qo‘llash haqida umumiy fikrlar yoritilgan bo‘lib bundan tashqari ixtisoslik sohalarida qo‘llaniladigan qoshimcha va yangi tasir etaoladiga vositalar haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar. *Teatr, sahna, rejissyor, aktyor, aktyorlik mahorati, so‘z, musiqa, dekoratsiya, grim, libos.*

THROUGH PERFORMANCES FOR THEATER AND SQUARE AUDIENCES USE OF EFFECTIVE MEANS

Annotation. *This article covers the general ideas about the use of effective tools in the fields of specialization, and also discusses additional and new effective tools used in the fields of specialization.*

Keywords. *Theater, stage, director, actor, acting, words, music, scenery, make-up, costumes.*

ЧЕРЕЗ СПЕКТАКЛИ ДЛЯ ТЕАТРАЛЬНОЙ И ПЛОЩАДНОЙ ПУБЛИКИ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНЫХ СРЕДСТВ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются общие представления об использовании эффективных инструментов в областях специализации, а также обсуждаются дополнительные и новые эффективные инструменты, используемые в областях специализации.*

Ключевые слова. *Театр, сцена, режиссёр, актёр, актёрская игра, слова, музыка, декорации, грим, костюмы.*

Ommaviy bayram va tomoshalarda qo‘llaniladigan ta’sirchan vositalar aslida qaysidir sohaning o‘zak vositasi bo‘lib, undan ommaviy bayramlarda badiiy sintez orqali foydalanish tomoshaning ta’sirchanligini oshiradi. Masalan, adabiyotda so‘z, teatrda xatti-harakat, raqsda plastik xatti-harakat, rassomlikda badiiy tasvioli ifodalar va h.k. Mazkur vositalardan ommaviy bayram va tomoshalarda ham keng foydalanish mumkin. Shu munosabat bilan biz malakaviy ish davomida ommaviy bayram va tomoshalar san’atiga ixtisoslik sanalmish bir qancha sohalardagi ta’sirchan vositalarni ham o‘rgandik va tahlil qildik. Quyida mazkur tahlil natijalari beriladi.

Teatrda ta’sirchan vositalarning o‘rni. «Teatr – bu birorta narsani aks ettiruvchi ko‘zgu emas, balki kattalashtirib ko‘rsatadigan shishadir» – deb yozadi V.Mayakovskiy. Demak, bunday kattalashtirib ko‘rsatish uchun albatta qandaydir vosita kerak bo‘ladi. Dekoratsiya, rekvizit, butafor, so‘z, musiqa, qo‘shiq, grim, libos, harakat, yorituvchi chiroq va turli shovqinlar esa teatr san’atining shunday ta’sirchan vositalari hisoblanadi.

Teatr haqida X.T.Mirpo‘latov «Teatr san’ati insonlarni ma’naviy jihatdan tarbiyalaydi. Ular sahna orqali ezgulik va yaxshilikning, haqiqatning tantanasini, razolat, qabohat, xiyonatning inqirozini guvohi bo‘ladilar. Teatr barcha yoshdagi kishilar uchun qiziqarli va zarurdir» – deb yozadi. G.Kristi esa «Teatr – bu xavfli quroldir, u bilan ehtiyotkrlik bilan munosabatda bo‘lish kerak. Bilib bilmay turib qilingan har bir xato jarohat yetkazishi mumkin» – deb ta’riflaydi. Bundan ko‘rinib turibtiki SH.Minavarovning «Teatr – san’at va tarbiya maskani» degan so‘zi o‘zini oqlamoqda. Shunday ekan, tomoshabinni tarbiyalash uchun albatta ta’sirchan vositalardan unumli foydalanish kerak.Teatr spektakllarining ta’sirchanligini oshirishda ssenografiya katta ahamiyatga ega.

Ssenograflar – teatr odamlaridir, ularga aktyorlik psixologiyasi sirlari in’om etilgan, ular sof rejissorlik holatni sezishadi va aytib bera oladi, shuningdek spektaklda aktyorlarning kutilmagan va muhim bo‘lgan vaziyatlar uchun sharoit yaratishda ko‘maklashadi. Agar rejissor spektaklni tayyorlash va repetitsiya jarayonida rassom bilan yaqindan hamkorlikni yo‘lga qo‘ysa barcha ijodiy muammolar

ijobiy tarzda hal bo‘ladi. Buni o‘zbek teatr rassomlari H.Ikromov va G.Riftin, D.Ushakov va Y.Valdenberg, G.Brim va G.Tumankov, A.Jiboyedov va B.To‘rayev, D.Rajabov va Z.Botirov kabilarning faoliyatlarida ko‘rish mumkin.

Hozirgi davrda jahon teatrlarida murakkab jarayonlar sodir bo‘lmoqda. O‘tkazilayotgan kuchli tajribalar, an’anaviy sahnani tashqi yoki ichki tomondan qulatishlar an’anaviy shaklga qiziqish bilan almashmoqda. Teatrning bosib o‘tgan yo‘lini tarixan fikrlash zarurati paydo bo‘ladi. ”Retro”, ”Neonaturalizm” kabi atamalar o‘tmishda qolib ketdi. Sahnada ko‘proq kulisa va pavilion sahna bezaklari rekonstruksiyalari namoyish etilmoqda.Teatrlar rassomlari ikki yo‘nalishdagi ayiruvchi yoki birlashtiruvchi nuqtai-nazarni egalladilar, ular ikki mustaqil davlat, ya’ni teatr va tasviriy san’at hukmronligi mamlakatlaridan iboratdir. Ular har ikki tomonga baravar xizmat qilsa-da, ”mahalliy xalq” hisoblanmaydi, ya’ni cheksiz muammolarni keltirib chiqaraveradi. Aynan shu holatlar yaqin o‘tmishda aniq muvaffaqiyatga ega edi, ya’ni to‘la realizmning chegara joylarida kamroq aralashishar ro‘y berar edi, “soflik ” uchun hushyorlik bilan kurashilardi.Shu sababdan tamoyillarning turli xilligi, yondoshish, rassomning shaxsiy xohishlari ssenografiyada norma hisoblangan va ba’zi vaqtlarda san’atni rivojlantirishda noqulayliklarni keltirib chiqargan. Lekin, odatdagi xilma-xillik qatorida kuchli yangi g‘oyalar ham bo‘lgan, ular jonli teatrdan paydo bo‘lgan, bunda o‘zaro hamkorlik sahna san’atini yanada rivojlanishga olib keldi.

Izlanishni turli ifodalanishlarida mavhum tamoyilli yangicha yondoshish mavjud edi, u keyinchalik asosiy bo‘lib qoldi va umumteatr usuliga aylanib ketdi. Ular sahna ustalarini yangi izlanishlarga yo‘naltirdi va ular orasida katta raqobatchilikni yuzaga keltirdi. Raqobatchilik san’ati olg‘a surildi. O‘zgarish jarayonlari tanqidi san’atning nazariy bilimlarida san’at amaliyotida ko‘tarilayotgan savollarga javob topishni taqozo qiladi, ya’ni o‘z ma’suliyatini bilishni aniqlash, nazariy yuksaklikni tekshirish, atamalar apparatini qayta ko‘rib chiqish va boshqa vazifalarni bajarishni nazarda tutadi.

Ssenograf san’at chorrahalarida xizmat qiladi – u teatr odami va undagi tasviriy san’atning yarim rahbaridir. U bezakchi, grafik, arxitektor, dizaynerdir. U o‘zi bilan teatrga tasviriy madaniyat boyligi va uning muammolarini, qarama-qarshiliklarni, hamda uning hayotini olib keladi. Agar tanqidchi rassom olib kelgan borliq dunyoga sho‘ng‘ib keta olsa, u o‘z his to‘yg‘ularini postanovkadagi muammolar orqali ochib bersa, u so‘z bilan ifoda eta olsa shundagina uni o‘qish-o‘rganish mumkin bo‘ladi. Bunda faqat rassomlargina emas, balki hozirgi zamon ma daniyati muammolari bilan qiziquvchilar ham uni o‘qishadi.

Ssenogrfiya o‘zining hozirgi tarixchilari, portret chizuvchilari, lavhashunoslari, esse yozuvchilariga egadir. Ular nazariya sohasida ham muxim qadamlar tashlashga intilmoqdalar. Ssenografiya nazariyasini yaratish shartmi, uni amalga oshirish mumkinmi? Agar u vujudga kelsa, nimaga foydasi tegadi, degan qator savollar ko‘ndalang bo‘ladi. Bilimlarning keng sohalari, ya’ni adabiyot nazariyasi, uning atrofida-drama nazariyasi kabi bir qator nazariyalar yaratilgan va ular tegishli sohalarni rivojlantirishga xissa qo‘shayapti. Lekin bu umumjihatdan tan olingan yagona nazariya, degani emas, albatta.Unga teng keluvchi muhim nazariya – dramaturgiyaning nazariy masalalarini ishlab chiquvchi tadqiqotlarning miqdorini ko‘paytirish zarurati seziladi.

Har bir ssenograf o‘zining ishida voqeaning muammoli joyi, makonini hal etadi. U xususiyatlar, shartlarning o‘lchovi va aniqligining u yoki bu tomoniga kirishadi. Dramaning ma’lum talqinini taklif qiladi, ya’ni spektakldagi ma’lum aktyorlar jamoasi uchun ma’lum o‘yin sharoitlariga teng bo‘ladi. U tarixiy va zamonaviy o‘zaro munosabatlarni o‘rnatadi va unga ma’lum bo‘lgan sahna sharoitidagi aniqlik va sahna bezagi obrazli olamdagi o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlaydi. Aytilgan muammoni aynan nazariya deb tan olishi shart emas. U rassom, uning ishi – muammolarni amaliy jihatdan bajarishdan, spektakldagi yaratiladigan qarama-qarshiliklarni hal etishdan iboratdir.Teatr bir butun organizm kabidir, bu qarama-qarshilik ijodiy yakkalikning jonli birligidir. U ma’lum jamoani vujudga keltiradi. Turli xil san’atlar, mahorat, ixtisoslik, qiziqishlarda tinimsiz mehnat va bahslashish

Aktyorlar san’ati – bu birinchi navbatda artistning qarama-qarshiligidir, ya’ni real shaxs va o‘ylab topilgan shaxs personaji kabidir, boshqa planda - qarama-qarshi “men bor, men mavjud” va o‘yinlar, shaxs rolini ijro etishdir. Ssenograf san’atiga doir rahbariyat, rejissorlar, aktyorlar, ustaxonalar bilan “ishlab chiqarish qarama-qarshiliklar”dan boshqa yana rassom o‘zining bir qator ijodiy qarama-qarshiligiga ham egadir. YA’ni, ishonch va shartlilik oralig‘idagi tenglikni topish kerak. Shuningdek, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tasvirlash va metafora, pyesa ijrosi vaqti va spektaklni qo‘yish vaqti, harakatsizlik va harakat, sahnaning ko‘rinishi va uning makoni, sahna makoni va zalning ko‘rinishi va h.k. hisoblanadi. Bularga o‘xshash qarama-qarshiliklar teatr va ssenograf san’atida beqiyos ko‘p.

Ularni umumlashtirish, muammolar yechimini topish va maqsadga erishishda rassom katta ijodiy kuch bilan faoliyat ko‘rsatishi lozim bo‘ladi.

Teatr san’ati olamida har bir davrda o‘sish, rivojlanish, yangilanish jarayonlari davom etib boradi. Teatr jamoasi asosan rejissorlar, aktyorlar jamoasi va hozirgi davrda texnik vositalarni ishga soluvchi hamda boshqaruvchi mutaxassislar, ustalar va xizmatchilar bilan mujassam birlikdir. Bu o‘z navbatida vazifalar, faoliyatlar, ijrochilikda turli qarama-qarshiliklarni yuzaga keltirishi tabiiy holdir. Ayniqsa spektaklning mazmuni asosida sahna bezaklarini tayyorlash, ularni o‘yinlarda ishlatishda rassom bilan rejissor o‘rtasida munosiblik ba’zan o‘zgarishi, ya’ni obyektiv ravishda qarama-qarshiliklar paydo bo‘lishi mumkin. Bunday ixtiloflarni kamaytirish va umuman tugatishda rejissor va sahnalashtiruvchi rassomdan chuqur bilim, keng fikr, xis-to‘yg‘ular talab etiladi. Shu asosda pyesaning muvaffaqiyatli o‘tishi hamda tomoshabinlarda o‘chmas taassurotlar qolishi, ularda teatrga bo‘lgan qiziqishlarni yanada rivoj topishiga sabab bo‘ladi. So‘z. Teatr san’atida so‘z juda katta ta’sir kuchiga egaki, raqs, musiqa, grim, libos va dekoratsiyalar hech qachon spektaklning so‘zchalik ta’sir kuchini oshira olmaydi. Masalan, raqs, dekoratsiya, musiqa va shovqin, grim va liboslar tomoshabinni tarbiyalay olmaydi, so‘z esa tomoshabinni tarbiyalashdek qudratli kuchga ega. Aktyorlar sahnadan turib o‘z monolog va diologlari bilan tomoshabinga harakat orqali yetkazishning iloji yo‘q bo‘lgan ta’sir kuchini, so‘z yordamida yetkazish imkoniga egadirlar. «Teatrga men tub ma’no (podtekst) uchungina boraman, matnni uyda o‘qib ham olishim mumkin» – deydi K.S.Stanislavskiy.

So‘z qaysi tilda gapirilmasin o‘z ta’sir kuchini saqlab qola oladi. «Rejissor Bahodir Yo‘ldoshev tavsiyasiga ko‘ra, Fransuani «Iskandar» spektaklida Alisher Navoiy obrazida o‘zbek aktyorlari bilan birgalikda o‘ynashga har jihatdan tayyorladik. Bahodir Yo‘ldoshev o‘z tabiatiga xos yana bir hayratomuz tajriba qilib ko‘rayotgan edi.

Fransua Navoiy va Arastu siymosida fransuz tilida, Iskandar – Elyor Nosirov va qolgan aktyorlar o‘zbek tilida spektaklni o‘ynashlari kerak edi. Fransua shunday baland bir maqomda, obraz va spektakl mohiyatini ich-ichidan his qilib o‘ynadi-ki, sahnada na ikki til, na ikki aktyorlik ijro maktablari mavjudligi aslo sezilmadi» – deb yozadi Shuhrat Rizayev. Ruhshunos vrach V.Levi: «Faqat o‘ziga xos munosabat shakli orqali teatr meni sehrlaydi. Bevosita aloqa jarayonidan inson 30 foiz ma’lumotlarni so‘z yordamida oladi, qolganlari teatrda simvol darajasiga ko‘tariluvchi harakatlar, imo-ishoralar, qarash yoki nigoh, intonatsiya(gap, nutq ohang)laridir» – deb yozadi.

Musiqa. Zamonaviy teatrda asosiy ta’sirchan vositalardan biri- musiqadir. Musiqa jo‘r bo‘lmagan spektakllar kamdan-kam. Chunki uning yordamida rejissor epizod muxitini yaratadi.Rus rejissori N.M.Gorchakov teatrdagi musiqa vaqtning har bir soniyasini shunchalik to‘ldiradiki, musiqa bilan yetarli darajada ta’minlangan besh daqiqa haqiqiy yoki sahnaviy hayotning 25-30 daqiqalariga to‘g‘ri keladi deb aytgangan edi. Musiqa (albatta, plastika, nur va boshqa ta’sichan vositalar bilan qo‘shilgan holda) badiiy obrazni yaratishda eng ta’sirli va harakatchan usullardan biridir. «Musiqadagi harakatni eshita bilish, uni sahnalashtira olish-rejissorning vazifasidir, shundagina musiqa bo‘lajak spektaklda faqatgina to‘ldiruvchi sifatda emas balki, eng asosiy xatti-harakatlarni keltirib chiqaruvchi bo‘la oladi» – deb yozadi I.G.Sharoyev.

Shovqinlar. Teatrda shovqinlar (urush ovozi, qushlar ovozi va oyoq tovushlari, havo trevogasi, mashinalar ovozi vahokazolar) keng ishlatiladi. Ayniqsa, teatrda shovqinlarning o‘rni epizodlarning obrazli yechimida juda muhimdir. Dekoratsiya. Teatrlarda dekoratsiya spektaklning ta’sirini oshirish-ga va obrazli yechimni topishga juda katta yordam beradi. Masalan, V.Shekspirning «Hamlet» spektaklidagi bahaybat «darvoza», O‘lmas Umarbekovning qalamiga mansub «Fotima va Zuxra» spektalidagi «majnuntol» (rejissor Rustam Ma’diyev) va boshqa ko‘plab misollar keltirish mumkin.

Grim va liboslar. Mahkam Ismoilov «Grim obraz yaratishda muhim rol o‘ynaydi, grim-bu obrazning bir bo‘lagidir» – deb yozadi.

Grim va liboslar yaratilayotgan personajning shaxsiy fazilatlari va turli xususiyatlarini ochishda muhim ta’sir vosita hisoblanadi. Har bir grim o‘zida bir davr kishisi yoki ma’lum bir tarixiy shaxsgagina xos bo‘lgan detallarni o‘zida mujassam etadi. Grimga qarab, xasisni qo‘li ochiq odamdan, kamtarinni maqtanchoqdan va ustki kiyimning kiyilishiga qarab esa ozoda, tartibli kishini pala partish, besaranjon kishilardan, boylarni esa kambag‘allardan ajratib olsa bo‘ladi.

Harakat. Aktyor – xatti-harakat qiluvchi shaxs ekanligi bizga ma’lum. «Sahnada harakat qilmoq kerak, – deydi K.S.Stanislavskiy – drama san’ati, aktyorlik san’ati harakatga, aktivlikka asoslangan. Sahnada ham jismoniy, ham ruhiy harakat qilmoq kerak». Harakatning xususiyatlaridan biri uning erkinligidir. Rejissor tomonidan turlicha oliy maqsad qo‘yilgani kabi, harakat ham turlicha

belgilanishi mumkin. Aktyorlar yaratayotgan obrazlarining xatti-harakatlarini qanchalik aniq va ishonarli bajarsalar, shunchalik spektaklning muvaffaqiyatli chiqishiga yordam bergan bo‘ladilar.

Har qanday asar sahna yuzini ko‘rishida dramatik manba, aktyor va rejissor asosiy material ekanligi, bunda aktyor asosiy figura hisoblanishi haqida yuqorida qayd etib o‘tgandik. Ammo yana bitta zaruriy soha borki, uning faoliyatisiz na spektakl, na biron-bir ommaviy tomosha to‘laqonli hisoblanadi. Bu – rassomlik ijodiyotidir. Uning rang tanlashdagi fantaziyasi, dekoratsiya yasash va unga mazmun baxsh etish, tomoshabinni turli ranglar jilosiga burkash, muhit yaratish, sahnani turli ta’sirchan va ifoda vositalari bilan to‘ldirish kabi vazifalari - uning faoliyatining murakkabligidan va b oshqa san’at turlariga qaraganda mas’uliyati balandligidan dalolat beradi. Chunki parda ochilishi bilan tomoshabinning ko‘zi sahnaning bezagiga tushadi. Sahnaga aktyor kirib kelgach, uning diqqati aktyor tomon “og‘adi”. Sahna bezagi, dekoratsiya, butaforlar, aktyorlarning kiyimlari (teatr kostyumlari), chiroqlarda rang tanlash va boshqa bir qancha ishlar rassomning aralashuvisiz amalga oshirilmaydi.

Q.Xo‘jayev o‘zining “Sahnaga yo‘l” kitobining “Rejissor va spektakl bezagi” bobida: “Spektakl bezaklari ustida ishlay boshlar ekan, rejissor uni asosiy ko‘rinish, namoyish etilishi mo‘ljallangan asarning g‘oyasiga bevosita ta’sir etuvchi muhim omil deb biladi, ijrochilarning asarni u yoki bu tarzda talqin etishiga qarab spektakl qanday xarakter kasb etishini yetarli darajada ravshan tasavvur qiladi. Spektaklning tashqi sahnaviy manzaralari: bezaklar, loyihalar, matolar yoki pardalar, liboslar, ijrochilarning yuz bo‘yashlari-yu, yasama sochlari, mebellar, yasama jihozlari (butaforiyalar) tomoshabin zehniga haddan tashqari kuchli ta’sir qilishini rejissor chuqur his etadi”1. Muallif bu kitobida rejissorning rassom bilan ishlash jarayoniga katta e’tibor berib, asarni sahnalashtirishdagi eng muhim jarayonlardan biri deb hisoblaydi va rassomlik ijodidagi ifoda vositalari deb, rang tanlash, obrazli yechim topish, sahnani bezashga oid jihozlar bilan to‘ldirish, liboslarni tanlash va boshqa jihatlarda namoyon bo‘lishi haqida yozadi.

Teatr san’ati asoschisi K.S.Stanislavskiy o‘zining “San’atdagi hayotim” kitobida bir atoqli rassom ijodi haqida shunday deydi: “Artistlarning o‘z xohishlari bilan qiladigan, butun postanovka va u yoki bu rolning ma’naviy vazifalari taqozo etadigan sahnaviy jihozlarning muvaffaqqiyatli chiqishini, e’tirof etishini angladim. Bu narsa menga teatrga oddiy jivopis – rassom emas, balki ozgina bo‘lsada rejissorlik ishlaridan xabardor hamda san’atimiz va texnikamizning asoslarini, vazifalarini tushunadigan rassom lozimligini yana bir karra tushuntirdi”.

Har qanday teatr rassomi sahnaning tuzilishi, qurilmalari va ularni qo‘llash texnologiyasini yaxshi bilishi shart. Sahna tuzilishini yaxshi bilish har qanday rejissorning ishini osonlashtiradi. Teatrda yuqorida qayd etilgan ta’sirchan vositalardanda ko‘proq va ahamiyatli vositalar borki, bu vositalardan unumli foydalana olish natijasida tomoshabinga ta’sir etish bu – rejissorning mahoratiga va fantaziyasiga bog‘liqdir.

Kinoda ta’sirchan vositalarning o‘rni. Kino-sintetik san’at hisoblanadi. Kinoda teatr, rassomchilik, musiqa, ashula, raqs, sirk, haykaltaroshlik, opera va balet, turli bayram va h.k. san’at turlarining ta’sir vositalarini o‘z ta’sir vosita qilib olishi mumkin. Bundan tashqari shu san’at turlarining o‘zini ham ta’sirchan vosita qilib kinoda qo‘llash imkoniyatlari bor.Kinoning teatrdan katta farqi bo‘lib, kinoda har bir harakatni bir necha bor qaytarib tasvirga tushirib, o‘sha dubllarni mantaj orqali yaxshisini tanlab tamoshabilarga ko‘rsatish mumkin. Kinolarda ba’zan birgina kichik harakatni yuzlab dubllar olinganini ko‘p eshitganmiz. Kinoning yana bir qulaylik tomoni, har bir faslda (masalan: qishda qor yog‘ayotganida, yozda jazirama quyosh ostida va h.k.) tasvirga olinishidan tashqari, istalgan yerda (masalan: o‘zga yurtlarda, cho‘lda, botqoqda, dengizda, va h.k.) tasvirga olish imkoniyatari bor. «Bir kuni Amerikada» filmini rejissori, filmning qahramonlarini yoshlik davrini tasvirga olgach, film qahramonlarining qarigan chog‘larini tasvirga olish uchun, ya’ni, filmning yanada ta’sirli bo‘lishi uchun ularning ulg‘ayishini yigirma yil kutgan. Bundan ko‘rinib turibtiki har bir voqeani aniq aks ettirish imkoniyatlari cheksiz desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Kino o‘tmishni ham, hozirgi kunni ham haqqoniy va san’atkorona aks ettirib, jamiyatimiz ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutadi, odamlarni tarbiyalash ishiga salmoqli hissa qo‘shadi. Jamiyat taraqqiyoti mobaynida kino ommaning ongini oshirishda katta rol o‘ynaganligi hech kimga sir emas. Dastlab kinoseanslar aksariyat bozor kunlarida, bayram va sayllar vaqtida namoyish qilinardi. Kinoseanslar dasturida badiiy film bilan birga hujjatli lentalar ham ko‘rsatilar edi. Badiiy filmlar oldi-

qochdilaridan, g‘ayri axloqiy talqinlardan nari o‘tmasdi. Hujjatli lentalarda esa, onda-sonda bo‘lsa-da inqilobiy kurashlarni aks ettiruvchi lentalar ham uchrab turardi. Endi esa kinoni har kuni bir qanchasini ko‘rishmiz mumkin. Chet el televideniyening faqatgina kino namoyish etadigan kanallari mana bir necha yillardan beri o‘z faoliyatini olib bormoqda. Kino san’ati hozirgi kunda shunday darajaga yetdiki, kompyuter grafikasi yordamida inson tasavvur qilgan barcha voqea, hodisalarni yoki biror jonzot va hakazolarni tamoshabinlarga go‘yoki xaqqoniydek ko‘rsatish mumkin bo‘lib qoldi. Masalan, qadimgi davrlardagi denazavrlar, uchar kaltakesaklar, brontozavrlar va hokazolarni go‘yoki jonli tasvirlash imkoniyatlaridan unumli foydalanilayotgani bugungi kunda hech kimga sir emas.Televideniyada ta’sirchan vositalarning o‘rni. Televideniyada ta’sirchan vositalarning qo‘llash imkoniyatlari cheksizdir. Televideniyada ta’sirchan vositalarning barcha turlaridan unumli foydalanish mumkin. Masalan: kino, teatr, rassomchilik, ashula va raqs, sirk, haykaltaroshlik, opera va balet, turli bayram va tamosha va h.k. san’at turlari ham televideniyening ta’sir vositalari bo‘la oladi.

Televideniya - ekran san’atidir, uning tomoshaviyligi katta rol o‘ynaydi. Yana shunday ko‘rsatuvlar uchrab turadiki, ekranga qaramay uni faqat eshitib baxramand bo‘lishingiz ham mumkin». Tasvir televideniyaning eng asosiy ta’sir vositasidir. Dunyoda sodir bo‘layotgan barcha voqea va hodisalarni tasvirga tushirib o‘sha ondayoq teletomoshabinlarga uzatish borasida televideniyega teng keladigani yo‘q. Bundan tashqari televideniyening afzalliklari shundaki sur’atga olingan tasvirlarni hujjat sifatida arxivda saqlab, yillar o‘tgach ham namoyish etish imkoniyatlari bor. Televideniya orqali namoyish etiladigan hujjatli film, multfilm, badiiy film, teleserial vahokazo ko‘rsatuvlar yordamida insonlarga ta’sir o‘tkazish va ularni tarbiyalash mumkin. Ya’ni, ota - onasining yuziga oyoq qo‘ygan biror farzandni mehribon farzandga aylantirish, biror yolg‘onchi yoki o‘g‘rini to‘g‘ri yo‘lga boshlash, ko‘rsatuvlar ta’sirida o‘z xatosini tushunib yetishi, ota - onasi, vatani oldidagi burchini his etishi, hatto kechikib bo‘lsada, tavba qilishi mumkin.

Televideniya ekranlari orqali ko‘rsatiladigan barcha ko‘rsatuvlarning ta’sirida har doyim ham ijobiy natijalarga erishib bo‘lmaydi, aksincha, gohida salbiy oqibatlar keltirishi ham ehtimodan holi emas. G‘arb mamlakatlari ishlab chiqargan teleserial, badiiy film va boshqa ko‘ngilochar filmlarni ko‘rib ta’sirlangan sharqliklarning tarbiyasi tubdan o‘zgarib ketganligini ushbu kunlarda guvohi bo‘lmoqdamiz. Oynai jahon orqali namoyish etilayotgan zamonaviy intellektual o‘yinlar millionlab tomoshabinlarni o‘ziga jalb etib kelmoqda. Masalan, RJT (ORT)da namoyish etiladigan «Mo‘jizalar maydoni», «Nima? Qayerda? Qachon?», «Kim millioner bo‘lishni xohlaydi?», KVN, «Eng aqlli», O‘zTV da namoyish etilayotgan «Zakovot» va h.k. ko‘rsatuvlarni misol keltirish mumkin.

So‘ngi yillarda sport ishqibozlarining soni keskin tarzda ortib bormoqda. Olimpiada o‘yinlari, jahon, yevropa va osiyo chempionatlari so‘zimizning yaqqol dalili bo‘la oladi. Biror bir sport turiga ozroq bo‘lsada qiziqmagan insonni bugungi kunda topish mushkul. Sportga butun dunyo katta e’tibor bilan qarayotganligi tufayli deyarli barcha yirik mamlakatlarning alohida o‘z sport telekanallari ochilmoqda va boshqa chet el sport kanallarini tomosha qilish imkoniyatlari ham paydo bo‘lmoqda. Bundan yaqqol ko‘rinib turibdiki sport ham televideniyening ulkan ta’sir kuchiga aylanib muxlislarni ekran qarshisida o‘tirishga majbur qilmoqda. Tele ekran qarshisida o‘tirib muxlislik qilgan futbol ishqibozlari o‘z sevimli jamoalari mag‘lubiyatga uchragach, ko‘chalarga chiqib turli bezoriliklar orqali o‘z noroziliklarini bildirish hollari ko‘pgina mamlakatlarda uchrab turibti. Rossiya telekanallarida hozirgi kunda barcha yoshdagi tomoshabinlar uchun mo‘ljallangan alohida turli kanallar bor. Masalan, bolalar uchun «Detskiy mir», o‘rta yoshdagilar uchun «MTV» musiqiy ko‘ngilochar kanali, kattalar uchun «Kultura», «Nashe kino» kanallari nafaqat Rossiyaga balki, barcha hamdo‘stlik mamlakatlariga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Radioda ta’sirchan vositalarning o‘rni. Radioning asosiy ta’sirchan vositalariga so‘z, musiqa, qo‘shiq va turli shovqinlar kiradi. Televideniyadan katta farqi bo‘lgan radioning ta’sirini oshirish uchun birinchi navbatda so‘zga katta e’tibor qaratiladi. Televideniya ekranlarida namoyish etiladigan ko‘rsatuvlarda ovozsiz turli tasvirlar orqali ta’sir etish imkoni bor. Radioda esa umuman ovozsiz pauzalarga yo‘l qo‘yish mumkin emas, shuning uchun radio to‘lqinlarida har lahzada so‘z yoki qo‘shiq yo bo‘lmasa musiqalar jaranglab turganini guvohi bo‘lamiz. So‘nggi yillarda radio tinglovchilarning soni tobora oshib borayotganligini guvohi bo‘layapmiz. Bunga sabab, radio to‘lqinlari orqali uzatilayotgan eshittirishlarni tinglash uchun tiglovchilarda talaygina qulayliklar vujudga kelayotganidandir. Ilgari radio eshittirishlarini tinglash uchun ma’lum bir (uyga, radio dinamiklari ulangan simyog‘ochlar tagiga vahokazo) joylarga borish kerak bo‘lar edi. Endi esa transport vositalari, har bir muassasa va korxonalarda bemalol tinglash imkoni bor. Hozirgi kunda xatto kichik

maktab o‘quvchilari ham kichik radiopryopniklarini naushniklar orqali dars payitida tinglab o‘tirishganligi hammaga ma’lum.

Texnika rivojlangan sari uyali telefon aparatlari orqali ham radio eshittirishini tinglash imkoniyatlari tug‘uldi. Bundan ko‘rinib turibtiki radio eshittirishlarini ko‘chalarda, avtobus bekatlarida, sayilgoxlarda, stadionlarda va hokazo joylarda eshitish mumkin. Radio boshlovchilarining muxlislar bilan telefon orqali jonli (savol-javob, fikr-mulohaza bildirish va h.k.) muloqotlari o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Radio tinglovchilar o‘z uyali telefonlari orqali transport vositalarini boshqargan va hokazo hollarda boshlovchilar bilan jonli efirga ulanib o‘z yaqin kishilarni tug‘ulgan kunlari bilan tabriklab yoqtirgan qo‘shiqlarini efir orqali uzatishlarini iltimos qilishlaridan ko‘rinib turibtiki, radioning ta’sir vositalari tinglovchilarga o‘z ta’sir kuchini ko‘rsatmoqda.

Xulosa. Mazkur maqolada ommaviy bayram va tomoshalarni sahnalashtirishda foydalaniladigan zamonaviy ta’sirchan vositalarning mazmuni, ilmiy-nazariy asoslari, ixtisoslik sohasidagi ta’sirchan vositalarning qo‘llanalish spetsifikasi o‘rganildi. Bunda ommaviy bayram va tomoshalar rejissurasi sohasida faoliyat olib borgan rejissorlarning ijodiy ishlari, tadqiqotchilarning ilmiy ishlari tahlil qilinib ta’sirchan vositalarning nazariy va amaliy ahamiyati o‘rganildi.

Teatr, televideniye, radio va kinoda foydalaniladigan ta’sirchan vositalar spetsifik jihatdan tahlil etildi. Mazkur sohalar va ommaviy bayram va tomoshalar rejissurasida foydalaniladigan ta’sirchan vositalarning qo‘llanilishi qiyosiy tahlil etildi.

Foydalanilga adabiyotlar

1. Равшан, Расулов Рауфович. "Замонавий байрамлар режиссурасида халқ ижоди намуналари таъсирчан восита сифатида." ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali (2022): 117-122.
2. Равшан, Расулов Рауфович. "Театр томошаларида таъсирчан воситалардан фойдаланиш усуллари." Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali (2022): 145-151.
3. Расулов, Равшан. "Замонавий байрамлар режиссурасида таъсирчан воситаларнинг тутган урни ва ахамияти." Technical science research in Uzbekistan 1.4 (2023): 36-46.
4. John W. Kirk, Ralph A. Bellas. The art of Directing. Coloforniya, USA. 1985.
5. During J. et al., “The Art of Persian Music”, Washington, D.C., 1991.p:87.
6. Park R. E. Race and Culture / R.E.Park. - Glencoe: Free press, 1950. –355 p.
7. Qodirov M. Navoiy va sahna san’ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000.; Qodirov M. Temuriylar davri tomosha san’atlari. – Toshkent: San’at jurnali nashriyoti, 2007.
8. Shodiyev B. Navro‘z bayrami. – Toshkent: - O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2001. – 128 b.
9. Sayfullaev B.S., Mamatqosimov J.A.Aktyorlik mahorati. –Toshkent:Fan va texnologiya, 2012. – 388 b.
10. Qoraboyev U. O‘zbek xalqi bayramlari. – Toshkent: Sharq, 2002. – 239 b.
11. KO‘rinov, Sh. "Loyiha menejmentining asosiy tamoyillari." Technical science research in Uzbekistan 1.4 (2023): 136-143.
12. Ne'matullayeva, Sh. "Madaniyat markazlarining professional jamoalar bilan hamkorlikni tashkil etish masalalari." Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования 2.3 (2023): 25-29.
13. KO‘rinov, Sh, and S. Sadullayeva. "Muzeyshunoslik istiqbollari." ijodkor o‘qituvchi 3.26 (2023): 97-101.
14. Rajabov, T. I., & qizi Safoeva, S. S. (2022). Musiqa madaniyati ta’limida musiqiy savodxonlik faoliyatining tutgan o ‘rni. Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2(10), 423-431.
15. Rajabov, T. I. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore. Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN, 2795(546X), 1.
16. Rajabov, T. X. I., & Ibodov, O. R. (2021). O‘zbek Xalq Musiqa Merosda O‘quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi. Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, 1(6), 139-145.
17. Тўхтасин, Р. И. (2022). Ўзбек халқ қўшиқлари ва ижролари ҳақида. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), (Special issue), 64-71.

Salohiddinova G‘azalxon Bekmirzayevna
Alfraganus universiteti Pedagogika va psixologiya
kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: guzal1252@gmail.com

PEDAGOGIK TA’SIR ETISH TEXNOLOGIYASI YORDAMIDA O‘QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISH VA MUSTAQIL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING USULLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirishda pedagogik ta’sir etish usullari haqida so‘z yuritiladi. Bugungi kunda ta’limning eng asosiy talablaridan biri bolalarni erkin va mustaqil, ularni har tomonlama kamol topgan, yetuk va rivojlangan shaxs qilib tarbiyalashdir. Bu o‘rinda pedagogik ta’sir etish usullaridan foydalanish juda muhimdir. Maqolada ta’lim –tarbiya jarayonida pedagogik ta’sir etish orqali bolalarda axloqiy xususiyatlarni shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish, jamiyatning faol a’zosi etib tarbiyalash asosiy maqsad qilib olinadi.*

Tayanch so‘zlar: *ijtimoiy faollik, pedagogik ta’sir etish usuli, ta’lim sifati, ishontirish texnologiyasi, o‘zaro hamkorlik, mustaqil fikrlash, o‘ziga ishonch, bola shaxsiga hurmat.*

МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ И ФОРМИРОВАНИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ТЕХНОЛОГИИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ

Аннотация. *В данной статье говорится о методах педагогического воздействия на повышение социальной активности молодежи. Сегодня одним из главных требований образования является воспитание детей свободными и самостоятельными, полностью созревшими, зрелыми и развитыми личностями. В этом случае очень важно использовать методы педагогического воздействия. Основная цель статьи - формирование нравственных качеств у детей, расширение их мировоззрения, воспитание их как активных членов общества посредством педагогического воздействия в процессе воспитания.*

Ключевые слова: *социальная активность, метод педагогического воздействия, качество образования, технология убеждения, взаимное сотрудничество, самостоятельное мышление, уверенность в себе, уважение к личности ребенка.*

METHODS OF INCREASING STUDENT ACTIVITY AND FORMING INDEPENDENT THINKING USING PEDAGOGICAL INFLUENCE TECHNOLOGY

Annotation. *This article focuses on the methods of pedagogical influence on increasing the social activity of youth. Today, one of the main requirements of education is to raise children as free and independent, fully matured and developed individuals. In this case, it is very important to use methods of pedagogical influence. The main goal of the article is to form moral characteristics in children, expand their horizon and educate them as an active member of society through pedagogical influence in the process of education.*

Key words: *social activity, method of pedagogical influence, quality of education, Amonashvili’s technology, mutual cooperation, independent thinking, self-confidence, respect for a child personality.*

“Ta’lim sifatini oshirish - Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir!”
Ushbu soxada boshlagan isloxotlarimizni davom ettirishimiz, ta’lim dargoxlariga borib, o‘qituvchi va murabbiylar bilan ko‘proq muloqot qilib, sifatni oshirish bo‘yicha ular qo‘ygan masalalarni birgalikda xal qilishimiz kerak.
Sh.M.Mirziyoyev

Kirish. Farzandlarni ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topishi, ularni jamiyatning faol a’zosi qilib tarbiyalash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Mustaqil diyorimizda kechayotgan yangiliklar, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy ta’limga oid islohotlarning mohiyatini anglab yetgan holda uning faol ishtirokchisiga aylanish, tafakkurni shakllantirish vazifalari qo‘yiladi.

O‘quvchilarning faolligini oshirishda erkin va mustaqil fikrlashning o‘rni juda muhim. Yoshlarda mustaqil fikrga ega bo‘lishlikni tarbiyalash - o‘z-o‘zini bilishning yuqori darajada rivojlanganligi natijasidir. O‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan o‘sib kelayotgan yosh avlod o‘z-o‘zini kuzatishi, o‘z faoliyatini tahlil qilishi, o‘ziga-o‘zi baho berishi, o‘z dunyoqarashi, bilimlarini boyitib borishi va mustaqil qaror qabul qila olishi zarur.

Insonning jamiyat bilan o‘zaro munosabati shaxsning ijtimoiy faolligini tahlil qilish uchun o‘ziga xos baholash tizimini belgilaydi. Buni butun ijtimoiy taraqqiyot yo‘nalishi va maqsadlari nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish mumkin. Bu maqsadlarni qo‘yish va ularga erishish orqali inson ijtimoiy munosabatlarni tiklaydi, ularni o‘zgartiradi, shu bilan tarixning yaratuvchisi sifatida harakat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ijtimoiy faoliyatning o‘ziga xos “tashuvchisi” ishlab chiqaruvchi, ongli, ijtimoiy, subyekt-ob’yekt xarakteriga ega bo‘lgan inson faoliyatidir. Faoliyat havaskor ijro xarakteriga ega bo‘lishi muhimdir, ya’ni shaxs o‘z tashabbusini amalga oshiradi, jamiyat oldidagi mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi (Sitarov, Romanyuk, Lugovoi, 2007).

Pedagogik ta’sir usuli – bu aniq pedagogik holatlarni tashkil qilish usulidan iborat bo‘lib, unda ma’lum qonuniyatlar asosida o‘quvchilarning ijobiy ishlarida o‘z kamchiliklarini yo‘qotishga undovchi yangi fikrlar va hissiyotlar uyg‘onadi[1].

Pedagogik holat tarbiyachining ijodiy fikrlariga binoan yaratiladi. *Birinchidan,* tarbiyachi foydalanishni mo‘ljallagan ta’sir usulini amalga oshirish uchun mos sharoitlarni hayolan tanlashi kerak. *Ikkinchidan,* tarbiyachi o‘z mo‘ljallagan ishi va xulqini o‘quvchining harakatiga bo‘lgan munosabatiga binoan mos ravishda o‘ylab chiqishi lozim[2].

Pedagogik ta’sir usullarini ikkita guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh usullari o‘quvchini ilhomlantiruvchi ijobiy hissiyotlar asosida uning ahloq-odobi, tarbiyasi, tartibiga o‘zgarishlar kiritadi, bular xursandchilik, minnatdorlik, tarbiyachiga hurmat, o‘z kuchiga ishonchdan iborat.

Ikkinchisi- uyatchanlik, epsizlik, hafsalasizlik, o‘kinch, xafagarchilik, achinish kabi salbiy xislatlarni yo‘qotishga yordam beradigan usullardir.

Tarbiyaviy usullarni egallash va ularni ish jarayonida tadbiq etish tarbiyachining tarbiya maqsadlarini yanada maqsadli va qulay bo‘lishiga yordam beradi.

Professor O.Musurmanovaning “Umumiy pedagogika” darsligi 2-qismida pedagogik ta’sir usullarining tamoyillari quyidagicha asoslanadi[3]:

- ✓ pedagogik optimizm;
- ✓ o‘quvchilarga hurmat;
- ✓ o‘quvchining ruhiy holatini tushunish;
- ✓ o‘quvchi tabiatining tashqi xususiyatlari va sabablarini ochish;
- ✓ o‘quvchining taqdiri bilan qiziqish.

Sitarov o‘quvchilarni ijtimoiy faolligini oshirishda muammoli vaziyatlarni yaratishning muhimligini alohida ta’kidlaydi. O‘quvchilarning o‘z faoliyatining kelajakka bo‘lgan ehtiyojini tushunishlari, kattalar va ayniqsa, tengdoshlari oldidagi mas’uliyatini his qilishlari muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham muammoli vaziyatlarni yaratishda o‘qituvchi qo‘yilgan vazifalarni jamoaviy va guruhli hal qilish uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlashi kerak.Ayniqsa, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning ahamiyati e’tiborga loyiqdir. Uning doirasida olib boriladigan ta’lim faoliyati va muloqot insonparvarlik tamoyillariga asoslanishi kerak (Sitarov, Romanyuk, Onishchenko, 2004).

O‘quvchilarni ijtimoiy faolligini oshirish uchun quyidagi kouching texnologiyasi ishlab chiqildi, uni pedagogik jarayoda qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bu texnologiyada o‘qituvchi o‘quvchilarni erkin va mustaqil fikrlarini bayon qilishlari uchun, o‘zlarini muhim shaxs sifatida xis qilishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib bermog‘i lozim.

Kouching texnologiyasi

Uslubning maqsadi:	shaxsni, uning personal va kasbiy faoliyatida natijaviyligini maksimal ko‘tarishdan iborat
Uslubning mohiyati:	salohiyatni ochishga mo‘ljallangan quroldir.
Harakatlar rejasi:	muloqot, samarali savollar berish va diqqat bilan javoblarni eshitish
Kouching bosqichlari:	1. Kouching maqsadini aniqlash.

	2. Joriy vaziyatni tahlil qilish. 3. Maqsadga erishish yo‘llarini aniqlash. 4. Harakalar rejasini tuzish. 5. Rejani joriy etish jarayonida nazorat va qo‘llab-quvvatlash.
Kutiladigan natija:	shaxs faoliyati samaradorligini jiddiy oshirish.
Kouching tamoyillari:	O‘z-o‘zini takomillashtirish; Anglanilmagan ehtiyojlar; O‘zgarishlar; Yo‘nalish va ruhlanish; Yengish; Muammolarni yechish; Tajriba.
Kouching ko‘rinishlari:	✓ Hunarli kouching; ✓ Biznes-kouching Shaxsiy samarali kouching **(shaxs faoliyatini shakllantirishga qaratiladi)** tanlab olindi. ✓ Layf-kouching.

Biz shaxsiy samarali kouchingni maqolani mazmuni va maqsadidan kelib chiqib tanlab oldik va qo‘lladik.

Natija va ilmiy yangilik. Shaxsiy samarali kouching vazifasi – qatnashuvchini ruhlantirish, energiya bilan to‘ldirish, unga o‘zini-o‘zi rivojlantirishiga, barcha maqsadlariga erishishiga ishontirish. (Pedagogik ta’sir etish orqali)

Shaxsiy samarali kouching bosqichlari:

1-bosqichda o‘quvchilar o‘z oldilariga maqsadlarini aniq qo‘yadilar. Shaxsiy muvaffaqiyatning maqsadi ifodalanishi bilan, biz “Shaxsiy rivojlanish rejasi” nomli dastlabki bosqichga o‘tamiz. Maqsadga muvofiq holda unga erishish uchun qilinadigan yuz qadamni yozish zarur. Maqsad bir yilga, ikki yilga, uch yilga, besh yilga mo‘ljallanishi mumkin. Bu yerda chegara muhim emas. (bu bosqichda har bir o‘quvchining maqsadi va rejasi o‘qituvchi tomonidan nazoratga olinadi, yil yakunida taxlil qilinadi; shundagina o‘quvchilarda o‘sish yuzaga keladi)

2-bosqichda o‘quvchilar shaxsiy rivojlanishi uchun to‘siq bo‘layotgan muammolar haqida o‘zaro fikrlari bilan o‘rtoqlashadilar. Bu jarayonda barcha qatnashchilar o‘z fikrlarini ochiq bildirishi so‘raladi, hech qanday kulgu yoki tanqidga o‘rin berilmaydi. O‘qituvchi tomonidan quyidagicha savollar beriladi:

- Sizga qanday yordam kerak?
- Yo‘lingizda qanday to‘siqlar bo‘lishi mumkin?
- Siz buni qachon bajarmoqchisiz?
- Agar sizning o‘rningizda boshqa kishi bo‘lganda, Siz unga nima maslahat bergan bo‘lar edingiz?

3-bosqichda har bir qatnashchi boshqa ishtirokchilarni har biriga eng yaxshi xislatlari haqida o‘z fikrini yozib qoldiradi va javoblar umumlashtiriladi, qarabsizki har bir o‘quvchi haqida ajoyib tavsifnoma yuzaga keladi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarda o‘ziga bo‘lgan ishonch hissini shakllantiradi.

4-bosqichda o‘z-o‘zini rivojlantirishda qilinishi kerak bo‘lgan vazifalar haqida o‘qituvchi tomonidan tavsiyalar beriladi, masalan: kitoblar o‘qish (buyuk allomalarimiz va ular erishgan yutuqlar haqida yoki Deyl Kornegi asarlari)

5-bosqichda o‘qituvchi tomonidan muammoli savollar qo‘yiladi, berilgan savollarga barcha o‘quvchilar o‘z mustaqil fikrlarini erkin bayon qiladilar. Bu jarayonda tanqidiy fiklash yuzaga keladi. (tanqidiy fikrlash qoidalariga barcha o‘quvchilar amal qilishi shart)

6-bosqichda Shaxsiy samarali tizimli kouchingning finalida besh – yetti yil oldinga va hayotiy sikllarni dasturlash va qayta dasturlash bilan ishlash boradi.

Yuqorida ko‘rsatilgan kouching texnologiyasi “Ta’lim texnologiya” si fani 3-kurs talabalari o‘rtasida qo‘llandi va yuqori natijaga erishildi. Talabalarning faolligi to‘liq ta’minlandi. Demak, yuqorida ko‘rsatilgan kouching texnologiyasini barcha fanlar doirasida qo‘llash mumkin. Bu texnologiya albatta o‘z samarasini beradi.

Pedagogik jarayonda o‘quvchilarni erkin va mustaqil fikrlashi, mustaqil qaror qabul qila olishi,

jamiyatning faol a'zosi bo'lishi barobarida vatan ravnaqiga o'z hissasini qo'sha olishi uchun pedagogik jarayonga, pedagoglar faoliyatiga **quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:**

- ✓ o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishga yordam beruvchi pedagogik ta'sir etishning yangi metod va texnologiyalarni ishlab chiqish;
- ✓ maktablarda tajribali o'qituvchilarning ish usullarini ommalashtirish, seminar treninglarni ko'proq tashkil etish;
- ✓ sinf rahbarlarining tarbiyaviy ta'sir etish texnologiyalari bilan bog'liq metodlari bilan o'zaro tajriba almashish;
- ✓ ota-onalar bilan o'qituvchilarning o'zaro hamkorligini (pedagogik bilim berish orqali) yo'lga qo'yish, bola tarbiyasiga so'z orqali ta'sir etish nafaqat ta'im jarayonida balki, oila muhitida ham juda zarur;
- ✓ o'quvchi shaxsini hurmat qilish va unga ishonch bildirish, bajargan ishlarini so'z orqali ta'sir etish orqali bo'lsada o'z vaqtida rag'batlantirib borish;
- ✓ o'quvchilarni xato qilishdan qo'rqmaslikka, tavakkal qilishga o'rgatish, ularni tanqidiy fikrlash jarayoniga tayyorlash;
- ✓ o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida do'stona munosabatning mavjudligi;
- ✓ o'quvchilarni faol, erkin va mustaqil fikrlashga o'rgatishda dunyoga mashxur pedagoglarning (Mariya Montessori maktablari faoliyati, Amonashvili…… texnologiyalar)ni o'rganish va amaliyotda qo'llash.

Xulosa. Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, insonning ijtimoiy faolligini shakllantirish uchun eng qulay yosh - bu boshlang'ich maktab yoshi, chunki bu erda tashabbuskorlik va mehnatsevarlikni, ijtimoiy impulsivlik va ijtimoiy faollikni jadal rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Pas-sivlik bartaraf etiladi. Albatta bu jarayonlar pedagoglarning ta'siri ostida amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. M. Mirziyoyev 2022 yil 22-dekabr kuni Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasi.
2. Aleks Muur. Ta'lim berish va ta'lim olish: pedagogika, ta'lim dasturi va tarbiya. -Rutledj. Ikkinchi nashr. 2012.
3. O. Musurmanova va boshqalar. Umumiy pedagogika 2-qism - T: 2020 y. "Innovatsiya-Ziyo" nashriyoti.
4. Ситаров, В. А. (2009) Проблемное обучение как одно из направлений современных технологий обучения // Знание. Понимание. Умение. №1. С. 148–157.
5. Ситаров, В. А. (2014) Теория обучения. Теория и практика : учебник для бакалавров. М. : Юрайт. 447 с.
6. Ситаров, В. А., Романюк, Л. В., Луговой М. В. (2007) Жизнеспособность «Концепция воспи% тания жизнеспособных поколений» // Сибирский педагогический журнал. №1. С. 134–137.
7. Salokhiddinova Gazalkhon Bekmirzayevna (2018). Social pedagogue's responsibilities in co-operation with a family to increase child sociability. Достижения науки и образования, (19 (41)), 59-61.

Seytmuratov Timur Shamshetovich
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar
fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
pedagogik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

MUSOBAQA SHAROITIDA YOSH FUTBOLCHILARNING TEXNIK TAYYORGARLIGINI O‘RGATISH BOSQICHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada musobaqa sharoitida yosh futbolchilarning texnik tayyorgarligini o‘rgatishning ilmiy va nazariy asoslari shuningdek futbolchilarning texnik tayyorgarligini o‘rgatish uchun namunaviy mashqlarini o‘rganishning amaliy asoslari o‘rganilgan. Bundan tashqari yosh futbolchilarning texnik tayyorgarligini o‘rgatishning vazifasi, usullari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *texnik tayyorgarlik, musobaqa, psixologik uslubiyatlar, ekspert baholash, texnik usullar, morfofunksional, suhbat, psixologik testlar, individuallik.*

ЭТАПЫ ТРЕНИРОВОЧНОЙ ТЕХНИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ В УСЛОВИЯХ СОРЕВНОВАНИЙ

Аннотация. *В данной статье рассмотрены научно-теоретические основы обучения технической подготовке юных футболистов в условиях соревнований, а также практические основы изучения модельных упражнений для обучения технической подготовке футболистов. Далее рассказывается о задаче, методах обучения технической подготовке юных футболистов.*

Ключевые слова: *техническая подготовка, конкурс, психологические методики, экспертная оценка, технические методы, морфофункциональные, разговорные, психологические тесты, индивидуальность.*

STEPS OF TRAINING TECHNICAL PREPARATION OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS IN COMPETITION CONDITIONS

Annotation. *This article explores the scientific and theoretical basis for teaching the technical training of young players in competition conditions, as well as the practical basis for studying model exercises for teaching the technical training of players. In addition, there is talk about the task, methods of teaching the technical training of young players.*

Key words: *technical training, competition, psychological methodologies, expert assessment, technical methods, morphofunctional, conversation, psychological tests, individuality.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi PQ–3031-sonli “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlarito‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-sonli «Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdantakomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, O‘zbekistonRespublikasiPrezidentining 2018-yil 16-martdagi PQ-3610-sonli “Futbolni yanada rivojlantirishchora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrdagi PF-5887-sonli “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqoyangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamdasportsohasiga tegishli qarorlar va o‘tkazilayotgan tub islohotlarning o‘rni judamuhimahamiyatga egadir. O‘quv-mashg‘ulot jarayoni va viloyatlarda bolalar-o‘smirlarjamolalari orasida musobaqalarni past darajada tashkil etish, alohidahududlardajismoniy tarbiya va sport bo‘limlari ishining yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligibilanbog‘liqdir. Bunday kamchiliklar belgilangan, davlat darajasidagi yuqoridabayonetilgan xujjatlar, futbol rivoji uchun imkoniyat yaratmoqda. Musobaqa sharoitida yosh futbolchilarning texnik tayyorgarligini o‘rgatishgabag‘ishlangan sport amaliyoti tajribalari va tadqiqotlar, yangi, anchasamaraliuslubiy yo‘llarni topishni talab qiladi. Ayni vaqtda, sport kurashlarida raqobatni oshib borish tendensiyalarinitavsiflovchi, sportni rivojlanitirish zamoniviy bosqichlari, ilm-fan oldigakelgusidasportchilarni tanlash va ularning tayyorgarligini baholashuslubiyatlari samaradorligini oshirish zaruriyati to‘g‘risidagi savollarni keskin qo‘ymoqda.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy talablar darajasidagi yuqori sport natijalariga erishish, futbol-bilanshug‘ullanish istagidagi har bir bola uchun oson emas. O‘zbekistonningetakchifutbolchilarining biografiyasini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, ular sport yo‘liningavvalida o‘z tengdoshlaridan aniq sifat xususiyatlari bilan ajralib turganlar: yaxshijismoniy rivojlanish, ancha takomillashgan koordinatsiya harakatlar, fikrlashtezligiva jasurlik. Bunday sifatlar saqlanib qolgan va futbolchiningkelgusi sport-takomillashuv faoliyatida maqsadga intilish, mehnatsevarlik, qat’iyat vamatonatnimuntazam tarbiya-lash bilan uyg‘unlashib yuqori natijalarga erishilarigazaminyaratgan (G.Krasniskiy, B.Abduraimov, M.A, V.Fedorov, L.Xadzipanakis,M.Qosimov).

Zamonaviy futbol atletik o‘yin hisoblanadi. O‘yin harakatlariningyuqori tempi,vaziyatlarning tez o‘zgarishi, to‘p uchun kurashda bevosita raqib bilanmuloqot,taktik vazifalarni echishdagi chega-ralangan vaqt, hayajon va uningboshqaxususiyatlari futbolchining harakat, funksional va ruhiy holati-ga katta talabqo‘yadi.Shuning uchun futbol bilan shug‘ullanish uchun bolalarni tanlashmumammola-rini, bolaning harakat, funksional va ruhiy faoliyatiningturlitomonlarini, ularning sport mahoratini shakllantirish jarayonidagi mustaqilrivojlanish xususiyatlarini to‘liq o‘rganmasdan hal qilib bo‘lmaydi.

Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, tanlash – bu bir lahzaliksinovemas, balki tadqiqot-ning pedagogik, psixologik, tibbiy-biologikuslubiyatlariniqo‘llash bilan futbolchilarni sport takomil-lashuvini turli bosqichlardaamalgaoshirish tadbirlarini ko‘p qirraliligini nazarda tutuvchi qat’iy o‘ylanganko‘pbosqichli tizimdir.

Pedagogik uslubiyatlar yosh futbolchilarning sport mahorati xususiyatlarinianiqlash, kuch,tezkorlik, chidamkorlik, epchillik kabi sifatlarni rivojlanishdarajasiva ularning o‘zaro aloqasini o‘rganishga imkon beradi.

Tibbiy-biologik uslubiyatlar, bolalarning funksional xususiyatlarivatizimlarini o‘rganish, ularn-ing oliy asab tizimi faoliyatiningindividualxususiyatlarini aniqlash, morfologik ko‘rsatkichlarni tavsi-flash va baholashuchun juda muhim.

Psixologik uslubiyatlar, futbolchilarning tezkor (taktik) fikrlashxususiyatlarini, o‘yinchilarning jamoadagi psixologik moslashuvi, ularningemotsional barqarorligini aniqlashga yordam beradi.

Musobaqa sharoitida yosh futbolchilarning texnik tayyorgarligini o‘rgatishningdastlabki bos-qichini albatta eng avvalo jamoani shakllantirib olishdanboshlanadi.Buning uchun saralash jarayonini amalga oshirmoq lozimdir. Futbol sport turidasaralash mohiyatiga ko‘ra, bolalar maydonchasida eng epchil bolalarni“topishdan” iborat bo‘lgan. Ancha yuqori darajadagi mashg‘ulotlarga,futbolga o‘yinchilar layoqatini belgilashda, shu sohaga oid ilmiytadqiqotnatijariga tayanish maqsadga muvofiq. Demak, yuqori maxoratgaerishishgakobilyatlilarni topish zarur yoki o‘rtacha qobiliyatli o‘yinchilardan(ular judapuxtatayyorlanganda ham) takomillashuvga faqat yagonalargina erishadilar.

Tahlil va natijalar. Hozirgi paytgacha bizga ko‘p sonli guruhlarning katta tekshiruvini o‘tkazishmumkin bo‘lgan ko‘rik uslubi ma’lum emas. Muammo shundaniboratki,zamonaviy tibbiy ko‘rikda faqatgina kim sog‘lomligini va sportgaloyiqliginianiqlash mumkin. Lekin, bu hali fiziologik ko‘rsatkichlar bo‘yicha futbolgaloyiqdegan javob emas.

Antropometrik jihatlar. Jismoniy tuzilishi bo‘yicha futbolgamoslashuvsavollari hali juda kam o‘rganilgan. Amaliy kuzatuvlar asosida quyidagilarni xulosaqilish mumkin, saralashda jismoniy tuzilish hal qiluvchi hisoblanmaydi. Ammobo‘y,ko‘krak qafasi aylanasi, bo‘ksa hajmi kabi antro-pometrik ko‘rsatkichlarni e’tiborga olish lozim. Maktabga kabul qilinuvchining tana tuzilishi juda muxim. Kuzatuvlardanma’lum bo‘ldiki, jismonan kuchli, baquvvat tana tuzilishiga ega bolalar yukla-malarniancha engil o‘tkazadilar va musobaqalarda yaxshi ishtirok etadilar. Lekin, bundanjismoniy rivojlanishi o‘rtacha yoki kuchsiz bolalar kuchli sport ustalarigachao‘smaydi degan xulosa chiqarish mumkin emas.

Psixologik, pedagogik jihatlar. Saralashda bola xarakteriga hosbo‘lgan,uning aqliy qobili-yatlariga katta ahamiyat beriladi. Tajribalar , birinchi navbatdaaqlli va irodasi kuchli o‘g‘il bolalarni qabul qilish kerakligini tasdiqlaydi.

Jismoniy rivojlanish jihatlari. Ayni paytda, yugurishda yuqori tezkorlikka va katta chidamkor-likkaegafutbolchilar kerak. Shuning uchun, qabul imtihonlarida futbol uchunzarurjismoniy ma’lumotlarni aniqlashga katta ahamiyat beriladi.

Texnik tayyorgarlik jihatlari. Sport maktablari qabul sinovlariga, etarlidarajada texnik ko‘nikmalarga ega bo‘lmagan qobiliyatli bolalar judako‘pkeladi.Bunday vaziyatlarda, murabbiyga kelgusida shunday bolalar bilan isholibborishmumkinligini tezkor aniqlash juda qiyin.

Induksiya metodi bilishning shunday yuliki, bunda ukuvchining fikri birlikdanumumiylikka, xususiy xulosalarda umumiy xulosaga boradi induktivxulosa-xususiydan umumiyga karab boradigan xulosadir. Bu metoddan foydalanibbirorkonuniyatni ochish yo koidani chikarish uchun ukituvchi misollar, masalalar, kursatmali materiallarni puxtalik bilan tanlaydi.Boshlangich sinflarda induksiya-metodi bilan uzviy boglik xolda deduksiya metodidan xam keng foydalaniladi.

Deduksiya metodi bilishning shunday yuliki, bu yul umumiy bilimlar asosidaxususiy bilimlarni beradi. Deduksiya umumiy koidalaridan xususiy misollarga, anikkoidalarga utishdir. Deduktiv xulosalar bir necha xususiy xulosalarning umumiysidir.Shuning uchun bu metod ukuvchilarni uylashga, izlanishga majbur kiladi.

V.P.Filin sport saralashi muammolari ustida uzoq ish olib borib, bolalarnisport maktablariga tanlashni uch bosqichga bo‘ldi.

Birinchi bosqichning asosiy vazifasi, sportga layoqatli, iste’dodli bolalarnivao‘smirlarni ko‘pchiligini sport mashg‘ulotlariga jalb qilish, ularni dastlabki ko‘rigivaboshlang‘ich sport tayyorgarligini tashkil etish hisoblanadi.ko‘pgina sport turlarimashg‘ulotlariga, shu jumladan futbolga bolalarni jalb qilishni maqsadgamuvofiqligini aniqlovchi ko‘rsatkichlarga quyidagilar kiradi: bolaningbo‘yi, vazni,tana tuzilishi.

Ko‘pgina futbolga layoqatlilar ichidan istiqbolilarini tanlashmaqsadidabolalar va o‘smirlarni o‘rganish jarayonida quyidagi savollarga javobberishlozim:

- jismoniy qobiliyatlar rivojida bolalar va o‘smirlarningehtimoldagiimkoniyatlari qanday, har bir o‘smir o‘spirin yoshiga kelib qandayishchanlikqobiliyati darajasiga ega bo‘ladi;
- har bir o‘smir ta’lim jarayonida shaxsiy iqtidor xususiyatlarini qanchaliktez va samarali qo‘llay oladi;
- musobaqa sharoitlarida guruhli texnik-taktik harakatlarganisbatanindividual harakatlarni dasturlash va amalga oshirish, o‘yinvaziyatlarinibaholashda o‘smirlarning orttirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini qanchaliksamarli qo‘llay oladilar;
- raqiblar va sheriklar harakati, voqealar ehtimolini bashorat qilishdao‘smirlarning qobiliyatlari qay darajada;
- har bir o‘smir qanday funksional imkoniyatlar darajasigaerishishimumkin va ularning har birini ulardan keyin tiklanish muhimbo‘lganjismoniy,ruxiy yuklamalarni uddalay olish qobiliyatlari qanday;
- mashg‘ulot va musobaqa jarayonida vujudga keladiganturli noxushomillarga o‘smirning qarshi kurash qobiliyatini qanchalik rivojlanganvatakomillashadimi;
- o‘smirda mashg‘ulot va musobaqa vazifalarini ijodiyhal qilishgaintilishi rivojlanadimi;
- o‘smirda o‘quv va o‘yin faoliyatiga shaxsiy tanqid qobiliyati vaintilishirivojlanadimi;

Musobaqa sharoitida yosh futbolchilarning texnik tayyorgarligini o‘rgatishmezonlarini ishlab chiqishda bir qator omillarni inobatga olish kerakbo‘ladi. Jumladan:

- chuqur tibbiy kuzatuv ko‘rsatkichlar bo‘yicha sog‘liq;
- tupga egalik qilish texnikasi, taktik fikrlash, yuqori darajadagi maxsussifatlarga qobiyat, layoqat, iste’dod va iqtidorning mavjudligi;
- kelgusida maxoratning ma’romlashgan o‘sishi va yoshtermajamoasigacha sport natijalariga erishishga poydevor bo‘luvchi ochiqvayashirinfiziologik, jismoniy va ruhiy zahiralarning mavjudligi;
- intizomlilik, maqsadga intiluvchi, mustaqil, mehnatsevarlik, qat’iyatli,vatanparvarlik, jamoa manfaatiga bo‘ysunishni bilish, mashg‘ulotvamusobaqalarda psixologik va jismoniy yuklamalarga bardoshlilikkabi shaxsiysifatlar va xarakter xususiyatlari;
- maydonda egallagan o‘yin ampluasiga muvofiq maxoratningyuksaktexnik-taktik ko‘rsatkichlari;
- jismoniy va texnik tayyorgarlik bo‘yicha test sinovlariningyuqori ko‘rsatkichlari;

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, musobaqa sharoitida yosh futbolchilarga texniktayyorgarliginio‘rgatishning dastlabki bosqichlari, xususiyatlari va musobaqalargasaralashmuammolariga bag‘ishlangan ishlarni o‘rganib chiqib shunday xulosagakelishmumkin, ayni paytda sport nazariyasi va amaliyotida ilmiy asoslanganyoshfutbolchilarni sport saralash uslubiyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni: (Yangi tahriri) 2015 yil 5 sentyabr.

2. O‘zbekistonda bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasini tuzish to‘g‘risida» Xalq so‘zi . 2002 - 29 oktabr.

3. O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Ishonch gazetasi. 1999, 27 may.

4.Акрамов Р.А.- Игровые и тренировочные нагрузки в футболе. Учебное пособие – Ташкент. Издательство им. Ибн Сино, 2002 г.

5. Харви Г. Дангворт Р. Футбол для начинающих. –М.: ООО “Издательство Астрель”. 2002 г.

6. Нуримов Р.Э. Техника-тактическая и физическая подготовка квалифицированых футболистов. –Т. 2001 г.

7. Титарь В.А. Физическая подготовка. Волейболь. Учебник для института физический культурў, М., ФиС, 1991.

Internet saytlari

1. www.natlib.uz.
2. www.pedagog.uz.
3. www.yangiertohgi.zh.uz
4. www.ziyonet.uz.

Shanazarov Otabek Rahimdjanovich
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti Jismoniy tarbiya va sport
kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: otabek1989@gamil.com

YOSHLAR VA AHOLI O‘RTASIDA SOG‘LOM TURMASH TARZINI YANADA RIVOJLANTIRISHDA OMMAVIY SPORT TURLARINING O‘RNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada inson jamiyatda bilimli, tarbiyali va samarali yashashga xizmat qiladigan ommaviy sport turlarini aholida yanada rivojlantirishning mazmuni va qilingan chora-tadbir ishlari haqida so‘z borgan.*

Kalit so‘zlar: *yoshlar, sog‘lom turmush, sog‘lom turmush tarzi, sport, ommaviy sport, ommaviy sportni rivojlantirish.*

РОЛЬ ОБЩЕСТВЕННОГО СПОРТА В ДАЛЬНЕЙШЕМ РАЗВИТИИ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ МОЛОДЕЖИ И НАСЕЛЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье говорится о содержании и мерах, принимаемых для дальнейшего развития массового спорта среди населения, который служит воспитанию, тренировке и эффективной жизни в обществе.*

Ключевые слова: *молодежь, здоровый образ жизни, здоровый образ жизни, спорт, массовый спорт, развитие массового спорта.*

THE ROLE OF PUBLIC SPORTS IN THE FURTHER DEVELOPMENT OF A HEALTHY LIFESTYLE AMONG YOUTH AND THE POPULATION

Annotation: *This article talks about the content and the measures taken to further develop mass sports in the population, which serve the educated, educated and productive life of a person in the society.*

Key words: *youth, healthy life, healthy lifestyle, sports, public sports, development of public sports.*

Kirish. O‘zbekistonda “Pandemiyani sport orqali engamiz!” g‘oyasini o‘zida mujassam etgan O‘zbekiston Respublikasida 2020-2021-yillarda sport siyosatini jadallashtirish dasturi hamda O‘zbekiston Respublikasida 2021-2025-yillarda aholini jismoniy tarbiya va sportga keng jalb qilishning maqsadli ko‘rsatkichlari qabul qilindi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.10.2020-yildagi PF-6099-sonli farmonida “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida[1]” farmonida aytilgan. Farmonda;



❖ har bir oila, mahalla va tuman (shahar)da, maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim muassasalarida hamda boshqa tashkilotlarda jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug‘ullanishga shart-sharoitlar yaratish;

❖ ommaviy sportni rivojlantirish bo‘yicha oilalar, sinflar, mehnat jamoalari va hududlar o‘rtasida sport musobaqalarini muntazam ravishda o‘tkazish;



❖ Respublikada aholi o‘rtasida ommaviy sportni rivojlantirish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda — yurish, yugurish, mini-futbol, velosport, badminton, stritbol, “Workout” (mahalla va ko‘cha fitnesi) sportning ustuvor turlari etib belgilansin;

❖ yurish, yugurish, mini-futbol, velosport, badminton, stritbol va “Workout” sport turlarini ommaviylashtirish va rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun Davlat budjetidan 2021-yildan boshlab dasturlar to‘liq bajarilgunga qadar har yili 104 milliard so‘mdan[2].

Ushbu qaror asosida respublikada aholi o‘rtasida ommaviy sportni rivojlantirish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishning ustuvor yo‘nalishlari etib – sportning yurish, yugurish, mini futbol, velosport, badminton, voleybol, stritbol, fitnes, “Workout” — mahalla (ko‘cha) fitnesi turlari belgilangan.

Quyidagi sport turlarini respublikaning har bir tuman va shaharlarida ommaviylashtirish va rivojlantirish bo‘yicha:

✓ yurish va yugurish – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik Kengashi (V.Mahmudov);

✓ mini futbol – Davlat xavfsizlik xizmati (A.Azizov);

✓ velosport – Oliy Majlisi Senati (T.Norboyeva);

✓ badminton – Vazirlar Mahkamasi (A.Abduhakimov);

✓ voleybol – Jismoniy tarbiya va sport vazirligi (D.Nabiyev);

✓ stritbol – Adliya vazirligi (R.Davletov);

✓ fitnes va “Workout” – Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi (R.Mamatov) shaxsan mas’ul etib belgilanmoqda.



O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi bilan birgalikda 2021-yildan boshlab:

a) yil davomida aholi, shu jumladan yoshlar o‘rtasida 4 bosqichli (mahalla, tuman (shahar), viloyat, respublika) yurish va yugurish, badminton, mini futbol, velosport, voleybol, stritbol, “Workout” bo‘yicha "Sog‘lom oila – yangi O‘zbekiston tayanchi!" shiori ostida sport musobaqalarini;

b) har yili yanvar oyida qishki sport turlari bo‘yicha “Chimgan challenge”, mart oyida “Tashkent Marathon” xalqaro marafoni, aprel oyida milliy va xalq o‘yinlari bo‘yicha “Boysun bahori” festivali, may oyida badminton bo‘yicha “Uzbekistan Shuttle”, iyun oyida Xalqaro olimpiya kuniga bag‘ishlab “Olimpiya oyligi” sport tadbirlari, avgust oyida “Save Aral” xalqaro velomarafoni, sentyabr oyida “Oqtosh-Charvoq mountains” xalqaro velo turniri, oktyabr oyida “World Strongmen CUP” va “Etnosport challenge” xalqaro turniri, oktyabr oyida “Save Aral” xalqaro marafoni, ko‘p bosqichli “Yangi nafas” xalqaro yugurish sport musobaqalari, sentyabr-noyabr oylarida futbol bo‘yicha “Maktablar ligasi”, “Charm to‘p”, “Rahbar kubogi”, “Mahallada futbol” musobaqalarini;

v) “Jismoniy tayyorgarlik darajasi” sport sinovlarini aholining keng qatlamlari barcha qatlamlari o‘rtasida mart-noyabr oylarida tizimli tashkil etilishini ta’minlashi belgilangan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Prezidentning 11.04.2022-yildagi “Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-201-son qarori qabul qilindi[3].

Quyidagilar ommaviy sportni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilandi:

- mahallalarda yoshlarning ommaviy sport bilan shug‘ullanishlari uchun moddiy-texnik bazani mustahkamlash va sport inshootlarini zamonaviy sport jihozlari bilan ta’minlash, shuningdek, imkoniyati cheklangan yoshlar uchun tegishli sport infratuzilmasini yaratish;
- aholining keng qatlamlari, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ular o‘rtasida ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish orqali yoshlarning ommaviy sportdagi ulushini oshirish;
- ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanuvchi oilalarga mahallalar va istirohat bog‘larida sharoit yaratish va oilaviy sportni rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish;
- ommaviy sport tadbirlari davomida o‘quvchilari g‘olib va sovrindor bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari va sport-ta’lim muassasalarining trenerlari mehnatini munosib rag‘batlantirishva ularning faoliyat olib borishi uchun sharoit yaratish.

Yuqoridagi bir qancha Hujjat bilan Mahallalarda yoshlar o‘rtasida ommaviy sportni yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. 2022-yildan dan boshlab har yili an’anaviy tarzda 30 iyun - O‘zbekiston Respublikasi yoshlari kuni hamda dekabr oyida o‘tkaziladigan “Yoshlar forumi” doirasida sportning futbol, mini-futbol, voleybol, engil atletika, shaxmat, shashka, stol tennisi, stritbol, vorkaut turlari bo‘yicha besh bosqichli ommaviy sport musobaqalarini o‘tkazish tizimi joriy etiladi:

- birinchi bosqichda - ko‘chalararo mahalla musobaqalari;
- ikkinchi bosqichda - mahallalararo sektor musobaqalari;
- uchinchi bosqichda - sektor musobaqalarida g‘olib bo‘lgan mahalla jamoalari o‘rtasida tuman (shahar) musobaqalari;
- to‘rtinchi bosqichda - tuman (shahar) musobaqalari g‘olib mahalla jamoalari o‘rtasida viloyat musobaqalari;
- beshinchi bosqichda - viloyat musobaqalarida g‘olib bo‘lgan mahalla jamoalari o‘rtasida respublika (final) musobaqalari.

2023-yil 1-martdan boshlab olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari bo‘yicha uch bosqichli umumrespublika sport musobaqalari o‘tkazilmoqda.

Natija va ilmiy yangilik. Bundan tashqari yuqorida ko‘rsatilgan musobaqalar davomida g‘oliblarni tayyorlagan maktablarning *jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari va sport-ta’lim muassasalarining trenerlari malaka attestatsiyasiga jalb etilmaydi va ularga quyidagi malaka toifalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri beriladi*:

- tuman (shahar) bosqichi musobaqalarida g‘olib va sovrindorlarni tayyorlagani uchun - ikkinchi malaka toifasi;
- viloyat bosqichi musobaqalarida g‘olib va sovrindorlarni tayyorlagani uchun - birinchi malaka toifasi;
- respublika (final) bosqichida g‘olib va sovrindorlarni tayyorlagani uchun - oliy malaka toifasi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ommaviy turlari juda ko‘p. Bu turlarni sportchilar insonlar yillar davomida o‘z hayotida qo‘llasa, yanada sog‘lom, aqlli va ijtimoiy hayoti ham farovonlashib boraveradi. Ta’lim tizimida ham talabalarga ommaviy sportning usullarini o‘rgatish uchun ularga nazariy ma’lumotlar beriladi va shu nazariyani amaliyotda o‘rgatiladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.10.2020-yildagi PF-6099-sonli farmonida “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to ‘g ‘risida” gi Qonun., Toshkent; 2015y.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368 sonli Farmoni. 2018-yil 5-mart.

4. Махмудов Э.А., Аблаева Э.С., Тимашева А.Р., Экономика и менеджмент в спорте. Методическое пособие, УзГИФК 2008 г.

Shaniyazov Rashid Janabayevich
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Shaniyazov Ilxam Rashidovich
Qoraqalpoq davlat universiteti assistent o‘qituvchisi Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi kafedrasi

YOSH FUTBOLCHILARDA TEZKORLIK SIFATINI HARAKATLI O‘YINLAR YORDAMIDA SHAKLLANTIRISH SAMARADORLIGI PEDAGOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yosh futbolchilarda tezkorlik sifatini harakatli o‘yinlar yordamida shakllantirish samaradorligi pedagogik ahamiyati hamda, futbolchilarda jismoniy va texnik tayyorgarlikni takomillashtirishda turli zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish orqali ularning jismoniy sifatini rivojlantirish borasida fikr mulohazalar olib borilgan. Bundan tashqari malakali futbolchilarni tarbiyalashda jismoniy va funktsional tayyorgarlik ahamiyati o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *futbol musobaqalari, psixologik xususiyatlar, individual xususiyatlar, jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, gigiena, chiniqish, xotira, tasavvur.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ КАЧЕСТВА БЫСТРОТЫ У ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ С ПОМОЩЬЮ ПОДВИЖНЫХ ИГР ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация. *В данной статье рассмотрена педагогическая значимость эффективности формирования скоростных качеств у юных футболистов с помощью подвижных игр, а также развитие их физических качеств посредством использования различных современных технологий в совершенствовании физической и технической подготовки игроков. Кроме того, было изучено значение физической и функциональной подготовки в обучении квалифицированных игроков.*

Ключевые слова: *футбольные соревнования, психологические особенности, индивидуальные особенности, физическое развитие, физическая подготовка, гигиена, закаливание, память, воображение.*

PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF THE EFFECTIVENESS OF THE FORMATION OF THE QUALITY OF SPEED IN YOUNG PLAYERS WITH THE HELP OF ACTION GAMES

Annotation. *This article focused on the pedagogical importance of the effectiveness of the formation of the quality of speed in young players using action games, as well as the development of their physical quality through the use of various modern technologies in improving physical and technical training in players. In addition, the importance of physical and functional training has been studied in the education of qualified players.*

Key words: *football competitions, psychological characteristics, individual characteristics, physical development, physical fitness, hygiene, temperance, memory, imagination.*

Kirish. O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlanishi ayniqsa Respublikamizning mustaqilligidan keyingi davrida jadal rivojlandi. Bunga O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportga oid qabul qilingan qator hujjatlari:

- “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun (14-yanvar 1992-yil. Yangi taxriri 2000-yil 26-may va ohirgi qabul qilingan Qonun 5-sentyabr 2015-yil),
- Ta’limto‘g‘risidagi qonun (29.08.1997-yil, 2020-yil yangi tahriri ko‘rib chiqilgan) Bu hujjatlarda bolalar jismoniy tarbiyasini yanada yaxshilash zarurligi yana bir bor ta’kidlandi.

Yoshlarni milliy tiklanish mafkurasi asosida tarbiyalash va umuminsoniy qadriyatlarni anglatish, Vatanga muhabbat, mustaqillik g‘oyasiga sadoqat ruhida o‘qitish va tarbiyalash jamiyatda yosh avlodni jismoniy jihatdan sog‘lom, baquvvat, xushchaqchaq qilib, mehnatga va Vatanni himoyasiga tayyorlashdan davlatimiz juda manfaatdorligi takidlab o‘tilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan «O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va tamoyillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi qaror ham qabul qilinganki, unda mamlakatimizda futbolni rivojlantirishning tashkiliy hamda moliyaviy jihatlari ko‘zda tutilgan. Mana shu qabul qilingan barcha normativ hujjatlar oliy o‘quv yurtlarining professor o‘qituvchilari oldiga davr talabiga javob bera oladigan ta’lim mazmunini, o‘qitishning yangi metodlarini ishlab chiqish, hamda uzluksiz ta’lim tizimi bo‘g‘inlarini malakali kadrlar bilan ta’minlash va O‘zbekistonda sport turlari bo‘yicha zahira kadrlarini tayyorlash vazifalarini qo‘ydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Malakali sportchilarni tarbiyalashda jismoniy va funktsional tayyorgarlkning o‘rni.

Ma’lumki, faoliyati qanday maqsad va mazmun yoki qaysi yo‘nalishda ijro etilmasin uning prirovord unumdorligi harakat samaradorligi esa o‘z navbatida muvofiq jismoniy sifatlar, harakat malakalari, ko‘nikmalari va albatta organizmning funktsional imkniyatlariga asoslanadi. Kundalik harakat xajmi va shiddati inson salomatligi, uning jismoniy va funktsional shakllanishida muhim ahamiyatga egadir. Lekin barcha harakat turlari jumladan sport to‘garaklarida ijro etiladigan jismoniy va texnik-taktik mashqlar xajmi hamda shiddati shug‘ullanuvchining funktsional imkoniyatlariga mos kelishi yoki hiyolgina yuqori bo‘lishi lozim. Chunki, biologiya fanida azaldan o‘z isbotini topgan qonuniyatlarga ko‘ra, ontogenetik taraqqiyotining muayyan bosqichlarida bajariladigan kundalik jismoniy yuklama (nagruzka) ning yalpi ta’sir «kuchi» organizmning funktsional imkoniyatlaridan doimo yuqori bo‘lsa, shu organizmda (organlar, mushaklar, tomirlar, xujjatlar, to‘qimalar, yurak, o‘pka, taloq, jigar va h.) zo‘riqish yoki tez toliqish alomatlari paydo bo‘ladi. Bunday salbiy «izlar» odamning, ayniqsa bolaning odatiy funktsional faoliyatini izdan chiqaradi, kayfiyatni tushiradi, uykuni buzadi, pirovardida ish kobiliyatini susaytiradi va uni to‘liq tiklanishiga to‘sqinlik qiladi.

Agar shunday yuklamalar ustunligi bola faoliyatida surunkali qaytarilib tursa, organizmning nrafaqat normal o‘sishiga ta’sir etishi mumkin, balki ushbu yuklamalar ustunligi turli funktsional «ob’ekt» larda lokal yoki global patologik asoratlar paydo bo‘lishiga sababchi bo‘lishi ehtimoldan holi emas.

T.S.Usmanxo‘jayev va F.Xo‘jayev (1992) lar turli yo‘nalishda (balandga, diagonal, uzunlikka, yonga orqaga) sakrash ko‘nikmasini shakllantiruvchi ko‘pdpn-ko‘p mashqlar ahamiyatini ochib berishgan. Ayniqsa ularning «To‘siqlardan oshib o‘tish» «Aylanchalardan sakrash», «Do‘ngdan-do‘ngacha sakrash», «Kengurular», «Arg‘amchi bilan sakrash», «Chambarchak ustidan sakrash», oyoqlarga qop kiyib turli o‘yinlarni o‘ynash kabi harakatli o‘yinlari sakrovchanlik va sakrash chidamkorligi sifatlarini rivojlantirishda juda «qo‘l» keladi.

Jismoniy tayyorgarlik va uning salohiyatini ifoda etuvchi kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik va egiluvchanlik kabi sifatlar ilmiy ob’ekt sifatidan azaldan ko‘pdan-ko‘p tadqiqotchi olimlar diqqatini jalb qilib kelgan. (L.P.Matveyev, 1999; V.P.Platonov, 1997; M.A.Godik, 2005; Yu.V.Verxoshanskiy, 1988). Ularning tadkiqotlarida jismoniy sifatlarning mohiyati, mazmuni, ularni jismoniy tarbiya va sport hamda boshqa jarayonlardagi ahamiyati va rivojlantirish muammolari atroflicha yortilgan.

Ushbu muammolari turli yoshdagi o‘kuvchi yoshlar va bolalar sporti misolida o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar natijalari ham talaygina ilmiy nashrlarda o‘z ifodasini topgan (V.P.Filin, 1974, 1980, 1987; Ye.V.Fomin, 1986; L.V.Volkov, 2002; V.N.Kuris, 2004; M.Ya.Nabatnikova, 1982; Yu.D.Jeleznyak, 1973, 1978; Yu.N.Kleshev, A.G.Furmanov, 1979; M.I.Perel`man, 1969).

Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarida qullaniladigan asosiy maqsad –sog‘liqni mustahkamlash hamda yuqori sport natijalariga erishish avvalom bor yoshlikdan boshlab umumiy jismoniy sifatlarni rivojlantirish muhimligiga e’tibor qaratadi. Aksariyat olimlarning ta’kidlashicha, muayyan sport turi bo‘yicha muntazam o‘tkazilib boriladigan hamda hajm, shiddat va mazmun jihatdan to‘g‘ri tashkil qilingan mashg‘ulotlar bolalar va o‘smirlar organizmiga ijobiy ta’sir ko‘rsatar ekan. Lekin, umumiy jismoniy tayyorgarlikka asoslangmagan jismoniy tayyorgarlikka asoslanmagan va tor doirada ixtisoslashtirilgan mashg‘ulotlar salbiy oqibatlarga olib kelishi kuzatilgan (G.M.Kukolevskiy, N.D.Graevskaya, 1971; V.P.Filin, 1987; M.Ya.Nabatnikova, 1982; L.V.Volkov, 2002; V.N.Kuris, 2004; T.S.Usmanxo‘jayev va 2006; Yu.M.Yunusova, 2005; S.V.Xrushyov, M.M.Krugliy, 1982).

Bugungi futbolchi bo‘yi jihatdan 175-190 sm, harakatchan, tezkor, sakrovchan, ziyrak, zukko, tez fikrlovchi, o‘tkir zehnli, maydonda ro‘y beradigan vaziyatni tez fahmlab «foydali» javob qaytara oladigan ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi kerak. Sportchilarning yoshiga, tayyorgarligiga, malakasiga,

hamda sport trenirovkasi davriga va vazifalariga qarab jismoniy tayyorgarlikni mazmuni, hajmi va shiddati turlicha bo‘ladi.

Bugungi futbolchi bo‘yi jihatdan 175-190 sm, harakatchan, tezkor, sakrovchan, ziyrak, zukko, tez fikrlovchi, o‘tkir zehnli, maydonda ro‘y beradigan vaziyatni tez fahmlab «foydali» javob qaytara oladigan ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi kerak. Sportchilarning yoshiga, tayyorgarligiga, malakasiga, hamda sport trenirovkasi davriga va vazifalariga qarab jismoniy tayyorgarlikni mazmuni, hajmi va shiddati turlicha bo‘ladi.

Jismoniy tayyorgarlikning vazifalari qo‘yidagilardan iborat:

1. Sog‘liqni mustaxkamlash.
2. Xayotiy - zarur harakat malakalarini takomillashtirish (yurish, chopish, sakrash va hokazo).
3. Harakat sifatlarini rivojlantirish.
4. Harakat malakalari hajmini oshirish va ularning ijro etish doirasini kengaytirish.
5. Organizmning o‘yin davomida ishtirok etuvchi organ, bo‘lim va mushak guruhlarining funktsiyalarini shakllantirish.
6. O‘yin malakalarini samarali o‘zlashtirishni ta’minlovchi maxsus sifatlarni rivojlantirish.

Harakat malakalari jismoniy sifat va qobiliyatlar asosida amalga oshirilaldi. Binobarin, jismoniy va texnik-taktik tayyorgarlik bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Shunday ekan bu ikki turdagi tayyorgarlik jarayonini nazorat qilib turish o‘quv- trenirovka mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil qilish imkoniyatini yaratadi.

Shug‘ullanuvchining jismoniy tayyorgarligi sport faoliyati uchun zarur bo‘lgan jismoniy si-fatlarni tarbiyalashdan iboratdir. Yosh futbolchilar bilan ishlashdagi dastlabki tayyorgarlik bosqichida har tomonlama jismoniy tayyorgarlikni egallashga, sog‘liqni mustahkamlash, hilma-hil ko‘nikma va malakalarni egallab olishga, voleybol o‘yini texnikasi va taktikasining boshlang‘ich asoslariga o‘rgatishga qaratilgan vositalar kompleksidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tahlil va natijalar. Pedagogik nazorat shug‘ullanuvchilarning jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligini aniqlashning asosiy shaklidir. Pedagogik nazorat trener va shifokor tomonidan olib boriladi. Bunda o‘tkazilgan mashg‘ulotlarning mazmuni, hajmi va shiddati xisobga olinadi hamda trenirovka rejalarining bajarilishi tahlil qilinadi. Qo‘yidagilarni tahlildan o‘tkazish tavsiya etiladi.

- jamoalarning trenirovka rejalari va ularning bajarilishi;
- mashg‘ulot vositalari, shakllari va uslubiyati hamda ularning mashg‘ulotlarda qo‘llanilishi;
- shug‘ullanuvchilar jismoniy sifatlarining qay darajada oshganligi, texnika va taktikasidagi o‘zgarishlar;
- shug‘ullanuvchilarning sog‘ligi va funktsional imkoniyatlarining o‘zgarishi.

Jismoniy tayyorgarlikni aniqlash uchun nazorat mashqlari:

1. Yugurish 30; 60 metrlarga
2. Estafera yugurishlari
3. To‘siqlar osha yugurish
4. Mokisimon yugurishlar 20
5. Kross yugurishlar
6. Turgan joyida uzunlikka sakrash va ko‘p sakrashlar
7. Turgan joyidan balandlikka sakrash
8. Yugurib kelib uzunlikka va balandlikka sakrash
9. Irg‘itishlar (koptok, to‘ldirma to‘p, nayza, granata)

Jadva-1

Yosh futbolchilar tayyorlashdagi zamonaviy uslub va vositlardan foydalanish (M.A. Godik).

Yosh	Yangicha tashkil qilish. Tayyorlashning vosita va metodlari	Mavjud ishlar.
8-10	Barcha sport vositalaridan, birinchi navbatda futboldan foydalangan holda sport o‘yinlari uchun tayyorgarlik (o‘yin shaklida).	Futbolda boshlang‘ich ixtisoslashish. Asosanstandart holatlardan foydalanish, tanlab olish mahoratga qarab emas, balki o‘yinlar va jismoniy tayyorgarlik testlari natijalariga qarab bo‘ladi.
11-12	Futbolda boshlang‘ich xtisoslashish. Alohida o‘yin mashqlari yiliga 23-35 o‘yindan ko‘proq	Standart mashqlardan foydalangan holda dastlabki tayyorgarlik. Yiliga 30-40 o‘yin.
13-14	Futbol texnikasi va taktikasini diqqat bilan o‘rgatish. Alohida standart mashqlari 50% dan ortadi, yiliga 15-20 o‘yin.	O‘rgatishni o‘yin amaliyoti bilan qo‘shib olib borish. Yiliga 30-45 o‘yin.

15-16	O‘rgatishni o‘yin amaliyoti bilan olib borish. Turli xil o‘yin va standart mashqlar hajmi. Yiliga 25-35 o‘yin.	faol o‘yin amaliyoti

Futboldagi texnik va taktik harakatlarga o‘rgatish vazifalari bosqichlariga qat’iy rioya qilgan holda (tanishtirish, o‘rgatish, takomillashtirish) asosiy qismda xal etiladi. Texnik va taktik harakatlarga o‘rgatishda tayyorlov, yondoshtiruvchi mashqlar kompleksidan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mashg‘ulotlarning yakuniy qismida harakat shiddatini asta-sekin kamaytirish, bajarilgan ishni shug‘ullanuvchilar tomonidan tahlil qila bilishga erishish juda muhimdir. Uy vazifalariga alohida e’tibor berish kerak. Mashg‘ulot mustaqil bajariladigan mashqlar bilan to‘ldiriladi. Futbol mashg‘ulotlarini o‘tkazish joylarini tanlash ham muxim ahamiyatga ega. Mashg‘ulotlarni mumkin qadar ochiq havoga olib chiqish imkoniyatidan to‘la foydalanish kerak. To‘g‘ri, ochiq maydonchada shug‘ullanuvchilarga rahbarlik qilish qiyin bo‘ladi. Ba’zan, qo‘yosh, shamol, shug‘ullanuvchilar e’tiborini chalg‘itadigan predmetlar dars o‘tkazishga halal berib turadi. Ammo ochiq havoda o‘tkazilgan mashg‘ulotlarda ish qobiliyati oshadi va bu mashg‘ulotlar chiniqishga, sog‘liqni mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa va tavsiyalar.

Turli xil sharoitida futbol to‘garagini tashkil qilish va yosh voleybolchilarni tayyorlash o‘ziga xos xususiyatga egadir. Jumladan, ushbu sport turi bo‘yicha kelajakda yaxshi natijalarga erishish uchun bolalarning jismoniy tayyorgarligiga alohida ahamiyat qaratishni taqozo etadi. Yaxshi rivojlangan tezkorlik sifatlariga ega bo‘lmagan bolalar futbolda yuqori mahorat ko‘rsata olmaydilar. SHu bilan bir qatorda tezkorlik-kuch sifatini faqat an’anaviy-standart mashqlar yordamida rivojlantirish kam samarali bo‘ladi. Mutaxasis-olimlarning fikriga ko‘ra, jismoniy sifatlarni muayyan sport turi xususiyatiga moslab rivojlantirish maxus moslashtirilgan harakatli o‘yinlar yordamida yanada unumliroq amalga oshishi mumkin ekan. Yoshlarda jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarning asosiy hajmi o‘yin vositalaridan iborat bo‘lishi muhim va bunday vositalar zaif rivojlangan mushaklar hamda tayanch harakat tizimlarini shakllantirishga qaratilishi kerak. Ushbu o‘yin mashqlarini quyidagi tartibda qo‘llash maqsadga muvofiqdir: avval «kim to‘g‘riroq ijro etadi», «kim aniqroq», so‘ng «kim tezroq», «kim ko‘proq». O‘yin mashqlariga shunday yondashish harakat malakalarini shakllanish sur’atini jadallashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. “O‘zbekiston” NMIU, 2016-y.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent “O‘zbekiston” – 2017-y.
3. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
4. Akramov R.A., Talibdjanov A. – V kn. “Yuqori malakali futbolchilarni tayyorlash”. Tashkent – 1994-y.
5. Клеыев Ю.Н., Годик М.А., Айрапетьянц Л.Р. Содержание и организация комплексного контроля в подготовке волейболистов высших разрядов, Методические рекомендации, М., 1981.
6. Титарь В.А. Физическая подготовка. Волейболь. Учебник для института физический культурў, М., ФиС, 1991.
7. Yuldosheva R. O‘zbek xalq o‘yinlari - tarbiyaviy axamiyati.T: «O‘qituvchi» 1992
8. Abdumalikov R., Yunusov T.T., Yarashev K.D., Mamadiyorov A.K., «O‘zbekiston jismoniy tarbiya ta’limining rivojlanishi» O‘zDJTI nashriyoti, T.,1992.
9. Акрамов Р.А.- Игровые и тренировочные нагрузки в футболе. Учебное пособие – Ташкент. Издательство им. Ибн Сино, 2002 г.

Internet saytlari

1. www.natlib.uz.
2. www.pedagog.uz.
3. www.yangiertohgi.zh.uz

Rajabov To‘xtasin Ibodovich
Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va
madaniyat kafedrasi professori,
pedagogika fanlari doktori (DSc)

O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQLARINI O‘RGATISH DOLZARB METODIK MUAMMO SIFATIDA (BUXORO XALQ QO‘SHIQLARI MISOLIDA)

Annotatsiya. *Maqolada umum o‘rta ta’lim maktablarining musiqa darslarida o‘tiladigan xalq qo‘shiqlari ularni ijro uslublaridan foydalanish va Buxoro bolalar folklor qo‘shiqlari o‘rgatishning metodik uslublari hamda bu qo‘shiqlar orqali bolalarni ona vatani uning qo‘shiqlariga bo‘lgan mexrini ortirish va ularning taxlili haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Kuy, qo‘shiq, ijro, xalq ijodi, Buxoro bolalar folklori ijrosi, maxalliy uslub, ta’lim va tarbiya, taxlil.*

ОБУЧЕНИЕ УЗБЕКСКИМ НАРОДНЫМ ПЕСНЯМ КАК МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА (НА ПРИМЕРЕ БУХАРСКИХ НАРОДНЫХ ПЕСНЕЙ)

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы использования народных песен на уроках музыки в общеобразовательных школах, методические приемы преподавания Бухарских детских народных песен, а также анализ любви детей к песням своей Родины через эти песни.*

Ключевые слова: *Мелодия, песня, исполнительское народное творчество, исполнение Бухарского детского фольклора, местный стиль, образование и воспитание, анализ.*

TEACHING UZBEK FOLK SONGS AS A METHODOLOGICAL PROBLEM (BY THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLK SONGS)

Abstract. *The article discusses the use of folk songs in music lessons in secondary schools, methodological techniques for teaching Bukhara children's folk songs, as well as an analysis of children's love for the songs of their Motherland through these songs.*

Key words: *Melody, song, performance folk art, performance of Bukhara children's folklore, local style, education and upbringing, analysis.*

Kirish. Ijtimoiy–siyosiy mustaqillikni qo‘lga kiritgan O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyot yo‘lini tanlab oldi. Milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, demokratik tamoyillarga asoslanuvchi mazkur taraqqiyot yo‘li insonparvar, demokratik va huquqiy jamiyatni barpo etish yo‘li sifatida e’tirof etilgan. Fuqarolik jamiyatning bunyod etilishi, eng avvalo, ushbu jamiyatda yashayotgan fuqarolarning ma’naviy–ahloqiy jihatdan yetuk, yuksak darajadagi aqliy salohiyatga ega ekanliklariga bog‘liq bo‘ladi. Zero, fuqarolik jamiyatida amal qiluvchi ijtimoiy me’yorlar aynan mazkur jamiyatda istiqomat qiluvchi shaxslar tomonidan yaratiladi, asoslanadi hamda amal qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 4-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmonlari, 2018-yil 1-noyabrdagi “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi PQ-3990-son qarori, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-sonli “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktyabrdagi “2010-2020-yillarda Nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VMQ №222-son qarori**,** Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son qarori hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

O‘zbekiston Ruspublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ta’lim tizimida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi boshqa o‘quv fanlar qatori «Musiqa madaniyati» predmetning o‘qitilishini ham tubdan yangilanib kelganidek, ularni yanada takommillashtirishbi taqozo etmoqda.

«Musiqa ma'daniyati» o'quv predmeti o'quvchilarning ma'naviy, badiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishda, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijobiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqil va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Barcha o'quv fanlar qatori musiqiy ta'lim ham davlat ta'lim standartining joriy etishi milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonni beradi. Bular; ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatida o'z aksini topdi.

Musiqa ta'limidan davlat ta'limi asosida yangi ta'lim mazmunida o'quvchining musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ularga ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi hislatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi. Milliy g'oya va mafkura o'z mazmunida ma'naviy va madaniy me'rosimiz, milliy qadriyatlarimizni mujassam etadi. Madaniy va ma'naviy meros avlod-ajdodlarimiz tomonidan yaratilib bizgacha etib kelgan bebaho xazinadir. Unda yosh avlod tarbiyasida foydalanish, shu orqali ularni ona vatanga, xalqimiz tarixi, tili, madaniyati, urf-odat va an'analariga muhabbat ruhida tarbiyalash ta'lim tizimi oldidagi o'z dolzarbligini yo'qotmaydigan vazifalardandir.

O'zbek xalq musiqa merosi xazinasida kattalar bilan kichik yoshdagi bolalar ma'naviy dunyosini o'zida uyg'unlashtirgan, bolalalar folklor musiqa asarlari, bolalar qo'shiqlari ham muhim o'rin tutadi. Bunday qo'shiqlar o'zida bolalar hayoti, ruhiyati, bolalarga xos turli o'yinlar, aytishuvlar, hayvonot va o'simliklar tabiat hodisalari bilan bog'liq holatlarni o'ziga xos ifoda etishi bilan ajralib turadi. Bolalar qo'shiqlari ham xalq musiqasining ommaviy turlari singari badiiy va g'oyaviy mazmunga ega bo'lib, matni sodda, nihoyatda ixcham, o'yin-raqsbop xarakterga egaligi bilan o'ziga xoslik kasb etadi.

O'zbek musiqa folklorida vatan, tabiat, insoniy fazilatlardan halollik, mehnatsevarlik, to'g'rilik, vatanga, ona tabiatga, insonga mehr-muhabbat, shuningdek, tinchlik, adolat tarannum etiladi, salbiy illatlarga tanqidiy munosabat o'z aksini topgan ayni shu jihatlari bilan milliy tarbiyaning mazmuniga mosdir. Endilikda o'zbek musiqa folklorini musiqa-pedagogika o'quv dasturlariga, havaskorlik to'garaklari faoliyatiga olib kirish, shu orqali yoshlarning estetik dunyoqarashlarini shakllantirish bugungi kunning ijtimoiy talabidir.

Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida bolalar tafakkuriga xos, ko'proq o'yin bilan bog'liq Buxoro bolalar folklor qo'shiqlarini, kuy va engil aytimlarni o'rgatish musiqa ta'limining milliy asosini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Demak, musiqa darslarida xalqimizning milliy musiqa merosi tarkibidagi Buxoro bolalar folklor qo'shiqlaridan maqsadga muvofiq holda foydalanish, ularni ijro etish uslublarini uning maqsad va sheva ma'nosi e'tiborga olgan holda tadbiq etish har bir musiqa o'qituvchisidan o'ziga xos pedagogik yondoshuv, bilim malaka va mahoratni talab qiladi. Bolalar uchun maxsus yaratilgan bu qo'shiq kishi ongiga ona suti bilan kiradi. Keyin-chalik u tobora kengayadi, rang-barang ohanglar, xilma-xil ramzlar so'zlar bilan mukammallashib bo-radi.

Farzand tug'ilishi, chaqaloqning beshik davri, ulg'ayishi, jismoniy va nutqiy barkamolligi, yosh va sunnat to'ylari, ulg'ayish ehtiroslari bilan bog'liq aytim-olqish, erkalama, ovutmachoq, qichiqmachoq, yalinchoq, hukmlagich, chalg'itma, chorlama, guldur-gup, sanama, aytishma, tegish-machoq, masxaralamalardan iborat butun bir bolalar qo'shiqlari tizimi yaratilgan

Biz bilamizki, O'zbekiston Respublikasi beshta maxalliy uslublarga bo'lingan bo'lib bular: Buxoro - Samarqand, Qashqadaryo - Surxondaryo, Farg'ona-Toshkent, Xorazm va Qoraqalpoq voxa uslublaridir. Bu vohalar urf odatlari, an'analari, to'y marosimlari, qo'shiqlari sheva va ijro uslublari bilan bir - biridan farq qiladi.

Bunga misol Buxoro bolalar folklor qo'shiqlari o'zining o'ynoqi va sho'xchan xazil lapar ay-tishuvlari, raqslar,jumboqlar, chistonlar(nima u?) bilan boshqa vohalardan farq qilib, asosan ikki tilda ijro etiladi(ham o'zbek ham tojik).

Buxoro bolalar folklor qo'shiqlariga misol:

1. Qo'shiq Bobojon
2. Qo'shiq axu-axu
3. Xalq o'yini Zanjira boftem
4. Xazil qo'shiq CHi guym shudas
5. Qo'shiq Buzg'ola
6. Xalq o'yini Sandurchayi quticha
7. Qo'shiq Voy poyam

8. Qo‘shiq lapar Solinav Muborak
9. Qo‘shiq aytishuv Dupar gazit
10. Qo‘shiq.Uchturbachamon

Bobojon qo‘shig‘i

Bolalar uzoqdan boboni ko‘rib qoladilar va unga yaqinlashadilar, salom beradilar keyin undan ertak aytib berishni iltimos qiladilar. Bobo ko‘nmaydi, zo‘rg‘a uni ertak aytib berishga ko‘ndiradilar.

N-t
Bobo bobo peshtar bet,
Damo yaktet ushug gued
Bobo-bobo bobochae
Falak-falak zomichae.
Nukra-nukra namakdone
Tillo –tillo so‘zandone.
N-t:
Bobo bobo peshtar bet,
Damo yaktet ushug gued
Kashvak- kashvaki surxane
Da poyga – poyga moname
Salli-Sali simobine
Da buxcha-buxcha moname.
N-t:
Bobo bobo peshtar bet,
Damo yaktet ushug gued

Hamma Bobojon ertak aytib bering.

Shu tariqa o‘yin va qo‘shiqlar ijro etilib, bir-biriga ulanib ketadi. Maktabda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalq musiqasi va shu o‘rinda Buxoro bolalar folklor namunalari bilan zarur ehtiyojni qondiradigan darajada tanishtirib borish eng birinchi navbatda musiqa o‘qituvchilaridan o‘z kasbiga fidoiylikini, xalq musiqa ijodiyotiga chuqur muhabbat va yuqori darajadagi kasbiy mahoratni talab qiladi. Dars jarayoniga Buxoro bolalar folklor qo‘shiqlarini samarali tadbiq etish o‘z o‘rnida bir qator vazifalarni ijobiy hal etishni ham ta’kidlash o‘rinlidir.


“Navro‘z” bayrami bilan bog‘liq bo‘lgan dasturxon bezash, sumalak, halim pishirish, ariq-zovurlarni tozalash, birinchi ko‘chat ekish, marhumlarni xotirlash, ota-ona va keksalar, nogironlarga muruvvat ko‘rsatish, qadamjolarni ziyorat qilish, shirinliklar ulashish, bir-biriga hadyalar in’om etish, mash’alalar yoqish, ariq, daryolar buyiga borish, sayllar o‘tkazish kabi udumlar odat tusiga kirib qolgan. Shuningdek, Navro‘z bayramida yetti xil (bug‘doy, arpa, no‘xat, jo‘xori, guruch, mosh, loviya)dan go‘ja tayyorlanib, qo‘ni-qo‘shnilarga ulashilgan. Bu odatlarning barchasi ramziy ma’noga ega. Xalq bu marosimlar orqali yangi yilda yog‘ingarchilikning mo‘l bo‘lishi (yog‘ingarchilik ko‘p bo‘lsa, hosil mo‘l bo‘ladi, chorva uchun esa yem-xashak serob bo‘ladi); tinchlik, farovonlik bo‘lishi, odamlar o‘rtasida mehr-muruvvat, insonparvarlik barqarorlashuviga ishora etadi.

Xalq qo‘shiqlarida hayot badiiy ramzlar orqali aks ettiriladi va shu tufayli inson qalbida estetik his-tuyg‘ular, hayajonlar, ko‘tarinki kayfiyat, rahm-shafqat, shodlik, quvonch, g‘am-qayg‘u, hasrat, nafrat paydo bo‘ladi. Shuning uchun ham xalq qo‘shiqlariga barcha yoshdagi kishilar birday murojaat qiladilar. Bolalar uchun maxsus yaratilgan bu qo‘shiq kishi ongiga ona suti bilan kiradi. Keyinchalik u tobora kengayadi, rang-barang ohanglar, xilma-xil ramzlar so‘zlar bilan mukammallashib boradi.

Xulosa. Buxoro bolalar folklor qo‘shiqlari orqali o‘quvchi-yoshlarni musiqiy madaniyatini, ma’naviy va badiiy estetik tarbiyalashning pedagogik va metodik tizimini yaratish, bugungi kungacha to‘plangan mavjud tajribalarni o‘rganish, turli viloyatlarda faoliyat yuritayotgan folklor-etnografik ansambillar faoliyatini o‘rganish, ular repertuaridagi Buxoro bolalar folkloriga tegishli namunalarni to‘plash, umumlashtirish va ta’lim jarayoniga tadbiq etish orqali musiqiy ta’limning milliy asoslarini mustahkamlashga erishish mumkin.

Aho` - aho` sulfa dorem

Xalq qo`shig`i
To`xtasin Rajabov notaga olgan



Naqarot:

Aho`, aho` sulfa dorem,

Mo govi dum kalta dorem.

Mo gova burdem ba og`il,

Og`il ba mo nuriya dod.

Naqarot.

Nuriya burdem ba zamin,

Zamin ba mo ganduma dod.

Naqarot.

Ganduma burdem ba xaros,

Xaros ba mo ordaka dod.

Naqarot.

Ordaka burdem ba lagan,

Lagan ba mo xamira dod.

Naqarot.

Xamira burdem ba tano`r,

Tano`r ba mo kulchaya dod.

Naqarot.

Kulchaya burdem ba xudo,

Xudo ba mo muroda dod.

Naqarot.

Foydalangan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyevning ma'ruzasidan O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasining 2017-yil 4 avgustda 32 (4431)-sonida chop etilgan.
2. Safarov O. O'zbek bolalar folklori.T:O'qituvchi 1985-yil.
3. D.Rajabov va T.Rajabov "Xalq qo'shig'i va musiqa ijrochiligi" Toshkent "Navro'z" nashriyoti 2018-yil.
4. 4 Tukhtasin Ibodovich Rajabov Effectiveness of the process of teaching Bukhara children folk songs in music class https://www.eurchembull.com/issue-content/effectiveness-of-the-process-of-teaching-bukhara-children-folk-songs-in-music-class-7277 ECB European Chemical Bulletin.ISSN 2063-5346 Eur.Chem. Bull. 2023, 12 (Special Issue 4), 16389-16397
5. Tukhtasin Ibodovich Rajabov Vozmojnosti sovershenst- vovaniya protsessa obucheniya uzbekiskomu muzыkalnomu folkloru Obrazovanie i innovatsionnыe issledovaniya (2023 god №7) ISSN 2181-1717(E) http://interscience.uz mejdunarodnыy nauchno - metodicheskiy jurnal
6. Tukhtasin Ibodovich Rajabov Distinctive Features of Folk Songs That Serve in The Spiritual and Moral Formation of Pupils International Journal of Culture and Modernity https://ijcm.academicjournal.io ISSN 2697-2131,Volume 29/ Jun-2023
7. Tukhtasin Ibodovich Rajabov The Role of Folk Songs in Children's Education middle european scientific bulletin ISSN 2694-9970 https://cejsr.academicjournal.io Middle European Scientific Bulletin, Volume 37 | June-2023.
8. Tukhtasin Ibodovich Rajabov Izuchenie uzbekskix folklornыx narodnыx pesen i ix psixolo- gicheskoe vliyanie. Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axbototnomasi 2 son, 2023 yil 127-130- bet
9. Tukhtasin Ibodovich Rajabov Tematicheskaya klassifikatsiya uzbekskogodetskogo muzыkalno-igrovogo folklora. 10.47689/2181-1415-vol4-iss5/S-pp340-345 «Jamiyat va innovatsiyalar» jurnali (www.inscience.uz Tom 4 № 5/S (2023): Spetsvыpusk mejdissiplinarnogo elektronnogo nauchnogo jurnala «Obщestvo i innovatsii»
10. Tukhtasin Ibodovich Rajabov Vozmojnosti sovershenstvovaniya protsessa obucheniya uzbekskomu muzыkalnomu folkloru Ilimiy-metodikalыq jurnal Muallim hem uzliksiz bilimlendirio' 2023 3/4-san *mart-aprel* Nөkis 494-504-bet
11. Tukhtasin Ibodovich Rajabov O'zbek musiqa folklorini o'rgatish jarayonini takomillashtirish imkoniyatlari. Ilimiy-metodikalыq jurnal Muallim hem uzliksiz bilimlendirio' 2023 3/4-san *mart-aprel* Nөkis 486-494-bet
12. Ражабов, Т. И. (2021). Усовершенствование научно-методических возможностей обучения бухарским детским фольклорным песням в средней общеобразовательной школе. Наука, техника и образование, (2-2 (77)), 84-86.
13. Ражабов, Т. И., & Ибодов, У. Р. (2020). Обеспечение национального наследия в обучении песням бухарского детского фольклора на уроках музыки. Вестник науки и образования, (21-2 (99)), 55-58.
14. Ражабов, Т. И. (2020). Тическая классификация узбекской детской народной музыки и игр. Наука, образование и культура, (3 (47)), 61-63.
15. Rajabov, T. I. (2023). Distinctive Features of Folk Songs that Serve in the Spiritual and Moral Formation of Bukhara Pupils. Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress, 2(3), 59-68.
16. Rajabov, T. I., & qizi Safoeva, S. S. (2022). 5-7-sinf o 'quvchilarini xalq og 'zaki ijodi vositasida musiqaga qiziqishini takomillashtirish metodik muammo sifatida. barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(10), 392-400.
17. Ражабов, Т. И. (2022). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Народные Музыки И Песни. Miasto Przyszłości, 29, 363-367.

Astankulova Dilnur Furqat qizi
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar fanlar kafedrasi tadqiqotchisi

Otaliyeva Adelya Raxmetovna
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar fanlar kafedrasi tadqiqotchisi

GIMNASTIK MASHQLAR ORQALI O'QUVCHILARNI JISMONIY QOBILIYATLARINI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya. *mazkur maqolada gimnastik mashqlar orqali o'quvchilarni jismoniy qobiliyatlarini tarbiyalashning pedagogik ahamiyati hamda, sportchilarni sport turlari bo'yicha tayyorlashda jismoniy va texnik tayyorgarlikni takomillashtirish, o'quvchilarni gimnastika sport turi orqali jismoniy qobiliyatlarini tarbiyalash bo'yicha ilmiy-nazariy ma'lumotlar o'rganilgan. Shuningdek badiiy gimnastikada qo'llaniladigan metodlar tavsifi olib borilgan.*

Kalit so'zlar: *axborot-kommunikatsiya, badiiy gimnastika, gimnastika mashqlari, maxsus mashqlar, faoliyat, sog'lomlashtirish, layoqat, optimallashtirish, metodologiya, jismoniy ish qobiliyatlari.*

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ВОСПИТАНИЯ ФИЗИЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ С ПОМОЩЬЮ ГИМНАСТИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ

Аннотация. *в данной статье исследована педагогическая значимость воспитания физических способностей учащихся с помощью гимнастических упражнений, а также научно-теоретические данные по совершенствованию физической и технической подготовки спортсменов по видам спорта, воспитанию физических способностей учащихся с помощью гимнастических видов спорта. Также была проведена характеристика методик, применяемых в художественной гимнастике.*

Ключевые слова: *информатика, художественная гимнастика, гимнастические упражнения, специальные упражнения, деятельность, оздоровление, компетентность, оптимизация, методика, навыки физического труда.*

PEDAGOGICAL IMPORTANCE OF EDUCATING STUDENTS IN PHYSICAL ABILITIES THROUGH GYMNASTIC EXERCISES

Annotation. *this article explores the pedagogical importance of educating students in physical abilities through gymnastics, improving physical and technical training in training athletes in sports, and scientific and theoretical information on educating students in physical abilities through gymnastics. Also carried out a description of the methods used in rhythmic gymnastics.*

Key words: *information and communication, rhythmic gymnastics, Gymnastics exercises, special exercises, activities, wellness, competence, optimization, methodology, physical work skills.*

Kirish. Bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan barcha sohalar qatori jismoniy tarbiyaga ham alohida ahamiyat berilmoqda. Bunga misol sifatida barcha viloyat va tuman markazlarida sport majmualarining qurilayotganligini aytish mumkin. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 3-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu borada amalga oshirilayotgan ishlarda dasturi amal bolib xizmat qilmoqda. 2018-yil 5-mart kuni Prezidentning "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan edi. Farmonga muvofiq, ilgarigi davlat qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari negizida O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tashkil etilib, uning vazifa va vakolatlari kengaytirildi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yilning 20-sentabr kuni jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazilib unda navbatdagi ishlarning va islohatlarning maqsadi hamda mazmuni belgilab berildi. Sportchilarni tanlab olish — seleksiya ishlarini takomillashtirish bo'yicha yangi tizim joriy etilib, bu o'zining dastlabki natijalarini bera boshladi.

O‘zbekiston Reespublikasining ta’lim tizimida jismoniy tarbiya va sport muhim o‘rinlarni egallagan bo‘lib, shu sohada gimnastika sport turi har bir ta’lim muassasalaridagi jismoniy tarbiya va sport ishlarining asosiy tarkibidan o‘rin egallagan. Gimnastika sport turining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo‘ladi. Bular:

1. Inson organizmining shakl va faoliyatini, jismoniy sifatlarini har tomonlama tarbiyalashga, takomillashtirishga, salomatligini mustahkamlashga, umrini uzaytirishga hamda faol yashashga xizmat qiladi.

2. Muhim hayotiy harakat, ko‘nikma va malakalari (shu jumladan, amaliy va sport ko‘nikm aiari) ni shakllantiradi va maxsus bilim lar bilan qurollantiradi.

3. Axloqiy, irodaviy va estetik xislatlarni tarbiyalaydigan, jismoniy tarbiya sohasidagi zamonaviy yangi pedagogik texnologiya, fan yutuqlari asosida yaratilgan gimnastika mamlakatimizda yanada rivojlantirilib, odamlar hayotiga keng tatbiq etilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Bolalar va o‘smirlarni jismonan hamda aqliy barkamol qilib shakllantirishda gimnastikaning o‘rni katta. Uning xilma-xil vosita va usullari boshlang‘ich jismoniy tarbiya vazifalarini bajarishda yuqori o‘rin tutadi. Bolalar va o‘smirlarda jismoniy, aqliy hamda harakat sifatlarini tarbiyalash uchun asos yaratilib, organizmni funksional, jismoniy mashqlar vositasi ta’sirida tashqi muhitga qarshilik ko‘rsatish imkoniyatlari o‘stiriladi. Gimnastikani juda katta gigienik-sog‘lomlashtirish ahamiyati bor. Qadimgi zamonning atoqli mutafakkirlaridan Gelen, Gippokrat, Plutarx, Beruniy, Ibn Sino gimnastikaning davolash va sog‘lomlashtirish vositasi sifatiga yuqori baho berishgan. O‘z zamonida rus olimlari I.M. Sechenov, I.P. Pavlov, I.N. Mechnikov, P.F. Lesgaftlar jismoniy mashqlarga, jumladan, gimnastika mashqlariga katta ahamiyat berib, «bu mashqlarni hayotiy faoliyat hamda ish unumdorligini oshirishini, organizmning kasallikka chidamliligini tarbiyalash va faol dam olishning eng yaxshi vositasi», deb tan olishgan.

Sportning bu turi bilan hamma bolalar-u kattalar, keksalar-u yoshlar, jismonan chiniqqanlar, jismoniy tayyorgarligi yuqori bo‘lganlar-u va endi boshlovchilar, sog‘lom kishilar-u hamda kasallikka chalinganlar ham shug‘ullanishi mumkin. Gimnastika bilan maktabgacha tarbiya muassasalarida, umumta’lim maktablarida, o‘rta maxsus va oliy ta’lim maskanlarida, ko‘ngilli sport jamiyatlarida, ishlab chiqarish korxonalarida, davolash va dam olish uylarida, sanatoriylarda va harbiy qismlarda shug‘ullanishadi.

Gimnastikani bunchalik keng yoyilganligiga sabab, uning mashqlari hammaga tushunarli va xilma-xilligida hamda jismoniy tarbiya fanining turli maqsad va vazifalarini bajarish uchun mashqlar ko‘lamini tanlash imkoniyatining kattaligidadir. Uning ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati beqiyos. O‘quv yuklamalarining aniq taqsimlanishi shartliligi bois, talabalar harakatlarining tahlilini keng qo‘llashda, o‘rganilgan harakat faoliyatlarini xilma-xil bajarishda, murakkablashtirilishida, harakatlarni cheksiz mukammallashtirishda, shakl va muvofiqlashtirish jihatidan turli bo‘lgan ko‘p mashqlarni o‘rganishda bularning hammasi shug‘ullanuvchilarga tana a’zolari imkoniyatini baholash va harakat faoliyatining umumiy qonuniyatlarini aniqlab olib o‘rganishga imkon yaratadi. Odamni estetik tarbiyalashning samarali vositasi hisoblanadi. Mashqlarni bajarish va namoyish etish texnikasi gimnastikaga xos uslub talab qiladigan darajada mukammal bo‘lishi uchun harakatlar ravon va ifodali bo‘lishi, mashq bajaruvchining harakatlari tomoshabinga yoqadigan, nafis bo‘lishi kerak.

Gimnastika mashqlari natijasida shug‘ullanuvchining qaddi-qomati kelishgan bo‘ladi. Gavda tuzilishidagi nuqsonlar bartaraf etiladi. Gavdaning ayrim qismlari rivojlanishida, umuman, tana shakllanishida mutanosiblikka erishiladi. Gimnastikaning pedagogik jarayondagi o‘rni yuksakdir. U bilan shug‘ullanuvchilar ongli ruhda, faollik va mehnatga ijodiy munosabatda bo‘lishi bilan ajralib turishadi. Mashg‘ulotlarni qat’iy, bir tartibda olib borilishi, ta’lim jarayonini shug‘ullanuvchilarning maksimal faolligini tashkil etish ularni intizomli qilib tarbiyalaydi. Gimnastika aqliy ta’lim bilan jismoniy tarbiya birligining yorqin namunasidir. Qo‘llaniladigan uslublar sportchilarning intellektual faoliyati faolligini rag‘batlantirish imkonini beradi. Markaziy asab tarmoqlarining moyilligini, uning mushak faoliyatini turli holatlariga moslasha olish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. P.F.Lesgaft gimnastikaning boshlang‘ich va o‘rta ta’lim maktabidagi ahamiyatining o‘rnini belgilab, bunday degan edi: «Aqliy va jismoniy ta’lim o‘zaro shunchalik chambarchas bog‘lanib ketadiki, natijada ular maktabning ajralmas maqsad va vazifasini tashkil etadi, chunki har qanday bir yoqlama tarbiya, ta’lim berishdagi uyg‘unlikni buzadi, albatta, barkamol inson bo‘lib shakilanish uchun sharoit yaratib bermaydi.

Tahlil va natijalar. Jismoniy tarbiya metodlaridan foydalanish.

So‘z metodi. So‘z metodiga 1) instruktsiya berish, 2) qo‘shimcha tushuntirish, 3) ko‘rsatma va buyruqlar, 4) Ogzaki baholash, 5) o‘z-o‘ziga gapirish va o‘z-o‘ziga buyruq berish. 6) rahbarlantirish, 7) chaqirish, xaydash, 8) so‘z orqali jabrlash, 9) umumiy buyruq, 10) tahlil qilish., 11) so‘z orqali o‘zaro munosabat, 12) mashgulotni boshqarish va h.k.

Ko‘rgazmalilikni ta’minlash metodi. Jismoniy tarbiya jaryonida ko‘rgazmalilik metodi - keng qo‘llaniladi. Bunda bevosita namoyish metodlari quyidagilarga bo‘linadi:

1) Rasm, chizma, foto rasmlar va shu kabi ko‘rgazma qurollarni namoyish etish.
2) Buyummodellar vamaketlarni namoyish etish.
3)Kino va videomagnitafonli namoyish
4) Tanlab olingan va sensor namoyish
5)Yo‘naltirilgan "sezish" harakatmetodlari
6)Orientirovkametodlari
7)Lider va kundalik sensor tartiblashtirilganmetodlar.
8) Tez informatsiyametodi, o‘yin metodi.

O‘yin metodi. O‘yin azaldan pedagogik vazifani ado etib kelgan hamda tarbiyaning asosiy vositasi va metodlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Tarbiya sohasida o‘yin metodi degan tushuncha o‘yinning metodik xususiyatlari, ya’ni tarbiyaning boshqa metodlaridan farq qiladigan tomonlarini ifoda etadi. O‘yin metodining maqsadi: darsni qiziqarli vayuqori sifatli o‘tkazish, bolalarda qiziqish uyg‘otish. Buning uchun mashg‘ulotlar o‘yin tarzda o‘tkazilishi lozim. Masalan, yugurib kelib uzunlikka sakrashda yugurib kelish, depsinish, uchish va qo‘nish fazalari mavjud. Shu uchish fazasida sanash. Kimko‘p sanasa o‘sha o‘quvchi uzoqroqqa sakraydi.

Musobaqa metodi. Jismoniy tarbiya jarayonida, musobaqa metodi mashg‘ulot o‘tkazish davomida ham, mustakil o‘yin shaklida (jismoniy tarbiya va sport musobaqalari) hamqo‘llaniladi.Musobaqa metodi bir muncha ravshan harakterlovchi xususiyat bo‘lib birinchilik yoki yuqori natijaga erishish uchun bellashuvda kuchlarni sinashdir.

Takroriy o‘zgaruvchan mashq metodi. Bu metod mashq jarayonida jismoniy yuklanish komponentlarining standart o‘zgarishi uchun ortishi bilan almashinishini xarakterlaydi. Masalan: shtangani ko‘tarish harakatning ba’zi sohalarida og‘irlik o‘zgarmaydi, lekin yangi sohalar bo‘yicha ortib boradi. Bunda dam olish intervalini Shunday o‘rnatish kerakki, bunda jismoniy yuklanishni oshirish mumkin bo‘lsin. *Takroriy taraqqiy etuvchi mashq.* Bu metodida jismoniy yuklanishning standart shaklida qayta tiklanishi uchun o‘sishi bilan almashilinadi. Masalan: shtanga bilan mashq qilinganda 2-5 marta takrorlanishdagi harakat seriyasida og‘irlik o‘zgarmaydi, lekin har bir yangi seriya bilan ortib boradi. Dam olish intervali Shunday o‘rnatiladiki, bu vaqtda yuklanishni oshirish mumkin bo‘lsin. Bu metod organizmdagi funktsional va tarkibiy tuzilishlari uzoq sodir bo‘lishi uchun ancha foydali sharoitlar yaratib beriladi.

Hozirgi paytda harakatli o‘yinlarning asosiy vazifasi o‘z mazmuni va metodikasi bilan bolalarni jamiyatimiz talablariga muvofiq ravishda tarbiyalashni ta’minlash, ularda axloqiy, irodalilik imkoniyatlarini rivojlantirish, ijodkor va bunyodkorlarga xos bilim, ko‘nikma hamda malakalarni, o‘quvchilarga xos xarakterli xususiyatlarni sifatlarni shakllantirishdan iboratdir. Harakatli o‘yinlarini o‘rganish, ishtirokchilarning o‘zaro munosabati va xulqi o‘yin tanlashda uni ta’limiy vazifalariga mos kelishini, shuningdek, o‘yinda pedagog bosh rolni o‘ynashi lozimligini ko‘rsatib o‘tadi. Shu bilan birga P.F.Lesgaft harakatli o‘yinlarning vazifasi va rolini aniqlab, asosiy uslubiy ko‘rsatmalarni keltiradi, o‘yin materiallarini ikkita guruhga bo‘ladi. Bular 1-guruh oddiy o‘yinlar, 2-guruh murakkab o‘yinlardir. P. F.Lesgaft harakatli o‘yinlarni sistemali tarzda va muntazam ravishda o‘tkazish, qatnashuvchilarning faolligi v a mustaqilligini oshirishga harakat qilish zarurligini uqtirgan edi. O‘yin pedagogik omil bo‘lishi uchun unga pedagogik vazifa ongli va maqsadga muvofiq ravishda bog‘lanishi, undan tarbiyaviy maqsad hamda vazifalarni hal qilish uchun foyd.F.Lesgaft o‘zining jismoniy mashqlar tizimida o‘yinlarni jismoniy tarbiya vositasi sifatida ifodalaydi. O‘yin yordamida bola hayotga tayyorlanishni aytadi. P.F.Lesgaftning harakatli o‘yinlarni o‘tkazish uchun qo‘ygan talablari hozirgi paytgacha o‘z kuchini yoki ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q, chunki u har bir o‘yin oldiga aniq maqsadlar qo‘yishi, o‘tkazilayotgan o‘yinlar qatnashuvchilarning kuch va qobiliyatlariga mos kelishi, o‘yin bilan shug‘ullanuvchilarga ijobiy emotsional ta’sir ko‘rsatishi lozimligini alanilishi shart.

Milliy xalq o‘yinlariga xos xususiyatlarning boyligi ham ularda xilma-xil tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi.

Sinov nazorat mashqlari.

Tadqiqotlarni tashkil qilish va o‘tkazish jarayonida jismoniy tarbiya darslari va qo‘shimcha to‘garak mashg‘ulotlarida quyidagi testlar ya’ni sinov nazorat mashqlari orqali o‘quvchilar jismoniy tayyorgarligi aniqlandi.

1-jadval

Mashqlar nomi	Bajarilish tartibi
Turnikda tortilish	Baland yoki past turnikda tortilish mashqlari bajariladi. Bunda qo‘llar elka kengligida ochilib, tortilayotganda oyoqlarni juft holatda ushlash hamda tortilganda turnikni to‘siniga bo‘yin to‘liq kelishi kerak. Bu mashq ikki xil usulda bajariladi ya’ni oddiy tortilish va siltangan holatda tortilish orqali amalga oshiriladi.
Brusda tayanib qo‘llarni bukib yozish	Bu mashqda qo‘llar elka brusiya kengligida ochilib, uning to‘sinlaridan mahkam ushlanadi va gavdani to‘g‘ri ushlab, qo‘llarni bukib yoziladi. Mazkur mashqni bajarish paytida qomatni to‘g‘ri tutish, oyoqlarni juft holatda keltirish hamda qo‘llarni bukib yozayotganda brusiyani to‘siniga qo‘ltiq to‘liq kelishi kerak.
Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik uchun mashqlar.	Bunda 1-mashqda 2 daqiqa davomida qo‘llar bosh ortida birlashgan holatda o‘tirib turish. Mashqni bajarish jarayonida to‘liq tik turish va o‘tirish talab etiladi. 2-mashqda yotgan holda qo‘llar bosh ortida gavdani ko‘tarib tizzani boshgacha olib kelish. 3-mashqda 1-3 km gacha vaqtga va vaqtsiz yugurish.
Muvozanat saqlash mashqlari	Muvozanat saqlash mashqlarini bajarish jarayonida quyidagicha mashqlar bajariladi, ya’ni yakkacho‘p (brevno) ustida bir oyoqda “Qaldirg‘och” turish qo‘llarni yonga uzatib 1-2 daqiqa ushlab turish, kuraklarda tik turish, 15-20 metr masofaga yon tomonga qo‘llarni oldinma-ketin polga tayantirib oyoqlarni siltab halqa singari gavdani aylantirish mashqlari bajariladi.

Xulosa va tavsiyalar. gimnastikaning asosiy vazifalari va uslubiy xususiyatlari, maktabda gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil qilish va o‘tkazish, maktab o‘quvchilariga gimnastika mashqlarini o‘rgatish uslubiyati, gimnastika mashqlarini o‘rgatishga oid harakatli o‘yinlar kabi masalalar ko‘rib chiqildi hamda atroflicha yoritib berildi. Bu borada kuch, chidamlilik va tezkorlik qobiliyatilarini rivojlantirishga qaratilgan umumiy va maxsus mashqlarni tashkil qilish hamda o‘tkazish jarayonlari ilmiy asarlar, o‘quv va boshqa metodik qo‘llanmalardan mavzuga mos jihatlarini tahlil qilindi hamda o‘rganildi. Maktabda gimnastika bilan shug‘ullanuvchi o‘quvchilarda barcha jismoniy sifatlarni namoyon bo‘lishi ko‘rib chiqilgan manbalardan ma’lum bo‘ldi. Shuningdek o‘quvchilar ko‘pincha qo‘rquv, himoya refleksi tormozlanishi engishga majburlovchi xavfli elementlarni o‘zlashtirishga to‘g‘ri kelar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 2023-y.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.Toshkent “O‘zbekiston” – 2017-y.
3. Sh.Mirziyoev Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2016-y.
4. Sh.Mirziyoev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi.“O‘zbekiston” NMIU, 2016-y.
5. Atoev A.K. Oilada o‘quvchilar jismoniy tarbiyasining nazariyasi va amaliyoti.- T.: O‘qituvchi, 1992
6. Maxkamdjanov K.M, Nasriddinov F.N «Maktabgacha va maktab yoshidagi o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligini takomillash», O‘quv qo‘llanma Toshkent 1996
7. K.Mahkamjanov, R. Salamov, I.Ikromov “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi”, T.: "IQTISOD-MOLIYA" nashriyoti, 2008

Hakimov Firuz Norboy o‘g‘li
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: firuzbek.hakimov1994@gmail.com

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MAZMUNI VA O‘RNI

Annotatsiya. *Maqolada yangilanayotgan O‘zbekistonda ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning dolzarbligi, mazmuni va uning mohiyati, mexanizmlari hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalaridan foydalanish yo‘llari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli texnologiyalar, boshqarish, mexanizmlar, umumiy o‘rta ta’lim hamda ta’lim texnalogiyalari.*

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ СРЕДНИМ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМ УЧРЕЖДЕНИЕМ

Аннотация. *В статье освещается актуальность цифровых технологий в управлении образовательными учреждениями в современном Узбекистане, ее содержание и сущность, механизмы и способы использования цифровых технологий в управлении общеобразовательными учреждениями.*

Ключевые слова: *цифровые технологии, управление, механизмы, общее среднее образование и образовательные технологии.*

THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE MANAGEMENT OF GENERAL SECONDARY EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract. *The article highlights the relevance of digital technologies in the management of educational institutions in modern Uzbekistan, its content and essence, mechanisms and ways of using digital technologies in the management of educational institutions.*

Key words: *digital technologies, management, mechanisms, general secondary education and educational technologies.*

Kirish. Xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik ishlarini yo‘lga qo‘yish va salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishlar bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 28-yanvar kungi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-sonli Farmoni bilan 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda[1].

Hozirgi kunda ta’lim-tarbiya jarayonlarda o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan koplab o‘qitish texnologiyalari va treninglardan keng qo‘llanilmoqda. Jumladan: muammoli ta’lim, hamkorlikda o‘qitish, loyiha, keys, ish faoliyatini ifodalovchi turli o‘yinlar, treninglar, bahs-munozaralar (nuqtai nazar, tok shoular) ni tashkil qilish va hokazolardir [2].

Butun dunyoni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish barcha sohalarga jadal kirib bormoqda. Shu jumladan ham O‘zbekiston respublikasi ta’lim tizimini yanada rivojlantirish va mexanizmlashtirish bo‘yicha Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ko‘p bora ta’kidlab aytib kelmoqdalar. Bugungi kunda ta’lim sohasini strategik boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish va yo‘lga qo‘yish bo‘yicha keng ko‘ramli ishlar yo‘lga qo‘yilib kelinmoqda[3].

Ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlaridan global va tarqalgan ma’lumotlardan oqilona va refleksli foydalanish bo‘yicha ko‘nikma va savodxonlikni egallash malaka va mahoratiga erishishga imkon beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Tadqiqot jarayonida muammoga doir siyosiy, falsafiy, analiz va sintez, ta’limda menejment, sotsiologik, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish va tahlil etish; SWOT ta’lim texnologiyasi, modulli sxemalar, sotsiometrik metodlar (anketa, intervyu, suhbat); pedagogik eksperiment; natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz olimlari U.Inoyatov, A.Xo‘jayev va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. Rus olimlaridan Manko Sergey Alekseyevich, Plaxova Lyubov

Mironovna, Nashemuk Anjela Vladimirovna, Korovkin Dmitriy Vyacheslavovich, Pogrebnyak Lyubov Pavlovna va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘z ifodasini topgan.

Raqamli texnologiyalar bilan ishlash ularni rivojlantirishga refleksiv va tanqidiy, shu bilan birga izlanuvchan, ochiq va kelajakka qaratilgan munosabatni talab qiladi. Biz aniqlagan texnologiyalar o‘quvchilarning ta’lim faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantiradi, ularning mantiqiy va ijodiy fikrlashini hamda raqamli kompetensiyasini rivojlantiradi.

Natija va ilmiy yangilik. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha kutilayotgan ilmiy yangiliklar:

1. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb pedagogik muammo ekanligi asoslanadi.
2. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonining mavjud holati va bu sohadagi ilg‘or xorijiy tajribalar tahlil qilinadi.
3. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish usullari, yo‘llari, metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish.
4. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishga oid tajriba-sinov ishlari tahlil qilinadi hamda uning samaradorlik darajasi aniqlanadi.
5. Nazariy qoidalar, ijtimoiy-iqtisodiy sohaning raqamli transformatsiyasini boshqarish metodologiyasi va amaliy vositalarini ishlab chiqish;
6. Raqamli platformalarni yaratish va rivojlantirishga asoslash.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

✓ umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqaruvning turli darajalarida axborot tizimlari va texnologiyalarini ko‘rib chiqish;

✓ umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini axborot tizimlari va texnologiyalari bilan ishlashning o‘rganilgan usullari va mustaqil hal qilish qobiliyatini rivojlantirish;

✓ umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqaruv maqsadlarida muayyan axborot texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish;

Ushbu maqolada biz umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish, raqamli texnologiyalarga asoslangan maktabdagi o‘zgarishlarga umid va ishonch bog‘lash hamda o‘qitishda texnologiyadan foydalanishning haqiqiy holati o‘rtasidagi tafovutni bartaraf yetishimiz kerakligini ta’kidlaymiz.


Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish zarurati quydagilar:

• umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda o‘quv materiallari va zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta’minlash uchun tarmoqli dasturlash algoritmili modullar asosida o‘qitish;

• umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda platformalarini shakllantirish va zamonaviy dasturiy texnologiyalaridan foydalanish tamoyillarini ishlab chiqish;

• umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda ta’lim texnologiyalari bilan ta’minlash hamda test monitoringi protseduralari va dasturiy ta’minot uchun metodologiyani ishlab chiqish.

Muhokama. Shuni ta’kidlash kerakki, ta’lim muassasasini raqamli texnologiyalardan foydalangan holda boshqarilsa, uzluksiz ta’lim jarayonni o‘rnatilgan tartibda va ta’lim muassasasini boshqarish tizimini sifat jihatidan yangi formatga, ya’ni raqamli holatga o‘tkazishni tashkil etishga qaratilgan harakatlar majmuidir. Harakatlar to‘plami haqida gapirganda, biz ta’lim tashkiloti rahbarlari va maktab o‘qituvchilarining harakatlari to‘plamini nazarda tutamiz. Ushbu jarayon boshqaruv faoliyatini shakllantirishning asosiy tamoyillariga asoslangan boshqaruv modeli yordamida eng yaxshi tarzda amalga oshirilishi mumkin [1] (rasm.



Boshqaruv faoliyatining barcha darajalarida raqamli ta’lim texnologiyalarni joriy etish ta’lim muassasasini boshqarishdan tortib o‘quv jarayonini boshqarishgacha bo‘lgan keng istiqbollarni ochib beradi. Axborotga ega bo‘lish, uni qayta ishlash va uni qabul qiluvchiga, xususan o‘quv jarayoni ishtirokchilariga etkazish samarali boshqarish va natijada sifat jihatidan yangi pedagogik texnologiyalarni olish va qo‘llash shartidir. Bir qator mualliflarning fikriga ko‘ra, ta’lim jarayonini boshqarishda axborot texnologiyalaridan foydalanish boshqaruv faoliyati sifatini yaxshilash va madaniyatini oshirishga, dinamik rivojlanish sharoitida moslashuvchan ish rejimini ta’minlashga yordam berdi.

Raqamli texnologiyalar o‘qitish va o‘qitish formatini o‘zgartirib, axborotni ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi bog‘lovchi vositaga aylantiradi.

Xulosa. Dunyoda shunday davr keldiki, ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish salohiyati va jamiyatning ilmiy darajasi kompyuterlarning umumiy quvvati va axborotni qayta ishlashning texnologik mukammalligi bilan belgilanadi. Ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish axborotni qayta ishlash qobiliyatini oshiradigan prinsipal jihatdan yangi ishlab chiqarish modulli dasturlar va texnologiyalari bilan jihozlash va rivojlantirishni talab qiluvchi eng muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 6108 - sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yildagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-sonli Farmoni.

3. Dexkonova M.U., “Issues to increase the efficiency of pedagogical activity in higher education” Sciences of Europe (Praha, Czech Republic) VOL 2, No 72 (2021). ISSN 3162-2364.

Джуманиязова Тамара Адамбаевна
Ўзбекского государственного университета
физического воспитания и спорта Нукусский филиал
доцент кафедры теории физического
воспитания и гуманитарных наук

ОСОБЕННОСТИ ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ЮНЫХ СПОРТСМЕНОВ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ГИМНАСТИКЕ

Аннотация. *В данной пословице рассказывается об особенностях физического развития юных спортсменов в художественной гимнастике, разработана специальная методика прыжковой тренировки, соответствующая особенностям художественной гимнастики и участвующих в ней спортсменов. Кроме того, теоретически изучаются различные точки зрения на упражнения в современной художественной гимнастике.*

Ключевые слова: *художественная гимнастика, гимнасты, соревнования, тренировки, гигиена, индивидуально-психологический профиль индивидуальные типологические особенности, активность, внимание, воля, спортивные игры.*

BADIIY GIMNASTIKADA YOSH SPORTCHILARNING JISMONIY RIVOJLANISHINING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu naqolada badiiy gimnastika va unda ishtirok etuvchi sportchilarning xususiyatlariga mos keladigan maxsus sakrash mashg‘ulotlari metodikasini ishlab chiqiligan hamda badiiy gimnastikada yosh sportchilarning jismoniy rivojlanishining xususiyatlari haqida so‘z boradi. Bundan tashqari zamonaviy badiiy gimnastikadagi mashqlar haqida turli xil qarashlar nazariy jihatdan o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *badiiy gimnastika, gimnastikachilar, musobaqalar, mashg‘ulotlar, gigiena, individual psixologik profil individual tipologik xusussiyatlar, faoliyat, diqqat, iroda, sport o‘yinlari.*

FEATURES OF THE PHYSICAL DEVELOPMENT OF YOUNG ATHLETES IN RHYTHMIC GYMNASTICS

Annotation. *This event will talk about rhythmic gymnastics and the development of a special jumping training methodology corresponding to the characteristics of the athletes participating in it, as well as the features of the physical development of young athletes in rhythmic gymnastics. In addition, various views on exercises in modern rhythmic gymnastics are theoretically studied.*

Key words: *rhythmic gymnastics, gymnasts, competitions, training, hygiene, individual psychological profile individual typological features, activity, attention, will, sports games.*

Введение. Успехи лидеров отечественной художественной гимнастики на мировом помосте - это результат труда целой плеяды тренеров, ученых и всех специалистов, осуществляющих подготовку спортсменок в различных регионах России. В стране сложилась научно-обоснованная технология подготовки гимнасток высокой квалификации. Расширяется география детских спортивных школ, где культивируется этот красивейший вид спорта. Отрадно, что тренерский корпус пополняется молодыми педагогами. Наша задача развивать художественную гимнастику в дальнейшем по естественному и логическому пути, следуя девизу Олимпизма: «Быстрее! Выше! Сильнее!». Современная система подготовки и воспитания спортсменок в художественной гимнастике, предъявляя высокие требования к профессиональному уровню тренеров и специалистов, объему их фундаментальных знаний и практических навыков в области теории и методики спортивной тренировки, педагогики, требует постоянного обновления и совершенствования методического обеспечения подготовки кадров. На основе многолетних научных исследований, обобщения опыта работы тренеров России по художественной гимнастике специалистами Университета физической культуры, спорта и здоровья имени П. Ф. Лесгафта было конкретизировано содержание программы спортивной подготовки в современных условиях развития вида спорта, которое может явиться ориентиром в подготовке не только гимнасток на различных ее этапах, но специалистов обеспечивающих эффективность данного

процесса. Основные положения программы, освещенные в данном пособии, позволяют скорректировать процесс профессиональной подготовки спортивных педагогов в вузе с учетом запроса практики и создают условия для подготовки конкурентно способных спортсменок, удерживающих лидирующие позиции на мировой гимнастической арене.

Анализ литературы. В современной спортивной науке наработано значительное количество подходов, направленных на оказание психологической помощи спортсменам, в которых представлен разнообразный комплекс средств и приёмов, используемых в разных направлениях, уровнях, подходах, содержании и организации подготовки: Г. Д. Горбунов, Е. П. Ильин, Ю. Я. Киселев, А. В. Родионов, Г. И. Савенков, В. К. Сафонов, Л. К. Серова, В. Н. Смоленцева, В. Ф. Сопов, Н. Б. Стамбулова, Б. П. Яковлев и др.

При этом с решением одних вопросов появляются новые. В последние годы наиболее острыми проблемами в подготовке спортсменов являются: взаимоотношения в треугольнике спортсмен - тренер - родитель; остро стоит проблема мотивации спортсмена к спортивному совершенствованию при доступности многообразия развлечений; отмечаемый тренерами инфантилизм к самосовершенствованию спортсменов; отсутствие единой методологии психологической подготовки в спорте вообще и в конкретном виде спорта в частности; и др.

Особенностью соревновательной деятельности в художественной гимнастике является наличие субъективной измерительной системы, выраженной в экспертной оценке компонентов исполнительского мастерства гимнасток (сложность, композиция, техническое и артистическое исполнение).

Для современной художественной гимнастики характерны следующие тенденции:

- рост сложности соревновательных композиций спортсменок в индивидуальных и групповых программах;
- каскадный способ и динамичность выполнения соревновательных программ индивидуальных и групповых упражнений;
- увеличение объемов тренировочной работы;
- околопредельная реализация индивидуальных возможностей гимнасток;
- оптимальная сбалансированность двигательных действий гимнасток (работа всеми частями тела и предметами);
- увеличение объема специальной подготовки в общем объеме тренировочной работы;
- увеличение числа соревновательных дней в годичном цикле и продолжительности соревновательного периода;
- многочисленные победы российских гимнасток на международных встречах, чемпионатах Европы, мира и Олимпийских играх;
- быстрое распространение эффективной технологии подготовки высококвалифицированных гимнасток в мире вследствие привлечения специалистов из России, Болгарии, Беларуси, Украины и других стран;
- появление на международной арене спортсменок из стран, где художественная гимнастика не была традиционным видом спорта (Япония, Корея, Кипр, Египет, Бразилия, Англия, Таиланд и др.);
- повышение квалификации тренеров в мире;
